


XALQARO BANK ISHI VA MOLIIYA



TOSHKENT



90
TBIU

026.2
336

T-52

I.R. TOYMUXAMEDOV, R.R. TOJIYEV,
N.G. SATTOROVA.

~
026.2
336
T-50


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

I.R.TOYMUXAMEDOV, R.R.TOJIYEV, N.G'.SATTOROVA.

XALQARO BANK ISHI VA MOLIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent-2021

U O'K : 336. 5(07)
KBK 65.262.1

I.R.Toymuxamedov, R.R.Tojiyev, N.G'.Sattorova. Xalqaro bank ishi va moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021, 400 bet.

ISBN 978-9943-7393-3-8

"Xalqaro bank ishi va moliya" nomli o'quv qo'llanma mazkur fan bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada xalqaro banklar faoliyati va operatsiyalarining paydo bo'lish mohiyati, ularning sabablari, rivojlangan xorijiy mamlakatlar bank tizimi faoliyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda xalqaro bank sektori faoliyatini baholash va boshqarish jarayonlari, xorijiy mamlakatlar tijorat banklari faoliyati va ulardan O'zbekiston bank tizimini samarali faoliyatini tashkil etishda foydalanishni takomillashtirish yo'llari kabilar o'z ifodasini topgan.

Учебное пособие под названием «Международное банковское дело и финансы» подготовлена на основе утвержденной учебной программы курса. В учебном пособии освещены сущность деятельности и операций международных банков, и причины из возникновения, деятельность банковской системы зарубежных стран и их особенности, оценка и управление международным банковским сектором, деятельность коммерческих банков в зарубежных странах и использование их опыта в банковской системы Республики Узбекистан.

A manual entitled "International Banking end finance" has been prepared on the basis of the approved curriculum of the course. The manual highlights the content of the essence of the activities and operations of international banks, the reasons for th YIr emergence, activities of the banking system of for YIgn countries and th YIr features, assessment and management of the international banking sector, activities of commercial banks in for YIgn countries and the use of th YIr experience in the banking system of the Republic of Uzbekistan.

U O'K : 336. 5(07)
KBK 65.262.1

Mas'ul muxarrir:

N.X.Jumayev – i.f.d., professor.

Taqrizchilar:

J.X.Ataniyazov – i.f.d., professor, Toshkent moliya instituti "Xalqaro moliya" kafedrasi mudiri;
A.A.Temirov – i.f.n., dotsent, TDIU "Korporativ boshqaruv" kafedrasi dotsenti.

ISBN 978-9943-7393-3-8

© "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021.

MUNDARIJA

Kirish.....	6
I BOB. GLOBALIZATSIYA VA XORIJIY FIRMALAR. XALQARO VALYUTA TIZIMLARI.....	9
1. 1. Xalqaro bank ishi va moliya nazariyasi. Xalqaro bank faoliyatining rivojlanish omillari.....	9
1. 2. Xalqaro bank operatsiyalarining turkumlanishi.....	14
1. 3. Banklarning korrespondentlik munosabatlari va bank hisob-kitoblari texnologiyasi.....	26
1. 4. Yangi bank xizmatlarining paydo bo'lishi, turlari va ularni joriy qilish yo'llari	33
II BOB. BANK FAOLIYATINING DIVERSIFIKATSIYASI VA XALQARO MOLIIYA TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	43
2. 1. Bank faoliyatining baynalmiqlashuvi shart-sharoitlari va omillari. Transmilliy banklarning (TMB) tashkiliy tuzilishi.....	43
2. 2. TMBlar faoliyatining asosiy turlari.....	51
2. 3. TMB faoliyatida risklarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Ofshor bank faoliyatining paydo bo'lishi.....	55
2. 4. Moliyaviy konglomeratlar va bank xoldinglari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.....	65
III BOB. MOLIIYAVIY INQIROZ: 2007–2008-YILLAR.....	68
3. 1. Jahon moliyaviy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari.....	68
3. 2. Rivojlangan mamlakatlarda jahon moliyaviy inqirozidan chiqish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlili va diversifikatsiyalash siyosatining ahamiyati....	77
3. 3. Rivojlanayotgan va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari Inqirozga qarshi choralar dasturi.....	86
3. 4. Jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy inqirozdan chiqarilgan xulosalar.....	102
IV BOB. "YEVROHUDUD"DA YEVROBOZORNING VUJUDGA KELISHI VA DEBET INQIROZI.....	109
4. 1. Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar.....	109
4. 2. Yevrokredit bozori.....	114
4. 3. Yevrovalyutadagi qimmatli qog'ozlar bozori.....	118
4. 4. Yevroobligatsiyalar muomalasi	
4. 5. Yevropa valyuta tizimi: iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini barpo etish muammolari	125
	132

V BOB. MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALAR: XALQARO RIVOJLANISH ISTIQBOLI XALQARO MOLIVA-KREDIT TASHKILOTLARI VA ULARNING FAOLIYATI	162
5. 1. Banklararo korrespondent munosabatlar xalqaro bank biznesining amalga oshirish shakli sifatida.	162
5. 2. Xalqaro hisob-kitoblar mazmuni va amalga oshirish tartibi.....	165
5. 3. Xalqaro hisob-kitob shakllari va uning turkumlanishi.....	169
5. 4. SWIFT tizimi orqali xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish.....	178
VI BOB. BANKLARNI TARTIBGA SOLISH	186
Xalqaro bank faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va	
6. 1. zaruriyati. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi va uning funksiyalari.....	186
6. 2. Bazel qo'mitasining bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha asosiy talablari va ularning rivojlanishi.....	189
6. 3. Bazel-III talablarini joriy etish bosqichlari.....	191
6. 4. Moliyaviy barqarorlikni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar.....	198
VII BOB. VALYUTA BOZORI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	203
7. 1. Jahon moliyaviy markazlari va valyuta bozori tushunchasi.....	203
7. 2. Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari	210
7. 3. Valyuta bozorlarining turlari.....	227
7. 4. "Spot" operatsiyalari.....	234
7. 5. Muddatli valyuta operatsiyalari. Forvard, Fyuchers, Opsion, SWOP operatsiyalari	245
VIII BOB. GLOBAL QARZDORLIK VA UNING MAMLAKAT UCHUN XAVFI	286
8. 1. Xalqaro kredit iqtisodiy kategoriya sifatida.....	286
8. 2. Xalqaro kreditning shakllari.....	290
8. 3. Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari.....	302
8. 4. Xalqaro to'lov balansi tushunchasi va tarkibi.....	309
8. 5. To'lov balansining ko'rsatkichlari va uning moddalarini tasniflash usullari	317
8. 6. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va uni muvofiqlashtirish ...	335
IX BOB. ISLOM BANK TIZIMI.....	347
Islom banklarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Islom moliya	
9. 1. institutlarining an'anaviy moliya institutlaridan farqli tomonlari...	347

Islom moliyaviy instrumentlari: mushoraka (Musharakah),	
9.2. mudoraba (Mudharaba), murobaha (Murabaha), ijara (Ijara),	
Qard ul-Hasan (Qard-ul-Khasan)	349
9.3. Islom bank mahsulotlari va ularning turlari.....	353
9.4. Islom bank faoliyatida risklarni boshqarish.....	357
X BOB. HOZIRGI ZAMON XALQARO BANK ISHI VA	
MOLIYANING DOLZARB MUAMMOLARI.....	364
10.1 Xalqaro bank faoliyatidagi risk turlari va ularning turkumlanishi	364
10.2 Kredit, bozor va operatsion risklarning kapital yetarliligini	
hisoblashdagi o'rni va ahamiyati.....	369
10.3 Likvidlik riskini boshqarish usullari.....	374
10.4 Valyuta riski va valyuta pozitsiyasini boshqarish. Moliyaviy	
derivativlar va risklarni boshqarish.....	378
10.5 Xalqaro hisob-kitoblardagi risklarni boshqarish...	383
Glossariy.....	388
Foydalanilgan adabiyotlar	397

KIRISH

Bank tizimi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank tizimida faoliyat yuritish uchun zarur ko'nikma va bilimlarni egallash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Banklarning xalqaro moliya bozoridagi faoliyatini tartibga solish va fond bozori kapitalizatsiya darajasini, ishtirokchilarning, shu jumladan, xorijiy investorlarning investitsion faolligini ushlab turish murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu muammolarni samarali yechimi xalqaro moliya bozorida banklarning raqobatbardoshligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidiligi, investorlar uchun jalbdorligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, "Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim.

Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak.

Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur."¹, deb ta'kidlaganlar.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining xalqaro moliya bozoridagi faoliyatining yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidiligi ta'minlaydi. Banklarning xalqaro moliya bozoridagi faoliyati turli xil qimmatbaho qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar,

¹ Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi. 29-dekabr. 2020-yil.

davlat qarzdorlik majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksell va boshqalarga mablag'larini qo'yish hamda xalqaro kreditlar orqali amalga oshiradilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakat bank tizimini xalqaro miqyosga chiqishi va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarini takomillashtirish maqsadida tijorat banklarining xalqaro operatsiyalarini rivojlanishini ta'minlash borasida respublika tijorat banklari oldida turgan muammolarni har tomonlama tahlil qilish va bu borada ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy va xalqaro banklarning faoliyati, ularning operatsiyalari turlari va ularni nazorat qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roli, xalqaro banklarining kreditlash jarayoni va u bilan bog'liq risklar, xalqaro banklar faoliyatini boshqarishning asosiy bo'g'inlari va muammolari, rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari passivlari va aktivlarini boshqarish, O'zbekiston bilan xalqaro banklari munosabatlarini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarini qamraydi.

Shunga ko'ra "Xalqaro bank ishi va moliya" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanmaning vazifasi talabalarga xalqaro bank ishini nazariy va amaliy jihatlarini ko'rsatishdan iborat.

Talabalar tomonidan "Xalqaro bank ishi va moliya"dan o'quv qo'llanmani o'zlashtirish orqali xalqaro banklar faoliyati va operatsiyalarining paydo bo'lish mohiyatini amaliy tomondan o'rganishlari va ularning sabablari bilib olishlari; xalqaro bank sektori faoliyatini baholash va boshqarish jarayonlarini o'rganishga, xorijiy mamlakatlar tijorat banklari faoliyati va ulardan O'zbekiston bank tizimi bilan samarali faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini hamda bunda informatsion-texnologiyalarning rivojlanishidan keng foydalana olishlari uchun ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

"Xalqaro bank ishi va moliya" fani 5A230701 – Bank ishi va auditi mutaxassisligida tanlov fani hisoblanib, xalqaro bank faoliyatini rivojlanishini rejalashtirish va bashorat qilish, ulardagi risklarini kamaytirish va baholashning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, rivojlangan mamlakatlar banklar faoliyatining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va tadqiq qilish, ular faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobi, ularni baholash, tashkil

qilish va ulardagi mavjud tajribalardan O'zbekiston bank tizimida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Bank ishi va auditi" yo'nalishi bo'yicha magistraturadagi bir qator mutaxassisliklarda, jumladan, 5A230701 – "Bank ishi va auditi", 5A230702 – "Bank hisobi va audit", mutaxassisliklarida va 5A230603 – "Investitsiyalarni boshqarish" mutaxassisligida o'qitiladi. Lekin mazkur qo'llanma "Bank ishi va auditi" yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan magistratura va bakalavriat talabalari, iqtisodiyot va bank kollejlari talabalari, mustaqqil tadqiqotchilar hamda bank xodimlari uchun foydali bo'lishi mumkin.

I BOB. GLOBALIZATSIYA VA XORIJIY FIRMALAR

Reja:

1.1 Xalqaro bank ishi va moliya nazariyasi. Xalqaro bank faoliyatining rivojlanish omillari.

1.2 Xalqaro bank operatsiyalarining turkumlanishi.

1.3 Banklarning korrespondentlik munosabatlari va bank hisob-kitoblari texnologiyasi.

1.4 Yangi bank xizmatlarining paydo bo'lishi, turlari va ularni joriy qilish yo'llari.

Tayanch iboralar

Bank strukturasi, bank depozitlari, ssudalar, bank vakolatxonasi, bank bo'limi, Savdo eksporti kompaniyalari, Edja haqidagi Qonun, Xalqaro bank shahobchalari tizimi, Qo'shma korxonalar, chet el valyutasi, mahalliy jamlanma hisob raqamlar, universal banklar, ixtisoslashgan banklar, Markaziy bank, Yevropa Ittifoqi umumiy Standarti.

1.1. Xalqaro bank va moliya nazariyasi. Xalqaro bank faoliyatining rivojlanish omillari

Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotda emas, bank faoliyati sohasida ham jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Endilikda jahon miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro banklar mutlaqo boshqacha tamoyillar asosida tuzilib, ish olib bormoqdalar.

Xorijiy mamlakatlarda ko'p yillardan beri bank-moliya tizimiga nihoyatda katta ahamiyat berib kelinadiki, texnika va texnologiyalarni tatbiq etish bilan bugungi kunda bu tizim nihoyatda rivojlanib takomillashdi. Bu sohada tezroq muvaffaqiyat qozonish uchun shu davrga qadar to'plangan hozirgi davr boshqaruviga doir mujassamlashgan bilimlardan foydalanish zarur. Bularni takomillashtirish, amaliyotga kiritish, foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida aholining ko'pchilik qismi, davlat va davlat tashkilotlari, korporativ mijozlar tijorat banklari xizmatlaridan foydalanadilar. Iqtisodiy tamoyil va normativ qonunchilikka amal qilib, faoliyat ko'rsatayotgan bank tizimi iqtiso-

diyotni rivojlantirishga va milliy valyutani barqarorlashuviga olib keladi.

Xalqaro bank tushunchasi va uni nazariy tomonlarini o'rganish bo'yicha bir necha asrlardan beri iqtisodchi olimlar faoliyat olib boradilar. Masalan, Rossiya Moliya Akademiyasi professori E.Jarkovskayaning fikriga ko'ra, xalqaro banklar – jahon iqtisodiyotining o'ziga xos “qon tomiri” bo'lib, ularsiz zamonaviy jahon xo'jalik mexanizmini tasavvur qilish mumkin emas. Bu tizimni turli xo'jalik subyektlari, xalqaro kompaniyalar, chet el investorlari shakllantirib, pul va unga tenglashtirilgan qiymat resurslari muomalada bo'ladi.

D. Polfremen va Filip Fordlar o'zlarining “Основы банковского дела” o'quv darsligida: “Xalqaro banklar – ular, o'zlaridagi kapitallar bilan boshqa davlat subyektlarining moliyaviy ehtiyojini qondiruvchi moliyaviy vositachilardir” deb ta'kidlaydilar.

O'zbekistonda bank tizimi mustaqil davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Bugungi kunda bank tizimi xalqaro talablarga javob beruvchi asosda shakllanib, faoliyat yuritmoqda.

Albatta, xalqaro banklar o'z faoliyati samaradorligini oshirishda iqtisodiy tamoyillarga amal qilishi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliyaviy institutga aylanadi.

Har bir davlat o'z hududida bo'lgan va hududidan tashqaridagi mahalliy banklari barqarorligiga alohida e'tibor qaratadi. “Xalqaro bank ishi” fanining maqsadi ham jahon xo'jaligida xalqaro banklarning tutgan o'rnini o'rgatishdan iborat. Shu bilan birga, “Xalqaro bank ishi” fanining xalqaro iqtisodiy munosabatlarda jahon banklarining tarixan shakllanishi, zamonaviy tuzilishi va operatsion faoliyati bilan tanishtiradi, ular faoliyatini taqqoslashga o'rgatadi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, iqtisodiyotning korxonalar, tashkilotlar, aholiga bevosita xizmat ko'rsatadigan mustaqil subyektlari bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklari pul mablag'larining harakatlanish jarayonini tashkil etish bilan o'z mijozlari: yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirib, bu mablag'larini eng foydali tarzda joylashtirilishini ta'minlaydi. Xorijiy markaziy banklarning roli umuman qonun yaratuvchilik, tartibga soluvchilik, emission faoliyat, kredit tizimining barqarorligini qo'llab-quvvatlash va shu kabilardan iborat.

Hozirgi bank amaliyotida bank turini belgilaydigan ikkita asosiy mezon qo'llaniladi:

1. Resurslarni jamlash usuli — o'z bo'limlariga ega va o'z bo'limlariga ega bo'lmagan, ssuda sarmoyalari bozorlarida (banklararo, pullik, obligatsiyali) mablag'larni jalb etuvchi banklar ana shu usulga qarab farqlanadi.

2. Banklarning faoliyat sohasi — milliy yoki xalqaro hajmda, ya'ni (norezidentlar bilan bank operatsiyalarining hajmi balansi umumiy summasining 1/3 qismidan ortiq bo'ladigan holatda).

Ko'rsatilgan mezonlar bank mijozlari tarkibi, mahsulotlar va xizmatlar turkumi, shuningdek, uning tashkiliy tuzilmasini shakllantirishda belgilovchi omillar hisoblanadi.

Banklar faoliyati tamoyillarining mavjud tasnifi ularning universallashtirish va ixtisoslashuv yo'nalishlari bo'ylab rivojlanishining ikkita asosiy tendensiyasini belgilaydi. Bank operatsiyalarining yo'nalishi milliy iqtisodiyot, kredit va pullik munosabatlar, kreditlar va moliya bozorlarining rivojlanishi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Universallashtirish banklar:

- bozorning barcha segmentlarida faoliyat ko'rsatadi va o'z mamlakatida va chet ellarda asosiy operatsiyalarning hamma turlarini o'tkazadi, o'z mijozlari — jismoniy va yuridik shaxslarni jahon amaliyotida ma'lum bo'lgan barcha mahsulot va xizmatlar turlari bilan ta'minlaydi;

- bo'limlar tarmog'iga ega bo'ladi va mijozlar hamda kontragentlardan katta resurslarni jalb qiladi.

Ixtisoslashgan banklar:

- bozorning bir segmentida (mijozlar, xizmatlar, hudud) faoliyat ko'rsatadi;

- bo'limlarga ega bo'lmashligi ham mumkin.

Ba'zi iqtisodchilar fikriga ko'ra, rivojlanayotgan bozor sharoitida ixtisoslashgan banklar ancha samarali ishlaydi. Universal bank faoliyati operatsiyalar, mahsulotlar va xizmatlar diversifikatsiyasi hamda bank operatsiyalarini ta'minlash uchun zaxiralarni shakllantirish bilan bog'liqki, bu, o'z navbatida, katta hajmdagi o'z mablag'larini va aktivlar hamda passivlarning balanslashtirilgan

tarzdagi boshqariluvini talab qiladi.

Shuni qayd qilish maqsadga muvofiqi, universal banklar bilan ixtisoslashgan banklar o'rtasidagi tafovut chakana (retail) va ulgurji (wholesale) operatsiyalar o'rtasidagi farqi, shuningdek, filiallar tarmog'iga ega banklar yoki bo'lmagan banklar o'rtasidagi farq bilan belgilanmaydi.

Bankni faoliyatini rivojlantirishda xorij banklari segmentlash uslubiyotidan foydalanadilar. Bunday uslubiyot bank faoliyatida eng oddiy turlar ro'yxatini tuzish va so'ngra ularni quyidagi mezonlarga muvofiq ravishda bir xildagi guruhlariga solishdan iborat bo'ladi:

- mijozlar;
- raqobatchilik;
- texnologiya.

Mutaxassislar bu guruhlarini strategik faoliyat sohalari deyishadi, amaliyotchilar esa ixtisoslashish deb ataydi.

So'ngra bu faoliyatning har bir sohasi moddiy, kishilik resurslarini va nou-xauni aniqlash maqsadida batafsil tahlil qilinadi. "Nou-xau" atamasi (inglizcha know how — bilish, qanday so'zidan) ko'nikmalar, bilimlar, tajribaning mavjudligini anglatadi. Ko'rsatilgan resurslar muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi. Bunda banklar faoliyatning o'zaro bir-birini to'ldiradigan sohalarini rivojlantirishning maqsadga muvofiqligini hisobga oladilar va bunda asosiy ixtisoslashuvni, faoliyatning hamma turlari ichida texnologiya bilan eng yaxshi tarzda jihozlangan turni ajratib ko'rsatishadi.

Bank faoliyatini segmentlash, qayd qilinganidek, mablag'larni jalb qilish usuli va faoliyat yuritish joyini tanlashni, shuningdek, mijoz omilini — yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatilishi hamda "bank mahsuloti" mezonini — uy-joy uchun kreditlash, iste'molchilik maqsadlaridagi kreditlash va boshqalarni o'z ichiga oladigan har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari faoliyatida yo'nalishlarni, mahsulotlar va xizmatlar turkumini belgilab, o'zlarining raqobatchilik ustunliklarini belgilashadi.

Raqobatga qobiliyatlilik belgilariga quyidagilar kiradi:

- Bank sektori ichidagi raqobatchilikni (bank ishi sohasidagi ixtisoslashuvni) belgilash. Bank tovarlari va xizmatlari bozorlariga

yoki ta'sir ko'rsatish zonalariga kirib borishlarning cheklanishlarini belgilash orqali muvozanatga erishiladi.

- Yangi raqiblarning paydo bo'lishi mumkinligini o'rganish.
- Mahsulotlar o'rini bosuvchi tovarlarni taklif qilishlarni baholash (bevosita moliyalashtirish bilan bilvosita moliyalashtirish o'rtasidagi raqobatchilik).

- Ishonchli mijozlar bazasini saqlab qolishga intiluvchi bank bilan operatsiyalardan foyda ola biladigan "kuchli" mijoz omilini baholash.

Bank o'z faoliyatini rejalashtirishda o'zining kuchli tomonlarini aniqlaydi:

- hurmat-ehtiromga sazovor nufuz;
- qayishqoq tashkiliy tuzilma va menejment xizmati;
- sifatli faoliyatni ta'minlashning texnik usullarini mohirona egallaganlik;

- agentliklarning keng tarmoqlariga ega bo'lish va boshqalar.

Hozirgi tijorat banklari menejmentning sifatini oshirishga katta e'tibor berishadi, bu quyidagilarni anglatadi:

- hamma uchun tushunarli bo'lgan oddiy farmoyishlar yo'li bilan jamoaga va safarbar etish uchun yetarli mavjud resurslarga rahbarlik qilish va ularni boshqarish qobiliyati;

- qarorlar bilan umumiy tartib o'rtasidagi muvozanatni tutib turish.

Banklar kuchli va zaif tomonlarni aniqlagach, o'z faoliyat sohasini, potensial mijozlarini, xizmatlar ko'lamini tanlashga kirishadi.

Bank faoliyatining yo'nalishlarini tanlash ko'p jihatdan bankning raqobatchilik ustunliklariga va faoliyat turining jozibadorligiga bog'liq bo'ladiki, ular o'z navbatida, quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- potensial, yangi yoki rivojlanayotgan bozorlardagi bank mahsulotlari va xizmatlariga talab-ehtiyojning mavjudligiga;
- xarajatlarga nisbatan foyda olishning istiqbollarga;
- ushbu tarmoqdagi raqobatchilikning intensivligiga;
- bank ishi tomon kirib borishni cheklovchi to'siqlarga.

1.2. Xalqaro bank operatsiyalarining turkumlanishi

Bank faoliyatining rivojlanishi, moliyaviy va texnika resurslaridan samarali foydalanilishiga qarab o'zining raqiblariga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, universal va ixtisoslashgan banklar faoliyati boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, universal banklar mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalash, faoliyat sohasini kengaytirish, innovatsion mahsulotlarni gorizontaal bo'yicha (jo'g'rofiy rivojlanish) o'zlashtirish yo'li bilan o'z taraqqiyotini ta'minlaydilar. Universal banklar faoliyatning turli tuman yo'nalishlarini yuritishadi, talabga ega bo'lmagan yo'nalishlardan voz kechishadi va istiqbolli yo'nalishlarni rivojlantirishadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan, "intizomli" bank sektoriga ega mamlakatlarda universal bankning ixtisoslashgan bankka nisbatan o'z tavakkalchiliklarini taqsimlashi ancha yengil kechadi, chunki zararlarni boshqa sektorlar hisobiga qoplash imkoniyati bo'ladi.

Ixtisoslashgan banklar faoliyatning bir sohasi bilan cheklanmaydi. Ular mijozlar bilan ishlar ekan, kuch-g'ayratlarini ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratadi. Ixtisoslashgan banklar faoliyati shuni ko'rsatdiki, ular rentabellidir, chunki universal banklarga nisbatan kamroq sondagi tavakkalchiliklarni sug'urta qilishadi. Ixtisoslashgan bank yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lib, o'zi uchun universal bank maqomidan ham yuksakroq baholanadigan, universal bankka nisbatan ancha tor doiradagi mahsulotlar turkumini ta'minlaydigan "mutaxassis" imijini yaratadi. Bunda, odatda, ular yuqori kutilgan qiymatga ega bo'ladi (mol-mulkni boshqarish, moliyaviy injiniring), sifat va innovatsiyaga ko'proq e'tiborni qaratadiki, bu taklif etiladigan mahsulotlar cheklangan miqdorda bo'lganida talabni qondirish uchun ayniqsa zarur. Odatda, kichik va o'rtacha banklar resurslarni jalb etishning cheklangan imkoniyatlariga ega bo'lgach, ixtisoslashuv faoliyatini tanlashadi.

Bank faoliyat sohasini tanlagach, o'zining ushbu sohadagi o'rnini tanlashga o'tadi: uning raqiblariga nisbatan faoliyat rejasi belgilanadi.

Banklarning pozitsiyani tanlashining har xil variantlari:

yetakchi bo'lish, yetakchilik qilishga da'vogarlik, o'rta hollik holatida bo'lishi mumkin.

Yetakchi bo'lishdan maqsad bank faoliyatining aniq sohasida birinchilardan biri bo'lish niyatidan iborat bo'ladi. Banklar maqsadga erishganidan keyin egallagan o'rnini saqlashga intilishadi. Yetakchi pozitsiyasi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanib, keng miqyosdagi taniqlilik, munosib imijni keltiradiki, bu nafaqat potensial mijozlarni, shu bilan birga bank xodimlarini ham rag'batlantiradi, bunda xodimlar o'z kuchlarini qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun safarbar qilishadi.

Bank yetakchilik holatini saqlab qolish uchun rivojlanish, pozitsiyalarni himoya qilish siyosatini o'tkazishi zarur.

Faoliyatning rivojlanishi ichki va tashqi o'sishda amalga oshiriladi. Qayishqoq, tashkiliy tuzilma negizida mijozlar bilan munosabatlarni intensivlashtirish ichki o'sishga yordam beradi. Tashqi o'sish hozirgi bozor sharoitlarida boshqa kredit institutlari bilan qo'shib ketishlar bilan bog'liq. Bunday usul ancha jadal, yangi bozorlarga, faoliyatning yangi sohalari, yangi jo'g'rofiy mintaqalarga kirib borishni yengillashtiradigan usul hisoblanadi.

Bank pozitsiyalarining himoyasi bank mahsulotlari sifatini takomillashtirish, moliyaviy innovatsiyalar bilan bog'liq.

Yetakchilik qilishga da'vogarlik bankning istiqbolida banklarning raqobatchilik sohasidagi yetakchilik qiluvchi guruhiga kirib olish niyatini belgilaydi.

Bank rolini bundan keyin yanada oshirishga tayyorgarlik uning zaif tomonlarini: eskirgan bank mahsulotlari, mijozlarning qamrab olinmagan segmenti, agentliklar tarmog'ining noto'g'ri tashkil qilinganligi va boshqalarni aniqlash uchun yetakchi holatini teran tahlil qilish negizida amalga oshiriladi. Jahon amaliyotiga shu narsa ma'lumki, yuksak darajada to'yingan yoki o'sishning past sur'atlariga ega bozorlarda o'z ishtirokini kengaytirish faqat raqiblar hisobiga, birinchi navbatda, yetakchi hisobiga amalga oshirilishi mumkin. So'ngra bank o'z kuch-g'ayratlarini o'zining zarur moliyaviy, kasbiy va texnologik resurslar bilan ta'minlash, bozorning boshqa sektorlarida amal qiladigan boshqa banklar yoki korxonalar bilan aloqalarni o'rnatishga yo'naltiradi. Tijorat banki

shu maqsadda o'z sarmoyasida moliya-sanoat guruhining ishtirok etishiga yo'l qo'yadi yoki boshqa bir bankni o'z nazorati ostiga oladiki, bu o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Yetakchilik qilishga da'vogar oldindan tayyorgarlikni o'tkazar ekan, yetakchiga hujum uyushtiradi. Yoppasiga hujum amalga oshiriladi, bunda yetakchi qatnashadigan hamma bozorlardagi pozitsiyalarni egallab olish uchun barcha vositalar: tajovuzkor reklama kampaniyalari, narx-navo qirg'inlari va boshqalar safarbar qilinadi.

Ba'zan harakatlarning "partizancha" usullari ishga solinadi. Yetakchilik qilish uchun da'vogar yetakchining faqat zaif pozitsiyalariga hujum qiladi, "parchalab tashlash" strategiyasidan maksimal foydalanadi. Yetakchilik qilish uchun da'vogarlik tavakkalchilik bilan bog'liq, chunki yetakchi qarshilik ko'rsatadi. Shu sababli tayyorgarlik ishlari bosqichiga katta e'tibor qaratiladi.

"O'rta hollik" varianti o'zining bozordagi ulushini kengaytirishga emas, balki asosan foydani ta'minlashga qaratiladi. Ayrim banklar o'zlarini yetakchi rolini egallay olmaydigan deb bilishadi, "yetakchilik qilish uchun da'vogar"lik esa juda ko'p tavakkalchilik bilan bog'liq. Biroq, "o'rta hollik" bank bozorda passivlik qilmaydi: u nima qilib bo'lsa-da bozorga ilinib qolish ilinjida raqiblarining monitoringini o'tkazadi, ularning harakatlariga tijoratchilik nuqtayi nazaridan baho beradi, yangi mahsulotlarni va texnologik ta'minotni joriy qiladi. Bunday banklar o'z mijozlarini ushlab qolishga urinib, ularga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishga harakat qilishadi. "O'rta hollik" banklar yetakchi bilan orasidagi masofani tutib turish uchun o'z afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlashga intilishadi.

Umuman olganda, bank faoliyatini rivojlantirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Bank faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bank rahbariyati izchil shug'ullanishadiki, bu pirovard muvaffaqiyatni kafolatlaydi.

Bank faoliyatini rejalashtirish uning butun mexanizmini qo'yilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlashga o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan o'zgartirishlarning obyektiv zarurligi (hayotning o'zi taqozo etgan) va rahbariyatning uni takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Professional gorizontga qarab uch-besh yillik biznes-reja tuziladi, bunday reja kredit tashkilotining vazifalari, maqsadlari va bozor siyosatining aniq, ifodasini o'z ichiga oladi. Jahon amaliyotida biznes-rejaning: bank faoliyati haqidagi umumiy axborotlar, rivojlantirish istiqbollari bayoni, boshqaruv tizimlari, uning faoliyatini har tomonlama ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalarni o'z ichiga oladigan namunaviy tuzilmasi qo'llaniladi. Biznes-rejaga kredit instituti balansining hisob-kitobi, uning aktivlari va passivlari, daromadlari va xarajatlari tarkibi, faoliyatning boshqa iqtisodiy o'ziga xos xususiyatlarining prognozi ilova qilinadi.

Faoliyatni rejalashtirish rivojlanayotgan bozor sharoitida alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bank rahbariyati bankni boshqarishning samarali vositasi — to'g'ri tashkil etilgan rejalashtirish negizida mashaqqatlarni izchillik bilan bartaraf qilishdan foydalangani holda tanazzulli munosabatlarning murakkab shart-sharoitlariga barham berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Moliyaviy-iqtisodiy tangliklar oqibatlarini o'zida sinab ko'rgan rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tanglik sharoitidagi bank faoliyatini rejalashtirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarur:

- harakatlarning hujumkorligi (eson-omon qolish uchun muhim bo'lgan muammolarni birinchi navbatda, so'ngra — muhimlarini va boshqalarni hal qilish);

- ustuvor yo'nalishlarni belgalash (muammolarning bir tizimda qayd qilinishi). Bank ishi uzluksiz faoliyat ko'rsatishi jarayonini qo'llab-quvvatlashga bevosita ta'sir ko'rsatadigan zaif bo'g'inlar va jiddiy elementlarni belgilash, aniq, vaqti muddatlarni belgilagan xolda izchil xatti-harakatlarning puxta rejasini tuzish;

- dasturlar, modellar, ssenariylarni ishlab chiqish (real imkoniyatlar va ahvolning salbiy tomonga qarab o'zgarishini hisobga olish asosida);

- qarzlarning tartibga solinishiga ta'sir qiladigan tashqi va ichqi omillar ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, o'zgartirishlarni o'z vaqtida kiritish.

Bank faoliyatini rejalashtirish uning imkoniyatlari, istiqbollari

va umumiy iqtisodiy jihatlarini ko'rishdagi natijasi bo'ladi. Bank faoliyatining alohida bosqichlarga bo'lib boshqarilishi, ularning kamchiliklari va afzalliklarini, chiqimlar va natijalarni aniqlash, so'ngra tahlilning ayrim segmentlarini yagona axborot kompleksi qilib jamlash kredit institutlari faoliyatining istiqbollarini belgilashga nisbatan kompleks yondashuv negizida faoliyatning samarali natijalariga erishishga yordam beradi. Bank faoliyatida ajoyib bir segmenti mavjudki, u bank marketingidir va u bo'yicha qisqacha to'xtalamiz.

Bankning hozirgi sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun o'z vazifalarining hal qilinishiga samarali yondashuv talab qilinadiki, bu xo'jalik yuritishning marketing konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning hozirgi sharoitida banklar marketing xizmatlarining turli-tumanligi mavjud. Hozirgi bank faoliyatini tashkil etish uchun eng xarakterli bo'lgan qarorlar xususida to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Novatorlik (innovatsion) xizmatlari

Iste'molchilar hozirda bank xizmatlarining standartlari bilan bog'lamaydigan yangi banklar yoki o'z imijini o'zgartirish niyatidagi banklar tomonidan foydalaniladi. Banklar raqobatchilik afzalliklariga erishish va novator bank degan imijni mustahkamlash maqsadlarida yangi mahsulotlar, texnologiyalar, yangi kadrlardan foydalanishadi.

Yangi bozorlarga tajovuzkorlik hujumi

Bankning yangi bozorlar, boshqa mintaqalarga chiqib olish niyati va o'zining yangi bozordagi ishtirok etish ulushini kengaytirish uchun barcha vositalarni tajovuzkorlik bilan qo'llanishi. Odatda, bunday marketing dasturlari investitsiya strategiyalari bilan birga qo'shib olib boriladi.

Diversifikatsiyalash xizmatlari

An'anaviy tusda operatsiyalar va bank xizmatlarining alohida turlari bilan ishlaydigan va raqobatchilik sharoitida mijozlar bazasini saqlab qolish maqsadida ularni kengaytirish niyatidagi ixtisoslashgan banklar tomonidan qo'llaniladi.

Bozorning bank bilan zaruriy teskari aloqasini tashkil etish uchun kredit institutining maxsus xizmati bankning bozordagi ahvolining monitoringi bilan shug'ullanadiki, bu marketing strategiyalarini amalga oshirish usullari va muddatlariga talab qilinadigan o'zgartirishlar kiritilishiga olib keladi.

Operatsion zalda an'anaviy tusdagi xizmat ko'rsatish

Bankning chakana xizmatlarini tarqatish, shuningdek, hisob-kitob xizmatlarining katta hajmini yoki ularni olish uchun ixtisoslashtirilgan shart-sharoitlarni talab qilmaydigan korporativ mijozlar bilan ishlash uchun qo'llaniladi.

Bank — mijoz telekommunikatsiya tizimi

Hozirgi vaqtda banklar va ular filiallaridan olis masofalarda joylashgan yoki bank xizmatlarining katta hajmlarini olishga muhtoj korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun keng qo'llaniladi.

Bank xizmatlarining mijoz hududida taqdim etilishi

Valyuta almashtirish shoxobchasining ochilishi, korxona xodimlari bo'lgan mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha to'lov va hisob-kitob operatsiyalarining ta'minlanishi va boshqalar. Inkassatsiyaning ayrim turlari bunday xizmatlarga misol bo'ladi.

Bank xizmatlarining pochta, telefon, telefaks yoki kompyuter tarmoqlari orqali taqdim etilishi

Mijozlarga xizmat ko'rsatishning bunday shaklining qo'llanilishi vaqtning "tejalishi"ga yordam beradi va istiqbolli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bunday operatsiyalarning xavfsizligini ta'minlash tizimlari — ovoz, tasvirning muallifini aniqlash, kodlashtirish va boshqalar bank amaliyotiga tatbiq etilmoqda.

Bankomatlar va mualliflashtirilgan terminallar tizimi

Plastik kartochkalardan foydalangan holda turli moliyaviy, ijtimoiy, savdo dasturlarining ishlab chiqilishi va qo'llanilishi. Mijozlar bilan hisob-kitoblar qilishda ularga qulaylik yaratish va milliy to'lov tizimlarini xalqaro standartlar darajasida qo'llab-quvvatlab turish uchun qo'llaniladi.

Valyutani almashtirish shoxobchalari

Xalqaro transport uzellari, mehmonxonalar va shu kabilarda mijozlarning valyutani almashtirishga doir ehtiyojlarini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy tanazzul

sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatishning bunday usuli alohida katta qiziqish uyg'otadi va rivojlantirishga arziydi.


Odatda, ko'rsatilgan bo'limlar xizmatchilari mijoz bilan uchrashganida uning bankda olishi mumkin bo'lgan xizmatlar, ularni olish shartlari, ularning afzalliklari va foydasi haqida ularni xabardor qilishadi, shuningdek, ushbu xizmatlarni xarid qilish yuzasidan aniq, qadamlar qo'yishni taklif etishadi. Bank xodimi muzokaralar yakunida mijozga bankning tegishli xizmati yoki filialiga murojaat qilishni tavsiya etadi va mijozning ehtiyojlarini qayishqoq tarzda ta'minlash yo'lini yanada qidirish va o'zaro manfaatlarni amalga oshirish uchun yana uchrashish to'g'risida oldindan kelishib oladi.

Xalqaro bank tizimini xalqaro valyuta-kredit munosabatlari pozitsiyasidan bir nechta tabaqaga bo'lish mumkin.

1. *Xalqaro moliyaviy va bank operatsiyalari* o'z tarkibiga Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa Taraqqiyot va Rivojlanish banki (YTRB) va boshqa tashkilotlar faoliyatini oladi. Bu tashkilotlarning funksiyalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), OESR va boshqa milliy organlar tomonidan belgilangan. Xalqaro tashkilotlar, asosan, Jahon valyuta tizimini tartibga solish, rivojlanayotgan davlatlarga va iqtisodiy inqiroz hamda nochor ahvolga tushib qolgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishdan iborat.

2. *Markaziy banklar* davlat manfaatini himoya qiladi, turli davlatlarda har xil darajada mustaqil, ammo doimo davlat manfaatidan kelib chiqib harakat qiladi va davlat funksiyasiga doir vazifalar bajaradi. Rivojlangan davlatlarda markaziy banklar, belgilangan tartibga asosan hukumatga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunmaydi, lekin o'z faoliyatini hukumat faoliyati bilan muvofiqlashtiradi. Markaziy bankning muhim funksiyalari valyuta kursini tartibga solish, mamlakatning oltin-valyuta zaxirasini boshqarish, tijorat banklari, pul emissiyasi va bank tizimini kreditlash ustidan nazoratni olib borishdan iborat. Ko'pgina mamlakatlarda Markaziy bankka (ba'zi bir davlatlarda Milliy bank deb yuritiladi) davlat qarzini boshqarish, valyuta nazorati va boshqa vazifalar yuklatilgan.

3. *Global transmilliy banklar* butun jahon bo'ylab keng tarqalgan filiallari va "sho'ba" banklari mavjud. Ulardan har biri jahonning barcha moliyaviy markazlarida amal qiladi va global miqyosda o'z mijozlariga kompleks moliyaviy xizmatning barcha turlarini ko'rsatishadi. Odatda, ularning mijozlari turli davlatlarning hukumatlari va yirik transmilliy kompaniyalar (TMK) hisoblanadi. Bu guruhga, odatda, o'rta hisobda 100 bank kiradi. Ularning birinchi o'ntasi, milliardlab shaxsiy kapitaliga ega va ularni tarkibi quyidagi jadvalda ko'rsatiladi:



1.1-rasm. Jahonda o'ta yirik aktivga ega bo'lgan transmilliy banklar (TMB) (mlrd. dollarda)²

Jahonda aktivining miqdori jihatidan o'ta yirik bo'lgan ro'yxatdagi 100 ta global bank va moliyaviy kompaniyalarning ikkita birinchi o'rini Yaponiya kompaniyasi egallaydi, ular qo'shilish natijasida tashkil topgan: Mizuho Holdings va Sumitomo Mitsui Banking. Bu ro'yxatda jami bo'lib 11 o'rinni yapon kompaniyalari egallagan.

Shuningdek, bu ro'yxatda Yevropa moliyaviy kompaniyalarining o'rni 53 taga yetdi. Shundan 11 tasi – Buyuk Britaniyada, 9 tasi – Germaniyada va 8 tasi – Fransiya joylashgan.

Yevropaning eng yirik moliyaviy kompaniyasini nemislarni Deutsche Bank va Allianz kompaniyalari tashkil etadi.

Amerika moliya kompaniyalari ushbu ro'yxatdan 26 ta o'rinni egallagan. AQSHning eng yirik kompaniyasi Citygroup hisoblanadi va

² Internet saytlari orqali topilgan.

ro'yxatda uchinchi o'rinni egallagan. Sakkizinchi o'rinni J.P.Morgan Chase egallagan, u J.P.Morgan Chase va Chase Manxattan kompaniyalarining qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan. Bu global banklarni ulushiga bank aktivlarini yarmiga yaqini to'g'ri keladi.

4. *Yirik transmilliy banklar* moliviy markazlarda va Ofshor zonalarida o'zining vakolatxonalari, filiallari yoki sho'ba banklarini ochishgan. Yirik transmilliy va global banklar yoki umuman turli xil guruhdagi tijorat banklari o'rtasidagi chegara yoki tafovut juda ko'p va ular ancha chalkash hamdir. Global va transmilliy banklar qatoriga 500 taga yaqin banklarni qo'shish mumkin, ular barcha bank aktivlarining 85 %ini nazorat qilishadi. 13 ta yirik moliyaviy markazlarda hozir 1000 taga yaqin global va transmilliy banklarning filiallari va vakolatxonalari ishlab turibdi, ularning ko'pchiligi rivojlangan davlatlarda joylashgan.

5. *Milliy banklar*, asosan, o'z davlatlarining teritoriyalarida amal qiladi. Gohida ular xorijiy davlatlarda vakolatxonalari va filiallarini ochishadi, bir so'z bilan aytganda, bular ham nisbatan uncha katta bo'lmagan transmilliy banklar hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda bir-ikki vakolatxonasi yoki filiali bo'lgan banklar milliy banklar guruhiga kiradi. Transmilliy banklar soni unchalik katta emas. Misol uchun, Amerikadagi 15 ming banklari ichida 150 tasi (yoki jami banklarni 1%i) transmilliy hisoblanadi. Milliy banklar, belgilangan tartibga asosan xorijiy banklar bilan keng korrespondentlik tarmog'iga ega bo'lishadi.

6. *O'rta va kichik regional, tarmoq va ixtisoslashgan banklar*, odatda, o'zining regionini yoki tarmog'i doirasida amal qiladilar. Ko'p hollarda bu banklar xalqaro valyuta bozorlariga va Yevrobozorga mustaqil ravishda chiqishmaydi. Bu guruhdagi banklar barcha milliy banklar bilan va ko'rgazma uchun xorijiy banklar bilan korrespondentlik munosabatlarini o'rnatgan bo'lishadi. Jami bo'lib rivojlangan davlatlarda 28 mingtaga yaqin banklar bo'lsa, shundan katta qismi shu guruhdagi banklar qatoriga kiradi.

7. *Ofshor banklar* dunyo bank tizimida yana bir muhim guruhni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda ular juda keng tarqalgan. Ularsiz transmilliy banklarning operatsiyalarining birontasi ham amalga oshirilmaydi. Ofshor banklar, ofshor kompaniyalari singari o'z oldilariga maqsad qo'yib tuziladi. Ulardan eng asosiysi – soliqli to'lanishini minimallashtirish.

Ofshor banklar quyidagi o'ziga xos tomonlarga ega:

- bankni ro'yxatdan o'tkazgan davlatlarni rezidentlari bilan ishlash huquqiga ega emaslik;

- ro'yxatdan o'tish uchun to'lanadigan ustav kapitali miqdori, boshqa davlatlarga nisbatan ancha past bo'ladi;

- bank soliq to'lovlaridan to'liq ozod etilgan bo'ladi;

- ofshorda rezerv saqlash va boshqa bank normalari bo'yicha talablar, boshqa davlatlarga nisbatan juda ham kam talab etiladi, davlatdan tashqari operatsiyalar bo'yicha valyuta nazorati butunlay mavjud emas.

Quyidagi ofshor banklar Jahon iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega: Men, Gernsi va Jersi orollari, Bagam orollari, Sent-Kristofer va NYVIS Federatsiyasi, Niderlandiyaning Antil orollari, Arubi (Italiya mafiyasining an'anaviy makoni), Kayman orollari, Karib davlatlariga tegishli Terksa va Kaykosa orollari, Britaniyaning Virgin orollari, ofshor biznesining beshigi hisoblangan Panama va nihoyat bizga yaqin bo'lgan Kipr davlati. Keyingi vaqtda ofshor biznesi dong'i chiqqan Shveysariyaning xususiy banklari orqali keng rivojlanmoqda.

Kayman orollarida 500 dan oshiq ofshor banklar va 1300 ta sug'urta kompaniyasi, jahonning 50 ta yirik banklarini 43 ta filial va sho'ba banklari ro'yxatdan o'tkazilgan. Kayman orollaridagi bank filiallarida to'plangan depozit omonatining jami miqdori astronomik summaga yetib, 150 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Gonkongda xorijiy banklarning 1,5 mingdan oshiq filiallari amal qilmoqda.

Hozirgi sharoitda Jahon transmilliy kapitalining bironta ham moliyaviy chizmasi ofshor banklarini ishtiroksiz, umuman amalga oshirilmaydi.

Jahon bank tizimi o'zida butun planeta tarmog'ini mujassam aks ettiradi, uning bo'g'inlarida – xalqaro moliyaviy markazlar – yirik TMB va uning filiallari to'plangan (yoki yig'ilgan). Har bir global va yirik TMB o'zining filial tarmoqlari va sho'ba banklariga ega hamda ular jahon davlatlarining katta qismida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu tarmoqlar tizimdagi moliyaviy oqim uchun magistral quvur xizmatini o'taydi. Transmilliy va, eng avvalo, milliy banklarga hududiy va tarmoq banklari korrespondentlik munosabatlari tizimi orqali ulangan, ularni soni juda ham ko'p.

Xalqaro faoliyat ma'lum bir tashkiliy ishlarni talab etadi. Odatda, bankning bosh ofisida ixtisoslashgan *xalqaro departament* amal qiladi. Unchalik katta bo'lmagan banklarda bo'lim yoki guruh bo'lishi mumkin.

Endi banklarni xorijiy vakolatxonalari, filiallari va sho'ba banklari faoliyatini tahlil qilishga o'tamiz.

1. *Xorijiy vakolatxonada*, odatda, shtatlar uncha katta bo'lmaydi, bitta tajribali mutaxassis va kotibdan iborat bo'ladi. Ular mahalliy banklar bilan korrespondentlik munosabatlari to'g'risida kelishishadi, mahalliy moliya bozori to'g'risida ma'lumot yig'ishadi. Ba'zi bir davlatlarda xorijiy banklarni filiallari va vakolatxonalari ochilishi taqiqlangan. Ko'pincha vakolatxonalar ishi filial ochilishi bilan davom etadi.


2. *Xorijiy bank filiallari* o'zining operatsiyalari bo'yicha mustaqil banklarga o'xshab ketadi. Ular mustaqil ravishda xodimlarni jalb qiladi, depozit va omonatlar qabul qiladi, kreditlar beradi va mahalliy moliya bozorida ish yuritadi. Filiallar ota bank (bosh bank) topshirig'i bo'yicha xalqaro operatsiyalarni amalga oshiradi. Biror bir davlatda filial ochish uchun qabul qilayotgan davlatni hukumati va markaziy banki ruxsatnomasi bo'lishi zarur.

Ba'zi bir davlatlarda xorijiy banklarning filiallariga ma'lum bir operatsiyalar taqiqlangan. Misol uchun, AQSH xorijiy banklarining filiallari uchun, Federal Rezerv Tizimining (FRT) majburiy zaxira talabi, filialdagi jalb etilgan depozitlar uchun sug'urta bo'yicha Federal korporatsiyaning majburiy sug'urta tartibi qo'llanilmaydi va ular bo'yicha sug'urta mukofoti to'lashning keragi yo'q.

AQSHda 1981-yildan boshlab, bosh ofisda AQSH hududida joylashgan, xorijiy banklarning filiallari *xalqaro bank birligi* (XBB) deb nomlanadigan, maxsus hisob ochish huquqiga ega. Bu XBB hisobida yevrodollar depozitlarini qabul qilish va yevrodollar kreditlarini berish mumkin, bunda FRT zaxirasi talab etilmaydi va FK sug'urta depoziti talabi bo'yicha sug'urta qilinmasdan amalga oshirish mumkin. XBB operatsiyalari faqat xorijiy rezedantlar bilan amalga oshiradi va kreditlar faqat AQSH territoriyasidan tashqarida ishlatilishi mumkin. Depozitlarni minimal miqdori XBB uchun 100 ming dollar darajada belgilangan.

Ofshor zonasida gohida shell-filial (shell branch) deb ataluvchi filial tuziladi, u mustaqil amal qiladi, bosh ofisda amalga oshirilayotgan operatsiyalar uchun yuridik asos bo'lib xizmat qiladi, xolos. Ular mahalliy bankirlar tomonidan nominal boshqariladi, chunki ular bosh ofis orqali real rasmiylashtiriladi hamda yevrodepozit qabul qilish va yevrokredit berish bo'yicha "pochta qutisi" sifatida ishlatiladi. AQSH transmilliy banklarining 70 foizida o'zlarining shell-filiallari mavjud.

Xalqaro bank operatsiyalarini to'rtta katta guruhlarga bo'lish mumkin:



1.2-rasm³. Xalqaro bank operatsiyalari va xizmatlari

³ Xorijiy mamlakatlarda bank ishi. E.T.Qodirov, J.K.Majidov. O'quv qo'llanma/ T. 2016. 184- bet.

Xalqaro sho'ba banklari yuridik jihatdan mustaqil banklar hisoblanadi, ularni nazorat paketi "ota" bank amal qilayotgan davlatga qarashli bo'ladi. Bulardan farqi shundaki, qo'shma bankda "ota" bank nazorat paketiga ega bo'lmaydi va nazoratni boshqa banklar va kompaniyalar bilan bo'lishadi. Ko'pchilik yirik transmilliy banklar, qayerda xorijiy filiallar ochilishi taqiqlangan davlatlar bo'lsa, filiallari va sho'ba banklarini tuzish orqali harakat qiladilar. Ammo keyingi yillarda transmilliy banklar tizimida sho'ba va qo'shma banklarni ulushini ko'payishi tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Sho'ba banklar "ota" bankdan umumiy direktivalar, normativlar va limitlar olishadi xolos.

To'rtinchi guruh turli tuman bank xizmatlarini tashkil qiladi va ular *xalqaro nokredit operatsiyalari* deb ataladi. Hozirgi paytda bu zamonaviy banklarga bu xizmatlar sezilarli darajada daromad keltiradi. Buning tarkibiga valyuta, fond va derivativ bozorlardagi ishlar hamda anderryting, moliyaviy konsalting, moliyaviy bozor marketingi va boshqalar kiradi.

1.3. Banklarning korrespondentlik munosabatlari va bank hisob-kitoblari texnologiyasi

Korrespondentlik munosabatlari deganda, banklarning ma'lum rejimda informatsiyalarni almashishi, hisob-kitob raqamlarini ochish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga kelishib olishlar tushuniladi. Korrespondentlik kelishuvi ikki tomonlama shartnoma shaklida yoki xatlarni almashish yo'li bilan tuziladi. Korrespondentlik munosabatlari hisob-kitob raqami ochmasdan ham amalga oshirilishi mumkin, unda ishlar informatsiya almashish bilan chegaralanadi, xolos. Banklarning korrespondentlik hisob raqami rejimi korxonalarni hisob-kitob raqami rejimi singari joriy hisob raqami hisoblanadi.

Korrespondentlik munosabati o'rnatilganda, banklar bank nomidan hujjatlarni imzolash vakolatiga ega bo'lgan shaxsning imzo nusxalari hamda elektron imzo va elektron usulda hujjatlarni yetkazishda imzo o'miga ishlatiluvchi pul o'tkazish (teleks) kaliti bilan almashadilar. Korrespondentlik munosabati o'rnatilgan har bir bank uchun, odatda, maxsus "dosye" ochiladi hamda unda barcha zarur hujjatlar saqlab boriladi.

Banklar xorijiy korrespondentlik banklarini tanlashda unga o'ta astoydil yondashishadi. Hammadan avval ushbu davlatda bank tomonidan korrespondentga bo'lgan ehtiyoj inobatga olinadi. U, odatda, bu davlatga bank mijozlarining qiziqishi bilan asoslanadi. Tanlanadigan nomzod bankning bugungi kundagi faoliyati va moliyaviy jihatdan mustahkamligi hamda o'ta barqarorligi astoydil o'rganiladi. Odatda, korrespondent sifatida taniqli va yetarli ravishda yirik bank tanlanadi, uning ishonchliligi va xorijda zarur bank xizmatlarini operatsion qo'llab-quvvatlash borasidagi ta'minlash imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi.

Agar milliy darajada to'lovlar markaziy bank orqali amalga oshirilsa, xalqaro hisob-kitoblar uchun, asosan, banklararo korrespondentlik munosabatlari ishlatiladi. Banklar boshqa davlatdagi bank-korrespondentlarda *joriy operatsion hisob (talab qilib olinguncha depozitlar)* raqamini ochadilar. Bu hisob raqamini ochgan bank, avvalo, o'zini va so'ngra mijozlarining ehtiyojiga xizmat ko'rsatish uchun undan foydalanadi.

Xorijiy banklar tomonidan mahalliy banklarda talab qilib olinguncha depozitlar hisobi, **loro hisobi** (italyanchadan "loro" – ular) deb atalish qabul qilingan. Ba'zi bir davlatlarda bu hisoblar **vostro hisobi** (italyanchadan "vostro" – sizning) hisobingiz deb ataladi. Rivojlangan davlatlarning yirik banklari boshqa davlatlarni banklariga tegishli bir qancha loro hisoblarini ochib unga xizmat ko'rsatadilar. Yirik banklar uchun, loro hisobini ushlab turish, ya'ni bu depozit hisoblarda boshqa banklar pulini ushlab turish ular uchun bu qo'shimcha moliyaviy resurs hisoblanadi. Odatda, uni ishlatishdan olinadigan daromad hisobni ushlashga ketadigan xarajatdan ancha ko'p bo'ladi. Bu yerda milliy valyutada bankdagi korporativ mijozlarning hisob raqami singaridir, chunki banklar ularga joylashtirilgan mablag'larni ham xuddi qo'shimcha moliyaviy resurs sifatida ishlatadilar. *Loro hisobi* hisobni ushlab turgan bank uchun *majburiyat* hisoblanib, hisobotda passiv hisoblar qatoriga qo'shiladi. Xuddi boshqa depozit hisoblar singari ko'pgina davlatlarda markaziy bank tomonidan loro hisobidagi mablag' uchun majburiy rezerv ajratmasi aniqlanadi.

Mahalliy banklar tomonidan xorijiy banklarda ochilgan hisobni **nostro hisobi** (italyancha "nostro" – bizning) deb ataladi. Hisoblarni

maqsadini hammadan avval qulay qilib birinchi harfdan eslab qolish mumkin, ya'ni **nostro** – ulardagi bizning hisob, **loro** – ularning bizdagi hisobi. Shunda bitta bankning loro hisobi uning korrespondenti uchun nostro hisobi hisoblanadi. Nostro hisobi balansning aktiv qismida *talablar* sifatida hisobga olinadi. Rivojlangan davlatlarning banklari har bir loro hisobiga nisbatan xorijiy valyutada nostro hisobi ochishga harakat qilishmaydi. Agar loro hisobi qo'shimcha daromad olib kelsa, nostro hisobi uni ushlab turish uchun nafaqat xarajat, balki resurslarni ham chalg'itadi. Misol uchun, Amerika banklari xorijiy banklarda boshqa valyutadagi nostro hisobini ushlaganga nisbatan dollardagi loro hisobini nisbatan ko'proq ushlaydi. Xalqaro bank o'zini nostro hisobini xalqaro sanoat korporatsiyasi menejmentiga xos tamoyillar asosida boshqaradi. Ya'ni ular nostro hisobida ishlamaydigan aktivlarni joylashtirishni minimallashtiradilar, vaqtinchalik bo'sh mablag'larini maksimal samarali joylashtirishga harakat qiladilar va xakozo. Bir vaqtning o'zida, o'zining mijozlarini valyutaga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, qayerda nostrohrisobi ochilgan bo'lsa, o'sha davlatdagi nostrohrisobida ma'lum miqdordagi likvidli qoldiqni ushlab turish kerak. Nostro hisobida xorijiy valyutani ushlab turishda ma'lum valyuta riski yuzaga keladi, uni baholash va zarur bo'lsa xedjirlash kerak.

Loro va nostro hisoblari xorijiy davlatning valyutalarida ochilishi mumkin, bu raqam ochilgan bankda shu davlatni valyutasida yoki uchinchi davlatni valyutasida ham hisob ochilishi mumkin.

Har bir bank o'zining loro va nostro hisobi bo'yicha buxgalteriyasini, ya'ni hisobini yuritadi. Banklar vaqti-vaqti bilan o'zlarining yozuvlarini solishtirib turadi, agar xatoliklar va nomuvofiqlar yuzaga kelgan bo'lsa, uni to'g'rilaydilar.

Barcha zarur valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun bitta hisobning o'zi ham yetarli bo'ladi. Odatda, bunaqangi hisobga rivojlanayotgan davlatlarni banklari uchun rivojlangan davlatning bankida ochilgan loro hisobi xizmat qiladi. Bu hisob ishlatilish paytida hisobni egasi rivojlanayotgan davlatni banki topshiriqnomasi bo'yicha mablag' hisobga tushiriladi (hisob kreditlanadi) va undan ma'lum summa chiqariladi (debetlanadi). Misol uchun, O'zbekiston banki Germaniyadagi korrespondent bankdagi o'zining hisobidan ma'lum summadagi yevroni O'zbekistonga tovar import qiladigan mijozga

to'lab berishiga topshiriq berishi mumkin. Bunda O'zbekiston bankidagi importyorning valyuta yoki so'mdagi hisobidan tegishli summa undirib olinadi. Shunday qilib valyuta fondini harakati amalga oshadi, ya'ni u O'zbekistondagi bankni va nemis korrespondent – bankning buxgalteriya kitobida ma'lum yozuvlarni amalga oshirish bilan tugallanadi. O'zbekiston banki Amerikadagi korrespondent bankiga o'zi uchun Amerika kompaniyasining aksiyasini sotib olish uchun, unga tegishli korrespondentlik topshiriqnomasini berishi mumkin. Unda Amerika banki bu bankni loro hisobidan tegishli summani chegirib oladi (hisobni debetlaydi) va sotib olingan aksiyani O'zbekiston bankiga jo'natadi yoki Amerikada o'zini manfaati uchun uni ishlatadi.

Xalqaro kredit olish uchun ham rivojlanayotgan davlatlarning banklari uchun korrespondentlik munosabatlari shakllantiriladi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan davlatlarning banklari o'zining xalqaro reputatsiyasini oshirish uchun taniqli va ta'siri katta bo'lgan banklar bilan korrespondentlik munosabatlarini o'rnatishadi. Bank korrespondentlar ko'pincha hamroh banklarni sindikatlashgan kreditlar uchun ishtirok etishga taklif qilib turishadi.

Bank to'lovlari texnologiyasi ikkita operatsiyadan iboratdir:

1) bank korrespondentga xabar (avizo) jo'natib, ma'lum yuridik va jismoniy shaxsga ma'lum summani o'tkazish bo'yicha topshiriqnoma berish orqali;

2) to'liq hisob-kitob, ya'ni pulni (transferni) amalda o'tkazib berishdan iboratdir.

Uzil-kesil hisob deganda – to'lovchi (misol uchun, importyor firmaning) hisobidan korrespondent bankning hisobi orqali oluvchi (misol uchun, eksportyor firmasi) hisobiga pul mablag'ini harakati yoki kelib tushishiga aytiladi. Pul mablag'larini o'tkazib berish juda ham kamdan-kam holatlarda naqd valyutani harakati bilan amalga oshiriladi. Hamma vaqt ham pul o'tkazib berishlar oddiy buxgalteriya yozuvlari shaklida o'z timsolini topadi. Sotib oluvchi, ya'ni to'lovchi hisobidan pul chiqariladi (uni hisobi debetlanadi), sotuvchi, ya'ni pul oluvchining hisobi (kreditlanadi), ya'ni pul unga yoziladi.

Hisob-kitoblarni ikkita bazasi (asosi) mavjud.

1. **Rambursirovaniya (qoplab berish).** Xorijiy bank mijoz-firmaning (importyorning) talabi bo'yicha uning hisobidan zurur

summani, eksportyor tovar haqqini to'lab berish uchun, ushbu bankning mijozi hisoblangan (O'zbekistonlik eksportyor uchun) O'zbekiston bankining loro hisobiga pul o'tkazib beradi, ya'ni pul tushiriladi. Shundan keyin u bank O'zbekistondagi korrespondent-bankga, unga zarur summani (rambursiroval) qoplab bergani to'g'risida xabar (avizo) jo'natadi. Bu xabarni olib, O'zbekistondagi bank, xorijiy valyutadagi tegishli summani eksportyorni dastlab tranzit, so'ngra valyuta hisob raqamiga yoki uning xohishiga va topshiriqnomasiga ko'ra, dollarni o'zbek so'miga konvertatsiya qilib uni eksportyorning hisob raqamiga tushirib beradi.

2. **Debetlash.** Rambursirlashga nibatan debetlash teskari tartibda amalga oshadi. Misol uchun, AQSHdan tovarlar import qilinayotganda O'zbekistondagi importyorni banki, eksportyorni Amerikadagi bankiga uning loro hisobidan tovar sotib olish uchun zarur summani ko'chirishga (debetlashga) ko'rsatma beradi. Oldindan u O'zbekistondagi importyor firmani valyuta yoki hisob raqamidan tegishli summani ko'chiradi. Bu xabarni olib Amerika banki olingan summani o'zining mijozi bo'lgan eksportyorning hisob raqamiga tushiradi (kreditlaydi).

Xalqaro valyuta o'tkazishlari quyidagi vositalar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- aviapochtalar;
- elektron tarmoq orqali;
- xorijiy bank cheklari;
- plastik kartochkalar yordamida.

Tijorat banki *aviapochta* yordamida valyuta o'tkazish shaklini ishlatganda korrespondent-bankka pul o'tkazish xati (avizovka)ni jo'natadi, qaysiki uni barcha banklar to'lov yo'riqnomasi yoki ko'rsatmasi singari qabul qilishadi. Unda, qancha pul, qaysi valyutada, kimdan va kimga o'tkazilishi kerakligi ko'rsatilgan bo'ladi. Xatda uzil-kesil hisob-kitob qanday amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan bo'ladi. Avizoda zarur imzolar soni to'liq bo'lishi va korrespondent bank o'zida mavjud bo'lgan nusxa bilan yagona ekanligini tekshiradi. Jahon amaliyotida avizoni qalbakilashtirish holatlari ham gohida uchrab turadi. Misol uchun, Rossiyada XX asrning 90-yillarida keng

masshtabda qalbaki avizovkani ishlatish yo'li bilan o'g'irliklar sodir bo'lgan.

Elektron tarmoq orqali valyuta o'tkazish xuddi aviapochta shakliga o'xshab ketadi. Uni, eskichasiga qilib aytganda, telegraf pul o'tkazishi deb ham atashadi, chunki XIX asrning 60-yillarigacha, ya'ni kompyuter tarmoqlari yuzaga kelguncha, bunaqangi to'lovlar telegraf ishlatilishi orqali amalga oshirilgan. Elektron pul o'tkazish (transfer) elektron imzolar bilan yoki maxsus test kaliti bilan identifikatsiya qilinadi.

Bank cheki ishlatilish bilan valyuta o'tkazish aviapochta yordamida valyuta o'tkazishga nisbatan anchagina ishonchli hisoblanadi, chunki bu holatda bank topshiriqnomasi to'lovchi bankka bevosita kelib tushadi. Misol uchun, O'zbekiston banki AQSH dagi korrespondent-bankka jismoniy shaxsga ma'lum summani berish to'g'risida topshiriqnama bilan chek yozib beradi. U AQSHga kelib, ko'rsatilgan bankka chekni taqdim etib va uni haqiqiyligi tekshirilgandan keyin pulni oladi. Gohida chekni taqdim qilishda, O'zbekistondagi bankdan qo'shimcha tasdiqlovchi xabar (avizo) talab qilinadi.

Keyingi vaqtda yana ham keng tarqalib borayotgan xalqaro hisob-kitoblardan biri plastik kartochkalar yordamidagi valyuta o'tkazilish shakli hisoblanadi.

Keyingi 10 yillikda esa xabarlarni yetkazish va uzil-kesil hisob-kitoblarni o'tkazish **kompyuter tarmog'ini** ishlatish bilan amalga oshirish faol rivojlanmoqda.

Xalqaro banklararo moliyaviy telekommunikatsiya jamiyati tizimi (Society for World-Wide Interbank Financial Telecommunications – **SWIFT**) 1973-yildan boshlab amal qila boshladi, uni bazasida aslida "NATO" telekommunikatsion kanallarining bank xabarlarini yetkazish uchun ishlatilatadigan tizimga asoslanadi. U faqat xabarlarni yetkazish uchun ishlatiladi, lekin uzil-kesil hisob-kitoblarni amalga oshrishga mo'ljallanmagan.

SWIFT Bryusseldagi shtab-kvartirasi bilan notijorat hamkorlikda hisoblanadi. Uning asosida informatsiyalarni qayta ishlash hududiy markazlari (protsessing markazlari) tashkil etilgan (Yevropa uchun) Niderlandiyada, (Osiyo uchun) Tokioda, (Shimoliy Amerika uchun) Vashingtonda va (Lotin Amerikasi uchun) Braziliyada. Hududlararo protsessing markazlari davlatlar bilan bog'langan, misol uchun,

Moskvada (Rossiya uchun), o'z navbatida ular bu tizimning a'zolari bo'lgan banklar bilan bog'langan. SWIFT 130 ta xabarlar standartlariga asoslanadi, qaysiki unda barcha bank operatsiyalarini kodlashtirilgan, ya'ni kreditlar, valyuta airmashinuvlari, akkreditivlar va boshqalar. SWIFT standartlari ko'pchilik davlatlarda informatsiyani yetkazish va qayta ishlash uchun umumqabul qilingan tartib hisoblanadi. Ular to'liq holda milliy tizimning uzil-kesil hisob-kitobiga mos tushadi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda uzil-kesil hisob-kitob uchun milliy kompyuter tizimi ishlatiladi. Misol uchun, AQSH Federal rezerv tizimi (FRT) o'zining "FedWire" deb nomlangan hisob-kitob tarmog'iga ega. Rossiyadan va O'zbekistondan farqi shundaki, AQSHda tijorat banklarining rezerv hisobi (federal fondlari) FZTd muzlatilmagan, ular operatsion hisoblanadi, ya'ni ular hisob orqali to'lovlarni amalga oshirsa bo'ladi. Rezerv hisobidagi oshiqcha mablag'larni (federal fondlarni), ayni shu daqiqada federal fondlar uchun belgilangan normativlarga yetmay turgan banklarga sotish mumkin. Federal fondlarning bozori jami pul bozorini amal qilishiga asos hisoblanadi. Shu asosda "FedWire" tarmog'i amal qiladi. Banklararo operatsiyalar amalga oshirilishida "FedWire" bir zumda to'lovchi hisobidan pulni chiqaradi (uni hisobini debetlaydi) va ularni pul oluvchi hisobiga o'tkazadi (ya'ni uning hisobini kreditlaydi). Har bir operatsiya hech bir narsaga bog'liq bo'lmay va uzil-kesil amalga oshiriladi, shuning uchun ham netting, ya'ni umumiy hisob talab qilinmaydi.

"FedWire"ga alternativa, ya'ni talabgor sifatida *Kliring palatasining banklararo to'lov tizimi* (Clearing House Interbank Payments System – CHIPS) hisoblanadi. "FedWire"dan uning farqi, bu xususiy firmadir. U "online" rejimida ishlaydi, ya'ni to'lovlar banklarning hisob-kitobi 20 kompyuter bazasidan so'ng – real vaqtda amalga oshadi. Bu tizimning barcha ishtirokchilari Nyu-York shahrida joylashgan. Bir kunlik oborot 1.trln.dollardan oshadi. CHIPS kliring tizimi hisoblanadi, ya'ni uzil-kesil hisob-kitobi ish kuni oxirida amalga oshiriladi.

Boshqa banklar bilan o'zaro bog'liqlikni ta'minlash uchun CHIPS davlat tarmog'i hisoblangan "FedWire"da o'zining hisob raqamiga ega. Markaziy CHIPS kompyuteri ish kuni yakunida

ishtirokchilar operatsiyalarining yakunini chiqaradi va unga muvofiq har bir ishtirokchi tizimga qancha pul qo'shish kerak yoki undan olish kerakligi belgilanadi. Bundan tashqari, CHIPS tizimdan tashqari banklardan qancha pul olish va chiqarish kerakligi ham aniqlaydi. "FedWire" va CHIPS tarmog'i orqali talab qilinadigan summalar almashgandan so'ng, kompyuterning o'zi banklarning hisob-kitobi bo'yicha netto-summalarni taqsimlaydi, ular esa o'z navbatida, barcha tizim ishtirokchilari bo'yicha taqsimlaydi.

1.4. Yangi bank xizmatlarining paydo bo'lishi, turlari va ularni joriy qilish yo'llari

Depozitlar yirik xalqaro banklar passivlarini katta qismini tashkil etadi. Misol uchun, 2017-yilning boshlarida olti yirik Yaponiya banklarining depozitlari jami passivlar summasining 84.7 foiziga yetgan. AQSHning yirik transmilliy banki hisoblangan Citycorp depozitlari – 76,5%, Angliyaning Barclays Bankda – 80,7%, Fransiyaning Banque Nationale de Paris – 78,1% va nemislarning Deutsche Bankida – 62,6% ga yetadi.

Xalqaro va transmilliy banklarning depozit siyosati qator o'ziga xos tomonlarga ega. Ularning passivlari shakllanishida manbalarni kengaytirish hisobiga depozitlarni jalb qilishda ulgurji deb ataluvchi yondashish yetakchilik qilmoqda, buni tarkibida korxonalar, hukumatlar, individual omonatchilar, turli fondlarning mablag'lari va xayriya jamiyatlarining ham bo'sh mablag'lari mavjud.

TMBlarning faoliyatining xalqaro miqyosda kengayishi depozit bazalarini diversifikatsiya qilishga olib keladi, chunki omonatchilarning doirasi kengaymoqda va ssuda kapitalini yig'ilish miqdori oshmoqda.

Iqtisodiyotni xalqaro milliy lashuvi sharoitida TMB depozit bazasini shakllanishida o'ziga xoslik, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi bilan va depozitlarni "ko'p valyutali" aspektida boshqarish bilan bog'liqdir. Bu shunda o'z aksini topmoqdaki, TMB valyuta operatsiyalarini aniq yo'lga qo'yilgan tizimda boshqarishni shakllantiradi, shu jumladan, valyuta bazalari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlaydi. Xalqaro bozorda sodir bo'layotgan hodisalarga qarab, TMBlar o'zining depozitlari miqdorini hamda ularni valyuta tarkibini

o'zgartirmoqdalar. Bu nafaqat xorijiy operatsiyalarning valyuta riskini kamaytirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, balki undan kattagina foyda olish imkoniyatini ham bermoqda.

TMBning kredit operatsiyalari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Albatta, harakat bir necha bor boshqacha tartibda amalga oshiriladi. Avvalo, aytaylik rivojlanayotgan davlatda joylashgan ba'zi bir kompaniyalar TMB mahalliy bo'limlariga murojaat qilib kredit so'raydilar. Undan keyin yuqorida yozilgan barcha mexanizm ishga tushishi uchun harakatga solinadi. Natijada kompaniya unga mahalliy banklar kredit berishi mumkin bo'lgan foizga nisbatan, ancha past foizda kredit oladi, chunki mahalliy banklar ushbu davlatni barcha soliqlarini to'lashadi va undan tashqari ular kapital bozoriga to'g'ridan to'g'ri chiqib arzon resursga ega bo'la olmaydilar. Shunday qilib, o'zining bo'limlarini ratsional joylashtirganligidan olgan afzalligini hayotga tatbiq etib TMBlar raqobat jangida yutib chiqadilar.

Keyingi vaqtlarda xalqaro bank xizmatlarining murakkablashish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Shunday murakkab xizmatlardan xalqaro moliyaviy lizing, faktoring va forfeytinglar ulushi ayniqsa ko'payib bormoqda.

Lizing (inglizchada "lease" – "ijaraga olmoq"), ya'ni lizing oluvchi buyurtmasi bo'yicha sotib olingan yoki o'zida mavjud bo'lgan mol-mulkni lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga foydalanish uchun berilishini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda lizing oluvchi shartnoma bo'yicha mana shu olinadigan mol-mulkni aniq kelishilgan ma'lum to'lov bilan shartli muddatga ishlatish huquqiga ega bo'ladi. Birinchi bo'lib lizing Amerikaning "Bell" nomli telefon kompaniyasi tomonidan qo'llanilgan, ya'ni ular telefon apparatlarini sotishmagan, balki foydalanish uchun ijaraga berishgan.

Hozirgi vaqtda lizing beruvchi sifatida tarkibida lizing bo'limi yoki lizing kompaniyalari bilan banklar qatnashmoqda. Lizing kompaniyalari odatda banklar bilan juda chambarchas bog'langan yoki ularning sho'ba korxonalari hisoblanadi.

Moliyaviy lizing deyilganda quyidagi holat nazarda tutadi, ya'ni lizing oluvchi lizing davrida to'laydigan to'lovi bilan ijaraga olgan mol-mulkning qiymatini to'liq qoplay olishi tushuniladi. Operatsion lizing bundan farqlanadi, ya'ni bunda mol-mulkning xizmat muddati

ko'p marta qisqa bo'lishiga qaramay, uning ko'p marta ishlatishga berilishi nazarda tutiladi. Gohida qaytariladigan lizing ham uchray turadi, bunda asosiy vositani egasi lizing beruvchiga sotadi, keyin uni ijaraga oladi. Bu gohida soliq to'lanish nuqtayi nazaridan manfaatli hisoblanadi. Xalqaro lizingni turli tumanligi "dabl din" kelishuvlari hisoblanadi. Buyuk Britaniya lizing kompaniyasi shunaqangi kelishuv doirasida samolyotlarni sotib olib, so'ngra ularni Amerikaning lizing kompaniyalariga bergan, ular o'z navbatida bu samolyotlarni mahalliy aviakompaniyalariga lizingga bergan. Manfaat shundan iboratki, AQSHga nisbatan Buyuk Britaniya mulkdor sifatida kam soliq to'laydi. Shu vaqtda AQSHning lizing kompaniyalari egalik huquqi uchun soliq to'lamaydi.

Odatdagi kreditdan lizingning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Lizing avans to'lovini nazarda tutmaydi va birdaniga to'lovni boshlanishini ham talab qilmaydi. Mol-mulkning 100 % qiymati lizingda haqiqatda kreditlanadi.

2. Lizing shartnomasi kreditga nisbatan yengil tuziladi, chunki lizingga olinadigan mol-mulkning o'zi uning ta'minoti hisoblanadi. Shartnomani bajarmaganda, lizing beruvchi mol-mulkni qaytarib olib qo'yishi mumkin.

Xalqaro lizing shartnomasi tuzilishida valyuta riskini, bojxona rejimini o'ziga xosligini, lizing beruvchi va oluvchi davlatlarda soliqqa tortilish xususiyatini va bu davlatlar o'rtasida ikki tomonlama soliqqa tortilmaslik kelishuvining mavjudligi kabi holatlarni inobatga olish zarur.

Faktoring – bu, eksportning moliyalashtirish operatsiyasi hisoblanadi, bunda bank eksport tovari ortib jo'natilgandan keyin, eksport qilingan tovar summasini eksportyorga qaytaradi va undan keyin importyordan bank qarz oladi. Hozir xalqaro faktoring yirik eksportyorlarning barcha eksport operatsiyalarida 15 % larga to'g'ri keladi. Asosan u AQSH, Buyuk Britaniyada va Yaponiyada keng tarqalgan.

Faktoring kelishuvida odatda to'rtta tomon ishtirok etadi, bular eksportyor, eksportyor davlatdagi faktor kompaniyasi (faktor-eksport), importyor va importyor davlatdagi faktor kompaniyasi (faktor-import). Faktor kompaniyalari yoki faktor-kompaniyalari bank bilan juda yaqin

bog'langan yoki ularning sho'ba korxonalari hisoblanadi. Gohida banklar ixtisoslashgan faktor bo'limlarini tashkil qiladilar.

Faktoring operatsiyasining texnologiyasi quyidagicha bo'ladi. Eksportyor importyorga tovar kreditga taqdim etgani singari, veksel majburiyati bilan tovarni rasmiylashtirib shartnoma bo'yicha xorijga mahsulotni ortib jo'natadi. Eksportyor davlatdagi faktor kompaniyasi, importyor davlatdagi faktor kompaniyasidan olingan informatsiyaga asosan, eksportyor bilan shartnoma tuzishadi va shartnomada ko'zda tutilgan veksel majburiyatidagi summani valyutada eksportyorga birdaniga to'lab beradi. Importyor davlatidagi faktor kompaniya, shartnomada ko'zda tutilgan muddatda to'lovni xaridorga to'lab beradi.

Faktoringning rivojlanishi turli davlatlarning faktor kompaniyalari o'rtasida korrespondentlik munosabatlar tarmog'i mavjudligiga bog'liq emas. Eksport faktoringi odatda, mijoz bilan juda yaqindan ishlagan holatlarda beriladi, xolos. Faktoring to'lovi ikki qismdan iborat: birinchisi, xizmat to'lovi, u 0,2 dan 3,5%gacha tebranib turadi; ikkinchisi berilgan kredit uchun foiz to'lovidir.

Faktoring barcha ishtirokchilar uchun manfaatlidir. Banklar o'zining xizmat ko'rsatish sohasini kengayitiradi va bergan krediti bo'yicha qo'shimcha daromad oladilar. Eksportyorlar sotishdagi to'lov kechiquishini bir zumda sotishga aylantirib, o'z mablag'lari oborotini tezlashtiradilar. Importyorlar eksportyorga avans summasini o'tkazmasa ham bo'laveradi, tovarni sotishdan tushadigan mablag'ga qarab to'lab boradi.

Forfeyting faktoring operatsiyasini davomi va kengayishi hisoblanadi. U eksportni moliyalashtirishda importyor vekselni regress huquqsiz hisobga olish yo'li bilan moliyalashtirishdan iborat. Bank (forfeyter) eksportyordan chegirma bilan vekselni sotib oladi, shu bilan u to'lovni to'lanmaslik bilan bog'liq bo'lgan yoki importyor tomonidan to'lovning kechiktirilishi kabi barcha risklarni o'z zimmasiga oladi, bundan tashqari, u eksportyorga e'tiroz bilan murojaat qilish vakolatidan ham ayrilgan bo'ladi. Forfeyter o'ziga hattoki, importyorning bankrot bo'lishi va kafillik riskini ham o'z zimmasiga oladi. Chegirma miqdori (diskont) importyorning reytingiga, davlat va valyuta riskiga qarab belgilanadi.

Forfeyting o'zida eksportni moliyalashtirish va riskni sug'urtalash mexanizmini mujassam etadi. U davlat tomonidan

eksportni kreditlash va sug'urtalash mexanizmini kengaytiradi. Ko'pchilik eksportyorlar forfeytingni orzu qilishadi, chunki u eksportning davlat tomonidan sug'urta qilinmaydigan ko'p risklarni sug'urta qiladi. Forfeyting xizmatlarini hozirda juda ko'pchilik yirik banklar o'z zimmalariga olgan. Faqat London shahrining o'zida ularni soni 100 dan oshiqdir.

Hozirgi bosqichda bank xizmatlari spektrining kengayishi va bank daromadlarida nokredit xizmatlar ulushining ko'payishi jahon miqyosida bank ishi rivojlanishida muhim tamoyillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Yirik banklar o'z mijozlarining barcha moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondira borib, moliyaviy supermarketlarga aylanmoqda. Banklar mijozlar kelishuvlarini sug'urta qiladilar, informatsion va konsalting xizmatlarini ko'rsatadilar, ularning yevrobozorga, xorijiy fond va derivativ bozorlarga chiqishlarini ta'minlaydilar, bu bozorlarda ishlashda vositachilik va brokerlik xizmatlarini ko'rsatadi, anderryting bilan shug'ullanadi, ya'ni o'z korporativ mijozlari aksiyalarini joylashtirish bo'yicha datlabki ishlarni amalga oshiradi, mijozlarning mol-mulklarini ishonchli (trast yo'li bilan) boshqarishni ham o'z zimmasiga oladilar.

Moliyaviy komplekslar doirasida banklar, investitsiya, sug'urta va moliya kompaniyalari, nafaqa va o'zaro fondlar o'rtasida tafovutlar borgan sari yo'qolib bormoqda. Banklarning sug'urta kompaniyalari bilan integrallashuvi va birlashuvi tendensiyasi tez-tez sodir bo'lmoqda. Bunga sabab bank va sug'urta faoliyati o'rtasida o'zaro yaqinlashish jarayonidir. Banklar juda ham faol darajada sug'urta xizmatlari sohasiga kirib bormoqda. Yevropada hozirgi vaqtda hayotni sug'urtalashni 19%i banklar hisobiga to'g'ri keladi, Fransiya banklarni ulushi bu sohada o'ta baland bo'lib, umuman banklar amalda o'z zimmasiga sug'urta kompaniyalari funksiyalarini ham olgan.

Keyingi yillarda yirik banklar faoliyatida og'irlik markazi asta-sekin emissiya-vositachilik xizmatiga o'tib ketmoqda. Xalqaro banklar qimmatli qog'ozlarni sotishdan olinadigan komission mukofot hisobidan foydani, ular bilan ikkilamchi bozorda savdodan tushadigan daromadni ko'paytirib, konsultatsiya va ilmiy-analitik ishlar uchun gonorarlarni (qalam haqi), mol-mulkni saqlash va boshqarishdan mukofot summalarini ko'paytira borib o'z daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga erishmoqdalar. Ekspertlarning baholashiga

qaraganda, yirik banklarning oladigan foydasini yarmidan ko'pi vositachilikdan tushadigan daromadlarga to'g'ri kelmoqda. Vositachilik operatsiyalari banklar bilan nomoliyaviy korporatsiyalar o'rtasida paydo bo'layotgan uzoq muddatli aloqalar asosi hisoblanadi. Bu aloqalar korporatsiyalarning nazorat paket aksiyalarni sotib olib qo'yish, korporatsiyalarni xalqaro darajada qo'shilishi va birlashishi jarayonlariga banklarni ishtirok etish yo'llari bilan sodir bo'lmoqda.

Vositachilikning to'g'ridan to'g'ri kreditlashga nisbatan afzalligi shundan iboratki, bunda banklar moliyaviy risklarni, shuningdek, hattoki qarzdordan ssudaning qaytmaslik riskini ham qo'shgan holda, qimmatli qog'oz egasining zimmasiga qo'ymoqda. Bularning natijasida kapital bozorining tarkibi juda sezilarli darajada o'zgarib ketdi. Agar o'tgan asrning 70-yillarida xalqaro kapital bozorining 80 %ini bank kreditlari tashkil etgan bo'lsa, 90-yillarga kelib kapital bozorida asosiy o'rinni esa xuddi shu miqdor ulushida turli qimmatli qog'ozlar emissiyasi asosida berilgan xalqaro zayomlar egalladi.

Qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan vositachilik operatsiyalarini banklar odatda chayqovchilik kelishuvlari bilan uyg'unlashtirib olib boradilar. Bunda xalqaro banklar shunday xizmatlar ko'rsatadi, ya'ni, investorlarga "toyuvchan" foizlar bilan obligatsiyalarni sotish, emitentning obligatsiya bo'yicha daromadini o'zi chiqargan ikki valyutali zayom deb ataluvchi boshqa qimmatli qog'ozlarga qayta investitsiya qilish imkoniyatini berish va hokazo. Keyingi holatda investor valyutalar kursidagi tafovutdan qo'shimcha foyda olishi mumkin, chunki unga yozilayotganda, ya'ni uni sotib olinayotganda qimmatli qog'ozning kursi bitta valyuta kursida aks etsa-da, u ham qoplanadi yoki to'lab beriladi.

Nafaqa fondi va boshqa institutsional investorlar bilan banklarni ishonchli operatsiyalari oshib borilayotganligi uzoq muddatli kapital qo'yilishi uchun banklarga yirik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro banklar ularga ishonchli boshqarishga berilgan fond mablag'larining qimmatli qog'ozlar kursidagi tafovutdan foyda olish maqsadida xorijga sarmoyani joylashtirishda vositachilik qilishadilar.

Banklar sanoat korxonalarini tashkil topishida faol rol o'ynamoqdalar. Keyingi paytlarda qator kreditlaydigan korporatsiyalarni transmilliy monopolistik ittifoqlarga birlashishi banklar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda, chunki bunda qarz oluvchi

korxonalarni bankrotlik riski kamayadi va shuning bilan bir qatorda ularni moliyaviy operatsiyalari miqdori oshadi, ularni yuritib banklar yaxshigina foyda oladi.

Bank kapitalining to'g'ridan to'g'ri sanoatga kirib borishi sanoat kompaniyalari aksiyalarining banklar tomonidan sotib olinishi, chiqarilishi va joylashtirilishi yo'li bilan sodir bo'lmoqda, yangi korxonalarni ta'sis etilishida banklar faol ishtirok etishmoqda.

Jahon iqtisodiyotida TMK bosh xo'jalik subyektiga aylangan sharoitda, ularning hisob-kitob operatsiyalari juda ham o'zgarib ketdi, xalqaro va transmilliy banklar ularni ich-ichiga kirib ketib xizmat ko'rsatmoqda. Agar avval hisob-kitob operatsiyalari mijozning topshiriqnomasi bo'yicha xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bilan tashqi savdo operatsiyasiga nisbatan xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, endilikda banklar TMKning nafaqat ichki moliyaviy hisob-kitoblarini va xalqaro hisob-kitoblarini, tashqi jahon bilan bo'ladigan barcha moliyaviy munosabatlarini endi banklar boshqarmoqdalar. Banklar integrallashgan kompyuter markazi bazasida TMKlarning butun naqd mablag'larini boshqarish tizimini yaratishdi, ularning tarkibiga kiruvchi hamma ishlab chiqarish bo'limlarini barcha bank hisob raqamlari ahvoli to'g'risida ularni ixtiyoriga aniq informatsiyani yig'ish, umumlashtirish va taqdim etish imkoniyatini bermoqda. Buning natijasida bank hisobi bo'yicha pul mablag'ining haqiqiy harakati bilan TMK buxgalteriya kitobi harakati o'rtasidagi vaqt tafovuti juda sezilarli darajada qisqarmoqda.

Keyingi vaqtda ko'pgina banklar xalqaro moliya bozorida faoliyat yuritishga ixtisoslashgan konsalting kompaniyalarini siqib chiqarishga harakat qilib, konsalting biznesiga ham faol darajada kirishib ketmoqdalar. Hozirgi paytda konsalting xizmati yirik xalqaro banklarga 25 % daromad keltirmoqda.

Mana ancha vaqtdan beri banklar loyihalarni moliyalashtirishda ham ishtirok etmoqdalar: loyihani amalga oshirish bo'yicha barcha smeta xarajatlarini to'lamoqda, o'zining mutaxassislari kuchi bilan loyihalashtirishda ham bevosita ishtirok etmoqdalar yoki buyurtmachini malakali konsultatsiya bilan ta'minlamoqda. Bank bilan hisob-kitob buyurtmachining hech qanday boshqa mablag'lari jalb etilmasdan, yangi quriladigan korxona foydasidan amalga oshirilmoqda.

Butunlay olganda qator holatlar borki, bunda banklar ushbu obyektlar aksiyalarining shiriklik egasiga aylanmoqdalar.

Zamonaviy bank endilikda tobora informatsion-analitik markazga aylanib bormoqda, o'z mijozlarini moliya, investitsiya va tovar bozori bilan uzviy va muntazam bog'lamoqda. Yirik banklar juda kuchli informatsiya markazini tuzmoqdalar. Bank tashkilotlari keng masshtabda informatsion xizmat turlarini ko'rsatib norasmiy holatda mijozlarni o'ziga "bog'lab" olmoqdalar. Bank konsaltingi ma'lumot olish uchun hamma mumkin bo'lgan kanallarni ishlatmoqdalar, misol uchun, kredit berishda ular mijozlardan informatsiya taqdim qilishni doimo talab qiladilar. Informatsiya olishning muhim kanallaridan biri u yoki bu loyihani amalga oshirishda korporatsiyaning boshqarishga ishtirok etish hisoblanadi. Banklar korxonalar ishlaydigan bozor ahvoli to'g'risida keng informatsiyaga egadirlar va ularni mijozlarga berishlari mumkin. Bundan tashqari, banklar ichki va tashqi menejment savollari bo'yicha o'zining mijozlarini faol ravishda konsultatsiya berishga o'tmoqdalar, ularning iqtisodiy siyosatini va ichki tuzilishini qayta ko'rib chiqishni aniqlagan hamda tavsiya etgan holda.

Keyingi yillarda yangi bank texnologiyasi bo'yicha moliyaviy informatsiya tarqatilishi yana ham keng avj olmoqda. Bo'limlari bo'lmagan telefon banklar rivojlanmoqda (misol uchun, Buyuk Britaniyadagi First Direct banki), bunda mijoz bank xodimi bilan shaxsan ko'rishmasdan hisob ochishi va operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Bu holatda mijoz bankni qayda joylashganligi, bankining yoki mijozlarning kimligiga qaralmaydi.

Internet-bank faoliyatida istiqbolli turlaridan biriga aylanib bormoqda. Uning asosiy afzalligi tezlik va arzon xizmat ko'rsatishdan iboratdir. Internet orqali bank xizmatini ko'rsatish tannarxi, an'anaviy xizmat ko'rsatish tannarxi bilan solishtirganda 8-10 barobar kamayadi. Bu ko'pgina banklarni ana shu setga kirishga undamoqda, ulardan ba'zi birlari mijozlarga set orqali xizmat ko'rsatishni boshlab yuborishdi. Misol uchun, eng yirik va konservativ banklardan biri hisoblangan Germaniyaning Deutsche Bank an'anaviy bank biznesidan voz kechib, Internet-bank rivojlanishiga asosiy e'tiborni qaratmoqda. U filiallarning katta qismidan xolos bo'lib, asosiy operatsiyalar sonini Internet tarmog'iga o'tkazmoqda. Bankni setdagi

investitsion rejasi yiliga 1 mlrd yevroga baholanmoqda. Deutsche Bank o'zining real filiallarini virtual tizimga almashtirmoqda.

Tarmoq orqali bank xizmatlari va hisob-kitoblarning keng tarqalishiga ikkita asosiy guruhdagi risklar to'sqinlik qilmoqda. Birinchisi, tarmoqda operatsiyaning maxfiyligini va xavfsizligini ta'minlash masalasi. Tarmoqda elektron xavfsizlik hozircha unchalik darajada ishonchli emas va xakerlar vaqti-vaqti bilan ularni buzib, o'zlariga ancha-muncha manfaat chiqarib olishmoqda. Ikkinchidan, tarmoqda informatsiyaning ochiqqligi o'sib bormoqda va noqonuniy olingan daromad ham ochiq-oydin namoyon bo'lmoqda.

Bu risklarni kamaytirish ustida o'ndan oshiq davlatlarning yuz minglab dasturchilari tinimsiz izlanishmoqda. Informatsiyaning xavfsizligini ta'minlash juda katta harakat va moliyaviy mablag'lar sarflanmoqda. Lekin bu yo'nalish bo'yicha juda kam reklama qilinmoqda.

Bu borada hisob-kitoblarni sir saqlashning iloji yo'qligi ko'pchilikning e'tiroziga sababchi bo'lmoqda, umuman bu holat sobiq Sovet Ittifoqi davridan aholini o'rganib qolgan odati, ya'ni hamma narsani naqdi asal deb ko'nikishidan kelib chiqadi. Xuddi shunday talab taklifni tug'ilishiga sabab bo'ladi. Yaqinda Rossiya davlatida elektron "naqd pul" tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Bu tizimda foydalanuvchi o'zining kompyuteriga bankdagi o'z hisobidan pulni bir qismini "o'tkazib" oladi, u shu vaqtdan boshlab barcha naqd pulning xususiyatini o'zida mujassamlashtiradi. Ular mutloq maxfiy bo'lib, u kompyuteringizda xuddi cho'ntakdagi naqd pul singari turadi. Agar kompyuter buzilib qolsa, pulingiz teshik cho'ntakdagi pul tushib qolgani singari yo'qoladi. Lekin qaysi raqamdan pul kelib tushganligini ko'rsatmagan holda, u bilan to'lovni amalga oshirsa bo'ladi. Bu pullar xuddi bank tomonidan ataylab "belgilab" qo'yilgandek, elektron "naqd pul" emitenti hisoblangan barcha mijozlar tomonidan qabul qilinadi. Bunda magazinga yoki biron bir tijorat tashkilotiga pulning qayerdan kelib tushganligini umuman farqi yo'q. U kelishuvlarni amalga oshiradi va bu "belgilab" qo'yilgan pullarni maxsus hisobda qoldiradi, xuddi real naqd pulni kassada saqlagan singari. Elektron kassada pullar to'plangandan keyin u elektron inkassatsiyani amalga oshiradi, ya'ni "elektron naqd pulni" tarmoq orqali o'z bankiga topshiradi va shu vaqtning o'zidayoq

o'zining hisob raqamiga oddiy "belgi qo'yilmagan" pulni oladi. Balki ushbu hisob-kitob usulini bizning davlatimizda ham eksperiment tariqasida qo'llasa bo'ladi. Lekin bu usulni dunyo iqtisodida qo'llashning, albatta, kelajagi gumon ostida.

Yevropa Markaziy Bankining (YeMB) yevromintaqadagi oqilona monetar siyosatni tashkil qilishi va o'tkazishi borasidagi tajribasi jahon bank amaliyoti uchun katta qiziqish uyg'otadi va Yevrotizimga a'zo bo'lgan mamlakatlarning mintaqaviy va milliy miqyoslarda moliya-kredit sektori faoliyatini tashkil etishi uchun sifatli asos hisoblanadi. Davlatlar Markaziy banklari Yevrotizim maqsadlarini quvvatlab, milliy iqtisodiy tizimlar doirasidagi moliya-kredit institutlari faoliyatini tashkil etish yuzasidan barqaror va inflyatsiyasiz o'sish, iqtisodiy faoliyatning yuksak darajada raqobatga qobiliyatli bo'lishida barcha chora-tadbirlarni ishga solishmoqda.

Ma'lumki, har bir davlatning milliy Markaziy banki milliy darajadagi monetar siyosatni belgilash va amalga oshirish funksiyasini bajaradi, u mahalliy moliya-kredit institutlariga litsenziyalar beradi, ular faoliyatini tartibga soladi va yordam ko'rsatadi, xorijiy valyutadagi operatsiyalarni kuzatib boradi, milliy zaxiralarga egalik qiladi va boshqaradi, milliy to'lov tizimlarining uzluksiz faoliyat ko'rsatishini qo'llab-quvvatlaydi, YeMB boshqaradigan YI rasmiy valyuta zaxiralarini shakllantirishda qatnashadi. Mahalliy Markaziy banklar YIning umumiy nazoratli standartlariga bo'ysunadigan kredit-moliya vositachilari — banklar faoliyatining tashkil etilishi va ular ustidan samarali nazorat yuritilishining tashkil qilinishi uchun javob berishadi. YI banklari yagona pul-kredit siyosatining amalga oshirilishidagi muhim ishtirokchilardir: ular mahalliy Markaziy banklarni moliyalashtirish asosida kreditlarni berishadi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro banklarning tashkiliy strukturasi ayting.
2. Xalqaro banklarning rivojlanishida raqobatning o'rni qanday?
3. Xalqaro banklar o'z mablag'larini ko'paytirishda qaysi omillarga ko'proq ahamiyat beradi?
4. Mahalliy banklarni rivojlantirishda xalqaro banklarning qaysi jihatlarni o'rnak sifatida amaliyotda qo'llash mumkin?
5. Xalqaro banklarning jahon moliya bozoridagi o'rnini tushuntiring.

II BOB. BANK FAOLIYATINING DIVERSIFIKATSIYASI VA XALQARO MOLIIYA TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Reja:

2.1 Bank faoliyatining baynalminallashuvi shart-sharoitlari va omillari. Transmilliy banklarning (TMB) tashkiliy tuzilishi.

2.2 TMBlar faoliyatining asosiy turlari.

2.3 TMB faoliyatida risklarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Ofshor bank faoliyatining paydo bo'lishi.

2.4 Moliyaviy konglomeratlar va bank xoldinglari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.

Tayanch iboralar

Transmilliy bank, konglomerant, Ofshor bank, operatsiya, risk, nazorat, mablag'larni boshqarish, diversifikatsiya, foiz stavkasi, tashkiliy tuzilish.

2.1. Bank faoliyatining baynalminallashuvi shart-sharoitlari va omillari. Transmilliy banklarning (TMB) tashkiliy tuzilishi

Respublikamizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining chuqurlashishi transmilliy banklarning moliyaviy xizmatlaridan foydalanishni obyektiv zaruriyatga aylantiradi.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligining bank tizimi bir necha darajani o'z ichiga oladi. Birinchi daraja transmilliy banklar va xalqaro tijorat banklaridan iboratdir. Ikkinchi daraja xalqaro moliya tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Bunday xalqaro tashkilotlarga Jahon banki guruhi, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Yevropa tiklash va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom rivojlanish banki va boshqalar kiradi. Uchinchi bosqichga har bir mamlakatning Markaziy banki kiradi. To'rtinchi bosqich esa, har bir mamlakatdagi tijorat banklaridan iboratdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 2021-yilning 1-yanvar holatiga, 32 ta tijorat banki va bitta Markaziy bank mavjud⁴.

Davlatlar o'rtasidagi xalqaro aloqalarning rivojlanishi va ularning sifat jihatdan o'zgarishi banklar faoliyatining baynalminal-

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joriy hisobot ma'lumotlari. -T., 2021 y.

lashuviga olib keldi. Chunonchi, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi va ularning moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'sishi transmilliy banklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Kichik va o'rta mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatning turli sohalariga tobora ko'plab jalb etilishi ham zamonaviy bank faoliyatining mazmunini o'zgarishiga sabab bo'ldi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni konsentratsiyalashuvi va monopollashuvi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki bu mamlakatlarda davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi roli katta.

Buning sababi shundaki, transmilliy banklar jahon moliya bozorlarida yetakchi mavqeyiga egadir. Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, jahon moliya bozorlaridagi operatsiyalarning 50 foizdan ortiq qismi 10 ta transmilliy bankning hissasiga to'g'ri keladi⁵. Bu esa, transmilliy banklarning katta moliyaviy imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Transmilliy banklar va moliyaviy transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyotidagi kredit va moliyaviy sohada faoliyat yurituvchi va ishlab chiqarish yoki sotish bo'yicha TNKlar bilan bir xil xususiyatlarga ega korporatsiyalar sifatida tushuniladi. Haqiqatan ham, ular an'anaviy TNKlardan faqatgina o'z faoliyat sohalarida va ushbu sohaga mos keluvchi maxsus vositalar bilan farqlanadi.

XX asrning boshida Sharqiy Yevropa va post sovet hududi ochilishi, elektronika, poyabzal va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha global zavod sifatida Xitoyning o'sishi va avtomobillar va eng katta bozorining kengayishi, xalqaro savdoni va kapital oqimlarini liberallashtirish, birinchi navbatda, ustav kapitali o'sishi hisobiga moliyaviy TNK va TMB faoliyatining o'sishi kuzatildi. Statistikaga ko'ra, moliyaviy TNK va TMB toifalari bo'yicha umumiy soni 150 dan ortiq bo'lgan. Ularda 5 mingdan ortiq ofis mavjud.

Transmilliy banklar (TMB) ulkan moliya imperiyalari bo'lib, dunyoning bir nechta mamlakatlarida faoliyat yuritadi. Juda katta miqdordagi aktivlarga ega bo'lgan TMB davlatlar o'rtasidagi valyutaviy va moliyaviy oqimlarni hamda alohida olingan mamlakat

⁵ European Central Bank Report 2007. –Fr/M., 2008.

ichidagi iqtisodiy jarayonlarni nazorat qiladi. Ularning ekspansiyasi davlatning kuchli qo'llab-quvvatlashi sharoitida amalga oshiriladi.

2005-yilda 50 ta yirik transmilliy banklarning ro'yxati Citigroup (AQSH), keyin UBS (Shveytsariya) va Allianz (Germaniya) tomonidan boshqariladi. Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Qo'shma Shtatlarning moliyaviy tovarlar ro'yxatida jami 74 foiz o'rinni egallagan.

Klubda 74 ta pozitsiya 500 ta ko'pmillatli bankka tegishli. Ularning umumiy kapitallashuvi 3 trillion AQSH dollaridan oshdi. Bu yerda AQSH banklari ham ustunlik qiladi, biroq transmilliy banklar bugungi kunda dunyoning barcha qit'alarida joylashgan. Yevropada eng katta 32, Shimoliy Amerikada 21, Janubi-sharqiy Osiyoda 10, Afrikada 5, Avstraliyada 4, Janubi Amerikada 2. Bundan tashqari, Klubga 500 moliyaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi 18 ta kompaniya kiritilgan. Ularning jami kapitalizatsiyasi deyarli 570 milliard dollarni tashkil etadi, ulardan 14 tasi AQSHga, bittadan - Italiya, Yaponiya va Tayvan (Xitoy viloyati)ga tegishli.

TMB faoliyatining bosh prinsipi mablag'larni o'zi uchun qulay va arzon joylardan sotib olish va ularni normal daromad olishni ta'minlaydigan shartlarda joylashtirish hisoblanadi. Shu sababli, AQSHda yirik banklar depozitlarining katta qismi boshqa mamlakatlardan jalb qilingan depozitlarning hissasiga to'g'ri keladi, Yaponiyada esa, 11 ta AQSH TMB o'zlarining filiallarida xorijiy banklar depozitlarining uchdan ikki qismini to'pladilar⁶.

Bundan tashqari, transmilliy banklar juda murakkab va samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lib, undan respublikamizning yirik tijorat banklari faoliyatida foydalanish banklar faoliyatining samaradorligini oshishiga olib keladi.

Kapitalning konsentratsiyalashuvi natijasida TMB universal tijorat banklariga aylanishdi. Ularning faoliyatida tijorat banki, investitsion bank, sug'urta kompaniyasi faoliyatlari o'rtasidagi chegara tobora yo'qolib bormoqda.

TMB turli valyutalarda depozitlar jalb qiladilar, har xil muddatlarga kreditlar beradi, qimmatli qog'ozlar bilan investitsion, emission va anderryayting operatsiyalarini amalga oshiradi. Shuingdek,

⁶ Bankers Almanac: World Ranking / RBI. 2004.

ishlab chiqarish va tashqi savdoni moliyalashtirishning turli shakllaridan foydalanishadi. Ular tomonidan ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar dunyoning boshqa banklari tomonidan so'zsiz tan olinadi.

TMB faoliyati hozirgi davrga kelib shu darajada rivojlandiki, hatto sanoat korxonalari ulardan ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil qilish, u yoki bu tovar bozorining rivojlanish istiqbollari to'g'risida maslahatlar olishmoqda.

TMB foydasining asosiy manbayi berilgan kreditlardan olingan foizlar bo'lib qolmoqda. TMB kreditlari quyidagi subyektlarga berilmoqda:

- o'zlarining xalqaro savdo operatsiyalarini moliyalashtirishga ehtiyoji bo'lgan eksportyorlar va importyorlar;

- o'zlarining likvidligini ta'minlash uchun valyuta mablag'lariga muhtojlik sezayotgan vakil banklar;

- xorijiy investitsiyalarni amalga oshirilayotgan yirik xalqaro firmalar;

- to'lov balansi yoki davlat budjeti defitsitini moliyalashtirish uchun mablag'lar zarur bo'lgan xorijiy davlatlarning hukumatlari.

TMB ning xalqaro miqyosda amalga oshiradigan kredit faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- mijozga kredit summasini o'tkazib berish;

- kredit resursini bankning vakillik hisob raqamiga o'tkazish;

- mijoz bilan kredit resursini kelgusi davr uchun yetkazib berish to'g'risidagi bitimni imzolash;

- mijozning majburiyati bo'yicha to'lovni kafolatlash.

Lekin shu bilan birga, jahon moliya inqirozi transmilliy banklarning moliyaviy holatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Barclays Bank, Bank of Tokyo Mitsubishi, Deutsche Bank, Citicorp, Chase Manxattan Bank kabi transmilliy banklar ham ipoteka inqirozi va jahon moliya inqirozi natijasida yirik miqdorda moliyaviy zarar ko'rdilar. Bu esa, transmilliy banklarning faoliyatida ham sezilarli darajada kamchiliklarning mavjudligidan dalolat beradi.

TMB faoliyatida ko'plab muammolar mavjud. Eng katta muammolardan biri tashqi qarz muammosi bo'lib, ular TMKlarga qaraganda, ular uchun ko'proq og'riqli ko'rinadi. Qarzdor mamlakatlarda (kredit diskriminatsiyasiga va blokadaga qadar)

muayyan kredit siyosatini olib borish uchun uni hal qilishga harakat qilmoqdalar. Transmilliy banklarning zamonaviy rivojlanishida ikkita o'zaro bog'liq tendensiyalar kuzatilishi mumkin. Ulardan biri transmilliy korporatsiyalar, ular paydo bo'lganidan, ittifoq tuzish bilan yanada yaqin hamkorlik. Ikkinchi tendensiya bank kapitalining tobora kuchayib borayotganligi, xususan, dunyoning yetakchi mamlakatlari bank muassasalarini bir-biri bilan o'zaro bog'lashda ifodalangani. Ushbu tendensiya banklarning bir-birining aksiyalariga va boshqa aktivlariga investitsiyalarini amalga oshirish orqali bajariladi. Shunday qilib, TMB faoliyatida ularning kasaba uyushmalari va TNFO global moliyaviy globallashuv jarayonining ilg'or rivojlanishini aks ettiradi, ularning asosiy tashuvchilari faqatgina ulardir.

Global qarz kapital bozorida ko'p millatli banklar (TMB) yangi xalqaro bank turi va xalqaro kapital migratsiyasida vositachi bo'lgan yetakchi pozitsiyalarni egallaydi.

Transmilliy banklar xalqaro miqyosda to'plangan va kapitalni markazlashtirish darajasiga yetgan eng yirik bank institutlari bo'lib, ular sanoat monopoliyalar bilan birlashib, jahon bozorining kreditlash va kredit-moliyaviy xizmatlari uchun jahon bozoridagi haqiqiy ishtirokini nazarda tutadi.

Xalqaro monopoliyalar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'ldi. o'z mamlakatlari kapital bozorlarida xalqaro faoliyatni amalga oshirgan monopolistlarning bank kartellari va sindikatlari shaklida. Bank sektorini birlashtiruvchi, o'zaro aloqalar TMB tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XX asrning 70-80 yillarida transmilliy mamlakatlardagi yirik banklarning o'zgarishi yuz berdi. Zamonaviy xalqaro banklar, asosan, ularning tashqi faoliyati o'z operatsiyalarining muhim qismiga aylanganligi bilan ajralib turadi. Masalan, AQSH banklarining tashqi aktivlari 430 milliard dollar, Yaponiya - 101 milliard, Germaniya - 62 milliard dollar.

TMB o'z resurslari qiymatining tebranishini nazorat qilishga majbur bo'lmoqdalar. Buning uchun ular resurslarni bir mamlakatdagi filialdan boshqa mamlakatdagi filialga o'tkazish, bir valyutadan ikkinchi valyutaga konvertatsiya qilish usulidan foydalanishmoqda. Bu esa, o'z navbatida, TMB resurslari qiymatining pasayishini oldini olish, spekulativ operatsiyalar orqali daromad olish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, TMB mamlakatlar o'rtasida kapitallar oqimining erkinligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

TMB milliy yirik bankdan farqli o'laroq, birinchi navbatda chet eldagi korporativ tarmoqlar mavjud bo'lib, nafaqat xorijdagi faol operatsiyalarni, balki o'z kapitalining bir qismini va depozit bazasini tashkil etadi, buning natijasida TMB tashqi tarmog'i bank daromadlarini olish uchun faol ishlatiladi. Shunday qilib, TMB kredit kapitali, valyuta operatsiyalari va butun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning butun tizimi uchun global bozorning muhim elementiga aylandi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning yirik tijorat banklari negizida tashkil etilgan transmilliy banklar milliy va xalqaro kapital bozorlariga ustunlik qiladi.

TMB faoliyatiga e'tibor qaratib, ularning xususiyatlarini ta'kidlash kerak.

1. TMB odatda milliy bozorlarda dominant rol o'ynaydigan yirik bank monopoliyalaridir. Birinchidan, ular o'zlarining yirik kapitallari va depozit bazasiga ega bo'lgan yirik tijorat banklari, shuningdek, tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan mablag'lar nuqtayi nazaridan kam bo'lgan, ammo bankning alohida sohalarida katta tajribaga ega bo'lgan yetakchi biznes-banklardir. O'z bozorida monopolist bo'lish TMB global kapital bozoridagi operatsiyalarni to'liq nazorat qiladi.

2. TMB faoliyati xalqaro miqyosda bo'lib, u o'zlarining jami faoliyatida xorijiy amaliyotlarning yuqori ulushiga, shuningdek ularning mobilizatsiya qilingan va foydalanilgan mablag'larga nisbatan tashqi bozorga bog'liqligiga bog'liqdir. Bu, asosan, ularning faoliyatining global xarakterini belgilaydi. Ba'zida TMB faoliyati mamlakatning asosiy joylashuvi manfaatlaridan qat'i nazar amalga oshiriladi. Aslida, bu banklarning mijozlari uchun hech qanday cheklovlar yo'q.

3. TMB uchun hal qiluvchi omil – bu, xorijiy bo'linmalarining keng tarmog'i bo'lib, u kredit mablag'larini tezkor ravishda to'plash va qayta taqsimlash mexanizmi, shuningdek, ayrim davlatlarning pul mablag'larini monopolizatsiya qilish mexanizmi hisoblanadi. TMB xalqaro operatsiyalarni dunyoning bosh moliyaviy markazlarida, shuningdek, yetakchi kapitalistik mamlakatlarning milliy bozorlaridagi

yaqin xorijiy filiallar, idoralar va agentliklar tarmog'i orqali amalga oshiradi.

4. Soliq tizimidan olinadigan foyda va qonun bilan taqiqlangan bitimlarni yashirish maqsadida soliq solinadigan obyektlarda TMBning xorijiy filiallarini yaratish alohida ahamiyatga ega. Singapur, Panama, Bahrayn, Karib orollari, Gonkong va Kayman orollari, bu yerda TMB G'arbiy Yevropada bo'lgani kabi bir nechta filiallarni yaratgan.

TMB xorijidagi tarmoqlarining shakllanishi filial tarmog'idan ancha farq qiladi. TMB tomonidan aksiyadorlar nazorati tizimiga bog'liq holda, sho'ba va nazorat qilinadigan xorijiy banklar aksiyalar blokining ahamiyatsiz qismi tomonidan to'la nazorat qilinadigan, nazorat qilinadigan va boshqariladigan qismlarga bo'linadi. Agar ularning birinchisi qonuniy jihatdan mustaqil bo'lsa, o'z nizomlari va kapitali bilan, boshqa ikkita turdagi imtiyozlar bo'lmasa-da, TMB tezda notanish bozorlarni egallashiga va mahalliy manbalarga hamda xaridorlarga arzimas xarajatlar bilan bevosita kirishiga imkon beradi.

Xorijiy bo'linmalarining yarmidan ko'pi AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Shveysariya va Kanada TMBlariga to'g'ri keladi.

5. TMB o'rtasidagi qattiq raqobatga qaramay, kapitalning o'zaro almashinuvi, manfaatlari o'zaro bir-biriga bog'liq. Odatiy tendensiya - xalqaro banking tizimini takomillashtirish, jahon bozoridagi bir necha o'nlab yirik bank monopoliyalari o'rtasida haqiqiy taqsimlash, jahon bozorida yevronotlarni, yevrobondlarni va yevro aksiyalarni joylashtirish uchun kengayib bordi.

1970-yillar o'rtalaridagi energetika inqirozi, neft eksporti bozorining qo'shilishi sababli, neftdollar bozorining hajmining keskin o'sishiga olib keldi. Shunday qilib, 1974-1976-yillar mobaynida 175 milliard dollarni tashkil etdi. OESR o'lkalari va rivojlanayotgan mamlakatlar - neft importchilari joriy to'lovlar balansini moliyalashtirish uchun 100 mlrd. \$ xususiy banklar tomonidan taqdim etilgan.

Yevro valyuta bozorida TMB tomonidan resurslarni to'ldirish uchun foydalaniladi, shuning uchun ular bir vaqtning o'zida kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida faoliyat yuritadilar. Misol uchun, 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshida AQSHdan kapitalni eksport

qilish bo'yicha cheklashlar davrida, barcha Yevrodollar kreditlarining 9/10 dan ortig'i AQSHning 20 ta TMBlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy aloqalarni xalqarolashtirish TMB kredit operatsiyalari sonining ko'payishiga olib keldi. Avvalroq TMB faqat tashqi savdoni moliyalashtirish bilan shug'ullangan, hozirda ular investitsion loyihalarni kreditlashyapti, aylanma mablag'larni va asosiy kapitalni to'ldirishadi, TNK tarmoqlari o'rtasida ichki o'zaro hisob-kitoblar, emissiya va vositachilik bilan shug'ullanishadi va hokazo.

TMB ning so'nggi faoliyati ayniqsa, kengaytirildi, ya'ni xalqaro kreditlar va qimmatli qog'ozlar savdosi bilan bog'liq bo'lgan aksiyadorlar va vositachilik faoliyati. Garchi banklar bundan oldin bu operatsiyalarni amalga oshirgan bo'lsalar-da, bugungi kunda ular milliy bozorda emas, balki dunyoda bo'lgani kabi, ular nisbatan mustaqil bo'lgan kapital bozoriga ham ega. Faqatgina 1989-yilda obligatsiyalarni berish orqali qarz oluvchilar 254 mlrd. dollar qarz oldi.

Biroq, bu bozordagi ulkan imkoniyatlar emas, balki uning bir xilligi (qimmatli qog'ozlarning turlarining ko'pligi, bitimlar tuzish uchun turli shartlar va boshqalar) TMB ning maxsus investitsiya strategiyasini aniqladi. Ushbu strategiya banklarning kapitallashgan dunyodagi fond birjalari aylanmasining 85% dan ortig'i bo'lgan, Nyu-York, London va Tokio kabi yirik xalqaro birja savdo markazlarida amalga oshiriladi.

TMB faoliyatida yangi hodisa bu, ular orqali Xalqaro konsorsiumlarning paydo bo'lishi bo'ldi. Bu — TMK, hukumatlar, davlatlararo tashkilotlar va xalqaro kredit va moliya institutlari (XTTB va Yevropa Ittifoqi)ning yirik kreditlarini berish va joylashtirish bo'yicha banklar assotsiatsiyasi. Bunday konsorsiumning o'ziga xosligi birinchi navbatda barqaror ishtirokchilar sonida (200 dan ortiq bo'lmagan) va ikkinchidan, operatsiyalarning teskari tartibida qimmatli qog'ozlarni joylashtirmaydi, balki qarzdorga zarur kapitalni berish va keyinchalik uning qimmatli qog'ozlarini sotish orqali mablag'larni safarbar qiladi va darhol barcha emitentlarning qimmatli qog'ozlarini o'z hisobidan sotib oladi. Bu banklarga qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishda valyuta kurslarining farqiga qo'shimcha daromad olish imkonini beradi. Xuddi shu maqsadga yetakchi banklar (odatda dunyodagi 20 ta yetakchi TMB) tomonidan boshqariladigan katta kapitalga moliyaviy doiralarda kuchli obro'ga

investitsiya jarayonlarida katta tajribaga ega hamda tijorat va sanoat tashkilotlari birlashgan xalqaro tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi sifatida xizmat qiladi.

2.2. TMBlar faoliyatining asosiy turlari

Transmilliy banklarning faoliyati xorijlik iqtisodchi olimlardan O.Lavrushin, V.Usoskin, E.Jukov, J.Matuk, K.Barltrop, D.Maknoton, A.Gryuning, T.Mandill, E.Bulatovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

E.Bulatovning fikriga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyat transmilliy bank biznesining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Masalan, 1960-yilda faqat 8 ta AQSH banki xorijiy davlatlarda o'z filiallariga ega bo'lgan bo'lsa, XX asrning 90-yillarining oxiriga kelib, ularning soni 100 tadan oshdi⁷.

E.Jukovning fikriga ko'ra, xalqaro operatsiyalarni faol tarzda amalga oshirayotgan banklar asta-sekin milliy iqtisodiyotga moliya xizmati ko'rsatishdan chetlashib qolmoqdalar. Ular ko'proq norezidentlar bilan tashqi operatsiyalarni amalga oshirmoqdalar. AQSH, Germaniya va Yaponiyaning yirik tijorat banklari turli mamlakatlardagi ko'p sonli korporativ mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hajmini tobora oshirmoqdalar⁸.

Transmilliy banklar xo'jalik yurituvchi subyektlarga xilma-xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Lekin shu bilan birga, transmilliy banklar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar ichida quyidagi xizmatlar yuqori salmoqni egallaydi:

- yuevrovalyuta bozorlari va xorijiy bozorlardan depozitlar jalb qilish;
- xorijiy valyutalar bilan xalqaro diling operatsiyalarini amalga oshirish;
- boshqa banklarga kreditlar berish;
- nodir metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- xalqaro savdoni moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan xalqaro investitsion bank xizmatlarini ko'rsatish;

⁷ Булатов А. Мировая экономика.-М.:Юрист, 1999.-с.208

⁸ Е.Жуков. Банки и банковские операции.-М.:ЮНИТИ, 1997.- С.30

- kompaniyalarga muddatli kreditlar berish;
- anderryayting xizmati ko'rsatish;
- trast xizmati ko'rsatish.

Transmilliy banklar eksport-vositachilik operatsiyalariga asoslangan investitsiya strategiyasini amalga oshirishga juda katta qiziqish bildirmoqda:

- ular TMB daromad manbalarini diversifikatsiyalashga olib keladi, ular komissiyani olish (qarzdor tomonidan talab qilinadigan kapitalning 10%), qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan daromadlar, fond birjasida savdodan tushadigan foyda, konsalting va ilmiy-tahliliy ish haqi, to'lovlar saqlash va mulkni boshqarish uchun. Bank ma'lumotlariga ko'ra, vositachilik daromadlari yetakchi banklari daromadlarining yarmidan ko'pini tashkil qiladi;
- bu operatsiyalar banklarning nodavlat shirkatlar bilan uzoq muddatli aloqalarini nazorat qiluvchi ulushlarni sotib olish va TMB ning transmilliy korporatsiyalarni birlashtirish va sotib olishda ishtirok etish yo'li bilan tashkil etadi;
- TMB faoliyatining bir qismi balanslarda aks ettirilmaydi, bu davlatning tartibga solish choralarini ta'sirini zaiflashtiradi, shuningdek, aholi orasida bitimlarni yashirish imkonini beradi;
- TMB'larga vositachilikning afzalligini to'g'ridan to'g'ri bank kreditlari bilan solishtirganda tijorat operatsiyalaridan, shu jumladan, qarzdor tomonidan qarzlarni qaytarmaslik riskidan qochib, riskni qimmatli qog'ozlarning yakuniy egalari topshiradi. Natijada kapital bozorining tuzulmasi o'zgardi: agar 70-yillarda xalqaro kapital bozorining 80 foizi qarz oluvchilarga bank kreditlari ko'rinishida yo'naltirilgan bo'lsa, unda 80-yillarda 90-yillarning boshida xalqaro kreditlar bozordagi mablag'larning 4/5 qismiga to'g'ri keldi;
- bir xil qarz oluvchining boshqa qimmatli qog'ozlariga chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha daromadni qayta tiklash imkoniyatini beruvchi "harakatlanuvchi" (bozor sharoitlari va pul qiymatining pasayishi) foizlari bilan investorlarga obligatsiyalarni sotish kabi xizmatlar orqali vositachilik operatsiyalarining kombinatsiyasi, ya'ni ikki valyutadagi kreditlarni berish. Ikkinchidan, investor valyuta kurslari bo'yicha farqdan qo'shimcha daromad oladi,

chunki obuna bo'lish paytida qimmatli qog'ozlar kursi bir valyutada ifodalanadi va boshqa valyutada sotiladi;

➤ TMBga uzoq muddatli investitsiyalarning katta manbasini ta'minlovchi pensiya jamg'armalari bilan ishonchli operatsiyalar. TMB qimmatli qog'ozlar stavkasidagi farqlardan foyda olish uchun chet eldagi mablag'larni joylashtirish vositachilari sifatida harakat qiladi. Pensiya jamg'armalari ulkan: faqat 1950 – yillarning boshida AQSH korporativ pensiya jamg'armalarining aktivlari 2,2 trln.dollarni tashkil etdi va yiliga o'rtaicha 100 mlrd. dollarga to'ldirildi va 2001 – yil boshida 5,6 trln dollarga teng bo'ldi.

TMB daromadlari tarkibi xorijdagi operatsiyalardan olinadigan daromadlarning barqaror va o'sib borayotgan ulushi bilan, shuningdek, ushbu daromadlarning, umuman, bank faoliyatiga ta'siri bilan tavsiflanadi. Misol uchun, AQSHning eng katta TMB (Citikorn va Bank of America Corporation) 500 million dollardan ortiq xorijiy daromadni belgilaydi.

TMB salohiyatining o'sishi uchun asosiy rag'bat bo'lib, ishlab chiqarish, qurilish va savdo sohasida qarzga berilgan kapitalga bo'lgan talab ortib borayotgan ilmiy-texnikaviy inqilob (ITI) bo'lib, uni ishlab chiqarishni doimiy o'zgaruvchan bozor talablariga moslashtirish natijasida sanoat korxonalarining kapitalini muntazam yangilab borish natijasida yuzaga keldi.

TMB ning iqtisodiy kuchi G'arb davlatlarining asosiy moliyaviy ustuniga aylandi. G'arb mamlakatlarini uzoq muddatli kreditlar bilan ta'minlash uchun hukumat kreditlarini sotib olish orqali TMB. Shunday qilib, AQSH hukumati 1989 – yilining moliyaviy qarzi 2,9 trillion dollarni tashkil etdi, ularning 80 foizi mamlakat TMB ga joylashtirildi. Bundan tashqari, TMB xorijiy investorlar tomonidan davlat qarzlarini sotib olishni tashkil qiladi.

Shunday qilib, davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish, TMB kapitalini ishonchli hududga joylashtiradi, bu nafaqat kapitalning saqlanishiga kafolat bermaydi, balki yuqori foiz stavkalarini ham keltirib chiqaradi.

Transmilliy banklar, davlatlar, korporatsiyalar va aholi o'rtasida qayta taqsimlanadigan yirik kredit mablag'lari fondiga ega. Masalan, 1989 – yilda Yaponiyaning "olti" supergiganti 1,179 milliard dollar miqdorida kredit ajratdi.

TMB faoliyatida, asosan, yangi faoliyatlar tashqi savdo doirasidan tashqariga chiqadigan va kreditlarni TMK kapitalining barcha bosqichlarida bog'laydigan faoliyatining kengaytirilishi bo'ldi. Shu munosabat bilan, kreditlashning bunday shakllari ijara munosabatlari (lizing), faktoring va tugatilgan obyektlarni kreditlash sifatida namoyan bo'ldi.

TMB operatsiyalari samaradorligini baholash. ITI TMB operatsion faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Daromadni maksimal darajada oshirish va ta'sir doiralarini kengaytirish vositasi sifatida bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishni kuchaytirdi. Kompyuterlarga banklarni keng joriy etish samaradorlikni oshirish va bank xarajatlarini kamaytirish hisobiga yashash xarajatlari narxini sezilarli darajada pasaytiradi. Misol uchun, transfer operatsiyalarida texnologiyadan foydalanish Buyuk Britaniyadagi tekshiruvlarni amalga oshirish narxini deyarli qisqartirdi va Fransiyada uch baravar ko'p bo'ldi.

TMB konsentratli kredit kartalari chiqarilishi - kompyuterlardan foydalangan holda chakana savdo aylanmasiga xizmat ko'rsatuvchi to'lov hujjatlari. Natijada, TMB, bank sohasida kompyuterdan tijorat yo'lida foydalanish orqali, tovarlar va xizmatlar bozorini kengaytirishga intilmoqda.

Bundan tashqari, TMB aslida milliy kapital bozorlarini monopoliyalashtirdi, maxsus kredit tashkilotlarining (ipoteka banklari, investitsiya kompaniyalari, jamg'arma kassalari va boshqalar) nazorat qiluvchi aksiyalarini sotib oldi va ularni uzoq muddatli kreditlashni joriy qildi. Masalan, tijorat banklari investitsion biznes bilan shug'ullanish taqiqlangan AQSHning ko'p millatli banklari 1960-yillarda cheksiz funksiyalari bo'lgan korporatsiyalarga aylana boshladi. Natijada, 1970-1984-yillarda bunday korporatsiyalar soni 121 tadan 6068 taga ko'paydi va barcha tijorat banklarining aktivlari bo'yicha ularning ulushi 16,1% dan 88,1% gacha o'sdi.

TMKlar asosiy tadbirkorlik subyektlari bo'lgan sharoitlarda TMBlarining hisob-kitob operatsiyalari sezilarli darajada o'zgartirildi. Agar tashqi savdo xizmatlariga avvalgi hisob-kitob operatsiyalari, asosan, chet el valyutasini sotib olish va sotish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa, hozir TMB nafaqat TNKning ichki moliyaviy hisob-kitoblarni boshqaradi, balki o'zaro hisob-kitoblarni ham boshqaradi.

Integral kompyuter markazlari negizida TMB ularga barcha ishlab chiqarish birliklarining bank hisobvaraqlari holati to'g'risida batafsil ma'lumot to'plash, umumlashtirish va ularni taqdim etish imkonini beradigan TMK ning naqd pul mablag'larini boshqarish tizimini yaratdi. Natijada, bank hisobvaraqlarida va TMK buxgalteriya kitoblarida naqd pullarning haqiqiy harakatlari o'rtasidagi farq sezilarli darajada kamaydi.

Bunday tizimlar ilk bor 1980-yillarda Amerika TMB da paydo bo'lgan va ular o'z raqobatchilari uchun yopiq bo'lib yaratilgan. Masalan, Bank Amerika korporatsiyasi Bamtrak tizimi, Chase Manxattan Corporation - Bamtrak, Morgan gerenti trust va boshqalar.

O'zining valyuta operatsiyalarida namoyon bo'ladigan TMB hisob-kitob xizmatlarining xalqaro xarakterini ta'kidlash kerak. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, kuniga 150 milliard AQSH dollari miqdoridagi bunday bitimlar G'arbning valyuta bozorlarida amalga oshiriladi, valyuta ayirboshlash operatsiyalarining funksional ahamiyati o'zgargan: ular, asosan, kapital oqimlariga (90 foiz operatsiyalar) xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, ayrim TMB "Yomon" (грязные) giyohvandlik, pullarni (giyohvandlik, qurol-yarog' va boshqa mol-mulkni sotish) undirish kanali sifatida xizmat qildi. 1991-yilda 22 milliard dollarlik kapital bilan xalqaro kredit-tijorat banki va 62 mamlakatdagi shoxobchalari bilan kutilmagan tarzda bankrot bo'lgani shov-shuvga sabab bo'ldi.

Shunday qilib, TMB nafaqat milliy miqyosda, balki jahon ssuda bozorida ham muhim rol o'ynamoqda.

2.3. TMB faoliyatida risklarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari. **Ofshor bank faoliyatining paydo bo'lishi.**

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davrida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning xalqaro likvidligini ta'minlash jiddiy ahamiyat kasb etadigan masalaga aylandi. Buning boisi shundaki, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganligi xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlarining hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, banklar, transmilliy korporatsiyalar, kompaniyalar, nodavlat tashkilotlari, nobank moliya

muassasalarining xorijiy valyutalardagi majburiyatlarining hajmi va turlarining keskin ko'payishiga olib keldi. Mazkur majburiyatlarning sezilarli qismi xalqaro moliya bozorlari orqali jalb qilingan likvidli resurslar hisobidan qoplanadi.

Xalqaro bank biznesini tartibga solishga urinish, A.Gryuning, T.Mandill, E.Bulatov kabi taniqli olimlarning fikriga ko'ra, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- banklar faoliyatini tartibga solishning yagona me'yorlari va qoidalarini ishlab chiqishning zarurligi;

- jahon iqtisodiyotidagi inqiroz holatlari.

Xalqaro bank biznesini tartibga solish va nazorat qilishning yagona tizimi mavjud bo'lmaganligi sababli, uning subyektlari o'rtasida raqobat kurashi jiddiy tarzda keskinlashmoqda. Shu bilan birga, bank xizmatlari bozorida yuqori darajada monopollashgan transmilliy banklar faoliyat ko'rsatmoqda. Boshqa tomondan esa, banklar faoliyatini tartibga solishning milliy tizimlari o'rtasidagi farq ayrim davlatlarning tijorat banklariga raqobat kurashida qo'shimcha yengilliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Mamlakat risklarining an'anaviy tasnifi bo'yicha davlat riski makroiqtisodiy risk va mikro riskga bo'linadi, mamlakat makroiqtisodiy riski quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: siyosiy risk, davlat iqtisodiy siyosatida (milliylashtirish riski), ijtimoiy risk, makroiqtisodiy risk (shu jumladan davlat qarzini oshirish riski), tabiiy risk. Shunday qilib, siyosiy risk-xatarlar mamlakatdagi siyosiy vaziyatning jiddiy o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, bu hukumat yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy majburiyatlarini bajarmasliklariga olib kelishi mumkin. Siyosiy risk manbalari – urushlar, inqiloblar, to'ntarishlar, hukumat tuzilishidagi katta o'zgarishlar, mamlakat prezidentining o'zgarishi. Hukumatning iqtisodiy siyosatidagi xatarlar xorijiy firmalar va banklarga muayyan hukumat qarorlari bilan yetkazilishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Davlat iqtisodiy siyosatining xatarlari siyosiy risklardan ajralib turishi kerak. Shunday qilib, hukumat o'zgarishi iqtisodiy kursdagi tub o'zgarishlarga olib kelmasligi mumkin.

Hukumatning iqtisodiy siyosatida turli xil soliq-budjet islohotlari, narxlari nazorati joriy etilishi, savdo cheklovlar, yangi majburiyatlar va soliqlarni joriy etish, davlatni moliyalashtirish (milliylashtirish),

davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish, foydani qaytarish to'siqlarini yaratish, davlat mollarini ishlab chiqarish uchun subsidiyalarni rad etish kiradi. Mamlakat banklari uchun mamlakat bosh bankining joylashuvi riski katta. Davlat siyosatining muhim jihati davlat mulklarini davlat tomonidan subsidiyalash hisoblanadi. Agar hukumat aloqa, energetika va transport kabi sohalarni qo'llab-quvvatlashdan voz kechsa, bu butun xususiy sektorning rivojlanish istiqbollariga salbiy ta'sir qiladi. Hukumatning iqtisodiy siyosatida yuzaga keladigan risklarning eng jiddiyligi – ekspropriatsiya (milliylashtirish) riski. Milliylashtirish, muayyan mamlakat hududida joylashgan xususiy firmalarning barcha aktivlari, shu jumladan, xorijiy banklar va korporatsiyalar davlat mulkiga o'tkazilishini anglatadi. Milliylashtirishni musodara qilishdan ajratish kerak, chunki xususiy sektorga tovon puli to'lanmaydi. 1960-yilda Kubada, -ilda Eronda, 1971-yilda Chilida va boshqa mamlakatlarda milliylashtirish xalqaro huquq bilan taqiqlanmagan. Har bir suveren davlat xususiy mulkdorlarning mol-mulkini ekspropriatsiya qilingan mol-mulkning bozor qiymati miqdorida adolatli tovon puli to'lashi mumkin. Risk, milliylashtirilgan mol-mulk, odatda, qimmatli qog'ozlar qiymatida baholanadi va yo'qotilgan daromadlar bundan mustasno. Bundan tashqari, milliylashtirishni amalga oshiruvchi davlatlar xorijiy egalar bilan hisob-kitoblarni erkin almashtiriladigan valyutalarda darhol to'lashga qodir emaslar, shuning uchun to'lov uzoq muddatli davlat majburiyatlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Hukumat siyosatining aholi va ma'lum bir qismining xohish-istaklari bilan nomuvofiqligi bilan bog'liq ijtimoiy risk xatarlar paydo bo'ladi. Ijtimoiy noaniqlikning ortishi siyosiy riskning ortib borishi va davlat iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar riski ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy risk-xatarlarga quyidagilar kiradi: tartibsizliklar, isyonlar, namoyishlar, terroristik harakatlarning harakatlari, etnik va fuqarolar to'qnashuvlari. Agar bunday tadbirlar mavjud hukumat uchun riskli bo'lsa, hukumatning iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar yoki uning tuzilishidagi o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Siyosiy va ijtimoiy risk-xatarlarni tahlil qilishda ajratish, bir holatda risk manbayi hukumat (u holda hukumatdagi mavjud aloqalar orqali riskni nazorat qilish mumkin) va umuman butun jamiyatda (nazorat qilish orqali riskni kamaytirish qiyin) aniqlik berishga qaratilgan.

1990-yillar ijtimoiy risk-xatarlarning oshishi bilan, birinchi navbatda, etnik to'qnashuvlar bilan ajralib turadi. Misol uchun, Latviya aholisining rus qismiga qarshi ochilgan nutqlar ikki tomonlama savdoning 50-70% ga va Latviya tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun jalb qilinadigan mablag'larni 250 mln. dollarga qisqarishiga olib kelgan.

Valyuta risklari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- valyuta kurslarini o'zgarishidagi riskdan (valyuta kursi o'zgarishi) riski;

- milliy valyutaning bir zumda devalvatsiya bo'lishi bilan bog'liq risk, buning natijasida xorijiy valyutada olingan kredit, qaytmay qolishi mumkin, ma'lumki bunday holat 1998-yildagi Rossiyadagi pul inqirozi natijasida ko'pgina korxonalarda sodir bo'lgan edi;

- valyuta nazorati talabini o'zgarishidagi risk. Misol uchun, xorijga valyutani olib chiqish, foizlarni to'lash va asosiy qarzni to'lashlar kabilar ham qo'shilgan holda, ya'ni bunda davlat tomonidan valyutaning olib chiqib ketilishi butunlay ta'qiqlanishi yoki ma'lum muddatga muzlatib qo'yilishi mumkin.

Mamlakat risklari valyuta risklarini qamrab oladi hamda qarz oluvchining davlatida makroiqtisodiy sharoitni qaltis o'zgarishi riskini, qarz oluvchi firmaning milliyashtirilishi ehtimoli va qarz oluvchining davlati harbiy nizolarga qo'shilib ketishi kabi holatlar bilan yuzaga keladigan risklar bo'ladi.

Xalqaro kreditlashda risklarni kamaytirish uchun, kredit ta'minotida garov va kafillik ishlatiladi.

Odatda garov sifatida quyidagilar ishlatiladi:

- qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, yuqori likvidli aksiyalar va hokazo);

- ko'chmas mulklar (binolar, asbob-uskunalar va hokazo);

- qimmatli aktivlar (kemalar, samolyotlar va hokazo);

- ombordagi, yo'ldagi tovarlar va hokazo;

Qarzdorni kreditini qaytarishga quyidagilar kafillik berishi mumkin:

- davlat organlari va tashkilotlari;

- yirik banklar;

- yaxshi kredit reytingiga ega bo'lgan korxonalar.


Kafillik – kafillik qog'ozi yoki veksellar bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy markazlarning birida joylashgan TMB filiali xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb qiladi. Bizga ma'lumki, bunda mablag'larni jalb qilish minimal bahoda sodir bo'ladi, ya'ni amalga oshiriladi. Keyin u bu pullarni shu bankning Ofshordagi filiallaridan biriga o'tkazadi. Ofshor filiali (yoki Ofshordagi sho'ba bank) bu mablag'larni qaysidir kompaniyaga kredit mablag'i sifatida bu pullar kerak bo'lib turgan bo'lsa, pulni qabul qiladigan o'sha davlatdagi (sho'ba bank) filialiga o'tkazadi. Albatta, kredit kapital bozorida jalb qilingan mablag'ni past foizda emas, balki ancha yuqori foizda beriladi. TMBning uchta bo'limi o'rtasida shartnoma shunday tuziladiki, olinadigan foydani hammasi Ofshor bankida qoladi, sababi bu joyda soliq umuman to'lanmaydi.

Odatda keyigi paytda TMB o'z operatsiyalarida Ofshor filiallari yoki sho'ba banklari va moliyaviy markazlardagi filiallaridan foydalanmoqdalar. Qanchalik darajada TMB kapital harakatini o'zining tuzilmalari hisoblangan Ofshor banklar orqali soddalashtirilgan mexanizmini yaratganligini va u qanchalik samarali ishlayotganligini quyidagi chizmada ko'rib chiqamiz:

2.1- chizma

TMB tarkibiy tuzilishida moliyaviy oqimlar



Agar aslida urushdan keyingi Yevropada dollarlarni talab qiladigan Yevro-bozor paydo bo'lgan bo'lsa, 70-yillarda asosiy valyutada hisob-kitob qilish zarurati dunyoning boshqa qismlarida paydo bo'lgan. Bu yerda yangi sarmoyalar bozorlari shakllana

boshladi, ularning amaliyotlari aslida an'anaviy bozorlarda operatsiyalardan farq qilmadi, ya'ni tranzaksiya mamlakatiga milliy bo'lmagan valyutada milliy bozorga nisbatan imtiyozli rejimda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bunday markaz paydo bo'lishi uchun rivojlangan bank tizimi, yirik fond birjasi va barqaror valyutaning mavjudligi kerak emas edi. Xalqaro dilerlar Ofshor bozorga yevrooperatsiyalarni tartibga soluvchi imtiyozli rejim va, eng avvalo, soliq rejimini jalb qilishdi. Odatda, Ofshor markazlarda bank operatsiyalaridan tushadigan foyda an'anaviy markazlarga nisbatan juda kam yoki umuman yo'q. Shuning uchun, London, Parij, Lyuksemburg, Syurix kabi an'anaviy xalqaro moliya markazlari bilan birga Niderlandiya, Singapur va boshqa mamlakatlarda yaratilgan markazlar muhim rol o'ynashga kirishdi. Arabistonning bir qator moliyaviy markazlari (Kuvayt, Bahrayn va boshqalar) neft-gaz konlari bozorlari mustaqil emas, biroq hozirgi paytda rivojlangan va rivojlangan davlatlardan kapitalni jalb qilish uchun keng miqyosli yagona xalqaro bozor yaratish yo'lida rivojlanayotgan mamlakatlar Yevropa bozorining bir qismidir.

1980-yillarda bu jarayon Qo'shma Shtatlarda bepul zonalar (QO'SHMA SHTATLARDAGI BEPUL ZONALAR) ni yaratishga, keyin esa Yevropa bozorlariga nisbatan "Yevrovalyuta" ning Ofshor markazlari bo'lgan Yaponiyada yaratilgan, biroq ular bir qator xususiyatlarga ega: birinchi navbatda, qattiqroq tartibga solish tartibi; ikkinchidan, bu zonalarda operatsiyalar "Yevrobozor" ning qabul qilingan konsepsiyasiga qarama-qarshi bo'lgan bir mamlakatning valyutasida amalga oshiriladi. Biroq, bu ziddiyat qo'shma shtatlardagi bepul zonalarini Yevropa bozoridan ajratishga emas, balki Yevropa bozorining o'zini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u "Yevropa bozori" konsepsiyasi uchun yangi mezonlarni izlashga imkon yaratdi. Yevrooperatsiyaning tabiatini baholashning umumiy qabul qilingan mezonlari - tranzaksiya valyutaga muvofiq qatnashchilar va uning hududiga milliy valyutaga muvofiq - qo'shma shtatlardagi bepul zonalar ochilishida kamroq tushuniladi. Yevrooperatsiyaning iqtisodiy mazmunini aks ettiruvchi yagona umumlashtiruvchi xarakteristikasi bu ularning tartibga solish tartibi bo'lib, u milliy bozorda operatsiyalarni tartibga solish tartibidan, birinchi navbatda, soliqlarning yanada imtiyozli tabiati va majburiy to'lovlarning yo'qligi bilan ajralib turadi.

Birinchi marta bunday hudud Nyu-Yorkda 1981-yilda, so'ngra AQSHning ba'zi bir shtatlarida (Kaliforniya, Florida, Illinoys, Texas va Kolumbiya okrugida) va 1986-yilda Yaponiyada yaratilgan. Tokio hududi Nyu-York turiga ko'ra yaratilgan.

AQSH da bepul zonalar tashkil qilish mamlakatning kredit va moliya tizimini yanada rivojlantirish va Nyu-Yorkning xalqaro moliya markazi sifatida mustahkamlanishidagi navbatdagi qadam bo'ldi. Zonalar yaratish tashabbusi AQSHning eng yirik tijorat banklaridan kelib tushdi, chunki ularning ko'rinishi, asosan, AQSH bank tizimining manfaatlariga qaratilgan edi.

AQSH banklarining qo'shma shtatlardagi bepul zonalarini ochish istagining asosiy sababi global kapital bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishdan iborat edi. 70-yillarda G'arbiy Yevropa va Yapon tijorat banklari Amerika banklari uchun kuchli raqobatni yaratdilar. Shuning uchun o'z hududida yevro operatsiyalarini amalga oshirish AQSH banklariga bir qator afzalliklarni berdi va ularning raqobatbardoshligini oshirdi. Ushbu afzalliklar birinchi navbatda ma'muriy xarajatlarni qisqartirish qobiliyatiga, shuningdek, qo'shimcha sug'urta xatarlarini qoplash va Ofshor markazlarda xorijiy filiallar orqali pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq bo'lmagan to'lov risklarini bartaraf etishdan iborat edi.

AQSHning yirik banklari qo'shma shtatlardagi bepul zonalarini ochish taklifi xorijiy banklarning o'zaro manfaatiga asoslangan: birinchi navbatda, rivojlangan AQSH ichki bozoriga yevroning operatsiyalarini amalga oshirish uchun imtiyozli rejim bilan kirishni birlashtirish; ikkinchidan, yevrodollarni qayta ishlash jarayonida oraliq aloqalarni bartaraf etish natijasida AQSH bozorida operatsiyalarning rentabelligini oshirish.

AQSH hukumati AQSH kredit tizimining, ayniqsa, banklarning, mamlakat iqtisodiyotidagi roli ortib borayotgani sababli o'z banklarining talablariga javob berishga majbur bo'ldi. Buning tasdig'i bank aktivlarining AQSHning yalpi milliy mahsulotiga nisbatan o'sib berishi. 1960-yilda bu ko'rsatkich 38 foiz, 1970-yilda - 45, 1980 yilda - 54, 90-yillarda esa 60 foizni tashkil etgan. AQSH hukumati uchun so'nggi o'n yil ichida uch barobardan ziyodroq bo'lgan davlat qarzlariga xizmat ko'rsatishda banklarning roli o'ta muhimdir.

AQSH ma'muriyati qo'shma shtatlardagi bepul zonalami ochishdan manfaatdor edi.

Qo'shma shtatlardagi AQSH banklarining xalqaro faoliyatni konsentratsiyasi va mamlakatda xorijiy banklar tarmog'ini kengaytirish federal va mahalliy budjetlarga soliq daromadlarini oshirish imkonini berdi. Xalqaro amaliyotga muvofiq, banklarning daromad solig'i qonunlarga va hududida yevro operatsiyaning amalga oshirilayotgan mamlakat foydasiga olinadi. Mintaqani ochish maqsadining uzoq vaqt davomida shubha qilinishning asosiy sababi yevro operatsiyalarining AQSHning ichki pul aylanmasiga salbiy ta'siri bor deb qo'rqish edi. Chunki valyuta bozorining 65 foizini tashkil etadigan dollar AQSHning milliy valyutasidir.

Birinchi bepul bank zonasini yaratish to'g'risidagi akt 1980-yilda Federal xazina tizimi (FZT) tomonidan imzolangan Nyu-York kliring palatalari assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilindi va 1981-yil 1-dekabrda kuchga kirdi. Unda zonaning ishtirokchilarini, operatsiyalarning asosiy turlari va AQSH monetar tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatish, oldini olish va mintaqadagi faoliyatni chegaralash qoidalari keltirilgan.

Zonada faqat uning a'zolari o'z operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin. A'zolikka ega bo'ladiganlar AQSHdagi bank muassasalari, AQSHdagi xorijiy banklarning filiallari yoki idoralari hisoblanadi. Ishtirokchilar markaziy bankda ro'yxatdan o'tishlari kerak. Zonada, yevrobozorning boshqa moliyaviy markazlarida amalga oshiriladigan kredit va depozit operatsiyalar singari, majburiy xazina talablaridan ozod qilinadi, depozit daromadlarini cheklash va h.k olib borilishi mumkin. Bundan tashqari, zonaning ishtirokchilari imtiyozli soliq rejimiga bo'ysunishadi, natijada yevro operatsiyalardan olinadigan foyda, taxminan, Yevrobozorning boshqa markazlarida bo'lgani kabi bir xil bo'lgan; 1986-yilgacha - 46 foiz, keyin soliq islohoti natijasida 34 foizgacha qisqargan.

TMK uchun erkin bank zonasining rivojlanish ko'lamini amalda baholash qiyin, chunki amaliyotlar bo'yicha statistik ma'lumot yo'q. Turli baholarga ko'ra, misol uchun, 1980-yillarning o'rtalarida Amerika Qo'shma Shtatlarida 500 dan ortiq bank filiallari ochilgan bo'lib, ularning aksariyati Nyu-Yorkda joylashgan va bu AQSHning xalqaro bank faoliyatining asosiy markazi bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shma shtatlardagi bepul zonalarining barcha filiallarining yarmidan ko'pi (55%) xorijiy banklar uchun ochiq, Nyu-Yorkda ular 77% ni tashkil etdi.

Qo'shma shtatlardagi bepul zonalar nisbatan kichik ulushining sababi bank faoliyatining qattiq tartibga solinishi edi. 1980 va 1990-yillarda mintaqada mavjud cheklovlar tufayli Yevrobozorning boshqa moliyaviy markazlari bilan raqobatlasha olmadi. Avvalo, bu mintaqada ruxsat etilgan operatsiyalar turlariga tegishlidir. Ularning asosiy qismini banklararo depozit operatsiyalari, aylanma mablag'lar bilan operatsiyalar va qimmatli qog'ozlar, xususan, obligatsiyalar, depozit sertifikatlaridan iborat. Qarzdorlarning asosiy talabi taqdim etiladigan turli nazoratsiz operatsiyalar taqiqlanadi va bu erkin bank zonalarining jozibadorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, amaldagi bank hisob raqamlarini ochish taqiqlari, qo'shma shtatlardagi bepul zonalar ishtirokchilari bo'lgan banklarga tashqi savdo to'lovlarini amalga oshirishga ruxsat bermaydi. Depozit operatsiyalari bo'yicha muddatlarning cheklanishi banklarni tez orada Nassau shahrida chet ellarda filiallar orqali kechiktirib bo'lmaydigan "Overnait" operatsiyalarni amalga oshirishga majbur qildi. Kapitalning 10% ga kreditlashni cheklash, shuningdek, mintaqaning rivojlanishida cheklovchi omildir, chunki ishtirokchilar London va Nassau shaharlaridagi o'z ofislari orqali ushbu miqdordan ortiq miqdorda kreditlar ajratishlari kerak.

Shunday qilib, amaliyot shuni ko'rsatdiki, AQSH pul tizimiga salbiy ta'sirini oldini olish uchun qo'shma shtatlardagi bepul zonalarini tartibga solishning mavjud tuzumi ma'lum darajada mintaqaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Qayta tartibga solishning qisqarishi erkin bank zonalarining o'rnini Yevropa bozoriga o'zgartirishga imkon beradi, biroq u joylashgan mamlakat iqtisodiyotiga barqarorlashtiruvchi ta'sirini oshiradi.

Tijorat banklari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning subyektlariga sifatli moliyaviy xizmatlarni taqdim etishi uchun birinchi navbatda yetarli darajada depozit bazasiga ega bo'lishlari lozim.

Xalqaro banklarning depozit bazasi quyidagi omillar hisobiga shakllanadi:

- kapitallarning ichki bank harakati;
- tashqi resurslarni jalb qilish.

Uzoq muddatga jalb qilinadigan resurslar depozit bazasining barqarorlik nuqtayi nazaridan eng muhim depozitlar hisoblanadi. Xalqaro banklar depozit bazasini bir vaqtning o'zida bir nechta valyutada shakllantiradi. Bu esa, ularning depozit bazasini diversifikatsiya qilinganligidan dalolat beradi. Depozit bazasini diversifikatsiya qilish valyuta riskini sezilarli darajada pasaytiradi.

Xalqaro tijorat banklarining depozit operatsiyalari quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilinadi:

- depozit operatsiyalari foyda olish imkonini berishi lozim;
 - depozit operatsiyalari turli subyektlar bilan amalga oshirilishi lozim;
 - muddatli depozitlar alohida e'tiborga va tashkil qilishga molik bo'lgan depozitlardir;
 - depozit va ssuda operatsiyalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik va muvofiqlik bo'lishi lozim;
 - depozit operatsiyalarini tashkil qilish boshqa resurslarning miqdorini minimallashtirishga olib kelishi lozim;
 - bankning depozit bazasi diversifikatsiya qilingan bo'lishi lozim.
- Ssuda operatsiyalari xalqaro tijorat banklari aktiv operatsiyalarining asosiy turi hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad yuqori foyda olishni ta'minlash hisoblanadi.

Ko'plab taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan xalqaro tijorat banklarining kredit operatsiyalariga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarning mavjudligi e'tirof etilgan:

1. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi yirik miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi, bu mablag'larni esa, faqat xalqaro tijorat banklari bera oladi.

2. Sanoat kapitali tarkibining ishlab chiqarishning to'planishi va ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'zgarishi uzoq muddatli qo'shimcha moliyaviy qo'yilmalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Xalqaro tijorat banklari diversifikatsiyalashgan depozit bazasiga ega bo'lganliklari sababli uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni amalga oshirish imkoniyatiga egadir.

3. Hozirgi davrda yirik bank va sanoat monopoliyalarining faoliyati uyg'unlashib ketgan. Bu esa, monopolist banklar tomonidan beriladigan kreditlardan raqobat kurashining usullaridan biri sifatida

foydalanish imkonini beradi. Xalqaro tijorat banklari kredit berganligi uchun yirik korporatsiyalardan faqat shu bankning xizmatidan foydalanishni talab qiladi.

2.4. Moliyaviy konglomeratlar va bank xoldinglari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari

TMBlar o'rtasidagi raqobatning ortishi yangi xalqaro bank strategiyasini ishlab chiqish va moslashtirishga olib keldi. Ushbu strategiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- filiallar tarmog'ini birlashtirish, sotib olish va geografik kengaytirish orqali banklarni birlashtirish; - tijorat va investitsiya maydonchalarini bir moliya muassasasida birlashtirish yo'li bilan banklarni universallashtirish;

- jo'g'rofiy bozorga qarab universallashtirish uchun turli strategiyalardan foydalanish;

- riskli aktivlar miqdorini kamaytirishga imkon beradigan yangi mahsulotlarni joriy qilish yo'li bilan banklar balanslari tuzilmasini o'zgartirish (aktivni sekundlashtirish).

Global raqobat riskini muntazam ravishda boshqarishda ko'rsatilgan variantlarni ko'rib chiqamiz. Kengayish. Banklarning kengaytirilishi ularga taqdim etilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish va ularni geografik jihatdan kengroq taklif qilish imkoniyatidan foydalanib, muvaffaqiyatli raqobatlashishga imkon beradi. Kengayish, shuningdek, banklarning an'anaviy xaridorlarga, ayniqsa, TMKlarga tashqi bozorlarda yangi iste'molchilardan qo'shimcha daromad olish va xodimlar xarajatlarini optimallashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish orqali jami xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, birlashish va sotib olish xarajatlarini kamaytirish uchun muhim omillar funksiyalarning markazlashtirilishi (iqtisodiy tahlil, axborot texnologiyalari, risklarni boshqarish, boshqaruv xodimlari) va xodimlarni qisqartirish hisoblanadi. Masalan, 1998-yil o'rtalarida Amerika banklari Norwest va Wells Fargoning Qo'shma Shtatlardagi yettinchi banki (190 mlrd. dollar) birlashishi umumiy xarajatlarni yiliga 650 mln. dollarga kamaytirdi. Bank xodimlarining qisqarishi boshqaruv darajasining va bir-biriga o'xshash funksiyalarning (shu jumladan filiallarning)

hisobidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ABN AMRO Bank 1991-yilda ABN AMRO bankining birlashuvidan boshlab, Niderlandiyadagi filiallarining soni 1,462 dan 943 gacha kamaydi. Yangi texnologiyalarni rivojlantirish banklarning sarf-xarajatlaridan biridir. Masalan, 1998-yilda Shvetsiya Skandinaviska Enskilda Banken va Swedbankning axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha xarajatlari 2,9 mlrd. kron (360 mln. dollar) va 2,5 mlrd. kron (310 mln. AQSH dollari) umumiy xarajatlarning 25%)ga teng bo'ldi. Birgalikda ishlab chiqish va texnologiyalarni joriy etish, birinchi navbatda, eng ilg'or mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon beradi, ikkinchidan, mijozlarning takliflarini ko'paytiradi. Bu jarayonda kengayish bo'lishi mumkin: birlashish, boshqa moliyaviy institutlarni sotib olish, shuningdek, xalqaro va milliy tarmoqlar tarmog'ini mustaqil ravishda kengaytirish.

Shunday qilib, aktivlar nuqtayi nazaridan taqqoslanadigan va banklarning boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarining birlashishi ularning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi:

- birlashtirilgan banklardan birining o'ziga xos mahsulotlarini boshqa bank mijozlariga taqdim etish;

- birlashtirilgan banklar tomonidan mijozlarga ma'lumotlar bazalarini almashish. Birlashuv jarayonida bankning raqobatbardoshligi, mavjud va potensial mijozlar oldida uning obro'sini yaxshilash hisobidan ortadi. Bankning hajmi moliyaviy bozorda muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda banklarning birlashuvi yo'li bilan ko'plab banklar birlashtirildi. Shunday qilib, 1998-yilda Shveytsariyaning Swiss Bank Corporation va Union Bank of Switzerland banklari birlashib, jami aktivlar bo'yicha dunyodagi eng yirik bank bo'lgan UBS (1997-yil oxirida 698,5 milliard dollar)ni tashkil etdi. Amerika Citicorp va Travellers Group guruhi birlashuvi dunyodagi ikkinchi yirik bank - CitiGroup ni (1997-yil oxirida 697,5 milliard dollar) tashkil etdi. BankAmerica Nations Bank va Bank of Americalarining birlashuvi natijasida paydo bo'lgan bo'lib, dunyodagi aktivlar bo'yicha beshinchi o'rinni egallagan. Eng muvaffaqiyatli banklardan biri 1996-yilda Chase Manxattan nomidagi Amerika banki Chase Manxattan va Chemical Bank. ning birlashishi natijasida paydo bo'lgan. 1998-yilga kelib, birlashtirilgan bank samarali tashkiliy tuzilmani, risklarni boshqarish

tizimini yaratdi va dunyodagi bir qator bank mahsulotlarini yaratishda yetakchi o'rinni egalladi. Bank, raqobatbardosh mavqeyi juda kuchli bo'lgan xizmatlarning muayyan turlariga qaratilgan. Shunday qilib, 1999-yil boshida bank sindikatli kreditlar uchun global bozorning 25% ulushiga ega edi. 1998-yilning oktabridan boshlab jahon moliyaviy inqiroziga qaramay, Chase hech qanday boshqa bank bunday operatsiyalarni amalga oshira olmagan muhitda yirik operatsiyalarni amalga oshirdi: Federal Morgul na pokupku Cooper Industries. ni sotib olish uchun kredit (1,95 milliard dollar) bilan sindikat tashkil qilish orqali 50 ta ishtirokchi, "Seagram Industries" Polygram ni Pxilips kontsernidan (8,5 milliard dollar) sotib olishni va Chrysler va Daimler-Benz kompaniyalarini qo'shilishini (40,5 mlrd.) moliyalashtirishni tashkil etdi. Kichikroq moliyaviy institutlarning yemirilishi orqali ularni kengaytirish, shuningdek, bankning global raqobatbardoshligini oshirishning bir usuli hisoblanadi.

Misol uchun, 1996–1999-yillarda Gollandiyaning ABN AMRO banki qator yirik xorijiy sarmoyalarni kiritdi: AQSH Commercia Bank Illinois va Columbia National Bank (1996-yil) korporativ va xususiy mijozlarga xizmat ko'rsatadigan - Lloyds Bank NZA (1996) va Barclays BZW (1997), investitsion bank xizmatlarini taqdim etuvchi - katta venger banki Madyar Hitel Bank (1996); amerikalik yirik jamg'arma banki Standard Federal Bankcorp (1997); Amerikaning yirik korporatsiyalariga xizmat ko'rsatadigan The Chicago Corporation (1997); Taylandning eng katta universal banki bo'lgan Bank of Asia (1998); 1373 filiallar filiallari tarmog'i (1998-yil) bilan Braziliyaning "Banco Real" yirik banki va boshqalar.

Nazorat savollari:

1. Transmilliy banklar tushunchasiga ta'rif bering.
2. Transmilliy banklar kreditlash operatsiyalari nima?
3. Transmilliy banklarni rivojlanish omillari nima?
4. Transmilliy banklar tajribalarini o'rganish deganda nimani tushunasiz?
5. Transmilliy banklar tomonidan beriladigan kafillik qanday ahamiyat kasb etadi?

III BOB. MOLIVAVIY INQIROZ: 2007–2008-YILLAR

Reja:

3.1. Jahon moliyaviy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari.

3.2. Rivojlangan mamlakatlarda jahon moliyaviy inqirozidan chiqish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlili va diversifikatsiyalash siyosatining ahamiyati.

3.3. Rivojlanayotgan va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining Inqirozga qarshi choralar dasturi.

3.4. Jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy inqirozdan chiqarilgan xulosalar.

3.1. Jahon moliyaviy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi uchun makroiqtisodiy muvozanatlar ta'minlanishi shart, bular jumlasiga jami talab va taklif, daromadlar va xarajatlar, iste'mol va jamg'arish, tovar pul muvozanatlari kiradi.

Bozor tizimida muvozanatlarning saqlanishi tendensiya tarzida bo'ladi, ya'ni ular tiklanib, buzilib va qayta tiklanib turishga moyil bo'ladi. Shu sababli iqtisodiy o'sish to'liqsimon, tebranma harakat shaklida yuz beradi, bu siklli o'sishni hosil etadi. Iqtisodiyot ko'tarilganda yuksalishda, u pasayganda retsessiya holati paydo bo'ladi. Resessiya tanglik bo'lib, krizis va depressiya (turg'unlikni)ni o'z ichiga oladi. Tanglikni eng og'ir ko'rinishi stagnatsiya (krizisning uzoq davom etishi) hisoblanadi. Stagnatsiya yuz berganda tanglik uzoq davom etadi, iqtisodiyot o'zini tezda o'nglab ololmaydi, ommaviy ishsizlik ro'y beradi, aholining turmush darajasi pasayib ketadi. Tanglik ma'lum vaqtgacha davom etadi, uning uzun yoki qisqa bo'lishi tanglikning naqadar chuqur bo'lishiga, bozor mexanizmining layoqatligining tiklanishiga va davlatning inqirozdan chiqish choralariining samaradorligiga bog'liq.

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu, 2008-yilda

boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat"⁹.

"Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi"¹⁰.

Bundan ko'rinadiki, dastlab AQSH ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarini qaytarish qobiliyati shubhali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y berdi.

Modomiki, ipoteka krediti o'zining mohiyati bo'yicha ko'chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo'lsada, AQSH bozorlari bunday likvidli ko'chmas mulklarga yetarlicha "to'yindi" va ularning narxlari keskin tusha boshladi. Buning ustiga investitsion banklarning AQSH ipoteka bozorlaridagi yangi moliyaviy "mahsulot" hisoblangan aktivlarni sekyuritizatsiyalash bo'yicha operatsiyalarining avj olishi ipoteka bozorlaridagi tanazzullik holatlari ehtimolligini oshirdi.

AQSH iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to'yindi va bu Federal zaxira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004–2006-yillarda Federal zaxira tizimi foiz stavkalarini 6,25% gacha ko'tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining qisqarishiga olib keldi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o'sishi aholining kreditni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi. 2000–2007-yillar mobaynida jahon bozorida oziq-ovqat

⁹ Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T. : O'zbekiston, 2009, 4-bet.

¹⁰ Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T. : O'zbekiston, 2009, 4-bet.

mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga oshdi, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshdi. Neft narxi rekord darajada, ya'ni bir barreli 147 dollardan ortdi.

Pirovard natijada 2007-yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining "mevasi" ekanligini, ya'ni "o'z-o'zini boshqaruvchi bozor" g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va, xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamodalar.

Shu o'rinda, jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashtirish jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlarda, masalan, AQSHda keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valyuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq jahon amaliyotida 1976-yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimiga o'tgach, pulning oltin mazmuni yo'qolib, asosan, AQSH dollari yetakchi valyutaga aylangach, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo'lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashtirish jarayonining jadallashtirish ta'sirida xalqaro iqtisodiy aloqalarda qat'iy valyutaga bo'lgan

talabning yanada kuchayishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligini ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoridan, ya'ni pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi.

Dunyoning hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga keldi¹¹:

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarlari, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu inqiroz, asosan, o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini tasdiqladi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lam va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan qator omillardan kelib chiqadi. Avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekanligiga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq.

¹¹ Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T. : O'zbekiston, 2009, 5-bet.

To'rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ustun darajada har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

Jahon moliyaviy inqirozi kelib chiqishining umumiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida davlat budjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga egaligi;
- davlat tashqi qarzi miqdorini YaIMga nisbatan o'sish sur'atlarini jadallashishi;

- noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashash kundalik odatga aylanishi;

- ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi;

- moliyaviy institutlarning majburiyatlariga nisbatan ustav mablag'larining mutanosibligini keskin buzilishi;

- qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarini buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;

- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;

- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarni vujudga kelishi.

Ushbu omillar mamlakatlar iqtisodiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi va inqirozga qarshi kurash chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda surunkali budjet taqchilligi va salbiy tashqi saldo saldosinga kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi (3.1-jadval).

3.1-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlari tashqi savdo saldosidagi o'zgarishlar (mlrd. AQSH doll.)


Mamlakatlar	1996 yil	2007 yil
Rivojlangan mamlakatlar, jami:	46,2	-798,8
AQSH	-120,2	-854,7
Yaponiya	65,4	81,0
Yevropa Ittifoqi	88,5	-228,0
Boshqalar	12,5	202,2
Rivojlanayotgan mamlakatlar, jami:	-87,5	509,7
Xitoy	7,2	562,0
Yaqin Sharq va Afrika	5,9	311,0
Boshqalar	-100,6	-363,3

Jadvaldan ko'rinadiki, 1996-yilda rivojlangan mamlakatlar hissasiga 46,2 mlrd. dollar hajmdagi ijobiy tashqi savdo saldosini to'g'ri kelgan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu ko'rsatkich 798,8 mlrd. dollar hajmdagi salbiy saldoni, ya'ni taqchillikni tashkil qilgan. Aksincha, bu davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda butunlay teskari manzara kuzatilib, ularning 87,5 mlrd. doll. hajmdagi salbiy tashqi savdo saldosini 509,7 mlrd. doll. hajmdagi ijobiy tashqi savdo saldosiga aylangan.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilgan bunday nomutanosiblik holatlari, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar savdo balansida ijobiy saldo o'sayotgan sharoitda ayrim rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo balansidagi yirik miqdordagi taqchillikning vujudga kelishi dunyo mamlakatlari valyuta zaxiralarining o'zgarishiga olib keldi. Xususan, keyingi yillarda Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlari valyuta zaxiralarini keskin o'sdirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi paytlarda xalqaro valyuta zaxiralarining 3,4 trln. dollari, ya'ni jami zaxiralarning qariyb 59% Osiyoning 10 ta yirik mamlakati hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Aksariyat xalqaro ekspertlarning e'tirofi etishlaricha, 2007-yilda AQSH ipoteka bozorlarida boshlangan inqirozning avj olishi va uni jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqishiga faol ta'sirini AQSHning

jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy iste'mol qiluvchisi hisoblanganligini keltirib o'tishadi. Ma'lumotlarga qaraganda, AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqishdagi hisssasi 20% ni tashkil qilsada, uning iste'molidagi hissasi qariyb 40%ni tashkil qiladi.



3.1-rasm. Jahondagi ayrim davlatlar tashqi qarzining YaIMga nisbatan dinamikasi, foizda

Rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSH davlat tashqi qarzi miqdorining o'sib borganligi va uni YaIMga nisbatan salmog'i o'sganligi inqirozni kuchayishining asosiy omillaridan biri bo'ldi (3.1-rasm).

Rasmdan ko'rinib turibdiki, keyingi 4 yil mobaynida, xususan, AQSH va ayrim Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari (Qirg'izistondan tashqari) tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotlariga nisbatan salmog'i ortib borgan. Xususan, 2008-yilda AQSH tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i qariyb 90% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 37% ni, Qozog'istonda 102% ni, Ukrainada 64% ni tashkil etgan. Qirg'izistonda esa keyingi 3 yil mobaynida pasayish tendensiyasi kuzatilib 2008-yilda 81% ni tashkil qilgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida ijobiy tendensiya kuzatilmogda. Ya'ni amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosat

natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 2005-yildagi 29% dan 2008-yilda 13,3% ga qadar qisqargan.

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi resessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda.

Xususan, 2008-yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009-yilda jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko'lamining yanada pasayishini kuzatilishi hamda xalqaro savdo hajmi qariyb 15% ga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin

"Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz, asosan, o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi"¹².

AQSH Federal zaxira xizmatining sobiq raisi Alan Grinspen boshchiligidagi AQSH federal zaxira tizimi tomonidan olib borilgan noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida banklar tomonidan kredit berish ko'lami keskin o'sdi. Federal zaxira tizimining ekspansion pul-kredit siyosati tijorat banklariga taqdim etadigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini 1,25%gacha pasaytirilishida namoyon bo'lgan edi.

Alan Grinspenning ipoteka bozorlariga e'tiborsizligi, ipoteka kreditlari berish talablarining haddan ziyod erkinlashtirilishi

¹² Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаронтида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 5-бет.

natijasida bozorda ko'chmas mulklarga talab ortdi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi kuzatildi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi natijasida banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari o'ta yengillashib, bu holat kreditlardan foydalanishda to'lovga layoqatlik darajasining hisobga olinmasligiga imkon yaratdi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan amaldagi bank kapitalini xalqaro tartibga solish (Bazel II) tizimi moliyaviy inqirozni vujudga kelishi uchun zamin yaratganligi e'tirof etilmoqda. Ma'lumki, 90-yillarning boshida qabul qilingan bank kapitalini xalqaro tartibga solishning Bazel II tizimi tijorat banklari uchun talab qilinadigan kapital yoki kapitalning yetarliligi aktivlarning investitsion sifatлари va ularning risk darajasi bo'yicha guruhlashni ko'zda tutadi. Natijada Bazel II bank kapitallarini reyting agentliklari xulosalariga asoslangan holda yuqori riskli aktivlarni sekyuritizatsiyalab, qimmatli qog'ozlarga aylantirishni rag'batlantirgan.

Yuqoridagi holatlar moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligini, shunga ko'ra, ushbu tizimni tubdan isloh qilish orqali yangi, sog'lom moliyaviy tizimni shakllantirish zarurligini tasdiqlamoqda.

Hozirgi iqtisodiy inqirozning xususiyatlari:

Birinchidan, taraqqiy etgan mamlakatlardan boshlanib, inqiroz juda katta masshtabga ega bo'lib, barcha davlatlar va hududlarni qamrab olmoqda.

Ikkinchidan, ushbu inqiroz so'nggi o'n yillikda tez rivojlangan davlatlarga katta ta'sir o'tkazdi, qoloq davlatlar esa undan kam jabr ko'rishdi.

Uchinchidan, ushbu inqiroz tarkibiy xarakterga ega, ya'ni jahon iqtisodiyoti tarkibi va uning texnologik bazasida jiddiy yangilanishni taqozo etmoqda. Tarkibiy o'zgarishlar tufayli ishlab chiqarish kuchlari tarmoq va hududlar bo'yicha qayta taqsimlanadi.

To'rtinchidan, inqiroz innovatsion xarakterga ega. So'nggi yillarda moliya-iqtisodiyot sohasida moliyaviy innovatsiya bilan bog'liq moliya bozorining yangi dastaklari vujudga keldi va ular jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash o'rniga inqirozga olib keldi.

3.2. Rivojlangan mamlakatlarda jahon moliyaviy inqirozidan chiqish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlili

XX asrning oxirlarida boshlangan va hozirgacha davom etib kelayotgan bozorlarning globallashuvi, kapitallar xalqaro harakatining erkinlashtirilishi natijasida AQSH bozorlarida vujudga kelgan inqiroz dunyoning boshqa mamlakatlariga ham keng yoyildi.

Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lam va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliyavaluta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liqdir.

AQSH banklari va ipoteka agentliklarining qimmatli qog'ozlariga qo'yilma qilingan xorijiy investorlar moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. AQSH moliya bozorlaridagi inqiroz jahonning yirik fond bozorlaridagi konyunkturaga ta'sir qildi va bu, o'z navbatida, mazkur bozorlardagi fond indeksleri (S&P, Dow-Jones, Nasdaq, FTSE, CAC, DAX, Nikk YI, Hang Seng, Shanhai composite, RTS, MMVB va boshqalar)da o'z aksini topdi. Global moliyaviy bozorning asosiy tarkibi va jahonning asosiy moliyaviy markazlari hisoblangan yirik fond bozorlarini o'z ichiga oluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar YalMning o'sish sur'atlari keyingi yillarda ahamiyatli darajada pasayib ketdi

"Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararning darajasi va ko'lam birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q"¹³.

Jahon moliyaviy inqirozi aksariyat rivojlangan mamlakatlar moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining bank tizimlarini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining

¹³ Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T. : O'zbekiston, 2009, 5-bet.

aksiyalarini sotib olib, ularni budjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladi.

AQSH hukumati iqtisodiyotga yirik masshtabdagi davlat aralashuvi siyosatini yurita boshladi. AQSHning sobiq moliya vazirining tashabbusi bilan Kongress "Polson rejasi" deb nomlanuvchi rejani qabul qildi. Mazkur rejaning umumiy hajmi 700 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari inqirozdan chiqish bo'yicha tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanishga kelishib olishdi. Bu holatda kafolatlar banklararo kreditlar bo'yicha 5 yil muddatga taqdim etiladi va hukumat banklarning imtiyozli aksiyalarini sotib olish orqali ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Masalan, AQSHda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali xususiy sektorni to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish amaliyotiga o'tish orqali likvidlilikni taminlashning yangi usuliga o'tdi.

Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling mablag'larini investitsiya qilishini e'lon qildi. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun kapital va kreditlar bo'yicha kafolatlar shaklida 500 mlrd. yevro ajratishini e'lon qildi. Avstraliya hukumati esa, barcha jamg'armachilar pul jamg'armalarini 3 yilga kafolatlashini e'lon qildi va ipoteka qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun 2,6 mlrd. dollar mablag' ajratdi (3.2-jadval). Yevropaning yirik banklari milliyalashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi.

Inqirozdan qutqarish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlardan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar tartibga solinmaydigan erkin bozor haqidagi ideologik dogmani orqaga tashlab, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalana boshladilar.

Tijorat banklarini "milliyalashtirish"ni nazarda tutuvchi davlat budjetidan ajratilgan mazkur investitsiya resurslari ma'lum bir davrga o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash bo'yicha yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Ularning hajmi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i inqirozning ta'sir ko'lamini va har

qaysi mamlakatlarning inqirozga qarshi kurash bo'yicha ishlab chiqqan rejalari hajmiga asoslanadi.

3.2-jadval

Jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflangan moliyaviy xarajatlari ¹⁴

Mamlakat	Moliyaviy xarajatlari, mlrd. dollar	Mamlakat YalMga nisb. % hisobida (2008-yil)
Rossiya	222	13, 9
Buyuk Britaniya	1020	37
AQSH	3539	25
Germaniya	893	23
Yaponiya	576	12
Xitoy	570	13
Dunyo bo'yicha	9400	15

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash bo'yicha yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Ularning hajmi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i inqirozning ta'sir ko'lami va har qaysi mamlakatlarning inqirozga qarshi kurash bo'yicha ishlab chiqqan rejalari hajmiga asoslanadi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyo bo'yicha jami sarflangan mablag'larning hajmi 9400 mlrd. dollarni tashkil qilgan. AQSH hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 1020 mlrd. dollarni (mamlakat yalpi ichki mahsulotining 37%), Germaniyada 893 mlrd. dollarni (23%) tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, hozirgi sharoitda inqirozdan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya nisbatan ko'proq aziyat chekmoqda.

Inqirozni bartaraf etish bo'yicha mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar bo'yicha ajratiladigan mablag'lar ma'lum maqsadli sarflanish yo'nalishlariga ega (3.3-jadval).

¹⁴ Manba. Internet ma'lumotlari.

Inqirozni bartaraf etishga ajratilgan mablag'larning yo'nalishlari

Mamlakat	Kredit mablag'lariga davlat kafolati		Moliyaviy institutlar ustav kapitalariga qo'yilmalar		Yuqori riskli, shubhali aktivlarning xaridi		Boshqalar		Jami
	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	
Rossiya	-	-	185	84	11	5	25	11	221
Buyuk Britaniya	393	39	79	8	-	-	549	54	1021
AQSH	1769	50	714	20	663	19	394	11	3530
Germaniya	539	60	177	20	-	-	176	20	892
Yaponiya	303	53	-	-	-	-	237	47	540
Xitoy	-	-	-	-	-	-	570	100	570
Jami	3004	44	1155	17	674	10	1951	29	6820

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, inqirozni bartaraf etishga sarflangan jami mablag'lar 2008-yilda 6820 mlrd. dollarni tashkil qildi. Kredit mablag'lariga davlat kafolati uchun 3004 mlrd. dollar sarflangan, ya'ni jami ajratilgan mablag'lardagi salmog'i 44% ni tashkil qilgan, moliyaviy institutlar ustav kapitaliga maqsadli qo'yilmalar 1155 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lib, ularning salmog'i 17% ni tashkil qilgan. Yuqori riskli shubhali aktivlarni xarid qilish uchun sarflangan mablag'lar hajmi 674 mlrd. dollarni tashkil qilib, ularning jami ajratilgan mablag'lardagi salmog'i qariyb 10% ni tashkil qilmoqda.

AQSHning inqirozga qarshi dasturi. AQSHning inqirozga qarshi dasturi 2008-yilning fevralida Prezident Barak Obama tomonidan imzolangan bo'lib, u Amerika qayta tiklash va reinvestitsiyalash rejasi (American Recovery and Reinvestment Act)

deb nomlanadi¹⁵. Belgilangan maqsadlar uchun 787 mlrd. doll. miqdorida mablag' sarflanadi (3.4-jadval). Rejada ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

1) 3 mln. ish o'rinlarini saqlab qolish va yaratishga;

2) sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga, shu jumladan, tibbiy xatoliklarning yuzaga kelish xavfini kamaytirish uchun mamlakat bo'ylab kompyuterda hisobga olishni amalga oshirishga;

3) muqobil manbalardan energiya ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, uning hajmini uch yilda ikki barobar oshirishga;

4) federal mulk tarkibida bo'lgan inshootlarning 75 foizini, shu jumladan, maktablar va 1 mln. xususiy uylarni qayta qurish;

5) grand tizimini moliyalashtirishni 7 mln. talabaga yetkazish, ta'lim uchun to'lovlar bo'yicha soliqlarni kamaytirishga;

6) infratuzilmaga yo'naltirilgan keng qamroqli investitsiyalarni amalga oshirishga, shu jumladan, yo'llar, ko'priklar, dambalar, jamoa transport tizimi, temir yo'llar va aeroportlarni yangilashga;

7) 129 mln. ish bilan uy xo'jaligining har biriga soliqdan ozod etish (kredit) sifatida 800 dollardan olish va farzandlar uchun soliq chegirmasini ko'paytirish hisobiga oilalar uchun soliqlarni kamaytirishga;

8) misli ko'rilmagan darajadagi shaffoflik, monitoring va mas'uliyatni ta'minlashga imkon beradi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, dastur 3 yilga, 2011-yilgacha mo'ljallab rejalashtirilgan. Obamaning bu aksilinqiroz dasturi bilan bir qatorda 2008-yilning oktabrida Polsonning "Inqirozga qarshi dasturi" (The Troubled Asset Relief Program, TARC) qabul qilingan edi. Unga ko'ra, muammoli, ya'ni nolikvid bank aktivlari va kapitallarini sotib olish uchun 700 mlrd. doll. mablag' ajratish rejalashtirilgan edi.

¹⁵ www.recovery.gov

AQSHning inqirozga qarshi dasturi

Yo'nalish	Mrld. doll.	Ulushi
Soliq yukini yengillashtirish	288	37%
Shtatlar va mahalliy boshqaruv organlarini soliqlardan ozod qilish	144	18%
Infratuzilma va fan	111	14%
Ijtimoiy himoya	81	10%
Sog'liqni saqlash	59	7%
Ta'lim	53	7%
Energetika	43	5%
Va boshqalar	8	1%
Jami	787	100%

Yevropa mamlakatlarining aksilinqiroz dasturlarining ayrim jihatlari: Germaniya. Germaniya hukumati bankrotlikka mahkum bo'lgan banklarni davlat tomonidan xususiylashtirishga imkon beradigan qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi. Ko'chmas mulk bozorida faoliyat olib borayotgan Myunxen ipoteka banki (Hypo Real Estate Holding AG)ni saqlab qolish maqsadida Germaniya hukumati uning 8, 7 foiz aksiyalarini 69 mln. yevroga sotib oldi. Bungach ko'mak uchun 2008-yilda 62 mlrd. yevro ajratilgan edi.

Shu bilan bir qatorda Germaniya hukumati top-menejrlarining maoshini cheklashga doir yangi tartibni tasdiqladi. Endi rahbariyatni mukofotlash u boshqarayotgan aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatli muvaffaqiyatiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Boshqaruv a'zolari mukofotning bir qismi bo'lgan o'z ixtiyorida aksiyalarini qo'lga kiritganidan so'ng faqat 4 yildan keyin sotish mumkin. Avval esa bu muddat 2 yil qilib belgilangan edi.

Yangi avtomobilni sotib olishda kompensatsiya puli 2 barobar kamaytirildi. Avval, 9 yildan ortiq foydalanilgan mashinani topshirib, avtomobil egasi yangisini sotib olishda davlatdan 2500 yevro olardi.

Germaniyada ishlab chiqaruvchilarga to'g'ridan to'g'ri ko'mak berish AQSHdagidek keng ko'lamli darajada emas. Masalan, 2008-yilning martida mashhur nemis avtomobil ishlab chiqaruvchisi – Opel konserniga to'g'ridan to'g'ri moliyaviy ko'mak berilmadi. Bu kontsern General Motors kompaniyasi tarkibiga kiradi. Hukumat 3 mlrd. yevro ajratilgan taqdirda ham mamlakatda ish o'rinlarini saqlab qolishga kafolat yo'q. Pullar AQSH tomon "oqib ketishi" mumkin.

Fransiya. Fransiya hukumati ham tizim tashkil qiluvchi kompaniyalar uchun to'g'ridan to'g'ri ko'mak berish yo'lidan bormdi. 2008-yilning fevralida hukumat mamlakatning yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalari – PSA Peugeot Citroen va Renault alyansiga moliyaviy ko'mak berdi. Korporatsiya 6-7 foiz bilan 6 mlrd yevro mablag' oladi. Vaholanki, bank stavkalari 11-12 foizni tashkil qiladi. Bunga javoban ishlab chiqaruvchilar zavodni yopmaslikka, kreditlarga to'lov paytida ishchilarni (xodimlarni) qisqartmaslikka, yuqori rahbariyatga dividendlarni kamaytirish va mukofotlarni qisqartishga kafolat beradi.

Yevropa mamlakatlari bank tizimini qo'llab-quvvatlashga AQSHdan ko'ra kam sarflamoqda. Masalan, 2008-yilning sentabrida Belgiya, Fransiya va Lyuksemburg hukumlari Dexia¹⁶ bankiga moliyaviy ko'mak uchun 6,4 mlrd. yyevro (9 mlrd. dollardan ko'proq) miqdorida mablag' ajratishga rozilik berishdi.

Koreya. Koreya Respublikasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish jarayonini quyidagi 3 bosqichda amalga oshirishni rejalashtirilgan:

Birinchi bosqich – Inqirozni bartaraf etish: Likvidlikni taminlash; zamonaviy moliya ekspansiyasini amalga oshirish; yangi ish o'rinlarini tashkil qilish; ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish;

Ikkinchi bosqich – Inqirozdan chiqish: qayta qurish; inson resurslari; siyosatni yangi "yashil" yo'nalishi; davlat sektorini qisqartirish;

¹⁶ Dexia banki 1996-yili ikkita yirik yevropa bank tuzilmasi - Credit Local (Fransiya) va Credit Communal. Credit Local (Belgiya)ning qo'shilishi natijasida tashkil topgan.

Uchinchi bosqich – Yangi o'sish: ITTKlga investitsiya qilish; o'sishning yangi xarakatlovchi kuchi; ekologik toza sanoat; glaballashuv.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish choralari: moliyaviy rag'batlantirish choralari; valyuta likvidligini ta'minlash; moliya bozorini barqarorlashtirish; ish o'rinlari /ishni bo'lish/ professional tayyorgarlik; o'rta va kichik korxonalarning likvidligini ta'minlash; qurilish sektorini qo'llab-quvvatlash.

Yigirmalik guruhi (G20)ning sammiti. 2008-yilning aprelida Londonda yigirmalik guruhi (G20)ning sammiti bo'lib, unda yigirmata mamlakatning rahbarlari ishtirok etdi va global inqirozdan chiqish yo'llarini muhokama qilishdi. Ishtirokchilar tomonidan qabul qilingan yakuniy Kommyunike (London Summit - Leaders Statement)da ko'rsatilishicha, mamlakatlarning birgalikdagi xatti-harakati quyidagi 6 yo'nalishda olib boriladi:

1. Ishonch, iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini tiklash.
2. Kreditlashni yangilash uchun moliya tizimini mustahkamlash.
3. Moliya bozorlari ustidan nazoratni kuchaytirish.
4. Inqirozni bartaraf etish va yangisining oldini olish uchun xalqaro moliya institutlarini moliyalashtirish va isloh qilish.
5. Xalqaro savdoni taraqqiy toptirish va ravnaqni ushlab turish uchun proteksionizmni qo'llamaslik (bekor qilish).
6. Ekologik toza texnologiyalarga asoslangan milliy iqtisodiyotlarning barqaror o'sishini yo'lga qo'yish.

Umuman yigirmalik guruhi (G20) xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki va boshqa xalqaro institutlarga 1,1 trln. dollar miqdorida mablag' ajratadi. Shundan 750 mlrd. XVFnining resurslarini ko'paytirishga, 250 mlrd. xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlashga, 100 mlrd. kam daromadli mamlakatlar uchun ko'p tomonlama banklar (MDBs, multilateral development banks¹⁷) tizimi orqali kredit ajratishga mo'ljallangan.

¹⁷ Rivojlangan davlatlar guruhi tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga kredit berish uchun tashkil etiladigan moliyaviy institutlar rivojlanishning ko'ptomonlama banklari (RKB) qatoriga kiradi. Odatda zayomlar uzoq muddatga bozor darajasi yoki undan past stavkada beriladi. Yevropa taraqqiyot banki, Osiyo va Afrika taraqqiyot banki, Amerika taraqqiyot banklari guruhi RKB sirasiga kiradi.

Iqtisodiy inqirozga qarshi kurashda yevropa mamlakatlari va AQSHning tutgan pozitsiyasidagi farqlar G20 sammitida ko'rsatib o'tilgan. Fransiya va Germaniya rahbarlari davlat iqtisodiyotga katta hajmdagi ajratmalar bermasligi, zarar ko'rib ishlayotgan kompaniyalarga dotatsiya bermasligi kerak degan fikrda yakdil ekanligini izhor etishgan. Negaki, bu budjet tanqisligi va inflyatsiyaning ortishiga olib keladi. Bunga qarama-qarshi o'laroq, AQSH iqtisodiyotga katta ajratmalar berishlikka undaydi. Obama ma'muriyatining rejasida Xitoyga Amerika iqtisodiyotining kreditori roli ajratilgan.

Jahon iqtisodiyoti uchun 2010-yil anchagina muvaffaqiyatli bo'ldi. Bu avvalambor, rivojlanayotgan mamlakatlarda talabning oshganligi va rivojlangan davlatlarda yumshoq pul siyosatining olib borilganligi, shuningdek, bazaning pastlik samarasi (2009-yil ko'rsatkichlari juda past bo'lganligi) bilan belgilanadi.

Jahon savdo hajmi 2010-yilda 12,4 foizga oshdi va 2009-yildagi pasayishni deyarli to'liq qopladi. Butunjahon yalpi ichki mahsuloti 4,7 foizga oshdi. Xitoyda bu ko'rsatkich 10,2 foizni, AQSHda 2,7 foizni, Yaponiyada esa 3,5 foizni tashkil etdi. Rossiyadagi ahvol maqtarli darajada emas: YalM bo'yicha inqirozdan oldingi ko'rsatkichga faqat 2012-yilda erishish mumkin. Vaholanki, BRIC (Braziliya, Hindiston va Xitoy)ning boshqa mamlakatlari bu darajaga allaqachon erishib bo'lgan.

BMT ekspertlarining fikriga ko'ra, 2010-yilning yarmiga kelib jahonda iqtisodiy vaziyatning izga tushishi ancha sekinlashdi. "Jahon iqtisodiyotining 2011-yildagi holati va istiqboli" to'g'risidagi dokladga ko'ra, jahon yalpi ichki mahsuloti 2011-yilda 3,1 foizga, 2012-yilda esa 3,5 foizga ortadi. Tashkilot iqtisodchilarining fikricha, bu inqiroz davrida yo'qotilgan ish o'rinlarini tiklash uchun yetarli emas.

BMT ekspertlarining prognoziga ko'ra, AQSHda YalMning o'sishi 2011-yilda 2,2 foizni tashkil etsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 2,8 foiz darajasida bo'lishi kuzatiladi. Bunday o'sish sur'atlari bilan mamlakatdagi ishsizlikka barham berish mushkul masaladir. Hozirda AQSHda ishsizlik 10 foizni tashkil etadi. Inqiroz davrida yo'qotilgan ish o'rinlarini tiklash uchun kamida to'rt yil kerak bo'ladi.

Yevropa mamlakatlari va Yaponiyada ahvol bundan ham ayanchli kechishini BMT ekspertlari o'z prognozlarida ta'kidlashgan.

Hozirgi darajadagi inqirozdan chiqish sur'atlari bilan Germaniyada iqtisodiy o'sish aslida o'zgarmas darajada bo'ladi va 2011-yilda 1,1 foizni tashkil etgani holda, 2012-yilda 2 foizdan sal kamroq darajada bo'ladi. 2010-yilda yevrohududda YaIMning o'sishi 1,6 foiz darajada qayd etilgan. Yaponiyada YaIM 2011-yilda bor-yo'g'i 1,1 foizga, 2012-yilda esa 1,4 foizga ortadi.

Tahlilchilar fikriga ko'ra, 2010-yil jahon iqtisodiyoti uchun yorqin sahifa bo'lmadi: fundamental muammolar yo'qolmadi, aksincha ayrimlari yanada kuchaydi. Ko'pchilik ekspertlarning ta'kidlashicha, 2011-yilda iqtisodiy ko'rsatkichlar 2010-yildagiga qaraganda juda past bo'ladi. Ularning fikricha, o'tgan yilgi o'sish sur'atlari yaqin besh yil davomida kuzatilmaydi.

3.3. Rivojlanayotgan va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining Inqirozga qarshi choralar dasturi

Jahon moliyaviy inqirozi MDH mamlakatlarini ham chetda qoldirmadi. Inqiroz Rossiya, Ukraina va Qozog'istonda o'zining jiddiy salbiy oqibatlarini namoyon qildi.

Rossiyada, asosan, iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalar aksiyalarining narxlari keskin tushib ketdi. Bu holat birinchi navbatda jahon energetika resurslari bozoridagi nobarqaror konyunkturaning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ldi.

Rossiya Federatsiyasining inqirozga qarshi chora-tadbirlari dasturi. Rossiya Federatsiyasining inqirozga qarshi chora-tadbirlari dasturida ko'rsatilgan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat¹⁸:

1. Aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ish o'rinlarini yaratish. Buning uchun ishsizlarga yordam pulini 1,5 barobar va nafaqalarni 30 foizga oshirish, ilgarilab ketgan o'qitish, professional qayta tayyorlash va malaka oshirishni joriy etish, xorijliklarni ishga jalb qilish bo'yicha kvotani qisqartirish nazarda tutilgan. Vaqtinchalik ish o'rini yo'qotganlar uchun ipoteka krediti bo'yicha qarzlarni uy-joy ipoteka kreditlarini restrukturizatsiyalash agentligi orqali restrukturizatsiyalash imkoniyati bor. Studentlarni qo'llab-quvvatlash borasida foiz stavkasi kam (11,5%) ta'lim kreditlarini ajratish bo'yicha

¹⁸ <http://premier.gov.ru/anticrisis/>.

amalg oshirilgan ishlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda to'lovning rubldagi qiymati butun o'qish davri mobaynida o'zgarماسligi belgilab qo'yilgan.

2. Rossiya korxonalarining mahsulotlariga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish (stimul berish). 2009-yilda milliy kompaniyalarning tovarlari va xizmatlariga davlat buyurtmasi hajmi oshadi. Avtomobilsozlik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida Rossiyada ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarni sotib olish uchun uch yillik iste'mol kreditlar bo'yicha qayta moliyalashning 2/3 stavkasi subsidiyalashtiriladi. Ijro hokimiyatining barcha bo'g'inlari uchun Rossiyada ishlab chiqarilgan avtobillar sotib olishga 12,5 mlrd. rub. miqdorida mablag' ajratiladi.

Dasturda kichik biznesni rivojlantirishni rahbatlantirish va iqtisodiyotda innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ko'rsatib berilgan. Davlat tomonidan biznes-inkubatorlar, kafolatli va venchur fondlarini yaratish, kichik biznesni imtiyozli kreditlash dasturlarini rivojlantirishga mablag' ajratilishi rejalashtirilgan (masalan, Vneshekonombank (Tashqi iqtisodiy faoliyat banki) dasturi doirasida 30 mlrd. rub. miqdorida mablag' ajratiladi). Iqtisodiyot uchun ayrim o'sish nuqtalari ko'rsatib berilgan: energiyani tejamlovchi texnologiyalar, ichki turizm dasturlari, Global navigatsiya (kuzatuv) tizimini yaratish. Ikkita tarmoq – avtomobilsozlik va uy-joy qurilishga alohida e'tibor qaratiladi. Negaki, ularning iqtisodiyotdagi boshqa sohalarning rivojlanishiga ta'siri ahamiyatlidir. Qishloq xo'jaligi korxonalari, baliqni qayta ishlash infratuzilmasini yaratish va kemalarni modernizatsiyalash loyihalari bo'yicha kredit foizlari subsidiyalashtiriladi.

3. Biznes va aholiga soliq yukini kamaytirish. Xususan, 2009-yilda foyda solig'i stavkasi 24 foizdan 20 foizgacha kamaytirilgan. Shuningdek, korxonalar soliqqa tortiladiga bazani quyidagi mablag'lar miqdorida kamaytirishlari mumkin: asbob-uskunalar sotib olish uchun ajratiladigan mablag'lar summasi (amortizatsiya bo'yicha bir yo'la hisobdan chiqarish qiymatining 10 foizidan 30 foizigacha oshirilgan), o'z xodimlarini o'qitish uchun ketgan barcha mablag'lar summasi, kreditlar bo'yicha foizlar summasi (chegirish normasi rublda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1,5 barobari va valyutada 22 foizgacha oshirilgan). Bularning barchasi korxonalar va aholining

ixtiyorida qoladigan pul mablag'larining ortishiga olib keladi. Va bu o'z navbatida, talabning ortishiga zamin yaratadi.

4. Biznesga ma'muriy bosimni kamaytirish. Korrupsiya (poraxo'rlikka) qarshi kurash davom ettiriladi. Ruxsatnoma va litsenziya olish bilan bog'liq turli protseduralar soddalashtiriladi. axborot olish osonlashtiriladi. Elektr tarmoqlariga ulanishda imtiyozli tariflar o'rnatiladi (kam quvvatli ulanishlar uchun 550 rubl).

5. Milliy moliya tizimining barqarorligini kuchaytirish. 2009-yilda bank tizimini qayta moliyalash uchun (asosan, Markaziy bank mablag'lari hisobiga) 1 trln. rub. , shu jumladan, iqtisodiyotning real sektorini maqsadli moliyalashtirishni ta'minlash uchun VTBga 200 mlrd. rub. , Vneshekonombankga 130 mlrd. rub. , tijorat banklariga 225 mlrd. rub. ajratiladi.

Rossiya va xorijiy mamlakatlarning inqirozga qarshi dasturlaridagi asosiy farqli jihatlar. Umuman olganda dunyo mamlakatlarning aksilinqiroz dasturlarining umumiy jihatlari ko'p. Dasturlarda rejalashtirilgan chora-tadbirlar uchta asosiy yo'nalishda jamlangan:

- moliyaviy likvidlik orqali bank va moliya tizimini tiklash;
- aholining himoyaga muhtoj qatlamiga ko'mak berish;
- davlat xarajatlari tizimi, tizim tashkil qiluvchi kompaniyalar va tarmoqlarni (avtomobilsozlik, qurilish va boshqa) qo'llab-quvvatlash orqali ichki talabni rag'batlantirish.

Inqirozdan chiqish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlardagi farqlar mamlakatlardagi iqtisodiyotning tuzilishidagi farqlar, shu jumladan, daromad darajasi bilan belgilanadi. Bank tizimining rivojlanmaganligi va ipoteka kreditlarining hajmi katta emasligi tufayli Rossiya hukumatiga banklarning muammoli aktivlarini katta hajmda sotib olish zarurati yuzaga kelmadi. Dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy xarajatlar miqdori 3.5-jadvalda keltirilgan.

Shuning uchun ham moliya sektori kompaniyalari aksiyalarining kurslari juda pastga tushib ketishi kuzatilmadi. Rossiya 2008–2009-yillarda inqirozga qarshi chora-tadbirlar uchun (asosan Markaziy bank mablag'lari hisobidan) 3 trln. rub. (YaMning 7 foizi)ga yaqin mablag'ni yo'naltiradi. Taqqoslash uchun: AQSH 2008–2009-yillarda 2 trln. doll. (YaMning 14 foizi) mablag'ni ana shunday maqsadlarga

yo'naltirgan. Bunday ajratmalar 6 trln. doll. (YalMning 40 foizi)gacha o'tishi mumkin.

RF va AQSH dasturlarining yana bir farqi shundaki, AQSH xususiy korporatsiyalarga to'g'ridan to'g'ri ko'mak berish va ularni qisman yoki to'liq xususiyashtirish yo'lidani bordi. Rossiya esa faqat ayrim davlat mulki ishtirokidagi kompaniyalar va tizim tashkil qiluvchi korxonalarga (bular, asosan, mudofaa-sanoat majmuasi, strategik samolyotsozlik korporatsiyalariga) to'g'ridan to'g'ri ko'mak berish yo'lini tanladi.

Navbatdagi farq shundan iboratki, AQSHda yo'llar va ko'priklar qurishga (ta'mirlashga) katta e'tibor qaratilsa, RFda aholi uchun uy-joy qurishga urg'u beriladi. Aftidan, aynan ipoteka kredit bozoridan boshlangan moliyaviy inqirozga AQSHda katta hajmda uy-joy qurilgan ko'rinadi.

Rossiyada 2009-yilda inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun federal budjetdan 1610 mlrd. rub. (YalMning 4 foizi) sarflaydi. Inqirozga qarshi chora-tadbirlarning umumiy paketi Markaziy bankning mablag'larini hisobga olgan holda 5 trln. rub. (YalMning 12,5 foizi)ni tashkil etadi. AQSHda bu ko'rsatkich 7 trln. doll. (YalMning 50 foizdan ko'prog'i)ga tengdir.

3.5-jadval

RF hukumati va Rossiya Bankining 2008-2009-yillarda iqtisodiyotni sog'lomlashtirish bo'yicha aksilingiroz chora-tadbirlari

№	Yo'nalish	Summa, mlrd. rub.
1.	Ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ish o'rinlarini saqlab qolish va yaratish	464
	shu jumladan,	
	Mehnat bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlari	44
	Federal budjetdan RF subyektlariga subsidiya tariqasida qayta tayyorlash va malaka oshirish	25
2.	Sanoat va texnologik potensial (salohiyat)ni saqlab qolish va oshirish	777
	shu jumladan,	
	Soliq yukini yengillashtirish	420

3.5-jadvalning davomi

	Mudofaa-sanoat majmuasi strategik korxonalari va hukumat ro'yxatiga kiritilgan boshqa korxonalar kreditlari bo'yicha davlat kafolati	300
	Agro-sanoat korxonalarini kreditlash, "Rosagrolizing" kompaniyasiga badal	70
	Rossiyada ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarni sotib olish uchun uch yillik iste'mol kreditlar bo'yicha qayta moliyalashning 2/3 stavkasi subsidiyalashtirish	2
	RFda ishlab chiqarilgan avtomobillarni davlat tomonidan sotib olish	32
	"RJD" OAJga tashuv uchun tarif kompensatsiyalari	50
	Mudofaa-sanoat majmuasi korxonalarini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, kreditlar bo'yicha foiz subsidiyalari, aksiyalarning qo'shimcha emissiyasini sotib olish	37
	Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash	11
	Vaqtinchalik ish o'rini yo'qotganlar uchun ipoteka krediti bo'yicha qarzlarni uy-joy ipoteka kreditlarini restrukturizatsiyalash agentligi orqali restrukturizatsiyalash	60
3	Biznesga ma'muriy bosimni kamaytirish	36
4.	Milliy moliya tizimining barqarorligini kuchaytirish	3 355
	shu jumladan,	
	Bank tizimini qo'llab-quvvatlash (qaytarib berish asosida qayta moliyalash), 2008-y.	2 000
	2009-y. subordinatsiyalashtirilgan kreditlar	1 055
5.	Hukumat va RF subyektlarining inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi o'zaro hamjihatligi	300
	Jami	4 932

Inqirozga qarshi chora-tadbirlar mamlakat budjetining tanqisligiga katta ta'sir ko'rsatadi. 2009-yili Rossiyada uning hajmi 3 trln. rub. (YAIMning 7,5foizi) darajasida rejalashtirilgan). AQSHda esa budjet tanqisligi 1,7-1,9 trln. doll. (YAIMning 12-14 foizini)ni tashkil etishi mumkin. 2009-yil 1-yanvar holatiga Rossiyada davlat federal qarzi 129 mlrd. doll. (YalMning 9 foizi)ni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yil 7-aprelida AQSHda federal qarzi 11,1 trln. doll. (YalMning 78 foizi)ga teng bo'lgan (3.6-jadval).

"Qozog'iston iqtisodiy mo'jizasi" degan nom bilan tanilayotgan Qozog'istondagi "ochiq iqtisodiyot" siyosati va stixiyali tavsifga ega bo'lgan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayoni global

moliyaviy inqiroz sharoitida o'zining jiddiy kamchiliklariga egaligini ko'rsatdi.

Ekspertlarning e'tirof etishlaricha, Qozog'istonda banklar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar faoliyatining yetarli darajada tashkil qilinmaganligi natijasida bank tizimining tashqi qarzlarini tijorat banklari majburiyatlari tarkibida shunday darajagacha yetib bordiki, natijada mamlakat iqtisodiyotining mavjud holati ularni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmay qoldi. Banklar tomonidan tashqi kredit resurslari hisobiga, birinchidan, kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish layoqati shubhali bo'lgan qarzdorlar uchun, ikkinchidan, ko'chmas mulklar bozorida spekulativ maqsadlardagi faoliyat uchun kreditlar berilishi bank-moliya tizimining barqarorligiga putur yetkazdi. Natijada Qozog'istonda ham ko'chmas mulk obyektlari narxlarining ma'lum bir muddat davomida sun'iy ravishda ko'tarilishi sodir bo'ldi va bu holat uzoq davom etmasdan, kredit bozorida defolt holatini yuzaga chiqardi.

3.6-jadval

Jahondagi ayrim mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini taqqoslash ¹⁹ (YaIM hajmi bo'yicha liderlar)

Ko'rsatkich	Ros-siya	AQSH	Germa-niya	Fran-siya	Buyuk Bri-taniya	Yapo-niya	Xitoy	Jahon iqtisodiy yoti
YaIM, mird. doll. 2007-y.	1 291	13 811	3 297	2 562	2 728	4 378	3 280	54 347
2008-y.	1500	14 265	-	-	-	-	-	
YaIM hajmi bo'yicha jahondagi o'rni	11	1	3	5	6	2	4	
YaIM hajmi bo'yicha	6	1	5	7	8	3	2	
Real o'sish YaIM, % o'tgan yilga nisbatan 2007-y.	8,1	2,2	2,5	2,2	3	2,1	11,9	3,8
2008-y.	5,6	1,1	13	-	0,7	-0,7	9	1,9

¹⁹ Лукьянова М.Н. Экономическая компаративистика: сравнение антикризисных программ стран мира.

3.6-jadvalning davomi

2009-y. (prognoz)	-6,5	-2,4	-	-	-	-53	6,5	-1,7
Inflyatsiya, 2006-y.	9%	3,2%	1,6%	1,6%	3,0%	0,3%	1,4%	
2007-y.	11,9 %	2,8%	2,3%	1,6%	2,1%	0,3%	4,8%	
2008-y.	13,3 %	3,8%	2,6%	3,6%	3,1%	1,7%		
Aholisi, mln. kishi 2007-y.	142	302	82	62	61	128	1320	6612
O'rtacha umr ko'rish, yil	66	78	79	81	79	82	72	68
Aholining o'sishi, 2007- y.	-0,6	0,7	-0,1	0,6	0,7	0,0	0,6	11
Aholi jon boshiga YalM, doll., 2007-y.	9 092	45 732	40 207	41 323	44 699	34 265	2 485	8219
Budjet daromadi, % VVP, 2007-y.	40%	-	44%	50%	42%	-	-	
Budjet xarajati, % VVP 2006-y.	-	-	45%	53%	45%	20%	-	
2007-y.	34%	-	44%	52,4%	44%		-	
2008-y.	31%	35%	27%	-	22%	19%	-	
To'g'ridan to'g'ri investitsiya- lar, mlrd. doll., toza oqim, 2006- y.	30,8	180,6	43,4	81	139,7	-6,8	78	1352
YalMda davlat qarzi, 2007-y. (2006-y.)	0%	61%	(41%)	(56%)	(39%)		10%	
2008-y.	9%	75%	62,6%	67%	47,2%	168%	-	
2009-y.	-	78%	-	-	-	-	-	

Ipoteka bozoridagi sun'iy shakllantirilgan yuqori narxlarning keskin tushib ketishi va iqtisodiyotdagi tanazzulli holatlar qator

banklar va korxonalarning inqiroz chegarasiga olib keldi. Kapital-larning chetga chiqib ketishi, suzib yuruvchi kurslar bo'yicha olingan tashqi qarzlarining qimmatlashuvi bank tizimidagi muammolarda o'z ifodasini topdi va ular aktivlari sifatining pasayishi Qozog'iston banklarining xalqaro kredit reytingining pasayib ketishiga olib keldi.

Hozirda ayrim tahlilchilar, Qozog'iston hukumatining inqiroz oqibatlarini yumshatish bo'yicha ko'rayotgan chora-tadbirlari mam-lakat bank tizimi faoliyatini qayta tiklash uchun yetarli emasligini e'tirof etmoqdalar.

Qozog'istonda 2009–2010-yillarda qisqa muddatli iqtisodiy indikator dinamikasi 3.7-jadvalda keltirilgan. Ta'kidlash o'rinli, qisqa muddatli iqtisodiy indikator – iqtisodiyotning rivojlanish tendensiya-sini xarakterlovchi ko'rsatkichdir. Uni hisoblash tezkorlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi va asosiy tarmoqlar: qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, savdo, transport va aloqa sohalarida ishlab chiqarish indekslarining o'zgarishiga asoslanadi. Mazkur tarmoqlarning YaIM hajmidagi ulushi 67–68 foizni tashkil etadi.

3.7-jadval

Qisqa muddatli iqtisodiy indikator dinamikasi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan foizda) ²⁰


	2009	2010		2009	2010
Yanvar	97,1	108,5	Yanvar	97,1	108,5
Fevral	95,3	106,1	Yanvar-Fevral	96,3	106,1
Mart	94,1	110,5	Yanvar-Mart	95,5	110,5
Aprel	93,2	110,3	Yanvar-Aprel	94,9	110,3
May	94,2	109,7	Yanvar-May	94,7	109,7
Iyun	102,3	107,0	Yanvar-Iyun	95,9	107,0
Iyul	97,5	111,0	Yanvar-Iyul	96,1	111,0
Avgust	95,1	109,3	Yanvar-Avgust	95,9	109,3
Sentabr	102,4	102,1	Yanvar-Sentabr	96,8	102,1
Oktabr	107,8	102,5	Yanvar-Oktabr	98,3	102,5
Noyabr	109,9	107,3	Yanvar-Noyabr	99,8	107,3
Dekabr	115,4	106,0	Yanvar-Dekabr	101,0	106,0

²⁰ Qozog'iston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari

Shu o'rinda aytish lozimki, hozirda rivojlanib borayotgan moliyaviy inqiroz inflyatsiya, qator banklar va moliyaviy muassasalarning tanazzulga yuz tutishi ta'sirida ishsizlik, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va boshqalar negizida iqtisodiy inqiroz shaklida kuchayib bormoqda. Bundan ko'rinadiki, hozirgi jahon moliyaviy inqirozining o'ziga xos xususiyati – bu, uning iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan boshlanib, real sektoriga o'tganligidir.

O'zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish, uning iqtisodiyotga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sir oqibatlarini kamaytirishga jiddiy e'tibor qaratilishi, ayniqsa Birinchi Prezidentimiz I. Karimov tomonidan mazkur jarayonning mazmun-mohiyati, asosiy qoida va xulosalarining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarda batafsil yoritib berilishi, mamlakatimizda qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturining keng va har tomonlama asoslab berilishi hamda izchil amalga oshirilishi o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi.

Qozog'istonda 2001–2010-yillarda YaIM (fizik hajm indeksi)ning dinamikasi 3.2-rasmda aks ettirilgan.



**3.2-rasm. YaIM (fizik hajm indeksi)ning dinamikasi ²¹
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan foizda)**

²¹ Qozog'iston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Eng avvalo ta'kidlash joizki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi-ning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan edi:

- jahon bozorida yalpi talabning keskin pasayishi oqibatida eksport mahsulotlarimiz narxi tushib borishi;

- asosiy savdo hamkorlarimizning xarid qobiliyatlari pasayishi oqibatida mahsulotlarimiz eksporti hajmi qisqarishi;

- xalqaro maydonda investitsion faollikning pasayib borishi oqibatida ko'zda tutilgan ayrim investitsion loyihalarning amalga oshirilish muddatlarining kechikishi mumkinligi;

- iqtisodiyotimizga jalb qilingan xalqaro kreditlar asosiy qismining suzuvchi stavkada bo'lganligi sababli, inqiroz davrida kreditlar narxining qimmatlashuvi tashqi kreditlarga xizmat ko'rsatishni qiyinlashtirishi va h. k.

Darhaqiqat, keyingi yillarda jahon bozorida talabning qisqarib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlar narxining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Jumladan, jahon bozorida narxlarning o'rtacha yillik pasayishi (masalan, keyingi yillarda neft bo'yicha - 4,9, oltin - 1,4, kumush - 2,4, mis - 3,2, molibden - 2,8, uran - 2, ammiak - 3,5, karbamid - 3,8, selitra - 3,5 marta pasayish taxmin qilingan edi) mamlakatimizda eksportdan olinuvchi valyuta tushumlari va daromadlar hajmiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy hisoblanadi.

Inqiroz ta'sirida jahon bozoridagi asosiy savdo hamkorlarimiz xarid qobiliyatlari pasayishi keyingi yillardagi asosiy eksport mahsulotlarining sotish hajmiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, qator yillar mobaynida aksariyat mahsulot turlari bo'yicha eksport hajmining ortib borishi kuzatib kelingan bo'lsa, keyingi ikki yil davomida ayrim mahsulotlar, xususan, paxta tolasi, rangli va qora metallar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi qisqargan. Bu esa valyuta tushumlarining qisqarishi hamda tashqi savdo balansiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu o'rinda bir muhim jihatga e'tiborni qaratish lozim. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirining yuqorida sanab o'tilgan asosiy yo'nalishlari dastlabki ta'sir hisoblanadi. Ma'lumki, tabiat va jamiyatdagi hodisalar, shu jumladan,

iqtisodiy jarayonlar ham zanjirsimon ta'sir qilish xususiyatiga ega. Ya'ni dastlabki ta'sir pirovardida navbatdagi ta'sir oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu holatga I.A. Karimov o'z asarlarida²² e'tibor qaratib, jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan mahsulotlar narxining tushib borishi "o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir qiladi", deb ko'rsatib o'tgan edi. Bundan xulosa qilish mumkinki, inqiroz oqibatlarining milliy iqtisodiyotimizga ta'siri "dastlabki ta'sir - ikkilamchi ta'sir" sxemasi orqali ro'y beradi. O'z navbatida, ikkilamchi ta'sir "mikrodarajadagi ta'sir - makrodarajadagi ta'sir" sxemasi bo'yicha ham yoyilishi mumkin.

Shunga ko'ra, fikrimizcha, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'siri oqibatlarini tadqiq etishda faqat birlamchi ta'sir yo'nalishlari bilan kifoyalanmasdan, uning keyingi harakat bo'g'inlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, mamlakatimizda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda mazkur nazariy qoida diqqat markazda tutilishi uning samaradorligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining qator rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri turli jihatlar, masalan, ishlab chiqarish quvvatlarining qisqarishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, ishsizlikning oshishi, tashqi qarz darajasi va boshqalar bo'yicha baholanmoqda. Biroq ma'lumotlar turli-tumanligi va muayyan tizimga solinmaganligi inqirozning ta'siri to'g'risida yaxlit xulosa chiqarishga imkon ham, tasavvur ham bermaydi. Fikrimizcha, hozirda inqiroz jarayonlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda mazkur jarayon ta'sirini yaxlit holda baholash imkonini beruvchi uslubiy yondashuv ishlab chiqilishi o'ta muhim. U har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining turli yo'nalishlar bo'yicha ta'sirini umumiy va yagona ko'rsatkich (masalan, maxsus indekslar) orqali baholash imkonini berishi lozim. Bunday ko'rsatkichlar inqirozning turli mamlakatlardagi ko'lami,

²² Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T. : O'zbekiston, 2009. 12-b.

ta'sir darajasi o'zgarishi hamda inqirozga qarshi choralar samaradorligini baholash imkonini beradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining turli mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini tadqiq etishda, eng avvalo, muhim bir jihat – ushbu inqirozning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari va ta'sir yo'nalishlarining mamlakatimizda o'ziga xosligi, jahonning boshqa mamlakatlaridagidan ajralib turishini alohida ta'kidlash va bunga e'tibor qaratish lozim.

Rivojlangan va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi ayrim mamlakatlarda bu inqirozning kelib chiqishi va ta'siri, eng avvalo, moliya-bank tizimi izdan chiqishi, yirik korxona va kompaniyalar aksiyalari qiymati pasayib ketishi oqibatida ishlab chiqarish hajmining pasayishi, ishsizlik darajasi oshishi va katta ijtimoiy talofatlar ro'y berishi orqali namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda esa mazkur inqirozning kelib chiqish manbalari umuman mavjud bo'lmay, faqat global iqtisodiy munosabatlarga integratsiyalashganligi tufayli uning ta'siri oqibatlari mavjudligi to'g'risida gapirish mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'ladi. Chunki bugungi kunda rivojlangan va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi ayrim mamlakatlarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqishiga sabab bo'lgan va ma'lum darajada sharoit yaratgan omillarning birontasi mamlakatimiz iqtisodiyotida mavjud emas. Aksincha, turli mamlakatlar iqtisodiyotiga inqiroz jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan bir pallada O'zbekistonda uning ta'siri oqibatlarini yumshatuvchi omillar ahamiyatli rol o'ynamoqda.

Fikrimizcha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va oqibatlarining oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillarni shartli ravishda ikki guruhga, ya'ni, "bazis" va "ustqurma" tavsifidagi omillarga ajratish mumkin²³.

"Bazis" tavsifidagi omillar mustaqil taraqqiyot yo'limizni tanlash hamda milliy iqtisodiyot poydevorini yaratishda I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "o'zbek modeli", uning mashhur 5 tamoyili hisoblanadi. Xususan, ushbu tamoyillarga asoslangan holda:

- bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga solish g'oyalarini mutlaqlashtirmay, ziddiyatli tomonlarining oldini olish va samarador-

²³ Xodiyev B.Yu. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirini yumshatish va bartaraf etish jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash // Iqtisod va ta'lim, 2010, 1-son, 4-10-betlar.

ligini oshirishga qaratilgan davlatning nazorat va tartibga solish funksiyalari qo'shib olib borilishi;

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayoniga tadrijiy yondashib, islohotlar izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi;

- parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni zimmasiga olganligi milliy iqtisodiyotimiz poydevorining mustahkam va bugungi kundagi inqiroz holatlariga chidamli bo'lishiga zamin yaratdi.

"Ustqurma" tavsifidagi omillar esa to'g'ri va oqilona olib borilgan iqtisodiy siyosat orqali namoyon bo'ladi. Xususan:

- moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlari barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zahiralar yaratilgani va zarur resurslar bazasi mavjud ekanligi;

- tashqi qarz siyosatida qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechilganligi;

- mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganligi;

- Chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelinayotganligi;

- tijorat banklarimizning tashqi majburiyatlar bo'yicha to'lovlari holati va hajmi ijobiy darajada ekanligi kabi holatlarni to'g'ri shakllantirilgan "poydevor" ustiga qurilgan mustahkam "bino" sifatida tasavvur etish mumkin.

Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O'zbekistonga nisbatan yumshoq ta'sirga ega bo'lganligini quyidagilar bilan ham izohlash mumkin:

1. O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va xalqaro valyuta bo'yicha to'lovga qobillikning yetarli darajada ta'minlanganligi.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimiz tashqi qarzi xalqaro mezonlar bo'yicha "har jihatdan maqbul holat" darajasida bo'lib kelmoqda. 2009-yil yakunlariga ko'ra, eksport hajmi 2,4 foizga oshdi, tashqi savdo aylanmasi 23 milliard dollardan ko'proq ijobiy saldogga ega bo'ldi. Shuningdek, respublika eksportining diversifikatsiyalashuvi natijasida uning tarkibida paxta tolasi, qora va rangli metallar salmog'ining pasayishi ham bu boradagi imkoniyatlarni yanada oshirdi.

Bundan tashqari, respublikamizda kapitallar va kreditlarning xalqaro harakatini tartibga solish bo'yicha samarali tizim shakllantirilganligi, shuningdek, spekulyatsiya maqsadidagi valyuta operatsiyalariga nisbatan valyuta cheklovlari amaliyoti mavjudligi qisqa muddatli kapitallar chiqib ketishi orqali mamlakat to'lov balansi muammolari yuzaga kelishining oldini oladi.

2. Respublikamizda banklarning kapitallashuv darajasini oshirish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuz berishidan avval boshlandi va bu, banklar o'rtasida o'zaro mustahkam ishonchning saqlanib qolishini, likvidilik muammolari yuz bermasligini ta'minladi. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bir qator qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 2009-yilning o'zida yetakchi banklarning nizom jam'armalarini oshirish uchun qo'shimcha ravishda 500 milliard so'mdan ortiq davlat mablag'lari ajratildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar samarasi o'laroq, tijorat banklarining umumiy kapitali 2 barobar ko'paydi.

Banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa, banklar monitoringi bilan shug'ullanadigan xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko'pdir.

3. Respublikamizda ipoteka kreditlar bozorida barqarorlik saqlanib qoldi. Zero, ipoteka kreditlarining garov ta'minoti yetarililigiga banklar tomonidan katta e'tibor qaratildi. 2009-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan berilgan ipoteka kreditlarining umumiy miqdori 250,9 mlrd. so'mni, ya'ni yalpi kreditlarning 3,2 foizini tashkil etgan. Shuningdek, ipoteka kreditlarini sekuritizatsiyalash amaliyoti va ipoteka qimmatli qog'ozlari bozori respublikamizda shakllanmagan. Respublikamiz bank xizmatlari bozorida murakkab tuzilmaga ega bo'lgan bank mahsulotlari (ipoteka kreditlari asosida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar) mavjud emasligi mamlakatimizda banklarni tartibga solish amaliyotida jiddiy nuqson va qiyinchiliklar kuzatilmasligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri oqibatlarini oldini olishda yetarlicha omillar mavjud bo'lib, ular yanada takomillashtirilishi va mustahkamlanishi mamlakatimizga inqiroz jarayonlari ta'sirini pasaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimizning barqaror va mutanosib ravishda rivojlanishi hamda strategik maqsadlarimizga erishish uchun

yetarli shart-sharoitlar yaratadi. Bunday omillar asosini fikrimizcha, quyidagilar bilan izohlash mumkin.

Mamlakatimizda aksilinqiroz dasturining bajarilishi bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasida inqiroz oqibatlarini yumshatishga erishildi. Ijobiy natijalarga iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni diversifikatsiyalash, uning muhim tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnika va texnologik jihatdan qurollantirish orqali erishildi²⁴.

Ayniqsa, aksilinqiroz dasturida ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar barcha manbalar hisobidan 32,7 foizga o'sishi, xususan, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyasi 2,6 martaga ko'payishi va jami kapital qo'yilmalar o'tgan yilning shu davridagi 14,0 foizdan 25,4 foizga ko'tarilishi iqtisodiy o'sish yuqori darajada bo'lishini ta'minladi.

Shuningdek, mamlakatimizda 19% ishlab chiqarish obyektlari, shu jumladan, 32% yengil va to'qimachilik sanoati obyektlari, 67% oziq-ovqat sanoati, 78% qurilish materiallari sanoati, 5% mashinasozlik, 4% qishloq va o'rmon xo'jaligi obyektlari ishga tushirildi. Bunday keng ko'lamli investitsiya faoliyati zahirida vatanimiz korxonalari va sanoat o'sishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yotganini alohida ta'kidlash joiz.

Xususan, inqirozga qarshi choralar dasturiga binoan mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar barqaror faoliyat yuritishi qo'llab-quvvatlanishini ta'minlovchi qat'iy choralar qo'llanilib, ularning tovarlari tannarxini pasaytirish, mahalliy tovar va xizmatlarga ichki talabni rag'batlantirish bo'yicha qat'iy istifoda etildi. Eng muhimi, tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan eksportchi korxonalar barqaror ishlashlari uchun 81 mlrd. so'mdan ziyod mablag' imtiyozli kredit sifatida berildi hamda yirik investitsiya loyihalarini bajarish uchun maxsus mablag'lar hisobidan ularga 140 mlrd. so'mdan ziyod kreditlar ajratildi.

Qolaversa, eksportga chiquvchi, asosan, to'qimachilik va farmatsevtika tarmoqlaridagi 41 ta korxonaning muddati o'tgan va joriy qarzlari so'mlarini, shuningdek, qator korxonalarda kreditorlik qarzlari rekonstruktsiya qilish tadbirlari amalga oshirildiki, ular korxonalarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

²⁴ Iskandarov I. O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishining aksilinqiroz kafolatlarini
// Iqtisod va ta'lim, 2010, 1-son, 10-15-betlar.

Ishlab chiqarish tannarxi pasaytirilishi va narx raqobatbardoshligi oshirilishi tufayli eksport bashorati dasturidagi ko'rsatkichlar mamlakatimiz korxonalari tomonidan 107,4 foizga bajarilishi 30 dan ziyod turdagi mahsulotlarga yangi bozorlarni o'zlashtirish uchun imkon yaratdi.

O'zbekiston mustaqilligi davrida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali yangi ishlab chiqarish – avtomobilsozlik, sellyuloza-qog'oz, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa tarmoqlar vujudga keldi. Respublika sanoatida mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoat kabi tarmoqlarning hissasi ortib bordi. O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o'zgartirishda yangi neft konlari, Mingbuloq va Ko'kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarilishining ko'paytirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Natijada iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishi yildan-yilga sifat jihatidan takomillashib bormoqda. Xususan, tarkibiy o'zgartirish borasidagi izchil dasturni amalga oshirish natijasida 2009-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoat ishlab chiqarishi ulushi 2000-yilga nisbatan 14 foizdan 24 foizga, transport va aloqa sohalari ulushi 7,7 foizdan 12 foizga oshdi, ayni paytda qishloq xo'jaligining ulushi esa 30 foizdan 18 foizga kamaydi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda iqtisodiyotning nodavlat sektori ahamiyatli salmoqqa ega bo'lib bordi. Agar 1990-yilda respublika YaIM umumiy hajmining atigi 38,1 foizi, sanoat mahsulotining 10,4 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 65 foizi, chakana savdo aylanmasining 51 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektoriga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2009-yilga kelib, YaIM umumiy hajmining deyarli 80,0 foizi, sanoat mahsulotining 81,0 foizdan ortiqroq qismi nodavlat sektoriga to'g'ri keldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining hozirgi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yanada oshirish maqsadida 2009–2014-yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini kuchaytirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan. Unda umumiy qiymati 42,5 mlrd. dollardan iborat 852 ta loyiha ko'zda tutilgan bo'lib, e'tiborli jihat,

dasturdagi jami loyihalardan umumiy qiymati 19,3 mlrd. dollar hajmidagi 138 tasi innovatsion tavsifga ega. Bu esa, mamlakatimiz iqtisodiyotining yaqin kelajakda zamonaviy texnika va texnologiyalarga, ishlab chiqarishning ilg'or usullariga, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan, raqobatbardosh iqtisodiyotga aylanishidan darak beradi. Ushbu investitsion loyihalardan 2009-yilda 690 tasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Natijada respublika bo'yicha jami 22 ta yirik ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi.

3.4. Jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy inqirozdan chiqarilgan xulosalar

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishi bilan unga qarshi birgalikda kurashish maqsadida "Katta yigirmalik" mamlakatlar guruhi tashkil etilgan edi. Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti 20 ta hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etuvchi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar, jumladan, Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari kiradi.

"Katta yigirmalik" guruhi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurashish samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida vaqti-vaqti bilan sammit (yig'ilish)lar o'tkazib turadi. Dastlabki sammit 2008-yil noyabrda Vashington (AQSH)da, keyinchalik 2009-yil aprelda London (Buyuk Britaniya)da, Kanada, 2010-yil noyabrda Seul (Janubiy Koreya)da o'tkazildi.


Xususan, Seul sammitida AQSH va Xitoyning valyuta siyosatlari, Xalqaro hisob-kitoblar bankini nazorat qilish bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan jahon bank sohasi uchun yangi qoidalar, XVFni isloh qilish kabi masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, sammit tasdig'iga jahon iqtisodiyoti o'sishi va ijtimoiy taraqqiyotning "Seul konsensusi" deb nom olgan yangi konsepsiyasi kiritildi. U "Vashington konsensusi" nomi bilan tanilgan taraqqiyotning oldingi etalonini almashtirishi lozim edi. "Vashington konsensusi" 1980 yillarning so'ngidan amal qilib, o'ziga o'ta liberal (erkin) bozor

g'oyalari singdirgan edi. Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishi bilan ushbu g'oyalar inkor etila boshladi.

Seul sammiti nihoyasida yakuniy deklaratsiya qabul qilinib, unda xususan, 2013-yilga borib rivojlangan mamlakatlar budget taqchilligini kamida 2 barobarga qisqartirish majburiyati belgilandi. "Katta yigirmalik" guruhining navbatdagi uchrashuvlari 2011-yil noyabrida Fransiya, 2012-yili esa Meksika o'tkazilgan.

I.Karimov "Katta yigirmalik" guruhining o'zaro birgalikda qabul qilgan chora-tadbirlari, inqirozga qarshi kurashish yo'llari va vositalarining amaldagi xatti-harakatlar sustligi, ko'p hollarda belgilangan qoidalarga amal qilmaslik, majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida samarasi pastligini bir necha bor ta'kidlab o'tgan edilar. Ushbu ma'ruzada ham mazkur guruh doirasida qabul qilinayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanmayotganligini qayd etgan edi.

Haqiqatan ham, eng rivojlangan mamlakatlardagi YaIM o'sish sur'atlari aksariyat hollarda inqirozdan oldingi darajaga yetmaganligini ko'rishimiz mumkin (3.3-rasm).




*Izoh: 2010-yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

3.3-rasm. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)

Rasmda ifodalangan 2010-yildagi tezkor olingan ma'lumotlarga ko'ra, YalMning o'sish sur'ati AQSHda 1,5 foizni, Yaponiyada 1,7 foizni, Buyuk Britaniyada 0,9 foizni, Germaniyada 3,6 foizni tashkil etgan. Faqat Germaniya o'zining iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha inqirozdan oldingi davr ko'rsatkichlariga yetgan. Biroq, umumiy holda jahon iqtisodiyotidagi o'sish sur'atlarini barqaror deb bo'lmaydi.

Bu xulosaning to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarda hamon ishsizlik yuqori darajasining saqlanib qolayotganligi ham yana bir bor tasdiqlaydi (3.4-rasm).



*Izoh: 2010-yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

3.4-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi.

Rasmdan ko'rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi keskin ravishda ortib bormoqda. Xususan, inqirozning dastlabki palladagi iqtisodiyotga keskin ta'sirlari pasayganligiga qaramay, ishsizlik darajasi AQSH va Germaniyada 10,6 foizni, Buyuk Britaniyada 9,3 foizni, Yaponiyada 6,2 foizni tashkil etmoqda.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlar tajribasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy ta'sirlarining oldini olish va bartaraf etish choralari orasida har qanday yo'l bilan bank-moliya tizimini saqlab qolishga urinish holatlari keng namoyon bo'ldi. Jumladan, AQSH birinchilardan bo'lib uzoq yillar davomida xususiy banklar sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan to'rtta yirik bankni milliylashtirdi, ya'n

ularni davlat mablag'lari hisobiga sotib olish orqali bankrotlikdan saqlab qoldi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bank tizimining yuqori riskli aktivlarini davlat tomonidan kafolatlash orqali uzoq muddatli moliyalashtirish xatti-harakatlari amalga oshirildi. Natijada, bank-moliya sohasida likvidlik pasaygan bir pallada davlatlar turli yo'llar bilan yirik hajmdagi mablag'larni ushbu sohaga yo'naltira boshladilar.

Ma'lumki, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi davlat budjeti xarajatlarining daromadlardan ortib ketishi, ya'ni budjet taqchilligiga olib keladi. Budjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik konyunkturasiidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat budjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini moliyaviy ta'minlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi.

Budjet taqchilligi, asosan, davlat qarzi hisobiga qoplanib, u ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. Ichki qarz davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan olingan qarzlardan iborat bo'lsa, tashqi qarz xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz hisoblanadi.

Budjet taqchilligini moliyalashtirish, ya'ni qoplashning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanib, bunda davlat qarz oluvchi sifatida maydonga tushadi. Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu, davlat qarz majburiyatlarini (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha miqdorini chiqaradi. Mazkur holda, davlat budjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to'g'ridan-to'g'ri inflyatsion ta'sir ko'rsatadi. Pul massasining o'sishi jamiyat haqiqiy boyligining

ko'payishi bilan birga bormaydi. Davlat qarzlarning to'xtovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida tobora ko'proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta budjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida, davlat qarzlarni to'lash vaqtini imkon darajada cho'zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olishi mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlarning umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Tashqi qarzning me'yorida oshib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakat tovar va xizmatlari eksportidan tushumning ahamiyatli qismi, masalan, 20-25% dan oshib ketsa, bu holat mamlakatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada, chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradilar. Bular qatoriga mamlakat oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish; kreditorlarning qarz to'lov muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobiga to'lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Davlatlarning inqiroz davrida o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishi, o'z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat budjeti taqchilligi va davlat qarzlarni keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Inflyatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri bo'lib, hozirgi davrda barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan holat hisoblanadi. Real qiymatga ega bo'lmagan qog'oz pullarning muomalaga kirib kelishi inflyatsiyaning kelib chiqishi

uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki qog'oz pullarni jamg'arma sifatida muomaladan chiqarish kam samarali va ishonchsiz vosita bo'lib, ular pullarning ortiqchaligi sharoitida ham muomalada qoladilar. Natijada muomalada ortiqcha qog'oz pullarning ko'payishi mavjud yalpi talabni yanada kuchaytirib, narxlarning o'sishini tezlashtiradi.



3.5-rasm. 2010-yilda ayrim MDH davlatlarining YaIM va inflyatsiya ko'rsatkichlari (oldingi yilning shu muddatiga nisbatan foizda).

Inflyatsiya darajasining real mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tezroq sur'atlarda o'sishini MDHning bir qator mamlakatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin (3.5-rasm). 2010-yildagi real YalMning o'sish sur'ati hamda shu yilning yanvar-dekabr oylaridagi inflyatsiya sur'atlari nisbati Rossiya, Ukraina va Qirg'izistonda salbiy ko'rinishga ega bo'lgan. Qozog'iston Respublikasida real mahsulot ishlab chiqarish o'sish sur'ati juda oz darajada (107,1/107,3) farq qilgan bo'lsa, mamlakatimizda bu ko'rsatkich ijobiy ko'rinishga ega bo'lgan, ya'ni inflyatsiyaning o'tacha yillik 106,1 foizlik o'sishi darajasida real YalMning o'sishi 108,5 foizni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotidagi barqarorlik ko'p jihatdan mamlakatlarning tashqi savdo va boshqa iqtisodiy aloqalarda qo'llaniluvchi erkin konvertatsiya qilinuvchi asosiy valyutalarga nisbatan ishonchiga ham bog'liq.

Ma'lumki, jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uch tizimni bosib o'tgan. Dastlabki ikki tizim, ya'ni oltin standart (1879–1934- yillar) va oltin-dYVIzli (Bretton-Vuds tizimi deb nomlanuvchi) (1944-1971-

yillar) tizimlar qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. Uchinchi bosqich, ya'ni hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971-yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimi nomini oldi. Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi suzib yuruvchi kursiga o'rin bo'shatadi. Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976-yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog'oz pul tizimiga o'tish bilan qog'oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa narxlar kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

Keyingi yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sir oqibatlarini jilovlash, ayniqsa, zudlik bilan moliya-bank sohasini qutqarib qolish, to'lov balansini yaxshilash, aholi o'rtasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan sarosimaning oldini olish va boshqa maqsadlar yo'lida pul muomalasi qonunlariga xilof ravishda qilingan xatti-harakatlar jahon miqyosida konvertatsiya qilinadigan asosiy valyutalarning beqarorligini yanada kuchaytirmoqda. Bu esa, o'zining oltin-valyuta zaxirasining salmoqli qismini erkin konvertatsiya qilinuvchi asosiy valyutalarda shakllantirgan mamlakatlarda, va umuman, o'z iqtisodiy faoliyatida ushbu valyutalardan foydalanuvchi har qanday mamlakatda tashvishli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Qat'iy valyutalarga nisbatan ishonchning pasayishi bevosita tashqi savdo aloqalaridagi beqarorlikka va pirovardida jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari:

1. Jahon moliyaviy inqirozining mazmuni, namoyon bo'lish shakllari va kelib chiqish sabablari.
2. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning alohida mamlakatlardagi miqyosi, ko'lami va oqibatlarini belgilovchi omillar.
3. O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modelida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kelib chiqishi va salbiy oqibatlari ta'siriga qarshi tamoyillarning mujassam ekanligi.
4. Global moliyaviy inqiroz oqibatlarining O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri.
5. Jahon moliyaviy inqirozi ta'sirini kamaytirish va oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi.

IV BOB. "YEVROHUDUD"DA YEVROBOZORNING VUJUDGA KELISHI VA DEBET INQIROZI

Reja:

- 4.1. Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar.**
- 4.2. Yevrokredit bozori.**
- 4.3. Yevrovalyutadagi qimmatli qog'ozlar bozori.**
- 4.4. Yevroobligatsiyalar muomalasi.**
- 4.5. Yevropa valyuta tizimi: iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini barpo etish muammolari.**

Tayanch iboralar: Jahon ssuda kapitallar bozori, pul bozori, kapital bozori, yevrobozor, yevrovalyuta, yevrodollar, yevrovalyuta bozori, transmilliy bank, Yevrokredit LIBOR, spread, LIBID, stand-bay va rollover shartlaridagi Yevrokreditlar, yevrodepozitlar, jahon qimmatli qog'ozlar bozori, yevroqimmatli qog'ozlar, chet el obligatsiyalari, yevroobligatsiya, yevroaksiya, yevrotijorat veksellari, yevroveksel, yevrovalyuta depozit sertifikatlari, yevronota, yagona yevropa fond bozori, yevrolist, Yevropa ittifoqi birjalari federatsiyasi, anderrayter, sindikat bank, investitsion bank, buqa va ayiq taranshlari, kupon stavka.

4.1. Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar

Jahon ssuda kapitallar bozori ikkita o'zaro bir-biri bilan bog'liq asosiy sektorga ajraladi va uning tarkibida yevrobozor yetakchilik qiladi (4.1-rasmga qarang).

Birinchi sektor, asosan, yirik banklar o'rtasidagi qisqa muddatli 1 kundan 1 yilgacha bo'lgan depozit-kredit operatsiyalarni qamrab olgan **jahon pul bozori** hisoblanadi. Iqtisodiyot tarixida pul bozori veksell bozori bilan birgalikda Londonda paydo bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bugungi kunda zamonaviy pul bozori deganda banklar tomonidan birinchi darajali qarzdorlarga beriladigan yuqori likvidli blankali, talab qilib olinguncha kreditlar bozori tushiniladi.

Valyuta bozori pullar kotirovka bo'ladigan bozor. Pul tovar va xizmatlar uchun to'lov vositasi sifatida xizmat qiladi va valyuta bozori xalqaro to'lovlarni yengillashtirish uchun mavjud. Xalqaro to'lovlar uchun ehtiyoj bor bo'lgani kabi, shuningdek, xalqaro kredit yoki

depozit va turli valyutalarda qarzlar uchun ehtiyoj bor. Xalqaro depozit va kredit bozor ko'pincha *yevrovalyuta bozori* deb ataladi va kreditlar ushbu omonatlarini qabul qiluvchi va kreditlar beruvchi banklar odatda *yevrobanklar* deyiladi.²⁵

Jahon ssuda kapitallari bozorining ikkinchi sektori kapital bozori hisoblanib, uni ikkita asosiy segmentga ajratish mumkin. Birinchisi, ananaviy o'rta va uzoq muddatli xorijiy kreditlar va ikkinchisi, 1968-yilda shakllana boshlagan, 1 yildan 15 yilgacha va undan ortiq muddatlardagi kreditlar bozorini o'zida mujassamlashtirgan yevrokredit bozori hisoblanadi.


Xalqaro ssuda kapitallari bozorida yevrobozor muhim rol o'ynaydi. yevrobozorning rivojlanishi va jahon moliyaviy integratsiyasi jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti uchun ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi elementlardan sanaladi. Jahon bo'ylab moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash imkonini beradi, tashqi to'lovlar muvozanati buzilganda yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi, iqtisodiy agentlarga risklardan himoyalaniish uchun muhim vositalarni taqdim etadi. Umuman olganda ushbu bozor moliya bozorida raqobatni kuchaytirib, moliya-kredit muassasalarining ko'rsatadigan xizmatlari qiymatini kamaytirishiga turtki beradi.

Yevrobozorning rivojlanishi jahon bo'yicha moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklif nisbatini erkin ta'minlanishiga sharoit yaratib beradi. Ushbu bozor korxona va tashkilotlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini bir mamlakat ichidagi, ya'ni juda kam imkoniyalar mavjud bo'lgan va nisbatan qattiq tartibga solinadigan kapital bozoridan emas, balki turli qiyinchiliklar yoki turli murakkabliklardan ancha holi bo'lgan, erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qiladigan bozor – yevrobozordan qondirishi mumkin.

Yevrobozor – xalqaro va milliy moliya bozorining bir qismi bo'lib, unda kreditlar va qarzlar bo'yicha operatsiyalar yevrovalyutalarda amalga oshiriladi. Yevrovalyutalar bozori o'z ichiga banklararo bitimlarni va bankning mijozi bo'lmagan shaxslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni ham qamrab oladi. Yevrovalyutalar bozorining asosiy xususiyati undagi foiz stavkalar jahonda yetakchi moliyaviy markazlarning banklararo foiz stavkalari

²⁵ Michael Melvin and Stefan C. Norrbom. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.101

asosida shakllangan bo'ladi. Odatda bu London banklararo foiz stavkasi hisoblanadi. 1950-yillar oxirida yevrovalyuta bozori shakllana boshlagan.



4.1-rasm. Jahon ssuda kapitallari bozori

Yevrovalyuta bu, mamlakatdan tashqaridagi kredit muassalariga qo'yilgan va ushbu mamlakatni, huquqni va iqtisodiyotni tartibga soluvchi organlari nazoratidan chetda bo'lgan ixtiyoriy shakldagi pul birliklari hisoblanadi. Yevrovalyutadagi "Yevro" so'zi jahondagi ixtiyoriy erkin ayriboshlanadigan valyutalarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, AQSHda yapon iyenasi "yevroiyna" hisoblanadi. Yevrovalyutada, ya'ni mamlakat uchun xorijiy valyutada beriladigan xalqaro bank kreditlarining qariyb 50%dan ortiq qismi AQSH dollarida ajratiladi.

Yevrovalyuta bozorining o'ziga xos xususiyati shundaki, odatda bank tranzaksiyalari uchun ishlatiladigan valyuta bank joylashgan mamlakat valyutasidan boshqa valyutada bo'ladi. Lekin shunga qaramay xalqaro bank amaliyotida mamlakat ichki valyutasidagi bitimlar ham amalga oshirilishi mumkin.²⁶

Dastlab, yevrodollar deganda AQSHdan tashqarida Yevropa banklariga chet ellik fuqarolar tomonidan qo'yilgan dollarlar

²⁶ Michael Melvin and Stefan C. Norrbinn. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.101

tushinilgan. XIX asrning oxirlarigacha, ya'ni Yevropa banklari tomonidan 3 oylik veksellar depozitlar orqali to'lash yo'lga qo'yilishiga qadar AQSHdan tashqarida dollarda qo'yilgan depozitlar amaliyotda ko'plab uchragan.

Hozirgi kundagi yevrodollar bozorining avvalgi yevrodollar bozoridan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- xalqaro foiz stavkalarining mavjudligi;
- bozor ishtirokchilari soni va operatsiyalarining ko'pligi;
- AQSHdan tashqarida dollaridagi depozitlarning kamayishi.

Dastlabki yevrodollarlar, 1950-yillarning oxirida xalqaro banklararo vakillik munosabatlari negizida paydo bo'lgan. Agar AQSH dollaridagi depozit egasi o'z depozitini Amerika bankidan xorijiy bankka o'tkazsa, amaliyotda yevrodollarlar paydo bo'lgan. AQSH dollarining yevrodollarga aylanish xususiyati xorijiy banklarga qo'yilgan AQSH dollaridagi depozitlardan AQSHdan boshqa barcha mamlakatlarda kredit resursi sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. 1960-yillardan boshlab yevrovalyuta bozori o'z tarkibiga AQSH dollaridan tashqari jahon iqtisodiyotida yetakchi bo'lgan mamlakatlarning valyutalarini ham ola boshladi.

Yevrovalyuta bozori quyidagi omillar asosida rivojlangan:

- tashqi iqtisodiy faoliyatda xalqaro valyuta-kredit xizmatlarini ko'rsatish turlarini oshirishga bo'lgan ehtiyoj;
- 1950-1960-yillarda jahondagi yetakchi valyutalar erkin konvertatsiyasining amaliyotga joriy etilishi;
- mamlakatlar milliy qonunchiligining erkinlashtirilishi hisobiga mahalliy banklar va firmalar foyda olish maqsadida o'z mablag'larini xorijiy banklarga joylashtirishlarini rag'batlantirish.

AQSHda 1957-yilda foiz stavkalarining tushishi hisobiga talab qilib olinguncha va 30 kunlik depozitlar bo'yicha foizlarni to'lashni to'xtatilishi natijasida, ko'plab investorlar o'zlarining AQSH dollaridagi mablag'larini xorijiy mamlakatlar banklariga joylashtirishni afzal bilishdi. Bu esa, o'z navbatida yevrodollarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. 1981-yilda Nyu-Yorkda erkin bank zonasini tashkil etilishi, ya'ni norezidentlar bilan bank operatsiyalari rejimi yoki tartibi yevrovalyuta bitimlarini amalga oshirish tartibi bilan qariyb bir xil bo'lgan rejimning paydo bo'lishi hisobiga yevrodollar bozori tarkibiga AQSH ham qo'shildi. "Yevrovalyuta" atamasi osiyo

mintaqasida foydalaniladigan AQSH dollarlari (Osiyo dollari), Arab mamlakatlarida ishlatiladigan AQSH dollarlari (arab mamlakatlari dollari), neft mahsulotlari savdosida foydalaniladigan AQSH dollarlari (neft dollarlari)ga nisbatan ham qo'llaniladi.

Yevrobozor ma'lum bir davlat bozori maqomiga ega emas. Shuning uchun, mazkur bozordagi operatsiyalar ma'lum bir davlatning soliq yoki valyutani tartibga solish tizimi ostida amalga oshirilmaydi.

Jahon iqtisodiyotida ko'plab moliya-kredit tashkilotlarini o'zida mujassamlashtirgan bir qator xalqaro moliyaviy markazlar mavjud bo'lib, ular yetakchi sanoatlashgan mamlakatlarda faoliyat yuritib, takomillashib kelmoqda. Ayni paytda bunday xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanayotgan mamlakatlarda ham shakllanmoqda.

Hozirgi kunda jahon yevrobozorining asosini Nyu-York, London, Syurix, Frankfurt-na-Mayn, Tokio, Singapur, Syangan shaharlari tashkil etmoqda. 1980-yillarda Bagama orollari, Panama, Bahrayn kabi yangi moliyaviy markazlar ham jahon iqtisodiyotida shakllana boshladi.

Ushbu bozorlarning hududiy va milliy bozorlardan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ularda xalqaro hisob-kitob birliklari (xususan SDR, yevro, AQSH dollari) va erkin ayirboshlanadigan valyutalarda yirik miqdordagi moliyaviy resurslar aylanmasi amalga oshiriladi. Yevrovalyuta bozorida foydalaniladigan AQSH dollarining bozor savdo aylanmasidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lsa ham, amalga oshiriladigan operatsiyalarda u yetakchilik qilib kelmoqda. Yevrobozordagi operatsiyalarda yevro, yevroshveytsariya franki, yevrofunt sterling va boshqa yetakchi valyutalarning ulushi ko'payib bormoqda;

- valyuta-kredit operatsiyalarining unversallashuvi sodir bo'ladi. Ushbu bozorda nafaqat kredit, balki valyuta va turli kafolatlar bilan bo'yicha operatsiyalar sug'urta xizmatlari hamda qimmatli qog'ozlar bozori bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshiriladi;

- ularda eng ilg'or va zamonaviy aloqa hamda kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi. Yevrobozordagi bitimlar eng zamonaviy texnologiyalar, internet, telefon, telefaks va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi va mazkur bitimlarni asosiy hujjat sifatida qayd etish ham mumkin. Bu kabi bitimlarni amalga oshirishda kafolatni

kontragent bankining maqomi, bozordagi o'rni, obro'si yoki tomonlarning xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting (AAA) ko'rsatkichlari beradi. Bugungi kundagi internet-banking elektron texnologiyasi mijozlarga bankning masofaviy xizmat ko'rsatish rejimidagi maxsus terminallari yordamida yer sharining istalgan nuqtasida joylashgan mijoz bilan turli bitimlarni tuzish imkonini beradi:

- kichik va o'rta darajadagi qarz oluvchilarning ushbu bozorda ishtiroki cheklangan;

- kuchli tarkibiy tuzulmaga ega (jahonning 500ga eng yirik banklari ushbu bozordagi operatsiyalar bilan shug'ullanadi). Yevrobozorning institutsional asosini ko'plab mamlakatlarda o'zining filiallari bilan turli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi transmilliy banklar (TMB) tashkil etadi.

- yevrovalyutadagi operatsiyalarning milliy valyutadagi operatsiyalarga nisbatan daromadlilikining yuqoriligi. Xususan, turli davlatlar bilan taqqoslanganda yevrodepozitlar bo'yicha foiz stavkalar yuqori, yevrokreditlar bo'yicha foiz stavkalar esa past bo'ladi. Chunki, yevrodepozitlar bo'yicha ma'lum bir markaziy bankda majburiy zaxiralash tizimi amalga oshirilmaydi, depozit bo'yicha foiz to'lovlariga daromad solig'i solinmaydi.

Yevrobozordagi operatsiyalarning bir qator turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan:

- kreditlarni taqdim etish;
- qisqa muddatli bitimlar;
- yevroobligatsiyalarni chiqarish.

Yevrobozor davlatlarning tashqi defitsitlarni moliyalashtirish va ulardagi ortiqcha kapital chiqib ketish jarayoniga ko'mak beradi. Jahon iqtisodiyotida ushbu bozorning afzalligi moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlashda siyosiy jihatdan betaraf ekanidir.

4.2. Yevrokredit bozori

Yevrokreditlarning asosiy qismini xalqaro bank sindikatlari taqdim etishadi. Shuning uchun, yevrokreditlarni berish mexanizmini sindikatlashgan kreditlar misolida ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Odatda katta hajmdagi kreditlar Yevrobank sindikatlari orqali amalga oshirilib sindikat yagona asosiy bank orqali boshqarilib boshqa qo'shilishni istagan va kreditga o'z hissasini qo'shishini xohlagan banklar kirishi mumkin.²⁷

Yevrobozordagi kredit operatsiyalari 1 mln. AQSH dollaridan bir necha yuz mln. AQSH dollari hajmida amalga oshiriladi. Shuningdek, bunda kreditlar garov bilan ta'minlanmasdan va foydalanish maqsadi aniq ko'rsatilmagan holda ham berilishi mumkin.

Yevrokredit bozoridagi foiz stavkalarni turli davlatlarning foiz stavkalariga nisbatan erkin shakllanishi yevrobozorga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Xalqaro foiz stavkalar odatda kredit liniyasi bo'yicha kreditlash limiti ochilayotganda olinadi. Yvrovalyuta bozorida kredit foiz stavkalari, asosan, LIBOR (LIBOR - qisqa muddatli (odatda 6 oylik) yevrovalyutalar (asosan AQSH dollari) bo'yicha London banklararo mablag'lar taklifi stavkasi)ga o'zgarmas kattalikdagi foiz stavkasi (spred (spread) - bank xizmatlari uchun ustama)ni qo'shish orqali aniqlanadi. LIBOR quyidagi o'nta valyutalar uchun kundalik ravishda belgilanadi: Britaniya funt sterlingi (GBP), Kanada dollari (SAD), Daniya kronasi (DKK), yevro (EUR), AQSH dollari (USD), Avstraliya dollari (AUD), Yaponiya iyenasi (JPY), Yangi Zelandiya dollari (NZD), Shvetsiya kronasi (SKR) va Shveysariya franki (CHF)²⁸.

Yevrokreditlar bo'yicha spred darajasi odatda $\frac{3}{4}\%$ dan 3% gacha bo'lib, uning miqdori kreditga bo'lgan talab va taklifning o'zaro nisbatiga, kredit muddatiga, mijozning kredit bo'yicha to'lovga qobiliyiga, kredit riskiga bog'liq. Umuman olganda, yevrokreditlar bo'yicha foiz stavka bazaviy (asosiy (LIBOR) stavkaga spredni qo'shish orqali aniqlanadi.

Yevrobozordagi depozitlarning foiz stavkasi London banklariaro qisqa muddatli depozitlarning foiz stavkasi LIBID (LIBID) orqali aniqlanadi.

²⁷ Michael Melvin and Stefan C. Norrbin. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.111

²⁸ Michael Melvin and Stefan C. Norrbin. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.104

Yevrobozordagi foiz stavkalari milliy bozorlardagi foiz stavkalariga nisbatan mustaqil bo'lishlariga qaramasdan, ular bilan o'zaro bir-biriga bog'liq holda shakllanadi. Shuningdek, xalqaro foiz stavkalari ham milliy foiz stavkalariga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin, ya'ni ular o'zaro bir biriga aks ta'sirga ega. Jahon ssuda kapitallari bozoridagi foiz stavkalar milliy foiz stavkalarni o'zaro bir-biri bilan muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi, ya'ni xalqaro foiz stavkalarining tebranish doirasi bo'yicha milliy foiz stavkalari ham o'zgarib boradi. Yevrobozordagi foiz stavkalar muddati, valyuta turi va boshqa jihatlar bo'yicha diversifikatsiyalashgan. 1960-yillardan boshlab jahon bozorida kredit va depozitlar bahosini aniqlashda bozor konyunkturasiga mos ravishda o'zgaruvchi suzuvchi foiz stavkalar asosiy rol o'ynamoqda.

Yevrokreditlarning shakllari. Yevrokreditlar yevrovalyutada odatda 10 oydan 12 yilgacha (o'rtacha 7 yilga) va asosan 100 mln. AQSH dollaridan 500 mln. AQSH dollari miqdorida beriladi. Yevrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari suzuvchi bo'lib, doimo xalqaro foiz stavkalari (LIBOR, PIBOR, FIBOR) asosida ko'rib chiqiladi. Yevrobanklar yevrokreditga xizmat ko'rsatgani, ishtirok etgani va ushbu jarayonni boshqargani uchun komission to'lovlar oladi yoki kredit foiziga bank o'z spreadini qo'shadi. Yevrokreditlarni olish juda qulay va tez amalga oshiriladi hamda ushbu kreditlarni uzoq muddat davomida so'ndirishga imkon beriladi. Yevrobanklar mijozning to'lov va kreditni qaytarish qobiliyatini, kredit tarixini o'rgangan holda turli shakldagi muzokaralar natijasida ssuda shartlari to'g'risidagi yozma shartnoma asosida o'z mijoziga yevrokreditlarni taqdim etishadi. Foiz stavkaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zararlarni oldini olish maqsadida banklar qisqa muddatli yevrokreditlar bozorida turli ko'rinishdagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradilar. O'rta va uzoq muddatli yevrokreditlar odatda stand-bay va qayta yangilanish (rollover) shartlari asosida taqdim etiladi.

Birinchi holatda bank qarz oluvchiga shartnomada kelishilgan summani turli qisqa (3, 6, 9, 12 oylik) muddatlar bo'yicha alohida-alohida taqdim etish majburiyatini oladi. Shartnomada belgilangan har bir muddat bo'yicha kredit foizi ham alohida-alohida, yevrovalyuta bozoridagi asosiy suzuvchi foiz stavkalar (masalan, LIBOR)ning o'zgarishini inobatga olgan holda ko'rib chiqiladi. Bu

esa, yevrobanklarga o'rta va uzoq muddatli kreditlarni qisqa muddatli resurslardan foydalangan holda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi holatda, rollover yevrokreditlar turli shartlar asosida berilishi mumkin. Xususan:

1. Yevrobank bitim tuzilgandan so'ng, investitsion loyihani kreditlash uchun mo'ljallangan barcha summani darhol bir martalik to'lov orqali yoki ma'lum bir muddatdan keyin berishi, shuningdek kreditni so'ndirish tartibi ham bir martalik to'lov hisobiga yoki qisman, alohida to'lovlar rejasi orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Amaliyotda keng tarqalgan rollover kredit turlaridan biri bu, – kreditning ma'lum bir oraliq muddati davomida mijozning maksimal olishi mumkin bo'lgan kredit miqdorini nazarda tutadi. Bunday kreditni so'ndirish tartibi bir martalik yoki qisman to'lovlar orqali amalga oshiriladi.

3. Kredit shartnomasida ssuda hajmi va uning foiz stavkasini kreditning umumiy muddati davomida har chorakda, yarim yilda yoki bir yilda bir marta va h.k. oraliq muddatlarda qayta ko'rib chiqish tartibi yoki sanasi belgilab qo'yiladi.

4. Rollover kreditning maxsus turlaridan biri – bu, qarz oluvchiga kelishilgan ma'lum muddat davomida oldindan belgilangan shartlar asosida zarur bo'lganda yevrobankdan kredit olish huquqini beradi.

Rollover kreditlarning shakli va shartlari turlicha bo'lsa-da, ular uchun ham ba'zi bir elementlar majburiy hisoblanadi. Xususan, tomonlarning faoliyat tavsifi, kreditning summasi, maqsadi va to'lov valyutasi, so'ndirish muddati va tartibi, qiymati va kafolati va boshqalar.

Yevrodepozitlarni muddati 1 kundan 1 yilgacha, ba'zan 5 yilgacha cho'zilishi mumkin, odatda ularning muddati 6 oy bo'ladi²⁹. Mazkur bozorda banklararo depozitlarning o'rtacha summasi 5-10 mln. AQSH dollarini, ba'zan esa undan bir necha marta katta miqdorni tashkil etadi.

²⁹ Michael Melvin and Stefan C. Norrbom. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.111

4.3. Yevrovalyutadagi qimmatli qog'ozlar bozori

Jahon ssuda kapitallari bozori faoliyati qimmatli qog'ozlar emissiyasi va oldi-sotdisi amalga oshiriladigan jahon fond bozori bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ushbu bog'liqlik aktivlar sekyuritizatsiyasi (inglizcha securities – qimmatli qog'ozlar), xususan bank kreditlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish jarayoni bilan, hosila moliyaviy vositalar yangicha turlarini amaliyotda ko'payishi bilan kuchayib bormoqda. Aktivlar sekyuritizatsiyasiga asoslangan qimmatli qog'ozlar bankdan qarzdorning kreditni so'ndirish uchun to'lagan mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Jahonda qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning savdosi, ya'ni bunda emitent va investor o'rtasida o'zaro oldi-sotdi operatsiyasi amalga oshiriladi (4.2-rasmga qarang).



4.2-rasm. Jahon qimmatli qog'ozlar bozori tarkibiy tuzilishi

Ikkilamchi bozorda avval chiqarilgan qimmatli qog'ozlar oldingi xaridor va yangi investor o'rtasida, ya'ni investorlar o'rtasida savdo qilinadi. Bugungi kunda hosila moliyaviy vositalar bozori ham jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Yevromoliyaviy bozorda nominali yevrovalyuta, masalan AQSH dollari, yevro yoki Yaponiya iyenasi bo'lgan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi qilinadi.

Ichki bozorlar haqida gapirganda, kollektiv investitsiya fondlari, obligatsiyalar va aksiyalar bilan bog'liq bo'lgan xalqaro investitsion imkoniyatlar mavjud bo'lib, AQSH eng katta bozor hisoblanadi³⁰.

Yevroqimmatli qog'ozlar (euro-securities) bu erkin muomalada bo'luvchi (transferable securities), sindikat anderrayterlar yoki turli mamlakatlardan bo'lgan ikki ishtirokchi orqali joylashtiriladigan, ularni bir yoki undan ortiq mamlakatlarga sotish rejalashtirilgan, faqat moliya-kredit tashkilotlari orqali ega bo'lish mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Bugungi kunda, jahon fond bozorida qimmatli qog'ozlarning yillik emissiyasi hajmi barcha manbalar hisobidan talabgorlarga berilgan xalqaro kreditlar va moliyaviy mablag'larning qariyb yarmini tashkil etadi.

Xalqaro qarz qimmatli qog'ozlar xalqaro fond bozorida kapitalni jalb etishning va operatsiyalarning asosini tashkil etadi. Ularning tarkibida xalqaro obligatsiyalar va notalarni, turli kompaniyalar (korporativ), moliyaviy institutlar va davlatlarning xalqaro qarz qimmatli qog'ozlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Xalqaro qarz qimmatli qog'ozlarini fond bozorlarida muomalada bo'luvchi asosiy ikki, ya'ni yevroobligatsiya va chet el obligatsiyalari shakllari mavjud.

Chet el obligatsiyalaridan foydalanish amaliyotga 500 yildan beri mavjud bo'lsa, yevroobligatsiyalar paydo bo'lganiga hozirda atigi 30 yil bo'ldi. Bugungi kunda chet obligatsiyalarini, asosan, rivojlangan mamlakatlar emissiya qilishmoqda. Ba'zi mamlakatlar tomonidan emissiya qilingan chet el obligatsiyalari o'ziga xos nom bilan ataladi. Masalan, Shveysariya obligatsiyalari - Chocolate Bonds, Yaponiya obligatsiyalari - Samourai Bonds, AQSH obligatsiyalari - Jankee Bonds, Buyuk Britaniya obligatsiyalari - Bulldog va h.k. Jahon fond bozorining ushbu segmenti yevroobligatsiyalarni ko'payishi hisobiga qisqarib bormoqda.

Yevroobligatsiya – xorijiy investorlar orasida xalqaro sindikat anderrayterlari orqali joylashtiriladigan, emitent va xorijiy investorlar uchun chet el valyutasida chiqarilgan qarz munosabatlari qimmatli qog'oz hisoblanadi. Yevroobligatsiyalar joylashtirilayotganda

³⁰ Michael Melvin and Stefan C. Norrbm. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.191


jahonning hech qaysi bir mamlakatida ro'yxatga olinmaydi. Yevroobligatsiyalar, asosan, bank kontsorsiumlari, sindikatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan emissiya qilinadi.

Yevroobligatsiyalarning turi sifatida "dragon" (inglizcha "dragon bonds" atamasidan olingan) obligatsiyalarini qayd etish mumkin. Ular yevrodollar obligatsiyalar bo'lib, Osiyo bozorida joylashtirilgan (birinchi navbatda Yaponiyada) va ma'lum bir Osiyo birjasida (odatda Hongkong yoki Singapur birjalarida) listinga ega bo'lgan qimmatli qog'oz hisoblanadi.

Yevroobligatsiyalar va chet el obligatsiyalari o'rtasidagi o'xshashlik ularni mamlakatlar o'rtasida kapitalni qayta taqsimlash vositasi bo'lib hisoblanishida, shuningdek, ularni emitent mamlakatlar milliy valyutasidan farqli boshqa valyutada emissiya qilinishida namoyon bo'ladi.

Yevroobligatsiyalar va chet el obligatsiyalari o'rtasidagi farq esa quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yevroobligatsiyalar erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada emissiya qilinadi. Chet el obligatsiyasi esa uning emitenti uchun ixtiyoriy xorijiy valyutada emissiya qilinadi, ya'ni bunday valyutalar erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta bo'lmasligi ham mumkin.



4.3-rasm. Xalqaro fond bozorida yevroobligatsiyalarning shakllanish mexanizmi

Ikkinchidan, chet el obligatsiyalari joylashtiriladigan mamlakatda ro'yxatga olinadi, uning nominal qiymati joylashtiriladigan mamlakat uchun milliy valyutada bo'ladi, u faqat joylashtiriladigan mamlakat fond bozorida muomalada bo'ladi. Yevroobligatsiyalar esa, ma'lum bir mamlakatga ro'yxatga olinmasdan joylashtiriladi, bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlar fond bozorlarida muomalada bo'lishi mumkin, shuningdek, obligatsiya nominali ko'rsatilgan milliy yoki xalqaro valyutaning xususiyati emitentining milliy xususiyatlari mos kelmasligi lozim. Yevroobligatsiyalarni dastlabki joylashtirish to'g'ridan to'g'ri emitent joylashgan mamlakatning milliy fond bozorlarida amalga oshirilmagan, balki xorijiy mamlakatlar milliy fond bozorlagida amalga oshiriladi va ular orqali emitent joylashgan mamlakat milliy fond bozorlariga kelib tushishi va muomalasi amalga oshirilishi mumkin (4.3-rasmga qarang).

Milliy fond bozori vositasi bo'lgan oddiy obligatsiyalar bilan xalqaro fond bozorining maxsus vositasi bo'lgan yevroobligatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- xalqaro anderrayter konsortsiumlari yoki investitsion banklarni o'z ichiga oluvchi oddiy sindikatlar tomonidan bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlarda yevroobligatsiyalar emissiyasi amalga oshiriladi;

- sindikat tomonidan ko'rsatilgan hududlarda joylashtirilgan yevroobligatsiyalar emissiyasi hech qaysi bir mamlakatdan ro'yxatdan o'tmaydi. Yevroobligatsiyalar muomalasi ma'lum bir davlatning obligatsiyalar muomalasini tartibga solishning iqtisodiy-huquqiy me'yorlari orqali tashkil etilmaydi, balki yevroobligatsiyalar, asosan, xalqaro huquqiy me'yorlar bo'yicha tartibga solinadi;

- Yevroobligatsiyalar bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlarga yoki turli mamlakatlar fond bozorlariga joylashtiriladi. Xorijiy investorlar o'zlarining mahalliy birjalaridan yevroobligatsiyalarni sotib olishlari mumkin. Shuningdek, emitent mamlakat investorlari boshqa mamlakatlar orqali o'z fond bozorlariga yetib kelgan yevroobligatsiyalarga egalik qilishadi.

- oddiy obligatsiyalardan farqli ravishda yevroobligatsiya nominali bo'yicha to'lanadigan foizdan "daromad manbayi sifatida" soliq undirilmaydi. O'zining yuqori daromadini soliqqa tortilishidan

olib qochib, uni sir saqlaydigan omonatchini Fransiyada "belgiyalik dantist" deb ham atashadi.

Yevroobligatsiyalar bozori transmilliy korporatsiyalarning o'rta va uzoq muddatli investitsiyalarini moliyalashtirishning muhim manbalardan hisoblanadi. Davlatlar odatda budjet daromadlarini ko'paytirish va davlat qarzlarini qayta moliyalashtirish uchun yevroobligatsiyalardan foydalanishadi.

Yevroobligatsiyalarning oddiy konvertirlanadigan shakli ham mavjud bo'lib, ma'lum bir belgilangan muddatdan keyin, emitent kompaniya aksiyalariga ularni almashtirish sharti bilan chiqariladi. Bunday yevroobligatsiyalar egasi emitent kompaniya faoliyatining foydalilik darajasi ortadi degan taxmin bilan ularni sotib oladi. Chunki odatda konvertatsiya davrigacha yevroobligatsiyalar bo'yicha foiz to'lovlari amalga oshirilmaydi.

Jahon yevroaksiyalar bozori 1983-yildan sinditsiyalashgan kreditlash amaliyoti bilan birga rivojlana boshladi, biroq ularning emissiyasi yevroobligatsiyalarga nisbatan juda kam. Yevroaksiyalarga konvertirlanadigan yevroobligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi jahon qimmatli qog'ozlar bozorida mazkur turdagi segmentlarni o'zaro integratsiyasini kuchaytirdi.

Yevrotijorat veksellari -- foiz stavkasi yevrodollar depozit sertifikatlari bo'yicha olingan (odatda o'rtacha 0, 25%), 3-6 oylik muddatga yevrovalyutada rasmiylashtirilgan hujjatli veksellardir. **Yevroveksellar** o'rta muddatli qarz munosabatini ifodalovchi qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Umuman olganda, yevroveksellar bozori hajm jihatdan juda kichik, 1981-yildan boshlab rivojlangan. Yevroveksellar 1984-yildan emissiya qilib kelinmoqda.

Yevrovalyuta depozit sertifikatlari -- omonatchining depozitini va unga tegishli foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi, yevrovalyutada qo'yilgan pul mablag'lari to'g'risida banklarning yozma guvohnomalari. Yevrobozorda bu kabi sertifikatlar amaliyotda keng qo'llaniladi. Bu kabi depozit sertifikatlarining muddati 30 kundan 3-5 yilgacha bo'lishi mumkin. Yevrobanklar nominali 25 ming AQSH dollari va undan yuqori bo'lgan depozit sertifikatlarini qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorida sotish imkoniyatini taqdim etgan holda turli banklar va xususiy korxona yoki tashkilotlar o'rtasida

joylashtiradilar. Muomaladagi muddatli depozit sertifikatlari, odatda brokerlarga sotiladi yoki innossament bo'yicha boshqa shaxsga o'tkaziladi. Depozit sertifikatlari yevrobanklarda omonatlarni ko'paytirgan holda, ularning kreditlash imkoniyatini oshiradi va yevrobozorni kengayishini rag'batlantiradi. Yevrovalyutadagi depozit sertifikatlari bo'yicha foiz stavkasi yevrodollar depozitlariga nisbatan past bo'lsa-da, ularni ikkilamchi bozorda oson sotish mumkin.

Yevronotalar – suzuvchi foiz stavkadagi qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. 1980-yildan yevronotalar bilan operatsiyalar amalga oshirib kelinmoqda. Ular ba'zan yevrobank kafolati bilan turli kreditlash vositalariga ham almashtirilishi mumkin.

Yevroobligatsiyalar va yevronotalar o'zaro bir-biridan farq qiladi. Yevroobligatsiyalar taqdim etuvchiga ko'rinishida, ya'ni nomi yozilmasdan chiqariladigan qimmatli qog'oz hisoblanadi va savdo tizimlarining depozitariylarida saqlanadi. Bunday nomi yozilmagan qimmatli qog'ozlar odatda rivojlanayotgan mamlakatlarga joylashtiriladi. Yevroobligatsiyalarni chiqaradigan emitentlarga qulaylik yaratish maqsadida ularning ta'minoti uchun zaxira shakllantirilmaydi.

Yevronotalar nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi va ular bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda emissiya qilinadi. Yevroobligatsiyalardan farqli ravishda yevronotalar ta'minoti uchun zaxira shakllantiriladi.

Yevropa ittifoqida bosqichma-bosqich yagona **yevropa fond bozori** shakllangan bo'lib, bunda yevropa ittifoqida joriy etilgan quyidagi tamoyillar asosiy rol o'ynagan:

- bank faoliyatini unifikatsiyalashga ruxsat berish;
- o'zaro axborot almashinishini va tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish;
- bozor ishtirokchilarni mamlakatlarga qarashliligi bo'yicha nazorat qilish;
- birjalararo axborot almashishning yagona tizimini yaratilishi.

Natijada, Yevropa ittifoqidagi har qanday korxona ushbu hududda qimmatli qog'ozlarni erkin sotib olish yoki sotish, brokerlar esa mazkur hududda joylashgan birjalarda erkin faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, hududdagi fond birjalarining kapitallashuv darajasi oshdi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha birjadan tashqari savdolarda raqobat muhiti kuchaydi.

Yevropa ittifoqida fond bozorlarini unifikatsiyalashda 1990-yildan hududdagi birinchi darajali kompaniyalarning Yevropa ittifoqi mamlakatlari birjalarida kotirovka qilingan qimmatli qog'ozlarining baholarini o'zida aks ettiruvchi Yevropa kotirovkalari - "Yevrolist"ni joriy etilishi va Yevropa ittifoqi birjalari federatsiyasining tashkil topishi dastlabki asosiy bosqichlardan hisoblanadi.

Yevropa ittifoqida yagona moliyaviy muhitni shakllantirish uchun mamlakatlar moliya bozorlaridagi xususan, milliy fond bozorlariga xos bo'lgan quyidagi asosiy farqlar bosqichma-bosqich bartaraf etib borildi:

- birja operatsiyalarini milliy doirada tartibga solish (qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berish, axborotlar oshkor etishga bo'lgan talablar va h.k.);

- birjalarning operatsiyalar hajmi va milliy iqtisodiyotdagi roli;

- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi institutsional investorlar, ya'ni sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari, banklarning fond bozoridagi roli va o'rni bilan bog'liq farqlar.

Yevropa ittifoqida yagona fond bozori tarkibi shakllantirilgan bo'lib, u o'z ichiga aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari va hosila moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarga ixtisoslashgan, hamkorlikda yangi tashkil etilgan qo'shma birjalar (Yevropa birjasi, Xalqaro birja, LIFFI va boshq.) va qator segmentlarni oladi.

Yevropada tashkil etilgan yagona ssuda kapitallari va qimmatli qog'ozlar bozorlari Yevropa iqtisodiy integratsiyasini tashkil etishda asosiy rol o'ynagan.

Hozirda jahon fond bozorlari infratuzulmasida quyidagi asosiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

Birinchidan, savdolariga xorijliklar ishtirok etishi uchun ularga alohida savdo maydonchalari tashkil etilmoqda. Xususan, London fond birjasida yuzlab xalqaro investitsiya institutlari, 500 dan ortiq xorijiy banklar savdo qilishmoqda, 60 dan ortiq mamlakat xalqaro kompaniyalarining aktsiyalari birja listingi ro'yxatida turib sotilmoqda.

1987-yildagi fond bozoridagi katta yo'qotishlar davrida Nyu-York fond birjasi 600mln. Hajmga teng aktsiyalar bilan savdo qilgan lekin

Hong kong, Singapur, Italiya, Fransiya, va Germaniya bozorlari bu darajada likvid emas edi.³¹

Ikkinchidan, jahon qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning roli boshqa moliyaviy vositachilar hisobiga qisqarayotgan bo'lsa-da, ular birjalarning ish vaqtlari tugab, yopilganda savdolar uzluksizligini ta'minlovchi va anonim ravishda qimmatli qog'ozlar kotirovkasini amalga oshiruvchi xususiy elektron brokerlik tizimlarini hamda moliyaviy vositalarning yangi turlarini yaratishmoqda.

4.4. Yevroobligatsiyalar muomalasi

Jahondagi xalqaro qarz qimmatli qog'ozlari orasida yevroobligatsiyalar asosiy salmoqni (qariyb 60 foizni) egallaydi. (taqqoslash uchun keltiramiz: AQSH xalqaro qarz qimmatli qog'ozlari o'rtacha 22 foizni, qolgan 18 foizni rivojlanayotgan mamlakatlar va ofshor markazlar egallaydi) Shuning uchun xalqaro kredit munosabatlarida va qarz kapitalini qimmatli qog'ozlar orqali jalb etish masalalarida yevroobligatsiyalar amaliyotini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Yevroobligatsiyalar (yevroqimmatli qog'ozlar)ning rasmiy tavsifi Yevropa Ittifoqi Direktivasi tomonidan 1989-yil 17-prelda qabul qilingan qimmatli qog'ozlarni ommaviy (ochiq) joylashtirish emissiyasi prospektida ko'rsatilgan.³²

Xalqaro qarz qimmatli qog'ozlari sifatidagi obligatsiyalarga "yevro" so'zini qo'shib, alohida yevroobligatsiya atamasini yaralishiga asosiy sabab, birinchidan, xalqaro qarz qimmatli qog'ozlar savdosining asosiy qismi Yevropada joylashganligi, ikkinchidan, ularning valyutalar bo'yicha kesimida "Yevro"da emissiya qilinganlari asosiy ulushni tashkil etishi hisoblanadi³³.

Yevroobligatsiyalarning emissiyasi 1963-yildan boshlab chiqarilayotganligi ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, 1940-1960-yillarda ham shunga o'xshash qarz majburiyatlari Yevropa hududida muomalasi bo'lgan. Yevroobligatsiyalarni paydo bo'lishi

³¹ Michael Melvin and Stefan C. Norrbom. International money and finance. 8th edition. Elsevier Inc. 2013 P.192

³² Council Directive 89/298/EEC

³³ Bank for International Settlements: Annual Report. BIS Quarterly Review: International Banking and Financial Market Developments.

xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan sharoitda yevropadagi transmilliy kompaniyalarni moliyaviy ta'minlash, xususan 1950-yillarda PHILIPS kompaniyasining Niderlandiyaga nominali AQSH dollarida ifodalangan yevroobligatsiya ko'rinishidagi qarz majburiyatlarini kiritishi bilan bog'liq. Ushbu o'n yillikda yevroobligatsiyalar moliyaviy ta'minoti Yevropa banklarida yirik miqdorni tashkil etuvchi AQSH dollaridagi depozitlar bilan amalga oshirildi.

1960-yillarda yevroobligatsiyalar bozori unga huquqiy maqom berish bilan bog'liq muhim muammolarga duch keldi. Bunga sabab yevroobligatsiyalar bozori infratuzilmasining takomillashmaganligi, sertifikatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar oqibatida to'lovlarning kechiqishi, bular bilan bog'liq hisob-kitoblar Nyu-York orqali amalga oshirilishi, ularni o'zaro almashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'ldi. Bu muammolar yevroqimmatli qog'ozlar bozorida infratuzilmaviy tashkilotlarni yaratish orqali bartaraf etildi.

1963-yilda AQSH tomonidan kapitalni chetga chiqishini kamaytirish maqsadida foizlarni tenglashtiruvchi maxsus soliq (Interest equalization Tax)³⁴ning joriy etilishi oqibatida kreditlarning qiymatini 1 foiz punktga ko'tarilishi chet el investorlarini Amerika bozoridagi operatsiyalarini qisqarishiga olib keldi. Ushbu holat investorlarni yevroobligatsiyalar chiqarish evaziga moliyaviy kapitalga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlariga sabab bo'ldi.

1970-yillardan boshlab yevroobligatsiyalar bozori jadal sur'atlar bilan rivojlandi, bunga ushbu davrda paydo bo'lgan yevrodollarlar muomalasi ham katta turtki berdi. 1968-yilda J.P.Morgan Guaranty Trust Amerika banki yevroobligatsiyalar savdosi bo'yicha Euroclear kliring markazini tashkil etdi va 1970-yilda esa uning asosiy raqobat-chisi Yevropa banki tomonidan Lyuksemburgda CEDEL (hozirgi CLEARSTREAM) paydo bo'ldi. Hozirda har ikkalasi orqali yevroobligatsiyalar hisobi bo'yicha depozit-kliring operatsiyalari amalga oshiriladi.

1969-yilda yevroobligatsiyalarning ikkilamchi bozoridagi tashkiliy texnik muammolarni bartaraf etish maqsadida yevroobligatsiyalar bozorining yirik operatorlari (18 mamlakatdan 350 ta moliyaviy tashkilot) o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot – xalqaro

³⁴ Ushbu soliq 1967 yilda 1,5 foiz punktga oshirilgan va 1974 yilda bekor qilingan.

obligatsiyalar bo'yicha dilerlar assotsiatsiyasi (Association of International Bond Dealers) ni tashkil etishdi.

1980-yillarda bo'lgan qarzдорlik inqirozlari oqibatida kreditlarni qimmatli qog'ozlarga aylantirish (qarzlarni sekuritizatsiyalashtirish) xalqaro qarz qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. Inqiroz natijasida moliya bozorida kuzatilgan salbiy holatlar xalqaro korporatsiyalar faoliyatini kreditlar orqali moliyalashtirishdan ko'ra obligatsiyalar emissiyasi orqali moliyalashtirish afzalligini ko'rsatdi. 1990-yillar o'rtalarida yevroobligatsiyalar xalqaro bozordan jalb etiluvchi ssuda kapitallarining 50-80 foizini tashkil qildi.

Yevroobligatsiyalar, asosan, yirik, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar va hukumat organlari tomonidan emissiya qilinadi. Hukumat yoki mahalliy organlar tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalarga davlat kafolati talab etiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yevroqimmatli qog'ozlarining asosiy qismi xususiy korxonalar tomonidan joylashtirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yevroobligatsiyalar emissiyasi uchun mamlakatning suveren kredit reytingi muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda yevroobligatsiyalar bozoriga chiquvchi emitentlar xalqaro reyting agentliklari tomonidan aniqlangan yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega bo'lishadi. Emitentlarning yuqori reytingga jalb etiladigan qarz mablag'larini arzonlashtirish, ya'ni past foiz stavkalarini o'rnatish imkonini yaratadi. Emitent yevroobligatsiyalar bozoriga chiqishi uchun yuqori bo'lmasa ham xalqaro reyting agentliklarining ma'lum bir reytingiga ega bo'lishi zarur.

Yevroobligatsiyalar bozorining professional ishtirokchilari sifatida qimmatli qog'oz operatsiyalari bo'yicha ixtisoslashgan asosiy yirik banklar va kompaniyalar savdo maydoniga chiqishadi. yevroobligatsiyalar investitsion banklar tomonidan joylashtirilib, ularni asosiy xaridorlari institutsional investorlar, ya'ni sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya kompaniyalari va fondlari hisoblanadi.

Yevroobligatsiyalarning asosiy afzalliklari emitentlarning ishonchliligi, soliqlardan qochish imkoniyatining mavjudligi, yevroobligatsiya egasining nomini oshkor etilmasligidir. Bundan tashqari, savdolarning katta qismi birjadan tashqari bozorda telefon yoki kompyuterlar orqali amalga oshiriladi. Foizlar yilda bir marta

to'lanadi. Bunday obligatsiyalarning asosiy qismi ta'minlanmagan hisoblanadi. Milliy tartibga solish organlari tomonidan ularga nisbatan cheklovlar mavjud emas. Yevroobligatsiyalar yevropadagi ikkita fond birjasi, ya'ni London va Lyuksemburg fond birjalari listinggiga kiradi.

Yevroobligatsiyalarni chiqarish shakllari turli tuman bo'lib, suzib yuruvchi va qat'iy belgilangan stavkada, "nol" kuponli, boshqa obligatsiyalarga konvertatsiyalanadigan, ikki turli valyutada denominatsiyalangan (obligatsiya nominali ma'lum bir valyutada, uning foiz to'lovlari esa boshqa valyutada amalga oshiriladi) va boshqa ko'rinishlarda chiqarilishi mumkin.

Yevroobligatsiyalarni so'ndirish muddati emitent qarzning asosiy summasini qaytarishga majbur bo'lgandan boshlab hisoblanadi. Uzoq muddatli majburiyat odatda 10 yildan ortiq bo'lgan muddatda so'ndirilishini anglatadi. O'rta muddatli majburiyat esa 1 yildan 10 yilgacha bo'lgan davriy oraliqu egallaydi. Qisqa muddatli majburiyat 1 yildan kam bo'lmagan muddatga chiqarilgan obligatsiyalarga namoyon bo'ladi.

Yevroobligatsiyalar yagona so'ndirish sanasiga yoki turli so'ndirish sanasi bilan chiqariladi. So'ndirish fondi bilan obligatsiyalarni chiqarishda emitent vaqti-vaqti bilan doimiy ravishda obligatsiyalarni ma'lum bir qismini bozor kursi bo'yicha ularni qaytarib sotib olish yo'li bilan (mustaqil ravishda yoki maxsus agent orqali) yoki (agar obligatsiya kursi nominalidan yuqori bo'lsa) emissiya prospektida ko'rsatilgan so'ndirish jadvalidan kelib chiqib, nominali bo'yicha davriy ravishda so'ndiradi. So'ndirish yilda ikki marta ixtiyoriy tanlov usuli orqali amalga oshiriladi. Gollandiyalik emitentlar orqali amalga oshiriladigan emissiyalarda obligatsiyalarni so'ndirish investorlar tomonidan egallangan obligatsiyalar miqdoriga proporsional ravishda amalga oshiriladi. Ko'plab yevroobligatsiyalar taqdim etuvchiga chiqarilganligi uchun ularning egalarini hisobi yuritilmaydi va ularni so'ndirish to'g'risidagi e'lon moliyaviy matbuotda oldindan berilishi lozim.

Agar biz bir necha yillar orqaga qaytadigan bo'lsak, ko'pgina mamlakatlarning fond bozorlarini segmentlashganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Segmentlashgan bozor – bu, tashqi investor ichki bozordagi aksiyalarni va mahalliy investorlar esa tashqi bozordagi aksiyalarni sotib olishlari ta'qiqlanganini anglatadi.

Yevroobligatsiyalar muomalasining asosiy qismini 2 yildan 40 yilgacha bo'lgan yevroobligatsiyalar tashkil etadi. Ularning orasida juda qisqa muddatli, muomalasi 6 oyni tashkil etuvchi yevroobligatsiyalarni ham uchratish mumkin.

Yevroobligatsiyalar bo'yicha foizlarni to'lash ancha murakkab tartibda amalga oshiriladi. Ikkita valyutada denominatsiyalangan obligatsiyalarning asosiy qarz summasi bir valyutada ifodalanadi, foizlarni to'lash esa, boshqa valyutada amalga oshiriladi. Dastlab foizlar belgilangan valyutada hisoblanib, keyin investor talabiga ko'ra boshqa valyutaga bozordagi kurs bo'yicha almashtirgan holda foizlar to'lab berilishi mumkin. Ba'zi hollarda investor foiz to'lovi o'rniga boshqa yangi obligatsiyani olishi ham mumkin. Lekin bunday obligatsiyalar investorlar tomonidan ko'p talab etilmaydi.

Yevroobligatsiyalarning asosiy qismi fiksirlangan foiz stavkali oddiy obligatsiyalar hisoblanadi, ularning to'rtidan bir qismi emitent bilan muddatidan oldin so'ndirishga kelishilgan obligatsiyalardir. Yevroobligatsiyalarning asosiy qismi nominali bo'yicha yoki kichik mukofot, yohud nominaliga nisbatan diskont (chegirma) bilan chiqariladi. "Nol" kuponli obligatsiyalar bundan mustasno.

Yevroobligatsiyalarni so'ndirish nominali bo'yicha amalga oshiriladi. Ikki valyutada denominatsiya qilingan obligatsiyalarni so'ndirish nominalidan farqli ravishda boshqa valyutada amalga oshirilishi mumkin. To'lov muddati kelganda "heaven and hell bonds" sharoitida kelishilgan kurs va "spot" kurs o'rtasidagi farqqa bog'liq ravishda so'ndiriladi. Nazariy jihatdan qaraganda, so'ndirish summasi 2 barobarga ortishi yoki "nol" qiymatga ega bo'lishi mumkin. So'ndirish qiymati ma'lum bir indeksga bog'lab qo'yiladi. Masalan, "bull-bear issue" holatida so'ndirish qiymati aksiyalar kursiga bog'liq bo'ladi. Agar obligatsiyalar ikki transhda chiqarilsa "buqa transhi" (bull tranche) holatida so'ndirish summasi indeksning ko'tarilishi bilan ortib boradi, "ayiq transhi" (bear tranche) holatida esa indeksning pasayishi bilan ko'payadi. Obligatsiyalar qiymatining indeksatsiyasi ma'lum bir tovar indeksiga nisbatan yoki mahsulot narxiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Lekin bunday holat amaliyotda kam uchraydi. Obligatsiyalar muddati tugaganda so'ndirish fondi hisobiga, yoki fond tomonidan ularni qaytarib sotib olish orqali yagona summa bilan so'ndiriladi. So'ndirish fondidan foydalangan holda qarz muddati

tugaguncha har yili obligatsiyalarni ma'lum bir qismini so'ndirish emitent zimmasida turadi. Qaytarib sotib olish fondidan foylanilganda obligatsiyalarning bozordagi narxi nominalidan past bo'lsa, emitent kelishilgan miqdordagi obligatsiyalarni bozordan qaytarib sotib olishga majbur. So'ndirish fondi odatda obligatsiyalar emissiyasidan so'ng bir necha yildan keyin faoliyat yurita boshlaydi, qaytarib sotib olish fondi esa 3-6 oydan keyin o'z faoliyatini yuritadi.

Muddatidan avval so'ndirilishi mo'ljallangan yevroobligatsiyalar. Ko'plab uzoq muddatli obligatsiyalar emitent tomonidan muddatidan avval (ma'lum bir imtiyozli davriy oraliqda) so'ndirilishi mumkin. Xususiy korporatsiyalar o'z obligatsiyalari nominaliga qo'shimcha ravishda ma'lum bir miqdordagi mukofotni qo'shgan holda qaytarib sotib olishni mo'ljallaydilar, davlat obligatsiyalari esa nominali bo'yicha qaytarib sotib olinadi.

Qaytarib sotib olish huquqi – buni optionlarga o'xshash xususiyati bo'lib, emitent bunday huquqqa ega hisoblanadi. Bunday optionda boshqa obligatsiyalarga nisbatan o'z muddati davomida yuqori daromadli va nisbatan arzon narxda sotiluvchi, muddatidan oldin so'ndirilishi mo'ljallangan obligatsiyaning aniq narxi bo'ladi. Agar bozordagi foiz stavkalar pasaysa, emitent obligatsiyalarni qaytarib sotib olishga harakat qiladi va emitent o'z majburiyatlarini kichik foiz stavkalarda qayta moliyalashtirish inkoniyatiga ega bo'ladi. Muddatidan avval obligatsiyalarni so'ndirish sharti ularni qiymatini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Yevroobligatsiyalarning kupon stavkasi. Obligatsiyalarning kupon to'lovlarini hisoblashning bir nechta standartlari mavjud. Yevroobligatsiyalar bozorida va Amerika korporativ obligatsiyalar bozorida oy kunlari 30 kun, yil kunlari 360 kun deb hisoblash qabul qilingan. Oyning 31 sanasi 30 sanaga almashtiriladi. Shuning uchun turli sanalardagi kunlar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$KS = (2 \text{ yil} - 1 \text{ yil}) * 360 + (2 \text{ oy} - 1 \text{ oy}) * 30 + (2 \text{ kun} - 1 \text{ kun})$$

Asosiy foiz stavkasi darajasini aniqlashda mo'ljallab olinadi. Lekin bu har doim emas, masalan 1954-yilda birinchi marta 250 mln. AQSH dollari miqdoridagi yevroobligatsiyalarni AQSH g'aznachilik majburiyatlari foizi + 35 bazis punk miqdorida suzuvchi kupon stavkasi darajasida belgilab joylashtirgan. Birinchi uch oyda uning stavkasi LIBOR stavkasidan 0,3 foizga past bo'lgan.

Yevroobligatsiyalarni emissiya qilish tartibi. Yevroobligatsiyalarni joylashtirish uchun emitent bir qator tayyorlov tadbirlari o'tkazishi lozim. Obligatsiyalarni chiqarishda tayyorgarlikning umumiy davri (yevronotalar chiqarishda) bir necha haftadan (to'liq dastur bo'yicha taqdim etuvchiga (nomi yozilmagan) yevroobligatsiyalarni chiqarishda) bir necha oygacha cho'zilishi mumkin. Butun muomala davri bo'yicha yevroobligatsiyalarni chiqarish loyihasini moliyalashtirishning umumiy xarajatlari barcha vositachilar komission xarajatlarini qo'shib hisoblaganda, qariyb yarim million AQSH dollari sarf etiladi.

Emissiya qilish jarayoniga tayyorgarlik bir xil tadbirlardan iborat bo'lmaydi, balki kompleks dastur rejali xususiyatga ega bo'lishi va barcha tadbirlarni o'zaro bog'lab turishi lozim. Bunday yondashuv tayyorgarlik xarajatlarini qisqartiradi va tashkil etish jarayonini uzluksizligini ta'minlaydi.

Asosiy tayyorgarlik tadbirlariga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro standartlar bo'yicha audit o'tkazish. Odatda bunday ishga "katta oltilik"dan bittasi maslaxatchi qilib jalb etiladi. G'arb mamlakatlaridan taniqli ekspertlarni mazkur jarayotga jalb etiladi.

2. Hujjatlarni tayyorlashga maslaxatchi qilib yuridik kompaniya jalb etiladi. Kompaniya mutaxassislari qonunchilik bo'yicha ta'sis hujjatlarini to'g'riligini tekshiradilar, emissiya prospektini tayyorlashadi, yevroobligatsiyalar muomalada bo'luvchi birjalar, obligatsiyalar bo'yicha to'lov agenti, investitsion bank, auditorlar bilan shartnomalar tuzadilar, mamlakatlarning potensial investorlariga emissiya projektining mosligini tekshiradilar. Shuningdek, huquqshunos obligatsiyalar muomala texnikasini tanlashga yordam berishi mumkin.

3. Yevroobligatsiyalarni joylashtirishning yetakchi menejeri sifatida investitsion bankni jalb etish. Odatda uning o'zi obligatsiyalar bo'yicha to'lov agenti bo'ladi. Uning komission xarajatlari summasi emissiya natijalarini tarqatish usuliga bog'liq. Komission xarajatlar investorlarni mukofotlash natijasiga ko'ra, anderryting xizmati hajmi va sifatiga ko'ra, emissiya hajmiga nisbatan foizda hisoblanishi mumkin. Investitsion bankni tanlab olish me'zonlariga nafaqat miqdor ko'rsatkichlari, balki banking sifat ko'rsatkichlari ham hisobga olinadi:

- u Yevropada taniqli nomga ega bo'lishi lozim. Aynan shuning uchun mahalliy bank emas, balki xorijiy bank tanlanadi;

- joylashtirish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lishi lozim. Bu esa yevroobligatsiyalarni sotish xarajatlarini ham kamaytirishi mumkin;

- emitent mamlakatida o'z ofisiga ega bo'lishi, soliqlar tortish masalalarini oson hal qilishi uchun o'sha joyning yuridik shaxsi hisoblanishi lozim;

- xalqaro reyting agentligi tomonidan baholangan bo'lishi lozim. Agar qarz alohida bir mamlakatga joylashtiriladigan bo'lsa, mahalliy reyting agentliklari xizmatlaridan foydalanishning o'zi yetarli bo'ladi;

- emissiyani ro'yxatga olish. Agar emitent bank bo'lsa, emissiya prospektini ro'yxatga olish mamlakatlarning moliya vazirliklarida yoki markaziy banklarida amalga oshiriladi;

- axborotlarni oshkor etish dasturi bo'lishi lozim;

Mustaqil joylashtirish. Investitsion banklarga yuridik hujjatlarni, emissiya prospektini, kurslar va emitent faoliyatining sifatini ko'rsatuvchi mustaqil joylashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar yuborilib, bank yevroobligatsiyalarni chiqaruvchi emitentga faqat to'lov agenti vazifasini bajarib beradi xolos, ularni yevrobozorda joylashtirishga ko'maklashmaydi.

4.5. Yevropa valyuta tizimi: iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini barpo etish muammolari

Zamonamizga xususiyatli bo'lgan narsa — iqtisodiyot va valyuta borasidagi hududiy integratsiyaning, avvalambor, G'arbiy Yevropada rivojlanishidir. Integratsion jarayonlarning rivojlanish sabablari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va birlashuvining kuchayishi, kapitallarning o'zaro aralashib ketishi;

- raqobatdosh markazlarning jahon bozorlaridagi o'zaro kurashi va valyuta barqarorsizligi.

Guruhlar doirasida yagona xo'jalik kompleksining yaratilishiga qaratilgan milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga yaqinlashishi, o'zaro chambarchas bog'lanib ketish jarayoni o'z ifodasini Yevropa hamjamiyatida topdi. Yevropa hamjamiyati G'arbiy Yevropa

mamlakatlarining nihoyatda rivojlangan hududiy integratsion guruhidir. U 1958-yilning 1-yanvaridan boshlab, 1957-yilning mart oyida 6 mamlakat - Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg tomonlaridan imzolangan Rim shartnomasi asosida amal qiladi. 1973-yildan boshlab Yevropa hamjamiyatiga Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya, 1981-yildan boshlab Gretsiya, 1986-yildan Portugaliya va Ispaniya, so'ng esa Avstriya, Shvetsiya, Finlyandiya a'zo bo'lib kirgan. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning Yevropa hamjamiyati bilan assotsiatsiyasi tuzilishi to'g'risidagi Lomey Konvensiyasini (1984 va 1989-y.y.) Afrika qit'asi, Karib dengizi va Tinch okeani havzalarining 66 davlati imzoladi. O'rta yer dengizi mamlakatlari guruhi (Turkiya, Jazoir, Tunis, Marokash, Livan, Misr, Iordaniya, Suriya) hamda Kipr va Malta Yevropa hamjamiyati bilan ikki taraflama kelishuv bilan bog'langan. "Umumiy bozor"ning tashkil etilishiga Yevropa hamjamiyati mamlakatlari tomonidan 1951-yilda ko'mir va po'lat Yevropa Birlashmasining integratsion guruhi tashkil qilinishi sabab bo'ldi. Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (Yevratom) Yevropa Iqtisodiy Ittifoqi bilan bir vaqtda tashkil topgan. Markazga intiluvchanlik tendensiyalari 1967-yilda Yevropa Ittifoqi, ko'mir va po'lat Yevropa Birlashmasi, Yevratomni o'z ichiga olgan Yevropa hamjamiyati deb atalmish guruhning tashkil etilishiga olib keldi. Ushbu birlashmalar umumiy asosiy organlarga ega va yagona siyosatni amalga oshiradilar.

90-yillar Yevropa hamjamiyatining, avvalambor, Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi mamlakatlari hisobiga yanada kengayishi bilan nishonlandi. 1993-yildan boshlab Yevropa iqtisodiy hududi tashkil etildi va unga 1960-yilda Buyuk Britaniya tashabbusi bilan tashkil etilgan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi mamlakatlari savdo-iqtisodiy guruhi (Shveytsariyadan tashqari) qo'shildi.

Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasiga dastlab Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya, Shveytsariya davlatlari kirgan. 1970-yilga kelib esa ularga Islandiya, 1986-yilda Finlyandiya va 1991-yilda Lixtenshteyn qo'shildi. Buyuk Britaniya, Daniya, Portugaliya, Shvetsiya va Finlyandiya mamlakatlarining Yevropa hamjamiyatiga o'tib ketishi oqibatida ushbu assotsiatsiyaning ahamiyati ancha pasaydi.

Yevropa kelishuvlariga asosan Yevropa hamjamiyatining hozirgi kundagi a'zolari bo'lib Polsha, Vengriya, Chexiya, Sloveniya, Bolgariya va Ruminiya singari Sharqiy hamda Markaziy Yevropa davlatlari hisoblanadi. 1993-yilning noyabr oyidan boshlab Yevropa iqtisodiy, siyosiy va valyuta ittifoqining (qisqacha nomi YI - Yevropa Ittifoqi) tashkil etilishi to'g'risidagi Maastrixt kelishuvi kuchga kirdi.

YIning maqsadlari quyidagicha:

1) xo'jalik hayotini davlatlararo muvofiqlashtirish zaminida iqtisodiy va siyosiy ittifoqni tuzish;

2) YIni superdavlatga aylantirish;

3) jahon bozorida AQSH va Yaponiya monopoliyalariga qarshi raqobat kurashini olib borish maqsadida G'arbiy Yevropa markazining mavqeyini mustahkamlash;

4) jamoa kuchi yordamida G'arbiy Yevropa mamlakatlarning sobiq mustamlakalari bo'lmish rivojlanib borayotgan davlatlarni o'z ta'sir doirasida ushlab turish.

G'arbiy Yevropa integratsiyasi o'zining 3 xususiyatli tomoni bilan boshqalardan farq qiladi. Birinchidan, YI 6 mamlakatning ko'mir va po'lat umumiy bozoridan 15 davlatning integratsiyalashgan xo'jalik kompleksi hamda siyosiy ittifoqigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Istiqbolda YI ga Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari qo'shiladi (YI tasnifi bo'yicha bundaylarga Litva, Latviya, Estoniya ham kiradi), Malta, Kipr hamda Turkiya davlatlarining kirishi ham ehtimoldan holi emas. 1994-yilning 24-iyunidan boshlab Rossiya va MDHning bir qator davlatlari YI bilan hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzdilar.

Ikkinchidan, YI ning institutsional tarkibiy tuzilishi davlat tarkibiy tuzilishiga yaqinlashtirilgan va quyidagi organlarni o'z ichiga oladi:

- Yevropa Kengashi (1974-yildan boshlab a'zo mamlakatlar davlatboshchilari va hukumatlarining yig'ilishlari YI ning oliy organi aylandi);

- Vazirlar Kengashi - qonun chiqaruvchi organ (yagona Yevropa dalolatnomasining kuchga kirishi munosabati bilan 1987-yilning iyulidan boshlab qaror qabul qilishdagi konsensus tamoyili oddiy ko'pchilik tamoyili bilan almashtirildi, 50ta qo'mitada a'zo-mamlakatlar elchilari ishlaydi);

- YI Komissiyasi (YIK) - ijro etuvchi organ;

-Yevropa parlamenti – maslahat organi, YIK va Vazirlar Kengashi faoliyatlarini nazorat qiladi, YI budjetini tasdiqlaydi, Maastricht shartnomasiga muvofiq uning vakolatlari kengaytirilgan;

- YI Sudi - huquqiy me'yorlarga rioya etilishining nazorat organi;

- Iqtisodiy va ijtimoiy qo'mita – tadbirkorlar vakillari, kasaba uyushmalari hamda shu kabilarning tarkibidagi maslaxat organi.

Uchinchidan, integratsion jarayonning moddiy asosi bo'lib bir qismi YI umumiy budjeti mablag'lari hisobiga shakllantirilgan ko'pchilik qo'shma fondlar hisoblanadi.

Iqtisodiy integratsiyaning ajralmas qismi bo'lib valyuta integratsiyasi hisoblanadi, ya'ni valyuta siyosatini muvofiqlashtirish jarayoni, valyutani tartibga solishning milliy mexanizmini shakllantirish, davlatlararo valyuta-kredit va moliya tashkilotlarini tuzish. Valyuta integratsiyasining zaruriyati quyidagi sabablar bilan asoslangan:

1) tovarlar, kapitallar, ishchi kuchi harakatining erkinlashtirilishi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirish uchun valyutani barqarorlashtirish talab etiladi;

2) Yamayka jahon valyuta tizimining barqaror emasligi YI dan valyuta barqarorligi hududini tashkil etish orqali YI ni izdan chiqaruvchi tashqi omillar ta'siridan himoyalashni talab etdi;

3) G'arbiy Yevropa Yamayka valyuta tizimining asosi bo'lmish dollar ta'sirini cheklash, Yaponiya tomonidan kuchayib borayotgan raqobatga qarshi tura olish maqsadida yagona valyutali jahon markaziga aylanishga intilmoqda.

Valyuta integratsiyasining mexanizmi muvofiqlashtirishning valyuta-kredit uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi. Ushbu uslublarni yordamida milliy xo'jalik va valyuta tizimlarining bilvosita o'zaro yaqinlashuvi hamda moslashuvi amalga oshadi. Valyuta integratsiyasining asosiy elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) hamkorlikda suzuvchi valyuta kurslarining rejimi;

b) valyuta intervensiyasi, shu jumladan, valyutalar bozor kurslarini markaziy kursdan oqishining o'zaro kelishilgan chegaralarida saqlab turish maqsadida qo'llab-quvvatlash uchun o'tkaziladigan kollektiv intervensiya;

d) xalqaro to'lov-zahira vositasi sifatidagi kollektiv valyutani yaratish;

e) valyuta kurslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida a'zo-mamlakatlarning o'zaro kreditlash qo'shma fondlari;

f) valyuta va kredit munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun xalqaro hududiy valyuta-kredit hamda moliya tashkilotlari.

G'arbiy Yevropada valyuta integratsiyasining elementlari YI tuzilgunga qadar ancha oldin shakllangan, ya'ni bunga Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg va 1947-yilda ularga qo'shilgan Germaniyaning bosib olingan G'arbiy hududlari orasidagi ko'p tomonli valyuta kompensatsiyalari to'g'risidagi kelishuvlar; 1948- hamda 1949-yillardagi Iqtisodiy hamkorlik va Rivojlanish tashkilotining 17 davlati o'rtasidagi ichki Yevropa to'lovlari hamda kompensatsiyalari bo'yicha kelishuvlar; 1950–1958-yillardagi ko'p tomonli kliring – Yevropa to'lov ittifoqi kabilar sabab bo'lgan.

Asta-sekin valyuta munosabatlarini maqsadga muvofiqlashtirish, ya'ni milliy valyuta tizimlari va valyuta siyosatlarini uslublarining tarkibiy tuzilmalarini o'zaro yaqinlashtirish; muvofiqlashtirgan holda boshqarish – o'zaro maslaxatlar yo'li orqali valyuta siyosati maqsadlarini o'zaro kelishib olish; soddalashtirish – yagona valyuta siyosatini amalga oshirish kabilar uchun sharoitlar etildi. Biroq valyuta integratsiyasi jarayoni iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etish bosqichidan boshlanadi. Ushbu ittifoq chegarasida raqobatning o'zaro teng shartlari va mazkur sohadagi qonunchilikni soddalashtirilishi asosida tovarlar, xizmatlar, kapitallar, valyutalarning erkin harakati ta'minlanadi. Integratsiya jarayoni yagona bozorni shakllantirish va ushbu asosda iqtisodiy va valyuta ittifoqiga erishishga yo'naltirilgan bir necha bosqichdan iborat.

1958–1968-yillarda (o'tish davri) bojxona ittifoqi tuzilgan edi. Bojxona bojlari va o'zaro savdodagi cheklovlar bekor qilindi, Yevropa Iqtisodiy hamjamiyatini xorij raqobatidan himoyalash maqsadida uchinchi davlatlardan tovarlar olib kirishga yagona bojxona to'lovi kiritildi. 1967-yilga kelib umumiy agrar bozori shakllandi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholarini muvofiqlashtirishning maxsus rejimi kiritildi. Qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va fermer xo'jaliklarini xonavayron bo'lishdan saqlash maqsadida Yevropa Ittifoqining agrar fondi tashkil etildi. Bojxona ittifoqi iqtisodiy va valyuta

siyosatining davlatlararo kelishuv elementlari bilan to'ldirilib borildi. Kapital va ishchi kuchi harakati bilan bog'liq ko'pchilik chekllovlar bekor qilindi.

Biroq sanoat va agrar tovarlar bilan o'zaro savdo borasidagi integratsiya iqtisodiyotning milliy davlat muvofiqlashtirilishini kuchsizlantirib yubordi. Milliy kompensatsiya mexanizmlarini barpo etish zarurati etildi. Ushbu munosabat bilan 1971-yilda YI mamlakatlari iqtisodiy va valyuta ittifoqini bosqichma-bosqich 1980-yilgacha barpo etish dasturini qabul qildilar. Mazkur dasturning loyihasi ishlab chiqilishida avval qat'iy belgilangan kurslar zaminida valyuta ittifoqini barpo etish kerakligini yoqlab chiqqan "monetaristlar" (Fransiya boshchiligidagi) hamda avval iqtisodiy ittifoqni shakllantirishdan boshlash kerakligini va erkin suzuvchi valyuta kurslarini muqobil deb hisoblagan "iqtisodchilar"ning (asosan GFR vakillari) fikrlari bir-biri bilan to'qnash keldi. Tomonlarning ushbu tortishuvi 1969-yilda YI davlatboshilarining Gaagada iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini bir-biriga parallel ravishda barpo etilishi to'g'risidagi barchani qoniqtiradigan qarorining qabul qilinishi bilan qal qilindi. YI Vazirlar Kengashi tomonidan 1971-yilning 22-martida 10 yilga (1971–1980-y.y.) mo'ljallangan bosqichma-bosqich amalga oshadigan "Verner rejası" qabul qilindi.

Birinchi bosqichda (1971–1974-y.y.) valyuta kurslarining tebranish chegaralarini (avval $\pm 1,2\%$ gacha va so'ng 0gacha) qisqartirish, valyutalarning to'la o'zaro almashinishini kiritish, valyuta siyosatini muqobillashtirish va maqsadga muvofiq boshqarish asosida soddalashtirish, iqtisodiy, moliyaviy hamda pul-kredit siyosatları borasida o'zaro kelishish ko'zda tutilgan edi.

Ikkinchi bosqichda (1975–1976-y.y.) ushbu chora-tadbirlarni yakunlash ko'zda tutilgan edi. Uchinchi bosqichda (1977–1979-y.y.) milliy hokimiyatlarga tegishli ayrim vakolatlarni "Umumiy bozor" milliy organlariga berish, valyuta kursları va baholarni qat'iy belgilangan paritetlar zaminida darajaları bo'yicha o'zaro bixillashtirish maqsadida Yevropa valyutasini yaratish ko'zda tutilgan edi. Yagona budjet tizimini barpo etish, banklar faoliyati va bank qonunchiligini o'zaro muqobillashtirish rejalashtirilgan edi. Valyuta-moliyaviy muammolarni hal etish va YI markaziy banklarining pul-kredit hamda valyuta siyosatlarini muqobillashtirish maqsadida AQSH

Federal Zahira Tizimi shakli singari birlashtirish uchun yagona markazni ta'sis etish vazifalari qo'yilgan edi.

Valyuta integratsiyasining ushbu davrdagi jarayoni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlandi:

- valyuta-iqtisodiy siyosatni muqobillashtirish maqsadida hukumatlararo maslaxatlar amalga oshirib borildi;

- YI bir qator valyutalari kurslarining kichraytirilgan chegara-larda (Yevropa valyuta iloni) o'zaro birgalikdagi suzishi yo'lga qo'yildi;

- YI ning AQSH valyutasiga qaramligini kuchsizlantirish maqsadida valyuta intervensiyasini nafaqat dollarlarda, balki GFR markalarida (1972-yildan boshlab) ham amalga oshirildi;

- dastlab 0,888671 gramm sof oltinga, 1975-yildan boshlab esa YI valyutalarining savatiga bog'langan Yevropa hisob-kitob birligi kiritildi;

- to'lov balanslarining muvaqqat kamomadini qoplash va banklar o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida davlatlararo o'zaro kreditlar tizimi shakllandi;

- asosan agrar "Umumiy bozor"ni valyuta-moliyaviy muvofiq-lashtirish uchun ishlatiladigan YI budjeti barpo etildi;

- 1967-yilga kelib qat'iy belgilangan, ammo qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan savdoning baholash va hisob-kitoblar borasida davriy ravishda o'zgaruvchan "ko'k kurslar"i o'rnatildi;

- agrar mahsulotlarining yagona bahosiga bo'lgan qo'shimcha haq yoki diskont shaklidagi soliqlar va subsidiyalarning valyuta kompensatsiyalari tizimi kiritildi. Ushbular EKYU kiritilgunga qadar dollarga tenglashtirilgan va milliy valyutaga "ko'k kurs" asosida qayta hisoblangan qishloq xo'jaligi hisob-kitob birliklarida o'rnatilgan. 1969-yildagi fransuz frankining devalvatsiyasidan so'ng mamlakatdagi "ko'k kurs" va baholarning ko'tarilishi munosabati bilan Fransiya-dan YI ga eksport qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlariga soliq hamda Fransiya-ga YI dan agrar mahsulotlar importi bo'yicha "manfiy" kompensatsiya summasi, ya'ni YI budjetidan subsidiya to'lanishi joriy etildi. Markaning 1969-yildagi revalvatsiyasidan so'ng huddi shunday tizim, eksport bo'yicha subsidiyalarni to'lanishi va agrar mahsulotlar importi yuzasidan soliqlarni kiritish xususiyatlari bilan GFR uchun ham o'rnatilgan edi. GFR Yevropa Iqtisodiy hamjamiyati budjetiga

“ijobiy” kompensatsiya summalarini to‘lab keldi, 1999-yildan boshlab ushbu subsidiyalarning kamayib borish tendensiyasi shakllana boshlandi;

- Yevropa investitsiya banki, Yevropa rivojlanish fondi, Valyuta bo'yicha hamkorlikning Yevropa fondi va boshqa shu singari davlatlararo valyuta-kredit hamda moliya institutlari barpo etildi.

Integratsiya jarayonidagi birmuncha siljishlarga qaramasdan “Verner rejasi” amalga oshmay barbod bo‘ldi. Bu esa YI dagi kelishmovchiliklar, xususan milliy suverenitet va valyuta-kredit munosabatlarini milliy asosda tartibga solinishi oralaridagi kelishmovchiliklar, a’zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining differensatsiyasi, 70-80-yillar boshidagi iqtisodiy inqiroz hamda boshqa omillar bilan bog‘liqdir. YI integratsiyasidagi uzoq muddatli turg‘unlik holati 70-yillarning o‘rtalaridan 80-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi.

“Yevropa valyuta iloni” rejimi kam samarali bo‘lib chiqdi, chunki u YI mamlakatlari valyuta iqtisodiy siyosatining muvofiqlashtirilishi bilan ta’minlanmagan edi. Natijada alohida valyutalarga bo‘lgan chayqov tazyiqini pasaytirish maqsadida kurs nisbatlari tez-tez o‘zgarib turdi. Ba’zi mamlakatlar valyuta kurslarini kichik chegaralarda saqlab turish uchun o‘z valyuta zahiralarini sarflamaslik maqsadida “valyuta ilonidan” chiqdilar. 70-yillarning o‘rtalaridan ayrim (GFR, Niderlandiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg va Fransiya muntazam ravishda) davlatlar valyuta kurslarining hamkorlikdagi suzishlarida ishtirok etdilar. Boshqa (Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya va Fransiya muntazam ravishda) davlatlar esa yuqoridagiga nisbatan o‘z valyutalarining individual erkin suzishini afzal ko‘rar edilar.

70-yillarning oxirida iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etishning qidiruv ishlari jadallashdi. YI Komissiyasi raisi R.Dyenkinsning loyihasida (1977-yilning oktabri) Yevropa kollektiv valyutasi emissiyasining Yevropa organini barpo etish hamda YI ga a’zo-mamlakatlar iqtisodiyoti yuzasidan qisman nazoratni o‘rnatishga urg‘u berilgan edi. Valyuta integratsiyasining ushbu tamoyillari 1978-yilning iyulida Fransiya va GFR tomonidan Bremenda taklif etgan loyiha asosiga qo‘yilgan edi. Uzoq cho‘zilgan va og‘ir kechgan muzokaralardan so‘ng 1979-yilning 13-martida Yevropa valyuta

ittifoqi (YVI) barpo etildi. Uning maqsadlari quyidagilardir: iqtisodiy integratsiyaga erishishni ta'minlash, dollar standartiga asoslangan Yamayka valyuta tizimiga qarama-qarshi bo'lgan o'z valyutasiga ega Yevropa barqarorligi hududini barpo etish, "Umumiy bozorni" dollar ekspansiyasidan himoyalash.

YVI – bu, xalqaro (hududiy) valyuta tizimidir, ya'ni iqtisodiy integratsiya doirasida valyuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir; valyuta kurslarini barqarorlashtirish va integratsiya jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida "Umumiy bozor" davlatlari valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat huquqiy shaklidir.

YVI – jahon valyuta tizimining (Yamayka) tizim ostisidir. G'arbiy Yevropa integratsiya majmuasining xususiyatli tomonlari Yamayka valyuta tizimidan farqli o'laroq YVI tarkibiy tuzilish tamoyillarini belgilab beradi.

1. YVI Yevropa valyuta birligi bo'lmish EKYUga asoslangan. EKYUning shartli qiymati YI mamlakatlarining 12 valyutasini o'z ichiga olgan valyuta savati uslubi asosida aniqlangan. EKYU savatidagi valyutalarning ulushi YI ga a'zo davlatlar YaIM va ularning o'zaro tovar almashuvidagi mamlakatlarning ulushi hamda qisqa muddatli qo'llab-quvvatlash kreditlaridagi ishtirokiga bog'liq edi. Shu sababli EKYUning eng salmoqli komponenti bo'lib (taxminan 1/3) GFR markasi hisoblanar edi. 1993-yilning sentabr oyida Maastricht kelishuviga binoan valyutalarning EKYUdagi "absolyut og'irligi" muzlatilgan, biroq "nisbiy og'irligi" valyutalarning bozor kursiga muvofiq tebralar edi. Xususan, 1993-yilning oktabr oyida GFR markasining ulushi 32,6%, Fransiya frankiniki 19,9%, Buyuk Britaniya funt sterlingi 11,5%, Italiya lirasi 8,1%, Daniya kronasi 2,7% va boshqa shu kabilarga teng edi.

2. Oltinning demonetizatsiyasini yuridik jihatdan mustahkamlagan Yamayka valyuta tizimidan farqli o'laroq YVI oltinni real zahira aktivlari sifatida ishlatdi. Birinchidan, YuKIning emissiyasi qisman oltin bilan ta'minlangan edi. Ikkinchidan, ushbu maqsadda YVI mamlakatlari rasmiy oltin zahiralarning 20 foizini valyuta bo'yicha hamkorlikning Yevropa fondida birlashtirish asosida hamkorlik oltin fondi yaratildi. Markaziy banklar ushbu fondga 2,66 ming tonna oltin qo'shdilar (XVF iga 3,2 ming tonna). Badallar mamlakatlarning

oltinga bo'lgan mulkchilik huquqini saqlab qolish maqsadida takrorlanadigan uch oylik "svop" bitimlari shaklida amalga oshirildi. Oltin evaziga olingan EKYUlar rasmiy zahiralarga olinar edi. Uchinchidan YI davlatlari oltin fondiga to'lanadigan badalni aniqlash hamda EKYU da emissiya va zahiralalar hajmini muvofiqlashtirish uchun oltinning bozor bahosidan foydalangan.

3. Valyuta kurslarining rejimi "Yevropa valyuta iloni" shaklidagi o'zaro tebranishlarning belgilangan chegaralarida valyutalarning o'zaro suzishiga asoslangan (markaziy kursdan +, - 2,25%, ayrim davlatlar, xususan Italiya uchun 1989-yilning oxirigacha va bundan so'ng valyuta iqtisodiy holatining barqarorsizligiga qarab Ispaniya uchun +, - 6% 1993-yilning avgustidan boshlab YI valyuta muammolarining kuchayishi munosabati bilan tebranish chegaralari +, - 15%gacha kengaytirildi).

4. YVI da markaziy banklarga valyuta intervensiyasi bilan bog'liq to'lov balanslar va hisob-kitoblar muvaqqat kamomadini qoplash uchun kreditlar taqdim etish orqali davlatlararo hududiy valyuta muvofiqlashtirilishi amalga oshiriladi.

YVI ning barpo etilishi qonuniy holdir. Ushbu valyuta tizimi o'z valyuta markazini barpo etish maqsadida G'arbiy Yevropa integratsiyasi asosida paydo bo'ldi. Biroq Yevropa valyuta tizimi jahon valyuta tizimining tizim ostisi bo'lgani holda ushbu tizim barqarorsizligining oqibatlari va AQSH dollarining ta'sirini o'zida sezmoqda. SDR va EKYUning taqqoslama xarakteristikalarlari ularning o'xshashliklari hamda bir-biridan farqlarini aniqlab topish imkonini beradi. O'xshashliklarning umumiy tomonlari ushbu xalqaro hisob valyuta birliklarining jahon kredit pullari shakli ekanligidadir. Ijro-pullar³⁵ bo'lgani holda ular banknotalar singari moddiy shaklga ega emaslar, mamlakatlarning taalluqli hisobvaraqlariga yozib qo'yiladi va ushbu hisobvaraqlardan pul o'tkazish yo'li orqali ishlatiladi. Ularning shartli qiymati valyuta savati uslubi, ammo valyutalarning turli to'plami asosida aniqlanadi. Hisobvaraqlarda ularning limitdan ortiq saqlanishi uchun emitent mamlakatlarga foiz to'laydi. 1987-yilda Belgiya Kaznacheyligi Rim shartnomasi imzolanishining 30 yilligi munosabati bilan muomalaga 50 va 5 EKYU qiymatiga ega taalluqli

³⁵ Ushbu pullar benefitsiar va to'lovchining jiro-hisobvaraqlari mavjud bo'lgan faqat bir bank doirasidagi naqdsiz hisob-kitoblar uchun ishlatiladi.

oltin hamda kumush tangalarni chiqardi. Biroq ushbu tanga pullar rasman muomalada yurmaydi, ular numizmat va tezavratlar tomonidan sotib olinadi.

SDR va EKYUning yuqorida keltirilgan o'xshashliklari bilan bir qatorda EKYUning imtiyozli tomonlarini ko'rsatuvchi farqlar ham mavjud.

1. SDRdan farqli o'laroq EKYUlarning rasmiy emissiyasi YVIga a'zo mamlakatlar rasmiy oltin zahiralarning 20 foizini o'zaro birlashtirilishi hisobiga qisman oltin va dollarlar bilan ta'minlangan. Markaziy banklardan Valyuta bo'yicha hamkorlikning Yevropa fondi ixtiyoriga 2,3 ming tonna oltin o'tkazilgan (svop shartnomasi).

2. EKYU ning emissiyasi SDRnikiga qaraganda moslashuvchanroqdir. Rasmiy EKYUlarning chiqarilish summasi oldindan belgilanmaydi, balki YVI ga a'zo-mamlakatlar oltin-dollarli zahiralarning o'zgarishiga qarab muvofiqlashtiriladi. Bunda oltin bahosi va dollar kursining emissiyaga bo'lgan ta'siri kamchilik deb hisoblanadi. Banklar tomonidan xususiy (tijorat) EKYUlarning emissiyasi bozor talablariga ko'proq muvofiq edi. Uning emissiya mexanizmi quyidagi ikki operatsiyani o'z ichiga olar edi:

- EKYU "tashkil toptirish", ya'ni uning savatiga kiruvchi valyutalar tarkibida mijozning iltimosiga ko'ra depozitni hosil qilish;

- EKYU "savatini sindirish", ya'ni depozitlarni to'lash maqsadida ushbu valyutalarni (yoki bankning qarz oluvchi bilan kelishuviga asosan ulardan birini) yevrobozorda sotib olinishi va sotilishi.

3. EKYUning emissiya hajmi SDR chiqarilish hajmidan ko'p edi.

4. Valyuta savati nafaqat EKYUning kursini aniqlash, balki valyutalar paritet setkasini hisoblash uchun ishlatilgan. Mazkur paritet setkasiga EKYUdan boshqa hech qanday xalqaro valyuta hisob birligi ega emas edi.

YVI da valyuta kurslarini muvofiqlashtirish mexanizmi quyidagi tamoyillarga asoslangan:

a) EKYUdagi markaziy kurslar asosida o'zaro kurslar valyuta kurslari tebranishlarining mumkin bo'lgan chegaralarida (+, - 2,25%, 1993-yilning avgust oyidan +, - 15%) intervensiyaning belgilangan nuqtalari bilan matritsa shaklida hisob-kitob qilingan. Tebranishlarning +, - 6% miqdoridagi imtiyozli rejimi Ispaniya pesetasi uchun 1989-yilda, Italiya lirasi uchun esa 1978-1979-yillarda o'rnatilgan;

b) og'ishlar indikatorining ogohlantiruvchi ko'rsatmalariga asosan EKYUdagi tebranishlar chegaraning 3/4 qismiga yetganligi qayd etilganda preventiv muvofiqlashtirish choralari, xususan valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida foiz stavkalarini o'zgartirish orqali ichki marjinal valyuta intervensiyasi qo'llanar edi;

d) YVIda o'zaro kreditlash yuzasidan barpo etilgan tizim bazasidagi valyuta intervensiyasi markaziy banklarning "svop" kreditlari, Valyuta bo'yicha hamkorlik Yevropa Fondining qisqa muddatli kreditlash fondini o'z ichiga olgan edi. 1985-yildan boshlab zarur bo'lgan valyutani sotib olishga EKYUdagi rasmiy zahiralardan foydalanishga ruxsat etildi. Ushbu chora Yevropa valyuta birligi rolining ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

1987-yilning sentabr oyidan boshlab (Niborgda imzolangan kelishuv) ichki marjinal intervensiyalarning imkoniyat va kafolatlari kengaytirildi. Germaniya federal banki GFR pul muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligi sharti bilan kursi pasayib borayotgan, ammo hali o'zining intervensiya nuqtasiga yetmagan markalarda mamlakat Markaziy bankiga kreditlar taqdim etish to'g'risida ko'rsatma oldi. Bir vaqtning o'zida "svop" kreditlari muddati uzaytirildi. Ushbu bilan namunasi EKYU bo'lgan kurslarning o'zaro qo'llab-quvvatlash mexanizmi yaratildi.

5. Valyuta kurslarining noyob rejimi, xususan EKYUga nisbatan ularning o'zaro tebranish chegaralari belgilangan holdagi o'zaro suzishiga ("Yevropa valyuta iloni") asoslangan. Ushbu EKYU va YVI ga a'zo mamlakatlar valyutalarining nisbatan barqarorligiga sabab bo'lgan.

6. SDRdan farqli o'laroq EKYUdan nafaqat rasmiy, balki xususiy sektorda ham foydalanilgan. EKYU: YI valyutalarining kurslari va paritetining negizi; o'zaro fondlari hamda xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlardagi valyuta birligi; yagona qishloq xo'jalik baholarining valyutasi, valyuta intervensiyasini amalga oshirishda YI markaziy banklarining davlatlararo hisob-kitoblar vositasi; asosan yevrokreditlar bo'yicha ko'p valyutali shartlashuvning negizi; kreditlar valyutasi bo'lib xizmat qildi. Xususiy (tijorat) EKYUlar yevroobligatsiyalar, sindikatlashgan kreditlar, bank depozitlari va kreditlari valyutasi sifatida ishlatilgan. 500 dan ziyod yirik xalqaro tashkilot kreditlar taqdim etishda EKYUdan foydalangan.

1984-yildan boshlab YI TMKlari (transmilliy korporatsiya) EKYUlarda preyskurantlarni chop etgan, schyot-fakturalar yozgan va hisob-kitoblarni amalga oshirgan. Valyuta va foiz xatarlarini sug'urtalash maqsadida foydalanilgan Fyuchers hamda opsiyon bitimlari EKYUda amalga oshirilgan. EKYUlardagi hisob-kitoblarni yengillashtirish uchun 1986-yilda banklararo kliring tashkil etildi.

EKYUdan foydalanish ko'lamining kengayishi quyidagi uch asosiy sabab bilan asoslanadi:

- EKYUning valyuta savati va "Yevropa valyuta iloni" rejimi valyuta xavf-xatarlarini kamaytirar edi;

- har qanday bank EKYUning valyuta savatiga muvofiq, ushbu savatga mijoz bilan kelishgan holda valyutalarni qo'shimcha kiritib yoki chiqarib, "nazorat" qilishi mumkin edi;

- EKYU jahon xo'jaligini nisbatan barqaror, muvozanatsiz dollarga muqobil sifatidagi jahon valyutasiga bo'lgan ehtiyojini qondirar edi.

YI da YVI ni o'z ichiga olgan holda muvofiqlashtirishning moddiy asosi bo'lib maxsus kredit mexanizmi hisoblanadi.

Birinchidan, markaziy banklar va a'zo mamlakatlarning YI ichida yaratilgan o'zaro kreditidan foydalaniladi;

- a) Valyuta bo'yicha hamkorlik Yevropa fondining o'ta qisqa muddatli krediti, so'ng o'rtacha 45 kunga, muddatini 3 oyga uzaytirish huquqi bilan Yevropa Valyuta Instituti (YVI);

- b) markaziy banklarning muddati 3 oygacha bo'lgan, muddatini ikki marta uzaytira olish huquqi bilan valyuta kreditlari. Ushbu kreditlar shartsiz bo'lib, avtomatik ravishda taqdim etiladi;

- d) to'lov balansining fundamental muvozanatsizligini to'g'rilash uchun o'rta muddatli (2 yildan 5 yilgacha) moliyaviy kreditlar. Ushbu davlatlararo kreditlarni a'zo mamlakat YI Vazirlar Mahkamasining ruxsati hamda barqarorlashtirish dasturini amalga oshirish va mazkur kreditlarni qismlar bilan (transh) olish sharti orqali olishi mumkin.

Ikkinchidan, YVIning tashkil etilishi bilan a'zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bixillashtirish imkoniyatining quyidagi 2 ko'rinishdagi qo'shimcha kredit mexanizmi yaratildi:

a) to'lov balansining yirik kamomadiga ega a'zo mamlakatlarni kreditlash maqsadida YI mamlakatlarining (1975-yildan boshlab) jahon bozoridagi o'zaro zayomlari;

b) energetika, telekommunikatsiya sohasidagi hamda o'rta va kichik korxonalarni kreditlash uchun investitsiyalarni uzoq muddatli kreditlash maqsadida 1979-yilning mart oyidan boshlab hamjamiyatning yangi instrumenti muomalaga kiritildi.

YI ning nisbatan past rivojlangan a'zo mamlakatlari uchun Yevropa investitsiya bankining imtiyozlari, subsidiyalari, kreditlari taqdim etiladi.

YVI ning eng ko'zga ko'ringan yutuqlari: jahon valyutasiga hali to'la aylanmagan, biroq uning ayrim xususiyatlarini o'ziga olgan EKYUning muvaffaqiyatli rivoji; valyuta kurslarining kichik chegaralardagi o'zaro kelishilgan tebranish rejimi; kurs nisbatlari davriy asosda qayta ko'rib chiqilayotgan bo'lsa-da, valyutalarning nisbiy barqarorligi; a'zo mamlakatlar rasmiy oltin zahiralarining 20 foizini o'zaro birlashtirilishi; a'zo mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash kredit-moliya mexanizmining rivojlanishi; davlatlararo muvofiqlashtirish va iqtisodiyotni muvofiqlashtirishning milliy elementlari. YVI ning yutuqlari G'arbiy Yevropa integratsiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan asoslanadi. Ushbu yutuqlarning sabablari nimada?

1. Siyosiy yangi fikrlash, mahalliychilik va tarqoqlik mafkurasi hamda siyosati qarshiligini sindirish.

2. Davlatlarning iqtisodiy integratsiyasi, xo'jaliklarining bir-biriga bog'liqligi proteksionizm, tarqoqlik va avtarkiyadan afzalligini tan olish.

3. Qarama-qarshiliklarni hal etishda murosaga borish (rozilik tamoyili).

4. Mustaqil huquqlarning bir qismini milliy organlarga berish.

5. Pragmatizmning doktrinalikdan ustunligi, a'zo mamlakatlar roziligini hisobga olgan holda aniq dasturlar asosida ishlash. Bunga ko'ra ovoz berishdagi yakkidlik (veto huquqi)dan ko'pchilik ovozigina, ya'ni ovoz berishning yangi tamoyiliga o'tish davri 1965-yildan boshlab 20 yilga cho'zildi va barcha qarama-qarshiliklar bartaraf etilganidan so'ng 1985-yilga kelib qayd etildi.

6. 50 va 60-yillar uchun xususiyatli bo'lgan hamda mag'lubiyatga uchragan maksimalistik loyihalar va shokli terapiya o'rniga maqsad

sari bosqichma-bosqich (qadamba-qadam) harakat qilish tamoyilining asta - sekin qaror topishi. Masalan, birinchi shartnoma (1951-yil) ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi (KPYB) sanoatning atigi ikki tarmog'ining integratsiyasini, ikkinchisi YI to'g'risida (1957-yil) bojxona ittifoqi hamda "Umumiy bozor"ni yaratish vazifasini qo'ygan, uchinchisi Yagona Yevropa akti (1986-yil) 1992-yilning oxiriga yagona ichki bozorga o'tishni ko'zda tutgan, to'rtinchisi siyosiy, iqtisodiy va valyuta ittifoqiga o'tishning Maastrixt shartnomasidir.

7. Iqtisodiy integratsiya yo'llari va uslublari tanlashda tez moslashuvchanlik, a'zo mamlakatlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda ushbu integratsiya yo'llari hamda uslublari imtiyozli yo'nalishlarining ko'p marotaba o'zgarishi. Masalan, 60-yillarda tovarlar va ishchi kuchi umumiy bozorining bojxona ittifoqi tashkil etilishiga imtiyozli yo'nalish berilgan edi; 70-yillarda hududiy siyosatga va inflyatsiya bilan kurash hamda ishsizlikni kuchsizlantirishga va qoloq tumanlarga yordam ko'rsatishga; 80-yillarda "Umumiy bozor"ni shakllantirishni yakunlash va ilmiy-texnik integratsiyaga; 90-yillarda iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etishga. Bunda iqtisodiy va valyuta-kredit siyosatining o'zaro kelishilish darajasi turlichadir: milliy qarorlarga beriladigan imtiyozlardan tortib ularni milliy qonunchilik bilan muvofiqlashtirishgacha.

8. YI da qarorlar qabul qilinishi va ularni amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarga (siyosiy, huquqiy, ma'muriy, valyuta, moliyaviy, kredit) katta e'tibor beriladi. YI ning Bryusseldagi o'z sohasida bilimdon bo'lgan minglab ekspertlari va komissiyalari ma'lumotlarni yiqadi, qayta ishlaydi, tarqatadi, izlanish hamda bahslarni tashkil etadi, kelishmovchiliklarni hisobga olgan holda qarorlarni tayyorlaydi va ularning ijro etilishini nazorat qiladi.

Biroq valyuta integratsiyasi yakunlanmagan. YI va YVI da qiyinchiliklar, ziddiyatlar va hal etilmagan masalalar kam emas. YVI ning kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

a) valyuta kurslarining rasmiy o'zgarishi davriy ravishda amalga oshadi (1979–1993-yillar mobaynida 16 marta). Eng kuchsiz valyutalar (Daniya kronasi, Italiya lirasi, Irlandiya funti, Belgiya franki va boshqalar) devalvatsiya qilinmoqda, nisbatan kuchlilari esa (GFR markasi, Gollandiya guldeni) revalvatsiya qilinmoqda. Masalan, 1992-

yilning kuzida YI da navbatdagi valyuta inqirozi boshlandi. Italiya lirasi va funt sterling devalvatsiya qilindi va "Yevropa valyuta iloni"dan vaqtinchalik chiqdi. Valyuta bozorlarida 1993-yilga kelib Fransiya franki quyum obyektiga aylandi. 1993-yilning avgust oyida YVI to'la barbod bo'lishligiga yo'l qo'ymaslik uchun valyuta kurslarining tebranish chegaralari +, - 15%gacha kengaytirildi. Paritetlar o'zgarishi YI mamlakatlari o'zaro ziddiyatlarining kuchayishiga olib kelmoqda;

b) YVI ning kuchsizligi a'zo mamlakatlar iqtisodiyotlarining katta tarkibiy muvozanatsizligi, iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlari, inflyatsiya, to'lov balansidagi farqlar bilan asoslanadi. Italiya, Irlandiya, Gretsiya, Portugaliyadagi qoloq tumanlar hududiy siyosat doirasida tuzilmaviy muammolarni hal etish uchun qo'shimcha dotatsiyalarni talab etmoqda;

d) iqtisodiy siyosatning muvofiqlashtirilishi a'zo mamlakatlar tomonidan o'z mustaqil huquqlarini milliy organlarga berishni xohlamayotganligiga to'qnash kelmoqda;

e) EKYUlarining muomalaga chiqarilishi YI mamlakatlari markaziy banklarining o'zaro operatsiyalariga sezilarli ta'sir etmas edi, hatto 1985-yildan boshlab o'zaro qarzdorliklarni so'ndirishda ularning EKYU lardan foydalanish huquqlari 50% dan 100% gacha oshirilgan bo'lsa ham;

f) YVI ning amal qilishi tashqi omillar ta'sirida qiyinlashib boradi. Jahon valyuta tizimi va dollarning barqaror emasligi YVI ga salbiy ta'sir etadi. Dollar kursining pasayishi holatida G'arbiy Yevropa valyutalarining kurslari ko'tarila bordi, ko'tarilganda esa aksincha turli darajalarda pasayib bordi. Bu esa o'z navbatida, ularning o'zaro kurslar nisbatini qayta qarab chiqish zaruratini tug'dirdi. YVI dollarning o'ziga bo'lgan ta'sirini sezishni davom ettirdi, chunki YI dagi xalqaro hisob-kitoblarning 60%i Amerika valyutasida amalga oshiriladi.

Davom etgan ikki yillik baxslardan so'ng YI valyuta integratsiyasi rivojidagi muhim voqea bo'lib, 1987-yilning may oyida qabul qilingan Yevropaning yagona akti hisoblanadi. 80-yillarning o'rtalarida yangi sharoitlar shakllandi, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va davlatlararo muvofiqlashtirish kuchaydi. Birinchidan, ko'p yo'nalishli institutsional tarkibiy tuzilma shakllantirildi. Ikkinchidan, valyuta

jarayonidagi o'zgarishlar kapitallar harakati erkinlashuvi va yagona bozorni barpo etilishini yakunlanishi bilan uzviy bog'liq edi. G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojidadagi keskin o'zgarish bosqichi 1989-yilning aprel oyida Y.Delor (YI komissiyasi raisi) qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy, iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etish dasturidir.

"Delor rejasi" quyidagilarni ko'zda tutgan edi:

- umumiy (integratsiyalashgan) bozorni tashkil etish, YI da monopol holatdan foydalangan holda nisbatan kichik subyektlarni yutib yuborish va o'zaro birlashish siyosatlarini hamda davlat subsidiyalari borasida suiiste'molliklarning oldini olish, bozor mexanizmini takomillashtirish maqsadida raqobatni rag'batlantirish;
- qoloq zona va hududlarni tarkibiy jihatdan birlashtirish;
- inflyatsiyani jilovlash, baholar va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, davlat budjeti kamomadini cheklash hamda ushbu kamomadni qoplash uslublarini takomillashtirish maqsadida iqtisodiy, budjet, soliq siyosatlarini muvofiqlashtirish;
- pul va valyuta siyosatlarini muvofiqlashtirish maqsadida markaziy banklarning boshqaruvchilari hamda direktorat a'zolari tarkibida Yevropa valyuta instituti millatust tashkilotini ta'sis etish;
- yagona valyuta siyosati, qayd etilgan valyuta kurslari va kollektiv valyuta – EKYU ni joriy etish.

Yuqoridagilardan tashqari tashqi iqtisod va xavfsizlik borasida umumiy siyosat o'tkazish majburiyatini a'zo mamlakatlar zimmasiga yuklovchi YI ning siyosiy ittifoqini 2000-yilga tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Yevropa markaziy banki va yagona valyuta loyihasining yaratilishi munosabati bilan Rim (1957-y.) shartnomasiga o'zgartirish kiritish talab etildi. Valyuta ittifoqi uchun: 1) valyutalarning "Yevropa ilonida" ishtirok etishi; 2) mamlakatlar tomonidan valyuta kursi tebranishining yagona chegaralariga rioya etilishi; 3) emissiya subyektlari va tartibini soddalashtirish yo'nalishi bo'yicha EKYU ning rasmiy hamda xususiy muomala sektorlarining o'zaro birlashtirilishi va ularning o'zaro konvertatsiya qilinishi kiritilishi zarur.

"Delor rejasi" asosida 1991-yilning dekabr oyiga kelib Yevropa Ittifoqi tuqrisidagi Maastrixt bitimi ishlab chiqildi. Ushbu ittifoq valyuta-iqtisodiy bitimning bosqichma-bosqich shakllanishini ko'zda

tutgan edi. Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi bitim Maastrixtda (Niderlandiya) 1992-yilning fevral oyida Yevropa hamjamiyatining 12 davlati tomonidan imzolangan. Ushbu bitim 1993-yilning 1-noyabrida ratifikatsiya qilindi va kuchga kirdi. Keyinchalik YI ga Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya davlatlari qo'shildi.

Maastrixt shartnomasiga muvofiq iqtisodiy va valyuta ittifoqining barpo etilishi 3 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (1990-yilning 1-iyulidan 1993-yilning 31-dekabriga qadar) – Yevropa hamjamiyati iqtisodiy va valyuta ittifoqining (YVI) oyoqqa turish bosqichi.³⁶ Ushbu bosqich doirasida YI to'g'risidagi Maastrixt bitimining taalluqli nizomlarini kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan barcha tayyorgarlik taraddudlari amalga oshirilgan edi.

Xususan, YI ichidagi hamda YI va uchinchi davlatlar o'rtasidagi kapitallarning erkin harakatiga bo'lgan barcha cheklovlar bekor qilindi. YI ichkarisida iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari yaqinlashuvining ta'minlanishiga maxsus e'tibor berildi va YI ga a'zo mamlakatlar o'z ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotlarining zarur bo'lgan sohalarida ushbu bir necha yilga mo'ljallangan yaqinlashuv dasturlarini qabul qilganlar. Mazkur dasturlarda antiinflyatsion va budjet siyosatining aniq maqsadlari hamda ko'rsatkichlari belgilangan edi. Yagona pul birligi sifatidagi "Yevro"ni muomalaga kiritish tayyorgarligida yuqorida zikr etilgan dasturlar YI ning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha Kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan. Ushbu ko'rib chiqilayotgan dasturlar Maastrixt bitimi ko'zda tutganidek, inflyatsiyaning barqaror past bo'lgan ko'rsatkichlariga erishish, davlat moliyasini sog'lomlashtirish va a'zo mamlakatlar o'zaro munosabatlarida valyuta kurslari barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan edi.

Ikkinchi bosqich (1994-yilning 1-yanvaridan 1998-yilning 31-dekabriga qadar) "Yevro" kiritilishi munosabati bilan a'zo mamlakatlarning yanada aniqroq tayyorgarligiga bag'ishlangan edi. Ushbu bosqichning muhim tashkiliy voqeasi bo'lib kelgusida Yevropa markaziy banki (YMB) bo'lmish Yevropa valyuta institutining (YVI) ta'sis etilishi bo'ldi. Uning asosiy vazifasi Yevro kiritilishining

³⁶ Ingliz abbreviaturasida - EMU - Economic and Monetary Union.

uchinchi bosqichidan boshlab YMB ga o'z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va moddiy-texnik omillarni aniqlashdan iborat. Yevropa valyuta instituti Yevropa valyuta ittifoqining shakllanishi davrida a'zo mamlakatlar milliy pul siyosatlarini muvofiqlashtirilishini kuchaytirish uchun ham javobgar edi va o'zining mazkur maqomida a'zo mamlakatlar markaziy banklariga tavsiyalar berishi mumkin edi.

Mazkur bosqichning boshqa muhim jarayonlari quyidagilar edi:

- a'zo mamlakatlardagi davlat sektori korxonalarini markaziy bank tomonidan kreditlash orqali ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashni taqiqlovchi yoki markaziy banklar tomonidan davlat qarzlarini to'g'ridan to'g'ri sotib olinishi kabi qonunchilikni qabul qilinishi. Xuddi shunday taqiqlashlar YVI shakllanishining uchinchi bosqichida EMB ga ham tegishlidir;

- davlat sektori korxona va tashkilotlarining moliyaviy institutlar mablag'larini imtiyozli asosda olish huquqini bekor qiluvchi qonunchilikni qabul qilinishi. Xuddi shunday taqiqlashlar YVI shakllanishining uchinchi bosqichida YMB ga ham tegishlidir;

- a'zo mamlakatlardan birining davlat sektori majburiyatlarini boshqa a'zo mamlakat yoki Yevropa hamjamiyati tomonidan o'z zimmasiga olishini taqiqlovchi qonunchilik aktlarining tasdiqlanishi. Ushbu chora "kafillikdan voz kechish to'g'risidagi shartlashuv" nomini oldi;

- a'zo mamlakatlar davlat moliyasining haddan tashqari kamomadiga (rivojlanishning normal sharoitlarida budget kamomadining ko'rsatkichi YaIM ning 3%idan, davlat qarzining hajmi esa 60%idan oshmasligi kerak) yo'l qo'ymaslikka harakat qilishlari lozimligi to'g'risidagi talab ta'rifini shakllantirish, ushbu esa a'zo mamlakatlar budget jarayonlari yuzasidan YI kengashi tomonidan nazorat tartiboti bilan mustahkamlangan, ya'ni agar haddan tashqari kamomad paydo bo'lsa, kengash mazkur budgetlarni muvofiqlashtirish bo'yicha o'z tavsiyalarini beradi;

- a'zo mamlakatlar markaziy banklariga ularning huquqiy maqomini YMB ga taqdim etilgan xuddi shunday maqom bilan birxillashtirish maqsadida o'z hukumatlaridan ustav mustaqilligini taqdim etuvchi milliy qonunchilik qabul qilinadi.

1998-yilning 2-mayida Yevropa kengashi YVI qaror topishining uchinchi bosqichidan boshlab qaysi mamlakatlar yevroga o'tishga qabul qilinganlari to'g'risida qarorni qabul qildi. Ushbu qaror YIning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi tavsiyalari asosida qabul qilingan. O'z navbatida YIning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi ayrim a'zo mamlakatlar tomonidan Maastricht bitimi hamda unga taalluqli bayonnomalar tomonidan o'rnatilgan koveregensiya medanlarini bajarish darajalari yuzasidan Yevropa Ittifoqi komissiyasi va Yevropa valyuta institutining individual nazorat baholaridan kelib chiqqan.

Yagona valyutaga o'tishning uchinchi bosqichi (1999–2002-yillar). 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yevro zonasi ishtirokchisi bo'lmish a'zo mamlakatlar milliy valyutalariga nisbatan yevroning valyuta kurslari qat'iy belgilanadi, yevro esa ularning umumiy valyutasiga aylanadi. Shu bilan birgalikda 1:1 nisbatda yevro EKYU ning o'rnini bosadi. Bir vaqtning o'zida a'zo mamlakatlarning yagona pul siyosatini shakllantirish maqsadida yevrodan foydalanayotgan Markaziy banklar Yevropa tizimi (MBYT)³⁷ o'z ishini boshladi.

Hozirgi kunda biz to'rtinchi jahon valyuta tizimi sharoitida yashamoqdamiz. MBET yevroni jahon valyuta bozorlariga kirib borishini rag'batlantiradi: ushbu bozorlardagi uning shaxsiy operatsiyalari faqat yevrolarda amalga oshiriladi va ifodalanadi.

Tijorat banklari va yirik korxonalar yagona pul siyosati instrumentlari orqali yevrodagi operatsiyalarga o'tishga rag'batlantirildi. Bundan tashqari, a'zo mamlakatlar qimmatli qog'ozlarining yangi emissiyasi yevroda ifodalanadigan bo'ldi.

Yevro uchinchi bosqichda a'zo mamlakatlarning umumiy pul birligiga aylanadi, milliy valyutalar esa ushbu davrda faqat parallel pul birligi sifatida saqlanib qoladi.

Yevroga o'tish davrining ssenariysi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab qayta hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida yevro zonasi mamlakatlari valyutalari kurslarini yevroga nisbatan qat'iy belgilanishini;

1999–2002-yillar davrida o'zaro naqdsiz hisob-kitoblarda yevro va unga birlashtirilgan milliy valyutalar parallel ravishda ishlatildi,

³⁷ Ushbu tizimga Avstriya, Belgiya, Germaniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya kirgan.

hududning barcha davlat hamda xususiy bo'lgan moliyaviy aktivlari va passivlarining nominatsiyasi yevroda amalga oshirildi. yevroittifoqning yagona pul-kredit va valyuta siyosati hamda YI milliy bank institutlarining faoliyati amalga oshirila boshlanishini;

4.1.-jadval

Yevro uchun milliy valyutalarning miqdor birliklari

Valyuta	1 yevro uchun milliy valyutalarning miqdor birliklari ³⁸
Belgiya franki	40,3399
Germaniya markasi	1,95583
Ispaniya peseti	166,386
Fransiya franki	6,55957
Irlandiya funti	0,787564
Italiya lirasi	1936,27
Lyuksemburg franki	40,3399
Gollandiya guldeni	2,20371
Avstriya shillingi	13,7603
Portugaliya eskudosi	200,482
Finlandiya markasi	5,94573

- 2002-yilning 1-yanvaridan boshlab yevroning banknot va tangalarini muomalaga chiqarilishi, uning a'zo mamlakatlar milliy valyutalari bilan parallel muomalasi, mazkur milliy valyutalarni yevroga almashinishini;

- 2002-yilning 1-iyulidan milliy valyutalarni muomaladan chiqarib olinishi va a'zo mamlakatlar xo'jalik muomalasining to'liq yevroga o'tishini.

Yevroittifoqning yagona pul va valyuta siyosati a'zo mamlakatlar tomonidan YI kengashi orqali, shu jumladan, ularning moliya vazirlari tarkibida yig'ilishlarda ishtirok etadigan (YI ning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi), oddiy ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilishda hamda yevroparlament va YMB bilan

³⁸ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красавиной Л.Н. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 176 с.

maslaxatlardan so'ng shakllantiriladi. Yaqin istiqbolga bo'lgan iqtisodiy, pul va valyuta siyosatlarining asosiy maqsadlari bo'lib baholar barqarorligi hamda yevroning xalqaro mavqeyi mustahkamlanishi ta'minlangani holda iqtisodiy o'sish va aholi bandligini rag'batlantirish hisoblanadi. 1999-yilning 1-yanvaridan ushbu siyosatning aniq shakllantirilishi va uning ijro etilishi Markaziy banklarning Yevropa tizimiga berildi (MBYT). Ushbu MBYT yevroga o'tgan mamlakatlar markaziy banklari va millatusti Yevropa Markaziy bankidan tashkil topadi.

O'z navbatida MBYT a'zo mamlakatlar Markaziy banklari bilan hamkorlik aloqalarini amalga oshiradi, shu jumladan, ularning qay biri uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan emissiya kvotalarini belgilaydi, YI kredit va valyuta bozorlari konyunkturasi ustidan joriy kuzatuvni amalga oshiradi, YI ning iqtisodiy hamda moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi qarorlarini tayyorlaydi va zarur bo'lganda zikr etilgan konyunkturani qo'llab-quvvatlash maqsadida milliy markaziy banklar bilan birgalikda intervensiyalarni amalga oshiradi. Bunda YI ning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) targetlash (inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida asosiy pul agregatlarining maqsadli yo'nalishlarini belgilanishi);

b) asosiy foiz stavkalarining tebranish chegaralarini belgilash, shu jumladan, yevroning yalpi zonasi bo'yicha ularni o'zaro yaqinlashtirish maqsadida;

d) ochiq bozordagi operatsiyalar;

e) banklar uchun minimal zahira talablarining o'rnatilishi.

YI ning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi tomonidan boshqariladigan "TARGET" o'zaro hisob-kitoblarni tizimi yevro zonasini mustahkamlovchi vosita bo'lib hisoblanadi.

"Yevro zonasi"ning boshqa dunyo bilan ham munosabatlari chegaralangan. Yagona valyutaga YI ning 15 davlatidan hozircha 11 davlati o'tayotganligini hisobga olgan holda shunday holat ham ko'zda tutilganki, agarda yevroning oyoqqa turish va amal qilish jarayoni yalpi yevroitiffoq manfaatlariga taalluqli bo'lsa, YI mamlakatlarning vujudga kelayotgan muammolari yuzasidan ushbu mamlakatlarning to'liq (yoki manfaatdorlari) ishtirokida, ularning xulosalari hamda takliflarini YI ning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha

kengashiga yetkazgan holda norasmiy o'zaro maslaxatlari uyushtirishi mumkin.

1999-yilning 1-yanvaridan boshlab Yevropa valyuta ittifoqining (YVI) uchinchi bosqichiga o'tish YI a'zosi bo'lmish barcha mamlakatlar uchun rasman ochiq bo'lsa-da, boshidanoq ushbu mamlakatlarning barchasini Yevroga o'tishi qiyin ekanligi ayon edi. Shu sababli qo'shilgan ("ins") va qo'shilmagan ("pre ins") mamlakatlar o'rtasidagi kelgusi munosabatlarni belgilab olinishi yevro hamda milliy tasarrufda qolayotgan valyutalar o'rtasidagi kurslarni muvofiqlashtirishning muqobil mexanizmini ishlab chiqish zaruratida o'z ifodasini topdi.

1996-yildan boshlab ushbu masala YI ning iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha Kengashi, Yevropa valyuta institutlari hamda Yevropa Ittifoqi komissiyasining ma'ruzalari negizida Yevropa Ittifoqi Kengashida muhokama etildi. Ushbu mexanizmning asosiy elementlari 1996-yil 13-14-dekabrda yevrokengash tomonidan Dublinda rasman tasdiqlangan edi. 1997-yilning 16-17-iyunida Amsterdamdagi yevrokengash 1999-yilning 1-yanvaridan amalga kiritiladigan "MOK-2" ("almashuv kurslari mexanizmi - 2") nomini olgan mazkur mexanizmning tamoyillari va fundamental asoslarini belgilovchi rezolyutsiyani qabul qildi. Ushbu rezolyutsiya YI ga a'zo barcha mamlakatlar markaziy banklarining rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi va milliy markaziy banklar hamda EMB orasidagi MOK-2 amal qilishining tezkor tartibotlari bo'yicha maxsus kelishuv shaklida rasmiylashtirildi.

MOK-2ning asosiy maqsadi - "pre ins" mamlakatlarini yevro zonasiga qo'shilishi uchun tayyorlash va YI da kurs intizomini mustahkamlashda ko'maklashishdan iborat. Ishtirok etish rasman ixtiyoriy bo'lgan "MOK-2" "MOK-1"dan meros sifatida va yangidan quyidagi asosiy elementlarni oladi:

- "MOK-2" mexanizmining tashkiliy tuzilishi o'ziga asos sifatida "spisali g'ildirak modeli"ni oladi. Ushbu modelda yevro markaziy valyuta, "yakor valyutasi" va hisob birligi rolini o'ynaydi, "pre ins" mamlakatlarining valyutalari esa ikki taraflama asosda u bilan bog'langan bo'ladi. Ushbu valyutalar paritetlarining ko'p tomonli to'ri (setkasi) endi hech qachon qo'llanilmaydi;

- markaziy kurslar va kurs tebranishlarining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralari. "Pre ins" valyutalari markaziy valyuta kurslarining yevroga nisbatan miqdori ular atrofida +, -15% tebranishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralarida individual asosda belgilanadi. Mazkur kurslarning aniq ifodasi va diapazonlari yevro zonasi mamlakatlari moliya vazirlari, YMB hamda MOK da ishtirok etuvchi ushbu zonaning a'zo mamlakatlari markaziy banklarining rahbarlari va moliya vazirlarining o'zaro kelishuvi hamda Yevropa Ittifoqi komissiyasining an'anaviy ishtiroki asosida aniqlanadi. Shu kabi tartibot bo'yicha xo'jaliklar yaqinlashuvining amalga oshishi zaminida yevro va "pre ins" mamlakatlari valyutalari o'rtasida nisbatan qat'iy aloqalar o'rnatish imkoni mavjud. O'z navbatida markaziy kurslarning barqarorligi muntazam monitoring ostidadir va "MOK-2"ning (hamda Yevropa Ittifoqi komissiyasining) barcha ishtirokchilari ularni muvofiqlashtirish yuzasidan konfidensial maslaxatlarni boshlash huquqini oladilar (4-jadval).

- "MOK-2"ni boshqarish. Valyuta bozorlaridagi ehtimoliy intervensiyalarni o'z ichiga olgan holda yevro zonasi va "pre ins" mamlakatlari o'rtasida valyuta siyosatini muvofiqlashtirish organi bo'lmish YMB "MOK-2"ni tezkorlik bilan boshqarishga javobgar bo'ldi. YI ning iqtisodiy va moliyaviy qo'mitasi (Yevropa hamjamiyati iqtisodiy va valyuta ittifoqi shakllanishining uchinchi bosqichida u YI ning iqtisodiy hamda moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi o'rni egallaydi). Yevropa Ittifoqi komissiyasi bilan birgalikda "pre ins" mamlakatlarida valyuta hamda moliyaviy vaziyat rivojlanishini nazorat qilib turadi.

Valyuta kursi siyosati YMB bilan maslaxatlardan so'ng Yevropa Ittifoqi kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Kurslarni markaziy kurs chegarasidan 15% tashqariga chiqishi valyuta bozorlarida hamkorlikdagi intervensiyalar orqali muvofiqlashtirish choralari qo'llanilishini taqozo etadi.

Yevro va jahon valyuta tizimi o'rtasidagi munosabatlar o'zaro kelishuv tamoyili asosida Yevropa Ittifoqi kengashining (yevroparlamnt va EMB bilan maslaxatlardan so'ng) qarorlari bilan muvofiqlashtiriladi. Yevro zonasi a'zolari bo'lmish mamlakatlar o'zlarining XVF ga individual a'zoliklarini saqlab qolishni maqsadga

muvofoiq deb hisoblab, kollektiv intizom bilan o'zaro bog'langan yagona blok sifatida maydonga chiqishni afzal ko'radilar.

4.2-jadval

1999-yilning 1-yanvar holatiga markaziy kurslar va Yevropa-II valyuta mexanizmi doirasida valyuta tebranshlarining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralari³⁹

Mamlakat va valyuta	EUR 1 =	
Daniya, krona	Yuqori chegara	7,62824
	Markaziy kurs	7,46038
	quyi chegara	7,29252
Gretsiya, drahma	Yuqori chegara	406,075
	Markaziy kurs	353,109
	quyi chegara	300,143

YI ning yagona valyuta va kredit bozori sharoitida bir qator moliyaviy operatsiyalarning davlat muvofiqlashtirish qoidalarini sezilarli erkinlashtirilishi hamda soddalashtirilishi kutiladi, xususan:

a) nafaqat o'z mamlakatlarida, balki yevro zonasida ham investitsiya qilishga teng huquqlarni oladigan sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlarining faoliyati. Birinchi navbatda ushbu, ularga mavjud qo'yilmalarni davlat milliy qimmatli qog'ozlarida majburiy to'planuvidan qutilish va bu bilan sezilarli darajada o'z portfellarini diversifikatsiyalash imkonini beradi;

b) davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish bo'yicha birlamchi dilerlar o'zining cheklovchi, asosan, milliy tavsifnomasini yo'qotadi;

d) yevro zonasida kreditlarni ko'chmas mulk garovi yuzasidan joylashtirish erkin va ko'p chegarali bo'ladi. Bir qator mamlakatlarda ushbu bugungi kunda maxsus ruxsatni talab etadi;

e) milliy hukumatlar hamkor mamlakatlar banklari faoliyatini o'z hududlarida nisbatan kamroq nazorat qila boshlaydilar. Hozirgi paytda ushbu nazorat milliy pul siyosati manfaatlarini bilan izohlanadi;

f) ayrim mamlakatlardagi soliqqa tortilishdagi farqlar tobora ko'rinarli bo'ladi. Ushbu ularning taqqoslama raqobatdoshligining mustaqil omiliga aylanadi. O'z navbatida ushbu jarayon YI soliq

³⁹ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красавиной Л.Н. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 376 с.

tizimlarining integratsiyasini tezlashtiradi. YI dagi "soliq ko'rfazlari"ni yopilishi manfaatidagi harakatlar kuchayadi.

Yevro kiritilishining tasdiqlangan tartibida o'tish davrida YI ushbu jarayonda zo'rlash va majbur etish tamoyillarini qo'llamasligidan kelib chiqqan holda rasmiy hokimiyat hamda xususiy biznes unga o'tish yo'llarining nisbatan kengroq tanlov erkinliklari va oraliq sanalariga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Biroq bularga qaramasdan bir qator davlat moliyaviy operatsiyalarini yangi valyutaga o'tishining ma'lum bir qoidalari o'rnatilgan.

Budjet va YI institutlarining yevroga o'tishi eng oddiysi bo'lib hisoblanadi, chunki ular yevro ekvivalenti bo'lgan EKYU da azaldan ishlab kelgan. Bunga muvofiq YI ning moliyasi 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yevroda ifodalanadigan bo'ldi. YI va YMBning nominali EKYU da ifodalangan, so'ndirilish muddatlari 1999-yilning 1-yanvaridan so'ng bo'lgan obligatsiya zayomlari ushbu sanadan boshlab yevroga avtomatik ravishda konvertatsiya qilinadi, YI ga a'zo mamlakatlar valyutasida ifodalangan zayomlar nominali esa ushbu valyutalarning yevroga nisbatan kursiga, asosan 2001-yilning 31-dekabriga qadar davr mobaynida qayta hisoblab chiqiladi.

Yevro zonasiga a'zo mamlakatlarning ichki moliyaviy (budjet, hisob yuritish va boshqa shu kabi) operatsiyalari 2001-yilning 31-dekabriga qadar milliy valyutalarda amalga oshishi mumkin. Biroq davlat moliyaviy statistikasining asosiy ko'rsatkichlari parallel ravishda yevroda ham chop etiladi. Yevroga qo'shilgan davlatlar valyutasida ifodalangan va 1998-yilning 31-dekabriga qadar to'lanishi lozim bo'lgan mazkur davlatlarning tashqi davlat qarzi ushbu ifodadagi valyutada to'lanadi. 1999–2001-yillar o'tish davriga to'g'ri keladigan to'lovlarga yuqorida zikr etilgan "majbur etmaslik va taqiqlamaslik", ya'ni to'lov valyutasining erkin tanlovi qoidasi qo'llaniladi.

Yevropa fond birjalari federatsiyasi nominali yevro zonasi mamlakatlari milliy valyutalarida ifodalangan xususiy qimmatli qog'ozlar bilan birja savdosini 1999-yilning 4-yanvaridan boshlab, ya'ni fond birjalarining yangi yilda ochilishining birinchi kunidan boshlab yangi valyutaga o'tkazishni tavsiya etdi.

Qimmatli qog'ozlar nominalini ifoda etish uslubi to'g'risidagi qaror ularning emitentlari (aksiyalar uchun aksiyadorlar majlisi)

tomonidan qabul qilinadi. Bunda ushbu ko'rsatkichlar ifodasining to'liq raqamlarini saqlab qolish maqsadida aksiyalarning nominal qiymati yoki ustav kapitalining hajmi o'zgarishi mumkin. Zikr etilgan nominallashtirish jarayoni aksiyadorlar manfaatiga zid bo'lmashligi yoki o'z portfellarining bir qismini sotishga majbur etmasligi lozim.

Yevroning yutug'i yoki yutqizishi o'tish davrining oxiriga kelib yangi kollektiv valyuta ma'lum bir aniq xo'jalik aylanmasida "kritik massa"ga ega bo'la olishi yoki bo'lmashligiga bog'liq bo'ladi. Ehtimollarga ko'ra ushbu amalga oshadi, chunki:

a) 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab YI va yevro zonasi mamlakatlari davlat moliyasining katta qismi, shuningdek, budjet hamda xususiy sektor o'rtasidagi moliyaviy oqimlar ham yevroda ifodalangan. 1999-yilga kelib ushbu mamlakatlar tashqi davlat qarzining yarmini yevroda nominallashtirilishi kutilmoqda;

b) bank aylanmalari va qisqa muddatli depozitlarning 1/3 qismi hamda majburiy bank zahiralashtirilishining asosiy qismi yevroda nominallashtirish jarayoniga tushadi;

d) yevro bilan almashinayotgan milliy (Germaniya markasi, Fransiya franki, Gollandiya guldeni) valyutalar xalqaro xo'jalik aylanmasiga xizmat ko'rsatishda sezilarli o'rin egallaydilar va nominallashtirish natijasida o'z mavqelarini yo'qotmasalar kerak. Bu yerda YI ichki hisob-kitoblarida AQSH dollari aylanmasi hajmining qisqarishi haqiqatga yaqindir. Yevro tomonidan Xalqaro savdoning 18-28 foiziga, shu jumladan, YI ichidagi aylanmaning asosiy qismiga o'tish davrida xizmat ko'rsatilishi kutilmoqda;

e) yevro zonasi valyuta bozorlari yangi valyutaga tez o'tishga tayyordir;

f) uchinchi davlatlar hamda ularning iqtisodiy operatorlari valyuta zahiralari yoki hisobvaraqlarda yevrodagi avuarlarga ega bo'lishga xohishi mavjudligi sababli yevroga, uning zonasidan tashqarisida ham katta talab paydo bo'ladi;

g) mavjud tebranishlarga qaramasdan yevroni AQSH dollariga nisbatan kursi nisbatan muvozanatli bo'lishi kutilmoqda.

Bozorlardagi yevroning umumiy massasi avvalgi valyuta massasidan katta bo'ladi deb, ya'ni boshqa valyutalar hisobiga mablag'lar bir qismining birinchi navbatda dollar va iyena orqali yevroga oqib o'tishi prognoz qilinmoqda.

Xalqaro iqtisodiy, shu jumladan, valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarga yevro tomonidan sezilarli o'zgarishlar olib kiritilishini ekspertlar prognoz qilmoqda. Barqarorlashtirilgan davlat moliyasi sharoitida hukumatning yangi qarzlarga bo'lgan ehtiyojining pasayishi singari yevro zona mamlakatlarining zarurati qolmagan avvalgi hajmlardagi valyuta zahiralarini qisqarishi hisobiga ushbu zonadagi pul va kapital bozorlarida taklif ortadi. Ushbu sharoit mazkur bozorlarni yanada ochiq va bir maromli qiladi hamda bu bozorlarda eng muhim ishtirokchi bo'lib davlat emas, balki xususiy shaxs sifatidagi qarz oluvchi maydonga chiqadi, asosiy investitsiyalar esa davlat majburiyatlariga emas, balki korxonalar qimmatli qog'ozlariga, shu jumladan, ularning aksiyalariga ketadi. Ushbu esa YI fond va kredit bozorlarini ishlab chiqarish bilan yanada qattiqroq bog'laydi. Natijada kapitalning yalpi aylanishi tezlashadi.

Xalqaro miqyosda kapitallar chambarchas bog'lanib ketishi jarayonida yevro zonasi mamlakatlari ishtiroki faolligining ortishi kutilmoqda. Ularning bozor subyektlari maydonga nafaqat savdogarlar, balki investorlar sifatida ham maydonga faol chiqadi. YI korxonalari va banklarini mazkur zonaning yalpi masshtabida faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan hajmlarda yiriklashtirishga qaratilgan birlashish hamda o'zaro qo'shilib ketishning yangi bosqichi boshlanadi.

Yevroni kiritilishi banklar uchun bank xizmatlari va davlat hamda korporativ qimmatli qog'ozlarning YI da yagona bozorini qaror topishi va yaratilishini bildiradi. Alohida mamlakatlarning mustaqil kredit reytingi asta-sekin individual milliy qarz oluvchilarning taqqoslama imtiyozlari foydasiga o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotadi.

Sanoat korporatsiyalari uchun yevroning kiritilishi yevrodan baho va to'lov valyutasi sifatida foydalanish, hisob-kitoblar, valyuta tavakkalchiligini sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlarining kamaytirilishini bildiradi. Ushbu moliyaviy korxonalarni sog'lomlashtirish aksiyalari daromadlilikini o'sishi uchun muhimdir va yevro zonasining nisbatan past darajada rivojlangan janubi asta-sekin asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha shimol darajasiga yaqinlashib boradi.

Jahon moliyaviy markazlar xususiga kelsak, agarda Buyuk Britaniya yevro zonasiga qo'shilmasa, unda yetakchilik London qo'lidan Frankfurt (Maynda) va Parij qo'llariga o'tib qolishi mumkin.

Yevropa hamjamiyati iqtisodiy va valyuta ittifoqining barpo etilishi jahon xo'jaligidagi kuchlar joylashishini AQSH hamda Yaponiyaning jahondagi mavqeyi kuchsizlanishi hisobiga istiqbolda "yangi Yevropa" foydasiga o'zgartirib yuborishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Jahon ssuda kapitallar bozori tarkibiy tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Yevrobozor rivojlanishi jahon iqtisodiyoti uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Yevrovalyuta nima va u qanday paydo bo'ladi?
4. Hozirgi kundagi yevrodollar bozori avvalgi yevrodollar bozoridan nimalari bilan farq qiladi?
5. Yevrovalyuta bozori qanday omillar ta'sirida rivojlangan?
6. Yevrobozorining asosini tashkil etayotgan shaharlarni bilasizmi? Yevrobozorning hududiy va milliy bozorlardan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering?
7. Yevrobozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarning qanday turlarini bilasiz?
8. Yevrokredit bozoriga xos xususiyatlarni, xususan, yevrokreditlarning shakllari, muddati, ta'minoti, foiz stavkasi, maqsadi, so'ndirish tartibini aytib bering?
9. Yevrodepozitlar to'g'risida nima bilasiz?
10. Yevroqimmatli qog'ozlarning qanday turlarini bilasiz, ularga izoh bering?
11. Yevroobligatsiya va chet el obligatsiyalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aytib bering.
12. Oddiy obligatsiyalar bilan yevroobligatsiyalar o'rtasida qanday farqlar mavjud?
13. Yevroobligatsiyalar va yevronotalarni o'zaro bir-biridan farqini aytib bering?
14. Yagona Yevropa fond bozori shakllanishida asosiy rol o'ynagan qanday tamoyillarni bilasiz?
15. Yevropa Ittifoqida fond bozorlarini unifikatsiyalash qanday boshlandi?
16. Yevropa Ittifoqida yagona moliyaviy muhitni shakllantirish qanday amalga oshirildi?

17. Hozirda jahon fond bozorlari infratuzulmasida qanday asosiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?

18. Yevroobligatsiyalar muomalasining rivojlanishi tarixi to'g'risida gapirib bering?

19. Yevroobligatsiyalar emitentlari kimlar, ularga xos xususiyatlar va qo'yiladigan talablar haqida nima bilasiz?

20. Yevroobligatsiyalarni chiqarish shakllari, ularning muddati, foizi, kupon stavkasi to'g'risida nimalarni bilasiz?

21. Valyuta tizimi tushunchasi va uning shakllari?

22. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari?

23. Jahon va hududiy valyuta tizimlari hamda ularning elementlari?

24. Parij konvensiyasi va klassik oltin tanga standarti?

25. Ikkinchi jahon valyuta tizimi va uning inqirozi sabablari?

26. Uchinchi jahon valyuta tizimi va uning asosi?

27. Dollar standarti va oltinning rasmiy bahosi?

28. Qat'iy belgilangan kurslar rejimi?

29. "Oltin pul" va "Oltin nuqtalar" mexanizmi tushunchasi?

30. Bretton Vuds valyuta tizimi inqirozining asosiy sabablari?

31. To'rtinchi jahon valyuta tizimi va uning asosi?

32. Ko'p valyutali standart tushunchasi?

33. Erkin suzuvchi kurslar rejimi?

V BOB. MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALAR: XALQARO RIVOJLANISH ISTIQBOLI

Reja:

- 5.1. Banklararo korrespondent munosabatlar xalqaro bank biznesining amalga oshirish shakli sifatida.**
- 5.2. Xalqaro hisob-kitoblar mazmuni va amalga oshirish tartibi.**
- 5.3. Xalqaro hisob-kitob shakllari va uning turkumlanishi.**
- 5.4. SWIFT tizimi orqali xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish.**

Tayanch iboralar

Aktiv, passiv, bank operatsiyalari, bank kapitali, xalqaro hisob-kitoblar, hisob-kitoblar turkumlanishi, hujjatli akkreditiv, hujjatli inkasso, bank o'tkazmasi, xalqaro to'lov, SWIFT tizimi.

5.1. Banklararo korrespondent munosabatlar xalqaro bank biznesining amalga oshirish shakli sifatida

Rezidentlar O'zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishlari mumkin.

Rezident yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi mablag'lari O'zbekiston Respublikasi hududidagi banklardagi valyuta hisobvaraqlarida saqlanadi va ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda foydalaniladi.

Rezident yuridik shaxslar tomonidan olinadigan chet el valyutasi, shu jumladan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan olingan valyuta tushumi, agar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqacha qoida belgilagan bo'lmasa, ularning banklardagi hisobvaraqlariga o'tkazilishi shart.

Rezident yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi banklarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda milliy valyutada va chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishga hamda ulardan foydalanishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining rezident jismoniy shaxslari, diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O'zbekiston

Respublikasi tashkilotlarining chet eldagi, xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari O'zbekiston Respublikasidan tashqarida hisobvaraqlar ochishiga hamda bu hisobvaraqlardan foydalanishiga ularning faqat xorijda bo'lishi va faoliyat ko'rsatishi davrida yo'l qo'yiladi. Ularning chet elda bo'lishi yoki faoliyat ko'rsatishi tugagach, hisobvaraqlar yopilishi lozim, hisobvaraqlardagi mablag'larning qoldiqlari esa O'zbekiston Respublikasiga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasida vaqtincha turgan norezident jismoniy shaxslar, immunitet hamda diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan chet el diplomatiya va boshqa rasmiy vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning filiallari, shuningdek, xorijiy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan vakolatxonalari O'zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda milliy valyutada va chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishga hamda ulardan foydalanishga haqlidir.

Banklarning vakillari bo'lgan chet el banklari banklarda milliy valyutada va chet el valyutasida vakillik hisobvaraqlari hamda boshqa hisobvaraqlar ochish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to'lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasi hududida hisob-kitoblar va to'lovlarni chet el valyutasida amalga oshirishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

➤ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kreditlarni olish va qaytarishda;

➤ banklardagi omonatlarga pul mablag'lari qo'yishda, omonatlar bo'yicha foizlar to'lashda;

➤ bankning chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha vositachilik haqini undirishda;

➤ chet el valyutasida ifodalangan bank kafolatlarini berish va ular yuzasidan to'lovlarni amalga oshirishda;

➤ banklar, ularning filiallari va ayirboshlash shoxobchalari orqali chet el valyutasini sotib olish va sotishda;

➤ yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda valyuta boyliklarini kiritishda;

- hayriya maqsadlarida amalga oshiriladigan operatsiyalarda;
 - meros huquqi bo'yicha valyuta boyliklarini olishda;
 - bojsiz savdo do'konlaridagi hisob-kitoblar, shuningdek, xalqaro yo'nalishlarda tashishda transport vositalarining qatnov yo'llarida yo'lovchilarga tovarlar sotish va xizmatlar ko'rsatishdagi hisob-kitoblar bilan bog'liq operatsiyalarda;
 - norezidentlar bilan tovarlarni boshqaga o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, axborotni, intellektual faoliyat natijalarini, shu jumladan, ularga bo'lgan mutlaq huquqlarni boshqaga o'tkazish to'g'risida shartnomalar tuzish va ularni bajarish bilan bog'liq xizmatlar komissionerlar (agentlar) tomonidan ko'rsatilayotganda komissionerlar (agentlar) va komitentlar (printsipallar) o'rtasida amalga oshiriladigan operatsiyalarda;
 - O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan yoki O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan yukning tranziti, uni tashish bilan bog'liq xizmatlar ekspeditor, tashuvchi va fraxtchi tomonidan ko'rsatilayotganda transport ekspeditsiyasi, tashish hamda charter (fraxtlash) shartnomalari bo'yicha operatsiyalarda;
 - qimmatli qog'ozlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sotib olish va sotishda;
 - rezidentlar tomonidan rezidentlar hamda norezidentlardan plastik to'lov va kredit kartochkalari bo'yicha to'lovlarni qabul qilishda;
 - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda;
 - qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.
- Banklar O'zbekiston Respublikasida o'z filiallarini, chet el banklari esa o'z vakolatxonalarini Markaziy bankning ruxsati bilan ochishlari mumkin.
- Bank filiali - uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo'linmadir.
- Chet el banki vakolatxonasi - bank faoliyatini amalga oshirmagan holda bankning manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi alohida bo'linmadir.

Filiallarning rahbarlarini ularni tashkil etgan bankning rahbari Markaziy bank bilan kelishib tayinlaydi.

Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Mijozlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zlari tanlagan bitta yoki bir nechta bankda milliy valyutada va chet el valyutasida talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlar ochishga haqli. Mijozlar o'zlari tanlagan faqat bitta bankda milliy va chet el valyutasida talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlar ochishga haqli. Bunda O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z tanlovi bo'yicha bitta yoki bir nechta bankda so'mlar va chet el valyutasida talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlariga ega bo'lishga haqli. Banklar mijozlarga hisobvaraqlar ochishning Markaziy bank belgilagan tartibiga rioya qilishlari shart.

Bankning barcha xizmatlari bank aksiyadorlari va boshqa mijozlarga teng shartlar asosida ko'rsatiladi.

Banklar shartnoma asosida mablag'larni depozitlar, kreditlar shaklida bir-birlaridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, tashkil etiladigan hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni bajarishi mumkin.

Banklar va ularning mijozlari hisob-kitoblarni Markaziy bank belgilaydigan tartibda amalga oshiradilar. Ko'rsatilgan tartibni buzganlik uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

5.2. Xalqaro hisob-kitoblar mazmuni va amalga oshirish tartibi

Xalqaro hisob-kitoblar – turli mamlakatlar fuqarolari va yuridik shaxslari orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari va majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtirishdir.⁴⁰ Xalqaro hisob-kitoblar bir tomondan, amaliyotda shakllangan va xalqaro hujjatlar hamda udumlar bilan mustahkamlangan to'lovlarni amalga oshirish shartlari va tartibini,

⁴⁰ Красавина Л.Н. "Международные валютно-кредитные и финансовые отношения"
Москва "ФинС" 2001г.

ikkinchi tomondan, ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish yuzasidan kunlik amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Hisob-kitoblarning eng katta hajmi bank hisobvaraqlarida yozuvlarni amalga oshirish orqali naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda, jahonning eng yirik banklari xalqaro hisob-kitoblarda yetakchilik rolini o'ynaydi. Mazkur banklarning xalqaro hisob-kitoblarga bo'lgan ta'sir darajasi ular joylashgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari, milliy valyutasining ishlatilish masshtablari, ixtisoslashganligi, moliyaviy ahvoli, ishbilarmonlik mavqeyi, vakil-banklar tizimiga bevosita bog'liqdir.

Xalqaro hisob-kitoblarni tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ular quyidagicha shakllangan:⁴¹

1. Importyorlar va eksportyorlar va ularning banklari tashqi savdo munosabatlaridan shartnoma munosabatlarini rasmiylashtirishga, jo'natishga, tovarni va uni hujjatlarini qayta ishlashga hamda to'lovni amalga oshirish ishlariga ma'lum darajada kirishib borishgan. Hisob-kitoblarni aniq shakliga qarab ular o'rtasida majburiyat va javobgarlik taqsimlangan.

2. Xalqaro hisob-kitoblar milliy normativ qonuniy aktlar hamda xalqaro bank tartib va odatlari bilan tartibga solinadi.

3. Xalqaro hisob-kitoblarning obyekti – xo'jalik aloqalarini intermilliylashuvi va bank operatsiyalarini unversallashuvi bilan unifikatsiyalashgan. 1930 va 1931-yillarda Jeneva konferensiyasida xalqaro Veksel va Chek konventsiyasi qabul qilingan, unga asosan xalqaro hisob-kitoblarda veksel va cheklarni ishlatishni murakkabligi bartaraf etilgan, bir so'z bilan aytganda veksel va cheklarni ishlatish borasida unifikatsiyalangan xalqaro qonuni qabul qilingan. XX asrning boshlarida Parijda tuzilgan Xalqaro savdo palatasi hujjatli akkreditivlar dokumentar inkasso bo'yicha unifikatsiyalangan tartib va qoidalarni ishlab chiqadi va chop etadi. ⁴² Jahonning ko'pchilik banklari akkreditiv va inkasso bo'yicha unifikatsiyalangan tartibga qo'shilishini e'lon qilganlar.

4. Xalqaro hisob-kitoblar belgilangan tartibga asosan hujjatlarga asoslanadi, ya'ni moliyaviy va tijorat hujjatlariga nisbatan amalga

⁴¹ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Учебник / под ред. Л.Н. Красавиной - М.: Финансы и статистика, 2006 г. - С. 140

⁴² Моисеев С. Р. Международные валютно-кредитные отношения. Учебное пособие - М.: изд. «Дело и Сервис», 2003 г. - С. 74

oshiriladi. Moliyaviy hujjatlarga oddiy va o'tkaziladigan veksellar, cheklar va to'lov tilxatlari kiradi. Tijorat hujjatlariga hisob-fakturasi; tovarni jo'natganligi yoki ortishga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar (konosamantlar, temir yo'l, avtomobil va aviatsiya yuk xatlari, pochta kvitantsiyalari yoki aralash transport nakladnoylari); sug'urta hujjatlari; tovarni kelib chiqishini, sifatini va tarkibini tasdiqlovchi sertifikatlar va boshqalar kiradi. Bank hujjatlarni tarkibini va to'liqligini tekshiradi. Shuning bilan bir qatorda Xalqaro savdo palatasi va SWIFT tashkiloti bilan elektro "qog'ozsiz" savdo konsepsiyasi - elektron shartnomalar, elektron moliyaviy instrumentlar va hisob-kitoblarni tushunchasi qo'shilgan holda ishlab chiqilgan.


5. Xalqaro to'lovlar turli xil valyutalarda amalga oshiriladi. Shuning uchun ular valyuta operatsiyalari bilan yaqindan bog'langan, ularni samarali amalga oshirilishi valyuta kurslari dinamikasiga ta'sir o'tkazadi.

Shuni qayd etish zarurki, bir paytlar ilg'or davlatlarning milliy kredit pullari xalqaro hisob-kitoblarda bemalol ishlatilgan, xususan birinchi jahon urishiga qadar xalqaro hisob-kitoblarda Angliyaning funt sterlingi 80 foizni tashkil etgan. Keyinchalik uning ulushi 40 foizgacha tushib qolgan, AQSH ning dollari esa 60 foizgacha ko'tarilgan. O'tgan asrni 70-yillaridan boshlab xalqaro hisob-kitoblarda hisob valyuta birligi SDR va nisbatan davlatlararo hisob-kitoblarda, ayniqsa, EKYU ishlatilgan, keyinchalik 1999-yildan boshlab asta-sekin u rasmiy va xususiy sektorda yevroga almashtirildi, valyuta bahosi va valyuta to'lovi sifatida.⁴³ Xalqaro savdoning Hozirgi tashqi savdo operatsiyalarining amaliyotida asosan, AQSH dollari, yevro, Yaponiya iyenasi, Shveytsariya franki ishlatiladi. Yevropa iqtisodiy va valyuta ittifoqi tuzilishi bilan mana 10 yildan oshiq muddatda yevro jahonning ikkinchi ilg'or valyutalari qatoridan joy oldi. Shunga qaramay jahon bozorida xomashyo va yoqilgij-energiya tovarlarini hisob-kitobi an'anaviy ravishda, AQSH dollarida amalga oshiriladi.⁴⁴

⁴³ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Учебник / под ред. Л.Н. Красавиной - М.: Финансы и статистика. 2006 г. – С. 141

⁴⁴ по материалам сайта www.bis.org

Xalqaro bank hisob-kitoblari



Xalqaro to'lovlar valyutalar o'zaro almashuvi hamda tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan bir-biriga kreditlar taqdim etish jarayonlari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob operatsiyalarining o'zaro bog'liqligi quyida o'z ifodasini topadi. Sotilayotgan tovarning turiga (masalan, mashinalar va jihozlar) hamda sotuvchilar bozorida raqobatning kuchayishi va yangi mahsulot iste'mol

bozorlarini kengaytirish maqsadida ularning kreditdan foydalanishga qaratilgan intilishlariga qarab tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar tijorat kreditidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tijorat krediti tovar sotuvchisi tomonidan sotib oluvchiga bir necha oydan, 5-8 yilgacha, alohida holatlarda esa bundan ham katta muddatlarga taqdim etiladi. Tashqi savdo operatsiyalarida importyor tijorat krediti evaziga uni so'ndirishga qaratilgan, oddiy veksel shaklidagi qarz majburiyatini yozib beradi yoki eksportyor tomonidan berilgan o'tkaziladigan veksellar-trattalarda to'lovni amalga oshirishga yozma tarzda rozilik (aktsept) beradi.

Tovar qiymatining ma'lum bir qismiga tijorat hujjatlari taqdim etilganidan so'ng, qolgan qismiga esa shartnomada belgilangan davrdan so'ng haq to'langanda, tijorat krediti shaklidagi tovarlar uchun hisob-kitoblar naqdli to'lovlar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Tashqi savdo shartnomasi ijrosining ma'lum bir bosqichida shartnomadagi taraflar, tijorat kreditidan tashqari, bir-birlarini majburan kreditlashlari mumkin.

5.3 Xalqaro hisob-kitob shakllari va uning turkumlanishi

Bank ishini xalqaro amaliyotida ishlatiladigan hisob-kitoblar shakllarini va ularni mexanizmini ko'rib chiqamiz.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli – ushbu kelishuv shartiga binoan bank mijozni iltimosiga binoan uchinchi shaxsga (akkreditiv ochilgan benefitsiarga) to'lovni amalga oshirib beradi yoki benefitsiar tomonidan taqdim qilingan trattani to'lashga rozilik yoki hujjatlarni sotib olishga rozilikni amalga oshiradi.⁴⁵ Akkreditiv bo'yicha bankning majburiyati mustaqil hisoblandi va tomonlarning tijorat shartnomasi bo'yicha huquqiy munosabatlariga bog'liq bo'lmaydi.

Avans to'lovidan keyin eksportyorlar uchun akkreditiv shaklidagi hisob-kitoblar eng maqbul va manfaatli hisoblanadi, chunki bunda banklar ma'lum shart-sharoitlar bajarilgandan keyin to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladilar. Bundan tashqari, hisob-kitoblarning akkreditiv shakli inkasso shaklidagi hisob-kitobga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

⁴⁵ Унифицированные правила и обычаи для документарных аккредитивов (публикация МТП 2007 года UCP №600)

- hisob-kitob o'ta ishonchli va tovarlar uchun o'z vaqtida to'lanish kafolatlangan, chunki bu operatsiyalarni banklar bajaradi;

- to'lov summasini olinishi juda tez, tovarlarni ortib jo'natganda keyin jo'natilgan tovar hujjatlari taqdim qilinishi bilanoq banklar tezda to'lovni amalga oshirsa;

- eksportyor davlatiga xorijiy valyutada akkreditiv ochilganda importyorni valyutani o'tkazishga rozichiligi olinganda.

Hisob-kitoblarni inkasso shakli – bu, bank operatsiyasi bo'lib, buy yordamida bank mijozni topshirig'iga asosan importyordan uni nomiga ortib jo'natilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat uchun pul mablag'ini o'zlashtirish beradi va bu mablag'larni eksportyorni bankdagi hisob raqamiga o'tkazib beradi.


Inkasso shaklidagi hisob-kitoblarda quyidagilar jarayon ishtirokchilari hisoblanadi:

- o'zini bankiga inkasso operatsiyasini bajarishga topshirib berayotgan ishonchli yuridik yoki jismoniy shaxs;
- inkasso operatsiyasini bevosita amalga oshiruvchi remitent bank;
- valyuta mablag'ini oluvchi inkasso bank;
- importyor-to'lovchiga hujjatlarni taqdim etuvchi bank;
- to'lovchi.

5.2- chizmada hujjatli inkasso bo'yicha hisob-kitoblar mexanizmini ko'rib chiqamiz:

5.2-chizma

Hujjatli inkasso bo'yicha hisob-kitoblar chizmasi⁴⁶



⁴⁶ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Учебник / под ред. Л.Н. Красавиной - М.: Финансы и статистика, 2006 г. – С. 143

1. Eksportyor importyor bilan tovarni sotish bo'yicha shartnomani hujjatli inkasso sharti hisob-kitobni amalga oshirish tartibi bilan unga tovarni jo'natadi.

2. Eksportyor o'zini bankiga inkasso topshiriqnomasi bilan tijorat hujjatlarini jo'natadi.

3. Eksportyor banki inkasso topshirig'i va tijorat hujjatlarini taqdim etuvchi bankka (yoki importyor bankiga) jo'natadi.

4. Taqdim etuvchi bank bu hujjatlarni importyorga taqdim etadi.

5. Importyor inkasso bankni hujjatlarini to'lab beradi.

6. Inkasso bank remitent-bankka (yoki eksportyor-bankka) to'lovni o'tkazadi.

7. Remitent-bank o'tkaziladigan summani eksportyor hisobiga o'tkazadi.

Oddiy va hujjatli inkasso farqlanadi. Oddiy (sof) inkasso tijorat hujjatlari taqdim etilmasdan, moliyaviy hujjatlar bo'yicha to'lovni undirib olishni anglatadi; hujjatli (tijorat) inkassoda tijorat hujjatlari bilan birgalikda moliyaviy hujjatlarga nisbatan to'lov amalga oshiriladi. Bunda banklarda hech qanaqa hujjatlarni to'lash bo'yicha majburiyat bo'lmaydi.

Inkasso shaklidagi hisob-kitoblar import operatsiyalarini amalga oshirish nisbatan maqsadga muvofiqdir, chunki bunda tashqi savdo birlashmalarini resurslarini jalb qilmaydi, bundan tashqari ularga nafaqat tovarlarni hujjatlarini tekshirishga balki uni qiymatini to'laguncha tovarni o'zini ham tekshirish, imkonini beradi.

Bank pul o'tkazishi o'zida bitta bankni ikkinchi bankka o'tkaziladigan ma'lum pul mablag'ni oluvchiga to'lashni anglatadi.⁴⁷ Xalqaro hisob-kitoblarda banklar o'zining mijozlarini pul o'tkazish bo'yicha topshiriqnomalarini bajarib keladi.

Bu operatsiyalarda: pul o'tkazib beruvchi qarzidor; topshiriqnomani qabul qiluvchi o'tkazib beruvchi bank; o'tkazib beriladigan summani amalda mijoz hisobiga o'tkazuvchi bank; o'tkaziladigan summani qabul qiluvchi shaxs.

Bank pul o'tkazishi shaklida inkasso, uzil-kesil hisob-kitob shakli, avans to'lovi kabi to'lovlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bank o'tkazishi yordamida boshqa operatsiyalarni qayta hisob-kitoblar


⁴⁷ Мовсесян А.Г., Огнивцев С.Б. Международные валютно-кредитные отношения. Учебник – М.: Инфра, 2005 г. – С. 135

ham amalga oshiriladi. Ayniqsa, eksportyorlar bank pul o'tkazishlarini bank kafolati bilan uyg'unlashib ketishini istaydilar, qachonki importyor tomonidan tovar to'lanmagan taqdirda kafolat hisobidan to'lovni amalga oshirilishini istaydilar.

Bank pul o'tkazishi yordamida hisob-kitoblarni nisbatan juda oddiy mexanizmi mavjud va u keyingi 5.3-chizmada ko'rsatiladi.

5.3- chizma

Bank pul o'tkazishlari chizmasi⁴⁸



Importyor bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etadi, ushbu ma'lumotlarga nisbatan importyor banki to'lov topshiriqnomasini eksportyor bankiga yo'naltiradi. Eksportyor banki topshiriqnomani olib uni haqiqiylikni tekshiradi va eksportyor hisob raqamiga mablag'ni o'tkazish operatsiyasini amalga oshiradi.

Bank pul o'tkazishining iqtisodiy mazmuni tovar yoki xizmat yetkazib berilganga qadar avans to'lovi amalga oshirilishi yoki ular importyor tomonidan olingandan keyin amalga oshirilishiga qaramay o'zgaradi.

Eksportyor uchun avans shaklidagi hisob-kitoblarni e'tibor qilib, manfaatli importyor tomonidan to'lovni tovar hali olinmagan jo'natilmagunga qadar amalga oshirilishi qiziqarliqdir. Avans to'lov haqiqatda importyor uchun manfaatsiz bo'lib, eksportyorning yashash kreditlashni anglatadi.⁴⁹ Bundan tashqari, avans pul o'tkazishi importyor uchun eksportyor tomonidan shartnoma sharti bajarilmagan va tovar yetkazib berilmasa pul yo'qotish riski kelib chiqadi.

⁴⁸ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Учебник / под ред. Л. Н. Красавиной - М.: Финансы и статистика, 2006 г. - С. 144

⁴⁹ Моисеев С. Р. Международные валютно-кредитные отношения. Учебное пособие. М.: изд. «Дело и Сервис», 2003 г. - С. 74

Importyorni bu hisob-kitob shartiga rozichiligi tovarni qanday bo'lmasin eksportyorni yetkazib berishidan manfaatdor ekanligiga bog'liq.

Ochiq hisoblar bo'yicha hisob-kitoblar importyorni eksportyorga tovarni olgandan keyin muntazam to'lovini o'zida aks ettiradi. Xalqaro hisob-kitoblarni ushbu shakli ochiq hisoblarni kreditlash bilan bog'langan. Ochiq hisoblar bo'yicha qarzdorlikni qoplash hisob-kitobi tartibi hamkorlar o'rtasida ma'lum kelishuvga asosan ko'zda tutiladi. Odatda to'lovlar belgilangan muddatlardan keyin amalga oshiriladi (tovarlar ortib jo'natilgandan keyin, oyni o'rtasi yoki oxirida). Ushbu hisob-kitoblar shaklini o'ziga xosligi, tovarlarni harakati pul harakatini uzib ketishidadir.

Ochiq hisoblar bo'yicha hisob-kitoblar importyor uchun o'ta manfaatlidir, chunki u olingan tovarlarni bahosini keyinchalik to'lab beradi, berilgan tovar kreditlar uchun alohida foiz to'lanmaydi: yetkazib berilmagan yoki qabul qilinmagan tovarlarga to'lov riski umuman bo'lmaydi. Eksportyorlar uchun hisob-kitoblarni bu shakli unchalik manfaatli emas, chunki to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilishiga ishonchli kafolat yo'q, uni kapitalini aylanishi sekinlashadi, gohida bank krediti olishga ham to'g'ri kelib qolishi mumkin.

Jahon amaliyotida veksellar, cheklar va bank kartalari ishlatilishi bilan hisob-kitoblar ham qo'llaniladi. O'tkazish veksellari odatda eksportyor tomonidan importyorlarga nisbatan qo'llaniladi. Shakllari, rekvizitlari, taqdim qilish sharti va trattani to'lanishi 1930-yilda Jenevada veksell bo'yicha qabul qilingan konvensiya qonunchiligiga asoslanadi.


Xalqaro hisob-kitoblarda, shuningdek, cheklar ham ishlatiladi. Agar to'lov chek yordamida amalga oshiriladigan bo'lsa, yo qarzdor (xaridor) mustaqil ravishda chek (mijoz cheki) taqdim qiladi yoki unga bank cheki yozish topshirig'ini beradi. Chekni shakli va rekvizitlari milliy va xalqaro (1931-yildagi Chek konvensiyasi) qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Xalqaro hisob-kitoblar tizimida plastik kartochkalar maxsus o'rinni egallab kelmoqda. Plastik kartochkalardan American express, Diner Club, Visa va boshqa tipdagilari iqtisodi rivojlangan davlatlar to'lov aylanmasida, ayniqsa, savdo va xizmat sohasida keng ishlatiladi.

Xalqaro moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida eksport va import shartnomalarining asosiy shakli hisoblangan akkreditiv turidagi xalqaro hisob-kitoblarni roli oshib bormoqda.

5.4-chizma

Import shartnomasi bo'yicha 100 % avans to'lovi hisob-kitoblari quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi



Texnologik asbob-uskunalarini import qilishda bizning korxonalimiz quyidagi hisob-kitob mexanizmini ishlatishi mumkin:

- eksportyor banki shartnoma yuridik kuchga kirgandan boshlab 5 bank kuni ichida sotuvchi tomonidan tovar jo'natilmagan taqdirda shartnoma summasidan 30 foiz miqdorda SWIFT yo'li bilan to'langan avans to'lovini qaytarish to'g'risida bank kafolatini beradi;

- bizning importyor bank kafolatini olgandan keyin 5 bank kuni ichida sotuvchini hisob raqamiga shartnoma summasini 30 % miqdoridagi mablag'ni avans to'lovi sifatida bevosita bank perezodi sifatida to'lab beradi;


- 5 bank kuni ichida importyor shartnoma summasini qolgan 60 % hujjatli akkreditiv sifatida qo'yib beradi (akkreditiv muddati tomonlar o'rtasida kelishilgan bo'lishi zarur). Akkreditiv bo'yicha to'lov ta'minotchisi tomonidan import shartnomasida ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim qilinganda amalga oshiriladi;

- shartnoma umumiy summasini qolgan 10 foizi asbob-uskuna haqiqatda yetkazib berilgandan keyin bevosita bank perezodi bilan to'lab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalari amaliyotida import shartnomalari bo'yicha kombinatsiyalangan mexanizm chizmasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

5.5 - chizma

Import shartnomasi bo'yicha kombinatsiyalashgan hisob-kitoblarni ishlatilish mexanizmi



Import shartnomasi bo'yicha kombinatsiyalashgan hisob-kitob qator afzalliklarga ega:

- xohlagan individual import kelishuvlari uchun to'g'ri keladi, ikki kontragent manfaatlarini inobatga olinadi;
- xalqaro savdoda yuzaga keladigan risklarni kamaytiradi;
- hisob-kitoblar ishonchli va tovarlarni o'z vaqtida to'lanishi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasida tayyor mahsulotni eksport shartnomasi bo'yicha hisob-kitoblar mexanizmi Rossiya Federatsiyasidagi tartibdan bir oz farqlanadi.

Eksport shartnomasini tijorat bankida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Markaziy bankning Yo'riqnomasi 2000-yil 19-avgustda qabul qilingan.

Ushbu tartibga asosan bank muassasalari eksport shartnomalarini hisobga olayotganda quyidagilarni tekshirishi lozim:

- xorijiy valyutada aniqlangan bahosini;
- xorijiy valyutada tuzilgan shartnomani umumiy summasini;
- tovarni yetkazib berishni shartlari va muddatlarini;
- hisob-kitob shakli, sharti va tovar uchun to'lov muddatini;
- o'z majburiyatini bajarmaganda tomonlarning javobgarligi.

Eksport kontrakti tijorat bankida ro'yxatga olinganda unga identifikatsion raqam beriladi va bojxona idorasida tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron tizimiga kiritiladi.


Eksport shartnomasi ham import shartnomasi singari qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq hisob-kitobni xohlagan shaklida:

- avans to'lovi yoki ochiq hisob shaklida;
- hujjatli akkreditiv;
- hujjatli inkasso shaklida bo'lishi mumkin.

Agar eksport shartnomasida 100 % avans to'lovi ko'zda tutilgan bo'lsa, eksportyor korxona tovarni jo'natmaslik riskini yopish uchun to'lovni qaytarishni ta'minlashga bank kafolatini taqdim etishi zarur, bu holatda xorijiy hamkor bilan hisob-kitob chizmasi quyidagicha bo'ladi:

5.6-chizma

Eksport shartnomasi bo'yicha 100 % avans to'lovi ko'rinishidagi hisob-kitoblar



100 % bank kafolati bilan avans to'lovi shaklidagi hisob-kitoblar mexanizmini ishlatilishi xaridorga riskni kamaytiradi, vaholanki bizning milliy korxonaga kafolat berilishida qo'shimcha xarajat kelib chiqadi.


Keyingi paytda eksport operatsiyalarida hisob-kitoblarning akkreditiv shakli keng tarqalib ketdi. Eksport shartnomalarida akkreditiv hisob-kitob shaklini qo'llanishi eksportyor-korxona uchun qo'shimcha ravishda quyidagi risklarni kamaytiradi:

- ishlab chiqarish va shartnomani bajarish;
- xaridorni to'lovga qobiliyatsizlik riskini;
- siyosiy riskni (xaridor davlatidagi siyosiy vaziyat shartnoma shartini bajarilishiga yo'l qo'ymasligi);
- xaridor davlatida qonunchilikni o'zgarishi oqibatida ma'lum valyuta yoki ma'lum davlatga to'lovni amalga oshirib bo'lmasslik.

Hisob-kitoblarni akkreditiv shaklini ishlatish mexanizmi oddiy bank perevodiga nisbatan odatda juda murakkab hisoblanadi. Bizning mahalliy eksport korxonalar uchun ushbu hisob-kitoblarni ishlatilish mexanizmi quyidagicha amalga oshiriladi.

5.7 -chizma

Eksport shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning akkreditiv shaklini ishlatilishi



So'zsiz ravishda shuni qayd etish lozimki, hisob-kitoblarning akkreditiv shakli xalqaro hisob-kitoblarning ichida eng ishonchlisi hisoblanadi, importyorni va eksportyorni risklarini eng past minimumga kamaytirib beradi.

5.4. SWIFT tizimi orqali xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish

Xalqaro loyihani yaratish tashabbusi 1968-yilda joriy qilingan, uning maqsadi loyiha ishchirokchilariga yuqori darajali nazorat va sanksiyalanmagan foydalanishdan himoyalaniish orqali bank axborotlaridan yuqori darajada ayirboshlash imkoniyatini ta'minlashdan iborat. 1972-yilda bu tashabbus MSP (Message Switching Project - xabarlar ulab berish loyihasi) deb nomlangan loyihaga rasmiylashtirilgan. Aynan shu yili Logis firmasi tomonidan taqdim etilgan hisobotda quyidagi talablar bilan qondiriluvchi bank axborotlarini ayirboshlashning rentabelli tizimini yaratish bo'yicha hisob-kitob va tavsiyalar mavjud bo'lgan:

1. Tizim quyidagilarga asoslanishi lozim:
 - xalqaro tarmoq va tarmoqli xizmat servisini yaratishga;
 - jarayonlarni standartlashtirishga, shuningdek, xabarlarni standartlashtirishga;
 - banklarni tarmoqqa ulanish usullari va jihozlarini standartlashtirish.
2. Bir xabarni uzatish qiymati 0,15 AQSH dollariga teng bo'lganda rentabellikni ta'minlash uchun tizim taxminan 70 bank ishtirokida kuniga 100 mingdan kam bo'lmagan xabarni qayta ishlashi lozim.

3. Tizim ikki mustaqil va bir-biri bilan bog'liq taqsimlash markazlari va tizimni har qaysi ishchitirokchi-mamlakatida aloqa kontsentratorlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu tavsiyalarga asoslangan holda, Yevropa va Shimoliy Amerikaning 15 mamlakatidan 239 bank 1973-yilning mayida Belgiya qonunchiligiga muvofiq S.W.I.F.T. (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication - Butunjahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar jamiyati) kompaniyasini tashkil etdilar.

Telekommunikatsiya tarmoqlari bo'yicha bankning istalgan turdagi xabarlarini tez va xavfsiz uzatish uchun zarur bo'lgan yagona tizim va vositalarni yaratish, foydalanish, qo'llab-quvvatlash va yuritish kompaniyaning maqsadiga aylandi.

Hozirgi vaqtda 190 mamlakatning 7000 dan ortiq yirik banklari va moliyaviy tashkilotlari SWIFTdan foydalanmoqdalar.

SWIFT tarmog'i orqali uzatilayotgan xabarlarining kundalik hajmi umumiy qiymati 5 trillion AQSH dollaridan ko'p bo'lgan 4,9 mln. xabardan ortadi.

SWIFTga ishtirokchi sifatida kirishga da'vogarlik qilayotgan har bir kompaniya uchun maxsus mezonlar belgilangan, unga muvofiq holda u tekshiruvdan o'tadi. Har qaysi kompaniya bilan alohida shartnoma tuziladi, u SWIFTning qanday xizmatlari mazkur shartnomaga targ'ib etilishini belgilaydi. Shartnoma tuzilgandan keyin S.W.I.F.T. xabarlarini aniq, to'liq va vaqtida yetkazib berish mas'uliyatini zimmasiga oladi.

Standart xabarlar. Bank xabarlarini standartini ishlab chiqish va yaratish tizimining asosiy xususiyati shu bilan birga hamjamiyatning yutug'i hisoblanadi. Standartlar Xalqaro standartlar qo'mitasi (ISO), shuningdek, Xalqaro savdo palatsining (ICs) talablarini hisobga holda yaratilgan. Natijada xabar jo'natuvchi va oluvchining o'zaro ta'sirini ma'lum darajada soddalashtiruvchi banklarning moliyaviy va tijorat operatsiyalari to'g'risidagi namunaviy xabarlarga standartlar ishlab chiqilgan.

Barcha turdagi xabarlar umumiy tamoyil bo'yicha tuzilgan. Ular xabarning boshlanish belgisi (Start of Message), sarlavhalar (Header) va matnning boshlash belgisi (Start of Text), xabarning matni (Text of Message) va matnning yakunlanish belgisi (End of Text), o'Ichamlari (Trailer) va xabarning yakunlanish belgisi (End of Message)dan tashkil topgan boshlang'ich qismdan iborat.

Boshlang'ich va yakunlanish qismi, tarmoqda xabarlar harakatini boshqarish uchun muhim bo'lgan ma'lumotni o'z ichiga olgan va xabarlar jo'natiladigan "konert" hosil qiladi.

Sarlavha xabar oluvchining o'n bir xonali kod-identifikatori, jo'natuvchi terminalining kodi, nazorat va himoya vazifasini bajaruvchi joriy besh xonalik raqam, ustunlikning uch xonalik kodi bilan uch xonalik xabar kodini o'z ichiga oladi. O'Ichamlarda

autentifikatsiya va boshqa xabarlar ko'rsatiladi, masalan, bank-oluvchini xabar uzatishdagi ushlanib qolishlar to'g'risida ogohlantirish, ikki tomonlama to'lov imkoniyati to'g'risida ogohlantirish va h. k.

Xabarning yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida S.W.I.F.T.ning barcha foydalanuvchilari tarmoqda manzil hisoblanuvchi identifikator-kodlar (Bank Identifier Codes, BIC) bilan ta'minlanadi.

Identifikator-kodlari quyidagi tarkibga ega:

- moliyaviy tashkilotning butunjahon to'rt xarfli kodi; ISO standartlariga muvofiq holda mamlakatning ikki xarfli kodi;

- moliyaviy tashkilot joylashgan joyining ikki xarfli kodi (mamlakat ichida geografik bo'linish ehtimoli bor, ya'ni shahar, viloyat yoki muqobil hudud);

- uch xarfli yordamchi kod (S.W.I.F.T. foydalanuvchisi hisoblanmaydigan moliyaviy tashkilotlar uchun BICning xarfli kodi keltiriladi);

- S.W.I.F.T. foydalanuvchilari uchun uch xarfli kod uning mamlakatdagi muayyan joylashgan joyini identifikatsiya qilish uchun foydalanilishi mumkin.

Xabarning matni qat'iy tartiblashtirilgan va ikki xonali raqamli kod bilan belgilangan maydonlardan biridan tashkil topgan. Axborot maydonga qat'iy davomiylikda kiritiladi, bunda maydonlar to'ldirish uchun majburiyatli va majburiyatsiz bo'ladi. Xabar matnining asosiy qismini rasmiylashtirilgan (raqamli kod bo'yicha) to'lov topshiriqlari, to'lovni tasdiqlash va boshqa moliyaviy hujjatlardan tashkil topgan.

S.W.I.F.T. tarmoqlari standartlarida, har qanday bank operatsiyalarini bir xilda "kodlashtiradigan" uzatilgan xabarlar toifasi, guruhi va turi qat'iy belgilangan.

Odatda, xabarlar bir bankdan boshqasiga uzatiladi, biroq alohida guruhga ajratilgan S.W.I.F.T. tizimli xabarlarining toifasi mavjud. Tizimli xabarlar yuqori ustunlikka ega, chunki tizimning amal qilishiga taalluqli.

Standartlar va S.W.I.F.T. texnologiyasi xabarlarni avtomatik tarzda qayta ishlash uchun amaliy dasturlarni yaratish imkoniyatini namoyon etadi. Shunga ko'ra, unumdorlik ortadi va xabarlarni qo'lda qayta ishlash xarajatlari kamayadi.

Xabarlar real vaqt tartibida yetkaziladi, chunki ularning haqiqiyliги tekshirilishi va tasdiqlanishi to'liq avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Tarmoqning tarkibi. S.W.I.F.T. tamog'i operatsion markazlar, faol tizimlar, mintaqaviy protsessorlar (xabarlarning konsentratlari) va aloqa manbalaridan tashkil topgan ma'lumotlarni uzatish tizimini namoyon etadi. Operatsion markazlar tizim va uning monitoringini boshqirish, tashxis ma'lumotlarini to'plash va uzilishdan so'ng tarmoq elementlarining qayta tiklanishi amalga oshiriladi.

S.W.I.F.T. tarmog'i to'rt bosqichli arxitektura asosida tuziladi va tizimli boshqariluvchi protsessor bilan boshqariladi.

Birinchi bosqich – tarmoqqa tayyorlash uchun foydalanilgan foydalanuvchining terminali.

Ikkinchi bosqich – foydalanuvchilardan xabarlarni olish va ularning guruhli protsessorida birlamchi qayta ishlashga tayyorlash maqsadida ularning dastlabki tekshiruvi uchun mintaqaviy protsessorlar. Mintaqaviy protsessor guruhli protsessorning yo'riqnomasini qayta ishlaydi, xabarlarni jo'natadi va foydalanuvchilar bilan lokal aloqani nazorat qiladi. Bu barcha vazifalarni 100%li nusxalashtiruvchi to'liq avtomatlashtirilgan tizimlardir. Jihozlarning tavsiflari qayta ishlanadigan abarlarning hajmi va ulangan terminalar soniga bog'liq.

Uchinchi bosqich – guruhli protsessor. Agar S.W.I.F.T. tizimi bir necha amaliy mustaqil modullar guruhidan tashkil topgan tuzilma negizida qurilgan bo'lsa, guruhli protsessor xabarlarning saqlanishi, so'rov bo'yicha izlashlar, axborotlarni manzillarning mintaqaviy protsessorlari bo'yicha taqsimlanishi, tizimli hisobotlarni uzoq muddatli arxivlashtirish va generatsiyalashni ta'minlaydi.

To'rtinchi bosqich – faqat nazorat vazifasini bajarish va butun tizimni boshqaruvchi tizimli boshqaruvchi protsessor. Tizimning yuqori darajasida xxxabarlar qayta ishlanmaydi.

Ma'lumotlar himoyasini ta'minlash. S.W.I.F.T. tizimida xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi, bu xalqaro bank tarmog'i taqdim etgan xizmatlarning sifatini belgilaydi. S.W.I.F.T. jamiyatda, ma'lumotlarni himoyalash, xavfsizlik choralari ishlab chiqish va takomillashtirishdagi zaif tomonlarni izlash bilan shug'ullanuvchi bosh inspektor boshqaruvi mavjud. Xavfsizlik bo'yicha tabiiy va mantiqiy choralarining uyg'unlashuvi, shuningdek,

turli shifrlashtirish turlarini tatbiq etish xabarni S.W.I.F.T. tarmog'i bo'yicha uzatish jarayonida xabarlarining o'zgarishi ehtimolini ogohlantiradi. Xabarni jo'natuvchi va oluvchidan tashqari hech kim uning mazmunini o'qiy olmaydi.

Terminal bilan ulanish protsedurasiga, ayniqsa, qat'iy choralar ko'rsatiladi. Tizim har bir foydalanuvchi uchun alohida sirli kodga (har gal yangi kalitlar to'plami tanlanadi) ega nazorat tizimli xabarni tahlil qilish asosida har qaysi ulangan terminalni aniqlashi lozim. Bu kalitlarni almashtirish protsedurasida deb ataladi. Faqat aniqlash tasdiqlanganidan so'ng tarmoqda terminallar ro'yxatga olinadi. Hamma kod va kalitlar mikroprotessorli kartalar (MK) yordamida S.W.I.F.T. terminalga kiritiladi. Himoyalani choralardan biri qator holatlarda tizimning terminallarni avtomatik tarzda o'chirishi hisoblanadi: tizimga kirish protsedurasidagi xatolar, kod yoki xabar o'lchami noto'g'riligi, uzatishdagi ko'p martalik xatolarda to'siqlar aniqlanganida yoki kanalidagi uzilishlarda va h.k. Barcha terminalni o'chirish holatlari maxsus faylda tizim tomonidan avtomatik tarzda ro'yxatga olinadi.

Undan tashqari, yuqori xavfsizlik darajasi quyidagi protseduralarni ta'minlaydi:

- tizimdagi har bir xabar S.W.I.F.T. vositalarida kuzatiladigan o'zining kirish va chiqish raqamlarini oladi;
- xabar matni maxsus qurilmalar yordamida shifrlanadi;
- foydalanuvchiga xabarlar almashish to'g'risida hisobotni avtomatik yaratish va yo'naltirish tizimi;
- har bir xabar maxsus autentifikatsiya kaliti bilan tasdiqlanadi;
- protseduralardan birortasida xatoga yo'l qo'yilsa, terminalning avtomatik tarzda o'chirilishi yuz beradi.

S.W.I.F.T. tarmog'ining talablariga ko'ra, barcha tizimdan foydalanuvchilar quyidagi toifalarga bo'linadi (bajariladigan vazifalarga muvofiq holda):

- ilovalardan foydalanuvchilar;
- xabarlarini jo'natishga mas'ul foydalanuvchilar va ma'lumotlar bazasi ilovalari bilan ishlovchilar;
- "kun yakuni" operatsiyalarini bajaruvchi va hisobot va arxivlarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi S.W.I.F.T. tarmog'i bilan seanslarni ochish va yopilishini boshqaruvchi operatorlar;

- tizim ma'murlari.

Har bir toifadan foydalanuvchilar faqat unga ruxsat etilgan elektron interfeyslar guruhidan foydalanishlari mumkin.

Toifalar ichida foydalanuvchilarning afzalliklarini cheklash vositalari axborotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar bo'lib xizmat qiladi. Undan tashqari, tizimda tizimli uzilishlardan himoya qilish uchun axborotlarni zaxirali nusxalashtirish ko'zda tutilgan. Aynan shu maqsad uchun disklarning nusxalashtirilishi, shuningdek, asosiy majmuaning barcha tranz aksiyalarini nusxalashtirish uchun zaxirali terminal majmualar ham qo'laniladi.

S.W.I.F.T. taqdim etgan barcha imkoniyat va ustunliklardan samarali foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan apparat dasturiy interfeyslar zarur. Hozirgi kunda xalqaro moliyaviy operatsiyalari tizimga xizmat ko'rsatuvchi tarmoq uchun terminal majmualarni taklif etuvchi 100 dan ortiq firma hisobga olingan. S.W.I.F.T. jamiyati mazkur tarmoqda ishlash uchun sertifikatlashtirilgan terminalli majmualarni muntazam nashr etadi. S.W.I.F.T. terminali – bu, tarmoq bilan aloqa uchun ma'lum almashish bayonnomasidan foydalanuvchi pochta bekatlaridir.

Banklararo hisob-kitoblar texnologiyasi. Banklararo hisob-kitoblar tizimi bank operatsiyalarining quyidagi toifalari bajarilishini ta'minlaydi:

- mijoz o'tkazmalari;
- bank o'tkazmalari;
- valyuta operatsiyalari;
- hujjatli operatsiyalar.

Operatsiyalarning ushbu toifalari doirasida ISO tasnifi bo'yicha muvofiq xabarlar toifasi tayyorlanadi va qayta ishlanadi.

Hozirgi kunda 70 dan ortiq turdagi xabarlarning 7 ta toifasi aniqlangan. Xalqaro hisob-kitoblar va to'lovlar bo'limida banklar zanjiri aniqlanadi, ular orqali to'lov amalga oshiriladi, elektron shakldagi xabarlar to'ldiriladi va uzatiladi, qayta ishlangan xabarlar arxivatsiyalanadi va aniqlanmagan xabarlar qayta ishlanadi.

Mijozlik to'lov topshiriqlari (Customer Transfer) tijorat banki mijozlaridan, uning sho'balari mijozlaridan yoki valyuta korrespondentlik hisoblariga (scheta LORO) ega boshqa banklarning mijozlaridan, shuningdek, bank buxgalteriyasidan kelib tushishi mum-

kin. Muvofiq tarzda dastlabki hujjatlar qog'oz blankalarda, korrespondent bankdan pochta orqali, elektron shaklda yoki teleks ko'rinishida sho'ba va korrespondent – bankdan, shuningdek, bank buxgalteriyasi buyrug'i ko'rinishida kelib tushishi mumkin. To'lov topshiriqnomasi mijozlik operatsiyalari bo'limi operatsiyalarni bajaruvchilar tomonidan qabul qilinadi.

Har bir operatsiya bajaruvchi o'zining mijozlari guruhiga xizmat ko'rsatadi. U mijoz bo'limidagi namunalar bilan imzo va muhrlarni solishtiradi, agar ular to'g'ri bo'lsa, mijoz hisobi saldosi tekshiradi. Agar topshiriqnomalar ro'yxatga olinsa, quyidagi maydon to'ldiriladigan uning elektron shakli yaratiladi: to'lov topshiriqnomasining raqami va sanasi, xabar turi, to'lov valyutasi va qiymati, mijoz - o'tkazmani bajaruvchi. Valyuta kodi va mijozning nomi (mijozning hisob raqami bo'yicha) ma'lumotnoma fayllariga kiritiladi yoki qo'lda to'ldiriladi, bunda ma'lumotnomaga kiritilgan kodning mavjudligi tekshiriladi. Xabar "ro'yxatga olindi" belgisi bilan ma'lumotlar bazasiga kiritiladi, bir vaqtning o'zida buxgalteriya o'tkazmalari ma'lumotlari yozuvi memorial order avtomatik tarzda shakllantiriladi. Operatsiya bajaruvchi shakllantirilgan o'tkazmalarning to'g'riligini nazorat qilish, tuzatishlar kiritish va qo'shimcha o'tkazmalarni qo'shish imkoniyatiga ega. Debetlanayotgan qiymatlar mijozning hisobida blokka olinadi.

Ro'yxatga olingandan so'ng to'lov topshiriqnomasi korrespondentlik hisoblari bo'limiga jo'natiladi. Operatsiyani bajaruvchi to'lov topshirig'ini ixtiyoriy matnli sharh bilan birga olib borish imkoniga ega. Keyinroq mijozlik to'lov topshiriqnomasi korrespondentlik hisoblari orqali o'tadi. NOSTRO hisobida mablag'lar mavjudligini bashoratlash asosida qog'oz va elektron hujjatga kiritiladigan to'lov uchun valyutalashtirish sanasi belgilanadi, shundan so'ng to'lov topshiriqnomasi xalqaro to'lov bo'limiga yuboriladi.

Xalqaro hisob-kitoblar va to'lovlar bo'limida operator tomonidan bank ma'lumotlari bo'yicha bank zanjiri aniqlanadi, u orqali, agar xabar oluvchi korrespondentga mos kelmagan holatda to'lov bajariladi.

Nazoratchi hujjatni operatorga tuzatish uchun qaytarish imkoniyatiga ega. Bunda nazoratchi sharhlash maydoniga muvofiq matnni kiritgan holda qaytarish sababini tushuntiradi. Agar xabarda

xato mavjud bo'lmasa, u S.W.I.F.T. ga berish uchun yo'naltiriladi. Xabar janatilgani to'g'risidagi xabar kelganidan so'ng S.W.I.F.T. tarmog'ida xabarga "arxiv" nufuzi beriladi. Tasdiq to'lov topshiriqnomasi asosida shakllantirilgan buxgalteriya o'tkazmalarini bajarish uchun asos hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro hisob-kitoblar tushunchasiga izoh bering.
2. Xalqaro hisob-kitoblar shakllari nima?
3. Tijorat banklarida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun qanday listenziyalar beriladi?
4. Hisob-kitoblar turlari tuzulmasini aytib bering.
- 5 O'zbekistondagi tijorat banklari hisob-kitoblarini sanab va tushuntirib bering.
- 6 S.W.I.F.T. tuzulmasini aytib bering.

VI BOB. BANKLARNI TARTIBGA SOLISH

Reja:

6.1 Xalqaro bank faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va zaruriyati. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi va uning funksiyalari.

6.2 Bazel qo'mitasining bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha asosiy talablari va ularning rivojlanishi.

6.3 Bazel-III talablarini joriy etish bosqichlari.

6.4 Moliyaviy barqarorlikni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar.

Tayanch iboralar:

Korxona, oborot mablag'i, operatsiyalar, kredit, mulk, bank, islohatlar, samaradorlik ko'rsatgichlari, trast, vositachilik vazifalari, manbalari, kreditor, debitorlar va barqaror passivlar.

6.1. Xalqaro bank faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va zaruriyati. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi va uning funksiyalari

Ma'lumki, moliyaviy bozorlarning globallashuvi nazorat organlarining o'zaro munosabati va xalqaro darajada axborot almashinuvi bo'yicha yangi vazifalarni yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan, bank nazorati sohasida boshqa moliyaviy bozorlarda bo'lgani kabi qator xalqaro standartlar ishlab chiqilishi va joriy qilinishi lozim.

Xalqaro bank nazoratining quyidagi ikkita asosiy maqsadi mavjud:

1. Kredit institutlari xususiy kapitali miqdori va sifatiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish.

2. Bank tavakkalchiliklarini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha talablar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Banklarni tartibga solish va nazorat qilish jarayoniga aktiv ta'sir qiluvchi – xalqaro standartlarni joriy qiluvchi muhim tashkilot bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasidir (BNBQ).

Qo'mita 1974-yilda G10 davlatlari markaziy banklari tomonidan (Belgiya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya,

Lyuksemburg, Niderlandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va AQSH) Shveytsariyaning Bazel shahrida Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements) qoshida tashkil etilib, dastlabki hujjatni (Concordat on cross-border supervision) 1975-yilda chop qildi. Bazel qo'mitasi o'zi ishlab chiqadigan standartlarni boshqa xalqaro me'yorlarni ishlab chiquvchi tashkilotlarning talablariga muvofiqlashtirish maqsadida jahonning ko'plab tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (BNBQ), asosan, quyidagi hujjatlari bilan mashhur:

Nazorat bo'yicha xalqaro kelishuv (Concordat on cross-border supervision 1975).

- Bazel I (1988).
- Bozor tavakkalchiligi bo'yicha tuzatish (Market risk amendment 1996).
- Bazel II (2004).
- Bazel 2. 5 (2009).
- Bazel III (2010).
- Samarali bank nazoratining asosiy tamoyillari (Core Principles for effective Banking Supervision (revised 2010))

1988-yilda bank kapitalining yetarililigini baholash tizimi bo'lgan "Kapitalni hisoblash va kapital standartlari bo'yicha xalqaro konvergentsiya" (Bazel I) hujjatini ishlab chiqish BNBQ faoliyatida muhim qadam bo'ldi. Tijorat banklari ustidan nazorat qilish standartlari Qo'mitaning "Bank faoliyati ustidan samarali nazoratning asosiy tamoyillari" (Bazel tamoyillari) nomli tavsiyaviy tusga ega bo'lgan hujjatda o'z aksini topgan.

BNBQ Bazel I standartining asosiy tamoyillarini ishlab chiqishda quyidagilarga asoslandi:

1) nazoratning asosiy maqsadi moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash va unga ishonchni oshirish, pirovardida omonatchilar va kreditorlarning yo'qotish tavakkalchiligini eng past darajaga tushirish;

2) nazorat organlari tomonidan yuqori malakali korporativ boshqaruvni rag'batlantirish hamda ochiq bozorni va nazoratni rivojlantirish orqali bozor intizomining ta'minlanishiga imkon yaratilishi zarur;

3) nazorat organi o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun operativ mustaqillikka ega bo'lishi, kuzatish, shuningdek joyida tekshirish o'tkazish yo'li bilan tegishli ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatiga ega bo'lishi, shu bilan birga o'z qarorlariga majburiy tus berish vakolatiga ega bo'lishi lozim;

4) nazorat organlari bank faoliyatining mohiyati to'g'risida yaxshi tasavvurga ega bo'lishi va imkoni boricha nazoratidagi banklar o'zlari qabul qilayotgan tavakkalchiliklarni boshqarishiga erishishi lozim;

5) samarali nazorat quyidagilarni, ya'ni alohida banklar tomonidan qabul qilinayotgan tavakkalchiliklar miqdori va xarakteri baholanishini va bu baholarga nazoratning xususiyati mos kelishini talab qiladi;

6) nazorat organlari quyidagilarga ishonch hosil qilishi lozim: bank o'zi qabul qilgan tavakkalchiliklarga mos ravishda resurslarga ega bo'lishi, xususan kapital yetariligi, yuqori malakali boshqaruv hamda nazorat va hisob tizimini shakllantirish;

7) nazorat organlari o'zaro uzviy hamkorlikda ishlashi zarur.

Bazel I hujjati regulyatorlar (aksariyat davlatlarda Markaziy bank) tomonidan banklar ustidan nazoratning unifikatsiyalashgan umumjahon tizimini yaratishda asos vazifasini bajardi.

Mamlakatimizda 1998-yilda Bazel qo'mitasining mazkur tavsiyalari hamda xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar majmuyi ishlab chiqildi.

Tijorat banklarini ro'yxatga olish va litsenziya berish qoidalarini, bank kapitalining yetariligi va likvidligiga qo'yilgan talablarni, aktivlar sifatini tasniflash va ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi xazinalar yaratish talablarini, banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga qo'yilgan talablar hamda bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasini belgilovchi me'yoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

6.2. Bazel qo'mitasining bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha asosiy talablari va ularning rivojlanishi

Bank kapitalining yetarililigini baholashning yangi yondashuvlarini rivojlanishi natijasi o'laroq, 2004-yil 26-iyunda bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangilangan hujjati – Bazel II qabul qilindi.

Bazel II standartlari bank tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini va bank nazorati tizimini rivojlantirishga qaratilgan va samarali bank nazoratining eng muhim tamoyillarini amalga oshirishning ahamiyatli elementlarini o'z ichiga oladi. Bazel II hujjati uchta asosiy komponentga (Pillar 1,2,3) bo'lingan. Ularning birinchisi (Pillar 1) kapital yetarililigiga qo'yilgan eng kam talablarni o'rnatadi; ikkinchisi (Pillar 2) bankning kapital yetarililigini nazorat qilishni tashkil etishga qaratilgan; uchinchisi (Pillar 3) esa bozor intizomiga rioya etish, transparentlik tamoyilini yo'lga qo'yish va banklar tomonidan qabul qilinadigan tavakkalchiliklarni ochib berish bo'yicha masalalarga bag'ishlangan. Shuningdek, Bazel II hujjati kredit tavakkalchiligiga alohida (standartlashgan, ichki reytingga asoslangan) yondashuvlarni taklif etadi.

Jahon hamjamiyatida Bazel II standartlari 2006-yil dekabr oyida rasmiy kuchga kirdi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi 2007–2008-yillardagi jahon moliyaviy inqirozidan olingan saboqlar natijasida dastlab 2009-yil dekabr oyida "Bank sektorini barqarorligini oshirish" maslaxat hujjatini (Consultative document), keyinchalik, aniqrog'i 2010-yil dekabrda Bazel III: likvidlilik tavakkalchiligini hisoblash, mezonlar va monitoring bo'yicha xalqaro standartlarni (Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring) va yanada barqaror banklar va bank tizimini tartibga solishning global standartlarini (Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems) chop etdi.

BNBQga ko'ra, Bazel III standartlarining ikkita asosiy maqsadi mavjud:

➤ yanada barqaror bank tizimini shakllantirish maqsadida bank kapitali va likvidligini boshqarish bo'yicha xalqaro me'yorlarni takomillashtirish;

➤ bank sektorining moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatini yaxshilash, pirovardida bunday muammolarni iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan real sektoriga o'tish tavakkalchiligini kamaytirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun Bazel III standartlari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha bo'linadi:

1. Kapitalni isloh qilish (shu jumladan, kapitalning sifat va miqdori, barcha tavakkalchiliklarni inobatga olish, qarz yuki koeffitsiyentini, konservatsiya va kontrsiklik bufer kapitali tushunchalarini joriy etish).

2. Likvidlilikni isloh qilish (qisqa (LCR) va uzoq (NSFR) muddatli).

3. Moliyaviy tizimni barqarorligini takomillashtirishga qaratilgan boshqa elementlar.

Mamlakatimizda bank tizimini tartibga solish va nazorat qilishni xalqaro tan olingan andozalarga mos ravishda takomillashtirish maqsadida doimiy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston bank tizimida kapitalning yetarililik darajasi tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblangan faoliyatlarning 23,7 foizini tashkil etmoqda. Bu bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan standart ko'rsatkichidan qariyb 3 baravar ko'pdir.

2010-yil 26-noyabrda "2011–2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-son qarori qabul qilinib, unda moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, shuningdek, Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq tijorat banklarini yanada kapitallashtirish va likvidligini oshirish, respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha tijorat banklari "Fitch Reytings", "Mudis" va "Standard & Poor's" kabi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining "barqaror" baholariga ega. Ta'kidlash joizki, respublikamizning yetakchi banklari – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Asaka bank", "Ipoteka-bank", "O'zsanoatqurilishbank",

“Agrobank” va “Ipak yo‘li” banki bir yo‘la ikkita yetakchi xalqaro reyting agentliklarining “barqaror” reyting baholarini olgan.

Yurtimizda bank nazorati samarali yo‘lga qo‘yilganligining xalqaro hamjamiyat tomonidan ham tan olinishi mamlakat bank tizimiga bo‘lgan ishonchni oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Binobarin, 2015-yilning aprel va may oylarida yurtimizda bo‘lgan Xalqaro valyuta jamg‘armasi missiyasi “O‘zbekiston iqtisodiyoti Yevropa va Rossiyadagi iqtisodiy faollikning sustligi, shuningdek, neft narxining pastligi bilan izohlanadigan qiyin tashqi sharoitda ham o‘z barqarorligini namoyon etmoqda. Pul-kredit siyosati ham moslanuvchanlik darajasida saqlanib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2014-yilning yanvar oyidan asosiy stavkani, qayta moliyalashtirish stavkasini 12 foizdan 9 foizga tushirdi. Iqtisodiyotda kreditlar hajmi yuqoriligicha qolmoqda.

Bank sektori barqarorlik, izchil kapitallashuv va yuqori likvidlilik darajasini saqlab qolmoqda. 2014-yilda garov ta‘minotini ro‘yxatga olishning markazlashtirilgan tizimi joriy etilgani moliyaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish imkonini berdi”, deb bayonot berishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

6.3. Bazel-III talablarini joriy etish bosqichlari

Mamlakat bank tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash masalasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi. 2015-yil 6-maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2344-son qarorining qabul qilinishi bilan yurtimiz bank tizimini rivojlantirishning kelajakdagi rejalari belgilab berildi.

Xususan, mazkur qaror bilan Markaziy bankka bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining Bazel III standartlarini 2015–2019-yillarda bosqichma-bosqich joriy etilishini ta‘minlash yuklatildi.

Jumladan, quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi banklarning likvidlilikini va kapital monandligini, shuningdek, ularni boshqarish usullari va mexanizmlarini belgilovchi me‘yoriy talablarni Bazel III standartlari asosida yanada takomillashtirish vazifasi berildi:

➤ yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanuvchi likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyentini (LQMK – LCR) joriy qilish va unga minimal talabni 100% miqdorida belgilash;

➤ barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati sifatida aniqlanuvchi sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentini (SBMMK – NSFR) joriy qilish va unga eng kam talabni 100% miqdorida belgilash;

➤ kapital tarkibini o'zgartirishni joriy qilish va regulativ kapital monandlik koeffitsiyentining eng kam miqdorini 10%dan 14,5%ga bosqichma-bosqich oshirish;

➤ tavakkalchilikka tortilgan jami aktivlarning 3%dan kam bo'lmagan miqdorda konservatsiya buferi tashkil qilinishini hisobga olgan holda birinchi darajali kapital monandlik koeffitsiyentining eng kam miqdorini 5%dan 11%ga bosqichma-bosqich oshirish;

➤ kapital monandligini aniqlash maqsadida operatsion va bozor tavakkalchiliklarini baholash usullarini takomillashtirish.

Shuningdek, qarorda BNBQ tavsiya qilgan "Samarali korporativ boshqaruv tamoyillari"ni bank faoliyatiga joriy qilish hamda yillik va oraliq moliyaviy hisobotlarni banklarning veb-saytlarida joylashtirish va bank siri to'g'risidagi qonunchilik doirasida boshqa yo'llar bilan bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiqligini (oshkoraligini) yanada oshirish belgilangan.

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, Markaziy bank tomonidan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining xalqaro ekspertlari bilan birgalikda respublika bank nazoratiga oid me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlar, shu jumladan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirilmoqda.

2015-yil 6-maydagi PQ-2344-son qarori doirasida Markaziy bankning ayrim nizomlariga o'zgartirishlar kiritildi, ayrimlari esa tubdan qayta ko'rib chiqilib, yangi tahriri qabul qilindi. Jumladan, quyidagi me'yoriy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, Bazel qo'mitasi talablari asosida qayta qabul qilindi:

Markaziy bank tomonidan "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom ishlab

chiqilib, Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Xususan, bankning I darajali kapitali (T1 –Tier 1) ikki qismga, ya'ni I darajali asosiy kapital (CET1 –Common equity Tier 1) va I darajali qo'shimcha kapitalga (AT1 –Additional Tier 1) bo'lindi. I darajali asosiy kapital (CET1) regulyativ kapitalning (TC – Total capital) 60 foizidan kam bo'lmasligi hamda I darajali kapital (T1) regulyativ kapitalning (Ts) 75 foizini yoki undan ko'pini tashkil etishi kerakligi belgilangan.

Bank I darajali asosiy kapitali tarkibiga to'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda va devalvatsiya zaxirasi kiritilgan. Shuningdek, barqaror kapital bazasini shakllantirish maqsadida, regulyativ kapitaldan qilingan chegirmalar I darajali kapitaldan chegiriladi.

Bank kapitalini oshirish maqsadida hamda Bazel III tavsiyalariga muvofiq, har bir bankda moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelganda, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun jami aktivlarning 3%dan kam bo'lmagan miqdorda konservatsiya buferi tashkil qilinishini hisobga olgan holda bankning regulyativ kapitalini, I darajali kapitalini va I darajali asosiy kapitalini yilma-yil oshirib borishi ko'zda tutilgan.

Jumladan, 2016-yil 1-yanvardan boshlab regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti (K1)ning eng kichik darajasi 0, 115 (11,5 %) miqdorida belgilangan bo'lib, banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3%i miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda ushbu ko'rsatkich 2017-yil yanvardan 0,125 (12,5 %), 2018-yil 1-yanvardan 0, 135 (13,5 %) va 2019-yil 1-yanvardan boshlab K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 %) miqdorida ta'minlashlari lozim.

6.1-jadval.

O'zbekistonda tijorat banklari likvidligiga hamda kapital yetarliligiga qo'yilgan talablarning kuchga kirish sanasi⁵⁰.

Ko'rsatkichlar	Kuchga kirish sanasi				
	01. 09. 2015	2016	2017	2018	2019
Regulyativ kapital, (K1)*	10%	11,5%	12,5%	13,5%	14,5%
I darajali kapital, (K2)*	7,5%	8,5%	9,5%	10,5%	11%
I darajali asosiy kapital	6%	7%	7,5%	8,5%	9,5%
Leveraj koeffitsiyenti, (K3)	6%	6%	6%	6%	6%
Joriy likvidlik koeffitsiyenti, (JLK)	30%	30%	30%	30%	30%
Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti, (LQMK)		80%	90%	100%	100%
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti, (SBMMK)				100%	100%

*kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda.

Kapitalning monandlik darajasi talablari bilan bir qatorda banklar I darajali kapitalni nomoddiy aktivlarni chegirib tashlangan holda balansdan tashqari vositalar va hosilaviy (derivativ) vositalar qo'shilgan umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadigan leveraj koeffitsiyentiga (Leverage ratio) rioya etishlari kerak.

Ya'ni:

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

$K3 = I$ darajali kapital / (Umumiy aktivlar+Balansdan tashqari vositalar + Hosilaviy (derivativ) vositalar — Nomoddiy aktivlar).
Leveraj koeffitsiyentining eng kichik darajasi 0,06 (6 %)ga teng.

“Tijorat banklarining likvidiligidini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom Markaziy bank Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-son qaroriga asosan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nizomdagi asosiy o'zgarish sifatida joriy likvidlilik koeffitsiyentidan (JLK) tashqari 2016-yil 1-yanvardan boshlab likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LQMK – LCR (Liquidity Coverage Ratio)) hamda 2018-yil 1-yanvardan boshlab sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentining (SBMMK -NSFR (Net Stable Funding Ratio)) joriy etilishini qayd etish lozim. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagicha hisoblanadi:

a) $JLK = \text{Joriy aktivlar} / \text{Joriy majburiyatlar} * 100\% \geq 30\%$

Bunda,

joriy aktivlar - to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan bankning likvidli aktivlari va qo'yilmalari, bundan muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o'tgan kreditlar mustasno;

joriy majburiyatlar - talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar.

b) $LQMK = \text{Yuqori likvidli aktivlar} / \text{Keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim} * 100\% \geq 80\%$

LQMK 2017-yil 1-yanvardan boshlab 90%dan, 2018 yil 1 yanvardan boshlab 100%dan kam bo'lmashligi lozim.

v) $SBMMK = \text{Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi} / \text{Barqaror moliyalashtirishning zarur summasi} * 100\% > 100\%$

Bunda,

Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi:

- bank reguliyativ kapitali;

- amaldagi qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo'lgan bank majburiyatlari;

- qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag'lari summasining 30%i;

- qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa depozitlar va qarz mablag'lari summasining 30%i;

Barqaror moliyalashtirishning zarur summasi:

- qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan, muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (yer uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtoulavlar);

- sud jarayonida bo'lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

- qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa aktivlar summasining 30%i, qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan yoki muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;

- balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarning 15 %i.

3. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom Markaziy bank Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Mazkur nizomda aktivlarni tasniflash toifalarining nomlari jumladan, "yaxshi" kreditlar – "standart" kreditlarga, "standart" kreditlar – "substandart" kreditlarga, "substandart" kreditlar – "qoniqarsiz" kreditlarga o'zgartirilgan.

Banklar soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan foyda hisobidan ushbu nizom kuchga kirgan sanadan e'tiboran ajratilib, hisobot sanasiga "standart" sifatida tasniflangan kreditlar (aktivlar) qoldig'iga 1 % miqdorida zaxiralar tashkil qilinishi joriy qilindi.

Mazkur zaxira bank kapitali tarkibida yaratiladi va bu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Nizomda tijorat banklari tomonidan korxonalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarini tasniflashning aniq omillari ko'rsatilgan. Jumladan,

- oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – "qoniqarsiz" sifatida;

- oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – "shubhali" sifatida;

- oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya – "umidsiz" sifatida tasniflanadi.

Yuqorida keltirilgan qoidalarining joriy qilinishi tijorat banklari tomonidan muddati o'tgan, sud jarayonidagi kreditlarni undirish va bank balansiga olingan mol-mulkarni sotish bo'yicha choralarni yanada kuchaytiradi va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish imkoniyatini yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishi ta'minlanadi.

Shu bilan birga PQ-2344-son qaror doirasida Markaziy bankning "Tijorat banklarining korporativ boshqaruvi to'g'risida"gi nizomiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qayd etish lozimki, Bazel qo'mitasi tijorat banklarini nazorat qilishning samarali yo'nalishlarini belgilovchi boshqa me'yorlarni ham ishlab chiquvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Xususan, bank auditini takomillashtirish va uni bank menejmenti hamda nazoratidagi rolini oshirish maqsadida xalqaro amaliyotni o'rgangan holda banklar uchun tavsiya ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni chop etadi.

Jumladan, Bazel qo'mitasi tomonidan 1998-yildan buyon bank ichki audit bo'yicha yangi standartlar joriy qilinib, ularni zamon talablariga mos ravishda yangilab kelinmoqda.

Xususan, Bazel qo'mitasining audit kichik guruhi tomonidan 1998-yil sentabr oyida "Ichki nazorat tizimining standartlari", 2001-yil avgust oyida "Banklarda ichki audit va bank nazorati organining audit bilan aloqalari", 2011-yil dekabr oyida "Banklarda ichki audit xizmati" konsultativ hujjati chop qilingan.

Audit kichik guruhi tomonidan 2011-yil dekabr oyida "Banklarda ichki audit xizmati" konsultativ hujjati hamda unga Bazel qo'mitasiga a'zo davlatlar Markaziy banklari va yirik banklari tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar asosida 2012-yil iyun oyida "Banklarda ichki audit xizmati" deb nomlangan yakuniy hujjatni chop etdi.

Mazkur hujjat quyidagi uch qismga bo'lingan 20 ta prinsipdan tashkil topgan. Birinchi qism "Ichki audit xizmatiga taalluqli nazorat alomatlari", ikkinchi qism "Bank nazorat organi va ichki audit xizmati o'rtasidagi munosabatlar" hamda uchinchi qism "Ichki auditni bank nazorat organi tomonidan baholanishi". Bunday talqin bank muassasalarida kuchli ichki audit xizmatini tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, hujjat bank ichki auditorlarini milliy va xalqaro

professional standartlarga rioya qilish va ularni rivojiga o'z hissasini qo'shishni rag'batlantirib, pirovardida chuqur o'ylangan ichki audit standartlarini va tartiblarini ishlab chiqishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarni qabul qilinishi bilan respublikamiz bank tizimida kapital monandiligi va likvidlilik ko'rsatkichlari hisob-kitobi va ularga qo'yilgan eng kam talablar bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi talablariga muvofiqlashtirildi.

6.4. Moliyaviy barqarorlikni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bir-biriga o'xshash bo'lib tuyulsa-da, ularning har biri asrlar mobaynida tashkil topgan o'ziga xos bank ishi milliy munosabatlari va ularning tarkibiy qismlariga ega. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va ularni barqarorligini ta'minlash borasida har qanday davlat ham o'ziga xos tajribalarga ega. "Hozirgi iqtisodiy inqiroz sharoitida bank tizimining likvidlik riski haqidagi savollar doimo vujudga keladi", - deb ta'kidlaydi iqtisodchi olim Angela Roma bank likvidligi haqida.⁵¹

Jahon banklari amaliyotida ichki va tashqi nazoratni tashkil etishga turlicha yondashuvlar mavjud. Institutsional nuqtayi nazardan bu tizimining tashkiliy tuzilish usullari, Markaziy bankning ushbu tizimdagi o'rni va roli bilan farq qiluvchi uch guruh mamlakatlarini ajratish mumkin:

- ✦ nazorat faoliyati faqatgina Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya.

- ✦ nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birga amalga oshiriladigan mamlakatlar:

AQSH - Federal rezerv tizimi Moliya vazirligi va mutsaqil agentlik - Depozitlarni Sug'urtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) bilan birgalikda;

Shveytsariya - Markaziy bank, Federal Bank komissiyasi bilan birgalikda;

Fransiya - Frantsiya banki, Bank komissiyasi bilan birgalikda;

⁵¹ "The Impact of Bank-specific Factors on the Commercial Banks Liquidity: Empirical Evidence from CEE Countries" by Angela Roma "Procedia Economics and Finance" 2015

Germaniya - Bundesbank, Kredit Nazorati Federal xizmati bilan birgalikda.

Nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan emas, balki boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avstriya, Finlandiya, Norvegiya.

Shunday qilib, bank nazorati obyektiv zarurat ekan, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus organlar ham zarurdir. Ushbu organlar maqomi bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular ichida hamisha davlat organlari mavjud bo'ladi. Shu bilan birgalikda ayrim mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga solish tizimining tashkil topishining amaliyoti tarixiy jihatdan qaralganda shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu jarayonlar turli mamlakatlarda turlichaligidan ko'ra ko'proq umumiy xususiyatlarga ega AQSHda pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul organ bo'lib - Federal Rezerv Tizimi (Markaziy bank) hisoblanadi.

AQSH da banklar faoliyatini nazorat etish va boshqarish bizdan farq qiladi. Bugungi kunda AQSH banklarini boshqarish va ularni faoliyatini nazorat etish quyidagi idoralar tomonidan olib boriladi:

1. Federal rezerv sistemasi.
2. Pul muomalasi nazoratchisi barcha milliy banklarni nazorat qiladi.
3. Depozitlarni sug'urtalovchi Federal korporatsiyasi bank va mijozlar depozitlarini sug'urtalaydi, bankrotlikka uchragan banklarga o'z vakolati doirasida yordam beradi.
4. Adliya vazirligi.
5. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiya.
6. Shtatlardagi bank faoliyati bo'yicha komissiya yoki bank sovetlari yangi banklar ochilishi uchun charterlar beradi va o'z navbatida shtatda charter olgan barcha banklarni doimiy tekshiradi hamda ularni doimiy ravishda nazorat etadi.

Hozirgi kunda AQSHda tijorat banklari faoliyatini tartibga soliq quyidagi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan:

- mamlakat moliya-kredit tizimining barkarorligini qo'llab-quvvatlash;
- bank mijozlarining manfaatlarini himoya qilish;
- muayyan iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turish.

Iqtisodiy me'yorlar tizimini aniqlash va uning bajarilishi ustidan nazoratni Federal rezerv tizimi amalga oshiradi. AQSHda hozirgi kunda iqtisodiy me'yorlar tizimini ishlab chiqishda Bazel bitimining takliflari asos qilib olingan. 1988-yilgacha AQSHda yetarli kapital miqdori barcha aktivlarning 5%i darajasida belgilangan edi. 1988-yildan boshlab kapitalning yetarlilik talablari xatarni hisoblab chamalangan aktivlarning 8% darajasida belgilandi. 1993-yilning 1-yanvaridan boshlab barcha Amerika banklari Bazel bitimi talablariga bo'ysinishga majburligi qonun yo'li bilan belgilab qo'yildi. Xuddi shu tizimga o'xshagan holat Angliya bank tizimi faoliyatiga ham tegishli.

Angliya Bank tizimining o'ziga xos xarakatlaniruvchi asosiy qismi va London pul bozorining asosiy qatnashchilari yirik tijorat banklaridan iborat cheklangan guruh hisoblanadi. Ular jumlasiga, avvalo mamlakatning yirik "katta to'rtlik" banklari: "Lloyds", "Midland", "Barclays" va "National Westminster" kiradi.

Tijorat banklari va kredit-moliya institutlarining faoliyatini tartibga solish Angliya banki tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatni atroflicha tahlil qilish uchun bu sohada qabul qilingan muhim qonun va qarorlarni ko'rib chiqish lozim.

Buyuk Britaniya bank tizimi tarixan ko'p ham nazoratga olinmagan, 1973-74-yillarda bir qator banklarning nisbatan qisqa muddatga mablag'larni jalb qilib uzoq muddatga kredit berishi oqibatida bank tizimi inqirozga uchradi va bu hol 1979-yil bank qonunining qabul qilinishiga asos bo'ldi. Ushbu qonunga muvofiq depozit qabul qiluvchi institutlar ikki toifaga, banklar va litsenziyalangan depozit qabul qiluvchilarga ajratildi. Bank sifatida litsenziya olish uchun muassasalar yetarlicha mablag'larga ega bo'lishi va o'z mijozlariga turli-tuman bank xizmatlari ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Litsenziyalangan depozit qabul qiluvchilar esa bank maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan shartlarga to'liq javob bera olmaydigan, ammo ayrim turdagi bank operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi moliya muassasalari edilar. Ushbu qonunda shuningdek "bank" so'zini faqatgina yetarlicha bank kapitaliga ega bo'lgan hamda banklarga xos ko'p turdagi operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliya muassasalarigina ishlatishi belgilab qo'yildi.

1979-yilgi bank qonuni mayda bank depozitorlari va jamg'armachilarini bank inqirozlaridan himoya qilish maqsadida bank

depozitorlarini himoyalash tizimini ishlab chiqdi. Ushbu AQSHdagi depozitlarni sugurtalash federal korporatsiyasi (DSFK) singari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu tizim a'zo banklarning vakillaridan tashkil topgan Depozitlarni himoyalash boshqarmasi tomonidan boshqariladi va uning boshlig'i Angliya bankining raisi hisoblanadi. Bu boshqarma Depozitlarni himoyalash fondini boshqaradi hamda barcha banklar va depozit qabul qiluvchi muassasalar o'z depozit bazalariga nisbatan 0, 3%, ammo 300,000 funt serlingdan oshmagan miqdorda badal to'lashlari shart.

1981-yilda qabul qilingan "Monetar Nazorat to'g'risidagi nizom"ga binoan bank muassalari va depozit qabul qiluvchilarning likvidligini ta'minlash maqsadida bu muassasalar o'z majburiyatlarning 0,5% ini Angliya bankidagi operatsiyalarda qatnashmaydigan hisob raqamida saqlashlari shart qilib qo'yildi. Shuningdek, ushbu nizomga muvofiq Angliya banki tomonidan uchet stavkalari e'lon qilinmaydigan bo'ldi, ammo bu instrumentni zarur paytda qo'llash huquqi saqlab qolindi. Lekin shunday bo'lsa-da ko'pgina tijorat banklari va depozit qabul qiluvchi muassasalar berayotgan kreditlari uchun foiz stavkasini belgilash jarayonida Angliya Banki tijorat banklariga berayotgan kreditlar uchun belgilaydigan foiz stavkalarini asos qilib olmoqdalar.

Germaniya bank tizimida kredit tizimining turli zvenolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning asosi sifatida universallashtirish tamoyili qo'llaniladi. Unga binoan turli kredit muassasalari moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda bir xil huquqqa egadirlar.

Germaniyada tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vazifasi Bundesbank va Kredit nazorati federal xizmati zimmasiga yuklangan.

Bundesbank faqat birgina real ta'sir vositasiga ega, ya'ni u ham bo'lsa majburiy rezervlashning eng kam miqdorini o'rnatish va tijorat banklari ustidan nazorat qilishning faqatgina ikki instrumentiga ega - bular mablag'larni rezervlash va hisobotlar qabul qilish. Boshqa nazorat funksiyalari Moliya vazirligiga bo'ysinuvchi Kredit nazorati federal xizmati zimmasiga yuklangan.

Germaniyada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari Bundesbankka bank balansi likvidligining ahvoli haqida har oyning oxirida talab etilgan shakllar bo'yicha hisobot topshiradilar.

Fransiya bank tizimi ham dunyodagi eng qadimgi va hozirgi kunda taraqqiy etgan tizimlardan biri sanaladi, shu sababli ham bizningcha uning tajribasini o'rganish foydadan holi emas.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro bank faoliyatini tartibga solish qanday ma'noni anglatadi?
2. Xalqaro Bazel qo'mitasi va bank risklarining qanday bog'liqligi mavjud?
3. Bank aktivlari likvidligini boshqarish strategiyalari nima?
4. Tijorat banki barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.
5. Tijorat banklari likvidlilik riskini boshqarish yo'llari qaysilar?

VII BOB. VALYUTA BOZORI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Reja:

- 7.1 Jahon moliyaviy markazlari va valyuta bozori tushunchasi.**
- 7.2 Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 7.3 Valyuta bozorlarining turlari.**
- 7.4 “Spot” operatsiyalari.**
- 7.5 Muddatli valyuta operatsiyalari. Forward, Fyuchers, Opsion, SWOP operatsiyalari.**

Tayanch iboralar: jahon moliya markazlari, valyuta, fond, kapital va banklararo bozorlar, valyuta bozorlari turlari, asosiy ishtirokchilari, jahon valyuta bozorining konyunktura mexanizmi, texnik va fundamental tahlil.

7.1. Jahon moliyaviy markazlari va valyuta bozori tushunchasi

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tushdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar fuqarolari bo‘lmish yuridik hamda jismoniy shaxslarning pul shaklidagi talablari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning xususiyatli tomoni shundaki, ushbu hisob-kitoblarda baho va to‘lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozircha umum tan olingan hamda barcha davlatlarda qabul qilinishi lozim bo‘lgan jahon kredit pullari mavjud emas. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil mamlakatda qonuniy to‘lov vositasi sifatida uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda davlatlararo to‘lovlardagi muhim shartlardan biri bo‘lib to‘lovchi yoki benefetsiar shaxs tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoxud sotish shaklidagi bir valyutani boshqa bir valyutaga ayirboshlanishi hisoblanadi.

Jahon valyuta, kredit, moliya va sug‘urta bozorlari shartnomaning obyektu pul kapitali hisoblangan bozor munosabatlarining o‘ziga xos jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Ular xalqaro iqtisodiy

munosabatlarning rivojlanishi asosida shakllangan. Amal qilish nuqtayi nazaridan ushbu bozorlar takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida jahon miqyosidagi moliyaviy oqimlarning to'planuvi hamda ularning qayta taqsimotini ta'minlovchi bozor munosabatlarining tizimi bo'lib xizmat qiladi. Institutsional nuqtayi nazardan esa jahon moliyaviy oqimlari ular orqali amalga oshadigan banklar, ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari hamda fond birjalari yig'indisidan iboratdir.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining obyektiv asosi bo'lib amaldagi kapitalning doiraviy aylanish qonuniyatlari hisoblanadi. Jahon bozorining ayrim uchastkalarida vaqtincha bo'sh bo'lgan kapitallar paydo bo'lsa, uning boshqa bir joylarida mazkur kapitallarga doimiy talab paydo bo'ladi. Kapitalning harakatsizligi uning tabiati va bozor qonuniyatlariga ziddir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari ushbu qarama-qarshilikni umumjahon xo'jaligi miqyosida hal etadilar. Vaqtincha bo'sh bo'lgan pul kapitallari bozor mexanizmi yordamida takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va tadbirkorlarga foydani ta'minlagan holda kapital doiraviy aylanishi jarayoniga yana jalb etiladi. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari taalluqli milliy bozorlar negizida paydo bo'lgan va milliy bozorlar ular bilan yaqindan munosabatdadir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlariga quyidagilar xosdir:

- nihoyatda katta masshtablar. Ayrim baholarga qaraganda jahonning valyuta va moliyaviy bozorlaridagi kunlik operatsiyalar hajmi tovarlar bilan jahon savdosi hajmidan 50 marotaba ko'pdir;
- geografik chegaralarning yo'qligi;
- operatsiyalarning uzluksiz, sutka davomida olib borilishi;
- yetakchi davlatlarning valyutalari hamda xalqaro hisob-valyuta birliklaridan foydalanishi;
- ishtirokchilari bo'lib, asosan, nufuzli banklar, korporatsiyalar hamda yuqori reytingga ega moliya-kredit institutlari hisoblanadi;
- ushbu bozorlarga nihoyatda ishonchli yoki salmoqli kafolatga ega mijozlar chiqish huquqiga ega;
- moliyaviy xizmatlar jarayonidagi inqilobiy sharoitlarda bozor segmentlari va shartnoma instrumentlarining diversifikatsiyasi;
- o'ziga xos, xalqaro tUSDagi foiz stavkalari;

- EHMning eng yangilaridan foydalanish zaminida qog'ozsiz operatsiyalarni standartlashtirish hamda axborot texnologiyalarining yuqori darajasi.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining obyektiv asosi bo'lib xo'jalik munosabatlari globallashtirishning chuqurlashishi hamda tegishli milliy bozorlarning cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi hisoblanadi. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar hamda oltin bozorlari rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, jahon moliyaviy oqimlari, bozor ishtirokchilariga taklif etilayotgan kreditlar qiymatining hajmi va taqsimotini muvofiqlashtiruvchi raqobat hisoblanadi. Biroq raqobat kurashi hamma vaqt ham samarali va nuqsonsiz emasdir. Shu sababli ushbu jarayonlarni bozor hamda davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi birgalikda olib boriladi. Davlat jahon bozorlari faoliyatiga inqirozli jarayonlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish maqsadida aralashadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi xomashyo manbalari va iste'molchilar bozorlari uchun raqobat kurashining kuchayishi bilan samarali investitsiyalar hamda moliyaviy oqimlar milliy xarakterini yo'qotgan va o'zining kosmopolitik tabiatini ko'rsatgan holda bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga stixiyali asosda oqib o'tadi. Milliy valyuta, kredit va moliyaviy bozorlar o'zlarining mustaqilligini nisbatan saqlab qolgan holda faoliyatlarini to'ldiruvchi hamda milliy iqtisodiyot va pul-kredit tizimlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa shu kabi jahon bozorlari bilan chambarchas bog'lanib ketmoqdalar. Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari o'zlarining katta imkoniyatlari hamda ko'p maqsadlilikining tez o'sishi natijasida xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlar hamda jahon iqtisodiyotining muhim zvenolaridan biriga aylandi.

Milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarining jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ishtiroki quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi:

- mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi tegishli o'rni hamda valyuta-iqtisodiy holati;

- rivojlangan kredit tizimi va yaxshi tashkil etilgan fond birjasining mavjudligi;

- soliqqa tortishning o'rta me'yorligi;

- xorijlik qarz oluvchilarga milliy bozorga chiqish va xorijiy qimmatli qog'ozlarga birja kotirovkasiga kirish imkonini beruvchi imtiyozli valyuta qonunchiligining mavjudligi;

- qulay geografik joylashishi;

- siyosiy tuzumning nisbatan barqarorligi va boshqa shu kabilar.

Yuqorida zikr etilgan omillar xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi milliy bozorlar doirasini cheklaydi. Raqobat kurashi natijasida Nyu-York, London, Lyuksemburg, Frankfurt-Mayn, Singapur va boshqa shu kabi jahon moliyaviy markazlari shakllandi.

Jahon moliyaviy markazlari – xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar hamda oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari to'planuvining markazlaridir. Tarixan ular milliy bozorlar negizida, so'ng esa jahon valyuta, kredit, moliya hamda oltin bozorlari zaminida paydo bo'lgan.

Birinchi jahon urushigacha hukmron moliyaviy markaz bo'lib London hisoblangan. Ushbu Buyuk Britaniyadagi kapitalizmning nihoyatda yuqori darajada taraqqiy etganligi boshqa mamlakatlar bilan keng savdo aloqalari, funt sterlingning nisbiy barqarorligi, mamlakatning rivojlangan kredit tizimi bilan asoslanadi. Turli mamlakatlardan kelgan kapitallar xalqaro savdoning katta ulushini kreditlagan London bozorida to'planar edi. Tashqi savdoni kreditlashning qisqa muddatli vositasi bo'lib, Londonda akseptlangan "sterlingli veksell" xizmat qilgan edi. Xalqaro hisob-kitoblarning 80 foizi funt sterlinglarda amalga oshirilardi.

Birinchi jahon urushidan so'ng mamlakatlar rivojlanishining notekisligi qonunining harakati tufayli yetakchi jahon moliyaviy markazi AQSHga ko'chib o'tdi hamda ushbu mamlakat Londonning xalqaro valyuta, kredit va moliya operatsiyalarida muhim rol o'ynab borayotganligiga qaramasdan XX asrning 60-yillarigacha monopol pozitsiyalarga ega bo'ldi. 60-yillardan boshlab AQSHning jahon moliyaviy markazi sifatidagi monopol holatiga zil ketdi, chunki harbiy Yevropa va Yaponiyada yangi moliyaviy markazlar paydo bo'ldi. Sanoat jihatidan rivojlangan davlatlar asta-sekin cheklovlarini, ayniqsa valyuta cheklovlarini bekor qilgan holda xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi milliy banklarning raqobatbardoshligi va reytingini

o'shish maqsadida ularning faoliyatlarini nomuvofiqlashtirish jarayonini amalga oshirdilar.

AQSH 70-yillarning o'rtalaridan boshlab birinchilar qatorida o'z milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarini erkinlashtirish jarayonini boshladi. 1978–1986-y.y. depozit-ssuda operatsiyalari bo'yicha foiz to'lovlariga bo'lgan cheklovlar asta-sekin bekor qilindi, qaytarib olinguncha omonat turlari bo'yicha foizlar joriy etildi. 1984-yilda AQSHda chiqarilgan va norezidentlarga tegishli obligatsiyalar daromadlariga bo'lgan 30% soliq bekor qilindi. 1981-yilning oxiridan boshlab AQSHda erkin bank hududi tashkil etildi va ushbu hududda xorijiy banklar Amerika soliqlari hamda bank cheklovlaridan ozod etildi. Amerika banklari faoliyatining erkinlashuvi, ularning bankrotlikka uchrashi va to'planuvi moliyaviy innovatsiyalar va sekyuritizatsiya rivojiga turtki berdi. Shu sababli tijorat va investitsiya banklari faoliyatining amaliyotda o'zaro ajratilishiga hamda banklarga bir nechta shtatlarda faoliyatni amalga oshirishga (Glas-Stigoll qonuni) bo'lgan taqiqlanishga amal qilinmaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'z moliyaviy markazlarini barpo etishga azaldan intilayotgan edilar. Biroq valyuta, kredit va moliya bozorlarining integratsiyalashuvi sanoat, qishloq xo'jaligi hamda tashqi savdo jarayonidagi integratsiyalashuvdan uzoq vaqt davomida orqada qolayotgan edi. Ushbu esa Yevropa Ittifoqidagi kelishmovchiliklar, a'zo mamlakatlarning budjet, kredit va investitsiya siyosatlarini amalga oshirishdagi o'z mustaqilligidan millat usti qarorlar foydasiga voz kecha olmayotganligi bilan izohlanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etishning "Delor rejasi"ga muvofiq 90-yillarda barcha valyuta cheklovlarini bekor qilgan holda yagona moliyaviy makonni aktiv shakllantirdilar. 1993-yilning noyabr oyidan kuchga kirgan Maastrixt shartnomasiga muvofiq paydo bo'lgan kapitallar va moliyaviy xizmatlarning yagona G'arbiy Yevropa bozori integratsiyaning yuksak yutug'iga aylandi. 1999-yilda yevroning muomalaga kiritilishi munosabati bilan Yevropa Ittifoqi kattaligi bo'yicha AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi fond bozoriga ega bo'lib qoladi. Barcha qimmatli qog'ozlar va derivativ (hosilaviy qimmatli qog'oz)lar nominallari yagona valyuta, yevroda ifodalanganligi sababli investorlar tanlovining birinchi o'rinida mamlakat emas, fond operatsiyalarining sektori turadi. Ushbu

sharoitlarda valyuta xavf-xatari yo'q bo'ladi. Agarda Buyuk Britaniya "Yevro hududi"ga qo'shilmasa u jahon moliyaviy markazi sifatidagi o'z mavqeyini yo'qotish xatariga uchraydi.

Jahon moliyaviy markazlari bo'lib Syurix va Lyuksemburg hisoblanadi. Ular oltin bilan operatsiyalarni amalga oshirish borasida London bilan bellashib kelmoqdalar. Yevrovalyutadagi barcha kreditlarning 1/4 qismi Lyuksemburg zimmasiga to'g'ri keladi.

Yaponiyaning jahon xo'jaligida mavqeyining mustahkamlanishi, xorijda yapon banklarining salobatli tizimining barpo etilishi, milliy pul birligi "iyena"ning xalqaro iqtisodiy muomalaga kirib borishi hamda valyuta cheklovlarining bekor qilinishi sababli Tokio jahon moliyaviy markaziga aylandi. 1985-yilda netto-qarzdorga aylangan AQSHdan farqli o'laroq Yaponiya - netto-kreditor mamlakatidir. Yaponiya banklari jahonda, shu jumladan xalqaro operatsiyalar jarayonida ham (90-yillarning boshida deyarli 40%) AQSH va harbiy Yevropa banklaridan (15%) ushbu sohada o'zib o'tgan holda yetakchilik qiladi. 90-yillarning oxirlarida iqtisodiy inqiroz va ko'proq jihatdan Janubi-Sharqiy Osiyo hududidagi so'nggi 30 yil ichida misli ko'rilmagan moliyaviy hamda valyuta inqirozlarining bo'lib o'tishi sababli Yaponiya egallab turgan Xalqaro mavqeyining vaqtinchalik pasayishi ro'y berdi.

Jahon xo'jaligining chekka hududlarida Bagam orollari, Singapur, Syangan (Gonkong), Panama, Bahrayn va boshqa shu singari moliyaviy markazlarning paydo bo'lishi nisbatan past soliqlar hamda operatsion xarajatlar, nomiga bo'lgan davlat aralashuvi, valyuta qonunchiligining erkinlashtirilishi bilan ma'lum bir darajada asoslanadi.

Kredit tashkilotlari norezidentlar bilan ushbu mamlakat uchun xorijiy hisoblangan valyutada operatsiyalarni amalga oshiruvchi jahon moliyaviy markazlari "Ofshor" moliyaviy markazlari nomini oldi. Ushbu atama mazmun jihatidan yevrobozor tushunchasiga taxminan mosdir. Mazkur moliyaviy markazlar, shuningdek, soliq panohxonasi rolini bajaradi, chunki amalga oshirilayotgan operatsiyalar mahalliy soliqlarga tortilmaydi hamda valyuta cheklovlaridan xolisdir.

Zamonaviy sharoitda 13ta jahon moliyaviy markazida xorijiy banklarning 1000 dan ziyod filial va bo'limlari to'plangandir.

Bank ofshor hududlari ko'rinishlaridan biri bo'lib Xalqaro bank hududi hisoblanadi. Ularning o'ziga xosligi amalga oshirilayotgan bank operatsiyalarining milliy kredit bozoridan farqli xususiyatlari, qattiq ixtisoslashuvi, soliqlardan qisman ozod etilishidadir. Xalqaro bank hududlariga bir qator bank me'yorlari, shu jumladan majburiy zahiralarni tizimi, bank omonatlarini sug'urta qilish fondidagi ishtiroki aloqasizdir.

AQSHda Xalqaro bank hududlari bank qonunchiligining erkinlashtirilishi munosabati bilan shakllangan. 24 shtatdagi ularning soni 500dan ziyoddir. Ular Amerika banklari, bank assotsiatsiyalari, shu jumladan, xorijiy va edj (faqat xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish lisenziyasiga ega) korporatsiyalari, xorijiy banklarning ayrim filiallarini birlashtiradi. Xalqaro bank hududi yuridik shaxs bo'lmagan holda xalqaro operatsiyalarning hisobi alohida yuritiluvchi bank tuzilmalari yig'indisidan iboratdir. Xalqaro bank hududining faoliyati operatsiyalarning ma'lum bir turlari bilan cheklangandir. Masalan, ushbularga xorijiy valyutadagi depozitlarni, 2 yilgacha muddatga 100 ming AQSH dollaridan kam bo'lmagan summaga muddatli omonatlarni ochish operatsiyalari kiradi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish va depozit sertifikatlar emissiyasiga ruxsat etilmagan. Bitimlarni faqat nobank norezidentlari bilan amalga oshirishga ruxsat etiladi. AQSHdagi xalqaro bank hududlaridan Amerika kapitallarining yevrobozordan qisman repatriatsiyasi uchun foydalaniladi.

Xalqaro bank hududlari "qochoq" kapitallar uchun panoh xizmatini bajaradi.

AQSHdan farqli o'laroq Yaponiyadagi Xalqaro bank hududi kapitallarni o'zining ichki hisob raqamlaridan ichki bank hisobvaraqlariga o'yning oxirida mablag'larning qarama-qarshi oqimi sharti bilan o'tkazish huquqiga ega.

Shunday qilib sutka davomida uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan, jahon moliya oqimlari boshqaruvining vositasi bo'lib xizmat qiluvchi xalqaro bozor mexanizmi shakllandi. Iqtisodiy fanning maxsus bo'limi valyuta, kredit va moliya bozorlarining samaradorligi, ularning ishtirokchilari kutayotgan samaraning shakllanishini hamda yangi ko'rinishdagi axborotlarga moslasha olish muammolarini o'rganadi. Maxsus axborot agentliklarining monitorlarida bozor baholari,

kotirovkalar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va xalqaro operatsiyalarning, amalga oshirilish joyidan qat'iy nazar, boshqa valyuta-moliyaviy shartlari real vaqt rejimida aks etadi. Samarali bozor (shu jumladan valyuta, kredit, moliya) konsepsiyasining mohiyati axborotning joriy baholarga bo'lgan ta'siridadir. Shu sababli jahon bozorining subyektlari ushbu bilan bog'liq o'z tashqi iqtisodiy faoliyatlari strategiyasini muvofiqlashtirishlari lozim.

Yangi moliyaviy instrumentlar va bozor infratuzilmasi kiritilmoqda. Ishtirokchilar soni kengaymoqda (7.1-jadval).

7.1-jadval

Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari: ishtirokchilari va tarkibiy tuzilishi

Milliy ishtirokchilar	Bozorlarning tarkibiy tuzilishi	Xalqaro ishtirokchilar
Korporatsiyalar	Valyuta bozorlari, shu jumladan yevrovalyutalar bozori	Xalqaro korporatsiyalar, transmilliy korporatsiyalar
Banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari	Ssuda kapitallari bozorlari: a)pul bozori b)kapitallar bozori v)yevrobozor	Xalqaro banklar, transmilliy banklar, ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari
Fond va tovar birjalari	Moliyaviy bozorlar	Eng yirik fond va tovar birjalari
Davlat	Sug'urta bozorlari Oltin bozorlari	Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari

7.2. Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar yuridik shaxslari hamda fuqarolarining pul talabnomalari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning o'ziga xosligi shundaki, baho va to'lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozirgi kunda barcha davlatlarda qabul

qilinishi majburiy bo'lgan umum tan olingan jahon kredit pullari yo'q. Shu bilan birgalikda qonuniy to'lov vositasi sifatida har bir suveren davlatda uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar, davlatlararo to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarning zaruriy sharti bo'lib to'lovchi yoki oluvchi tomonidan bir valyutani boshqa bir valyutaga sotib olish yoxud sotish shaklidagi almashinishi hisoblanadi.

Valyuta bozorlari –bu, talab va taklif asosida shakllanadigan kurs bo'yicha xorijiy valyutalarning milliy valyutaga oldi-sotdisi amalga oshadigan rasmiy markazlaridir.⁵²

Turli mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslarining pullik qarz majburiyatlarini to'lovi bilan bog'liq xalqaro to'lov aylanmasiga valyuta bozori tomonidan xizmat ko'rsatiladi.

Keng ma'nodagi valyuta bozori – bu, xorijiy valyuta oldi-sotdisini amalga oshirish hamda xorijiy investorlar kapitallari harakati bilan bog'liq operatsiyalarda paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar jarayonidir. Valyuta bozorida valyuta qimmatliklarining investorlari, sotuvchilari va sotib oluvchilari manfaatlarining kelishuvi amalga oshadi. G'arb iqtisodchilari valyuta bozorini tashkiliy-texnik nuqtayi nazardan milliy va xorijiy banklar hamda broker firmalarini o'zaro birlashtiruvchi zamonaviy aloqa vositalari tarmog'ining yig'indisi sifatida tavsiflaydi.

Zamonaviy valyuta bozori, yalpi jahon xo'jaligi miqyosida amal qiluvchi, murakkab va muntazam iqtisodiy tizim sifatida maydonga chiqadi.

Valyuta bozori yangi sharoitlarga moslashgan holda tinmay rivojlanib kelgan. U xorijiy valyutadagi veksellar bilan savdoning lokal markazlaridan tortib to birdan bir haqiqiy xalqaro bozor shakligacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Xorijiy valyutalar bilan operatsiyalar qadimdan pullarni o'zaro almashtirish operatsiyalari shaklida amalga oshgan. Biroq zamonaviy tushuncha sifatidagi valyuta bozorlari XIX asrga kelib shakllandi. Bunga quyidagi omillar ko'maklashdi:

- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi;

⁵²Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 1168 с

- milliy valyuta tizimlari yuzasidan a'zo mamlakatlar zimmlariga ma'lum bir majburiyatlarni yuklovchi jahon valyuta tizimining barpo etilishi;

- xalqaro hisob-kitoblar kredit vositalarining kengayishi;

- bank kapitali to'planuvi va markazlashuvining kuchayishi, turli mamlakatlar banklari o'rtasida vakillik munosabatlarining rivojlanishi, joriy vakillik hisobvaraqlarini xorijiy valyutalarda yuritilish amaliyotini kengayishi;

- valyuta bozorlari o'zaro aloqalarini soddalashtirish hamda kredit va valyuta xatarlari darajasini kamaytirish imkonini beruvchi telegraf, telefon, teleks singari aloqa vositalarining takomillashishi;

- axborot texnologiyalarining rivojlanishi, valyuta kurslari, banklar, ularning vakillik hisob raqamlarining holatlari, iqtisodiyot va siyosat borasidagi tendensiyalar haqidagi ma'lumotlarni katta tezlikda uzatilishi.

Milliy bozorlar va ularning o'zaro aloqalari rivojlanib borishi bilan jahon moliyaviy markazlarida jahonning yetakchi valyutalari uchun yahlit jahon valyuta bozori shakllandi. Zamonaviy jahon valyuta bozorlari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi, elektron aloqa vositalaridan keng foydalanish va ular orqali operatsiyalar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish zaminida valyuta bozorlarining baynalmilallashuvi;

2) operatsiyalar navbati bilan jahonning barcha joylarida uzluksiz, sutka davomida amalga oshadi. Kalendar sutkalar hisobi soat poyaslarining Grinвич - Greenwich Meridian Time (GMT) orqali o'tadigan "0" raqamli meridianiga muvofiq valyuta bozorida faoliyat Yangi Zelandiya (Vellington)da boshlanadi va Sidney, Tokio, Gonkong, Singapur, Moskva, Frankfurt-Mayn, London, Nyu-York hamda Los-Anjeles ketma-ketligidagi soat poyaslarini bosib o'tadi;

3) valyuta operatsiyalarining texnikasi soddalashtirilgan, hisob-kitoblar banklarning vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshadi;

4) valyuta va kredit xavf-xatarlarini sug'urtalash maqsadida valyuta operatsiyalarining keng rivojlanishi. Bunda avval amalda bo'lgan va bank balansida aks ettirilgan valyuta operatsiyalari balansdan tashqari hisobvaraqlarida hisobi yuritiladigan muddatli hamda boshqa turdagi valyuta bitimlari bilan almashtiriladi;

5) chayqov va arbitraj operatsiyalari tijorat bitimlari bilan bog'liq valyuta operatsiyalaridan ko'p jihatdan ortiqdir, ular ishtirokchilarining soni keskin ko'payadi va o'z tarkibiga nafaqat bank hamda transmilliy korporatsiyalarni, balki boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni oladi;

6) kursi, xususiyatli birja tovariga o'xshab fundamental iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lmagan, o'zining tendensiyalariga ega bo'lgan valyutalarning barqarorsizligi. Jahon valyuta bozori eng kuchli va likvidli, ammo siyosiy hamda iqtisodiy yangiliklarga nihoyatda sezgir bozordir.

Funksional nuqtayi nazardan valyuta bozorlari quyidagilarni ta'minlaydi:

- xalqaro hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshishini;
- valyuta va kredit xavf-xatarlar sug'urtalanishini;
- jahon valyuta, kredit va moliya bozorlarining o'zaro aloqalarini;
- banklar, korxonalar, davlat valyuta zahiralarning diversifikatsiyasini;

- valyuta kurslari muvofiqlashtirilishini (bozor va davlat tomonidan);

- ishtirokchilari tomonidan valyuta kurslarining farqi sifatidagi chayqov foydasi olinishini;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirilishiga qaratilgan valyuta siyosatini amalga oshirilishi, so'nggi paytlarda esa mamlakatlar ("yettilik", Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa Ittifoqi) guruhi doirasida o'zaro kelishilgan makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida. Valyuta bozori moliyaviy bozorning boshqa segmentlariga qaraganda o'z operatsiyalarining ko'lamini bo'yicha nihoyatda kattadir. Masalan, 1997-yildagi aksiyalar bozoridagi kunlik operatsiyalarning hajmi 100 - 150 mlrd., obligatsiyalar bozorida 500 - 700 mlrd., valyuta bozorida esa 1,4 trln. AQSH dollari hajmida baholangan (1986-yilda ushbu operatsiyalar hajmi 205 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan).

Valyuta bozoridagi shartnoma instrumentlari ichida katta o'zgarish sodir bo'ldi. Erkin raqobat kapitalizmi davrining monomertalizmi sharoitida yaxshigina rivoj topgan xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalaridan foydalangan holdagi xalqaro naqdsiz to'lovlar ko'lamini katta edi. Valyuta kursi "oltin nuqtalari"ga yetgan va

qarzdorga devizlar bilan emas, balki oltin bilan hisob-kitob qilish samarali bo'lgan paytda oltin xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlarning yakuniy to'lov vositasi sifatida ishlatilar edi. Valyuta operatsiyalarining instrumentlari bo'lib azaldan o'tkaziladigan tijorat veksellari (trattalar) hisoblanar edi. Tratta eksportyor yoki kreditor tomonidan importyor yoxud qarzdorga qarata yozib chiqarilgan talabnomadir. Banklar rivojlanib borgan sari ushbu trattalar bank veksellari va cheklari, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa bank pul o'tkazmalari tomonidan siqib chiqarila boshlandi. Bank vekseli – bu, ushbu mamlakat banki tomonidan o'zining xorijiy vakili (korrespondenti) ga qarata chiqarilgan vekselidir. qarzdor (importyor)lar mazkur veksellarni milliy (markaziy) bankdan sotib olganidan so'ng ularni o'z qarz majburiyatlarini so'ndirish maqsadida kreditorlar (eksportyorlar)ga jo'natadilar. Bank vekseli asta-sekin bank cheki bilan siqib chiqariladi. Bank cheki – bu, avuarlar egasi bo'lmish xorijdagi bankning o'z vakil-bankiga o'zining joriy hisobvarag'idan chekni taqdim etuvchiga ma'lum bir summani o'tkazib berish to'g'risida yozma tarzdgagi buyruqidir. Eksportyorlar mazkur cheklarni qo'llariga olganlaridan so'ng ularni o'z banklariga sotadilar.

Xalqaro to'lov aylanmasida oltinning o'rnini egallagan kredit muomala qurollari muomala xarajatlarining kamayishi hamda banklar va davlatlar o'rtasida naqdsiz o'zaro hisob-kitoblarning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Zamonaviy xalqaro to'lov aylanmasida bank pul o'tkazmalari, ya'ni pochta va, ayniqsa, telegraf pul o'tkazmalaridan keng miqyosda foydalaniladi. Pul o'tkazmasi – bu, bankning vakil-bankka o'z mijozining ko'rsatmasiga binoan xorijiy valyutadagi ma'lum bir summani boshqa mamlakatda o'z hisobvarag'idan to'lash to'g'risidagi buyruqidir. Pul o'tkazmasini amalga oshirishda bank mijozga xorijiy valyutani milliy valyutaga sotadi. Telegraf pul o'tkazmalari hisob-kitoblarni tezlashtirishga, kreditdan foydalanish muddatini qisqartishga hamda veksell, chek, pochta pul o'tkazmasini jo'natish va ularni manzilga yetib kelishi davri mobaynida vujudga keladigan valyuta yo'qotishlardan saqlashga ko'maklashadi. Telegraf orqali pul o'tkazmalarida maxsus kod ("kalit")ning qo'llanilishi suiste'molliklar (qalbaki pul o'tkazmalari)ni istisno etadi hamda xato qilmaslikni kafolatlaydi. SWIFT tizimining rivojlanishi bilan pul o'tkazmalarini

amalga oshirishning elektron tizimi rivojlana boshladi. Valyuta operatsiyalari o'z moddiy asoslarini tobora yo'qotib bormoqda va vakillik hisobvaraqlari bo'yicha yozuvlar sifatida mavjuddir.

Valyuta bozorlari institutsional nuqtayi nazardan banklar, brokerlik firmalari, korporatsiyalar va, ayniqsa, Transmilliy korporatsiyalar yig'indisidan iboratdir. Banklar, banklararo bozordagi o'zaro hamda savdo-sanoat sohalariga aloqador mijozlari bilan valyuta bitimlarining 85-95%ni amalga oshiradilar. Bank yoki valyuta milliy qonunchiligiga muvofiq inqirozlar davrida banklarning xalqaro operatsiyalar va valyuta bitimlarini amalga oshirishga bo'lgan huquqlari cheklanadi yoki mazkur operatsiyalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (lisenziya) talab etiladi. Ushbu cheklovlar amalga oshiriladigan barcha valyuta operatsiyalariga yoki ularning ayrim turlariga, masalan Ofshor hududlaridagi banklarning rezidentlar bilan valyuta bitimlariga aloqador bo'lishi mumkin.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqi taqdim etilgan banklar vakolatli, devizli yoki valyutali banklar deb ataladi. Barcha devizli banklar valyuta bozorining operatsiyalarida teng asosda ishtirok eta olmaydilar. Bankning kattaligi, uning mavqeyi, xorijiy bo'lim va filiallari tarmoqining rivojlanganligi, bank orqali amalga oshayotgan xalqaro hisob-kitoblarning hajmi kabi omillar bankning valyuta bozorlaridagi rolini ko'p jihatdan belgilaydi. Bankning joylashgan joyida valyuta cheklovlarini muntazam ravishda kiritilishi, teleks va telefon aloqalarining holati hamda ushbu bank o'tkazayotgan siyosat yuqoridagi omillar bilan bir qatorda uning valyuta bozorida ishtirok etishiga ma'lum bir ta'sir o'tkazadi. Shu sababli valyuta operatsiyalarining eng katta qismi Transmilliy Banklar (TMB) zimmasiga to'g'ri keladi. Ularga Citibank, Chase Manxattan Bank, Deutsche Bank, Dresdner Bank, Barclays Bank, Union Bank Swizerland, Sumitomo Bank, Mitsubishi Bank, ABN Amro va boshqalar kiradi. Mazkur banklar nihoyatda katta summalar (100 - 500 mln. AQSH dollari)ga bitimlarni amalga oshiradilar. Shu bilan birgalikda 1 - 10 mln. dollargacha bo'lgan standart bitim valyuta bozori holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu bitim egasi manfaatli bitimlar uchun kurashda raqobatli imtiyozga ega bo'ladi. TMBlar xorijiy bo'limlar tarmog'iga ega bo'lgan holda valyuta

operatsiyalarini sutka davomida uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Valyuta bozorining yangi ishtirokchisi bo'lib valyutalarni turli mamlakatlar hukumatlari va korporatsiyalarining yuqori likvidli hamda ishonchli qimmatli qog'ozlariga joylashtirgan holda aktivlar portfelining diversifikatsiyali boshqaruvini amalga oshiruvchi investitsiya fondlari maydonga chiqdi. Ulardan eng tanilganlari qatoriga Jorj Sorosning "Quantum" va "Dean Witter" fondlari, "Lohg-Term Capital Management" Xalqaro hedj-fondi kabi fondlar kiradi. Investitsiya fondlarini valyuta bozorlarini erkinlashtirish sharoitida paydo bo'lishi o'sgan valyuta va kredit tavakkalchiliklarini sug'urtalash zarurati bilan bog'liqdir. Ularni vujudga keltirishda odatda TMBlar hamda investitsiya fondlari ishtirok etadi. Shu sababli hedj-zahiralarda nafaqat xatarlarni sug'urtalash, balki kichik mamlakatlarning valyuta kurslarini pasaytirib yuborishga qodir bo'lgan yirik chayqov bitimlarini tuzish imkonini beruvchi katta hajmdagi pul mablag'lari to'planadi. Ushbu holat 1998-yilning yozida Malayziya, Indoneziya va Gonkongning valyutalari bilan sodir bo'ldi hamda mazkur davlatlarning keskin noroziligini keltirib chiqardi. Mazkur davlatlar yuqorida zikr etilgan yirik chayqovchilarning o'z hududlaridagi faoliyatiga taqiqlovchi choralar kiritdilar.

Valyuta bozorlari ishtirokchilarining qatoriga ushbu bozorlar orqali valyuta zahiralarni boshqaradigan, milliy valyuta kursini qo'llab-quvvatlab turadigan, valyuta intervensiyasi hamda milliy valyutadagi qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkalari muvofiqlashtirilishini amalga oshiradigan mamlakatlar markaziy banklari kiradi. Jahon valyuta bozorlariga eng katta ta'sirni AQSH (Federal zahira tizimi), Germaniya va Buyuk Britaniya markaziy banklari o'tkazadi.

Valyuta bozorida nobank toifasidagi institutlar (sug'urta va pensiya fondlari, investitsiya kompaniyalari) ham ishtirok etadi. Biroq ushbu institutlar bozorda valyutani sotuvchilari va sotib oluvchilari o'rtasida vositachilik funksiyalarini bajaruvchi bozorning yana bir muhim ishtirokchilari bo'lmish brokerlik firmalaridan vositachilar sifatida foydalanadilar. Broker orqali ishlashning imtiyozli taraflari qatoriga bitimlar amalga oshirilishining maxfiyligi, kotirovka jarayonining uzluksizligi, o'z baholarini berish imkoniyati kabilar kiradi. Brokerlar valyuta operatsiyalarining hajmlari, valyuta operatsiyalarining 30 foiziga yaqinini (London bozorida 35%, dollar bo'yicha operatsiyalarda esa birmuncha ko'proq) qamrab olgan holda doim o'sib bormoqda. 90-

yillarning o'rtalarida, masalan 1997-yilda Tokioda dollar-iyena operatsiyalarining 50%iga yaqinini amalga oshiruvchi elektron brokerlar paydo bo'ldi. Brokerlik-dilerlik firmalari ichida yetakchi o'rinni "Merrill Lynch" (Merrill Lynch Pierce Fenner & Smith), I.F. Xatton (E.F. Hutton), "Goldman Saks" (Goldman Sachs), "Morgan Stenli" (Morgan Stanley) kabi kompaniyalar egallaydi.

Ayrim mamlakatlar (Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Benilyuks mamlakatlari, Skandinaviya)da valyuta birjalari saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning roli unchalik katta emas va bajaradigan funksiyalari valyuta savdolarini tashkil etish, bo'sh resurslarni safarbar etish, ma'lumot-kurslarini qayd etish kabilardan iboratdir.

Yirik banklar, birinchi navbatda TMBlar boshqa banklar, vositachilik broker firmalari hamda jahon moliya markazlari bilan elektron hisoblash mashinalari, telefon hamda teleks aloqa tizimlari orqali ulangan valyuta bo'limlariga egadirlar. Ushbu bo'limlar esa o'z navbatida videoaloqa tizimlari bilan telegraf agentlik (Reyter va boshqa) tarmoqiga ulangan. Mazkur agentliklar eng muhim siyosiy va iqtisodiy yengiliklar hamda valyutalar kurslari haqida xabar berib turadilar.

70-yillardan boshlab valyutalar bilan ayrim operatsiyalar tovar birjalarida amalga oshiriladi (masalan, fyuchers va opsion valyuta operatsiyalari Chikago hamda Nyu-York tovar birjalarida).

O'zbekistonda ham valyuta birjasi tashkil etilgan va u Respublika valyuta birjasi deb ataladi. Mazkur birjaning xususiyatli tarafi shundaki ushbu birjada nafaqat valyuta operatsiyalari, balki fond (davlat qisqa muddatli obligatsiyalari) operatsiyalari ham amalga oshiriladi.

Valyuta bozori – bu, kontragentlar, valyuta bozorlari ishtirokchilari o'rtasida bozor kursi yoki foiz stavkasi bo'yicha xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan barcha konversion va depozit-kredit operatsiyalarining majmuasidir.

Valyuta operatsiyalari – muayyan shartlar asosida (summa, almashuv kursi, foiz stavkasi, davr) va muayyan sanada bajarilishi lozim bo'lgan, xorijiy valyutalarning oldi-sotdisi, ularda hisob-kitoblarni olib borish, qarzga berish bo'yicha valyuta bozori agentlari tuzadigan shartnomalardir. Joriy konversion operatsiyalar (bir valyutani boshqasiga almashtirish), shuningdek, joriy depozit-kredit operatsiyalari (bir yilgacha bo'lgan muddatda) valyuta operatsiyalarining asosiy qismini tashkil etadi.

Konversion operatsiyalarning depozit-kredit operatsiyalaridan asosiy farqi shundaki, ular vaqt bo'yicha davomiylikka ega emas, ya'ni muayyan paytda bajariladi, depozit operatsiyalari esa turli muddatlarga va davomiylikka egadir.

Valyuta bozorlarini bir necha belgilar bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin:

Operatsiyalarning turi bo'yicha. Konversion operatsiyalar jahon bozori (ular ichida dollar/yevro, yapon iyenasi/dollar kabi) hamda kredit-depozit operatsiyalari jahon bozori.

Hududiy belgilanish bo'yicha. Bozorlarni quyidagi yirik turlarga ajratish qabul qilingan: Yevropa, Shimoliy Amerika, Uzoq Sharq bozorlari. Ularning ichida quyidagi yirik xalqaro valyuta-moliyaviy markazlar ajratiladi: Yevropada – London, Styurix, Frankfurt-Maynda, Parij va h.k.; Shimoliy Amerikada – Nyu-York; Osiyoda – Tokio, Singapur, Gonkong.

Shuningdek, milliy valyuta bozorlari (masalan, O'zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozori) ham amal qiladiki, ularga valyutani sotib olishda, xorijiy valyutada kreditlash va hisob-kitoblarni olib borishda turli cheklovlarining mavjudligi xosdir.

Hududiy bozorlar va operatsiyalar turlari bo'yicha bozorlarning kesishmasi sifatida. Dollar depozitlarining Yevropa bozori yoki yevro/yapon iyenasi konversion operatsiyalarining Osiyo bozori kabilar shular jumlasidandir.

Valyuta bozori ishtirokchilari valyutaga bo'lgan talab va taklifni shakllantiradilar. Ular bozorda o'z xarajatlari hisobiga operatsiyalarni amalga oshiradilar va bitimning bir tomoni sifatida qatnashadilar. Valyuta bozorining asosiy ishtirokchilariga quyidagilar kiritiladi:

Tijorat banklari. Ular valyuta operatsiyalarining asosiy qismini amalga oshiradilar. Tijorat banklarida bozorning boshqa ishtirokchilari o'z hisobvaraqlarini ochadilar va ular bilan birgalikda zarur konversion va depozit-kredit operatsiyalarini amalga oshiradilar. Banklar mijozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirgan holda bozorning valyuta konversiyalariga, mablag'larni jalb qilish/joylashtirishga bo'lgan talabini muvofiqlashtiradilar, boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Mijozlarning talablarini bajarishdan tashqari tijorat banklari o'z mablag'lari hisobiga mustaqil tarzda ham operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Qisqacha aytganda, valyuta bozori bu banklararo bitimlar bozoridir, shunday ekan, valyuta kurslari harakati va foiz stavkalari haqida so'z yuritganda banklararo valyuta bozorini nazarda tutish kerak.

Jahon valyuta bozorlarida kunlik operatsiyalari hajmi milliardlab dollarlar bilan hisoblanadigan yirik xalqaro banklar o'zining katta ta'siriga ega. Bunday banklarga ABN AMRO Bank, Credit Suisse First Boston, Deutsche Bank, Barclays Bank, Union Bank of Switzerland, Citibank, Chase Manxattan Bank, Standart Chartered Bank va boshqalarni kiritish mumkin.

Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi firmalar. Xalqaro savdoda ishtirok etuvchi kompaniyalar xorijiy valyutaga nisbatan qat'iy talab (importerlar sifatida) va taklifni (eksporterlar sifatida) shakllantiradilar, shuningdek, mavjud valyuta zahiralarni qisqa muddatli depozitlarga jalb qiladilar va joylashtiradilar. Bunda odatda, mazkur tashkilotlar bevosita valyuta bozoriga kirish imkoniyatiga ega emaslar, shu sababli ular tijorat banklari orqali konversion va depozit operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Xorijiy kapital (aktivlar) quyilmalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar (Investment Funds, Money Market Funds, International Corporations). Turli xalqaro investitsion fondlar tomonidan taqdim qilingan mazkur kompaniyalar aktivlar portfelining diversifikatsiyalangan boshqarilishi siyosatini amalga oshiradilar va turli mamlakatlar hukumatlari va korporatsiyalarining qimmatli qog'ozlariga o'z mablag'larini joylashtiradilar. Dilerlar tilida ularni oddiy qilib fondlar yoki funds deb yuritishadi; Jorj Sorosning muvaffaqiyatli valyuta chayqovchiliklarini amalga oshiradigan "Quantum" fondi ana shunday fondlar sirasiga kiradi.

Mazkur guruhga shuningdek, xalqaro ishlab chiqarish sarmoyalari: filiallar, qo'shma korxonalar tuzishni amalga oshiruvchi yirik xalqaro korporatsiyalar ham kiradi, masalan, Kseroks, Nestle, General Motors, British Petroleum va b.

Markaziy banklar. Ularning vazifalariga valyuta zaxiralarni boshqarish, almashuv kursi darajasiga ta'sir qiluvchi valyuta intervensiyalarini o'tkazish, milliy valyutadagi omonatlar foiz stavkasi darajasini tartibga solish kabilar kiradi.

Jahon valyuta bozorlariga keng miqyosda ta'sir ko'rsata oluvchi markaziy banklardan biri bu, AQSH Markaziy banki – Federal zaxira tizimidir. Undan keyingi o'rinda Germaniya Markaziy banki –

Bundesbank (Deutsche Bundesbank) va Buyuk Britaniya Markaziy banki – Angliya Banki (Bank of England, shuningdek, Old Lady deb ham yuritiladi) turadi.

Xususiy shaxslar. Jismoniy shaxslar xalqaro turizm, ish haqi, pensiyalar, gonorarlari, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, naqd valyutani sotish va sotib olish sohasida keng miqyosdagi nosavdo operatsiyalarini olib boradilar.

Valyuta birjalari. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini kechirayotgan mamlakatlarda valyuta birjalari amal qiladi. Ularning asosiy funksiyalariga yuridik shaxslar uchun valyuta oldi-sotdisini amalga oshirish va valyutaning bozor kursini shakllantirish vazifalari kiradi. Odatda davlat birja bozorining ixchamliligidan foydalanib, almashuv kursining darajasini faol ravishda tartibga solib turadi.

Valyuta brokerlik firmalari. Ularning vazifalariga xorijiy valyutaning sotuvchisi va xaridorini uchrashtirish va ular o'rtasidagi konversiya yoki ssuda-depozit operatsiyalarini amalga oshirish kiradi. Vositachilik uchun brokerlik firmalari bitim summasiga nisbatan muayyan foiz ko'rinishidagi brokerlik komissiya to'lovini oladilar.

Xalqaro valyuta bozorlarida taniqli brokerlik firmalari ichida Lasser Marshall, Bierbaum, Harlow Butler, Tullet and Tokyo, Coutts, Tradition va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Rossiya bozorida quyidagi brokerlik kompaniyalari konversiya va depozit operatsiyalari bo'yicha brokerlik xizmatlarini taqdim qiladilar: Intermoney Financial Products, Banklararo Moliya Uyi, ADIKS firmasi, Banklararo Moliyaviy Brokerlik Kompaniyasi.

Valyuta bozorlarining faoliyati bir daqiqaga ham to'xtamaydi. O'z ishini ular kalendar sutkada Uzoq Sharqda, Yangi Zelandiya (Vellington)da boshlab, soat kengliklaridan – Sidney, Tokio, Gonkong, Singapur, Bahrayn, Moskva, Frankfurt-Mayn, Londondan o'tib kunni Nyu-York va Los-Andjelesda yakunlaydilar.

Soat poyaslarining hisobi an'anaviy tarzda Grinвичdan o'tuvchi (London atrofida) boshlang'ich meridiandan olib boriladi, vaqt esa jahon vaqti yoki GMT – Greenwich Meridian Time nomiga ega. Faslga qarab (yozgi yoki qishki) yer kurrasidagi turli moliyaviy bozorlardagi vaqt GMT jahon vaqtidan quyidagi jadvalda keltirilgan soatlar miqdoriga farq qiladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Londondagi vaqtni bilish uchun Moskva vaqtidan 3 soatni ayirish kerak, Nyu-York esa Moskvadan 8 soat orqada yuradi.

Jahon vaqtidan tashqari kontinental Yevropa mamlakatlari uchun “markaziy Yevropa vaqti” yoki CET (Central European Time) atamasi qo‘llaniladi.

Odatda valyuta va moliyaviy bozorlar 8-9 soat ishlaydi. Bozorlarning geografik jihatdan keng joylashganligi shunga olib keladiki, valyuta va pul resurslari savdosining vaqti turli hududlarning ishga tushib borishi bilan farq qilishi mumkin.

Erta tongdan Osiyo bozorlari ish boshlaydilar, biroq Yevropa bozori savdoni boshlayotgan vaqtda Sidney va Tokio bozorlari yopilish arafasida turadi. Nyu-Yorkdagi bozor London vaqti bilan tushdan so‘ng va Moskva vaqti bilan kechga yaqin ochiladi.

7.2.-jadval

Jahon moliyaviy markazlari ish vaqtlarining farqlanishi

Moliyaviy markaz	GMT vaqtidan farq qiluvchi soatlar	
	<i>Oishda</i>	<i>Yozda</i>
Vellington	+11	+12
Sidney	+9	+10
Tokio	+9	+9
Gonkong	+8	+8
Singapur	+7	+8
Moskva	+3	+4
Frankfurt-Maynda	+1	+2
Syurix	+1	+2
London	0	+1
Nyu-York	-5	-4
Los-Andjeles	-8	-7

Moskvaning o‘rtacha vaqt kengligida qulay joylashganligi Moskva banklariga odatdagi ish soatlarida deyarli barcha asosiy faoliyat yurituvchi valyuta-moliyaviy markazlar bilan bog‘lanish imkonini beradi: ertalabdan Tokio bozori bilan; tushgacha – Singapur bilan aloqa o‘rnatish mumkin; London bozori Moskva vaqti bilan soat 11 da ish boshlaydi, soat 16 dan keyin esa Nyu-Yorkdagi bozor ishga tushadi.

Mahalliy bozordagi ish kuni boshqa mamlakatdagi bayram kuniga to‘g‘ri kelib qolishi mumkinki, bu vaqtda mazkur davlatdagi banklar o‘z

milliy valyutasida pul o'tkazmalarini amalga oshirmaydilar. Valyutalash sanasi bayram kuniga to'g'ri kelmasligi kerak.

Odatda turli mamlakatlarda dam olish kunlari bir-biriga mos kelmaydi, biroq bundan mustasno kunlar ham bor. Rojdestvo (25 dekabr), Yangi yil (1 yanvar) ko'pgina valyutalar uchun dam olish kuni hisoblanadi. Valyuta dilerlarida odatda asosiy moliyaviy markazlarning dam olish kunlari kalendari mavjud bo'ladi, u quyida keltirilgan:

7.3.-jadval

Asosiy moliyaviy markazlarda bank bayram kunlarining kalendari

Oy, sana	London GBP	Frankfurt EUR	Tokio JPY	Moskva RUB	Nyu-York USD	Syurix CHF
Yanvar	1	1	1-3; 15	1;2	1; uchinchi dushanba	1
Fevral			11		Uchinchi dushanba	
Mart	Pasxa*	Pasxa*	21	8	Pasxa*	Pasxa*
Aprel	Pasxa*	Pasxa*	29		Pasxa*	Pasxa*
May	4; oxirgi dushanba	1; Troista*, vozneseenie*	3;4;5	1;2;9	Oxirgi dushanba	8*; vozneseenie; Troista*
Iyun		Troista*		12		Troista*
Iyul			20		4	
Avgust	Oxirgi dushanba					1
Sentabr			15;23		Birinchi dushanba	
Oktabr		3	10	12	Ikkinchi dushanba	
Noyabr			3;23	7	Ikkinchi seshanba; to'rtinchi payshanba	
Dekabr	25;26	24-26	23;31	12	25	25

* suzib yuruvchi kalendar bo'yicha (ba'zida may oyi ham).

Valyuta, kredit, moliya va oltin bozorlari o'rtasidagi kuchayib borayotgan bog'liqlik munosabati bilan eng yirik banklarda "valyuta

zali” konsepsiyasi joriy etilgan. Bankning turli bo‘limlarida amalga oshiriladigan ushbu bozorlardagi operatsiyalar “valyuta zalida” birlashtirilgan. Bu bilan to‘liq ma’lumotga, turli bozor segmentlarining o‘zaro manfaatli operatsiyalarida dilerlar o‘rtasidagi yaqindan aloqaga, zikr etilgan bozorlarda harakatning kelishilgan strategiya va taktikasiga erishiladi. Xorijiy valyutalardagi pozitsiyalar, oltin va qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar bank mablag‘larining likvidli asosda joylashtirilishining muqobil shakllari sifatida ko‘riladi. Shu bilan birgalikda xorijiy qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar va valyuta-foizli arbitraj bozorning bir nechta sektorlarida aralash operatsiyalarni vujudga keltirgan holda valyutali xedjing bilan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin.

EHMlarning qo‘llanilishi har daqiqada turli valyutalardagi banklar pozitsiyalarini hamda alohida banklar bilan operatsiyalarini nazorat qilish imkonini beradi. Operatsiyalarning avtomatlashtirilgan qayta ishlovi aylanmalar imkonini oshiradi, pul o‘tkazmasining aniqligi va o‘z vaqtidaligini hamda valyuta kelib tushishini kafolatlaydi. Telekommunikatsiya tizimlarining SWIFT asosida rivojlanishi tez va kam xarajatli asosda bitimlarni amalga oshirish, xususan valyuta kelib tushganligi haqidagi tasdiqnomani bitim amalga oshganidan so‘ng ertasi kun nahorida, ya’ni banklar hisobvaraqlariga pullar olinishining real vaqtidan avvalroq olish imkonini beradi. Reyter-diling elektron tizimi banklarga ushbu tizimga ulangan manfaatdor banklar bilan bir zumda aloqalarni o‘rnatish hamda bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq qimmat turadigan elektron va kompyuter jihozlarini sotib olishga valyuta bozorida hukmron bo‘lgan yirik banklarninggina qurbi yetadi. Valyuta zali jihozlari hamda Reyter va Telereyt tizimlariga a’zolik, kompyuterlar hamda bitimlarning dastur ta’minotlari qiymati millionlab dollarlar, yirik zallar uchun esa o‘n millionlab dollarlar turadi. Jahonning eng yirik banklari mijozlariga uydan chiqmagan holda bankdan uzoqda joylashgan terminal orqali o‘z hisobvaraqlarini boshqarish yuzasidan operatsiyalarning ma’lum bir to‘plamini, jahon valyuta bozorlarida valyutani sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi “virtual banklar” (virtual banking) konsepsiyasini joriy etishga kirishdi.

90-yillarning ikkinchi yarmida mavjud ("REUTERS dealing 2000", "Telereuter", "TENFORE" va boshqa shu kabi) diling tizimlari juft valyutalarning elektron savdolarida jadal ishlatiladigan elektron broker tizimlari bilan to'ldirilgan edi. Konversiya bilan bog'liq jami operatsiyalar ichida 1996-yilda USD/DEM operatsiyalari zimmasiga 22%, USD/YPYga - 17%, GBP/USDga - 11% va boshqa valyuta juftliklariga 50% to'g'ri kelar edi. 1996-yilda Tokio brokerlik bozoridagi dollar-iyena bo'yicha operatsiyalarning 50%dan ziyodiga elektron broker tarmoqlari tomonidan xizmat ko'rsatilgan. Savdolar "parket"da "ovoz" orqali amalga oshadigan an'anaviy valyuta birjasidan farqli o'laroq Chikago, Frankfurt-Mayn, Tokio, Singapur va boshqa jahon bozorlarida elektron birjalari paydo bo'ldi. Ushbu birjalarning jihozlanishi nafaqat jahon bozorlaridagi valyuta kurslari va foiz stavkalari haqidagi har taraflama ma'lumotlarni olish hamda ushbu bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirish, balki tahliliy ishlarni olib borish va valyuta kurslari dinamikasini prognozlash imkonini berdi.

Valyuta bo'limlarining dilerlik xizmati bir necha o'n, ayrim holatlarda esa yuzdan ortiq hodimlarni o'z ichiga oladi. Ularning ichida dilerlar, iqtisodchi-tahlilchilar, menejerlar mavjud. Dilerlar (Fransiyada ularni odatda kambistlar deb atashadi) - valyuta oldi-sotdisi bo'yicha mutaxassislardir. Ularning o'rtasida ishning taqsimoti valyutalar va operatsiyalar (savdo-sanoat toifasidagi mijozlar, banklar aro, naqdli, muddatli va boshqa shu kabilar)ning turiga qarab amalga oshadi. Nisbatan tajribali dilerlar - bosh, katta dilerlar - arbitraj operatsiyalarini amalga oshirish hamda valyutalarda chayqov pozitsiyalarini vujudga keltirish huquqiga ega. Iqtisodchi-tahlilchilar iqtisodiyot, siyosat, xalqaro hisob-kitoblarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish asosida valyuta kurslari va foiz stavkalari harakatini prognoz qiladi. Ular mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda tavsiyalar sifatida ishlatiladigan valyuta tavakkalchiliklarini baholash hamda sug'urtalashning eng samarali usullarining ekonometrik modellarini ishlab chiqadi. Prognozlashning asosiy qismi EHM yordamida ekonometrik modellar negizida amalga oshadi. Statistik grafik (chart)lar asosida valyuta kurslarining harakat tendensiyalari, muayyan kurs nuqtalaridagi ularning tebranishini aniqlash "qarshilik nuqtalari"ni hisobga oluvchi dilerlar harakatida katta rol o'ynaydi.

Ushbu "qarshilik nuqtalari"dan oshib o'tilishi kurslarda katta o'zgarish ro'y berishi ehtimolini anglatadi. Valyuta operatsiyalariga umumiy rahbarlik, bankning ishchi organi bo'lmish valyuta qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan valyuta siyosatiga amal qiluvchi menejerlar zimmasiga yuklatiladi. Nisbatan kichik banklarda diler bir vaqtning o'zida ham ekspert, ham operator sifatida maydonga chiqadi.

Valyuta kurslarining qisqa va o'rta muddatli dinamikasi tendensiyalarini prognozlash hamda aniqlashda valyuta bozori konyunkturasiga ta'sir etuvchi omillar (yalpi ichki mahsulotning hajmi, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, ishsizlik darajasi, ulgurji va chakana baholar indeksleri, to'lov balansi asosiy moddalarining ahvoli, foiz stavkalarining dinamikasi) tahlil etiladi. Olingan ma'lumotlar asosida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning strategiya va taktikasi ishlab chiqiladi. Biroq prognozlarning ishonchlilik darajasi unchalik katta emas, chunki valyuta bitimlari obyektiv va subyektiv tavsifidagi xavf-xatarlar ta'siridadir. Xavf-xatarning obyektivligi, valyuta kurslarining uzoq muddatli davr ichida turli mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga, qisqa muddatli davr ichida esa siyosiy voqealar, iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat organlarining qarorlariga, mish-mishlar va payt poylashlarga bog'liqligi bilan asoslanadi. Xatarning subyektivligi esa diler tomonidan o'z vakolatlari doirasida valyuta kursidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan oldi-sotdi operatsiyasining hajmi yuzasidan qabul qilinayotgan qaror bilan asoslanadi. Daqiqalar ichida o'nlab million dollarlarga bitimlar tuzilishini hisobga olgan holda dilerlarning noto'g'ri qabul qilgan qarorlari obyektiv omillar bilan birgalikda, ayniqsa yirik bitimlarda, katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

1974-yilda De Bryussel banki katta zarar ko'rdi va bankrotlikdan Lamber Bank hamda Bryussel-Lamber kompaniyasi bilan qo'shilishi va ushbu asosda Bryussel-Lamber moliyaviy guruhi barpo etilishi evaziga qutildi. Ba'zi banklar valyuta chayqovi bilan haddan tashqari ko'p shug'ullanishi oqibatida masalan 1974-yilda Franklin national bank (AQSH), 1973-yilda Bankhaus Hershtatt (GFR) bankrotlikka uchradi. Chayqov valyuta operatsiyalari oqibatida Yaponiyaning Fudzi banki 1984-yilda 11,5 mlrd. iyena zarar ko'rdi va ushbu zarar uning portfelidagi bir qism qimmatli qog'ozlarning sotilishi hisobiga qoplandi. 1997-1998-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo hududi va boshqa

mamlakatlarda ro'y bergan chuqur moliyaviy hamda valyuta inqirozi jahon bo'ylab banklar va firmalarning valyutadagi katta talofatlariga olib keldi.

Banklarning bankrotligi valyuta operatsiyalari ustidan bank rahbariyati va tegishli davlat organlari nazoratining kuchayishiga olib keldi. Banklar ustidan nazoratning milliy organlari kapital harakati va banklar xavf-xatarlari hajmlarini nazorat qilish maqsadida ularning valyuta pozitsiyalarini kuzatadi. Jahon valyuta va kredit bozorlaridagi operatsiyalar milliy hamda xalqaro organlarning muntazam o'rganish obyekti bo'lib xizmat qiladi. Mazkur choraning zarurligi valyuta va qimmatli qog'ozlar kurslari hamda foiz stavkalarini eksport va import hamda kapitallar harakati orqali ishlab chiqarishning rivojlanish istiqbollari, konyunktura, inflyatsiya suratlari sezilarli ta'sir qilishidir.

Banklararo bozor to'g'ridan to'g'ri va brokerlik bozorlariga bo'linadi. Shu sababli brokerlik firmalari valyuta bozorining institutsional tarkibiy tuzilishining qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jami valyuta operatsiyalarining 30 foizi ushbu firmalar orqali o'tadi. Brokerlik firmalari xizmatlari uchun vositachilik haqi (sotilgan yoki sotib olingan har bir million dollar uchun 20 AQSH dollarigacha yoki uning ekvivalentini) oladilar. Banklararo aloqalarning elektron vositalari hamda valyuta bitimlari (Reyter-diling, Telereyt) amalga oshirilishining rivojlanishi bilan brokerlik firmalarining banklararo bozordagi roli pasaydi. Ammo xususiy shaxslar hamda nisbatan kichik firmalar operatsiyalarida ular hamon katta rol o'ynab kelmoqda.

Xalqaro amaliyotda broker xizmatlarining vositachilik haqini hisoblash tizimi qabul qilingan. Ushbu haqning to'lanishi valyutaning sotuvchisi va sotib oluvchisi o'rtalarida barobar taqsimlanadi hamda kotirovkaga qo'shilmaydi. Vositachilik haqi kontragentlar tomonidan odatda oyma-oy bevosita brokerga to'lanadi. Faqat AQSHning valyuta bozorlarida brokerning vositachilik haqi ko'p vaqt mobaynida sotuvchilar kursiga qo'shib kelingan va valyuta sotilganidan so'ng brokerga to'langan. 1978-yilning sentabridan boshlab Nyu-York valyuta brokerlari Assotsiatsiyasining qaroriga asosan broker xizmatlarining vositachilik haqi hisoblashning amalda bo'lgan xalqaro amaliyoti Amerika valyuta bozorlariga kiritilgan.

7.3. Valyuta bozorlarining turlari

Valyuta operatsiyalarining hajmi va tavsifi, ishlatilayotgan valyutalarning soni hamda erkinlashtirishning darajasiga ko'ra valyuta bozorlari jahon, hududiy va milliy (mahalliy) bozorlarga bo'linadi.

Jahon valyuta bozorlari jahon moliyaviy markazlarida to'plangandir. Ularning ichida London, Nyu-York, Frankfurt-Mayn, Parij, Syurix, Tokio, Syangan, Singapur, Bahrayndagi valyuta bozorlari ko'zga tashlanadi. Jahon valyuta bozorlarida banklar jahon to'lov aylanmasida keng ishlatiladigan valyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshiradilar. Hududiy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan valyutalar bilan esa, ularning maqomi hamda ishonchliligidan qat'i nazar, banklar bitimlarni deyarli amalga oshirmaydilar. London valyuta bozori (400-460 mlrd. dollar yoki jahondagi kunlik valyuta bitimlarining 30%dan ziyodi) yetakchilikni qo'lda saqlab kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich Parijdagi valyuta operatsiyalari hajmidan 9 marta, Frankfurt-Mayndagidan 5 marta, Nyu-Yorkdagidan 2 marta ko'pdir. Jahon valyuta aylanmasining 40 foizi Yevropa bozoriga, 40 foizi Amerika bozoriga va 20 foizi Osiyo bozoriga to'g'ri keladi.

London o'zining ushbu jarayondagi katta tajribasi, valyuta operatsiyalarining likvidliligi, xorijiy banklarning ko'pligi (76 mamlakatdan 524 bank) tufayli xorijiy valyutalar bilan savdoda azaldan yetakchi edi. Harbiy Yevropadagi integratsiya jarayoni natijasida Xalqaro (hududiy) Yevropa valyuta bozori shaklandi va 1979-1998-yillar mobaynida ushbu bozordagi hisob-kitoblar EKYUda amalga oshirildi. 1999-yilning yanvaridan boshlab Yevropa valyuta bozori rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi va undagi hisob-kitoblar Yevropaning yangi kollektiv valyutasi "Yevro"da amalga oshadigan bo'ldi. Yevro kursining dollarga va yevro hududiga kirmaydigan mamlakatlar valyutalariga nisbatan kotirovkasini Frankfurt-Mayndagi Yevropa Markaziy banki amalga oshiradi.

Osiyo hududida Singapur valyuta bozori katta odimlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu bozor o'zining kunlik operatsiyalari hajmi (139 mlrd. dollar) bo'yicha Tokiodan (149 mlrd. dollar) keyin 2-o'rinni egalladi. Osiyoning boshqa mamlakatlari bozorlariga qaraganda erkinroq bo'lgan Singapur bozorida amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmining 1995-yildan 1998-yilgacha bo'lgan davr

ichida 32 foizli o'simiga erishildi. Huddi shu davr ichida esa Tokioda ushbu operatsiyalarning hajmi 8%ga, Gonkongda - 13%ga qisqardi.

Hududiy va mahalliy valyuta bozorlarida konvertatsiya qilindigan muayyan bir valyutalar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Ushbu valyutalar qatoriga Singapur dollari, Saudiya riyali, Quvayt dinori va boshqa shu kabi valyutalar kiradi. Muayyan bir hududda valyuta operatsiyalari uchun ishlatiladigan valyutalarning kotirovkasi ushbu hudud banklari tomonidan nisbatan muntazam bo'lgan asosda amalga oshiriladi. Mahalliy ahamiyatdagi valyutalarning kotirovkasi esa ushbu valyutalar mahalliy deb hisoblanmish banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Valyuta bozorlari iqtisodiyot va siyosatdagi o'zgarishlarga sezgir bo'lib, ularga o'z aks ta'sirini o'tkazgan holda jahon xo'jaligining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi valyuta bozorlarining rivojlanishiga ko'maklashadi. Jahon valyuta bozorlaridagi kunlik bitimlar hajmi 1 trln. AQSH dollaridan ziyodni tashkil qiladi. Kurs nisbatlarining keskin tebranishi valyuta bozorlari faoliyatini qiyinlashtiradi. Valyuta bozorlarining mexanizmi valyuta chayqovi uchun sharoit yaratib beradi, chunki ushbu mexanizm valyutaga haqiqatda ega bo'lmagan holda bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Valyuta operatsiyalari natijasida "qaynoq pullar"ning stixiyali harakati, kapitalning "qochib ketishi", valyuta kurslarining tebranishi kuchayadi. "Valyuta talvasasi" kuchsiz valyutalarga salbiy ta'sir etadi, ayrim mamlakatlarning valyuta-iqtisodiy holati, jahon iqtisodiyoti va valyuta tizimining barqarorsizligini oshiradi. Valyuta bozorlarining stixiyali faoliyati oqibatida og'irlashayotgan valyuta qiyinchiliklari mamlakatlar iqtisodiy siyosatiga ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiyotni muvofiqlashtirish yuzasidan ularning o'zaro kelishilgan xatti-harakatlarining muhim muammosi bo'lib hisoblanadi.

Jahon valyuta bozorining konyunktura mexanizmi va unga ta'sir etuvchi omillar

Jahon valyuta bozorining konyunktura mexanizmi deganda odatda ushbu bozorda valyutalarga bo'lgan talab va taklifning shakllanish mexanizmi tushuniladi. Bozorning konyunktura mexanizmi murakkab bo'lib, uni o'rganish moliyaviy vositachilar uchun nihoyatda muhimdir. Chunki bozorda, operatsiyalar o'tkazish jarayonida,

qaror qabul qilish uchun moliyaviy vositachilar ma'lum bir tahliliy ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida bunday tahlilning 2 uslubi, ya'ni fundamental va texnik tahlil usullari mavjud.

Texnik tahlil – bu, asosan grafiklar yordamida, baholarni kelgusidagi harakat yo'nalishini prognozlash maqsadida bozor dinamikasini o'rganishdir. "Bozor dinamikasi" atamasi, texnik tahlil ixtiyorida bo'lgan baho, hajm va ochiq manfaatdan iborat 3 ma'lumot manbasini o'z ichiga oladi.

Texnik tahlil quyidagilarga asoslanadi:

- 1) bozor barcha narsalarni hisobga oladi;
- 2) baholar harakati tendensiyalarga bo'ysungan.

Bozor barcha narsalarni hisobga oladi. Ushbu tushuncha texnik tahlilning asl mazmunini tashkil etadi. Texnik tahlilchi faraz qiladi, fyuchers tovar shartnomasi bahosiga ta'sir eta oladigan iqtisodiy, siyosiy, psixologik va har qanday sabablar, albatta, o'z aksini tovar bahosida topadi.

Bundan kelib chiqadiki, bozor ishtirokchilaridan talab etiladigan narsa – bu, baholar harakatini sinchkovlik bilan o'rganishdir. Boshqacha qilib aytganda, talab va taklif dinamikasidagi har qanday o'zgarish baholar dinamikasida aks etadi. Agar talab taklifdan yuqori bo'lsa baholar o'sadi. Agar taklif talabdan yuqori bo'lsa baholar pasayadi. Bular har qanday iqtisodiy prognozlashtirish asosida yotadi. Texnik tahlilchi esa bu masalaga boshqacha yondoshadi va quyidagicha fikr yuritadi: agarda bozorda baholar qandaydir sabablarga ko'ra ko'tarila boshlagan bo'lsa, demak talab taklifdan yuqoridir. Demak, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha bozor "ho'kizlar" uchun qulaydir. Agar baholar pasayib borayotgan bo'lsa unda bozor "ayiqalar" uchun qulaydir.

Talab va taklifning chuqur mexanizmi u yoki bu tovar bozoringing iqtisodiy tabiati, baholarning pasayish yoki ko'tarilish tendensiyasini belgilab beradi. Grafiklar o'zidan-o'zi bozorga ta'sir eta olmaydi. Ular bozordagi hozirgi paytda shakllangan pasayish yoki o'sish tendensiyasini aks ettiradi.

Grafiklar tahlili bo'yicha mutaxassislar odatda baholar o'sishi yoki pasayishini keltirib chiqargan omillarning chuqur sabablariga o'z e'tiborlarini qaratmaydilar. Ko'p hollarda baholar o'zgarish

tendensiyasi endigina shakllanishining dastlabki bosqichlarida yoki aksincha qandaydir hal qiluvchi bosqichlarda bunday o'zgarishlarning sabablari hech kimga ma'lum bo'lmashligi mumkin.

Masalaga texnik yondoshish masalani soddalashtiradi yoki qo'pollashtiradi, degan fikr hosil bo'lishi mumkin. Biroq "bozor barcha narsani hisobga oladi" degan tushuncha ortida yotgan mantiq shuni aniq ko'rsatadiki, bozorda texnik tahlilchi qanchalik ko'p tajriba orttirsam, yuqorida zikr etilgan tushunchaning shunchalik hayotiyligi kelib chiqadi. Bundan xulosa shuki, bozor bahosiga ta'sir etuvchi har qanday narsa, albatta, ushbu bahoga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, baholar dinamikasini sinchiklab o'rganish nihoyatda zarurdir. Baho grafiklari va ko'pchilik qo'shimcha indikatorlarni tahlil etgan holda texnik tahlilchi shunga erishadiki, bozorning o'zi rivojlanishning ehtimolli yo'nalishlarini ko'rsatib beradi.

Baholar harakati tendensiyalarga bo'ysunadi. Tendensiya yoki trend (trend) tushunchasi texnik tahlilda asosni tashkil etuvchilardan biridir. Shuni yaxshi tushunib olish kerakki, bozorda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarish u yoki bu tendensiyalarga bo'ysungandir. Fyuchers bozoridagi baholar dinamikasini ko'rsatuvchi grafiklar tuzishdan asosiy maqsad ushbu tendensiyalarni dastlabki paydo bo'lishi paytidayoq ularni aniqlab topish va harakat yo'nalishiga muvofiq ravishda savdo qilishdir.

Texnik tahlilning ko'pchilik uslublari, o'z tabiatiga ko'ra, "trend following" tendensiyasi ketidan ergashuvchi hisoblanadi, ya'ni ularni funksiyalari tahlilchiga tendensiyaning aniqlab topishga yordam berish hamda ushbu tendensiyaga uning mavjudligi davri mobaynida rioya etishdan iborat.

Baholar harakati tendensiyalarga bo'ysunadi degan tushunchadan 2ta xulosa kelib chiqadi:

- 1) harakatdagi tendensiya har qanday ehtimolga ko'ra o'ziga qarama-qarshi bo'lgan tendensiyaga aylanmay, rivoji davom etadi;
- 2) harakatdagi tendensiya toki uning teskari (qarama-qarshi) harakati boshlangunga qadar rivoji davom etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda savdo, to trend harakati teskari burilishga harakati boshlangunga qadar davom etishi kerak ekan.

Texnik tahlil va bozor dinamikasini o'rganish odam psixologiyasini o'rganish bilan yaqindan bog'liqdir. Masalan, so'nggi 100 yil ichida ajratib olingan va tasniflangan grafik baho modellari bozor psixologik holatining muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Birinchi navbatda ular hozirgi bosqichda bozorda qanday "ho'kiz" yoki "ayiq" tendensiyalari hukmronligini ko'rsatadi. Agarda, ushbu modellar ilgari (o'tmishda) ishlagan bo'lsa, kelgusida ham ishlashi mumkinligi ehtimoli bor. Chunki ular yillar mobaynida o'zgarmaydigan odam psixologiyasiga asoslangan. Ya'ni yuqoridagilarni boshqacha ta'riflasa bo'ladi: kelajakni tushunishning kaliti o'tmishni o'rganishdadir.

Texnik va fundamental tahlilni o'zaro taqqoslash. Agar texnik tahlil asosan bozor dinamikasini o'rganish bilan shug'ullansa, fundamental tahlilning predmeti bo'lib baholar o'zgarishi yoki tebranishini keltirib chiqaruvchi, baholarni yuqoriga o'sish yoxud pastga tushishga yoki ma'lum bir darajada qotib turishga majbur etadigan, talab va taklifning iqtisodiy kuchlari hisoblanadi.

Fundamental yondoshuvda tovar bahosiga ta'sir etuvchi barcha omillar tahlil etiladi. Bu esa tovarning ichki yoki haqiqiy qiymatini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Fundamental tahlilning natijalariga ko'ra tovarning aynan shu haqiqiy qiymati u yoki bu tovar haqiqatda qancha turishini aks ettiradi. Agar tovarning haqiqiy qiymati bozor bahosidan past bo'lsa unda tovarni sotish kerak. Chunki uning haqiqiy qiymatidan ko'ra yuqoriroq bahoda sotib olishmoqchi. Agar, tovarning haqiqiy qiymati uning bozor bahosidan yuqori bo'lsa, unda tovarni sotib olish kerak. Chunki tovar uning haqiqiy qiymatidan ko'ra past bahoda sotib olinmoqda.

Bozorni prognozlash bilan shug'ullanuvchi texnik va fundamental tahlil, ikkalasi ham qaysi yo'nalishda baholarni harakatlanishini aniqlash bilan bir muammoni hal etmoqchi. Ammo ushbu masalaga ular har xil tarafdin yondashadilar.

Agar fundamental tahlilchi bozor harakatining sabablarini o'rganmoqchi bo'lsa, texnik tahlilchini faqatgina ushbu harakatning o'zi qiziqtiradi. Ya'ni texnik tahlilchining maqsadi ushbu harakat yoki bozor dinamikasining mavjudligini bilish holos. Ushbu harakatni keltirib chiqaruvchi sabablar uning uchun muhim emas.

Fundamental tahlilchi esa ushbu harakatning sababini, ya'ni nima sababdan ushbu harakat yoki dinamika sodir bo'lganligini bilishga intiladi.

Fyucherslar bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik mutaxassislar o'zlarini fundamental yoki texnik tahlilchilar qatoriga qo'shadi. Aslida esa fundamental va texnik tahlilchilar o'rtasidagi farq aniq yoki sezilarli emas.

Ko'pchilik fundamental tahlilchilar grafiklarni tahlil etishning boshlang'ich bilimiga ega. Shu bilan birgalikda, shunday texnik tahlilchi yo'qki, fundamental tahlilning asosiy qoidalarini bilmagan bo'lsin. Ammo amalda ushbu 2 uslubning bir-biriga aralashishiga aslo yo'l qo'ymaydigan tarafdorlar mavjud. Gap shundaki, tahlilning bu ikkala uslubi ko'p hollarda o'zaro qarama-qarshilikka uchraydi. Odatda, bozordagi muhim o'zgarishlar (jarayonlar)ning eng boshida bozorning xatti-harakatlari fundamental tahlilning hech bir chegarasiga sig'may qoladi va buni faqat iqtisodiy omillar asosida tushuntirishning imkoni bo'lmay qoladi. Aynan shunday, umumiy tendensiya uchun tang holatlarda tahlilning 2 uslubi bir-biridan sezilarli farqlana boshlaydi. Keyinchalik qandaydir bosqichda ular faza bo'yicha bir-biriga mos keladi. Ammo bunday holatda endi trendlarning o'xshash harakat qilishi uchun (bozordagi o'zgarishga muvofiq ravishda) kech bo'ladi.

Yuqorida zikr etilgan 2 uslub o'rtasidagi qarama-qarshilikning sababi quyidagicha bo'lishi mumkin: bozor bahosi barcha ma'lum fundamental ma'lumotlarni (tarqalishi nuqtayi nazaridan) tezlik jihatidan oshadi. Boshqacha qilib aytganda, bozor bahosi fundamental ma'lumotlarni o'zib o'tuvchi indikator bo'lib xizmat qiladi (yoki sog'lom mantiq).

Bozor barcha ma'lum iqtisodiy omillarni hisobga olgan bo'lsa-da, baholar qandaydir yangi, hali o'rganilmagan omillar ta'sirida o'zgara boshlaydi.

Tarixda baholar o'sishi va pasayishining eng sezilarli davrlari, fundamental ko'rsatkichlar nuqtayi nazaridan hech qanday o'zgarish kutilmagan davrda boshlangan hamda ushbu o'zgarishlar fundamental tahlilchilarga tushunarli bo'lgan paytda yangi tendensiya o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetgan bo'lar edi.

Vaqt o'tishi bilan texnik tahlilchiga grafikni og'ish va tahlil qila olish ishonchi keladi. U asta-sekin bozorni sog'lom mantiqqa to'g'ri kelmasligi vaziyatiga o'rganadi. Texnik tahlilchi, bugun yoki ertaga bozor dinamikasining sabablari barchaga ayon bo'lishini aniq biladi. Albatta, bu keyinchalik bo'ladi. Hozir esa ushbu qo'shimcha ishonchga vaqt sarflash mumkin emas.

Texnik tahlil bilan yuzaki tanishishning o'zigina uning fundamental tahlildan ustun ekanligini ko'rsatadi. Agarda bu ikkala usuldan birini tanlash masalasi tursa unda, albatta, texnik tahlilni tanlash kerak. Chunki birinchidan ta'rifga ko'ra, u fundamental tahlil foydalanadigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Agarda ushbu ma'lumotlar bozor bahosida o'z aksini topsa unda ularni alohida tahlil etishga zarurat qolmaydi. Demak, grafiklar tahlili fundamental tahlilning soddalashtirilgan shakliga aylanadi. Afsuski, fundamental tahlil haqida bunday deb bo'lmaydi. Fundamental tahlil baholar dinamikasini o'rganish bilan shug'ullanmaydi. Faqat texnik tahlil bilan foydalangan holda tovar fyucherslar bozorida muvaffaqiyatli ishlash mumkin.

Birinci qarashda yuqorida zikr etilgan taqqoslash unchalik tushunarli emas. Ammo agar qaror qabul qilish jarayonini 2 tarkibiy qismga ajratgan holda ko'rib chiqilsa barcha narsa tushunarli bo'ladi:

- 1) vaziyatning tahlili;
- 2) vaqtni (paytni) tanlash.

Birjada muvaffaqiyatli o'ynash uchun, ayniqsa, fyuchers shartnomalarida bozorga kirish va bozordan chiqish vaqti (payti)ni to'g'ri tanlash nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki bunda richag (leverage) samarasi yuqoridir.

Tendensiyani to'g'ri aniqlagan holda pul yo'qotish mumkin. Garov kafolatining unchalik katta bo'lmagan miqdori (odatda 10 foizdan kam) shunga olib keladiki, baholarni biz uchun nomuvofiq bo'lgan yo'nalishda arzimagan tebranishi bizni bozordan siqib chiqarishi mumkin. Natijada garov mablag'laridan to'la ajralib qolishimiz mumkin.

Taqqoslash uchun fond birjasida o'ynayotgan treyder agarda bozor unga qarshi borayotganligini sezsa uning ko'chasida ham bayram bo'lishiga ishongan holda kutib turish (poylash) pozitsiyasini

tanlashi mumkin. Treyder o'z aksiyalari harakatini to'xtatadi, ya'ni treyderdan u investorga aylanadi.

Tovar bozorida esa bu aslo mumkin emas. Fyuchers shartnomalari uchun "sotib ol va ushlab tur" tamoyili mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Shu sababli yuqorida zikr etilgan 2 tarkibiy qismga qaytsak, tahlil fazasida ham texnik tahlil hamda fundamental uslubdan foydalanish mumkin (to'g'ri prognozni olish uchun). Bozorga kirish va undan chiqish vaqtini to'g'ri tanlashga kelsak, buning uchun faqat texnik uslub kerak bo'ladi. Shunday qilib, o'z zimmasiga bozor majburiyatlarini olishdan oldin, treyder amalga oshirishi kerak bo'lgan qadamlarni ko'rib chiqib, dastlabki bosqichlarda fundamental tahlildan foydalanilgan bo'lsa ham yana bir bor ishonch hosil qilishimiz mumkin, aynan ma'lum bir bosqichda texnik tahlil mutlaqo zarurdir.

Texnik tahlilning kuchli taraflaridan biri shundaki, undan har qanday tovar bilan savdo jarayonida va vaqtning har qanday oralig'ida foydalanish mumkin.

7.4. "Spot" operatsiyalari (kassa shartnomalari)

Jahon valyuta bozorida eng ko'p amalga oshiriladigan operatsiyalar – bu, spot ("Spot") operatsiyalaridir. Agar jahon valyuta bozorida amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni 100% deb olsak, ularning 70 foizidan ziyodi spot operatsiyalariga to'g'ri keladi.

Spot operatsiyasi – bu, bir zumda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyasi bo'lib, sotuvchi sotgan valyutasini sotib oluvchiga 2 bank ish kuni davomida, shartnoma tuzilgan kun kursi bo'yicha yetkazishi lozim. Zamonaviy sharoitda, mazkur valyuta operatsiyalarining amalga oshirilishi va valyutaning yetkazilishi 2 bank ish kunini talab etmaydi.

Kassa shartnomasi spot shartlari asosida amalga oshiriladi va asosan xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha, kurslar o'zgarishi oqibatida ehtimolli valyuta yo'qotishlarining oldini olish, shuningdek, kapitallarni (qaynoq pullarni o'z ichiga olgan holda) bir joydan boshqa joyga tez oqib o'tishi maqsadida xorijiy valyutani zudlik bilan sotib olish uchun qo'llaniladi.

Valyuta kurslarining erkin tebranishi rejimiga o'tilishi bilan valyutalar bilan chayqov kassa savdosi kuchaydi. Ushbu operatsiyalar

valyuta bozorlarida keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda banklararo bozor umumiy muomalasining ko'p qismini tashkil etadi.

Kassa operatsiyalari uchun xususiyatli narsa shundaki, shartnoma tuzilishining payti uning ijro etilish payti bilan to'g'ri kelmaydi. Valyuta shartnoma tuzilganidan so'ng o'sha zahoti, 2 bank ish kundan kechikmagan holda, sotib oluvchiga yetkaziladi. Valyutani yetkazib berish muddati valyutalashtirish sanasi deb ataladi. Agarda valyutalashtirish sanasi bir ishtirokchi hududida dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda ijro sanasi bo'lib ikkala ishtirokchi uchun ham dam olish kundan so'nggi ish kuni hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda spot operatsiyalarini turlari bo'yicha valyutalashtirish sanalarini ko'rishimiz mumkin.

7.4-jadval

Spot operatsiyalarini turlari bo'yicha valyutalashtirish sanalari

Nomi	Standart belgisi	Tuzilish sanasi	Valyutalashtirish sanasi	Davr	Yakunlanish sanasi
Overnight	o/n	Bugun	Bugun	1 kun	ertaga
Tom/next	t/n	Bugun	Ertaga	1 kun	ertadan keyin
Tom/week	t/w	Bugun	Ertaga	1 hafta	ertaga + 7 kun
Spot			2-ish kuni		
Spot/next	s/n	Bugun	2-ish kuni	1 kun	3-ish kuni
Spot/week	s/w	Bugun	2-ish kuni	1 hafta	Spot + 1 hafta
Spot/month	1 m	Bugun	2-ish kuni	1 oy	Spot + 1 oy
Spot/3 mth	3 m	Bugun	2-ish kuni	3 oy	Spot + 3 oy
Spot/6 mth	6 m	Bugun	2-ish kuni	6 oy	Spot + 6 oy
Spot/year	12 m	Bugun	2-ish kuni	1 yil	Spot + 1 yil

Sotuvchi sotilgan valyutani odatda sotib oluvchi bank ko'rsatgan hisob raqamiga, telegraf orqali o'tkazadi.

Spot shartnomasidagi ishtirokchilar o'rtasida valyuta kursining asosiy ko'rsatkichi sifatida telegraf orqali pul o'tkazish kursi qo'llaniladi. Naqdli shartnomalarning kurslari kotirovka jadvallarida

(byulleten) chop etiladi. Bunda Bid sotib olish kursi, Offer sotish kursi deb belgilanadi.

Kassa shartnomalarida yakuniy hisob-kitob sanasining to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kassa (kesh) atamasi odatda hisob-kitoblar, shartnoma shartlari kelishiladigan kunda amalga oshadigan valyuta shartnomalariga aloqadordir. Bu atama, asosan, Shimoliy Amerika va valyuta sotib olish uchun ushbu bozorlar xizmatlariga murojaat etadigan mamlakatlar bozorlarida, ular uchun qulay soat poyaslari mavjudligi sababli ishlatiladi. Yevropa va Sharqiy bozorlarda kassa shartnomalari shu kunda hisob-kitobi bilan shartnomalar deb ataladi.

Valyuta bozori, valyuta almashuvi operatsiyasida ishtirok etayotgan tараflardan birontasi ham boshqa tarafga kredit bermayotganligini kafolatlaydigan, kompensatsiya qilingan qiymat tamoyili asosida harakat qilayotganligi spot sanasi to'g'ri (aniq) belgilanishining muhimligini ko'rsatadi. Bu degani London banki funtlarni to'layotgan kunda Amerika banki AQSH dollaridagi uning ekvivalentini to'lashi kerak. Ammo, shunga qaramasdan, ikkala to'lov ham tegishli benefitsiarlar tomonidan bir vaqtda olinishini amalda kafolatlab bo'lmaydi. Vaqtdagi (soatlar) 5 soatlik farqlarni hisobga olib Nyu-York bankida eshiklar endi ochilayotgan paytda London banki kliring uchun yopiladi. Bunda London banki Nyu-York bankiga kunduzgi overdraftni taqdim etishga majbur bo'ladi.

Rivojlangan pul bozorlarida foiz faqat sutkalik overdraftga hisoblanadi, kunduzgi overdraft holatida (kun mobaynidagi overdraftga) esa foiz hisoblanmaydi. Spot sanasiga ham agarda u dam olish kuniga to'g'ri kelsa ma'lum bir tuzatishlar kiritilishi mumkin. Faraz qilaylik, shartnoma juma kuni amalga oshirilgan bo'lsa, unda spot kuni kelasi haftaning seshanba kuniga to'g'ri keladi. Agarda, Nyu-York banki uchun dushanba dam olish kuni bo'lsa muammo tug'iladi (London banki Nyu-York banki bilan shartnomali munosabatlarga kirgan bo'lsa). Agar Nyu-Yorkda dushanba dam olish kuni bo'lib, London banki bu haqda unutib qo'ygan bo'lsa, unda Nyu-York banki seshanbaga emas, balki chorshanbaga to'g'ri keladigan spot kunini Nyu-Yorkchasiga belgilaydi. Londondagi diler esa Nyu-Yorkdagi diler seshanbani spot kuni deb belgilaganini odatdagi hol deb qarashi mumkin, chunki bu kun Londonda spot kunidir. Seshanba kuni

London banki, Nyu-Yorkda AQSH dollaridagi ekvivalentni olishni ko'zlab, 1000000 GBPni to'laydi va Nyu-Yorkdagi bank bu pullarni faqat chorshanba kuni to'lashini aniqlaydi. Agarda Nyu-York banki London bankiga kotirovka olishga murojaat etganida vaziyat boshqacha bo'lar edi, chunki bu holatda hisob-kitob kuni London kalendari bo'yicha aniqlanar edi hamda dushanba Nyu-Yorkda dam olishi kuni bo'lishi mumkin, ammo bunda Londondagi bankda ish kuni bo'lganligi sababli spot kuni sifatida seshanba belgilanishi mumkin.

Shunday qilib, kotirovkani amalga oshirayotgan bank mamlakatidagi bank ish kunlari spot kuni belgilanishini aniqlab beradi. Shuning uchun shartnomadagi taraflardan biri o'zining belgilagan spot kuni respondent tomonidan belgilangan spot kuniga to'g'ri kelishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Spot kurs - oldindan kelishuv yoki shartnoma sifatida rasmiylashtirilmagan, valyuta operatsiyalarida qo'llaniladigan (ishlatiladigan) oldi-sotdi valyuta almashuvi kursidir.

Spot kursining kotirovkasi hozirgi daqiqaga beriladi, valyutaning o'zi esa kechi bilan 2 bank ish kunidan so'ng yetkazilib beriladi. Masalan, eksportyorlar qancha GBP olishi yoki importyorlar qancha GBP to'lashi kerakligi bankning vositachilik haqi hisobga olinib, quyidagi holatlardan kelib chiqqan holda hisoblansin:

A) Britaniyalik eksportyor Fransiyalik mijozdan 15000 yevro hajmida to'lovni oldi.

B) Britaniyalik importyor yaponiyalik sotuvchidan 1000000 GPY hajmida tovarlarni sotib oldi.

D) Britaniyalik eksportyor gollandiyalik mijozidan 80000 yevro hajmida to'lovni oldi.

E) Britaniyalik eksportyor Germaniyaning maslaxatchi firmasiga 120000 yevro hajmida xizmat haqi to'ladi.

Bozordagi sharoit: Spot kurslari

Fransiya	1,34 - 1,37
Yaponiya	228,5 - 230,5
Niderlandiya	1,45 - 1,47
Germaniya	1,09 - 1,11

Ishlanishi:

A) Bankdan yevroni sotib olishni so'rashdi va u eksportyorga quyidagi summani beradi - $150000 / 1,37 = 109489,05$ GBP.

B) Importyor uchun GBP ni sotishni bankdan iltimos qilishdi - $1000000 / 228,5 = 4376,37$ GBP.

D) Eksportyor yevroni sotib olishni bankdan iltimos qilishdi va u quyidagi summani to'laydi - $80000 / 1,47 = 54421,78$ GBP.

E) Bankdan yevroni sotishni iltimos qildilar va u quyidagi summani talab qiladi - $120000 / 1,09 = 110091,74$ GBP.

Spot operatsiyalarini amalga oshiradigan dilerlar valyuta pozitsiyasini yuritadilar.

Valyuta pozitsiyasi – dilerning talab va majburiyatlari nisbatidir. U ikki qismdan, ya'ni "uzun" va "qisqa" pozitsiyalardan iborat.

"Uzun" pozitsiyada dilerning talablari aks etadi. Diler tomonidan valyuta sotib olinganida dilerda sotuvchiga nisbatan talablar hosil bo'ladi.

"Qisqa" pozitsiyada dilerning majburiyatlari aks etadi. Diler tomonidan valyuta sotilganida sotib oluvchi oldida dilerning majburiyatlari hosil bo'ladi.

Agarda dilerning talablari majburiyatlaridan ko'p bo'lsa, unda valyuta pozitsiyasi "uzun" pozitsiya bo'yicha ochiq hisoblanadi. Agarda dilerning majburiyatlari talablaridan ko'p bo'lsa, unda valyuta pozitsiyasi "qisqa" pozitsiya bo'yicha ochiq hisoblanadi. Dilerning talab va majburiyatlari o'zaro teng bo'lsa, unda valyuta pozitsiyasi yopiq hisoblanadi.

Har qanday diler jahon valyuta bozorida o'z milliy valyutasida operatsiyalarni amalga oshiradi. Diler valyuta pozitsiyasini o'z milliy valyutasida yoki AQSH dollarida yopadi.

Masalan, Nyu-Yorkdagi diler quyidagi operatsiyalarni amalga oshirdi:

Sotish	Sotib olish	Kurs
1000 USD	653,59 GBP	1,5300/05 USD
2000 USD	2353 CHF	1,1760/65 CHF
1500 USD	2171,85 SEK	1,4474/79 SEK
600 GBP	922,98 USD	1,5378/83 USD
2000 CHF	1711,45 USD	1,1686/91 CHF
2000 SEK	1388,12 USD	1,4408/13 SEK

Birinchi operatsiyada diler 1000 USD ni 1,5300 kursi asosida sotib, 653,6 funt sterlingni sotib oladi. 1000 USD ni sotganligi sababli Nyu-Yorkdagi dilarning sotib oluvchi oldida 1000 USD ni yetkazib berish bo'yicha majburiyati hosil bo'ldi va ushbu majburiyat valyuta pozitsiyasining qisqa qismida "USD"lari ustunida aks ettiriladi. O'z navbatida sotib olingan 563,6 funt sterling uzun pozitsiyaning "GBP"lar ustunida aks ettiriladi. Chunki sotib olish natijasida Nyu-Yorklik dilerda sotuvchiga nisbatan talablar hosil bo'ldi.

Ikkinchi va uchinchi operatsiyalar yuqorida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi hamda valyuta pozitsiyasiga yozib boriladi. Bunda USDlari ustunidagi qoldiq o'sib boradi.

7.5-jadval

Valyuta pozitsiyasi

Operatsiyalar		Pozitsiya							
		Uzun				Qisqa			
Sotib olish	Sotish	GBP	USD	CHF	SEK	GBP	USD	CHF	SEK
653,6 GBP	1000 USD	653,6					1000		
2353 CHF	2000 USD			2353			3000		
2171,8 SEK	1500 USD				2171,8		4500		
922,98 USD	600 GBP	53,59					3577,0		
1711,5 USD	2000 CHF			353			1865,6		
1388,1 USD	2000 SEK				171,8		477,52		
	53,59	-	353	171,8	-	477,52	-	-	

To'rtinchi operatsiyada 600 funt sterling sotilishi evaziga 922,98 AQSH dollari sotib olinadi. Natijada uzun pozitsiyaning GBPlar ustunida 53,59 GBP qoldiq hosil bo'ladi. Chunki birinchi operatsiya natijasida Nyu-Yorklik dilerda 653,6 GBP hajmida talab hosil bo'lgan bo'lsa, 4-operatsiya natijasida unda endi 600 GBP hajmida majburiyat

hosil bo'ldi. Dilerlarning talab va majburiyati solishtirilganda talabi majburiyatidan 53,5 GBPga ko'p ekanligi aniqlandi hamda mazkur qoldiq uzun pozitsiyaning "GBP"lar ustuniga yozib qo'yildi. Huddi shu singari 5 va 6-operatsiyalar amalga oshiriladi hamda natijalar pozitsiyaning tegishli ustunlariga yozib qo'yiladi.

Ish kuni tugashi bilan diler o'z valyuta pozitsiyasini yopishi kerak. Bizning misolimizda yuqoridagi jadvalning uzun va qisqa pozitsiyalarini tegishli valyutalar bo'yicha ustunlarida qoldiqlar chiqariladi hamda mazkur pozitsiyani yopish uchun quyidagi ko'rinishdagi jadval tuziladi.

7.6-jadval

Valyuta pozitsiyasining USD larida yopilishi

Uzun		Qisqa	
Valyutada	USD	Valyutada	USD
53,59 GBP	82,44	477,52 USD	477,52
353 CHF	302,07		
171,8 SEK	119,24		
Jami	503,75		477,52

Ushbu valyuta pozitsiyasini yopish uchun diler 26,23 USD ga (503,75 - 477,52) teng summani talab qilib olsa pozitsiya yopiladi.

Valyuta pozitsiyasining yopilishi bo'yicha yuqorida ko'rib chiqilgan masaladagi holat amalda mavjud emas, chunki zamonaviy sharoitda dilerlar valyuta pozitsiyalarini deyarli yopmaydilar. Ish kunining oxirida misolimizdagi diler o'z pozitsiyasini valyuta bozori ochiq bo'lgan joydagi o'z hamkoriga uni davom ettirish uchun oshiradi va mazkur pozitsiya yer yuzini aylanib, ertangi ish kunining boshiga dastlabki dilerga qaytib keladi. Ammo bu endi butunlay boshqa pozitsiyadir, chunki diler dam olgan paytda jahon valyuta bozori dam olgani yo'q va unda tinmay operatsiyalar amalga oshgan hamda valyutalarning kurslari o'zgarib borgan. Shu sababli valyuta pozitsiyasini nazoratsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki qisqa vaqt ichida valyuta kurslarining nomutanosib o'zgarishi oqibatida katta zarar ko'rish mumkin.

Valyuta dilerlari kurslar haqidagi ma'lumotlarni qayerdan oladilar degan haqli savol tug'iladi. Yevropada valyutalar bilan aktiv

savdo mahalliy vaqt bilan soat 9 ga yaqin boshlanadi. Biroq ushbu bozorda operatsiyalar boshlangunga qadar ancha avval valyuta dilerlari elektron axborotlar tizimi orqali kurslar harakati to'g'risida va Amerika hamda Osiyo bozorlaridan so'nggi ma'lumotlarni oladilar. Vaqtdagi tafovutlar mavjudligi sababli Yevropa bozorlari ochilgan paytda Amerika bozorlari hali yopiq, Osiyo bozorlarida esa savdo kuni yakunlanib borayotgan bo'ladi.

Bozorning ochilishiga bo'lgan kurslar to'g'risidagi qaror Yevropa hududidagi savdo maydonlaridagi baholar harakati, yangi iqtisodiy ma'lumotlar yoki kun mobaynida kutilayotgan siyosiy voqealar hamda kurslar harakati to'g'risidagi o'z prognozlarining baholanishi asosida qabul qilinadi.

Yevropadagi dastlabki kurslarni diler boshqa banklar va kotirovkani amalga oshiruvchi boshqa brokerlardan ma'lumot olgan holda belgilaydi. Kun mobaynida diler ma'lumotlarning mazkur manbasiga muntazam ravishda murojaat etadi.

Reyter tablosida dollarning asosiy valyutalarga hamda oltin va kumushga nisbatan spot kurslari keltirilgan. Alohida valyutalarning "Bid" va "Offer" kurslari (Reyter "offer" o'rniga askni ishlatadi) axborotlarni yetkazib beruvchilar (nomlar qisqartirib ko'rsatilgan) tomonidan muntazam ravishda yangilanib turiladi. Sree va Deal belgilanishlari ostida kiritayotgan taraflar va diling tizimining (banklardagi) kodlari ko'rsatiladi. Foydalanuvchiga kurslar dolzarbligini tushunishi uchun masalaning mohiyatiga so'nggi ma'lumot kiritilganligi vaqti ma'lum qilinadi. Eng yuqori va eng past kurslar doimiy asosda Grinvich vaqti bo'yicha 21.50 da yangilanadi. Mazkur tartib zikr etilgan vaqt mobaynida kurslar harakati to'g'risidagi umumiy holatni ko'rsatadi.

USD/SEKning dastlabki kotirovkalari ertalab 1,6550 - 1,6555ni tashkil etadi deb faraz qilaylik. A bankning dileri dollar kursining kun davomida pasayishini kutmoqda. U dollarlarni iloji boricha qimmatroq sotishga harakat qiladi. Tabiiyki, uning uchun dollarlarni o'z "Offer" kursi asosida sotmoq boshqa bankning "Bid" kursidan afzalroqdir.

Agarda "B" bank "A" bankdan USD/SEKning kotirovkasini so'rasa, "A" bankining dileri "Offer" kursini bozordagiga nisbatan o'ziga qulayroq bo'lgan miqdorda ko'rsatishi mumkin (bozordagi kursdan katta farq qilmagan holda). Bunday holatda berilgan kursning

bozor kursidan katta farq qilib qolishi diler malakasining pastligi to'g'risida dalolat berishi mumkin.

Kotirovkaning so'ralishi va shartnoma tuzilishining odatdagi ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

"B" bank: ertalabki salomdan so'ng, USD/SEKning spoti qanday?

"A" bank: 48 - 53.

"B" bank: marhamat qilib 53 dan 5 dollar.

"A" bank: bajarildi, mening kronam LCBda, Stokgolm.

"B" bank: mening dollarlarim Sitibankda, Nyu-York.

Ushbu turdagi shartnomaning tuzilishi taraflar o'rtasida birinchi qarashda mushkuldek tuyuladi. B bankning spot kotirovkasi haqidagi so'rovi darhol bitimning turi va valyutalashtirish sanasini belgilaydi. A banki tomonidan 48 - 53 kursining kotirovkasi, USD/SEK 1,6548 - 1,6553 ekanligini bildiradi. Mazkur kotirovkada butun son va verguldan so'nggi ikki raqam o'zgarmas hamda oldindan ma'lum bo'lganligi sababli tushirib qoldiriladi.

B bankning 53dan 5 dollar degan javobi, diler tomonidan 5 dollarni 1,6553 bahoda sotib olishga tayyor ekanligini bildiradi. Valyuta to'lovlari uchun zarur bo'lgan manzillar ham qisqacha shaklda bayon etiladi (odatda faqat banklarning nomi).

Shartnomada ishtirok etuvchi kontragentlarning rekvizitlari ko'p hollarda shartnoma tuzilganga qadar, odatda bek-ofis tomonidan o'zaro kelishib olinadi. Yuqorida keltirilgan misolimizda A bank Stokgolmdagi Markaziy bankida shved kronasidagi hisobvaraqqa, B bank esa Nyu-Yorkdagi Sitibankda dollarli hisobvaraqqa ega.

Shartnoma tuzilganidan so'ng A bank qisqa pozitsiyaga ega bo'ladi, ya'ni diler hali o'zida mavjud bo'lmagan dollarlarni sotib yuboradi. Bunday holat, albatta, xatarlidir, chunki dollarning kursi to'satdan ko'tarilib ketsa, unda sotib olinishi kerak bo'lgan dollarlarning bahosi ko'tarilib ketadi. Diler mazkur xatarlarni pasaytirmoqchi deb faraz qilaylik. U boshqa bir bankdan 3 mln. AQSH dollarini 1,6553 kursiga nisbatan ancha past kursda sotib olishi yoki 3 mln. AQSH dollari uchun o'ziga qulay Offer kursini topish maqsadida

brokeraga murojaat etishi va bu bilan Bid kursini kotirovka qilgan holda o'z pozitsiyasini mutanosib ravishda kamaytirishi mumkin.

Broker vositachiligidagi ushbu shartnomaning yakunlanishi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

Broker: USD/SEK 49 - 54

"A" bank: 3 mln. uchun 50 "Bid"

"H" bank: 52 Offer

Broker: : USD/SEK 50 - 52

"Y" bank: 50dan 3 mln. Sizniki.

Mazkur shartnoma yakunlanishiga izoh berish lozim. Bu yerda broker o'z kotirovkalarini emas, balki turli banklarning kotirovkalarini beradi. U eng yuqori "Bid" va eng yaxshi "Offer" ni tanlaydi. Ularni mijozga e'lon qilgan holda shartnoma tuzilishiga yoki manfaatli kotirovkaga umid bog'laydi.

"3 mln. uchun 50 Bid", bu diler 3 mln. AQSH dollarini 1,6550 kursi asosida sotib olish istagi bor deganidir. "H" bankining 52 Offeri summa bilan cheklanmagan va ushbu kurs asosida har qanday standart (3mln.dan 5 mln.gacha) summa sotilishi mumkin. Endi broker boshqa banklarga 1,6550-52 spot kursini taklif etishi mumkin. "Sizniki" ("Men sizga sotaman") va "Meniki" ("Men sizdan sotib olaman"), "3mln. 50 dan Sizniki" kabi diler hamda brokerlar tomonidan ishlatiladigan so'z aylanmalari juda yaxshi tanish va ular "Y" bank 3 mln. dollarni "A" bankka broker orqali 1,6550 kursi asosida sotayotganligini anglatadi.

Savdo kuni mobaynida ushbu shartnomalar ketidan boshqa shartnomalar amalga oshadi va ularning amalga oshish sur'ati bank tomonidan belgilanadi. Har bir alohida olingan operatsiyada valyuta xavf-xatarlari mujassamdir. Ushbu xavf-xatarlarning katta-kichikligi shartnoma summasi va savdo qilinayotgan valyutaning kurs tebranishlariga bog'liqdir. Mazkur xavf-xatarlar muntazam ravishda hisobga olinishi va nazorat qilinishi lozim.

Shartnomalarning rasmiylashtirilishi. Shartnoma tuzilishi bilanoq uning asosiy ma'lumotlari dilerlarning pozitsiyasiga kiritiladi. Ofisning texnik jihozlanishiga qarab ma'lumotlar diler assistenti yoki bevosita diler tomonidan oddiy uslubda (qo'l bilan) kompyuterga kiritiladi. Xorijiy valyutani sotib olish va sotishlar, kurslar hamda kontragentlar hisobi yuritiladi. Shunday qilib diler valyuta

pozitsiyasining hajmi hamda foyda yoki zarar to'g'risidagi ma'lumotga muntazam ravishda ega bo'ladi. Ushbu haqidagi ma'lumot diler faoliyati uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganligi sababli u doim yangilanib turilishi lozim.

Shartnomani rasmiylashtirish va kompyuter tizimiga kiritish uchun rekvizitlar o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni oladi:

Kontragent: "B" bank

Valyutalashtirish: spot

Sotuv: USD 5 000 000

Kurs: 1,6553

Sotib olish: SEK 8 276 500

Ularning to'lovi: Citibank, Nyu-York

Bizning to'lov: Markaziy banki, Stokgolm

Broker: -

Ushbu ma'lumotlar kompyuter tizimida to'ldirib boriladi, zaruriy shaklda hisobi yuritiladi va ular asosida to'lovlar amalga oshiriladi.

Har bir shartnoma tuzilganidan so'ng o'sha zahoti yangilansa, valyuta dileri pozitsiya hajmi va operatsiyalar natijalarini nazorat qilib boradi. Dilerning alohida valyutalar bo'yicha pozitsiyalari netto-pozitsiya hajmini, ya'ni to'lov muddatlarini hisobga olmagan holdagi pozitsiyani xarakterlaydi.

Agarda dilerning pozitsiyasi ijobiy qoldiqqa ega bo'lsa, unda gap uzun pozitsiya haqida boradi. Xorijiy valyuta bo'yicha salbiy qoldiqqa ega pozitsiya qisqa pozitsiya sifatida belgilanadi.

Umuman olganda dilerning pozitsiyasi bankning savdo pozitsiyasini aks ettiradi. Biroq bank tomonidan ma'lum bir uzoq muddatli valyuta pozitsiyalarining yopilmasligi holatida mazkur pozitsiyalar dilerning kunlik pozitsiyasidan alohida yuritiladi. Bunday holatda dilerning pozitsiyasi bankning haqiqiy valyuta pozitsiyasidan farq qiladi.

Kun mobaynida shakllangan spot shartnomasi bo'yicha pozitsiya kunning oxiriga yopilmasa kurs o'zgarishining katta xavf-xatari vujudga keladi. Keyingi kun boshlangunga qadar ochiq qoladigan pozitsiyalar overnaysht-pozitsiyalari deb ataladi. Ushbu turdagi pozitsiyalar bo'yicha xavf-xatarlarni kamaytirish hamda ularni boshqarish maqsadida AQSHdagi savdo ishtirokchilari uchun ko'p hollarda limitlar o'rnatiladi.

Faraz qilaylik, shved bankining dileri kun oxiriga 1,6550 kursi asosida 5 mln. dollarlik uzun pozitsiyaga ega hamda ushbu pozitsiyani diler kelasi kungacha ochiq qoldirmoqchi. Shu bilan birgalikda diler Amerika yoki Osiyo bozorlaridagi valyuta kursining nomutanosib o'zgarishi oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan zararlardan o'z manfaatlarini himoyalamoqchi. Ushbu holatda unda Amerika bankiga "stop-loss-topshiriq" deb ataladigan topshiriqni berish imkoniyati bor. Agar diler ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar 50 ming shved kronasidan oshmasligini xohlasa, unda uning dollarlari 1,6450 kursidan past bo'lmagan kursda sotilishi lozim.

Limitlangan topshiriqlar Amerikadagi bankka topshiriq Amerika bozorida ijro etilmagan taqdirda odatda Osiyoga o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatma bilan birgalikda beriladi. Limitlangan topshiriqlar odatda konsern ichida yoki ushbu tarzda topshiriqlarni qabul qilish to'g'risida avvaldan kelishilgan hamkor bankka beriladi. Limitlangan topshiriqlar bozor tomonidan mo'ljal qilinayotgan kursga erishilishi sharoitida limitlangan topshiriqlarni qabul qilayotgan bank ulardan ijro uchun buyurtma sifatida foydalanishi maqsadida doimiy ravishda yozma tarzda beriladi. Limitlangan topshiriqlarning berilishi faqat banklar-aro savdo bilan cheklanmaydi. Ko'p hollarda korxonalar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan banklarga limitlangan topshiriqlarni beradi. Ushbu yozma topshiriqlar sotib olish/sotish, savdo qilinayotgan valyuta va kotirovka valyutasi, mo'ljal qilingan kurs, valyutalashtirish sanasi, to'lov uslubi, topshiriqning harakat davri hamda boshqa bozorlarga o'tkazib yuborish shartlari to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi lozim.

7.5. Muddatli valyuta operatsiyalari. Forvard operatsiyalari

Real valyuta bilan muddatga shartnomalar tashqi-iqtisodiy operatsiyalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish va xorijdagi kapital qo'yilmalarni sug'urtalash hamda arbitraj foydasini olish maqsadida tuziladi.

Muddatli valyuta operatsiyalari deb, valyutalarni kelgusida yetkazib berish hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish sharti bilan shartnoma tuzish kuni kursi asosida valyutani sotib olish yoki sotish tushuniladi. Ushbu operatsiyalar odatda valyuta kursi

o'zgarishidan sug'urta qilishda yoki chayqov foydasini olishda ishlatiladi.

Banklararo muddatli valyuta operatsiyalari "forvard" operatsiyalari deb ataladi. Forvard operatsiyalari – birjadan tashqari muddatli valyuta operatsiyalari bo'lib, kelishuv asosida telefon yoki teleks orqali banklar va savdo-sanoat kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. 1984-yildan boshlab kredit (moliya) instrumentlari bilan operatsiyalar, ya'ni "kelgusida yetkazib berish to'g'risida kelishuv" (forward rate agreements), o'tkazish amaliyoti qo'llaniladi. Ular bir yilgacha depozitlar bo'yicha foizlar o'zgarishi oqibatida ko'rilgan zararlarni o'zaro qoplash yuzasidan banklararo muddatli kelishuvlardan iborat bo'lib, odatda 1 mln. - 50 mln. AQSH dollari hajmidagi summalarga tuziladi.

Forvard shartnomasi tuzilayotganida uning muddati, kursi va summasi qat'iy belgilanadi. Ammo ijro muddati (1 - 6 oy) yetib kelguncha hisob raqamlari bo'yicha hech qanday summalar o'tkazilmaydi. Ko'pchilik banklar o'zlarida mijozlar tomonidan ochilgan hisob raqamlarda ma'lum bir summa bo'lishini xohlaydilar. Biroq forvard shartnomalari hajm jihatidan chegaralanmay, pul ta'minotini talab etmaydilar.

Muddatli operatsiyalarga forvard, fyuchers va opsion shartnomalari kiradi. Forvard shartnomalari quyidagi ikki asosiy ko'rinishda amalga oshiriladi:

- oddiy forvard bitimi. Bunda ushbu bitimga teskari bo'lgan shartnoma shu vaqtning o'zida tuzilmaydi. Shartnomada ishtirok etayotgan taraflar faqat ma'lum bir summani belgilangan muddatga va kelishilgan kurs asosida yetkazib berish haqida kelishib oladilar. Forvard shartnomasining ushbu turidan valyuta kursi o'zgarishi xavf-xataridan himoyalaniish maqsadida foydalaniladi;

- svop bitimi. Svop shartnomasi – bu, banklar o'rtasida amalga oshiriladigan valyuta shartnomasi bo'lib, bir xil tur va hajmdagi valyutaning turli muddatlarga oldi-sotdi operatsiyalari kombinatsiyasidan iboratdir. Bir shartnoma doirasida valyutaning ma'lum bir summasi muddatga sotib olinadi va usha zahoti naqdli valyuta bozorida sotiladi yoki buning teskarisi bo'lishi mumkin.

Muddatli operatsiyalarni amalga oshirishning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, ular o'ziga xos (xususiyatli) aktiv va

passivlarga qarshi qaratilmagan bo'lsa (ayniqsa forvard operatsiyasi) manyovr uchun katta imkoniyat beradi. Spot operatsiyalari zudlik bilan amalga oshirilishi yoki qoldirilishi lozim, oddiy forvard shartnomalari esa nazorat va tuzatishlarni amalga oshirish uchun vaqt qoldiradilar.

Forvard (muddatli) operatsiyalari (FX forward operations yoki qisqacha FWD) – bu, valyutalarni avvaldan kelishilgan kurs bo'yicha ayirboshlash bitimlaridir, bu bitimlar bugun tuziladi, biroq valyutalash sanasi (ya'ni shartnomaning bajarilishi) kelajakdagi muayyan sanaga qoldirilgan bo'ladi.

Masalan, agar 18-yanvar 2005-yilda spot konversion bitimi tuzilgan bo'lsa, uning valyutalash sanasi bitim tuzilganidan so'nggi 2-ish kuni, ya'ni 20-yanvarga to'g'ri keladi. Agar, spot bitimidan farqli o'laroq, 18-yanvarda 3 oylik forvard bitimi tuzilgan bo'lsa, valyutalash sanasi $20.01.05 + 3 \text{ oy} = 20\text{-aprel } 2005\text{-yilga to'g'ri keladi}$.

Forvard operatsiyalari ikki ko'rinishga ega:

1. *Autrayt bitimlari* (outright) – spot sanasidan farqli bo'lgan valyutalash sanasi bilan bo'lgan bir martalik konversion operatsiyalar. Muddatli operatsiyalarda ularning ulushi 17% ni tashkil qiladi.

2. *Valyuta svopi bitimlari* (FX swap) – turli valyutalash sanalaridagi ikki qarama-qarshi konversion operatsiyalarning kombinatsiyasi. Ular forvard operatsiyalarning katta qismi – 83% ini tashkil etadi.

Forvard muddatlari

Jahon valyuta bozorlarida forvard operatsiyalarining salmoqli hajmi 1 yilgacha bo'lgan standart davrlar – 1, 2, 3, 6 oy va 1 yillik muddatlarga tuziladi (95% dan ortig'i). Ularga valyutalashning *to'g'ri sanalari* mos keladi. Masalan, agarda bugun 15-iyulda (spot 17 iyulda) autrayt bitimi 2 oylik muddatga tuzilsa, valyutalash sanasi aynan 17-sentabrda to'g'ri keladi (mazkur sanalar bayram yoki dam olish kunlariga to'g'ri kelib qolmasligi sharti bilan).

Agar standart muddatlardagi autrayt forvard bitimini tuzishda spot sanasi oyning oxirgi kuniga to'g'ri kelsa, bu holatda valyutalash sanasini aniqlashda *oyning so'nggi sanasi qoidasi* ("end of month rule") dan foydalaniladi. Masalan, agar 2 oylik autrayt bitimi 26-fevralda tuzilgan va spot sanasi 28-fevralga to'g'ri kelgan bo'lsa, valyutalash sanasi 30-aprelga to'g'ri keladi (28-aprelga emas).

Agar forvard shartnomasini bajarish 1 oy ichida (1 kun, 1 hafta, 2 hafta) amalga oshiriladigan bo'lsa, bunday bitimlar *qisqa muddatga* tuzilgan deb hisoblaniladi.

Biroq bank mijozlari ko'pincha tuzadigan forvard bitimlarining valyutalash sanalari standart muddatlarga mos kelmaydi (masalan, 40 kunlik autrayt bitimi). Bunday hollarda bitimlar nostandart sanalar, ya'ni "siniq sanalar" (broken dates)ga ega deb hisoblaniladi. Bunday sanalardagi bitimlarni tuzadigan dilerlar shuni e'tiborga olishlari kerakki, standart muddatli operatsiyalar bozoriga nisbatan mazkur operatsiyalar bozori kam likvidli hisoblanadi va pozitsiyani yopish, shuningdek, kontrbitimni o'tkazish uchun mos kontragentni topish qiyin bo'lishi mumkin.

Quyidagi 7.7-jadvalda forvard operatsiyalari jahon aylanmasining muddatlari bo'yicha salmog'i keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, qisqa muddatlarga tuzilgan muddatli bitimlarning ulushi tobora kamayib bormoqda. Forvard konversion operatsiyalari valyuta risklarini sug'urtalashda, shuningdek, chayqovchilik operatsiyalari uchun ham keng qo'llaniladi.

7.7.-jadval

Forvard konversion operatsiyalarining o'rtacha kunlik jahon aylanmasi (mlrd. AQSH doll., % da)⁵³

Instrument/Muddatlar	2005	2020
<i>Autrayt bitimlari:</i>	97	129
- 7 kungacha	50 (52%)	51 (39%)
- 7 kundan 1 yilgacha	44 (45%)	76 (58%)
- 1 yildan ortiq	3 (3%)	4 (3%)
<i>Valyuta svopi bitimlari:</i>	546	656
- 7 kungacha	382 (70%)	450 (69%)
- 7 kundan 1 yilgacha	155 (28%)	197 (30%)
- 1 yildan ortiq	7 (2%)	8 (1%)

Masalan, turli valyutalardagi tushumlarga ega bo'lgan tashqi savdo tashkilotlari valyuta kurslarining o'zgarishi riskidan himoyalalanish maqsadida forvard shartnomalaridan foydalanadilar.

⁵³ Пискулов Д.Ю. "Теория и практика валютного дилинга". - М.: ЗАО Финансист, Диаграмма, 2006. -- 100 с.

Misol sifatida, Rossiyaning neft qazib chiqaruvchi kompaniyasi neft va neft mahsulotlarini xorijga eksport qiladi va hisob-kitobni AQSH dollarida amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtda u davriy ravishda Germaniyadan zarur quvurlar, qazib chiqarish uskunalari va butlovchi qismlarni sotib oladi (yevroda). Demak, kompaniya bir valyutada eksport tushumlariga, boshqa valyutada esa to'lov majburiyatlariga ega. Agar kompaniyada neftni sotish va quvurlarni sotib olishning aniq rejasi mavjud bo'lsa, u yevroning dollarga nisbatan kursining noqulay o'zgarishidan sug'urtalanishi mumkin, bunda u kelajakda, ya'ni Germaniyadan qurilmalarni sotib olish paytida dollar evaziga yevroni sotib olish bo'yicha shartnoma tuzadi. Shuningdek, kelajakdagi almashuv kursining qanday bo'lishini bilgan holda kompaniya o'zining kelajakdagi xarajatlarini hisoblashi va to'g'ri investitsion va narx siyosatini qo'llashi mumkin.

Forvard bitimlarida maxsus forvard kursi qo'llaniladi va bu kurs odatdagi spot kursidan farq qiladi. Forvard kursining shakllanishi mamlakatning olib boradigan valyuta siyosati, valyuta cheklovlarining mavjudligi va forvard bozorining likvidligiga bog'liq bo'ladi. Jahon amaliyotida valyutaning forvard kursini belgilashning ikki usulini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Klassik (an'anaviy) usul – ikki valyuta bo'yicha foiz stavkalari o'rtasidagi farqi asosida hisoblash. Bu usul xalqaro moliyaviy bozorlarda valyuta cheklovlari mavjud bo'lmagan va likvidli bozorlarga ega bo'lgan valyutalar uchun qabul qilingan (masalan, USD/JPY, EUR/USD va b.).

2. Spot kursining kelajakdagi o'zgarishi borasidagi kutishlarning chiziqli ekstrapolyatsiya usuli asosida forvard narxining shakllanishi. Bunda bozor ishtirokchilari forvard kursiga spot kursining muayyan vaqt o'tganidan keyingi ko'rsatkichi sifatida qarashadi. Mazkur usul ayirboshlashda ba'zi cheklovlarga ega bo'lgan valyutalar uchun xususiyatlidir.

Ko'pchilikda shunday savol tug'ilishi mumkin: nima uchun spot va forvard kurslari bir-biridan farq qiladi va nima uchun konversion bitim tuzilgan spot kursi bo'yicha forvard bitimini ham amalga oshirish mumkin emas?

Spot va forward kurslarining farqlanishining turli sabablari mavjud bo'lib, ulardan eng asosiysi, bu ikki valyutadagi depozitlar foiz stavkalarining o'zaro farq qilishidir.

Forward kursini hisoblash

Autrayt forward kursi = Spot kurs ± Forward punktlari

Forward punktlari boshqacha qilib forward farqi yoki svop-farq deb ham nomlanadi. Ular berilgan valyuta kursining mutlaq punktlarini tashkil qiladi (kotirovka valyutasi birliklarida). Klassik moliya nazariyasiga ko'ra ular muayyan davrlarda xalqaro pul bozorlarida sotiladigan valyutalar o'rtasidagi foiz stavkalarining farqini aks ettiradi va foizli differentsial (interest rate differential) deb nomlanadi.

Valyutalarning diskont yoki mukofot bilan kotirovkalanishining qoidasi mavjud bo'lib, unga ko'ra:

- *Muayyan davr uchun forward shartlarida past foiz stavkasidagi valyuta shu davrdagi yuqori foiz stavkasiga ega bo'lgan valyutaga nisbatan mukofot bilan kotirovkalanadi;*

- *Muayyan davr uchun forward shartlarida yuqori foiz stavkasiga ega bo'lgan valyuta shu davrdagi past foiz stavkasidagi valyuta uchun diskont yoki chegirma bilan kotirovkalanadi.*

Shunday qilib, forward kursi joriy spot kursiga mukofotni qo'shish yoki chegirmani ayirish orqali hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan klassik uslub bo'yicha forward punktlari quyidagi tarzda hisoblanadi:

FORWARD

$$\text{punktlari} = \frac{\text{SPOT kursi} \times (\text{kotir. valyuta \%} - \text{baza valyuta \%}) \times \text{kunlar soni}}{360 \times 100 + (\text{baza valyuta \%} \times \text{kunlar soni})}$$

Bu yerda valyutalar bo'yicha foiz stavkalari forward kursi hisoblanayotgan davrga (kunlar soniga) tegishli bo'ladi.

Ko'pchilik valyutalar uchun foiz asosi sifatida 360 kun qabul qilingan bo'lsa-da, funt sterling uchun bu ko'rsatkich 365 kundan iborat.

Agar hisoblab chiqilganda forward punktlari musbat ishoraga ega bo'lsa, demak bu mukofot bo'ladi va u spot kursiga qo'shiladi; manfiy ishora holatida diskont, ya'ni chegirma hisoblanib, u spot kursidan ayiriladi.

Mazkur formula bo'yicha o'rtacha autrayt kursi uchun o'rtacha forward punktlarini hisoblab chiqish mumkin (bid va offer tomonlarini hisobga olmasdan). Biroq, spot kursi kabi, autrayt kurslarida ham banklar ikki tomonlama kotirovkani amalga oshiradilar. Ya'ni forward punktlarining ham Bid va Offer tomonlari mavjud:

Bid forward

$$\text{punktlari} = \frac{\text{Bid spot} \times (\text{bid kotir. val. \%} - \text{offer baza valyut. \%}) \times \text{kunlar soni}}{360 \times 100 + (\text{offer baza valyuta \%} \times \text{kunlar soni})}$$

Offer forward

$$\text{punktlari} = \frac{\text{Offer spot} \times (\text{offer kotir. val. \%} - \text{bid baza val. \%}) \times \text{kunlar soni}}{360 \times 100 + (\text{bid baza valyuta \%} \times \text{kunlar soni})}$$

Misol tariqasida olsak, bir Amerika kompaniyasida 3 oy davomida 1 mln. AQSH dollari miqdorida bo'sh pul mablag'lari mavjud bo'lib, u bu summani yoki depozitga qo'yishi yoki boshqa valyuta, masalan, yevroda depozitga qo'yishi mumkin. Bunda, 3 oylik dollarlik kreditlar bo'yicha foiz stavkasi 4% ga, yevroda 3 oylik foiz stavkalari esa 3% ga teng. Agar yevroning dollarga nisbatan quyidagi kurslari mavjud bo'lsa, EUR/USD kursi uchun bid va offer forward punktlarini hisoblab chiqamiz:

	<u>BID</u>		<u>OFFER</u>
EUR/USD =	0,9495	-	0,9505

Bunda o'rtacha kurs 0,95 ga teng bo'ladi.

7.8.-jadval

AQSH dollari va yevrodagi depozitlar bo'yicha 3 oylik foiz stavkalari

	Bid	Offer	
USD	3,875	4,125	(o'rtacha stavka 4%)
EUR	4,875	5,125	(o'rtacha stavka 5%)

Bid forward

$$\text{punktlari} = \frac{0,9495 \times (3,875 - 5,125) \times 90}{360 \times 100 + (5,125 \times 90)} = -0,0029$$

Offer forward

$$\text{punktlari} = \frac{0,9505 \times (4,125 - 4,875) \times 90}{360 \times 100 + (4,875 \times 90)} = -0,0018$$

Bank dileri taqdim etgan kotirovkalar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

	<u>BID</u>		<u>OFFER</u>
Spot kurs EUR/USD =	0,9495	-	0,9505
+ 3 oylik forward punktlari	-29	-	-18
3 oylik autrayt kursi EUR/USD	0,9466	-	0,9487

Autrayt forward kursini topishda diler spot kursiga forward punktlarini bid va offer tomonlari bo'yicha mos ravishda qo'shdi. Forward punktlari manfiy ishorada bo'lgani sababli, bu yerda ayirish amali bajarildi.

- Bid tomoni bo'yicha, xuddi spot kursi kotirovkalarida kabi, autrayt forward kursini kotirovkalaydigan bank kelajakda yetkazib berish shartlari asosida bazaviy valyutani sotib oladi (bizning vaziyatda dollar evaziga yevroni sotib oladi);

- Offer tomoni bo'yicha bank forward shartlari asosida bazaviy valyutani sotadi.

Forward punktlari va autrayt kurslarini kotirovkalashda bid va offer tomonlari o'rtasidagi marja (spread) hajmi ham kontragentlar maqomi, ular o'rtasidagi munosabatlar, bozor holati, mablag' miqdori va boshqa shu kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi valyuta dilerlari uchun Reyter agentligi standart muddatlarga belgilangan forward punktlarining joriy qiymatlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Qulaylik uchun bu ma'lumotlar banklararo kreditlarning foiz stavkalari bilan birgalikda aks ettiriladi.

Forward kursining qanday aniqlanishini yodda saqlab qolish uchun dilerlar quyidagi “zinapoya” qoidasini qo‘llashadi:

- *Agar forward punktlari chapdan o‘ngga qarab oshsa (bid kotirovkasi offer kotirovkasidan past bo‘lsa) – spot sanasidan keyingi valyutalash sanasiga autrayt kursini aniqlashda forward punktlari spot kursiga qo‘shiladi.*

Past + Yuqori = Eng yuqori

- *Agar forward punktlari chapdan o‘ng tomonga qarab kamaysa (bid tomoni offer tomoniga nisbatan katta), spot sanasidan keyingi valyutalash sanasiga autrayt kursini topishda forward punktlari spot kursidan ayriladi.*

Yuqori + Past = Eng past

Nostandart sanalar uchun forward punktlarini yuqorida keltirilgan formula, shuningdek, Reyter agentligi sahifalarida keltirilgan ma’lumotlar asosida kotirovkalar interpolyatsiyasi uslubi orqali hisoblash mumkin.

Masalan, dollarning yapon iyenasisiga nisbatan autrayt bitimi uchun forward punktlarini aniqlash so‘ralgan bo‘lsin, bunda valyutalash sanasi spotdan keyin 2 oy 10 kunni tashkil qiladi.

Taxmin qilaylik, USD/JPY kursining standart muddatlar uchun forward punktlari quyidagilarni tashkil qiladi:

2 oy	- 75 / - 73
3 oy	- 117 / - 112

2 va 3 oy uchun forward punktlari o‘rtasidagi mutlaq farq:

Bid tomoni uchun	117 – 75 = 42
Offer tomoni uchun	112 - 73 = 39

2-oy (2- va 3-oylar o‘rtasidagi davr)da forward punktlarining bir kunlik qiymati mos ravishda 30 dan bir ulushni tashkil qiladi:

Bid tomoni uchun	42/30 = 1,4
Offer tomoni uchun	39/30 = 1,3

Ikkinchi oyning 10 kunligi uchun forward punktlari quyidagilarga teng bo'ladi:

<u>Bid</u>	<u>Offer</u>
$1,4 \times 10 = 14$	$1,3 \times 10 = 13$

2 oy 10 kun uchun qidirilayotgan forward punktlari quyidagilarni tashkil etadi (2 oylik punktlardan 10 kun uchun bo'lgan punktlarni chegirib tashlaymiz):

		<u>- 75</u>	<u>- 73</u>
		<u>- 14</u>	<u>- 13</u>
Fwd ballari	2 oy 10 kun:	- 89	- 86

Forward kross-kurslarini hisoblashda ham spot kross-kurslarini topishda foydalaniladigan qoidalar qo'llaniladi, ya'ni bunda valyutalarning dollardagi forward kotirovkalarini ko'paytirish yoki bo'lish talab qilinadi.

Masalan, yevroning yapon iyenasi (EUR/JPY) nisbatan 3 oylik autrayt kursining ikki tomonlama kotirovkasini topish so'ralgan bo'lsin.

Yevroning dollarga nisbatan kursi teskari kotirovkada, dollarning yapon iyenasi nisbatan kursi esa to'g'ri kotirovkada aks ettirilgani sababli, biz izlayotgan forward kross-kursi mazkur kurslarni bir-biriga ko'paytirish orqali topiladi.

Faraz qilaylik, quyidagi spot kurslar va forward punktlar kotirovkalari keltirilgan:

	BID	OFFER
EUR/USD spot kursi	0,9495	/ 0,9505
3 oylik forward punktlari	<u>-29</u>	<u>-18</u>
3 oylik autrayt kursi	0,9466	0,9487

	BID	OFFER
USD/JPY spot kursi	120,80	/ 120,90
3 oylik forward punktlari	<u>-1,17</u>	<u>-1,12</u>
3 oylik autrayt kursi	119,63	119,78

3 oylik autrayt kross-kursi:

$$\text{EUR/JPY 3 oy bid} = \text{EUR/USD bid} \times \text{USD/JPY bid} = 0,9466 \times 119,63 = 113,24$$

$$\text{EUR/JPY 3 oy offer} = \text{EUR/USD offer} \times \text{USD/JPY offer} = 0,9487 \times 119,78 = 113,64$$

$$\text{EUR/JPY 3 oy autrayt} = 113,24 / 113,64$$

Bu yerdan yevroning yapon iyenasiga nisbatan kross-kursining 3 oylik forward punktlarini ham topish mumkin. Bunda, spot kross-kurslarini topish uchun dollardagi spot kurslarni ko'paytirish kerak va olingan natijalardan autrayt kross-kurslarni chegirish lozim.

Yevroning iyenaga nisbatan kross-kurslari quyidagini tashkil qiladi:

$$\text{EUR/JPY spot bid} = 0,9495 \times 120,80 = 114,70$$

$$\text{EUR/JPY spot offer} = 0,9505 \times 120,90 = 114,92$$

3 oylik forward punktlari:

	BID		OFFER
Spot	114,70	/	114,92
Autrayt	113,24		113,64
	<u>1,46</u>		<u>1,28</u>
Yoki	(-146)		(-128)

Forward bozori kompaniyalar moliya bo'limlari boshqaruvchilari uchun ham muhimdir, chunki ular eksport va importning milliy valyutadagi qiymatini to'lov amalga oshishidan ancha oldin aniqlashlari mumkin. Moliya bo'limi boshqaruvchisi nufuzli bank bilan muddatli shartnoma tuzgan paytda uning birdan bir vazifasi qandaydir bir sabablarga ko'ra, tovar yoki to'lov olinmay qolgan taqdirda ochiq valyuta pozitsiyasi bilan qolmaslikdan iborat.

Professional dilerlar cheklanmagan bozor ma'lumotlariga ega bo'lgan holda o'zlarining tijorat bilan shug'ullanuvchi hamkasblariga qaraganda manyovr uchun keng imkoniyatlarga egadirlar.

Shu bilan birgalikda muddatli shartnomalar bilan bog'liq ahamiyatli tavakkalchiliklar ham mavjud. Forvard shartnomasining muddati qanchalik uzun bo'lsa, shartnoma bo'yicha kontragent moliyaviy ahvolining yomonlashish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday ehtimol ham mavjudki, shartnomada ishtirok etayotgan taraflar spot shartlari asosidagi shartnoma shartlarini bajara olmaslik sharoitiga tushib qolishlari mumkin. Ammo spot shartlari asosidagi shartnomaning bekor qilinish ehtimoli, forvard shartnomasi-ning bekor qilinish ehtimoliga ko'ra pastroqdir. Bunda shartnoma ishtirokchilaridan biri tomonidan majburiyatlar bajarilganda ikkinchisi tomonidan ularning bajarilmasligi eng yomon holatni vujudga keltiradi.

Bunday holat katta zararlarga yoki sudlashish jarayonlariga olib kelishi mumkin. Agarda, aybdor taraf o'z majburiyatlarini mutlaqo bajara olmasa, unda valyutadagi so'ndirilmagan qarzdorlik baribir joriy bozor kursi asosida qoplanishi lozim. Bundan chiqdi, ochiq valyuta pozitsiyasi bartaraf etilganda, keyingi zararlar paydo bo'lishi mumkin. Ammo ushbu operatsiyalar bo'yicha bekor qilingan shartnomalar yoki ko'rilgan zararlarni operatsiyalarning umumiy hajmidagi ulushi nihoyatda kamdir.

Forvard bo'yicha hisob-kitob sanalari

Forvard shartnomalari bo'yicha standart hisob-kitob sanalari 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy hisoblanadi. Ko'pchilik fond va valyuta bozorlarida kelgusidagi shartnomalar 30, 60, 120 (va shu kabi) kunlarga doimo navbatdagi forvard sanasigacha bo'lgan 30 kun qo'shilishi bilan to'g'ri keladi, ya'ni kalendar oy tizimi qabul qilingan. Ammo shartnomada ishtirok etuvchi ikkala tarafning manfaatdorligi mavjud bo'lgan holatda shartnomalar turli boshqa muddatlarga ham tuzilishi mumkin.

Muddatlar kalendar tizimining soddaligi shundaki, agarda spot sanasi yanvar oyiga to'g'ri kelsa, unda bir oylik forvard muddati keyingi kalendar oyga, ya'ni fevral oyiga, ikki oyligi esa mart oyiga va shu kabi to'g'ri kelishi kerak. Agarda har bir kalendar oyning davomi 30 kunni tashkil etganda hech qanday muammo bo'lmas edi. Ammo agarda spot sanasi 31-yanvarga to'g'ri kelsa, fevral oyi esa atigi 28 kundan iborat bo'lsa qilish kerak.

Demak, forvard muddatlari aniqlanganda spot qoidasiga rioya etilishi zarur va unga asosan operatsiyalar amalga oshirilganda hisob-

kitob kuni ikkala kliring tizimlarida ham bank kuni bo'lmog'i lozim. Shanba va yakshanba dam olish kunlaridan tashqari turli davlatlarda mahalliy hamda milliy bayramlar mavjud. Bu vaziyatni ancha murakkablashtirib yuboradi.

Turli nomuvofiqliklar va amaliyotda qo'llanilish ehtimoli kamligiga qaramasdan forvard sanalarini belgilash tamoyilini quyidagidan ko'rishimiz mumkin:

Agar spot sanasi	4 yanvarga to'g'ri kelsa
unda bir oy	4 fevralga
ikki oy	4 martga
uch oy	4 aprelga
olti oy	4 iyulga
to'qqiz oy	4 oktyabrga
o'n ikki oy	4 yanvarga (keyingi yil)
2 yil	yanvarga (2 yildan keyingi) to'g'ri keladi.

Kam uchraydigan standart forvard hisob-kitob sanalari, masalan 5, 7, 8 oy - taalluqli oyning 4-sanasi to'g'ri keladi. Haftadagi yetti kundan ikkitasi nobank (dam olish) kunlari hisoblanadi va to'lovlarning forvard sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda oyning ushbu kuni oylik kalendar grafik harakat muddati davomida harakatdagi kun bo'lib hisoblanmaydi. Agarda mantiqiy forvard sanasi nobank kuniga to'g'ri kelsa, spot qoidasiga ko'ra ikkala kliring tizimida ham navbatdagi kelayotgan birinchi ish kuni hisob-kitoblarning forvard sanasiga aylanadi. Shunday qilib, valyuta bozoridagi bir oy 30, 31 va 35 hamda undan ortiq kunlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Umumiy xulosa: agarda bir oylik sana, ya'ni yuqorida keltirilganidek 4-fevralga to'g'ri kelsa, bu sana kliring markazlaridan birida dam olish kuni bo'lsa, unda hisob-kitoblar kuni sifatida 5, 6 kun yoki boshqa bir sana belgilanishi mumkin.

Oylik muddat spot sanasiga to'g'ri keladigan oyning o'sha sanasiga to'g'ri kelmasa ham forvard hisob-kitoblarning boshqa sanalari 4-sanaga to'g'ri kelishi mumkin (agarda u ochiq kun talablariga muvofiq bo'lsa). Shunday qilib, agarda spot sanasi 4-

yanvarga, oylik sana 6-fevralga to'g'ri kelsa, unda boshqa hisob-kitob muddatlari taalluqli oylarning 4-sanalariga to'g'ri kelishi mumkin. Amaliyotda qisqa va uzun forvard oylari paydo bo'ladi hamda ushbu dalilni forvardlar bozorida faoliyat ko'rsatuvchi dilerlar hisobga olishi zarur. Valyuta va depozit bozorlarida amalda bo'lgan oyni oxiridagi hisob-kitoblar tizimi xalqaro zayomlar haqida kelishayotgan taraflar uchun sana belgilashning noaniq (tortishuvli) amaliyotini tashkil etadi.

Agar kalendar uslubiga murojaat etilsa, muammo tug'ilishi mumkin: agar oyning oxiriga to'g'ri keladigan spot sanasiga forvard oyida ushbu sanaga mos sana topilmasa nima qilish kerak. Masalan, bitim 29-yanvarda tugatilgan bo'lsa va spot sanasi 31-yanvarga to'g'ri kelsa, unda oylik forvard sana 31-yanvarga to'g'ri kelmasligi kerak, chunki fevral oyida 28 yoki 29 kalendar kun mavjud. Bu muammoni quyidagicha hal etish mumkin: agar spot kuni oyning so'nggi ish kuniga to'g'ri kelsa, unda ushbu kunga muvofiq keladigan forvard sanalari ham oyning so'nggi ish kuniga to'g'ri kelishi kerak.

Shunday qilib, 31-yanvar spot sanasiga 28 yoki 29-fevral forvard sanasi muvofiq keladi. Bunda agar fevralning 28 va 29-sanalari dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda forvard sanasi 26, 27-sanalarga yoki oyning boshqa so'nggi ish kuniga to'g'ri keladi. Valyuta bitimlarini oyning oxirida amalga oshirilishi forvard oyining oxirini avvalgi qator spot sanalari uchun forvard sanasiga aylanishiga olib kelishi mumkin. Buni quyidagi misolda ko'rish mumkin:

Bitim sanasi	Spot sanasi	Bir oylik sana
24 yanvar	26 yanvar	
25 yanvar	27 yanvar	
26 yanvar	28 yanvar	28 fevral
27 yanvar	29 yanvar	
28 yanvar	30 yanvar	
29 yanvar	31 yanvar	

Keltirilgan misolda ko'rsatilgan barcha kunlar ish kunlari bo'lishi mumkin emas, bir yoki bir nechta spot kunlari shanba yoki

yakshanbaga to'g'ri kelishi mumkin. Ushbu misol shuni ko'rsatadiki, o'ynning oxiridagi bir qator operatsiyalar va hisob-kitob kunlari bir turdagi forvard sanasi yoki sanalariga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur tizimga muvofiq 28-fevral, 26, 27-fevral yoki ulardan avval keladigan har qanday, ikkala markazlarda (mamlakatlarda) ish kuni talablariga javob beradigan, sana bilan o'zgartirilishi mumkin. Bunday tartib boshqa oylarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Nima sababdan boshqa oyga o'tib bo'lmaydi? Bozordagi professionalar biladiki, ayniqsa, o'ynning oxiri, chorakning oxiri yoki yilning oxiri bilan to'g'ri kelib qolsa, o'ynning oxirida bozorda birmuncha jonlanish bo'ladi. O'z navbatida, ushbu jonlanish forvard kotirovkalariga ta'sir etib, pirovard oqibatda anomal (oddiy tushuntirib bo'lmaydigan) foiz stavkalarda o'z aksini topadi va bunday holatda navbatdagi ish kuni uslubidan foydalanish ikkala oy oxirini muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Fevralda bitimlar amalga oshirilganda dilerlar 28-fevral / 1-mart omilini inkor qilishlari mumkin. Agar spot sanasi 1 yoki 2-fevralga to'g'ri kelsa va diler tomonidan bitim 1 oy muddatga, ya'ni martdagi 1-ish kuniga amalga oshirilsa, unda diler tomonidan fevral / mart davri sinchkovlik bilan ko'rib chiqilishi lozim hamda bunda endi dilemni fevral va mart oylarining oxiri qiziqtirmaydi. Bundan tashqari, agarda u spot sanalarining yanvar oyiga to'g'ri kelishini bilsa, dilemning harakatlari osonlashadi, chunki bunda forvard sanasi kelasi kalendar oyga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, turli mamlakatlar o'rtasida shartnomalar amalga oshirilganda o'ynning oxiridagi spot sanasi forvard oylarining kunlarida bir qancha anglashilmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

"Nostandart" to'lov muddatlari deganda, bitim amalga oshishining aniq bir kunini standart forvard tuzilmasiga kiritib bo'lmaydigan, barcha forvard sanalari ko'zda tutiladi. Agar standart forvard hisob-kitob sanalari 1, 2, 3 va shu kabi oylarga belgilansa, mijoz esa kotirovkani 2,5 oyga olmoqchi bo'lsa, bu degani mijoz hisob-kitoblarning "nostandart" muddatiga kursni hamda "nostandart" sanasini belgilashni so'rayotganligini bildiradi.

Ayrim professionalar, asosan, spot asosidagi nostandart forvard sanalariga ixtisoslashadilar. O'z xizmatlari uchun haqni ular odatda

sotuvchi va sotib oluvchi kurslari o'rtasidagi marjani kengaytirish orqali o'z kotirovkalari hisobiga oladilar.

Forvard kursini tijorat banklari tomonidan hisoblanishi

Muddatli valyuta shartnomalarining xususiyatli tomoni shundaki, shartnomani tuzish va uni ijro etish paytlari orasida vaqt intervali mavjud. Shu bilan birgalikda mazkur shartnoma bo'yicha valyuta kursi shartnoma tuzilish paytida aniqlanadi.

Birjaning kotirovka byulletenlarida shartnomalar uchun kurslar e'lon qilinadi, turli muddatlarga forvard shartnomalari bo'yicha kursni belgilash uchun mukofot va diskontlar ham beriladi.

Mukofot yoki diskont miqdori spot kursiga nisbatan barqarorroqdir. Shuning uchun banklar-aro bozorda muddatli shartnoma kursi kotirovka qilinganda faqat mukofot yoki diskont aniqlanadi.

To'g'ri kotirovkada mukofot spot kursiga qo'shiladi, diskont esa ayiriladi. Teskari kotirovkada esa diskont spot kursga qo'shiladi, mukofot esa ayiriladi.

Mukofot va diskont foizlar farqi spot kurs hamda shartnoma muddati hisobga olingan formula asosida hisoblanadi. Hisob-kitoblarda foydalaniladigan foiz stavkalari jahon yoki hududiy moliya bozorlarining foiz stavkalaridir. Jahon yoki hududiy moliya bozorlarining foiz stavkalaridan foydalanilishi barcha valyutalar uchun teng sharoitlarni ta'minlaydi, masalan valyuta emitenti bo'lmish mamlakatdagi minimal zahiralar hisob-kitoblarda ishlatilmaydi.

Diskont yoki mukofot quyidagi formula asosida hisoblanadi:⁵⁴

Spot kurs x foizlar farqi x kunlar

Diskont/mukofot = ----- ;

(360 x 100) + (savdo qilinayotgan valyuta foizi x kunlar)

Quyidagi ma'lumotlarga asoslangan holda diskont yoki mukofotni hisoblaymiz:

Valyuta	Foiz stavkasi	Muddat	Spot kurs
USD (olingan)	4,125%	90 kun	1,5000
SEK (qo'yilgan)	7%	90 kun	

⁵⁴Лизелотт Сурен "Валютные операции" Москва "Дело" 2001 г.

Yuqorida keltirilgan formulaga asosan spot va forward kurslar o'rtasidagi farqni hisoblaymiz:

$$\text{Diskont/mukofot} = \frac{1,5000 \times 2,875 \times 90}{(360 \times 100) + (4,125 \times 90)} = 0,0107$$

Diskont yoki mukofot odatda “plyus” yoki “minus” ishorasiz punktlarda ifodalanadi. Shuning uchun ushbu holatda gap mukofot yoki diskont haqida borayotganligini bilish zarurdir. 107 - 117 singari ma'lumot ushbu punktlarni spot kursiga qo'shish yoki ayirish kerakligini aniq bildirmaydi. Biroq savdo qilinayotgan va kotirovka qilinayotgan valyutalar bo'yicha foiz stavkalarining darajalari ma'lum bo'lsa, unda ushbu foiz stavkalarini qo'shish yoki ayirish haqidagi qarorni darhol aytish mumkin.

90 kundan so'ng 10 mln. dollarni olmoqchi bo'lgan diler ushbu bitimni qoplash uchun dollarlarda kredit olib, ularni spot kursi asosida nemis markalariga konvertatsiya qilib, 90 kunga depozitga qo'yishga qaror qildi deb faraz qilaylik.

Valyuta	Foiz stavkasi	Muddat	Spot kurs
USD (olingan)	4,125%	90 kun	1,5000
SEK (qo'yilgan)	7%	90 kun	

90 kundan so'nggi natija:

olindi: USD 10000000 + foiz xarajatlari (103125) = 10103125;

qo'yildi: SEK + foiz daromadlari (262500) = 15262500.

90 kundan so'ng 10103125 dollar 15262500 markaga ekvivalent bo'ladi. 1 dollarning ekvivalenti esa quyidagiga teng bo'ladi:

$$\text{Forward kursi} = 15262500 / 10103125 = 1.5107 \text{ SEK.}$$

Keltirilgan ushbu misolda kotirovka valyutasi (SEK)ining foiz stavkasi, savdo qilinayotgan valyuta (USD) foiz stavkasidan yuqoridir.

Shu sababli forvard kursi spot kursidan 107 punktga yuqori bo'lib chiqdi.

Agar savdo qilinayotgan valyutaning foiz stavkasi kotirovka qilinayotgan valyuta foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, unda yuqoridagi misolimizga nisbatan teskari natija kelib chiqadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Valyuta	Foiz stavkasi	Muddat	Spot kurs
USD (olingan)	7%	90 kun	1,5000
SEK (qo'yilgan)	4,125%	90 kun	

90 kundan so'nggi natija:

olindi: USD 10000000 + foiz xarajatlari (175000) = 10175000

qo'yildi: SEK 15000000 + foiz daromadlari (154688) = 15154688.

Mazkur holatda 10175000 dollarga 15154688 marka ekvivalent bo'ladi. 1 dollarga esa:

Forvard kursi = $15154688 / 10175000 = 1.4894$ SEK.

Bu yerda forvard kursi (1.4894) spot kursi (1,5000)dan 106 punktga past.

Agarda forvard shartlari asosida valyuta spot shartlariga nisbatan yuqoriroq kotirovka qilinsa, unda bu xorijiy valyuta mukofot bilan kotirovka qilinadi. Diskont esa buning teskarisidir.

Mukofot yoki diskont uslubi orqali aniqlangan muddatli kurs "autrayt" kursi deb ataladi.

Mukofot bo'lganda valyuta muddatga spot kursga nisbatan qimmatroq, diskont bo'lganda esa arzonroq kotirovka qilinadi.

Forvard shartnomalari bo'yicha mukofot va diskontning vujudga kelish sababi tegishli valyutalar yuzasidan muddatga, odatda forvard shartnomasi muddatiga teng, qisqa muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining farqi hisoblanadi.

Mukofot yoki diskontni hisoblashning yana boshqa bir ko'rinishdagi formulasi mavjud, u quyidagicha:

$$P/D = \frac{(SPD_v \times KS - SPD_a \times PKF) \text{ hSR}}{100\% \times 360}, \text{ bu yerda}$$

P/D - mukofot yoki diskont;

SPDv - v valyutasidagi depozit bo'yicha foiz stavkasi, v-kotirovka qilinayotgan valyuta;

SPDa - a valyutasidagi depozit bo'yicha foiz stavkasi, a-savdo qilinayotgan valyuta;

KS - spot kurs;

PKF - taxminiy forvard kursi, u quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$PKF = \frac{(SPDv - SPDa) \times KS \times SR}{100\% \times 360}, \text{ bu yerda}$$

SR - forvard shartnomasining muddati.

1-misol. Shveytsariyalik eksportyor 1 mln. AQSH dollari hajmida olgan tushumini (ushbu tushum 3 oy mobaynida bo'sh bo'lganligi sababli) CHFlariga forvard shartlari asosida 3 oyga sotmoqchi.

Bozordagi sharoit:

Spot USD/CHF	1,8410	1,8425
3 oylik yevrodollar depozitlari bo'yicha foiz stavkalari	7%	7 1/8%
CHFdagi 3 oylik yevrodepozitlari bo'yicha foiz stavkalari	4 5/8%	4 7/8%
shartnoma muddati 94 kun.		

1-operatsiya. Shveytsariyalik bank mijozdan CHFlari evaziga 94 kundan so'ng yetkazib berish sharti bilan, aniqlanishi kerak bo'lgan kurs asosida 1mln. USDni oladi.

2-operatsiya. Bank valyuta xavf-xatarini bartaraf etish maqsadida shu zahoti USDni CHFlariga 1,8410 bozor kursi bo'yicha Spot shartlari asosida sotib yuboradi.

3-operatsiya. Bank o'z majburiyatlari bo'yicha javob bera olmaslik xavf-xatarining oldini olish maqsadida to'lov muddatlaridan kelib chiqqan holda:

-1 mln. AQSH dollarini yevrodollar bozorida 3 oyga 7 1/8% ustidan qarzga (kredit) oladi;

-ushbu summani bank CHFlariga aylantirib, Shveytsariyada 4 5/8% evaziga 3 oyga depozitga qo'yadi.

4-operatsiya. Mazkur operatsiyalar bankka 1 yilda quyidagiga tushadi:

$$\frac{(4 \frac{5}{8} - 7 \frac{1}{8}) \times 1,8410}{100 \times 360} = -0,0460 \text{ CHF.}$$

3 oyga esa bu quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{-0,0460 \times 94}{360} = -0,0120 \text{ CHF.}$$

Dollarli ssuda bo'yicha bank tomonidan to'lanadigan foizlar va CHFlarida bank tomonidan depozit uchun olinadigan foizlar farqi 3 oyda har bir dollarga -0,0120 CHFni tashkil etadi.

5-operatsiya. AQSH dollarida 94 kunga olingan qarz mijozdan forvard shartlari asosida olingan dollarlar hisobidan dollarlarda to'lanadi, depozitdan esa muddati yetganda CHFlarida daromad olinadi.

Dollarda olingan qarz bo'yicha to'lanadigan foizlar quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{1000000 \times 7 \frac{1}{8}\% \times 94}{100 \times 360} = 18604,17 \text{ dollar.}$$

Shveytsariya franklarida ochilgan depozitga hisoblangan foizlar quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{1841000 \times 4 \frac{5}{8}\% \times 94}{100 \times 360} = 22232,63 \text{ frank.}$$

6-operatsiya. Bank 4-operatsiya natijasida har bir dollardan 3 oyga 0,012 CHF zarar ko'radi va AQSH dollaridagi qarzni Shveytsariya franklariga aylantirish uchun kurs 1,8410 - 0,012 = 1,8290-ni, ya'ni taxminiy forvard kursini aniqlaydi hamda AQSH dollaridagi kredit bo'yicha xarajatni ushbu kurs asosida Shveytsariya franklariga aylantiradi, ya'ni $18604,17 \times 1,8290 = 34027,03$ CHF ni tashkil etadi.

Endi bank eksportyorga agarda undan forvard shartlari asosida 3 oy muddatga 1 mln. AQSH dollarini olgan bo'lsa, qanday miqdorda Shveytsariya franklarini to'laydi. Forvard operatsiyalari bo'yicha Shveytsariya franklaridagi hisob raqamni dollarli qarzning foizlar summasiga (Shveytsariya franklarida) kreditlab, uni yana Shveytsariya franklaridagi depozit bo'yicha olinadigan foizlar summasiga ya'ni 22232,63 CHF ga, debetlagan holda, biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$1841000 + 22232,63 - 34027,03 = 1829205,6 \text{ CHF.}$$

Keltirilgan hisob raqamlardan ko'rinib turibdiki, xedjinglash bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilganidan so'ng bank 1 mln. AQSH dollari uchun 1841000 CHF o'rniga (1,8410 spot kurs) faqat 1829205,6 CHF bermoqda. Ushbu summa AQSH dollaridagi shartnoma summasiga bo'linsa, ya'ni 1829205,6 CHF / 1000000 USD biz 1,8292 CHF iborat 3 oylik forvard kursiga ega bo'lamiz. Mazkur holatda spot va forvard kurslari o'rtasidagi farq -0,0118 (1,8292 - 1,8410)ni tashkil etadi va ushbu miqdor sotib oluvchining diskonti bo'lib hisoblanadi.

Misolimizdagi 1,8292 kurs sotib oluvchining kursi va -0,0118 diskont sotib oluvchining diskonti bo'lib hisoblanadi.

2-misol. Yuqoridagi 1-misol shartlari saqlangan holda endi mijoz (importyor) bankdan forvard shartlari asosida 1 mln. AQSH dollarini 3 oyga sotib olmoqchi bo'lgan vaziyatni ko'rib chiqamiz. Bu holda biz quyidagi operatsiyalarni amalga oshiramiz:

1-operatsiya. Forvard operatsiyasini aks ettirish.

2-operatsiya. 1,8425 Spot kursi asosida valyuta xavf-xatarini bartaraf etish.

3-operatsiya. Bank o'z majburiyatlari bo'yicha javob bera olmaslik xatarining oldini olish maqsadida to'lov muddatlaridan kelib chiqqan holda:

-1842500 CHF ni 3 oyga 4 7/8% hisobiga qarzgga (kredit) oladi;

-bu summani AQSH dollariga aylantirib, yevrodollar depozitiga 3 oy muddatga 7% hisobiga qo'yadi.

Bu operatsiyalar bankka 3 oyga quyidagiga tushadi:

$$\frac{(4 \frac{7}{8} - 7) \times 1,8425 \times 94}{100 \times 360} = -0,0102 \text{ CHF}$$

4-operatsiya. Yevrodollar depoziti bo'yicha hisoblangan foizlar quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{1000000 \times 7 \times 94}{100 \times 360} = 18277,78 \text{ USD}$$

Bank tomonidan Shveytsariya franklaridagi qarzga hisoblangan foizlar:

$$\frac{1842500 \times 4 \frac{7}{8} \times 94}{100360} = 23453,49 \text{ CHF}$$

5. Taxminiy forvard kursi $1,8425 - 0,0102 = 1,8323 \text{ CHF}$ ni tashkil etadi. Dollarli depozit bo'yicha hisoblangan va Shveytsariya franklarida ifodalangan foizlar $18277,78 \text{ h}$ $1,8323 = 33490,39 \text{ CHF}$ ga teng bo'ladi.

1 mln. AQSH dollarini forvard shartlari asosida sotib olish uchun kerak bo'ladigan Shveytsariya franklarining hajmi quyidagiga teng:

$$1842500 - 33490,38 + 23453,49 = 1832463,10 \text{ CHF}$$

Bunda aniqlangan forvard sotuvchining kursi $1,8325 \text{ ni}$, sotuvchining diskonti esa $0,010 \text{ ni}$ ($1,8324 - 1,8425$) tashkil etadi.

Shunday qilib, depozit stavkalari kredit stavkalariga nisbatan yuqori bo'lgan xorijiy valyutalar, muddatga, spot operatsiyalarga nisbatan arzonroq, diskont bilan kotirovka qilinadi. Aksincha, depozit stavkalari kredit stavkalariga nisbatan past bo'lgan xorijiy valyutalar, muddatga, spot operatsiyalarga nisbatan qimmatroq, mukofot bilan kotirovka qilinadi.

Yuqorida keltirilgan barcha misollardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

-savdo qilinayotgan valyutaning foiz stavkasi $<$ kotirovka qilinayotgan valyuta foiz stavkasidan - mukofot - forvard kursi $>$ spot kursidan;

-savdo qilinayotgan valyutaning foiz stavkasi $>$ kotirovka qilinayotgan valyuta foiz stavkasidan - diskont - forvard kursi $<$ spot kursidan.

Fyuchers operatsiyalari

Fyuchers hosilaviy moliyaviy instrumentlar turkumiga kiradi. Fyuchers operatsiyalari birjadagi muddatli operatsiyalar bo'lib, xomashyo tovarlari, oltin, valyuta, moliyaviy va kredit instrumentlarini shartnoma tuzilayotgan paytda qayd etilgan bahoda sotish yoki sotib olishdan iborat. Bunda shartnomaning ijrosi kelgusida (2-3 yilda) amalga oshadi.

Amaliyotda tovar fyucherslari, fond fyucherslari va valyuta fyucherslari mavjud.

Forvard va fyuchers shartnomalari ma'lum bir valyuta yoki moliyaviy instrumentni ma'lum bir kurs asosida kelgusidagi ma'lum bir sanada sotish yoki sotib olish to'g'risidagi shartnomadir.

Forvard shartnomalari – bu, birjadan tashqaridagi bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalardir. Fyuchers operatsiyalari esa - bu, valyutalarni belgilangan summalari bilan birja bozorida almashish operatsiyalaridir. Valyuta fyucherslari – bu, xorijiy valyutalar bilan to'lov muddati va bitimlarni standartlashtirilgan hajmlari ko'rsatilgan birjada amalga oshiriladigan muddatli valyuta operatsiyalaridir. Bunday operatsiyalarning asosiy maqsadi kurslar farqi sifatida daromad olishdir.

Fyuchers shartnomalari ijro etilgunga qadar, kafolat sifatida, ma'lum bir summa bo'nak shaklida birjaga to'lanadi. Operatsiyalar bilan bog'liq hisob-kitoblar kliring palatasi orqali amalga oshiriladi va ushbu palata sotuvchi hamda sotib oluvchi o'rtasida vositachi bo'lib, shartnomaning ijro etilishini kafolatlaydi.

Fyuchers operatsiyalarining ko'pchiligi tovar yoki boshqa bir savdo obyektlarini yetkazib berish bilan yakunlanmaydi, chunki ushbu shartnomaning asosiy maqsadi xedjinglash, ya'ni aktivlar yoki majburiyatlarni baholar, kurslar yoki foiz stavkalari o'zgarishi xavf-xataridan himoyalashdir (sug'urtalash). Buning uchun birjada naqdli operatsiyalarga parallel ravishda, summalari jihatidan teng, ammo ularga qarama-qarshi bo'lgan fyuchers operatsiyalari amalga oshiriladi.

Xomashyo tovarlari bilan fyuchers operatsiyalari XIX asrning 2-yarmidan boshlab amalga oshiriladi. Bretton Vuds valyuta tizimining inqirozi va Yamayka valyuta tizimi sharoitida erkin suzuvchi valyuta kurslarining kiritilishi valyuta kurslari, foiz stavkalari, oltin bahosini

tebranishidan himoyani talab eta boshladi. Shu sababli 1972-yildan boshlab xorijiy valyuta va oltin bilan fyuchers operatsiyalari amalga oshirila boshlandi. 1975-yildan boshlab ushbu operatsiyalar sertifikatlar, veksellar, obligatsiyalar, depozitlar bilan amalga oshirila boshladi. 1982-yilda bahosi turli fond indekslarida bo'lgan fyuchers operatsiyalari paydo bo'ladi.

Tovar birjalari uchun an'anaviy bo'lmagan moliyaviy instrumentlar bilan fyuchers operatsiyalarining yig'indisi moliyaviy fyucherslar nomini oldi. Moliyaviy fyucherslar birja shartnomalariga kiradi. Moliya borasidagi fyucherslar bilan savdo 1972-yilda Chikago tovar birjasida birinchi bor xorijiy valyutalarga moliyaviy fyuchers shartnomalari paydo bo'lishi bilan boshlangan (GBP, CAD, EUR, YPY, CHF, MEP).

Xorijiy valyutaga (AUD, GBP, EUR, YPY, CHF) fyuchers shartnomalari Chikago tijorat birjasi tarkibidagi Xalqaro valyuta birjasi orqali tuziladi.

Chikago birjasining bo'linmasi bo'lmish indekslar va opsiyonlar birjasi AUD, GBP, CAD, YPY, CHF lariga bo'lgan fyuchers shartnomalari bo'yicha opsiyonlar bilan savdo qiladi.

O'rtaamerika tovar birjasi GBP, CAD, YPY, CHF-lariga bo'lgan fyuchers shartnomalari bilan savdo qiladi. AUD, GBP, YPY, CAD, CHF va Yevro bo'yicha muddatli shartnomalar Filadelfiya birjasi orqali sotiladi.

Moliyaviy Fyucherslar bilan savdoning asosiy markazlari an'anaviy muddatli tovar birjalaridir, ya'ni Chikago va Nyu-York tovar birjalari (Nyu-Yorkdagi oltin savdosi bo'yicha yetakchi bo'lmish KOMEX birjasi, valyuta bo'yicha Chikago merkantayl ekscheynj, moliyaviy instrumentlar bilan Chikago bord of treyd).

Bundan tashqari, ular bilan Kanada, London, Singapur, Sidney birjalarida ham savdo qiladilar. Shu bilan birgalikda ular ixtisoslashgan faoliyat ham ko'rsatadi. Masalan, NIFE (Nyu-York), LIFFE (London), Toronto fyuchers ekscheynj. Hozirgi kunda jahonda fyucherslar bilan 1 kunlik savdoning umumiy hajmi taxminan 100 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Fyuchers operatsiyalarida ko'pchilik broker firmalari, investitsiya institutlari, sanoat va savdo monopoliyalari, alohida investorlar ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda ushbu operatsiyalarda

tijorat banklari katta rol o'ynaydi. Buning uchun ular alohida maxsus sho'ba kompaniyalar yoki bo'limlarni tashkil etadi.

Fyuchers operatsiyalarini tartibga solish (muvofiglashtirish) birja rahbariyati, markaziy banklar va moliya vazirliklariga yuklatilgan. AQSHda muddatli savdo bo'yicha maxsus Federal komissiya tashkil etilgan.

Fyucherslar birjasidagi marja tizimi (kafolat badali) har qanday kamomadlarni qoplash imkonini beradi. Ushbu kamomadlar fyuchers shartnomalarining birjada kundalik asosda birja yopilishi paytiga qayta baholanishi oqibatida hosil bo'ladi. Shu sababli kafolat badali birja savdosining ishtirokchisi tomonidan shartnoma amalga oshirilgunga qadar birjaga to'lanishi lozim. Masalan, Xalqaro valyuta bozorida 25000 USD hajmidagi shartnomani tuzish uchun sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan 1500 USD hajmida dastlabki kafolat badalini birjaga to'lash talab etiladi.

1-masala. Sotib oluvchi birjada 25000 GBP hajmidagi 1 GBP = 2 USD kursida, ijrosi dekabrda (uchinchi chorshanba yoki navbatdagi birinchi ish kuni) bo'lgan fyuchers shartnomasini sotib olmoqda. Bu degani, tuzilayotgan shartnomaning qiymati 50000 USD. Sotib oluvchi birjaga 1500 USD hajmida kafolat badalini to'laydi. Birja o'z navbatida har ish kunining oxirida ijro etilmagan shartnomalarni birjaning yopilishiga bo'lgan kurs asosida qayta baholashni amalga oshiradi.

Agar ushbu ish kunining oxiriga GBP ning kursi pasayib 1,98 USD-ni tashkil etsa, sotib oluvchi 500 USD hajmida zarar ko'radi. Bunda birja sotib oluvchidan kafolat badaliga qo'shimcha pul o'tkazishni talab etmaydi. Chunki sotib oluvchining ko'rgan zarari u hosil qilgan kafolat badali summasidan oshib ketmadi. Bizning misolimizdagi bo'nak qoldiqi 1000 USD o'tadigan marja bo'ladi.

Biroq GBP kursi misolimizda 1,95 USD gacha pasayib ketsa, unda shartnomaning qiymati 48750 USD ni tashkil etadi va sotib oluvchi ertasi kun birja ochilgunga qadar, bo'nak badalini o'tadigan marja hajmiga (1000 USD) yetkazish maqsadida birjaga 250 USD o'tkazishi kerak bo'ladi.

Aksincha, kunlik qayta baholash natijasida foyda hosil bo'lsa, unda u sotib oluvchining hisob raqamiga o'tkaziladi (minimal 1000 USD o'tadigan marja saqlangan holda).

2-masala. Kompaniya 3 oydan so'ng kredit olishi zarur, ushbu qarzni olish sanasi g'aznaxona veksellariga bo'lgan fyuchers shartnomasining kelgusidagi hisob-kitob sanasi bilan to'g'ri keladi.

Veksel bo'yicha daromad yillik 13%, qarz qiymati esa yillik 15%ni tashkil etadi. Agarda qarz oluvchi bozordagi kelgusidagi o'zgarishlarni to'g'ri taxmin qila olsa va uning o'ylashicha foiz stavkalari 2-3 oydan so'ng yillik 17% hamda undan yuqori darajaga ko'tarilsa, kompaniya bir yoki bir nechta veksellarni yillik 13% bahosida, 3 oydan so'ng hisob-kitob qilish sharti bilan so'zsiz sotadi. Agar kompaniya taxminlari to'g'ri chiqib, veksellar bo'yicha daromad yillik 15% gacha ko'tarilsa, qarz bahosi esa yillik 17% gacha ko'tarilsa, unda qarz olish va g'aznaxona veksellarini sotish sanasiga kelib kompaniya yillik 2% ni tejab qoladi hamda qarz yuzasidan o'z xarajatlarini yillik 15% darajasida barqarorlashtiradi.

3-masala. London moliya fyucherslarining Xalqaro birjasida (LIFFE) sotilgan CHF valyuta fyuchersining standartlashtirilgan shartnomasi quyidagi ko'rinishga ega:

Savdo birligi	Shveysariya franklari 125000 (mart, iyun, to'lovlar sentabr va dekabr oylarining uchinchi chorshanbasi).
Savdo vaqti	ertalab soat 8.30 - kunduzi soat 4.00 (London vaqti bilan).
Savdoning so'nggi kuni	to'lovdan oldin bo'lgan 2 ish kuni, ertalab soat 10.30 gacha (London vaqti bo'yicha).

Fyuchers bozori – bu, markazlashgan bozor bo'lib, unda raqobatdoshlik asosida tovarni yetkazib berishga fyuchers shartnomalari sotiladi va sotib olinadi. Muayyan tovarga bo'lgan har bir shartnoma standartlashgan (ya'ni, kelishilgan muddatdan so'ng, belgilangan qat'iy kunda, yetkazib beriladigan ma'lum bir miqdor va sifatdagi tovarni namoyon etadi).

Shartnomaning barcha shartlari standartlashtirilganligi sababli muhokama etiladigan yagona narsa bu, tovarning bahosidir (u savdo zalida aniqlanadi).

Fyuchers bozorining iqtisodiyotdagi roli birinchidan, baholarni aniq belgilash, ikkinchidan xedjinglash uchun sharoit yaratish, ya'ni baho xavf-xatarlarini sug'urtalashdan iborat.

Fyuchers shartnomasi brokerning hisob-kitob (kliring) palatasi oldida kelgusida ma'lum bir tovarni sotish yoki sotib olish haqidagi real majburiyati bo'lib hisoblanadi.

Kelgusida yetkazib beriladigan tovarning bahosi shartnoma tuzilayotgan paytda qayd etiladi.

Tovarga haq to'lanishi va tovarning yetkazilishi shartnomada ko'rsatilgan oyda hamda savdo qoidalari bilan belgilangan kunlarda (yetkazib berish oyning 28,29,30- sanalarida) amalga oshiriladi.

Fyuchers shartnomasini forvard shartnomasidan farqi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

7.9-jadval

Fyuchers shartnomasini forvard shartnomasidan farqi

	FYUCHERS	FORVARD
Baho:	Ko'pchilik brokerlarning bir vaqtdagi savdosi bilan aniqlanadi (baland tovush bilan erkin so'zlashish orqali)	Ikki broker o'rtasidagi savdoda aniqlanadi
Soni:	Standartlashtirilgan (10)	Savdolashiladi
Sifat:	Standartlashtirilgan (AQSH dollari)	Savdolashiladi
Ijro muddati:	Standartlashtirilgan (har oyning 28, 29, 30-sanalari)	Savdolashiladi
Kontragentlar:	Broker - hisob-kitob palatasi	Broker-broker
Tugatilishi (so'ndirilishi)	Ofset operatsiyasi yordamida oson amalga oshiriladi	Iloji yo'q

Opsion shartnomalari

Yuqorida ko'rib chiqilgan mavzulardagi valyuta operatsiyalarida biz istiqbol baholarini hisobga olmagan edik. Odatda, qo'shimchalar sifatidagi mukofot yoki diskontlar kontragentlarning shu soha bo'yicha qanchalik ma'lumotga ega ekanligiga bog'liq va ular shartnoma predmeti bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan opsionlar bilan shartnomalar bu yerda muhim ahamiyat kasb etadi.

Opsion – lotincha “opsio” so'zidan olingan bo'lib, tanlov ma'nosini beradi. Opsion – bu, ma'lum bir aktivni shartnomada qayd etilgan bahoda, oldindan kelishilgan sanada yoki kelishilgan ma'lum bir davr ichida sotib olish yoxud sotish huquqini (sotib oluvchi opsioni uchun) boshqa shaxsga berilishi haqidagi ikki taraflama shartnomadir.

Valyuta opsioni quyidagi shaklga ega bo'lgan, ikki broker (diler) o'rtasidagi shartnomadir:

7.10-jadval

OPSION

Davr	Mijozning hisob raqami	
Ishtirokchi	Kontragent	
Sotib olish	Sotish	
Shartnoma	Yetkazilish vaqti	Turi
“Strayk” baho	Mukofot	Soni

Mazkur shartnoma bo'yicha bir broker (diler) yozib, opsionni boshqa brokerga beradi, boshqa broker esa uni sotib oladi va opsion shartlari ko'zda tutgan muddat ichida uni (“strayk” baho) o'rnatilgan kurs asosida opsionni yozib bergan shaxsdan (sotib oluvchi opsioni) ma'lum bir miqdordagi valyutani sotib olish yoki unga bu valyutani sotish (sotuvchi opsioni) huquqiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, opsion sotuvchisi valyutani sotishga (yoki sotib olishga) majbur, opsionni sotib oluvchi shaxs esa buni qilishi shart emas. Ya'ni u valyutani sotib olishi yoki sotib olmasligi (sotishi yoki sotmasligi) mumkin. Demak, opsion sotib oluvchini almashuv kursini kelishilgan “strayk” bahodan yuqori yoqimsiz o'zgarishidan himoya qiluvchi, valyuta xatarlarini sug'urta qilish shaklidir. Agarda

opsionning almashuv kursi “strayk” bahodan ortib unga yoqimli tarafga o‘zgarsa daromad olish imkonini beradi.

Opsionning “strayk” bahoga nisbatan almashuv (joriy) kursining o‘sishi “apsayd” (inglizcha “upside” - yuqori tomoni) deb ataladi. Uning “strayk” bahoga nisbatan pasayishi esa “daunsayd” (inglizcha “downside” - pastki tomoni) deb ataladi.

Opsionning 3 turi mavjud, ya’ni:

1. Sotib olishga opsion (“call option”) – bu opsionni sotib oluvchi shaxsni, valyuta kursining o‘shish xavfidan (yoki ma’lum bir sanaga hisob-kitob qilishdan) o‘zini himoya qilish maqsadida, mazkur valyutani sotib olish (yoki hisob-kitobni amalga oshirish) huquqidir (majburiyati emas).

2. Sotishga opsion (“put option”) – bu opsionni sotib olgan shaxsni, valyuta qadrsizlanishidan o‘zini himoya qilish maqsadida, shu opsionni sotishga (yoki ma’lum bir sanaga hisob-kitob qilish) huquqini (majburiyatini emas) bildiradi.

3. Opsion stellaj (nemischa “stellage”) yoki (“put-call option”) - bu opsion egasiga valyutani bazis bahosi bo‘yicha sotib olish yoki sotish huquqini beradi (bir vaqtning o‘zida sotib olish va sotishni emas). Opsionda uning muddati ko‘rsatiladi.

Opsionning muddati – bu, sana yoki ma’lum bir davr bo‘lib, sana yoki davr muhlati o‘tib ketsa, mazkur opsionni ishlatib bo‘lmaydi.

Opsionning 2 uslubi mavjud: a) Yevropacha va b) Amerikacha.

Yevropacha uslub – bunda opsion faqat ma’lum bir belgilangan sanaga ishlatilishi mumkin.

Amerikacha uslub – bunda opsion, opsion davrining istalgan paytida ishlatilishi mumkin.

Opsion o‘z kursiga ega. Opsion kursi – bu uning strayk bahosidir (inglizcha “strike price”). Bu valyutani sotib olish (“put”) yoki sotish (“call”) mumkin bo‘lgan, ya’ni opsion aktivi bahosidir.

Opsionni sotib oluvchi shaxs opsionni sotuvchi yoki uni yozib bergan shaxsga mukofot deb atalmish vositachilik haqini to‘laydi.

Mukofot bu, opsionning bahosidir. Opsionni sotib oluvchi shaxsning xatari shu mukofot miqdori bilan cheklanadi, o‘z navbatida opsionni sotuvchi shaxsning xatari esa, olingan mukofot miqdoriga kamayadi.

Opsionga egalik qilish, uni sotib olgan shaxsga, oldindan bilib bo'lmaydigan kelgusidagi o'zgarishlardan o'zini himoya qilish imkonini beradi. Opsion shartnomasi, opsion egasi uchun ijro etilishi majburiy bo'lgan shartnoma emas. Shuning uchun ham, agarda opsion amalga oshirilmasa, egasi uni berib yuborishi yoki ishlatmasdan qoldirishi mumkin.

Opsion va forvard shartnomalari o'rtasidagi asosiy farqlar:

1. Sotib oluvchi apsayddan foyda oladi.
2. Sotib oluvchi daunsayddan himoya qilingan.
3. Sotib oluvchi opsion uchun mukofot to'laydi.

Mukofot, ya'ni opsionning bahosi quyidagi 2 elementdan tashkil topadi: a) ichki qiymat; b) davriy qiymat.

Ichki qiymat (boshqacha nomi ichki qimmatligi) – bu, opsion egasini uni sotishdan olgan to'liq daromadi. Opsion mukofotining pastki chegarasi ichki qiymatga tengdir. Chunki sotuvchi opsionning strayk bahosi va joriy bahosi (spot kurs) sifatidagi farqdan kichik bo'lgan mukofotga rozi bo'lmaydi.

Misol. "Spot" kurs 1AQSH dollari 1380 so'mni tashkil etadi. Opsiondagi sotib olish "strayk" bahosi 1370 so'm. Opsion egasi AQSH dollarlarini 1 AQSH dollari 1370 so'm bahoda sotib olishi va 1AQSH dollari 1380 so'm bahoda sotishi mumkin. Bunda opsionning ichki qiymati 1 so'mni (1380 so'm - 1370 so'm) tashkil etadi.

"Ichki qiymat" tushunchasidan kelib chiqqan holda opsionlar quyidagilarga farqlanadi:

1. "Puldagi opsionlar" (inglizcha "in the money option").
2. "Pulni oldidagi opsionlar" (inglizcha "at the money option").
3. "Pulsiz opsionlar" (inglizcha "out of the money option").

Opsionning almashuv kursi uning shartnoma, strayk bahosidan yuqori bo'lsa "puldagi opsion" bo'ladi. "Puldagi opsion" mustaqil ijobiy qiymatga ega, ya'ni fyuchers joriy bahosidan past bo'lgan sotish bahosiga ega sotuvchi opsioni yoki sotish bahosi, fyuchers joriy bahosidan past bo'lgan sotib olish opsioni.

Misol. Yanvarda ijro etiladigan fyuchers 1 AQSH dollari - 1380 so'm bahoda sotilsa, unda ijrosi yanvarda, sotilish bahosi 1 AQSH dollari - 1370 so'm bo'lgan sotib oluvchi opsioni "pulda" 1 AQSH dollari - 10 so'm bo'ladi.

Bazis bahosi taxminan joriy bahosiga teng, ya'ni mustaqil bahosi nolga teng bo'lgan opsiyon – "pulni oldidagi opsiyon" bo'ladi.

Salbiy mustaqil qiymatga ega bo'lgan opsiyon – "Pulsiz opsiyon" bo'ladi.

Davriy qiymat opsiyonlar savdosida xavf-xatarlarni aks ettiradi. Bunday xatarlarni katta yoki kichikligiga "strayk" baho, valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, foiz stavkalari, valyuta bozoridagi talab va taklif miqdorlari ta'sir etadi.

Opsiyonlar joriy bahosi va "strayk" baholarining tengligi sharoitida davriy qiymat o'zining eng katta miqdoriga yetadi. Chunki opsiyonlar joriy bahosining u yoki bu tarafga og'ish ehtimolligi nihoyatda yuqori. Agarda opsiyonning ijro sanasiga joriy bahosi ("spot" kurs) tebranish ehtimoli nolga yaqinlashsa, unda davriy qiymat ham nolga teng bo'ladi.

Misol. Valyuta birjasida quyidagi parametrlarga ega AQSH dollarlarini sotib olishga opsiyon taklif etilmoqda:

"put" (1 AQSH dollari uchun so'm)

joriy kurs ("spot" kurs) 1000 so'm/ "kool" AQSH dollari

summasi 10000 AQSH dollari

muddati 3 oy

opsiyon kursi ("strayk" baho) 1200 so'm-1 AQSH dollariga

mukofot 10 so'm-1 AQSH dollariga

uslubi Yevropacha

Opsiyonning sotib olinishi 10000 AQSH dollarini 3 oydan so'ng 1 AQSH dollari 1200 so'm kursi asosida sotib olish imkonini bermiqda, ya'ni xarajatlar 12000000 ($10000\$ \times 1200$ so'm) so'mni tashkil etmoqda. Opsiyon shartnomasini tuzgan paytda sotib oluvchi 10000000 so'm ($10000\$ \times 1000$ so'm) miqdorida mukofot to'laydi. Valyutani sotib olish bilan bog'liq jami xarajatlar 13000000 so'mni (12000000 so'm + 100000 so'm) tashkil etadi.

Opsiyonni sotib olib sotib oluvchi quyidagi imtiyozlarga ega bo'ladi:

- opsiyon valyuta kursini ko'tarilishidan to'la himoya qiladi.

Bizning misolimizda sotib oluvchi 1 AQSH dollari - 1200 so'm miqdoridagi kafolatlangan sotib olish kursiga ega. Agarda, opsiinni ishlatilish kuniga kelib joriy kurs (spot kurs) opsiyon kursidan yuqori bo'lsa, sotib oluvchi bundan qat'i nazar valyutani 1 AQSH dollari - 1200 so'm kursi asosida sotib oladi.

Sotib oluvchi valyuta kursining pasayishidan ham yutadi. Agarda, opsiinni ishlatilish kuniga kelib joriy kurs (spot kurs) opsiyon kursidan past bo'lsa, sotib oluvchi opsiondan foydalanmasligi mumkin va AQSH dollarlarini, kursning pasayishi oqibatida yutgan holda, naqdli bozorda sotib olishi mumkin.

Sotib olishga opsiyon, egasiga valyutani nisbatan past kursda sotib olish va daromad olish huquqini beradi. Bu daromad quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$D=(R_1 - R_0) \times n - C_n, \text{ yoki}$$

$$D=(R_1 - R_0 - C) \times n;$$

bu yerda, D - sotib olishga opsiondan keladigan daromad;

R₁ - opsiyon ijrosi paytidagi bozordagi valyuta kursi (spot kurs);

R₀ - "strayk" baho (valyutani sotib olishga opsiyon kursi);

C - opsiyon mukofoti (opsiyon bahosi);

n - opsiyon bo'yicha sotib olinayotgan valyuta miqdori.

Sotishga opsiyon, egasiga bozor tomonidan past darajada baholangan valyutani nisbatan yuqori kursda sotish va daromad olish huquqini beradi. Bu daromad quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D = (R_1 - R_0 - C) \times n.$$

Opsiyon shartnomalari bu shunday forward shartnomalariki, ular tuzilganidan so'ng mijoz shartnomaning bajarilishini talab etishi mumkin:

a) shartnoma tuzilgan sanadan boshlab, xohlagan kunda va kelgusidagi istagan sanasigacha;

b) ikki sana orasidagi xohlagan muddatida, bu ikkala sana kelgusidagi sanalardir.

Mijoz valyuta sotilishining aniq muddatiga ega bo'lmasa, to'lov muddatini o'z ichiga oladigan, to'la oylarni qoplay oladigan opsiyon shartnomalari ishlatiladi.

Opsion shartnomasining qo'llanilishidan maqsad shundaki, forvard shartnomalarini yangilash yoki ularni bir necha kunga uzaytirish zaruratidan holis bo'lishdir. Bu esa kunlik hisobda juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun mijoz opsion shartnomasidan foydalangan holda hatto, aniq muddatga ega bo'lmasa ham o'z valyuta xatarini qoplash imkoniga ega bo'ladi.

Masalan, bankimizning mijoz may oyining oxirigacha 40000 CHF 10 aprelda to'lashi haqida biladi. U bank bilan 40000 CHFni shu muddat ichida, ya'ni masalan 10 avgustdan to 10 iyungacha unga sotish haqida forvard opsionini tuzadi. Shunday qilib, bu shartnoma 2 oy ichidagi har qanday sanani o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, opsionlar qismlar bo'yicha ham ishlatilishi mumkin. Masalan, mijoz forvardli opsion shartlari asosida 3 iyuldan to 3 avgustgacha bo'lgan davr ichidagi xohlagan kunda 100000 SEKni sotish haqida shartnoma tuzadi. Bunga asosan u 20000 SEKni 5 iyulda, 50000 SEKni 15 iyulda va 30000 SEK ni 1-avgustda sotishi mumkin.

Forvardli opsion shartnomasi mijoz va bank o'rtasida tuzilayotgan paytda, sotuvchi hamda sotib oluvchining kurslari aniqlanishi lozim, chunki bank uni kotirovka qiladi. Albatta, bank o'zi uchun qulay bo'lgan kursni shu opsion davri uchun kotirovka qiladi. Bu masala ahamiyatli, chunki mijoz shartnomaning ijro etilishini opsion davrining istalgan sanasida talab etishi mumkin. Bunda bank shunga ishonch hosil qilishi kerakki, mijoz bank hisobiga qulay kursga ega bo'lib qolmasin.

Masalan, a) mijoz 1-martda, 1-martdan to 1-aprelgacha bo'lgan davrda 20000 USD ni sotib olish haqida opsion shartnomasini tuzmoqchi. Bankning sotish kurslari quyidagicha:

Spot kurs - 1,5250 USD

1 oylik forvard kursi - 1,10 cent mukofot

Bank o'zi uchun qulay bo'lgan kursni beradi, bu kurs opsion davrining oxirgi kuniga to'g'ri keladigan kursdir, ya'ni 1,5250 USD minus mukofot 1,10 cent = 1,5140 USD. Mijoz uchun funt sterlinglardagi sotish bahosi 13210,04 GBPni tashkil etadi (20000 USD : 1,5140 USD);

b) Mijoz 1-martda 1-apreldan to 1-maygacha bo'lgan opsiyon shartnomaini 40000 SEK ni sotish uchun tuzmoqchi deb faraz qilaylik. Bankning sotib olish shartlari:

Spot kurs - 3,05 SEK

1 oylik forward kursi - 1 1/2 mukofot

2 oylik forward kursi - 2 1/2 mukofot

Bank o'zi uchun qulay bo'lgan kursni kotirovka qiladi (3,05 - 1 1/2) 3,03 1/2 (1 aprel) yoki (3,05 - 2 1/2) 3,02 1/2 (1 may).

Bunda bank sotib oladi va bank uchun qulay kurs 1-aprel kursi bo'ladi, ya'ni 3,03 1/2 (ikkala kursning ichida eng yuqorisi).

Mijozga qilinadigan to'lov: 13179,57 GBPni tashkil etadi (40000 SEK : 3,03 1/2), bu yerda $3,03 \frac{1}{2} = 3,035$ ni tashkil etadi;

d) Mijoz 1-martda, 1-may va 1-iyun oylari orasida 300000 CHF sotib olishi haqida bank bilan opsiyon shartnomaini tuzadi deb faraz qilaylik. Bank kurslari quyidagicha:

Spot kurs - 196,50 yoki 198,00

2 oylik forward kursi - 290 yoki 365 dis

3 oylik forward kursi - 435 yoki 525 dis

Bank uchun qulay sotib olish kurslari quyidagicha: $(198 + 3,65) = 201,65$ (1 may) yoki $(198 + 5,25) = 203,25$ (1 iyun). Bunda bank uchun arzon kurs bu yuqori kurs bo'ladi, ya'ni 203,25 va mijoz quyidagi summani oladi 1476,01 GBP ($300000 : 203,25$).

Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa qilgan holda, forward opsiyon shartnomalari bo'yicha sotuvchi va sotib oluvchining kurslarini belgilashda quyidagilarga asoslanmoq lozim:

Valyutaning forward kotirovkasi		
	Mukofot bilan	Diskont bilan
Bankning sotish kursi	Opsiya davrining oxirgi kun kursi (a)	Opsiya davrining 1-kun kursi
Bankning sotib olish kursi	Opsiya davrining 1-kun kursi (b)	Opsiya davrining oxirgi kun kursi (v)

Svop shartnomalari

Svop (ingl. "swap", "swop") - almashuv, almashtirish ma'nosini bildiradi. Svop operatsiyasi bu, hisob-kitob sanalari turlicha bo'lgan, taxminan teng hajmdagi xorijiy valyutani bir vaqtning o'zida sotilishi va sotib olinishidir. Svop valyuta operatsiyasi bo'lib, valyutani "spot" shartlari asosida, milliy valyuta evaziga sotib olinishi va keyinchalik uni qayta sotib olinishini ko'zda tutadi. Demak, svop operatsiyasi bu, valyutani miqdor jihatidan teng summalarga, ular bo'yicha hisob-kitoblarni turli sanalarda amalga oshirish sharti bilan, bir vaqtning o'zida sotib olinishi va sotilishidir. Svop bu, valyutani so'nggi sotuv kafolati bilan vaqtinchalik sotib olishdir.

Amaliyotda svop, bir vaqtning o'zida, valyuta almashuvi bilan bog'liq ikki alohida shartnomaning imzolanishini ko'zda tutadi. Bu shartnomalar qarama-qarshi yo'nalishlar va turli hisob-kitob sanalariga ega. Mazkur shartnomalarning biri bo'yicha birinchi valyuta ikkinchi valyuta hisobiga, ma'lum bir sanada yetkazib berish sharti bilan sotib olinadi. Ikkinchi shartnoma bo'yicha esa birinchi valyuta ikkinchi valyutaga, boshqa sanada yetkazib berish sharti bilan sotib yuboriladi.

Svop valyuta operatsiyalarini ko'p hollarda banklar amalga oshiradi. Bunda ikki bank o'rtasida ikki valyuta bilan almashuv ma'lum bir davrda bo'lib, shartnoma oxirida dastlabki valyutalar banklarga qaytariladi. Valyutalar bilan almashuv bir vaqtning o'zida tuziladigan, ammo valyutalarni turli sanalarda yetkazib berilishi ko'zda tutilgan ikki qarama-qarshi shartnoma shaklida amalga oshiriladi: spot bir shartnoma bo'yicha va forvard boshqa shartnoma bo'yicha. Buning natijasida ikkala bank ham spot shartlari asosida sotib olingan valyutani to u forvard shartlari asosida sotilgunga qadar o'z ixtiyoriga oladi. Barqaror iqtisodiyot va kapitallarning erkin harakati sharoitida forvard bozoridagi baholar foizlar farqlariga bog'langandir. Forvardli (hisob-kitob qilingan) kurs quyidagiga teng bo'ladi:

$$F = (I+a) / (I+L) * S,$$

bu yerda: F - valyutaning forvardli kursi;

S - valyutaning spot kursi;

a - banklararo kredit bo'yicha foiz stavkalari;

L - Libor stavkasi (London banklararo stavkasi).

Misol. AQSH dollarining joriy spot kursi 30 RUR (Rossiya rubli)ni tashkil etadi. Banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkasi yillik 12 foizdan to 16 foizgacha tebranib turibdi. Bu holda yillik foiz stavkasi 16 foiz va LIBOR stavkasi yillik 3,16 foizga teng bo'lganda AQSH dollarining 3 oylik forvard kursi: 0,29 ni tashkil etadi:

$$F = (1+0,16)*3/12 / (1+0,0316)*3/12 * 30 = 33,46 \text{ RUR}$$

Barqaror bo'lmagan iqtisodiyot sharoitida hisob-kitob qilingan forvardli kurs qo'llanilmaydi. Valyuta bahosi shartnoma asosida belgilanadi.

Svop shartnomalarining boshqa shartnomalardan qulayligi shundaki, ular valyuta xavf-xatarini to'la bartaraf etadi. Turli sanalarda sotib olingan va sotilgan valyutalar teskari svopni tashkil etgan holda sotilishi yoki sotib olinishi mumkin. Shuning uchun, agarda hisob-kitob sanalaridagi farqlar hisobiga qoplanmagan pozitsiya hosil bo'lsa, u osongina to'la qoplanishi yoki kamaytirilishi mumkin. Svop bu, joriy foiz stavkalari ta'siri ostida, bir valyutaning o'zgarib turadigan forvard marjasini boshqa valyuta forvard marjasiga qanday ta'sir etishi yuzasidan turli fikrga ega bo'lgan brokerlarning (diler) o'zaro aloqasidir.

Svop operatsiyalarining asosiy qulayligi shundaki, uning ishtirokchilariga valyutalarni qisqa muddatli tebranishidan bezovtalanishga hojat yo'q, chunki bunday tebranishlar forvardli kursga sezilarli ta'sir etmaydi. Svop operatsiyalarida bir vaqtning o'zida spot va forvard kurslari belgilanadi hamda barcha holatlarda bu kurslar birbiridan farq qiladi.

Valyuta arbitraji

Valyuta arbitraji bu, foyda olish maqsadida valyutalarning oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalardir. Arbitraj 2 shaklda bo'ladi: a) valyuta arbitraji va b) foiz arbitraji.

Arbitraj quyidagicha tavsiflanadi:

Valyuta arbitraji (fransuzcha "arbitrage") – bu, valyuta kurslari farqlari sifatida foyda olish maqsadida valyutaning bir vaqtning o'zida sotilishini hisobga olgan holda sotib olinishidir.

Oddiy valyuta arbitraji bu, bir xorijiy valyuta va o'zbek so'mi bilan yoki ikki xorijiy valyutalar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Murakkab valyuta arbitraji bu, ko'p turdagi valyutalar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Muvaqqat valyuta arbitraji bu, ma'lum bir vaqt davomida valyuta kurslarining farqi sifatida foyda olishga qaratilgan operatsiyadir. U quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- valyutaning birinchi, spot kursi asosida sotib olinishi;
- depozitning ochilishi;
- valyutaning depozitda saqlanishi;
- valyutaning depozitdan olinishi;
- valyutaning ikkinchi, spot kurs asosida sotilishi.

Misol. Arbitrajyor (xo'jalik subyekti) quyidagi shartnomalarni tuzadi:

1. Birjada 1300 so'm 1 USD joriy spot kursi asosida 10000 USD sotib oladi va shu summani 3 oydan so'ng 1 USD 1320 so'm kursi asosida sotish haqida forvard shartnomasini tuzadi. Valyutani sotib olishga uning xarajatlari:

$$10000 \text{ USD} * 1300 = 13000000 \text{ so'm.}$$

2. Sotib olingan 10000 USD ni Xalqaro pul bozorida 3 oyga LIBOR yillik 3,16 foiz ustidan joylashtiradi (yoki vakolatli banklarda depozitga joylashtiradi). Bu operatsiyadan olingan daromad:

$$10000 \text{ USD} * 3,16\% * 3 / 100\% * 12 \text{ oy} = 79 \text{ USD}$$

$$10000 \text{ USD} + 79 \text{ USD} = 10079 \text{ USD}$$

3. Uch oydan so'ng shu 10079 USD ni 1 USD 1320 so'm forvard kursi asosida sotadi. Tushum quyidagini tashkil etadi:

$$10079 \text{ USD} * 1320 \text{ so'm} = 13304280 \text{ so'm}$$

4. Valyutani oldi-sotdisidan olingan foyda:

$$13304280 \text{ so'm} - 13000000 \text{ so'm} = 304280 \text{ so'm}$$

Valyuta arbitraji bo'yicha yillik foyda normasi:

$$304280 * 12 \text{ oy} / 13000000 * 3 \text{ oy} * 100\% = 93,624 (\%)$$

Dilerlar bir oz boshqacha turdagi valyuta arbitrajini amalga oshirishlari ham mumkin. Ular birjada valyutani sotib olib, xorijiy bankka o'tkazadilar, xorijda bu valyutani naqдли shaklga o'tkazib, qaytib o'z mamlakatiga olib kiradilar. O'z mamlakatida bu valyutani ular ulgurji yoki chakana sotib oluvchilarga, ustiga qo'shimcha haq qo'ygan holda, erkin bozor bahosida sotishlari mumkin.

Arbitraj ko'p hollarda spread shartnomalarining yakuni sifatida maydonga chiqadi. Spread shartnomasi hamma vaqt, bir vaqtning o'zida, bir valyutaning sotib olinishi va boshqa bir valyutaning sotilishini ko'zda tutadi. Bunday valyutalar kurslari, albatta, turli

sur'atlarda birgalikda ko'tariladi yoki pasayadi. Bunda diler bir operatsiyada pul yo'qotishini va boshqa bir operatsiyada foyda olishini hisobga oladi.

Fazoviy valyuta arbitraji bu, turli valyuta bozorlarida (turli birjalarda) mazkur valyuta kursi farqlari hisobiga foyda olish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyadir. Boshqacha qilib aytganda, bir vaqtning o'zida bir birjada valyuta sotib olinadi va boshqa birjada shu valyuta nisbatan yuqori kursda sotiladi.

Fazoviy valyuta arbitraji quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi spot kursi asosida valyutani sotib olinishi.
2. Sotib olingan valyutani boshqa joyga o'tkazilishi.
3. Valyutani ikkinchi spot kursi asosida sotilishi.
4. Valyutani sotilishidan olingan pulni boshqa joyga o'tkazilishi.

Foiz arbitraji bu, turli valyutalar bo'yicha foizlar farqi sifatida foyda olish maqsadida xo'jalik subyektlarini (arbitrajyorlarni) o'z qisqa muddatli aktivlari va passivlari valyuta tarkibini tartibga solishga qaratilgan valyuta (konversion) hamda depozit operatsiyalarini o'zida mujassam etgan shartnomadir. Foiz arbitraji, bu pul bozorida bir vaqtning o'zida pullarni ma'lum bir foiz ustidan olinishi va nisbatan yuqori foiz hisobidan kreditga berilishi shaklida keng qo'llaniladi. Foiz arbitraji ikki shaklda ishlatiladi: forvardli qoplanish bilan va forvardli qoplanishsiz.

Forvardli qoplanish bilan foiz arbitraji – bu, valyutani spot kursi asosida sotib olinishi, muddatli depozitga joylashtirilishi va shu vaqtning o'zida forvard kursi bo'yicha sotib yuborilishi. Foiz arbitrajining bu shakli valyuta xavf-xatarlaridan holi. Bu operatsiya yuzasidan foyda manbayi forvard marjasi hajmi bilan belgilanadigan, valyutalar bo'yicha foizlar farqi sifatida va valyuta xatarlarini sug'urta qilish qiymati hisobiga olinayotgan daromadlar darajalarining farqi hisoblanadi. U quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Arbitrajyor tomonidan USDda depozitning ochilishi.
2. Spot kursi asosida USDlarini SEKga aylantirish.
3. SEKni depozitda saqlash.
4. Depozit davri tugashi bilan arbitrajyor tomonidan SEKni olinishi.
5. Forvard kursi asosida SEKni USDlariga sotilishi.

Forvardli qoplanish bilan foiz arbitrajiga misol:

1. 400000 USD hajmdagi kapital qiymati 1,7500 spot kursi asosida SEK larga sotilganda 700000 SEK olinadi ($400000 * 1.7500$).

2. USD va SEK ni 6 oylik depozitga qo'yish mumkin:

a) 400000 USD depozit 6 oydan so'ng yillik 3% hisobidan 406000 USD gacha ko'payishi mumkin ($400000 \text{ USD} * 3\% * 6 \text{ oy} / 100\% * 12 \text{ oy}$).

b) 700000 SEK depozit 6 oydan so'ng yillik 9% hisobidan 731500 SEK gacha ko'payishi mumkin ($700000 \text{ SEK} * 9\% * 6 \text{ oy} / 100\% * 12 \text{ oy}$).

Bu yerda ko'rinib turibdiki, SEK dagi kapital qiymati USD lardagi kapital qiymatiga nisbatan tezroq o'smoqda.

3. 400000 USD spot shartlari asosida (1,7500 SEK) yetkazib berilganda 700000 SEK ni tashkil etadi. 731500 SEK esa forvard shartlari asosida 6 oydan so'ng yetkazilib berilganda 406000 USD ni tashkil etadi. Shunday qilib, SEK ning 6 oylik forvard kursi USD ga nisbatan quyidagini tashkil etadi:

$731500 \text{ SEK} / 406000 \text{ USD} = 1,8017 \text{ SEK}$, ya'ni 1 SEK = 0,55 USD.

4. Forvardli kurs 1 USD 0,0517 SEK -ga teng mukofot bilan hisoblangan ($1,7500 - 1,8017$).

5. SEKni USDlariga hisob-kitob qilingan kurs asosida sotilganda arbitrajor zarar ko'rmaydi, ammo foyda ham olmaydi. Shuning uchun u SEK ning forvardli kotirovkasini mukofotdan kam miqdorda belgilaydi, masalan - 0,0317 SEK.

6. Unda forvard kursi hisob-kitob qilinganidan ko'p bo'ladi va $1,8017 - 0,0317 = 1,7700 \text{ SEK}$ ni tashkil etadi, ya'ni 1 SEK = 0,5650 USDga teng bo'ladi.

7. 0,0317 SEK spot operatsiyasidan arbitrajli foyda quyidagini tashkil etadi:

$731500 \text{ SEK} / 1,7700 \text{ SEK} - 406000 \text{ USD} = 7277 \text{ USD}$.

Shunday qilib, arbitrajyorga foydani olish uchun forvard kursi foydasini hisoblash zarur va SEK forvard kotirovkasini mukofotdan past miqdorda belgilash kerak.

Forvardli qoplanishsiz foiz arbitraji – bu, depozitga joylashtirish sharti bilan spot kursi asosida valyutaning sotib olinishi va depozit davri tugashi bilan uning spot kursi asosida teskari konversiya qilinishidir. U quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Arbitrajor tomonidan USD larida depozit ochilishi.

2. Birinchi spot kurs asosida USD larni SEK larga aylantirilishi.
3. SEK larning depozitda saqlanishi va depozit davri tugaganidan so'ng ularni depozitdan qaytib olinishi.
4. Ikkinchi spot kurs asosida SEK larning USD lariga o'tkazilishi va ularning arbitrajyor tomonidan olinishi.

Forvardli qoplanishsiz foiz arbitrajiga misol:

1. 200000 USD lariga yillik 3% hisobidan 6 oylik depozit ochiladi. Bunda 6 oydan so'ng kapitalning qiymati quyidagini tashkil etadi:
 $200000 \text{ USD} * 3\% * 6 \text{ oy} / 100\% * 12 \text{ oy} = 3000 \text{ USD}$. $200000 \text{ USD} + 3000 \text{ USD} = 203000 \text{ USD}$.

Depozit ochilish kunida USD larni SEK larga 1,7350 spot kursi asosida aylantiriladi. Kapitalning qiymati 347000 SEK ni tashkil etadi ($200000 * 1,7350 = 347000 \text{ SEK}$).

2. SEK bo'yicha 6 oylik depozit stavkasi yillik 9%. 6 oydan so'ng kapital qiymati quyidagini tashkil etadi:

$$347000 \text{ SEK} * 9\% * 6 \text{ oy} / 100\% * 12 \text{ oy} = 15615 \text{ SEK}$$

$$347000 \text{ SEK} + 15615 \text{ SEK} = 362615 \text{ SEK}.$$

3. Depozitdan mablag' olinish kuniga USD ni SEK larga nisbatan kursi 1,7350ni tashkil etsa, unda SEK larni USD lariga o'tkazilishi kapitalning quyidagi qiymatini beradi:

$$362615 \text{ SEK} / 1,7350 \text{ SEK} = 209000 \text{ USD}.$$

4. Arbitraj foydasi quyidagini tashkil etadi:

$$209000 \text{ USD} - 203000 \text{ USD} = 6000 \text{ USD}.$$

5. Agarda SEK ning kursi ko'tarilsa, unda foyda ham ko'tariladi. Aksincha, SEK ning kursi pasayganda zarar ko'riladi.

Forvardli qoplanishsiz foiz arbitraji shakli arbitrajyor uchun valyuta xatari bilan bog'liq, chunki uning natijasi nafaqat valyutalar bo'yicha foiz stavkalarining solishtirilishi, balki depozit muddati ichida valyuta kurslarining o'zgarishiga bog'liq.

Erkin suzuvchi valyuta kurslari sharoitida valyuta kurslarining tebranishi odatda turli valyutalar foiz stavkalari orasidagi farqlardan ortib ketadi. Bu esa forvardli qoplanishsiz foiz arbitrajini o'tkazayotgan arbitrajyorlarga nafaqat foiz stavkalari miqdoriga qarashga, balki valyuta kurslarining kutilayotgan o'zgarishiga qarashga majbur etadi. Bunda valyuta kurslarining keskin ko'tarilishi shartnomani forvardli qoplanishsiz foiz arbitrajiga aylantiradi.

Valyuta chayqovi lotincha "speculation" - sinchiklab qidirish, kuzatish ma'nosini beradi. Bu vaqt davomida valyuta kurslarining

o'zgarishi natijasida yoki valyuta xavf-xatarlarini bilib, o'ziga qabul qilgan holda foyda olish maqsadida turli bozorlarda o'tkaziladigan operatsiyadir.

Valyuta chayqoviga birinchi navbatda naqdli va naqdsiz valyutalarning kurslari farqiga qilinayotgan o'yin kiradi. Bunda so'mlarga naqdsiz erkin muomalada yuradigan valyuta sotib olinadi va u naqdli shaklga o'tkazilib, so'ng so'mlarga sotiladi.

Nazorat savollari:

1. Valyuta bozori deganda nima tushuniladi va uning qanday shakllari mavjud?

2. Jahon valyuta bozori va uning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

3. Valyutalar o'zaro almashinuvining zarurati nimada?

4. Valyuta bozorining asosiy ishtirokchilari kimlar?

5. Vakolatli yoki devizli bank bu qanday bank?

6. Mamlakat eksport va import operatsiyalari rivojida valyuta kursining ahamiyati qanday?

7. Jahon valyuta bozori konyunkturasi deganda nima tushuniladi?

8. Jahon valyuta bozori konyunkturasiga qanday omillar ta'sir etadi?

9. Texnik tahlil deganda nima tushuniladi?

10. Fundamental tahlil deganda nima tushuniladi?

11. Valyuta operatsiyalarining qanday turlari mavjud?

12. Spot operatsiyalari bu qanday operatsiyalar?

13. Kross-kurs nima va u qanday hisoblanadi?

14. Valyuta pozitsiyasi nima va u necha qismdan iborat?

15. Muddatli operatsiyalarning qanday turlari mavjud?

16. Forvard operatsiyalariga ta'rif bering?

17. Forvard operatsiyalarining amalga oshirilishidan asosiy maqsad?

18. Fyuchers operatsiyalariga tushuncha bering?

19. Fyuchers operatsiyalarini amalga oshirilishidan asosiy maqsad?

20. Forvard va fyucherslarning bir-biridan asosiy farqlari?

21. Opsion nima va uning asosiy maqsadi?

22. Opsionning qanday turlari mavjud?

23. Svop nima va uning asosiy maqsadi?

24. Valyuta arbitraji nima va uning asosiy maqsadi?

25. Valyuta arbitrajining qanday turlari mavjud?

VIII BOB. GLOBAL QARZDORLIK VA UNING MAMLAKAT UCHUN XAVFI

Reja:

- 8.1. Xalqaro kredit iqtisodiy kategoriya sifatida.**
- 8.2. Xalqaro kreditning shakllari.**
- 8.3. Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari.**
- 8.4. Xalqaro to'lov balansi tushunchasi va tarkibi.**
- 8.5. To'lov balansining ko'rsatkichlari va uning moddalarini tasniflash usullari.**
- 8.6. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va uni muvofiqlashtirish.**

Tayanch iboralar: Xalqaro kredit shakllari, lizing, faktoring, forfeitlash, moliyaviy va to'lov shartlari, to'lov balansining ko'rsatkichlari, asosiy bo'limlari, ta'sir etuvchi omillar.

8.1. Xalqaro kredit iqtisodiy kategoriya sifatida

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, muddatlilik hamda foiz to'lash shartlari asosida taqdim etilishi bilan bog'liq ssuda kapitalining harakatidir. Kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida xususiy korxona (bank, firma)lar, davlat tashkilotlari, hukumatlar, xalqaro hamda hududiy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlar maydonga chiqadi.

Xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arishning richaglaridan biri edi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hamda ilmiy-texnik inqilob uning rivojlanishini obyektiv asosi bo'ldi.

Xalqaro kreditning manbalari bo'lib: korxonalardagi mablag'larning davriy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'sh bo'lib qoladigan pul shaklidagi kapitalning bir qismi; banklar tomonidan yig'ib, jamlanadigan davlat va xususiy sektorning pul jamg'armalari hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining ayrim joylarida xalqaro kreditga obyektiv zarurat tug'iladi. Ushbu zarurat: 1) mablag'larning xo'jalikdagi doiraviy aylanishi bilan bog'liq; 2) mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning xususiyatlari bilan bog'liq; 3) tashqi iqtisodiy bitimlarning hajmi va muddatlaridagi farqlar bilan bog'liq; 4) ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan yirik kapital qo'yilmalarini amalga oshirilish zarurati bilan bog'liq.

Xalqaro kreditning tamoyillari. Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning tamoyillarida aks etadi:

1) qaytarishlilik; agarda olingan mablag'lar qaytarilmayotgan bo'lsa, unda ushbu holat kapitalni qaytarimaslik sharti bilan berilishiga, ya'ni moliyalashtirishga aloqadordir;

2) muddatlilik; kredit kelishuvida belgilangan muddatlarda kredit qaytarilishini ta'minlaydi;

3) to'lovlilik; qiymat qonuni harakatini aks ettirgan holda kreditning har bir holatidagi alohida shartlarni amalga oshirish usulidir;

4) moddiy ta'minlanganligi; kredit so'ndirilishining kafolatida o'z aksini topadi;

5) maqsadli yo'nalishi; ssudaning aniq bir obyektlarini belgilanishi.

Xalqaro kreditning tamoyillari uning bozor iqtisodiy qonunlari bilan aloqalarini ifodalaydi va bozor subyektlari hamda davlatning joriy hamda strategik vazifalariga erishish maqsadida ishlatiladi.

Xalqaro kreditning funksiyalari. Xalqaro kredit ssuda kapitalining tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonidagi harakat xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun ssuda kapitallarining mamlakatlararo qayta taqsimoti. Ssuda kapitali xalqaro kredit mexanizmi orqali foydalarni ta'minlash maqsadida iqtisodiy agentlar afzal ko'rgan jarayonlarga yo'naltiriladi. Ushbu bilan kredit milliy foydani o'rtacha foyda darajasida bir xillashtirilishiga hamda uning massasini oshishiga ko'maklashadi;

2) xalqaro hisob-kitoblarni jarayonida haqiqiy pullarni (oltin va kumush) kredit pullarga almashtirilishi hamda naqdsiz to'lovlarning rivojlanishi va tezlashtirilishi, naqdli valyuta muomalasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirilishi orqali muomala xarajatlarining tejalishi. Xalqaro kredit zaminida xalqaro hisob-kitoblarning

veksellar, cheklar hamda bank pul o'tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqa shu singari kredit vositalari paydo bo'ldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida ssuda kapitali muomala davrining tejalishi ishlab chiqarishning kengayishi va foyda o'simini ta'minlagan holda kapitalning unumli muomala davrini oshiradi;

3) kapital to'planuvi va markazlashuvining tezlashishi. Xorijiy kreditlar jalb etilishi evaziga qo'shimcha qiymatning kapitalizatsiya jarayoni tezlashadi, individual jamg'arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitallari ularga boshqa mamlakatlar mablag'larining qo'shilishi hisobiga ko'payadi. Xalqaro kredit azaldan individual korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylanishi, yangi firmalar, monopoliyalar barpo etilishining omili sifatida maydonga chiqadi. Kredit boshqa mamlakatlarning kapitali, mulki va mehnatidan ma'lum bir chegaralarda foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik kompaniyalarga taqdim etiladigan imtiyozli xalqaro kreditlar va mayda hamda o'rta hajmdagi firmalarni jahon ssuda kapitallari bozoriga chiqishining qiyinligi kapital to'planuvi va markazlashuvining kuchayishiga ko'maklashadi.

Milliy va jahon xo'jaligining rivojlanishi bilan xalqaro kredit funksiyalarining ahamiyati bir xilda bo'lmay, o'zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi hamda bir vaqtning o'zida o'zi ham muvofiqlashtirilish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro kreditning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi roli. Xalqaro kredit o'zaro bog'liq funksiyalarni bajarish orqali ikki yoqlama, ya'ni ijobiy va salbiy rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditning ijobiy roli takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishi hamda uning kengayishi orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashishida o'z aksini topadi. Ushbuda ularning o'zaro aloqasi aks etadi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard oqibatda takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in hamda uzatkich mexanizmi rolini o'ynaydi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgani holda xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriy sharti va katalizatori bo'lib ham hisoblanadi. U ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining baynalmilallashuvi, jahon bozorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi.

Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tezlashishiga ko'maklashadi:

Birinchidan, kredit mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Ushbu bilan bozordagi konyunkturani ushlab turish uchun qo'shimcha talab vujudga keladi. Kredit hisobiga amalga oshadigan tashqi savdo, ayniqsa, ishlab chiqarish va istemolning uzun sikliga hamda yuqori qiymatga ega tovarlar uchun xalqaro me'yorga aylandi. Importyor va eksportyorlar mahsulotning qimmatlashishi hamda jahon savdosida mashina va jihozlar ulushining oshishi sharoitida tashqi savdo kreditlarini ishlatishdan manfaatdordir. Xorijdagi korxonalar qurilishi ham import qilinayotgan, ayniqsa, texnologik va energetik jihozlar uchun to'lanayotgan kredit hisobiga amalga oshiriladi. Zamonaviy sharoitlarda kreditlarning kreditor mamlakatdan tovarlarni eksport qilinishi bilan "bog'langanligi" o'sdi. Mazkur kredit kreditor mamlakatda tovarlar sotib olishga ishlatilishi qarz munosabatlarining sharti qilib qo'yiladi. Ushbu bilan xalqaro kredit kreditor mamlakat firmalarining raqobatdoshligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit xorijiy xususiy investitsiyalar uchun imtiyozli sharoitlarni yaratadi, chunki ushbu imtiyozlar kreditor mamlakat investorlariga taqdim etiladigan imtiyozlar bilan bog'liqdir. Shu bilan birgalikda korxonalar, shu jumladan, xorijiy va qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish uchun ishlatiladi, xalqaro kapital bilan bog'liq milliy korxonalar, banklar mavqeyini mustahkamlashga ko'maklashadi;

Uchinchidan, kredit mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalariga xizmat ko'rsatuvchi xalqaro hisob-kitoblar va valyuta operatsiyalarining uzluksizligini ta'minlaydi;

To'rtinchidan, kredit tashqi savdo va mamlakatning boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat turlari iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Xalqaro kreditning bozor iqtisodiyoti rivojlanishidagi salbiy roli uning qarama-qarshiliklarini kuchayishida o'z ifodasini topadi. Birinchi navbatda iqtisodiyotdagi nomutanosib bo'lgan nisbatlar kuchayadi. Xalqaro kredit ssuda kapitalining mamlakatlar o'rtasidagi qayta taqsimotini amalga oshirgan hamda ishlab chiqarishni uning ko'tarilishi va tushib ketishi davrlarida notekis o'sishiga ko'maklashgan holda tovarlarni keragidan ko'p bo'lgan hajmlarda ishlab

chiqarilishiga ta'sir etadi. Xalqaro kredit nisbatan foydaliroq bo'lgan tarmoqlar rivojlanishini osonlashtirgan hamda xorijiy kapital jalb etilmagan tarmoqlar rivojiga to'sqinlik qilgan holda ijtimoiy takror ishlab chiqarishning nomutanosib nisbatlarini kuchaytiradi. Xalqaro kredit mamlakatlarning tovar iste'moli bozorlari, kapital investitsiyalari jarayonlari, xomashyo manbalari, ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi sohalaridagi yetakchilik uchun raqobat kurashlarining qurolidir. Korxonalar ushbu kreditdan xomashyo manbalarini sotib olish, mahsulot sotish bozorlarini kengaytirish, kapital investitsiya jarayonlarini kengaytirish maqsadlarida faol foydalanadilar. Ssuda kapitallari jahon bozorining kanallari bo'yicha pul muomalasi va kredit, valyuta tizimi, to'lov balanslari hamda milliy va jahon iqtisodiyotlarining yalpi barqarorsizligini kuchaytiradigan "qaynoq" pullar harakati amalga oshadi.

Mamlakatlarning kredit siyosati jahon bozorlarida kreditor mamlakat mavqelarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, xalqaro kredit kreditor mamlakatlar mavqelarini o'stirgan holda olingan foydalarni qarzdor mamlakatlardan o'tkazish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda ssudalarni foizlar bilan qaytimining jamiyat sof daromadining ma'lum bir hajmidan oshgan yillik to'lovlari qarzdor mamlakatlarda mazkur jamg'armalarning shakllanish manbalariga salbiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarzdor mamlakatlarda kreditor mamlakatlar uchun qulay bo'lgan iqtisodiy va siyosiy rejimlarning yaratilishi hamda mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Ishlab chiqarish va almashuvning baynalmilallashuvi, jahon xo'jalik aloqalari yangi shakllarining paydo bo'lishi xalqaro kreditning turli shakllari rivojlanishiga obyektiv asos bo'lib xizmat qiladi.

8.2. Xalqaro kreditning shakllari

Xalqaro kreditning turli shakllarini kredit munosabatlarining ayrim tomonlarini xarakterlovchi bir nechta muhim omillariga ko'ra umumiy asosda quyidagicha tasniflash mumkin:

- manbalarga ko'ra tashqi savdoni kreditlash hamda moliyalashtirishning ichki, xorijiy va aralash turlari farqlanadi. Ular o'zaro yaqindan bog'liqdir hamda eksportyordan importyorgacha

bo'lgan tovar harakatining barcha bosqichlariga xizmat ko'rsatadi. Tovar sotuv jarayoniga qanchalik yaqin bo'lsa, odatda xalqaro kreditning shartlari qarz oluvchiga shunchalik yoqimli bo'ladi;

- belgilanishiga ko'ra tashqi iqtisodiy bitimning qaysi biri qarz mablag'lari hisobiga qoplanishiga bog'liq holda quyidagilar farqlanadi:

1) tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'liq tijorat kreditlari;

2) har qanday boshqa maqsadlarga, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalarga, investitsion obyektlar qurilishiga, qimmatli qog'ozlar sotib olishga, tashqi qarzni so'ndirishga, valyuta intervensiyasiga ishlatiladigan moliyaviy kreditlar;

3) kapital, tovarlar va xizmatlarni chetga olib chiqilishining aralash shakllariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan "oralik" kreditlar. Masalan, pudrat ishlari (injiniring)ni amalga oshirish shaklida;

- turlariga ko'ra kreditlar eksportyorlar tomonidan o'z sotib oluvchilariga tovar shaklida va banklar tomonidan pul shaklida taqdim etiladigan valyuta turlariga bo'linadi. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar yetkazib berish bo'yicha tijorat bitimi shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi va import jihozlar zaminida obyekt qurilishi yuzasidan mahalliy xarajatlarni kreditlash uchun ishlatiladi;

- qarz valyutasiga ko'ra qarzdor mamlakat yoki kreditor-mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida hamda SDR valyuta savatiga asoslangan xalqaro hisob valyutasida taqdim etiladigan xalqaro kreditlarga farqlanadi;

- muddatlariga ko'ra xalqaro kreditlar: qisqa muddatli - 1 yilgacha, ayrim holatlarda 18 oygacha (o'ta qisqa muddatli - 3 oygacha, bir sutkalik va bir haftalik), o'rta muddatli - 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli - 5 yildan ziyod muddatlarga beriladigan kredit turlariga bo'linadi. Ba'zi mamlakatlarda 7 yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, 7 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli kredit odatda tadbirkorlarni aylanma kapital bilan ta'minlaydi va nosavdo, sug'urta hamda chayqov bitimlariga xizmat ko'rsatgan holda tashqi savdo va xalqaro to'lovlar muomalasida qo'llaniladi. Uzoq muddatli

xalqaro kredit odatda asosiy ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, mashinalar va butlovchi jihozlar eksportining 85 foizi hajmiga hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari (yirik ko'lamdagi loyihalar, ilmiy tekshirish ishlari, yangi texnika joriy etilishi)ga xizmat ko'rsatadi. Agarda qisqa muddatli kreditning muddati uzaytirilsa, unda u o'rta muddatli, ayrim holatlarda esa uzoq muddatli kreditga aylanadi. Qisqa muddatli kreditlarning o'rta va uzoq muddatli kreditlarga aylanishi jarayonlarida davlat kafil sifatida faol ishtirok etadi;

- ta'minlanganlik tamoyiliga ko'ra ta'minlangan va blankali kreditlarga farqlanadi. Kreditning ta'minoti bo'lib odatda tovarlar, tovarga egalik huquqini beruvchi va boshqa tijorat hujjatlari, qimmatli qog'ozlar, veksellar, ko'chmas mulk hamda qimmatliklar xizmat qiladi. Kredit olish uchun tovar garovi 3 shaklda amalga oshiriladi: qat'iy garov (tovarlarning ma'lum bir massasi bank foydasiga garov qilinadi); muomaladagi tovar garovi (ma'lum bir summadagi, tegishli assortimentdagi tovarning qoldiqi hisobga olinadi); qayta ishlovdagi tovar garovi (mazkur mahsulotlarni bankka garovga bergan holda garovga olingan tovaridan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin).

Kreditor sotilishning yuqori imkoniyatlariga ega bo'lgan tovarlarni garovga olishni afzal ko'radi va ta'minot hajmini belgilashda tovar bozori konyunkturasini hisobga oladi. Ba'zi holatlarda kreditning ta'minoti sifatida o'rtacha bozor baholarida hisobga olingan davlat rasmiy oltin zahiralarining bir qismi ishlatiladi (1963-yilda Finlyandiyada, 1970-yillarning o'rtalarida Italiya, Urugvay, Portugaliyada).

Rivojlanib borayotgan davlatlar (ayniqsa, 1980-yillarning boshlarida) o'zlarining tashqi qarzlarini so'ndirish maqsadida olingan xorijiy kreditlarning garovi sifatida oltinni deponentga olishni keng qo'llay boshladilar. Biroq oltinning garovi ustidan ssudalar shakli ko'pchilik xalqaro kreditlar uchun xos bo'lgan "salbiy garov shartlashuvi" tufayli keng tarqalmadi. Ushbu shartlashuvning mohiyati quyidagichadir: agar qarz oluvchi boshqa kreditlar bo'yicha qo'shimcha ta'minotni taqdim etsa, unda kreditor mazkur ssuda yuzasidan ham qo'shimcha ta'minotni talab qilishi mumkin. Bundan chiqdi, agar mamlakat oltin garovi ustidan kredit olgan bo'lsa, unda avval olingan kreditlarni ham oltin bilan ta'minlashni ushbu

mamlakatdan talab etishlari mumkin. Shu sababli ayrim mamlakatlar oltinni sotishni afzal ko'radilar. Garov kredit kelishuvi bo'yicha majburiyatning ta'minot usuli bo'lganligi sababli qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi holatida kreditor garov qiymatidan kompensatsiya olish huquqiga ega.

Blankali kredit qarzdorning ushbu qarzni ma'lum bir muddatda so'ndirish majburiyati ustidan beriladi. Ushbu kredit bo'yicha hujjat bo'lib odatda qarz oluvchining yagona imzosiga ega bo'lgan solo-veksel xizmat qiladi. Blankali kreditning turlari bo'lib kontokorrent va overdraft hisoblanadi.

Taqdim etilishi nuqtayi nazaridan qarz oluvchi hisobvarag'iga, uning ixtiyoriga olinadigan moliyaviy (naqdli) kreditlar; importyor yoki bank tomonidan trattaning aksepti shaklidagi akseptli kreditlar; depozit sertifikatlari; obligatsiya zayomlari, konsorsial kreditlar va boshqa shu kabilar farqlanadi. Kreditor sifatida maydonga kim chiqishiga qarab, kreditlar: firmalar, banklar, ayrim holatlarda vositachilar (brokerlar) tomonidan taqdim etiladigan xususiy kreditlarga; hukumat kreditlariga; xususiy korxonalar va davlat ishtirok etadigan aralash kreditlarga; xalqaro va hududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning davlatlararo kreditlariga bo'linadi.

Firma (tijorat) krediti bu, odatda bir mamlakat firmasi yoki eksportyori tomonidan boshqa mamlakat importyoriga to'lovni kechiktirish shaklida taqdim etiladigan ssudadir. Tashqi savdodagi tijorat krediti tovar operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar bilan hamrohlikda amalga oshiriladi. Firma kreditlarining muddatlari turlichadir (odatda 2-7 yilgacha) va jahon bozorlaridagi konyunktura shartlari, tovarlar turlari va boshqa omillar bilan belgilanadi. Mashina va murakkab jihozlar eksportining kengayishi bilan mazkur kreditlar muddatlarining uzayishi yangilik bo'ldi. Firma krediti odatda veksel bilan rasmiylashtiriladi yoki ochiq hisobvaraq bo'yicha taqdim etiladi.

Vekselli kredit, eksportyor tovarlarni sotish to'g'risidagi shartnomani tuzganidan so'ng o'tkaziladigan veksel (tratta)ni importyorga qarata chiqarilishini ko'zda tutadi. O'z navbatida importyor tijorat qog'ozlarini olganidan so'ng mazkur vekselni akseptlaydi, ya'ni ushbu vekselga ko'rsatilgan muddatlarda to'lovni amalga oshirishga rozi bo'ladi.

Ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit eksportyor va importyor o'rtasidagi kelishuv yo'li orqali taqdim etiladi. Mazkur kelishuvga asosan tovarlarni yetkazib beruvchi sotilgan va yetkazib berilgan tovarlar qiymatini ularni sotib olgan shaxs hisobvarag'ida qarzdorlik sifatidagi yozuvi shaklida amalga oshiradi, importyor esa olingan kreditni muddatida so'ndirish to'g'risidagi majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit tovarlarning muntazam asosda yetkazib berilishi, majburiyatlarning esa oyning o'rtasi yoki oxirida davriy ravishda so'ndirilib borilishi sharoitlarida qo'llaniladi.

Firma kreditlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib importyorning bo'nak to'lovi (sotib olish bo'naki) hisoblanadi. Bo'nak to'lovi shartnoma imzolanganidan so'ng importyor tomonidan odatda buyurtma berilgan mashina, jihoz va kemalar qiymatining 10-15 foizi (ba'zida bundan ortiq) miqdorida xorijlik tovar yetkazib beruvchi foydasiga amalga oshiriladi. Sotib olish bo'nagi xalqaro hisob-kitoblar hamda eksportni kreditlashning va bir vaqtning o'zida xorijlik sotib oluvchi majburiyatlarini kafolatlashning shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi, chunki importyor buyurtma berilgan tovarlarni qaytarmasdan qabul qilishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarning importyor firmalari rivojlanib borayotgan mamlakatlar bilan munosabatlarda sotib olish bo'naklaridan ushbu mamlakatlardan qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqish uchun foydalanadilar.

Bo'nakni taqdim etgan shaxs tomonidan shartnomaning bajarilmasligi sharoitida mazkur bo'nak, undan zararlar chegirib olinganidan so'ng, qaytariladi. Agarda shartnoma bo'nakni olgan shaxs tomonidan bajarilmasa, unda u mazkur bo'nakni, zararlarni qoplagan holda, sotib oluvchiga qaytarishi lozim. Bo'nak, shartnomadagi ikkinchi tarafga zararlarni qoplamagan holda shartnoma bo'yicha majburiyatlardan ozod bo'lish imkonini beruvchi tovon to'lovidan farqli o'laroq, shartnoma bajarilishini rag'batlantiradi. Sotib olish bo'nagi ayrim holatlarda to'lovni kechiktirish shakli bilan birgalikda teng ulushlarda va ma'lum bir intervallarda (yarim yil, yil) qo'llaniladi.

Firma krediti sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalasa-da, u odatda bank krediti bilan birgalikda harakatlanadi. Mashinalar va jihozlar sotuvida firma krediti uzoq muddatlarga taqdim etiladi (5 yil va undan ziyod), bu esa eksportyorning katta hajmdagi mablag'larini ichki muomalasidan tashqariga chiqib

ketishiga olib keladi. Shu sababli eksportyor odatda bank kreditlariga murojaat etadi yoki o'z kreditini banklarda qayta moliyalashtiradi. Firma kreditlari mashina va jihozlar eksportini kreditlash shartlari hamda hajmi bo'yicha kreditlash muammosini hal eta olmasligi sababli bank kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi roli o'sadi.


Bank kreditlari. Eksport va importni bank tomonidan kreditlash tovarlar, tovar hujjatlari, veksellar hamda trattalar hisobining garovi ustidan ssudalar berish shaklida amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda banklar o'zlari bilan yaqindan munosabatda bo'lgan yirik eksportyor firmalarga rasmiy ta'minotga ega bo'lmagan blankali kreditni taqdim etadilar.

Xalqaro savdodagi bank kreditlari firma kreditlari oldida imtiyozga egadir. Ular oluvchiga tovarlar sotib olishda mablag'lardan keng foydalanish va sotuvchi firmalarga kredit olish uchun murojaat etmaslik imkonini beradi, hamda sotuvchilar bilan sotib olingan tovarlar uchun bank krediti hisobidan naqd puldagi hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruratidan xolis etadi. Davlat mablag'larini jalb etish va bank kafolatlaridan foydalanish evaziga xususiy banklar ko'p holatlarda eksport kreditlarini 10 - 15 yillik muddatlarga bozor foiz stavkalaridan past bo'lgan stavkalarda taqdim etadilar. Biroq banklar, odatda, kreditdan foydalanishni o'z mamlakatlari chegaralari hamda o'zlari manfaatdor bo'lgan firmalar tovarlarini sotib olish zarurati bilan chegaralab qo'yadilar. Bunda bank krediti bog'langan, maqsadli kredit xususiyatlariga ega bo'lib qoladi. Bank krediti banklar, bankirlar uyi, boshqa kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha operatsiyalarni kreditlashning muvofiqlashtirilishi, yirik hajmdagi kredit resurslarini jalb etilishi hamda tavakkalchilikni tenglik asosda taqsimlanishi maqsadida banklar konsortsiumlar, sindikatlar, bank "pul"larini tashkil etadilar. Banklar eksport va moliyaviy kreditlarni taqdim etadilar. Eksport krediti bu, eksportyor banki tomonidan importyor bankiga mashinalar, jihozlar va boshqa shu kabilarni yetkazib berilishini kreditlashtirish maqsadida taqdim etiladigan kreditdir. Bank kreditlari pul shaklida beriladi va "bog'langanlik" xarakteriga ega, chunki qarz oluvchi ssudadan faqat kreditor-mamlakatida tovarlar sotib olishda foydalanishga majbur. Banklar tomonidan 60-yillardan boshlab eksportni kreditlashning

shakllaridan biri bo'lib sotib oluvchiga (5-8 yil va bundan ziyod muddatlarga) taqdim etiladigan kredit bo'ldi.

8.1-chizma

Sotib oluvchiga taqdim etiladigan kredit



Sotib oluvchiga taqdim etiladigan kreditning xususiyatli tomonlari shundaki, eksportyor banki milliy eksportyorning o'rniga xorijlik sotib oluvchini, ya'ni importyor mamlakat firmalari va uning banklarini bevosita kreditlaydi. Bu bilan importyor sotuvchi tomonidan taqdim etilgan to'lov talabnomalariga kreditor mablag'lari hisobiga, haq to'lagan hamda qarzdorlikni sotib oluvchi yoki uning banki zimmasiga olib borgan holda zarur bo'lgan tovarlarni sotib oladi. Odatda bunday kreditlar ma'lum bir firmadan tovar va xizmatlar sotib olish bilan bog'lanadi. Bunda eksportyor bitimni kreditlashda ishtirok etmaydi, bu esa o'z navbatida eksportyor tomonidan kredit bahosini ko'tarish imkoniyatini istisno etadi. Sotib oluvchiga taqdim etiladigan bank kreditlarining qiymati odatda, bir necha yilga, ssuda kapitallari bozorida qarz mablag'lari qiymatidan past darajada qayd etiladi. Mazkur kreditning muddati sotuvchiga taqdim etiladigan kredit muddatidan katta va ushbu kreditlar odatda o'rta hamda qisqa muddatli kreditlardir. Bunday holatlarda banklar sotib olingan tovarlarga haq to'lash uchun xorijlik qarz oluvchilarga kredit yo'nalishlarini ochishlari mumkin. Eksportni kreditlashning taraqqiy etishi ushbu yo'nalishda bormoqda. Sotib oluvchiga taqdim etiladigan bank

kreditlari sotuvchi (eksportyor)ga taqdim etiladi va firma kreditlarini siqib chiqarmoqda.

Moliyaviy kredit har qanday bozorlarda va imtiyozli shart-sharoitlar asosida tovarlarni sotib olish imkoniyatini beradi. Moliyaviy kredit ko'p holatlarda tovar yetkazib berilishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq emas va, asosan, tashqi qarzni so'ndirish, valyuta kursini qo'llab-quvvatlash, avuarlar (hisobvaraqlar)ni xorijiy valyutada to'latish uchun mo'ljallangandir.

Yirik banklar trattaning aksepti shaklidagi akseptli kreditni taqdim etadilar. Eksportyorning importyor bilan kelishuviga asosan eksportyor tomonidan chiqarilgan trattalar bank tomonidan akseptlanishi orqali tovar uchun to'lov mazkur bank tomonidan amalga oshirilishi to'g'risida kelishadi. Jeneva veksel konvensiyasi tomonidan 1930-yilda qabul qilingan bixillastirilgan veksel qonunchiligiga muvofiq aksept oddiy, hech qanday shartlarsiz bo'lishi lozim. Biroq vekselning qisman summasi bilan (qisman aksept) cheklab qo'yilishi mumkin. Angliyaning veksel huquqi umumiy va cheklangan (bir nechta to'lovchidan biri tomonidan imzolangan shartli, qisman, mahalliy) akseptga yo'l qo'yadi. Akseptant asosiy qarzdor bo'lib hisoblanadi, ya'ni vekselga belgilangan muddatda haq to'lanishiga javob beradi. To'lovning amalga oshirilmasligi holatida vekselni ushlab turuvchi shaxs da'voni to'g'ridan-to'g'ri akseptantga taqdim etish huquqiga ega. Banklar tomonidan akseptlangan veksellar banklararo kreditlarni taqdim etishning instrumenti bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida tashqi savdoni kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bank akseptlarining bozori mavjud. Birinchi darajali, nufuzli bank tomonidan akseptlangan trattalar ssuda kapitallari bozorida oson sotiladi. Kreditlar ko'p holatlarda akseptlarning yangilanishi orqali qisqa muddatli kreditlardan uzoq muddatli kreditlarga aylanadi.

Eksportni kreditlashning shakllaridan biri bo'lib akseptli-rambursli kredit hisoblanadi. Ushbu kredit eksportyor veksellarining uchinchi davlat banki tomonidan akseptlanishi hamda importyor tomonidan veksel summasini akseptant-bankka o'tkazilishi (ramburslanishi)ning bog'liqlikda amalga oshishiga asoslangan.

Agarda eksportyor importyorning to'lov qobiliyatiga ishonmasa yoki sotilgan tovarlar uchun tushum sifatidagi valyutani veksel

muddati etib kelgunga qadar tezroq olishga manfaatdor bo'lsa, unda u importyor bilan tovar uchun to'lovni bank orqali, eksportyor chiqargan trattani ushbu bank tomonidan akseptlash shaklida amalga oshirilishi to'g'risida kelishib oladi. Mazkur kelishuv amalga oshgan taqdirda importyor o'z bankiga aksept to'g'risidagi kelishuvni tuzish to'g'risida topshiriq beradi. Akseptant-bank o'z navbatida, vekselga to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan kafolatni talab etadi hamda eksportyor bankiga qarata tratta akseptini ko'zda tutuvchi, chaqirib olinmaydigan akseptli akkreditivni chiqaradi. Ushbu haqdagi ma'lumotnomani olganidan so'ng eksportyor tovarni jo'natadi va tratta hamda tijorat hujjatlarini yozib, ularni odatda veksel hisobini yurituvchi o'z bankiga yo'llaydi. Eksportyor banki olingan tratta va hujjatlarni akseptant-bankka yuboradi. O'z navbatida, akseptant-bank ushbu trattani akseptlaganidan so'ng uni eksportyor bankiga yoki mazkur bankning vakil bankiga yoki filialiga, tovar hujjatlarini esa importyor bankiga jo'natadi. Importyor banki tegishli ta'minot, odatda importyorning tovarga bo'lgan mulk huquqini saqlovchi saqlash haqidagi tilxat ustidan importyorga tovar hujjatlarini taqdim etadi. Eksportyor banki akseptlangan trattani qaytadan hisobga oladi. So'ng mazkur tratta, yuqorida zikr etilgan operatsiyada yalpi kreditor sifatida maydonga chiquvchi, jahon ssuda kapitallari bozorida muomalada bo'ladi. Akseptli-rambursli kreditning xususiyatlari va imtiyozli taraflari ham shulardadir. Tratta muddati yetib kelgunga qadar importyor avval olingan ta'minot evaziga valyutani o'z bankiga ramburslaydi. Importyor banki tratta summasini, unga haq to'lanishidan bir necha kun avval akseptant-bankka jo'natadi. Muddati yetib kelganda trattaning so'nggi egasi uni akseptant-bankka haq to'lanishi uchun taqdim etadi. O'z navbatida, akseptant-bank mazkur vekselni haqiqiy hamda so'nggi egasining qonuniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun indosamentning ketma-ketligini tekshiradi.

Akseptli-rambursli kredit tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq bo'lganda eng ta'minlangan bo'lib hisoblanadi va eksportyor hamda importyor o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Bunda akkreditiv va o'tkaziladigan veksel vosita sifatida ishlatiladi. Akseptli - rambursli kreditning limit, kreditning muddati, foiz stavkasi, rasmiylashtirilish, ishlatilish va so'ndirilish tartibi kabi shartlari oldindan tuzilgan banklararo kelishuvi asosida belgilanadi.

Ta'minlanganligi esa tovarlar sotilishi bilan asoslangandir. Agarda mazkur kredit tovar yetkazib berilishi bilan bog'liq bo'lmasa, unda u sof moliyaviy xarakterga ega bo'ladi.

Broker krediti ayrim mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya) firma va bank kreditlarining oraliq shakli sifatida harakat qiladi. Ushbu kredit tijorat tusidagi bitimlarga tijorat krediti singari hamda bir vaqtning o'zida bank kreditiga ham aloqadordir. Chunki brokerlar odatda banklardan qarz olib turadilar. Brokerlik vositachilik haqi shartnoma summasining $1/50-1/32$ qismini tashkil qiladi. Broker firmalari Buyuk Britaniyada assotsiatsiyaga birlashgan. Brokerlar jahon bozoridagi holat to'g'risidagi ma'lumotga egadirlar. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishdan tashqari ular sotib oluvchilarni to'lov qobiliyatlari yuzasidan kafolatlarni ham taqdim etadilar. Zamonaviy bosqichda broker kreditlarining tashqi savdodagi roli pasayib ketdi.

Tashqi savdo aylanmasining o'sishi hamda yirik hajmdagi summalarni katta tavakkalchilik asosida uzoq muddatlarga jalb etishning muammolari o'rta va uzoq muddatli xalqaro kreditlarning rivojlanishiga olib keldi. Bankirlik va aksept faoliyati bilan shug'ullanuvchi uylar hamda tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan eksportni veksellar vositachiligida kreditlash tizimi tashqi savdoning o'sib borayotgan talablarini qondira olmay qoldi. Bir qator (Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa shu kabi) mamlakatlarda mashinalar va jihozlar eksportini o'rta hamda uzoq muddatli kreditlashning maxsus tizimi yaratilgan. Ushbu kreditlash turlarining shakllari qisqa muddatli (firma, bank, davlatlararo kredit va shu kabi) kreditlashning shakllariga o'xshash bo'lishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Iste'mol bozorlari uchun kurash borasida eksportyorlar muddati 1-5 yildan to 7-10 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli kreditlarni veksellar orqali rasmiylashtirgan holda taqdim etadilar.

Yirik kredit muassasalari uzoq muddatli xalqaro kreditlarni nazariy asosda 40 yilgacha, amalda esa 10-15 yil muddatga taqdim etadilar. Mazkur kreditlash turi bilan kapitalni o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali jalb etuvchi davlat va yarim davlat mulkiy maqomiga ega, maxsus kredit tashkilotlari shug'ullanadi.

Banklar qiymati bo'yicha teng bo'lgan tovarlarni o'zaro yetkazib berishga asoslangan kompensatsion bitimlar yuzasidan uzoq muddatli kreditlarni taqdim etadilar. Ushbu turdagi kreditlar hamma vaqt maqsadli xarakterga ega bo'ladi. Korxonani barpo etish va qayta tiklash, tabiiy resurslarni o'zlashtirish uchun mashina hamda jihozlarni 8-15 yil muddatga kreditga olgani holda qarz oluvchi mazkur kreditni qurilgan va qurilayotgan korxonalar mahsulotlari hisobiga so'ndirishini amalga oshiradi. Kompensatsion bitimlarning farqli tomoni, ularning keng ko'lamliligi va uzoq muddatli xarakteri hamda eksport va import bitimlarining o'zaro bog'liqligidir.

Amaliyotda "uzoq muddatli kredit" atamasi kredit muassasalarining ssudalariga aloqador bo'lib qoldi. Uzoq muddatli kreditning bir qismi bo'lib zayomlar, ya'ni davlat va xususiy korxonalar, banklar tomonidan o'z qarz majburiyatlarini chiqarish orqali milliy hamda jahon ssuda kapitallari bozorlaridan qarz mablag'larini jalb etilishi hisoblanadi. Uzoq muddatli kredit va zayomlar, asosan, asosiy kapitalni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mashinalar, jihozlar eksporti, sanoat loyihalarini sotilishiga xizmat ko'rsatadi.

Budjet mablag'lari hisobdan ajratiladigan uzoq muddatli (muddatlari 10-15 yil va bundan ziyod) xalqaro kreditlarning quyidagi shakllari farqlanadi:

1) hukumatning ikki taraflama kreditlari. Davlatlararo uzoq muddatli kredit keng ko'lamlarda birinchi jahon urushi paytida vujudga keldi va o'z rivojiga urushdan so'nggi yillarda ega bo'ldi. Bunda asosiy kreditor bo'lib AQSH maydonga chiqdi. Natijada davlatlararo ziddiyatlarni kuchaytirib yuborgan hukumatlararo qarzдорlik (11 mlrd. oltin dollarlari, foizlarni hisobga olmaganda) paydo bo'ldi. Fransiya kreditni nemis reparatsiyalari hisobiga, Germaniya esa AQSHdan yangi kreditlarni olish hisobiga so'ndirayotgan edi. 1929-1933-yillar iqtisodiy inqirozi davri mobaynida Germaniya va 25 ta boshqa davlatlar qarz bo'yicha to'lovlarni to'xtatib qo'ydilar. Ikkinchi jahon urushi davri mobaynida hukumatlararo qarzlilar sezilarli rol o'ynamagan edi. Harbiy va boshqa turdagi materiallarning yetkazib berilishi, asosan, "lend-liz" (ijara) shartlari asosida, kredit majburiyatlarisiz amalga oshirilayotgan edi;

2) xalqaro va hududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning kreditlari;

3) yordam ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha, ushbu yordam shakli texnik yordam, hadyalar, subsidiyalar bilan birgalikda imtiyozli shartlar asosidagi zayomlarni ham o'z ichiga oladi.

Ayrim holatlarda xalqaro kreditning aralash turi qo'llaniladi. Masalan, eksportni kreditlashning odatdagi shakllari yordam ko'rsatish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Xalqaro kreditning yangi shakllaridan biri bo'lib bir nechta kredit muassasalari tomonidan yirik loyihalarni qo'shma moliyalashtirish hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari qo'shma moliyalashtirishning tashabbuskorlari bo'lib maydonga chiqadi va ular ushbu operatsiyalarga odatda loyihaning eng ko'p foyda keltiradigan qismini imtiyozli asosda (foiz stavkasi bozor stavkasidan past) moliyalashtiruvchi, xususiylar tijorat banklarini jalb etadilar.

Qo'shma moliyalashtirishning quyidagi 2 shakli qo'llaniladi:

- parallel moliyalashtirish, bunda loyiha turli kreditorlar tomonidan ular uchun o'rnatilgan kvotalar me'yorida kreditlanadigan tarkibiy tashkil etuvchilarga bo'linadi;

- o'z-o'zini moliyalashtirish, bunda barcha kreditorlar loyihaning ijro etilishi mobaynida ssudalarni taqdim etadilar. Kreditorlardan biri (menejer-bank) loyihaning tayyorlanishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi.

Qo'shma moliyalashtirish qarzl oluvchiga imtiyozli kreditlarni olishga yo'l ochgani holda ma'lum bir imtiyozlarni beradi. Biroq asosiy imtiyozlarni kreditorlar oladi, chunki bunday kreditlash ssudani qarzdor tomonidan o'z vaqtida so'ndirilishining qo'shimcha kafolatini beradi.

Xususiylar banklarning sindikatlari o'z kreditlarini qarzl oluvchi mamlakatlarga ular tomonidan XVFB yoki TTHB (Taraqqiyot va tiklanish xalqaro Banki)ning kreditlarini olgan taqdirdagina taqdim etadilar. Davlat va xususiylar banklar o'rtasidagi ushbu taqsimotning asosiy maqsadi iqtisodiy hamda siyosiy omillardan kelib chiqqan holda ssuda kapitallarining jahon bozoriga qarzl oluvchilar chiqishini muvofiqlashtirishdir. Shu sababli xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining kreditlari ikki taraflama hukumat kreditlari hamda ayniqsa, xususiylar banklar kreditlari, yevrokreditlarga nisbatan summalar bo'yicha kamtarona o'rin egallasa-da, katta rol o'ynaydi.

Xalqaro uzoq muddatli kreditning shakllaridan biri bo'lib qimmatli qog'ozlar emissiyasi hisoblanadi.

Loyihalarni moliyalashtirish xalqaro uzoq muddatli kreditning zamonaviy shaklidir.

Ushbu shakllardan biriga lizing ham kiradi. **Lizing** (inglizcha "leasing", "lease"—ijaraga berish so'zidan olingan) lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga ijaraga taqdim etilishidir.

Faktoring (inglizcha "factoring", factor — vositachi) - ixtisoslashgan moliyaviy kompaniya tomonidan eksportyorning importyorga bo'lgan pul talablarini sotib olinishi hamda inkassatsiya qilinishi shaklidagi xalqaro kreditdir.

Forfeytlash (fransuzcha "a forfait" — yalpi, umumiy summasi bilan) naqdli to'lov evaziga ma'lum bir huquqlar taqdim etilishini bildiradi. Ushbu bank amaliyotida veksellarni hamda boshqa qarz majburiyatlarini to'liq muddatga, oldindan belgilangan shartlar asosida sotib olinishidan iboratdir.

8.3. Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari

Xalqaro kreditning shartlari kredit va to'lov valyutasi, summasi, muddati, foydalanish hamda so'ndirilish shartlari, qiymati, ta'minot turi, xavf-xatarlarni sug'urtalash usullari kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Kredit va to'lov valyutasi. Xalqaro kredit uchun u qanday valyutada taqdim etilganligi muhimdir, chunki uning barqarorsizligi kreditorning zarar ko'rishiga olib boradi. Qarz valyutasining tanlanishiga bir qator omillar ta'sir etadi, shu jumladan, uning barqarorligi va foiz stavkasining darajasi, xalqaro hisob-kitoblar amaliyoti (masalan, neft yetkazib berish bo'yicha shartnomalar odatda AQSH dollarlarida tuziladi), inflyatsiya sur'ati hamda valyuta kursining dinamikasi va boshqa shu kabilar. Xalqaro kreditlarning valyutasi bo'lib milliy pul birliklari, yevrovalyutalar (50-yillarning oxirlaridan boshlab), xalqaro hisob-kitob valyuta birliklari hisoblanadi. To'lov valyutasi kredit valyutasi bilan bir turda bo'lmasligi mumkin. Masalan, kreditor valyutasida taqdim etilgan "yumshoq zayomlar" qarz oluvchining

milliy valyutasida yoki ushbu mamlakatning an'anaviy eksporti bo'lmish tovarlar bilan so'ndiriladi.

Kreditning summasi (limiti) qarz oluvchiga tovar yoxud pul shaklida taqdim etilgan ssuda kapitalining bir qismidir. Firma kreditining summasi tijorat shartnomasida qat'iy belgilanadi. Bank kreditining summasi (kredit yo'nalishi) kredit bitimi bilan yoxud telekslar bilan almashinish orqali (qisqa muddatli kredit holatida) belgilanadi. Kredit bir yoki shartlari bo'yicha o'zaro farqlanuvchi bir nechta transh (ulush)lar ko'rinishida ham taqdim etilishi mumkin. Shakllangan amaliyotga muvofiq eksport qilinayotgan mashina va jihozlar qiymatining odatda 85% gacha hajmini kredit qoplaydi. Qolgan qismi esa importyorning eksportyorga bergan kafilliklari, bo'nak hamda naqdli to'lovlar bilan ta'minlanadi.

Xalqaro kreditning muddati quyidagi bir qator omillarga bog'liq:

- kreditning maqsadli yo'nalishiga;
- o'xshash kreditlarga bo'lgan talab va taklifning o'zaro nisbatiga;
- shartnoma hajmiga;
- milliy qonunchilikka;
- kreditlashning an'anaviy amaliyotiga;
- davlatlararo kelishuvlarga.

Kreditning muddati jahon bozorlarida raqobat kurashining muhim vositasidir. Kreditning samaradorligini aniqlash maqsadida to'liq va o'rta muddatlar farqlanadi.

Kreditning to'liq muddati undan foydalanish paytidan boshlab to u so'ndirilgunga qadar hisoblanadi. Ushbu muddat taqdim etilgan kreditdan foydalanish va imtiyozli (foydalanilgan kreditning so'ndirilish muddatini kechiktirish) hamda asosiy qarz va foizlar to'lanadigan davrlarni o'z ichiga oladi.

Kredit to'liq muddatining hisob-kitob formulasi:

$$Sp = Pi + Lp + Pp$$

bu yerda: Sp - kreditning to'liq muddati; Pi - foydalanish davri; Lp - imtiyozli davr; Pp - so'ndirish davri.

Firma kreditidan foydalanish davri bank kreditidan farqli o'laroq tovarlarni shartnoma bo'yicha yetkazib berish muddati bilan mos keladi. Bunda to'liq muddatning boshlanishi bo'lib eksportyor

tomonidan tovarlarning so'nggi partiyasi yetkazib berilgani, ya'ni shartnoma majburiyatlari bajarilganidan so'ng chiqargan trattalarini sotib oluvchi tomonidan akseptlash sanasi hisoblanadi.

Firma kreditidan foydalanish davri bank kreditidan farqli o'laroq tovarlarni shartnoma bo'yicha yetkazib berish muddati bilan mos keladi. Bunda to'liq muddatning boshlanishi bo'lib eksportyor tomonidan tovarlarning so'nggi partiyasi yetkazib berilgani, ya'ni shartnoma majburiyatlari bajarilganidan so'ng chiqargan trattalarini sotib oluvchi tomonidan akseptlash sanasi hisoblanadi. Kreditning imtiyozli davri tijorat bitimlari, butlovchi qismlardan tashkil topgan jihozlar yetkazib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu holatda uning so'ndirilish davri sotib olingan jihozlarni ishga tushirish sanasiga imkoni boricha yaqinlashtiriladi. Bu bilan importyor investitsiyalarining o'zini-o'zi qoplash muddati qisqaradi, chunki kredit hisobiga barpo etilgan korxonada ishlab chiqarilgan bir qism mahsulot eksportining tushumi hisobiga ushbu kreditning so'ndirilishi amalga oshiriladi hamda mazkur davr mobaynida kreditlashning boshqa davrlariga nisbatan kichikroq bo'lgan miqdorda foizlar undiriladi. Imtiyozli davr davlat tomonidan kafolatlanadigan uzoq muddatli xalqaro banklararo kreditlarda, konsorsial xarakterdagi yevrokreditlarda, mashinalar, jihozlar, sanoat komplekslarini yirik partiyalar bilan sotishda, investitsiya loyihalarini xorijda amalga oshirilishida uchraydi. Bunda imtiyozli davr mahsulot yetkazib berilishi yoki qurilish amalga oshirilib bo'linganidan so'nggi bir qator yillarni qamrab oladi.

Biroq to'liq muddat kreditning yalpi summasi qarz oluvchining ixtiyorida qanday muddat davomida bo'lganligini ko'rsatmaydi. Shu sababli turli shartlarga ega kreditlar samaradorligini taqqoslash uchun kreditning o'rtacha yalpi summasi qaysi davrga to'g'ri kelishini ko'rsatadigan o'rtacha muddat ishlatiladi. O'rtacha muddat o'z ichiga to'liq imtiyozli davr hamda kreditdan foydalanish va uni so'ndirish davrlarining yarmini oladi.

Kreditning o'rtacha muddati undan bir maromda foydalanilishi hamda so'ndirilishida quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Ssr = 1/2 Pi + Lp + 1/2 Pp,$$

bu yerda: Ssr - kreditning o'rtacha muddati; Pi - foydalanish davri; Lp - imtiyozli davr; Pp - so'ndirilish davri.

Masalan, kredit 1998-yilning boshida taqdim etilgan.

	To'liq muddati	o'rtacha muddati
Foydalanish muddati 1998–2000-y.y.	3 yil	1,5 yil
2001–2003-y.y. imtiyozli davr bilan	3 yil	3 yil
2004 – 2009-y.y. so'ndirilish davri bilan	6 yil	3 yil
JAMI:	12 yil	7,5 yil

Kreditning o'rtacha davri to'liq muddatdan odatda kichikdir. Ushbu muddatlar agarda kredit bir marotaba to'liq summada berilsa hamda ushbu tarzda so'ndirilsa o'zaro mos keladi. Biroq kreditdan foydalanish va uni so'ndirilishi bir maromda amalga oshirilmasa, unda o'rtacha muddatni quyidagi formulaga asosan aniqlash mumkin:

$$Ssr = \frac{N31 + N32 + N3n}{Lim},$$

bu yerda: Ssr - o'rtacha muddat; N3 - so'ndirilmagan qarzдорlik (ma'lum bir sanaga); Lim - kreditning summasi (limiti).

Masalan, jihozlarning turlicha bahoga ega bo'lgan alohida butlovchi qismlarini yetkazib berilishida kreditdan bir maromda foydalanilmaydi. Mazkur holatda kreditning o'rtacha muddati qarzдорlik summasini (ma'lum bir sanaga foydalanilgan, ammo hali so'ndirilmagan kredit) kreditning summasi (limiti)ga bo'lish orqali aniqlanadi. Qarzдор kreditning muddati, import qilinayotgan Tovarlariga hamda kreditni olish bilan bog'liq xarajatlarga haq to'lashning odatda yoqimli shart-sharoitlarini yaratishga intiladi.

So'ndirilish shartlariga ko'ra kreditlar quyidagi turlarga farqlanadi:

- kelishilgan muddat davomida bir xil ulushlarda va bir maromda so'ndirilishi bilan;

- kelishuvda qayd etilgan tamoyil va grafikga muvofiq (masalan, muddatning oxirida ulushning ortishi bilan) notekis so'ndirilishi bilan;
- to'liq summani bira to'la so'ndirilishi bilan;
- annuitetli (qarz asosiy summasi va foizlarining yillik teng badallari).

Eksportli kreditlashning xalqaro amaliyotiga muvofiq kredit so'ndirilishining boshlanish jarayonini hisob-kitob qilish uchun eksportyor (pudratchi) tomonidan tijorat shartnomasi bo'yicha tegishli majburiyatlarni yakunlanish sanasi (tovarlar yetkazib berilish jarayonini tugashi, kredit hisobiga qurilgan obyektning topshirilishi to'g'risidagi bayonnomaning imzolanishi va boshqalar) mezon sifatida qabul qilinadi.

Ko'rsatilgan sanalarning ko'pchiligi shartnomalar va kredit shartnomalarda bevosita qayd etiladi. Kredit so'ndirilishi jarayonining boshlanishini aniqlash yetkazib berishning o'rtacha tortilgan sanasi asosida hisoblanishi istisno sifatida bo'lishi mumkin. Ushbu yetkazib berishning o'rtacha tortilgan sanasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Dsr/v = (S1 * T1) + (S2 * T2) + (S3 * T3) + \dots + (Sn * Tp / Sk),$$

bu yerda: Dsr/v - yetkazib berishning o'rtacha tortilgan sanasi;

S - alohida (qisman) yetkazib berish summasi;

T - yetkazib berish davri;

Sk - shartnoma summasi (yetkazib berishlarning umumiy qiymati).

Navbatdagi to'lov summasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\frac{\lim x Z}{1 - \frac{1}{(1 + Z)^n}}$$

bu yerda: Lim - kreditning limiti;

Z - foiz stavkasi;

n - asosiy qarz summasi va foizlarni so'ndirish davrlarining soni.

Kreditning bahosi. Kredit bahosining kelishilgan va yashirin elementlari farqlanadi. Kelishilgan elementlari, ya'ni kelishuvlar bilan

asoslangan kredit bo'yicha xarajatlar asosiy va qo'shimcha elementlarga bo'linadi. Kredit bahosining asosiy elementlariga qarzдор tomonidan kreditorga bevosita to'lanadigan summalar, foizlar, garovni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Qo'shimcha elementlar qarz oluvchi tomonidan uchinchi shaxslarga (masalan, kafolat uchun) to'laydigan summalarni o'z ichiga oladi. Asosiy foizga ustama ravishda (kreditning summasi va muddatiga ko'ra) maxsus va yakka tartibda (kreditning summasi va muddatidan qat'i nazar) bankning vositachilik haqi undiriladi. O'rta va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha esa ssudani taqdim etish majburiyati hamda mablag'larni zahiralash uchun (odatda 0,2-0,75%) vositachilik haqlari undiriladi. Bank konsortsiumi tomonidan kredit operatsiyalarini amalga oshirilishida qarz oluvchi bosqaruv xizmatlari uchun menejer-bankka (kredit summasining 0,5%gacha) yakka tartibdagi vositachilik haqi, telefon aloqasi xizmatini hamda ishtiroklari uchun boshqa banklarga (0,2-0,5%) haq to'laydi.

Xalqaro kredit ichki kreditga bog'liq bo'lmagan holda alohida ma'lum bir darajada rivojlansa-da, uning foiz stavkalari esa ichki kredit foiz stavkalari zaminida shakllanmaydi hamda oxir-oqibatda xalqaro kreditning "bahosi" (ishlab chiqarishning baynalmilallashgan bahosi singari) yetakchi kreditor mamlakatlar, birinchi navbatda AQSH, Yaponiya, Germaniyaning foiz stavkalariga asoslanadi. Biroq ssuda foizining ko'p omilliligi sababli milliy stavkalar darajalari orasida uzilish hosil bo'ladi.

Foiz va uning tebranish sur'atlarini iqtisodiyotning barqaror-sizligi, inflyatsiyaning kuchayishi, valyuta kursining tebranishi, jahon bozorida raqobat kurashini aks ettiruvchi "foiz stavkalari urushi" ning oqibati sifatidagi misli ko'rilmagan o'sishi davriy asosda amalga oshadi.

70-yillar qat'iy belgilangan foiz stavkalari bilan bir qatorda bozor stavkasining darajasiga muvofiq ravishda o'zgarib turadigan erkin suzuvchi foiz stavkalari paydo bo'ldi. Erkin suzuvchi foiz stavkasi asosida taqdim etiladigan kredit muddatining bir qismi (odatda 3-6 oy) mobaynida foiz stavkasi qat'iy, o'zgarmas deb belgilanadi hamda ushbu davr foizli davr deb ataladi.

Haqqoniy (real) foiz stavkasi bu, nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur'ati ayirib tashlangan ma'lum bir davr foiz stavkasidir.

Agarda pullarning qadrsizlanish sur'ati nominal stavka hajmidan yuqori bo'lib chiqsa, unda haqiqiy (real) foiz stavkasi manfiy ifodaga ega bo'lib qoladi. Milliy foiz stavkalar darajalarining bixillashirilishi nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi qisqa muddatli kapitallar harakati oqibatida, balki valyuta kurslari dinamikasiga bog'liq holda ham amalga oshadi. Odatda valyuta kursi qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu yevrovalyutadagi omonatlar bo'yicha foiz stavkalari shunchalik past bo'ladi. Masalan, turli yevrovalyutalardagi omonatlar bo'yicha foiz stavkalaridagi uzilish ayrim holatlarda 10-15 punktga yetadi.

Yevrokreditlar bo'yicha xalqaro foiz stavkalari amaliyoti qo'llaniladi. Odatda LIBOR omonatlar bo'yicha stavkadan 1/8 punktga yuqoridir va yakuniy qarz oluvchiga taqdim etiladigan kreditdan 1/2 punktga pastdir. Jahonning boshqa moliyaviy markazlarida LIBORga o'xshash foiz stavkalari undiriladi: Bahraynda - BIBOR, Singapurda - SIBOR, Frankfurt-Maynda - FIBOR, Parijda - PIBOR, Lyuksemburgda - LYUKSIBOR va shu kabi.

Kredit qiymatining yashirin elementlariga kredit bitimida qayd etib o'tilmagan hamda kredit olish va undan foydalanish bilan bog'liq boshqa xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlar turkumiga tovarlarning firma kreditlari bo'yicha ko'tarilib yuborilgan baholari, ssuda hajmidan belgilangan miqdordagi majburiy depozitlar, kreditni bank bilan bog'liq bo'lgan sug'urta kompaniyasida sug'urtalash to'g'risidagi talablar, tovar hujjatlarining inkassatsiyasi bilan bog'liq vositachilik haqlarini bank tomonidan ko'tarib yuborilishi va boshqa shu kabilar kiradi. Kredit qiymatining ayrim elementlarini (ahamiyati katta bo'lsa ham) pul o'lchovi bilan o'lchashning iloji yo'q. Ushbularga xorijiy firma yoki qarz oluvchi mamlakat ustidan nazoratni o'rnatish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Turli kreditlar taqdim etilishining shart-sharoitlarini taqqoslash uchun grant-element (imtiyozli element, subsidiyalar) ko'rsatkichidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkich qarz oluvchi tomonidan bozor shartlariga nisbatan imtiyozliroq asosda kreditning olinishi hisobiga uni so'ndirishga qaratilgan to'lovlarning qanday hajmini tejashini ko'rsatadi. Xususiyl xalqaro kreditlar bo'yicha grant-element (3,2-4,5%) rivojlanish bo'yicha rasmiy yordamga (76,2-80%) nisbatan pastroqdir.

Subsidiyalarning oddiy va tortilgan elementining ko'rsatkichlari farqlanadi. Ular quyidagi formulalarga asosan hisoblanadi.

Subsidiyalarning oddiy elementi: $es = \%r - \%f$,

bu yerda: es - subsidiya elementi; $\%r$ - bozor foiz stavkasi; $\%f$ - haqiqatda subsidiya qilingan foiz stavkasi.

Subsidiyaning tortilgan elementi:

$$esv = \frac{Sk * Tsr * es}{100},$$

bu yerda: esv - subsidiyaning tortilgan elementi;

Sk - kreditning summasi (limit);

Tsr - kreditning o'rtacha muddati;

es - subsidiyalar elementi (bozor va haqiqiy foiz stavkalari o'rtasidagi farq).

Xalqaro kreditning muhim xarakteristikasi bo'lib uning ta'minoti hisoblanadi. Qisqa muddatli ta'minotning muqobil turlariga quyidagilar kiradi:

- maqsadli jamg'arma hisob raqamlar ochilishi;
- aktivlar garovi;
- shartnomalar bo'yicha huquqlarni uchinchi shaxslar foydasiga yon berilishi va boshqalar.

Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy shartlarini aniqlashda kreditor kreditga layoqatliligi (qarz oluvchining kredit olish qobiliyati) hamda to'lov qobiliyati (qarz oluvchining majburiyatlari bo'yicha o'z vaqtida va to'liq hisob-kitob qilish qobiliyati)dan kelib chiqadi. Shu sababli xalqaro kreditning shartlaridan biri bo'lib kredit, valyuta va boshqa xavf-xatarlardan himoyalaniish hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy shart-sharoitlari iqtisodiyot va jahon hamda milliy ssuda kapitallari bozorlarining holatiga bevosita bog'liqdir.

8.4. Xalqaro to'lov balansi tushunchasi va tarkibi

Barcha mamlakatlar zamonaviy jahon xo'jaligining ishtirokchilari bo'lib hisoblanadi. Alohida mamlakatlarning jahon xo'jaligiga

integratsiyalashganlik darajasi turlicha bo'lib hisoblanadi. Mamlakatning hamkorlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari, milliy iqtisodiyotlarni jahon xo'jaligiga birlashtiradigan xalqaro iqtisodiy aloqalardan iborat. Iqtisodiy munosabatlardan tashqari mamlakatlar o'rtasida pul to'lov-lari va tushumlarini vujudga keltiruvchi siyosiy, harbiy, madaniy hamda boshqa munosabatlar ham mavjud.

Mamlakatning ko'p qirrali xalqaro munosabatlari uning xalqaro operatsiyalari balans hisobvarag'ida o'z aksini topadi. Ushbu balans an'ana bo'yicha to'lov balansi deb ataladi.

To'lov balansi – bu, xalqaro operatsiyalarning balans hisob-varaqidir. Ya'ni, bu mamlakatning tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish va olib chiqish ko'rsatkichlarini nisbati shaklidagi xalqaro xo'jalik aloqalari kompleksining qiymat ifodasidir.

Xalqaro operatsiyalarning balans hisobvarag'i mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarining ko'lamlari, tarkibi va xarakterini qiymat jihatidan miqdoriy hamda sifat ifodasidir. Amaliyotda odat sifatida "to'lov balansi" atamasidan foydalanish, barcha operatsiyalar bo'yicha valyuta oqimlarining ko'rsatkichlarini esa to'lov va tushumlar sifatida belgilash qabul qilingan.

Matbuotda chop etilayotgan to'lov balanslari nafaqat amalga oshirilgan yoki ma'lum bir sanaga ijro etilishi kerak bo'lgan to'lov va tushumlarni balki xalqaro talablar hamda majburiyatlar bo'yicha ko'rsatkichlarni ham qamrab oladi.

To'lov balanslarining zamonaviy jadvallari barcha qimmatliklarni mamlakatlararo harakati haqida yetarli ma'lumotlarga ega. Bunda majburiyatlarning joriy davrda to'lanmaydigan va kelgusi davrga o'tkazilib yuboriladigan qismi kapital yoki kreditlar harakatini aks ettiruvchi to'lov balansi moddalariga kiritiladi.

So'nggi paytlarda to'lov balansiga qo'shimcha sifatida mamlakatlararo qimmatliklar harakati to'g'risidagi ma'lumotga ega mamlakatning xalqaro aktivlar va passivlar balansi tuziladi. Ushbu balans mamlakatning zahira toifasidagi xalqaro moliyaviy holatini aks ettiradi va mamlakat jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining qanday bosqichida (pog'onasida) turganligini ko'rsatadi.

Mazkur balansda ushbu davrga mamlakat tomonidan taqdim etilgan va olingan kreditlar, investitsiyalar, boshqa moliyaviy aktivlar qiymatining nisbati aks etadi. Ayrim davlatlarda olingan resurslar

hajmi xorijdagi aktivlariga nisbatan katta. Boshqa mamlakatlarda bu ikkala ko'rsatkich ham katta, ham turlichadir. Xorijiy moliyaviy resurslarni netto-importyori sifatida AQSH alohida o'rin egallaydi. Xalqaro moliyaviy pozitsiya va to'lov balansi ko'rsatkichlarining o'zlari bir-biri bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ma'lum bir sanaga bo'lgan to'lov balansi va ma'lum bir davr to'lov balansi farqlanadi. Ma'lum bir sanaga bo'lgan to'lov balansini statistik ko'rsatkichlar shaklida qayd etishning ilojisi yo'q. Chunki u kundan kunga o'zgarib turuvchi to'lov va tushumlarning nisbat shakli sifatida mavjuddir.

To'lov balansining ahvoli, ushbu davrga milliy va xorijiy valyutaga bo'lgan talabni belgilab beradi hamda valyuta kursini shakllantiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lum bir davr uchun to'lov balansi (oy, chorak, yil) ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan tashqi iqtisodiy shartnomalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar asosida tuziladi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida, uning jahon xo'jaligidagi ishtiroki ko'lamlarida hamda xarakterida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil etish imkoniyatini beradi.

Davr uchun to'lov balansining ko'rsatkichlari iqtisodiy rivojlanishning agregat ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir (yalpi ichki mahsulot, milliy daromad va shu kabilar) va davlat tomonidan muvofiqlashtirish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Davr uchun to'lov balansining ahvoli milliy valyutaning uzoq muddatdagi davrga bo'lgan holati, uning barqarorligi yoki valyuta kursining o'zgarish xarakteri bilan uzviy bog'liqdir.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan to'lov balansi doimo muvozanatda bo'ladi. Ammo o'zining asosiy bo'linmalari bo'yicha agar tushumlar to'lovlardan ko'p bo'lsa aktiv saldog, aksincha bo'lganda passiv saldog ega bo'ladi. Shu sababli to'lov balansini tuzish va saldosi o'lchash uslublari mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni to'g'ri tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

To'lov balansi tuzishning nazariyasi va amaliyoti jahon iqtisodiyotida bo'layotgan o'zgarishlarga muvofiq ravishda rivojlanib, takomillashib bormoqda. "Balans" atamasi xalqaro to'lov munosabatlarida bir qator tushunchalarni, xususan, balans hisobvarag'i, saldo

yoki hisobvaraqlar qoldiq, hisobvaraqlar ahvoli, muvozanat va boshqalarni ifoda etish maqsadida ishlatiladi. Shu sababli to'lov balans - bu, nafaqat ikki tarafi bir-biriga teng bo'lgan mamlakat xalqaro operatsiyalari hisobvarag'i, balki o'z ichiga uning asosiy elementlarining sifat va tarkibiy xarakteristikalarini olgan, ushbu operatsiyalarning ma'lum bir ahvolidir.

To'lov balansining tarkibiy tuzilishi. To'lov balans quyidagi asosiy bo'limlardan iborat:

- savdo balans, tovarlarni olib kirish va olib chiqish o'rtasidagi nisbat;

- xizmatlar va notijorat to'lovlar balans (ko'zga ko'rinmaydigan operatsiyalar balans);

- o'z ichiga tovarlar, xizmatlar va bir tomonlama o'tkazmalarni olgan joriy operatsiyalar balans;

- kapitallar va kreditlar harakati balans;

- rasmiy valyuta zahiralari bilan operatsiyalar.

Savdo balans. Tashqi savdo tarixan milliy xo'jaliklarni jahon xo'jaligiga bog'lovchi tashqi iqtisodiy munosabatlarning birlamchi shakli sifatida maydonga chiqadi. Tashqi savdo tufayli xalqaro mehnat taqsimoti shakllanadi. Xalqaro mehnat taqsimotining o'zi esa tashqi savdo va boshqa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan chuqurlashib hamda takomillashib boradi.

Tashqi savdo ko'rsatkichlari an'anaviy ravishda to'lov balansida muhim o'rinni egallaydi. Tovarlar eksporti va importining o'zaro nisbati savdo balansini tashkil etadi. Tashqi savdoning katta hajmi kredit hisobiga amalga oshirilganligi sababli haqiqatda shu davrda amalga oshirilgan savdo, to'lovlar va tushumlar ko'rsatkichlari o'rtasida tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar tufayli turli so'ndirilish muddatlariga ega, taalluqli talab va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi umumiy savdo balansidan farqli o'laroq, o'z davrida amalga oshirilgan pul to'lovlari hamda haqiqatda olingan tushumlarning nisbati sifatida to'lov balans tushunchasi paydo bo'ldi. Biroq tashqi iqtisodiy operatsiyalar bo'yicha ma'lumot yig'uvchi organlar hech qachon haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar va olingan tushumlarni umumiy savdo ko'rsatkichlaridan ajratish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Ular savdo balansiga kiritiladigan tashqi iqtisodiy bitimlar bo'yicha bojxona ma'lumotlaridan foydalanadilar. Aynan shu ma'lumotlaridan foydalanadilar.

motlar davlat iqtisodiy siyosati nuqtayi nazaridan asosiy qiziqish obyekti bo'lib hisoblanadi. Ular va real to'lovlar orasidagi farqlar to'lov balansining kredit operatsiyalarida aks etgan.

Savdo balansining aktiv yoki passivligini iqtisodiy mazmuni aniq mamlakatga nisbatan aloqador hamda uning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini, hamkorlari bilan aloqalarining xarakteri va umumiy iqtisodiy siyosatiga bog'liqdir. Yetakchi davlatlardan iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha orqada bo'lgan mamlakatlar uchun aktiv savdo balansi litsenziyalar importiga, xorijiy investitsiyalar yuzasidan daromadlarni to'lash va boshqa xalqaro majburiyatlar bo'yicha haq to'lash uchun valyuta mablag'lari manbasi sifatida zarur. Bir qator sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya va boshqalar) uchun savdo balansining aktiv saldosi kapitallar eksporti, xorijda ikkinchi iqtisodiyotni barpo etish uchun ishlatiladi.

Passiv savdo balansi keraksiz hisoblanib, mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'rnini kuchsizligini bildiradi. Bu, asosan, valyuta tushumi taqchilligini sezayotgan, rivojlanib borayotgan mamlakatlar uchun xosdir. Sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar uchun esa, bu boshqacha ma'noga ega bo'ladi. Masalan, AQSH savdo balansining kamomadi (1991-yildan boshlab) AQSH bozoriga intellektual Tovarlarini ishlab chiqaruvchi xalqaro raqobatchilarni (G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Tayvan, Janubiy Korea va boshqa mamlakatlar) kirib borishi bilan xarakterlanadi. Bunday xalqaro mehnat taqsimotining shakllanib borishi oqibatida AQSH va jahon miqyosida resurslar nisbatan samaraliroq ishlatiladi. AQSH tashqi savdosining kamomadi yuqorida zikr etilgan hamkor-mamlakatlarning ushbu operatsiyalar bo'yicha aktiv saldosi o'z aksini topadi. O'z navbatida, ushbu hamkor-mamlakatlar o'zining valyuta tushumlari hisobiga xorijiy kapital qo'yilmalarni, shu jumladan, AQSHda ham amalga oshiradi.

Xizmatlar balansi transport yuk tashuvlari, sug'urta, elektron, telekosmik, telegraf, pochta va boshqa aloqa turlari, xalqaro turizm, ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarish tajribalari bilan almashish, ekspert xizmatlari, diplomatik, savdo va xorijdagi boshqa xizmatlar xarajatlarini ko'tarish, ma'lumotlarni uzatish, madaniy hamda ilmiy aloqalar, turli vositachilik yig'imi, reklama, yarmarka va boshqa shu kabilar bo'yicha to'lov hamda tushumlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar xalqaro iqtisodiy aloqalarning bir maromda rivojlanib borayotgan sektorini tashkil etadi. Xizmatlarning to'lovlar va tushumlarning hajmi hamda tarkibiy tuzilishidagi roli va ularga ta'siri muntazam ravishda o'sib bormoqda.

An'anaviy xizmat turlari (transport, sug'urta) savdo bo'yicha tovarlarni yetkazib berishning hajmi va turli-tumanligini o'sib borishi, ularning tarkibida xalqaro kooperatsiya hamda ixtisoslashuvning rivojlanishi tufayli yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar ulushining ortib borishi bilan o'z boshidan katta qayta qurish jarayonini kechirmoqda.

Rivojlangan davlatlarda aholining yashash darajasi o'sib borgan sari zamonaviy ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi natijasida tarkibida katta ulushga ega bo'lmish xizmat yuzasidan safarlar sifatidagi xalqaro turizm ko'lamlari ham keskin o'sdi.

Xalqaro ishlab chiqarishning o'sishi ilmiy-texnik inqilob va xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining boshqa omillari, litsenziyalar, nou-hau, ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarish tajribasining boshqa turlari, lizing operatsiyalari, ishbilarmon maslaxatlar va ishlab chiqarish hamda alohida xususiyatga ega boshqa xizmatlar bilan savdo qilishni rag'batlantirdi.

Jahon amaliyotida qabul qilingan qoidalarga muvofiq "xizmatlar" bo'limiga investitsiyalar va xalqaro kreditlar bo'yicha foiz daromadlaridan olingan to'lov hamda tushumlar kiradi, iqtisodiy mazmuniga ko'ra ular kapitallar harakatiga yaqinroqdir. To'lov balansida quyidagi moddalar ajratilib ko'rsatiladi: xorijiy davlatlarga harbiy yordam ko'rsatish, xorijdagi harbiy xarajatlar. Ushbu xarajatlar xizmatlar operatsiyalariga mansubdir.

Xalqaro valyuta fondining (XVF) uslubiyotiga muvofiq to'lov balansida alohida pozitsiya sifatida bir tomonlama o'tkazmalarni ko'rsatish qabul qilingan. Ularning tarkibida: 1) davlat operatsiyalari – boshqa mamlakatlarga iqtisodiy yordam yo'nalishi bo'yicha subsidiyalar, davlat nafaqalari, xalqaro tashkilotlarga badallar; 2) xususiy tushdagi operatsiyalar - xorijdagi ishchilar, mutaxassislar, qarindoshurug'larning mamlakatga pul o'tkazmalari. Operatsiyalarning ushbu turi katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Italiya, Turkiya, Ispaniya, Gretsiya, Portugaliya, Pokiston, Misr va boshqa davlatlar o'z fuqarolarini pul ishlab kelishga xorijga chiqish masalalarini muvofiq-

lashtirishga katta e'tibor beradi. Chunki ushbu davlatlar mazkur valyuta tushumlari manbasidan o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirish maqsadida foydalanadilar.

Xorijiy ishchilar va mutaxassislarni vaqtincha jalb etadigan GFR, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, JAR va boshqa mamlakatlar uchun esa, aksincha, ushbu pul o'tkazmalari to'lov balansi ushbu moddasining kamomad manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida zikr etilgan xizmatlar bo'yicha operatsiyalar investitsiyalar bo'yicha daromadlar harakati, harbiy tUSDagi kelishuvlar va bir tomonlama o'tkazmalar, tovarlar (sezilarli qimmatliklar) importi hamda eksportiga aloqasi bo'lmagan holda "ko'zga ko'rinmas" operatsiyalar deb ataladi. Ularning tarkibida 3 toifadagi kelishuvlarni, ya'ni xizmatlar, investitsiyalardan olingan daromadlar, bir tomonlama o'tkazmalarni ajratib ko'rsatish mumkin. "Xizmatlar va notijorat to'lovlari" atamasi ham ishlatiladi. Ushbu atamaga mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning muhim mazmunini tovarlar bilan savdo tashkil etgan paytdan qolgan an'anaga bildiriladigan hurmatday qaraladi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi savdo balansi va "ko'zga ko'rinmas" operatsiyalarni o'z ichiga oladi. To'lov balansi tuzishning ba'zi bir usullari bir tomonlama davlat o'tkazmalarini alohida moddaga ajratib ko'rsatadi va uni joriy operatsiyalar sal'dosiga qo'shmaydi. Ushbu operatsiyalarni tovarlar va xizmatlar bilan jahon savdosini kapital hamda kreditlar shaklidagi moliyaviy resurslar xalqaro harakatidan ajratib olish uchun joriy operatsiyalar deb ataylab atay boshladilar.

Kapitallar va kreditlar harakati balansi davlat hamda xususiy kapitallar, taqdim etilgan va olingan xalqaro kreditlarning davlatga olib kirilishi hamda olib chiqilishi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ushbu operatsiyalar quyidagi ikki toifaga bo'linadi: tadbirkorlik va ssuda kapitallarining xalqaro harakati.

Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (xorijda korxonalarni sotib olish va qurish) va portfel investitsiyalarini (xorijiy kompaniyalar qimmatli qog'ozlarini sotib olish) o'z ichiga oladi. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar uzoq muddatli kapitalni olib chiqishning eng muhim shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi va to'lov balansiga sezilarli ta'sir etadi. Ular mulk sotib olinishi bilan bog'liq bo'lgan holda qarz majburiyatlarini vujudga keltirmaydilar. Ushbu

investitsiyalar natijasida milliy iqtisodiyotlarni savdoga nisbatan yuqoriroq darajada va mustahkamroq jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga ko'maklashuvchi Xalqaro ishlab chiqarish rivojlanadi. 1997-yilda har yilgi qo'yilmalarni qo'shib borish va qoldiqi ko'payib boruvchi uslubi bilan hisoblangan mamlakatlarning barcha to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarini to'plangan qiymati 3 trln. AQSH dollaridan ko'p summani tashkil etdi. Tadbirkorlik kapitalining xorijga olib chiqilishi ishlab chiqarish va tashqi savdoning o'sishiga nisbatan tez suratlarda amalga oshadi. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik faoliyatining baynalmilallashuvi va globallashuvida uning roli yetakchi ekanligini isbotlaydi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymatining uchdan ikki qismidan ziyodini rivojlangan davlatlarning o'zaro kapital qo'yilmalari tashkil etadi. Bu degani, ular o'rtasidagi xo'jalik aloqalari boshqa davlatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalariga nisbatan yuqoriroq darajada mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Ssuda kapitalining xalqaro harakati muddatlilik alomatiga ko'ra tasniflanadi.

1. Uzoq va o'rta muddatli operatsiyalar bir yildan ziyod muddatga taqdim etilgan davlat hamda xususiy zayomlar va kreditlarni o'z ichiga oladi. Ushbu davlat va xususiy zayomlar hamda kreditlarning oluvchilari bo'lib odatda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ilg'or davlatlardan orqada qolgan mamlakatlar hisoblanadi. Ilg'or, rivojlangan davlatlar esa bu yerda kreditorlar sifatida maydonga chiqadi. Xususiy, uzoq muddatli zayomlar va kreditlar bo'yicha holat esa butunlay boshqacha ko'rinishga ega. Bu yerda ham rivojlanib borayotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning xususiy moliya-kredit institutlaridan qarz oladilar. Biroq rivojlangan davlatlarda ham korporatsiyalar uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish yoki jahon bozoridan resurslarni bank krediti shakllarida aktiv jalb etadilar.

2. Qisqa muddatli operatsiyalar milliy banklarning xorijiy banklardagi joriy hisobvaraqlari (avuarlar), pul kapitalini banklar o'rtasidagi harakati kabi bir yilgacha muddatga bo'lgan xalqaro kreditlarni o'z ichiga oladi. So'nggi 20 yil ichida jahon pul bozoridagi banklararo qisqa muddatli operatsiyalar katta hajmga ega bo'ldi. Agarda 60 va 70-yillarda Bretton Vuds valyuta tizimi inqirozini

kuchaytirib yuboruvchi kapitallar oqimida “qaynoq” pullarning stixiyali oqimi nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan bo‘lsa, 80–90-yillarga kelib, qisqa muddatli pul kapitallarining asosiy oqimi yevrovalyuta bozori orqali amalga oshadigan bo‘ldi.

To‘lov balansini statistik ko‘rsatkichlarini yig‘ish va qayta ishlash uslubini takomillashishiga qaramasdan ushbu balans ko‘rsatkichlaridagi xatoliklar sezilarli bo‘lib qolmoqda. Shu sababli statistik xatoliklar va hisobga olinmagan operatsiyalar bo‘yicha ma‘lumotlar kiritiladigan “Xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddasi ajratib ko‘rsatiladi. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, qisqa muddatli pul kapitali harakatining hisobini yuritish, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz paytida nihoyatda qiyin. Shu sababli “Xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddasi to‘lov balansining kapitallar va kreditlar harakatini aks ettiruvchi bo‘limiga qo‘shiladi hamda inqiroz holatlarida uning ko‘rsatkichlari keskin oshib ketadi.

To‘lov balansining yakuniy moddalarini davlat valyuta organlari ishtirok etuvchi, likvid valyuta aktivlari bilan operatsiyalarni aks ettiradi. Ushbu operatsiyalar natijasida markazlashtirilgan rasmiy oltin-valyuta zahiralarining hajmi va tarkibi o‘zgaradi.

8.5. To‘lov balansining ko‘rsatkichlari va uning moddalarini tasniflash usullari

Mamlakat xalqaro hisob-kitoblarining aksi sifatida to‘lov balansining tuzilishi o‘zaro yaqindan aloqada bo‘lgan ham hisob yuritish, ham tahliliy vazifalarni bajarishga qaratilgandir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalar ishtirokchilarining davrasi turli-tumandir: alohida mamlakatlar va ularning guruhlarini, milliy, xorijiy hamda transmilliy korporatsiyalar, kompaniyalar va banklar, turli milliy hamda xalqaro tashkilotlar va muassasalar, xususiy shaxslar, davlat valyuta organlari hamda boshqa shu kabilar. Bu o‘z navbatida, nafaqat milliy, balki xorijiy manbalardan kelib tushadigan katta hajmdagi ma‘lumotlar hisobini yuritish, qayta ishlash zaruratiga olib keladi. Bunda o‘xshash turkumdagi ko‘rsatkichlarning hisob-kitob uslublari va mazmunining yaxlitligi asosiy talab bo‘lib qoladi. Xalqaro valyuta fondining (XVF) to‘lov balansini tuzish bo‘yicha qo‘llanmasidagi ko‘rsatmalar qo‘llanilayotgan ko‘rsatkichlarga universal xarakterni va

ularni o'zaro solishtirish imkonini beruvchi yaxlitlikka erishishga qaratilgan.

Hozirgi kunda ushbu ko'rsatmalar XVFGa a'zo mamlakatlar to'lov balanslarini tuzish asosiga qurilgandir. Shu bilan birgalikda ayrim mamlakatlar to'lov balanslarini tuzish qoidalariga o'z iqtisodiyot va jahondagi tashqi iqtisodiy o'rni hamda milliy hisob yuritishining qabul qilingan xususiyatlari bilan asoslangan o'z elementlarini kiritmoqdalar. Shu sababli alohida mamlakatlarning to'lov balanslari ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish jarayoni qutulib bo'lmaydigan, ma'lum bir darajadagi shartlilik va noto'g'riliklarga asoslangandir. Bunday sababga ko'ra ushbu taqqoslashlardan kelib chiqadigan xulosalar, birinchi navbatda tahlil etilayotgan hodisalarning ko'lami kattaligiga, bo'lib o'tayotgan jarayonlarning asosiy yo'nalishlari va oqibatlariga ishora etadi, ammo berilayotgan baholarning mutloq to'la hamda to'g'riligiga da'vogar bo'la olmaydi.

To'lov balansiga turli ta'riflar. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlardagi to'lov balansi ta'rifiga murojaat etaylik. Turli ilmiy ishlarda keltirilgan ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu ta'riflarning barchasi to'lov balansini mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar taqdim etilishining shakli sifatidagi pragmatik izohlashga aylangan.

Amerikalik iqtisodchilar Vasserman va Ueyrlarning to'lov balansi muammolari bo'yicha fundamental ishida quyidagi atama beriladi: "To'lov balansini, muayyan bir davlat rezidentlari va dunyoning boshqa vakillari (boshqa mamlakat, bir guruh mamlakat yoki xalqaro tashkilotlar) o'rtasida ushbu davrda mavjud bo'lgan iqtisodiy operatsiyalarning statistik ko'rinishi sifatida ko'z oldiga keltirish mumkin". XVFNing uslubiy qo'llanmalarida shunday deyilgan: "To'lov balansi quyidagilarni ko'rsatuvchi ma'lum bir davr statistik ko'rsatkichlar jadvalidan iborat: a) muayyan bir davlat va dunyoning boshqa mamlakatlari o'rtasidagi tovarlar, xizmatlar hamda daromadlar bilan operatsiyalarini; b) mulk shaklini o'zgarishi va ushbu mamlakatga tegishli bo'lgan monetar oltin hamda qarz olishning maxsus huquqlaridagi (SDR) va dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan moliyaviy talab hamda majburiyatlardagi boshqa o'zgarishlarni; d) o'zaro yopilmaydigan operatsiya va o'zgarishlarni buxgalteriya nuqtayi nazaridan balanslashtirishda zarur bo'lgan bir

tomonlama o'tkazmalar hamda qoplovchi yozuvlar". Bunday ko'rsatmalarga muvofiq to'lov balansiga nafaqat amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar, balki ushbu operatsiyalarni balanslash-tirish maqsadida tuzilgan sun'iy ko'rsatkichlar ham kiradi.

Fransuz rasmiy matbuot nashrlarida quyidagi atama berilgan: "Mamlakatning to'lov balansi, muntazam ravishda o'zaro taqqoslanadigan statistik qaydnomadan iborat bo'lib, uning mazmuni ma'lum bir davr mobaynida rezident va nerezident shaxslar o'rtasida real hamda moliyaviy oqimlar yig'indisi harakatining hisoblangan ko'rsatkichlari ko'rinishida aks etgan".

GFR to'lov balansi tahlillaridan birida uning atamasi quyidagicha berilgan: "Odatda to'lov balansi deganda mahalliy va xorijiy subyektlar o'rtasida ma'lum bir davr mobaynida amalga oshgan barcha iqtisodiy kelishuvlarning tizimlashtirilgan, statistik ko'rinishining alohida rukunlariga bo'lingan balans shakli tushuniladi".

Rezident tushunchasi. Mamlakatning tashqi iqtisodiy operatsiyalarini ichki xo'jalik operatsiyalaridan farqlash zarurligi sababli to'lov balansi tuzilayotgan paytda rezident va shartnoma, hisobga olinishi zarur bo'lgan transaksiyalar tushunchalari muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Tashqi iqtisodiy operatsiyalar Xalqaro to'lov munosabatlari nuqtayi nazaridan ushbu mamlakatning rezidenti yoki nerezidenti sifatida maydonga chiquvchi, aniq bir tashkilot, firma yoki xususiy shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Zamonaviy kapitallar va ishchi kuchlarining migratsiyasi iqtisodiyot jarayonidagi globallashuv hamda transmilliy korporatsiyalarning kuchayishi sharoitida ushbu oddiydek tuyulgan masala murakkablashib boradi.

XVFning rahbariyati rezident atamasiga quyidagi ta'rifni beradi: "Mamlakat iqtisodiyoti ushbu hudud bilan yaqindan bog'liq bo'lgan xo'jalik birliklarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Agarda ushbu xo'jalik birliklari mazkur mamlakatning rezidentlari sifatida ko'rilsa, uning to'lov balansi dunyoning boshqa subyektlari bilan ushbu xo'jalik birliklarining operatsiyalarini yoki mazkur xo'jalik birliklarining ushbu davlat bilan operatsiyalarini aks ettiradi, agarda mazkur xo'jalik subyektlari ushbu mamlakatga nisbatan nerezident shaxslar deb qaralsa. Ikki taraflama yozuv tizimidan foydalangan holda, - deyilgan XVFning qo'llanmasida, xatolikka yo'l qo'yilgan paytda balans buzilmaydi, ammo amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha

noto'g'ri tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Bunday holatga uchramaslik uchun rezident atamasiga universal tushuncha ishlab chiqilishi va u barcha joylarda to'g'ri ishlatilishi lozim.

AQSHda rezidentlar deb mamlakatda muntazam ravishda mavjud bo'lgan barcha hukumat tashkilotlari, milliy kompaniyalar yoki muhim yashovchi fuqarolar hisoblanadi. Xorijda yashovchi AQSH fuqarolarini (davlat xizmatchilaridan tashqari) rezident shaxsga mansubligi esa ularning xorijda yashash muddatlari va boshqa omillarga bog'liq. AQSH korporatsiyalarining xorijiy filiallari va sho'ba korxonalari AQSH uchun xorijiy firmalar bo'lib hisoblanadi. Huddi shunday amaliyot boshqa rivojlangan davlatlar uchun hamx.

GFRda to'lov balansi nuqtayi nazaridan rezident bo'lib, "subyektlarning milliy taalluqligidan qat'i nazar, xo'jalik manfaatlarining markazi ushbu davlat bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslar, korxonalar hamda shu kabilar hisoblanadi". Shu sababli, GFR-da rezidentlarga nafaqat kelib chiqishi germaniyalik bo'lgan shaxslar, balki ushbu mamlakatda joylashib qolgan xorijlik tadbirkorlar ham kiradi.

Fransiyada qabul qilingan uslubiyotga asosan "resident" atamasi Fransiyada yashovchi yoki xorijda 2 yildan kam vaqt davomida yashagan fransuz millatiga mansub shaxslarni hamda Fransiyada 2 yildan ortiq vaqt davomida yashagan xorijliklarni (xorijlik xizmatchilar bundan istisno) bildiradi. Bundan tashqari, Fransiyada joylashgan yuridik shaxslar ham rezident hisoblanadi (Fransiyada ishlayotgan diplomatik va konsullik vakolatxonalaridan tashqari).

O'zbekiston Respublikasida 1993-yilning 7-mayidan harakatda bo'lgan va 2004-yilda qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritilgan "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunga muvofiq rezidentlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) O'zbekiston Respublikasida muhim yashovchi fuqarolar, shu jumladan vaqtincha xorijda bo'lgan fuqarolar;

b) O'zbekiston Respublikasida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar;

d) O'zbekiston Respublikasida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, yuridik shaxs bo'lmagan korxona hamda tashkilotlar;

e) O'zbekiston Respublikasining xorijda joylashgan diplomatik va boshqa vakolatxonalari;

f) yuqoridagi kichik "b" va "d" bandlarda zikr etilgan rezidentlarning O'zbekiston Respublikasi hududi tashqarisida joylashgan filiallari va vakolatxonalari.

Shartnoma (bitim) ta'rif. Bu yerda tasnifning murakkab tomonlari mavjud. Xalqaro shartnomalar (bitimlar) odatda almashuvni ko'zda tutadi, deb hisoblanadi. Shakllangan an'ana doirasida 4 ko'rinishdagi shartnomalar (yoki operatsiyalar) farqlanadi: moliyaviy aktivlarga qarata tovarlar, xizmatlar sotib olish va sotish (almashish); barter, ya'ni ushbu mamlakat tovar va xizmatlarini boshqa mamlakatlar tovar hamda xizmatlariga bevosita almashtirish; moliyaviy aktivlarni boshqa moliyaviy aktivlarga almashtirish, ya'ni qimmatli qog'ozlarni pulga sotish, tijorat qarzlarni to'lash va shu kabilar; bir tomonlama o'tkazmalar, ya'ni bir tomonlama asosda, qoplanishsiz tovar va xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni taqdim etish yoki sotib olish.

Bunday ta'rif tashqi iqtisodiy operatsiyalarning ko'pchiligini qamrab olsa-da, bu borada ko'p masalalar ochiq qolmoqda. Milliy hisobvaraqlarni tuzish bo'yicha uslubiyotga asosan tovarlar, xizmatlar va daromadlar borasidagi shartnoma (bitim) deb ishtirokchi bo'lmish bir subyektdan boshqa subyektga aniq (mavjud) ushbu resurslarni berish tushuniladi. Biroq ichki va xalqaro almashuvda ishtirokchi bo'lmish ikkala taraf ham bir yuridik shaxs bo'lib chiqishi kabi gumonli holatlar vujudga keladi. Bunda moddiy qimmatliklarni bir qo'ldan boshqa qo'lga o'tishida yuridik mulkdorlik o'zgarmaydi. Bunday tusdagi operatsiyalarni TMKlar o'z xorijiy filiallari bilan yirik ko'lamlarda amalga oshiradilar. Shu bilan birgalikda shunday holatlar ham mavjudki, shartnoma tusiga ega bo'lmagan operatsiyalar oqibatidagi qandaydir o'zgarishlar shartnomaga xos iqtisodiy samarani vujudga, keltiradi. Masalan, valyuta kurslarining o'zgarishi munosabati bilan valyuta zahiralarning qayta baholanishi mamlakatning tashqi dunyoga bo'lgan talablarini qisqarishi yoki o'sishiga olib keladi. XVF ekspertlari tomonidan to'lov balansini tuzilishiga aloqador bo'lgan shartnoma (bitim) yoki operatsiyaning ta'rif tavsifi etiladi. Ushbu atamadan, to'lov balansida aks etishi kerak bo'lgan, har qanday operatsiyaga nisbatan foydalanish tavsifi etiladi.

Bir qator operatsiyalar ta'riflarining mukammal emasligi va olinayotgan ma'lumotlardagi xatoliklar sharoitida to'lov balansining kredit hamda debet taraflaridagi yakuniy ko'rsatkichlarida ma'lum bir nomutanosiblik kuzatiladi. Bunday holatga duchor bo'lmalik uchun to'lov balansi jadvallarini tuzish negiziga ikki taraflama buxgalteriya yozuvi tamoyili qo'yilgan. Bu degani, to'lov balansida qayd etiladigan har qanday operatsiya bo'yicha ushbu hujjatga 2 bir-biriga o'xshash ko'rsatkich kiritiladi: biri - kredit tarafida ijobiy belgi bilan, ikkinchisi - debetli tarafida manfiy belgi bilan. Bulardan birinchi ko'rsatkich sotib olingan yoki ushbu mamlakat rezidentlari tomonidan sotilgan tovarlar, xizmatlar va qimmatli qog'ozlar qiymatini, ikkinchisi esa ushbu operatsiya qanday qilib moliyalashtirilishini ko'rsatadi: naqdli to'lovlar, moliyaviy aktivlar berilishi yoki (kam qollarda) barter asosida.

Tovarlar va xizmatlar eksporti xorijdan tushumlar sifatida qayd etiladi hamda kreditli operatsiyalar bo'limiga kiritiladi; tovarlar va xizmatlar importi esa debetli operatsiyalar bo'limiga to'lovlar sifatida kiritiladi. Ushbu operatsiyalarning har biri uchun qilinayotgan ikkinchi yozuv ushbu operatsiyani moliyalashtiruvchi naqd pullar yoki moliyaviy aktivlar harakat yo'nalishini ochib beradi. Masalan, tovarlar eksporti holatida birinchi ko'rsatkich tushumlar bo'limida uning qiymatini, ikkinchisi esa to'lovlar bo'limida xorijga nisbatan moliyaviy talablar o'simini yoki ushbu mamlakat banklarida xorijliklarga tegishli avuarlarning taalluqli qisqarishini ko'rsatadi.

Tayyorlov hisobvaraqlarning katta qismi qayta ishlanishi asosida yig'ma to'lov balansiga tushum va to'lovlar yoki mamlakatning tashqi dunyo bilan operatsiyalarining talab hamda majburiyatlaridagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi yakuniy ko'rsatkichlar kiritiladi. Shunday qilib, to'lov balansining tuzilish tamoyiliga asosan uning ijobiy ko'rsatkichlarini yakuniy summasi salbiy ko'rsatkichlarining yakuniy summasiga teng bo'lishi kerak. Ya'ni bu uning rasmiy muvozanatini ta'minlashi lozim. Biroq bunday holatda ham uslubiyot va hisob yuritish xarakteridagi noaniqliklar hamda qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar saqlanib qoladi.

Baholarning hisobi. Katta bir muammoni tashqi iqtisodiy xarakterdagi shartnomalar asosida amalga oshadigan baholarning hisobi tashkil etadi. To'lov balanslarini tuzishga aloqador organlar

hamma vaqt ham to'g'ri ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega emas. Aksincha, shartnoma ishtirokchilarining tijorat sirini saqlashdan manfaatdorligi tufayli ko'p hollarda ushbu ma'lumotlarni olishning imkoniyati yo'q.

Har bir tovar uchun turli geografik bozorlarda turli baholar mavjud: bojxona va boshqa soliq yig'implari olinadigan baholar; tovarning egasi o'z hisob yuritish hujjatlarida tovarning hisobini yuritadigan baholar; ichki firma yoki transfert baholar va boshqa shu kabilar. Ko'pchilik baholarni ichidan to'lov balansiga shartnoma (bitim) haqida ma'lumot kiritish uchun kreditli va debetli yozuvlar uchun yagona tamoyil asosida belgilanadigan baho ishlatilishi kerak, aksincha bo'lganda operatsiyalarning balanslashganlik qoidasiga rioya qilinmaydi. Bahoning tanlanishi nafaqat gap ketayotgan mamlakatga, balki o'z operatsiyalarini birgalikda amalga oshirayotgan uning hamkorlariga aloqador ekanligi, bir xillik va statistik talablarni ta'minlash maqsadida savdo operatsiyalarini bozor bahosida yoki ularning ekvivalentida baholash tavsiya etiladi.

XVFning qo'llanmasi va milliy uslubiy ishlanmalarda to'lov balansida taalluqli ko'rsatkichlarni aks ettirish uchun baholarni qanday tanlash kerakligi to'g'risida batafsil ko'rsatmalar mavjud.

Shartnoma (bitim) paytini qayd etish. Ma'lumotlari to'lov balansiga kiritiladigan operatsiyani amalga oshirish paytini qayd etish ham muhim masala hisoblanadi. Operatsiyani amalga oshirilish sanasini aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida quyidagi sanalar bo'lishi mumkin: shartnomaning tuzilishi (imzolanishi) yoki kelishuvga erishilishi, tovarni transportga ortib jo'natilishi, uni yetkazilishi, bojxonadan o'tish tartib-qoidalari, xizmatlarni bajarish, daromad yoki xarajatning hisoblanishi. XVF rahbariyati shartnomani amalga oshirish sanasini shunday tanlashni tavsiya etadiki, mulkni o'rnidan ko'chganligi milliy hisob yuritishda o'z aksini topsin.

XVF tomonidan tavsiya etilgan to'lov balans jadvalining batafsil tarkibiy tuzilishi yuqorida qayd etilgan yirik moddalarga bo'lingan, 100 dan ortiq ko'rinishdagi operatsiyalarni o'z ichiga olgan. Ushbu tavsiyalar XVFga a'zo mamlakatlar to'lov balanslarini tuzish va ularni o'zaro taqqoslashdagi bir xillikka erishishga qaratilgan. Biroq amaliyotda bu masalaning ko'rinishi haqiqatdan ancha yiroqdir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga aloqador ma'lumotlarni yig'ishdagi

murakkablik, ularning to'la emasligi, uslubiy farqlar va boshqa omillar davlat organlari uchun tashqi iqtisodiy operatsiyalarning hajmi, tarkibiy tuzilishi, ijro etilish vaqti hamda boshqa xarakteristikalarini muqobil aks ettiradigan, to'lov balansi hujjatlarini tuzishni qiyinlashtirib yuboradi.

Turli xildagi xato va noto'g'riliklar shunga olib keladiki, to'lov balansiga "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" yoki "statistik xatoliklar" moddasi kiritiladi. Biroq to'lov balansi rasmiy nuqtayi nazardan doim muvozanatda bo'lishini inobatga olgan holda haqiqiy ma'lumotlar bo'yicha tafovutlar ushbu moddaga kiritiladi. Bir qator holatlarda ushbu moddaga qandaydir sabablarga ko'ra, to'lov balansi moddalarining mavjud tavsifiga to'g'ri kelmaydigan yoki yashirilishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar kiritiladi. Ushbu modda nafaqat uslubiyot xatoliklarini, balki hisobga olinmagan, shu jumladan, kontrabanda operatsiyalarini aks ettiradi. Shu sababli ushbu modda bo'yicha ko'rsatkichlarning hajmi odatda yetarli darajada barqarordir. Ammo iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy va siyosiy muvozanatsizliklar davrida "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasining yalpi ko'rsatkichi ko'tariladi.

To'lov balansi moddalarini tasniflash uslublari. To'lov balansini tuzish uslublari va uning saldosi o'lchashni o'rganish xalqaro hisob-kitoblar ko'rsatkichlarini to'g'ri tushunishda katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'p hollarda to'lov balansi ko'rsatkichlari ularning iqtisodiy mazmunini izohsiz keltiriladi. Bu asosan to'lov balansining saldosi aloqadordir. Masalan, AQSH to'lov balansining 1958 va 1978-yillardagi kamomad ko'rsatkichlari bir-biridan farqli, turlicha iqtisodiy mazmunga egadir; ular turlicha o'lchanadi va ularning matbuotda e'lon qilinishi turli (bir-biriga o'xshamas) oqibatlariga olib kelgan. Shu sababli tahlil va taqqoslashlar maqsadida to'lov balansi ko'rsatkichlaridan foydalanish, iqtisodiy muhit hamda xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlardagi o'zgarish o'z boshidan bir qator yangilanishlarni kechirgan ushbu ko'rsatkichlarning o'lchanish tamoyillari hamda ularda mujassam bo'lgan iqtisodiy mazmunni bilishni taqozo etadi.

Xalqaro to'lov munosabatlari uzoq rivojlanish davrini o'z boshidan kechirgan. Ular bilan birgalikda to'lov balanslarini tuzish va tahlil etish uslubiyoti ham rivojlanmoqda hamda bir qator

o'zgarishlarni o'z boshidan kechirmoqda. To'lov balanslarining zamonaviy shakllari to'lov balansi nazariyasining uzoq davrdagi evolyutsiyasi va tuzilish amaliyotining natijasidir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar oqibatlari ko'lamlarining hisobini yuritish va ularni baholashning dastlabki xatti-harakatlari XIV asrning oxirida Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan hamda ilk merkantilizm iqtisodiy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan. Mamlakatdan milliy boylik ramzi bo'lmish oltinning tashqariga oqib ketishini oldini olishga intilish tashqi savdo hamda boshqa tashqi iqtisodiy operatsiyalar tabiatini tushunish va ko'lamlarini baholash zaruratini tug'dirdi. "To'lov balansi" tushunchasi dastlab 1767-yilda Jeyms Styuart tomonidan iqtisodiy nazariyaga kiritilgan. Biroq XX asrning boshigacha to'lov balansini tuzish va uning tarkibiga kirgan operatsiyalarni qamrab olish turli davlatlarda turlicha tushunilgan.

Erkin raqobat kapitalizmi davrida xalqaro iqtisodiy operatsiyalarning hisobini yuritish muammosi va ularni talab darajasida to'lov balansida aks ettirishga qiziqish ayrim davlatlarning iqtisodiy hamda kredit inqirozlari davrida oltinni oqib ketishini oldini olishga qaratilgan xatti-harakatlari bilan, iqtisodchilar tomonidan esa umumiy muvozanat iqtisodiy nazariyasi doirasida to'lov muvozanatining buzilishi va tiklanishini tushuntirishga intilish bilan asoslangan. Biroq ushbu davrda hali xalqaro hisob-kitoblar to'g'risida ular haqida ma'lumotlar yig'ish tizimining takomillashmaganligi hamda ularni anglab olishning nazariy yondoshuvlaridagi kamchiliklar mavjudligi oqibatida to'laqonli va haqqoniy ma'lumotlar yo'q edi.

Iqtisodiy fanning A.Smit va D.Rikardodan boshlab ko'zga ko'ringan namoyondalari to'lov balansi muvozanati muammosiga tan berib, to'lov balanslarini tuzish jarayoniga yangi elementlar hamda tasavvurlar kiritgan holda o'z hissalarini qo'shdilar.

Kapitalizmning, kapitalni chetga olib chiqilishi, boshqa xalqaro iqtisodiy operatsiyalarni tez rivojlanishi bilan xususiyatli bo'lgan zamonaviy bosqichga o'tishi to'lov balanslari mazmunining kengayishiga olib keldi. Bir vaqtning o'zida to'lov balanslarini shakllantirish va muvofiqlashtirishdagi davlat rolini kuchaytirilishining oqibati sifatida xalqaro hisob-kitoblar hisobini yuritish amaliyoti takomillashadi hamda unga zarurat ortib boradi. Faoliyati xalqaro hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etishni o'z ichiga

olgan kaznacheylik, budjet hamda kredit organlari, bojxona va boshqa tashkilotlar kabi davlat iqtisodiy muassasalarining roli ortib boradi.

AQSH va Buyuk Britaniyada to'lov balansi tuzishning uslublari XX asrning boshiga kelib o'zining to'la rivojini topdi. AQSH to'lov balansining birinchi rasmiy chop etilishi Savdo vazirligi tomonidan 1922-yil ko'rsatkichlari asosida 1923-yilda tayyorlangan edi. Bundan oldingi chop etilishlar ayrim, yakka holdagi izlanuvchilarga tegishli bo'lib, rasmiy tusga ega bo'lmagan.

Birinchi jahon urushidan so'ng AQSHning kreditor-davlatga va jahon moliyaviy markaziga aylanishining oqibatlaridan biri sifatida muqobil iqtisodiy siyosat ishlab chiqishga yo'nalish bo'la oladigan, yetarli darajada aniq hamda batafsil bo'lgan xalqaro iqtisodiy operatsiyalar balansini tuzishga qiziqishdan iborat bo'ldi. Bu maqsadda AQSH Savdo vazirligi birinchi rasmiy nashrning ma'lumotlari va uslubiga tuzatishlar kiritib, AQSHning 1923-yil to'lov balansini chop etdi. Ushbu balansning ma'lumotlari tahlil maqsadida quyidagi 3 guruhga bo'lingan edi: joriy operatsiyalar, kapitallar harakati, oltin va kumush bilan operatsiyalar. Bunda quyidagi tamoyillarga asoslanildi: joriy operatsiyalarga joriy yilda tugallangan deb hisoblangan, keyinchalik to'lovlar yoki tushumlarni keltirib chiqarmaydigan operatsiyalar kiritildi. Ushbu qatorga savdo singari "ko'zga ko'rinmaydigan" operatsiyalar ham kiritildi. Kapitallar harakati bo'yicha operatsiyalarga harakatidan kelgusida foydalar yoki foizlar tushumi kutilayotgan operatsiyalar kiradi. Oltin va kumush bilan operatsiyalarga katta ahamiyat berilgan holda ular maxsus bo'limga ajratildi.

1943-yilda amerikalik iqtisodchi H. Leri 1919-1939-yillarga AQSH to'lov balansini tuzdi. Ushbu balansning shakli ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH to'lov balansini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1946-yildan boshlab to'lov balansi to'g'risidagi chorak va yillik hisobotlar AQSH Savdo vazirligi tomonidan "Survey of Current Business" jurnalida chop etila boshlandi. Huddi shu singari Buyuk Britaniya va bir qator boshqa davlatlar to'lov balanslarining ishlab chiqilish hamda ko'rsatkichlarini tahlil etilish jarayonlari bo'lib o'tdi.

Leri tomonidan 1919-1939-yillarga tuzilgan to'lov balansi va undan so'nggi chop etilgan AQSH hamda boshqa davlatlarning to'lov

balanslari bundan oldingi to'lov balanslaridan shakl va mazmun jihatidan farq qiladi. To'lov balansini tashqi dunyoga nisbatan mamlakat moliyaviy pozitsiyasini tahlil qilish uchun statistik jadval sifatida tuzilgan. Bundan kelib chiqqan holda to'lov balansiga faqat naqd pul tushumi bilan tugaydigan bitimlar kiritilgan. Xalqaro savdo ichki iqtisodiyotga ta'sir etadi deb hisoblanar edi, modomiki eksportning importdan oshishi va buning teskarisi, asosan, xalqaro hisob-kitoblardagi muvozanatni avtomatik ravishda tiklanishiga ko'maklashuvchi pul muomalasi hamda baholar sohasidagi o'zgarishlarga olib keladi.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining kuchayishi nazariyotchilarni iqtisodiyotni avtomatik muvofiqlashtirish konsepsiyasidan, xususan bozorning stixiyali kuchlari yordamida to'lov balansini muvofiqlashtirishdan voz kechishga olib keldi. To'lov balansini tushunchasining qayta ko'rib chiqilishiga milliy daromad va yalpi ichki mahsulot hisob-kitoblari uslublarining rivojlanishi ham yordam berdi. Zamonaviy iqtisodchilar to'lov balansida boshqa mamlakatlarga tovar va xizmatlar sifatida olib chiqib ketilgan milliy mahsulot ulushini, mamlakatga olib kirilayotgan tovar hamda xizmatlar hajmini va eksport hamda import o'rtasidagi farqni moliyalashtirish uslublarini aks ettirishni muhim deb hisoblaydi. Zamonaviy to'lov balansini joriy operatsiyalarining qoldiqi odatda yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, "xarajatlar va chiqarish" hisobvaraqlari hisob-kitoblari jadvalariga kiradi.

Jahon xo'jaligining shakllanishi ayrim davlatlar xalqaro hisob-kitoblar ko'rsatkichlarini taqqoslashni talab etar edi. Shu sababli ayrim davlatlar to'lov balanslarini tuzishning tamoyillari tobora soddalashtirishmoqda. Xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish borasida ma'lum darajadagi birxillikka erishishga Millatlar Ligasi va XVFnining faoliyati ko'maklashdi.

Millatlar Ligasining ekspertlari to'lov balanslari tuzish uslublarini standartlashtirish bo'yicha ish olib bordi. 1924-yilda Millatlar Ligasi tomonidan 13 mamlakatning 1922-yil to'lov balanslari to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etilishi ushbu ko'rsatkichlarni xalqaro taqqoslanishiga asos soldi. 1927-yilda Millatlar Ligasi tomonidan asosan namuna sifatida AQSH va Buyuk Britaniya to'lov balanslari olingan sxema hamda bir qator tavsiyanomalar berilgan edi.

Millatlar Ligasi ekspertlari tomonidan kiritilgan aniqliklar tufayli 1947-yilda BMT hujjati sifatida chop etilgan to'lov balansi tuzishning sxemasi yaratildi. Ushbu hujjat Millatlar Ligasining ushbu faoliyat borasidagi yakuni va bir vaqtning o'zida XVF tomonidan to'lov balansini tuzishning shakl hamda tamoyillarini ishlab chiqishning negizi bo'lib hisoblandi.

XVF to'lov balansi sxemasini soddalashtirish uslubiyotini ishlab chiqishni davom ettirdi, uning natijasi muntazam ravishda qayta chop etilayotgan to'lov balansi bo'yicha qo'llanmada aks etmoqda. Hozirgi kunda XVF a'zosi bo'lmish mamlakatlar to'lov balanslarining chop etilishi 1993-yil qo'llanmasidagi qoidalar asosida amalga oshadi.

XVF uslubiyotiga asosan to'lov balansi moddalarining tasnifi:

A. Joriy operatsiyalar

Tovarlar

Xizmatlar

Investitsiyalardan tushgan daromadlar

Boshqa xizmatlar va daromadlar

Bir tomonlama xususiy o'tkazmalar

Rasmiy bir tomonlama o'tkazmalar

A ning yakuni. Joriy operatsiyalar balansi

V. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va boshqa uzoq muddatli kapital

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar

Portfel investitsiyalari

Boshqa uzoq muddatli kapital

Jami: $A+V$ (AQSHdagi bazaviy balans konsepsiyasiga muvofiqdir)

S. qisqa muddatli kapital

D. Xatolar va o'tkazib yuborishlar

Jami: $A+V+S+D$ (AQSHdagi likvidlilik konsepsiyasiga muvofiqdir)

E. O'mini qoplovchi moddalar

Oltin-valyuta zahiralari qayta baholash, SDRning taqsimlanishi va ishlatilishi

F. Favqulodda moliyalashtirish

G. Xorijiy rasmiy organlarning valyuta zahiralari tashkil etuvchi majburiyatlar

Jami: A+V+S+D+F+G (AQSHdagi rasmiy hisob-kitoblar konsepsiyasiga muvofiqdir)

N. SDR zahiralarning yakuniy o'zgarishi

XVFDagi zahira pozitsiyasi

Xorijiy valyuta

Boshqa talablar

XVF kreditlari

XVFDa qabul qilingan to'lov balansi moddalarini tasniflash tizimi ushbu Fondga a'zo davlatlar tomonidan qo'llaniladi. Bunda ayrim mamlakatlar xalqaro hisob-kitoblarining xarakteri ular tomonidan tuzilayotgan to'lov balanslarining xususiyatli tomonlarini belgilaydi. Rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlarning to'lov balanslari mazmuniga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi.

To'lov balansi tuzilishning muhim masalalaridan biri – bu, uning saldosi o'lashidir. Ushbu masala keng ko'lamdagi, ya'ni alohida xalqaro bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligidan tortib jadval tuzilishning tarkibiy tuzilishigacha bo'lgan savollarni qamrab oladi hamda to'lov balansi nazariyasi va amaliyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. To'lov balansining kamomadi yoki aktiv saldosi qabul qilingan aniqlash uslubi – bu, to'lov balansini asosiy va balanslovchi moddalarga bo'lishdir. Asosiy moddalarning saldosi "to'lov balansining saldosi" deb atashadi. Ushbu miqdorning ijobiy yoki salbiy bo'lishiga qarab esa uni to'lov balansining aktivi yoki kamomadi deb atashadi.

To'lov balansining saldosi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Uning miqdori yalpi ichki mahsulot va milliy daromad hisob-kitobiga kiritiladi, valyutaning holatiga, ichki hamda tashqi siyosatni olib borish vositalarining tanloviga ta'sir etadi. Bundan to'lov balansi saldosi o'lash paytidagi eng muhim muammo sifatida moddalarni asosiy yoki balanslovchi moddalarga tasniflash muammosi maydonga chiqadi.

To'lov balansi saldosi tushunchasi operatsiyalar ma'lum bir to'plamining balans yakuniga aloqadordir. Ushbu tushuncha prinsipial xarakterga egadir. To'lov balansining aktivligi yoki passivligi ko'rsatkichi doim muvozanatda bo'lgan yalpi to'lov balansining xarakteristikasi sifatida qabul qilinishi kerak emas. To'lov balansi saldosi ko'rsatkichi tuzilmaviy bo'lib hisoblanadi. Uning katta-

kichikligi birinchi navbatda ushbu moddalar yakunini ifodalovchi moddalar tanloviga bog'liq. Bunday tanlov o'z holicha bo'lishi kerak emas. U ma'lum bir maqsadga bo'ysungan va o'zida taalluqli tahliliy yondoshuvni aks ettirmoqi lozim.

To'lov balansi moddalarining XVf uslubiyotiga muvofiq tasnifi uning saldosi aniqlashning evolyutsiyasini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu sxemadan foydalangan holda, ma'lum bir guruh operatsiyalarning tagiga chizishning o'zi kifoya qiliadi va bunda ushbu chiziqning yuqorisida joylashgan barcha ko'rsatkichlarning yakuniy ko'rsatkichi bizga ma'lum bo'lgan bir konsepsiyaga binoan to'lov balansi saldosi muvofiq bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich chiziqdan pastda bo'lgan teskari ifoda bilan olingan barcha ko'rsatkichlar summalari bilan muvozanatlashtiriladi. Mazkur tasniflashning tarkibiy tuzilishi ma'lum bir me'yorda tarixan xalqaro iqtisodiy operatsiyalar rivoji ketidan boradi.

Joriy operatsiyalar balansining konsepsiyasi. Xalqaro almashuvning tarixan eng rivojlangan shakli sifatida maydonga tashqi savdo chiqadi. Xalqaro savdo bo'yicha hisob-kitoblar dastlabki to'lov balanslari moddalarining asosiy mazmunini tashkil etgan edi. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi bilan xizmatlar xalqaro almashuvda kattaroq rol o'ynay boshladi.

Savdo balansi va xizmatlar balansi mamlakat ichki iqtisodiyotining holati hamda jahon xo'jaligida egallagan o'rni bilan o'zaro bog'liqdir. Tashqi savdoning kamomadi yoki aktivligi jahon bozorida ushbu mamlakat tovarlari raqobatdoshligini, iqtisodiyotini kuchli yoki kuchsizligini aks ettiradi va jiddiy iqtisodiy choralar ko'rilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tashqi dunyo bilan mamlakat iqtisodiy aloqalarini kengroq ma'noda to'lov balansining joriy operatsiyalar balansi aks ettiradi. Masalan, mamlakat lisenziyalar sotuvi va turizmdan tushumlar, xorijda ishlayotgan ishchilar pul o'tkazmalari hisobiga savdo balansi kamomadini qoplashi mumkin. To'lov balansining joriy operatsiyalar saldosi ko'p hollarda mamlakat tashqi iqtisodiy holatining xarakteristikasi uchun ishlatiladi. Joriy operatsiyalar balansi mamlakat tomonidan xorijga berib yuborilgan yoxud xorijdan yalpi ichki mahsulotga qo'shimcha olingan real qimmatliklar qiymatini aks ettiradi, deb hisoblanadi.

Tahliliy nuqtayi nazardan joriy operatsiyalar balansi xorijiy ekspertlar fikriga ko'ra o'zining ikki xususiyati bilan farqlanadi. Ya'ni birinchidan, joriy operatsiyalar o'zining tabiatiga ko'ra yakunlangan operatsiyalardir, ular bo'yicha hisob-kitoblar kapitallar bilan operatsiyalar singari javob sifatidagi qo'shimcha operatsiyalarni keltirib chiqarmaydi. Ikkinchidan, qisqa muddatli davrda joriy operatsiyalar nisbatan muvozanatlidir, ularning yakuni esa nisbatan chuqurroq iqtisodiy tendensiyalar ta'sirini aks ettiradi. Bularning oqibatida joriy operatsiyalar balansi hozirgacha katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich sifatida ko'riladi. Ushbu ko'rsatkich mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati yakunlarini hamda ichki iqtisodiy jarayonlar bilan o'zaro harakatlarini aniqlash maqsadida milliy hisobvaraqlarga, "xarajatlar-chiqaruvlar" hisob-kitoblari, boshqa makroiqtisodiy agregatlarga kiritiladi.

Bazis balansining konsepsiyasi. Uzoq muddatli kapital hisobining yuritilishi va uning to'lov balansida to'laroq aks ettirilishini rivojlanishi bilan bazis balansi konsepsiyasi olg'a surilgan edi. U ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan edi hamda to'lov balansi holatini aniqlashda ishlatilgan. Ushbu konsepsiyaning asl mazmuni shundaki, bunda asosiy moddalarga kiritiladigan bazaviy barqaror bitimlar ajratib olinadi. Ushbu bitimlar, mualliflarning fikricha, vaqt davridagi barqarorlik va iqtisodiy konyunktura o'zgarishlariga befarqligi bilan xarakterlanadi. Bundaylarga nafaqat joriy operatsiyalar, balki uzoq muddatli kapital harakatlari ham kiritildi. Balanslovchi operatsiyalarga qisqa muddatli kapital va valyuta zahiralari harakati kiritildi. XVFning tasnifi bo'yicha bazis balansining saldosi "A" va "V" guruhlar operatsiyalari yuzasidan saldo summasi sifatida aniqlanadigan bo'ldi. Ushbu summa "V" guruhidan pastdagi operatsiyalar balansi bilan muvozanatlantirilishi lozim.

Bazis balansi konsepsiyasiga muvofiq joriy operatsiyalar aktivi kapital harakatini muvozanatlashtiribgina qolmay, balki ushbu maqsadga erishish uchun valyutaning oqib kelishini ta'minlaydi. To'lov balansini uzil-kesil balanslashtirishni ma'lum bir chegaralarda valyuta kurslari, foiz stavkalari va iqtisodiy siyosatning boshqa instrumentlarini o'zgartirish orqali boshqariladigan qisqa muddatli kapital harakati ta'minlashi kerak edi. Bunday yondoshuvni ma'lum bir

davrgacha qisqa muddatli kapital harakatiga mustaqil jarayon sifatida jiddiy e'tibor berilmaganligi bilan tushuntirish mumkin edi.

Likvidlilik konsepsiyasi. Ushbu konsepsiya 1958-yilda AQSHda ishlab chiqilgan edi. O'sha davrlarda AQSH to'lov balansi holatining keskin yomonlashuvi va dollarning inqirozi Savdo vazirligi tomonidan to'lov balansi tuzish hamda uning kamomadini o'lchash uslublarini tanqidiy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqishga majbur etdi. Qisqa muddatli kapital harakatiga nisbatan munosabat ham qayta ko'rib chiqildi va bunda xorijlik xususiy shaxslar hamda rasmiy organlar qo'lidagi likvid dollarli aktivlarga muhim ahamiyat berildi. Bu esa o'z navbatida yangi yondoshuvning mazmuni va nomini belgilab berdi.

Likvidlilik konsepsiyasi AQSH dollarining zahira valyutasi ekanligi hamda xalqaro to'lov va zahira vositasi sifatida ishlatilishidan kelib chiqqan edi. Bundan AQSH chayqov maqsadida AQSH dollarlaridan foydalanilishiga qarshi kurashga doim tayyor bo'lib turishi kerak. Buning uchun esa norezident shaxslarda qancha likvidli dollarli aktivlar borligini bilish darkor. Ushbu summaning o'simini esa to'lov balansining saldosi ko'rsatishi kerak edi. Shu sababli likvidlilik konsepsiyasiga muvofiq negizli shartnomalar tarafdorlari tomonidan kiritiladigan moddalardan tashqari asosiy moddalar qatoriga yana 3 ko'rinishdagi shartnomalar kiradi: qisqa muddatli xususiy milliy kapital harakati, xorijiy tijorat kreditlari va "xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasi bo'yicha saldo.

Savdo vazirligining fikri bo'yicha AQSHning xalqaro likvidli pozitsiyasidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi moddalar balanslashtiruvchi sifatida olinadi. Balanslashtiruvchi moddalarga quyidagi o'zgarishlar kiradi: Amerika valyuta zahiralari (XVFga badalni hisobga olgan holda), AQSHning xorijlik rasmiy tashkilotlar va xususiy shaxslar oldidagi likvidli majburiyatlari. Ushbu konsepsiya-ning o'ziga xosligi shundaki, u AQSH davlat valyuta zahiralari va amerika xususiy mulk egalari qo'lidagi valyuta aktivlarini ayirboshlash imkonini beradi.

XVFda qabul qilingan to'lov balansi moddalarining tasnifiga ko'ra likvidlilik konsepsiyasi bo'yicha saldo birmuncha shartlashuvlar bilan ("S" guruhiga aloqador) asosiy deb hisoblanuvchi, A+V+S+D guruhlari operatsiyalari yuzasidan saldolarining summasiga muvo-

fiqdir. Ushbu saldo E.+F+G+H guruhlari bo'yicha olingan yalpi saldo hajmi bilan teskari (manfiy) ifodada balanslashtiriladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan qabul qilingan tasnifda likvidlilik konsepsiyasi yaqqol aks etgan. Avval u o'zida birmuncha qarama-qarshiliklarni mujassam etgan edi. Qisqa muddatli kapital bilan bir qator operatsiyalarni to'lov balansining asosiy moddalari qatoriga kiritilishi yetarli darajada asoslanmagan edi. Xususan, amerikalik xususiy shaxslar qo'lida turgan xorijiy valyutalar aktivlarini to'lov balansiga kiritilishining asosiy sababi shundaki, AQSH qonunchiligi davlat moliya organlariga ulardan, rasmiy zahiralarga qo'shimcha ravishda, dollarni himoyalashda foydalanishni qiyinlashtirib qo'ygan edi. "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasi bo'yicha saldo qisqa muddatli kapital harakati bilan bog'lanmagan bo'lib, ushbu holat xalqaro hisob-kitoblarning hisobini yuritilishidagi kamchiliklar bilan izohlanar edi.

Balanslashtiruvchi moddalar qatoriga AQSHning xususiy qisqa muddatli majburiyatlari o'zgarishining kiritilishi ushbu majburiyatlarga dollarga bo'layotgan yaqqol xavf sifatida qarashni aks ettirar edi. Haqiqatda ham AQSH qonunchiligiga muvofiq dollarlarning xorijlik egalari ularni bevosita AQSH g'aznaxonasida oltinga almashtira olmas edilar. Ammo AQSH dollariga ishonch yo'qolgan paytda xorijlik xususiy banklar o'z dollarlik aktivlarini Markaziy banklarga sotish imkoniyatiga ega bo'lgan, Markaziy banklar esa o'z navbatida ushbu dollarlarni AQSH g'aznaxonasiga oltinga almashtirishga taqdim qilar edilar.

1958-yildagi AQSH to'lov balansining yirik kamomadi hukumat va Moliya doiralarida katta bezovtalanishni keltirib chiqardi. Bu esa o'z navbatida, kamomadni o'lchash uslublariga bo'lgan ishonchsizlikda o'z ifodasini topdi. Likvidlilik konsepsiyasi endigina paydo bo'lib qattiq tanqidga uchradi. Biroq AQSH Savdo vazirligi uni himoya qilish va amalda qoldirishga muvaffaq bo'ldi. Likvidlilik konsepsiyasidan dollar zahira valyutasi maqomiga ega bo'lganligi sababli rasmiy konsepsiya sifatida faqatgina AQSH to'lov balansiga nisbatan foydalanilgan. AQSH to'lov balansining yirik kamomadlari boshidanoq ushbu konsepsiyani gumon ostiga qo'ydi.

Rasmiy zahiralalar balansi konsepsiyasi. To'lov balansi saldosi o'lchashda navbatdagi qadam bo'lib, AQSH tomonidan

1965-yilda olg'a surilgan va keyinchalik XVF hamda IHTT ekspertlari tomonidan asosiy konsepsiya sifatida qabul qilingan rasmiy hisob-kitoblar konsepsiyasi bo'ldi. AQSH va boshqa mamlakatlarning rasmiy organlari uchun ushbu uslubiyotning yoqimli tomonlari shundaki, birinchidan u kamomadning nisbatan pastroq ko'rsatkichlarini berdi, ikkinchidan to'lov balansi holatini yaxshilashga xorijiy xususiy qisqa muddatli hamda portfel kapitallarini keng jalb etish amaliyoti zaminiga nazariy asosni keltirdi. Rasmiy hisob-kitoblar konsepsiyasi AQSH to'lov balansi saldosi o'lchash uslublarini tanqidiy tahlili natijasida paydo bo'ldi.

Rasmiy hisob-kitoblar balansining konsepsiyasi yoki XVF nashrlarida yakuniy balans deb nomlanganidek, AQSHda 1965-yildan boshlab ishlatila boshlandi. Keyinchalik esa boshqa mamlakatlarda ham tarqaldi va XVF hamda IHTT ekspertlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi.

Rasmiy hisob-kitoblar balansining ko'p mamlakatlar tomonidan ishlatilgan standart ta'rifi balanslashtiruvchi moddalar qatoriga quyidagi moddalarning kiritilishini ko'zda tutadi: rasmiy valyuta organlarining valyuta zahiralar bilan operatsiyalarini (oltin, xorijiy valyuta, XVFgi zahira pozitsiyasi va SDRgi aktivlar); rasmiy valyuta organlarining xorijiy rasmiy tashkilotlar oldidagi, xalqaro tashkilotlar va SDR taqsimotini o'z ichiga olgan holda, majburiyatlarini o'zgarishi. XVFnig tasnifiga ko'ra to'lov balansi saldosi rasmiy hisob-kitoblar konsepsiyasiga muvofiq asosiy moddalar sifatida tasniflanadigan $A+B+C+D+E+F+G$ guruhlari bo'yicha yakun sifatida maydonga chiqadi hamda "N" guruhi yuzasidan operatsiyalarning yakuniy summasi, ya'ni mutloq rasmiy valyuta operatsiyalari bilan muvozanatlashtiriladi. Rasmiy hisob-kitoblar konsepsiyasining alohida mamlakatlarda ishlatilishi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, XVF tavsiyalari va IHTT sxemalaridan farqli edi.

70-yillar o'rtasidagi jahon iqtisodiyoti va valyuta tizimidagi inqirozli larzalar sharoitida xalqaro to'lov munosabatlari tarkibiy tuzilishidagi yirik siljishlar hamda bu bilan bog'liq kapital harakatidagi barqarorsizlik to'lov balansi saldosi aniqlash uslublarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi.

AQSHda 1976-yildan boshlab to'lov balansi saldosi rasmiy asosda faqat joriy operatsiyalar saldosi sifatida, boshqa operatsiyalar

bo'yicha ma'lumotlarni ma'lumotli ko'rsatkichlar sifatida chop etib, o'lday boshladilar.

8.6. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va uni muvofiqlashtirish

To'lov balans i takror ishlab chiqarish bilan to'g'ri va teskari aloqaga ega. Bir tomondan, u takror ishlab chiqarishda ro'y berayotgan jarayonlar oqibatida shakllanadi, boshqa tomondan esa unga aks ta'sir ko'rsatadi, chunki valyutar kursi oltin-valyuta zahiralari, valyuta holati, tashqi qarz, valyuta va iqtisodiy siyosat yo'nalishlari, jahon valyuta tizimi holatiga ta'sir etadi.

To'lov balans i mamlakatning jahon xo'jaligidagi ishtiroki, tashqi iqtisodiy aloqalarining ko'lamlari, tarkibi va xarakteri to'g'risida ma'lumot beradi. To'lov balansida quyidagilar aks ettiriladi: 1) eksportning turli imkoniyatlarini va tovarlar, kapitalar, xizmatlar importiga ehtiyojni belgilovchi iqtisodiyotning tarkibiy disproporsiyalari; 2) iqtisodiyotni bozor va davlat tomonidan muvofiqlashtirish uslublarining o'zaro nisbatidagi o'zgarishlar; 3) konyunktur omillar (xalqaro raqobat, inflyatsiya, valyuta kursi va boshqalarning o'zgarish darajasi).

To'lov balans i holatiga bir qator omillar ta'sir etadi. Bular quyidagilar:

a) Mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining notekisligi, xalqaro raqobat. To'lov balans i asosiy moddalarining evolyutsiyasi jahon iqtisodiyotidagi raqib-markazlar kuchlarining o'zaro nisbatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng harbiy Yevropa va Yaponiya davlatlari to'lov balanslarining yirik kamomadi sharoitida AQSHning aktiv to'lov balans i shakllandi. Bu o'z navbatida, AQSHning 1950-yillarning oxirigacha monosentrik hukmronligi tizimida o'z aksini topdi, ya'ni to 1960-yilgacha G'arbiy Yevropa va Yaponiya davlatlarining savdo balanslari odatda passiv edi, shu davrlardagi AQSHning savdo balans i esa amerika monopoliyalarning jahon bozoridagi mavqeyi hamda dollarning barqarorligi tufayli juda katta aktiv sal'do bilan yopilar edi (1947-yilda 10 mlrd. AQSH dollari). AQSHning xalqaro investor va kreditorga aylanishi ushbu mamlakatga xorijdan yirik miqdordagi dividendlar

hamda foizlarning oqib kelishiga sabab bo'ldi. Biroq keyinchalik to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning yillik o'simidagi AQSHning ulushi G'arbiy Yevropa va Yaponiya davlatlari ulushining o'sishi hisobiga 1967-yildagi 50 foizdan 1980-yildagi 4 foizgacha pasayib ketdi. 1985-yildan boshlab esa AQSH kapitalning netto-importyoriga aylandi. AQSHning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini, harbiy xarajatlarining o'sishi sharoitida, 1948-yildagi 54,6 foizdan 1984-yilda 37,8 foizgacha, tovarlar eksportida 33 foizdan 12,7 foizgacha, kapitallar eksportida 70-yillar ichida 20 foizga pasayishi mamlakat to'lov balansi joriy operatsiyalarining muntazam kamomadiga olib keldi. AQSHning 1990-yillardagi uzoq muddatli iqtisodiy ko'tarilishi AQSHga yana jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliyadagi iqtisodiy peshqadamlikni qaytarib olish imkonini berdi. Yuqorida zikr etilgan uch markaz, ya'ni AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiya o'rtasidagi qarama-qarshilik ularning to'lov balanslari holatida o'z aksini topadi;

b) Iqtisodiyotning siklli tebranishlari. To'lov balanslarida mamlakat xo'jalik hayotidagi tebranishlar, ko'tarilishlar va tushkunliklar o'z aksini topadi. Chunki mamlakat ichki iqtisodiyotining holatiga tashqi iqtisodiy operatsiyalar bog'liq. Sanoat sikllari mexanizmi bilan bog'liq to'lov balansining tebranishlari mamlakat ichki iqtisodiy siklli jarayonlarini bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga o'tib ketishiga ko'maklashadi. Ishlab chiqarishning o'sishi yoqilg'i, xomashyo, jihozlar importining o'sishiga, pasayishi esa tovarlar olib kirish hajmining qisqarishiga olib keladi. Tovarlarni, kapitallarni, xizmatlarni eksporti jahon bozori sharoitlarining o'zgarishiga mo'ljallik bo'ladi. Xo'jalik rivojlanishining sustligida kapitalning chetga chiqishi ko'payadi. Iqtisodiyotning jadallab rivojlanishida, ya'ni foydalar o'sgan, mamlakatda kredit ekspansiyasi kuchaygan, foiz stavkasi ko'tarilgan paytda kapitalning chetga chiqishi pasayadi. Zamonaviy iqtisodiy siklning asinxronligi sababli uning tebranishlari to'lov balansiga to'g'ridan to'g'ri emas, balki egri ta'sir etadi. Jahon iqtisodiy inqirozlari u yoki bu mamlakatlar to'lov balanslarining yirik ko'lamdagi kamomadlariga olib keladi;

d) Davlatning xorijdagi xarajatlarining o'sishi. To'lov balansi uchun og'ir yuk bo'lib, turli siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga qaratilgan, hukumatning tashqi xarajatlari hisoblanadi;

e) Iqtisodiyotning militarizatsiyasi va harbiy xarajatlar. AQSHning to'lov balansida aks etadigan, xorijdagi xarajatlarning asosiy qismi harbiy maqsadlarga mo'ljallangan. Harbiy xarajatlarning to'lov balansiga egri ta'siri birinchi navbatda ularni ishlab chiqarish sharoitlari va iqtisodiy o'sishning sur'atlariga bo'lgan ta'sirida, harbiy bo'lmagan tarmoqlardan yulib olinayotgan resurslarda o'z aksini topadi. Agar eksport tarmoqlari harbiy buyurtmalar bilan bosib yuborilgan, tovarlarni chetga olib chiqishni kengaytirishga mo'ljallangan mablag'lar harbiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lsa, mamlakatning eksport qobiliyati qisqaradi. Qurollarning o'sishi harbiy-strategik tovarlar shu jumladan, tinchlik vaqtidagi iste'mol me'yorlaridan ortiq bo'lgan hajmda ko'p turdagi xomashyolar (neft, kauchuk, rangli metallar) importini oshiradi;

f) Xalqaro moliyaviy bog'liqlikning kuchayishi. Zamonaviy sharoitlarda moliyaviy oqimlarning harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakllaridan biriga aylandi. Bu esa o'z navbatida, chetga kapitalarni olib chiqishni, ssuda kapitalari jahon bozorining (yevrobozorlarni o'z ichiga olgan holda) rivojlanishini, shartnoma shartlarining erkinlashishi sharoitida moliyaviy bozorlarning o'sishi bilan asoslanadi. Natijada mamlakatlarning moliyaviy o'zaro bog'liqligi ularning o'zaro tijorat bog'liqligidan ustunroq bo'lib qoldi. Bu esa valyuta va kredit tavakkalchiliklarini, birinchi navbatida qarz oluvchining to'lovga layoqatsizligini kuchaytirib yuboradi. 1980–90-yillardagi jahon qarzlar inqirozi va 1997–98-yillardagi valyuta-moliya inqirozlari ushbu tavakkalchiliklar xavfliligini ochib tashladi;

g) Xalqaro savdodagi o'zgarishlar. Ilmiy texnik inqilob, xo'jalik rivojlanishining sur'atlarini o'sishi, yangi energetika bazasiga o'tilishi Xalqaro iqtisodiy aloqalarda tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tayyor mahsulotlar bilan, shu jumladan, intellektual tovarlar, neft va energo resurslar bilan savdo qilish sur'ati oshdi. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshida neftga baholarning to'satdan 18 barobar oshib ketishi neft importyori bo'lmish mamlakatlar to'lov balansi joriy operatsiyalarining kamomadiga olib keldi. Tovarlarni oqimining geografiyasida rivojlangan davlatlar orasidagi almashuvning kengayish taraffiga qarab o'sishi, rivojlanib borayotgan mamlakatlar ulushining ularning tashqi savdosida qisqarib borishi holatida yuzaga keladi (jahon savdosining 70%, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari 38%).

Rivojlangan davlatlarning o'zaro savdosi ular eksportining 80 foizini o'z ichiga oladi (Yevropa Ittifoqi mamlakatlari 58%), rivojlanib borayotgan mamlakatlar orasidagi savdo esa ular eksportining 1/4 qismini tashkil etadi. Bunday hol jahon bozoridagi raqobat kurashini kuchaytirib yuboradi;

h) To'lov balansiga valyuta-moliyaviy omillarining ta'siri. Devalvatsiya odatda eksportni, revalvatsiya esa importni rag'batlantiradi. Jahon valyuta tizimining barqarorsizligi Xalqaro savdo va hisob-kitoblar sharoitlarini yomonlashtiradi. Milliy valyuta kursining pasayishi kutilgan holda eksport va import bo'yicha to'lov muddatlarining o'rnidan siljishi ro'y beradi, ya'ni importyorlar to'lovlarni tezlashtirishga, eksportyorlar esa aksincha xorijiy valyutadagi tushumni olishni kechiktirishga harakat qiladilar ("lidz end legz" siyosati). Xalqaro hisob-kitoblar muddatlaridagi kichik bir qisqa uzilish mamlakatdan kapitallarni chetga oqib ketishiga olib kelishi mumkin. Baho va to'lov valyutasi sifatida ishlatilayotgan yetakchi valyutalar kurslarining tebranishi ko'pchilik davlatlarning to'lov balanslariga ta'sir etadi;

i) inflyatsiyaning to'lov balansiga salbiy ta'siri. Bunday holat, ya'ni baholarni pasayishi milliy tovarlarning eksportini qiyinlashtirib, raqobatdoshligini pasaytirgan, tovarlar importini rag'batlantirgan va kapitallarni xorijga chiqib ketishiga imkon bergan paytda vujudga keladi;

j) Favqulodda holatlar – hosilning bo'lmasligi, tabiiy ofatlar, halokatlar va shu kabilar to'lov balansiga salbiy ta'sir etadi.

To'lov balans azaldan davlat tomonidan muvofiqlashtiriluvchi obyektlardan biri bo'lib sanaladi. Bu quyidagi sabablar bilan asoslanadi.

Birinchidan, to'lov balanslariga ba'zi mamlakatlardagi yirik va uzoq muddatli kamomad, ba'zilariga esa haddan tashqari aktiv saldoda aks etuvchi muvozanatsizlik xosdir. Xalqaro hisob-kitoblar balansining muvozanatsizligi valyuta kursining dinamikasiga, kapitallar migratsiyasiga, iqtisodiyotning holatiga ta'sir etadi. Masalan, to'lov balansining joriy operatsiyalar kamomadini milliy valyuta bilan qoplagan holda, AQSH boshqa mamlakatlarga inflyatsiyaning eksportiga, dollarlarni xalqaro muomalada keragidan ko'payib ketishiga ko'mak-

lashdi. Bu esa 1970-yillarda Bretton-Vuds valyuta tizimining yemirilishiga olib keldi.

Ikkinchidan, oltin standartining 1930-yillarda bekor qilinishidan so'ng, to'lov balansini baho yordamida muvofiqlashtirish orqali muvozanatlashtirishning stixiyali mexanizmi nihoyatda kuchsiz harakatlanadigan bo'lib qoldi. Shu sababli to'lov balansini muvozanatlashtirish davlatning maqsadli tadbirlariga muhtojdir.

Uchinchidan, xo'jalik aloqalarining globallashuvi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimida to'lov balansining ahamiyati ko'tarildi. Uni muvozanatlashtirish vazifasi iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, inflyatsiya va ishsizlikni jilovlash bilan birgalikda davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalari doirasiga kiradi.

To'lov balansini muvofiqlashtirishning moddiy asosi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) rasmiy oltin-valyuta zahiralari;
- b) davlat budjeti orqali qayta taqsimlangan milliy daromad;
- v) kapitalning eksportyori, kreditori, kafili, qarz oluvchisi sifatida davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarda bevosita ishtirok etishi;
- g) me'yoriy aktlar va davlat nazorat organlari yordamida tashqi iqtisodiy operatsiyalarni cheklash.

To'lov balansini muvofiqlashtirishda muammo tug'iladi: qanday mamlakatlar (aktiv saldo yoki kamomadga ega) muvozanatlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Ushbu masala bo'yicha nazariyotchilar va amaliyotchilarning fikrlari turlichadir. Odatda ichki va tashqi omillar tazyiqi ostida to'lov balansini muvofiqlashtirish muammosi kamomadga ega mamlakatlar oldida nihoyatda dolzarb bo'lib qoladi. Xalqaro hisob-kitoblarning aktiv balansiga ega mamlakatlar yuqorida zikr etilgan davlatlarni o'z uylarida tartibni qaror toptirishga, ya'ni: inflyatsiyani cheklash, deflyatsion siyosatni amalga oshirish, eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini qisqartirish va boshqa shu kabilarga undaydilar. Bunday talablarni ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH to'lov balansining muttasil kamomadiga ega harbiy Yevropa davlatlariga qo'ygan. 1960-yillar va 1980-yillarning birinchi yarmida vaziyat o'zgardi, G'arbiy Yevropa davlatlari hamda birinchi navbatda Yevropa Ittifoqi a'zolari huddi shunday talablar bilan AQSHga murojaat etdilar.

To'lov balansining kamomadiga ega bo'lgan davlatlar odatda ularning hamkorlari bo'lmish aktiv saldoga ega bo'lgan davlatlarni importning bojxona hamda boshqa shu kabi cheklovlarini bekor qilishga, kapitalni chetga olib chiqishni kengaytirishga undaydilar.

To'lov balansini davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi – bu, to'lov balansining asosiy moddalarini shakllantirishga hamda shakllangan saldoni qoplashga yo'naltirilgan davlatning iqtisodiy, shu jumladan, valyuta, moliyaviy, pul-kredit chora-tadbirlarining yig'indisidir. Mamlakatning valyuta-iqtisodiy va xalqaro hisob-kitoblarining holatiga ko'ra tashqi iqtisodiy operatsiyalarni rag'batlantirish yoki cheklashga qaratilgan to'lov balansini muvofiqlashtirish uslublarining turli xildagi to'plami mavjud.

Kamomadli to'lov balansiga ega mamlakatlar tomonidan eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini cheklash, xorijiy kapitallarni jalb etish, kapitallarni chetga chiqib ketishini cheklash maqsadida odatda quyidagi chora-tadbirlar qo'llaniladi.

1. Deflyatsion siyosat. Bunday ichki talabni pasaytirishga qaratilgan siyosat fuqarolik maqsadlari, baholar va ish haqlarini muzlatishga mo'ljallangan budjet xarajatlari cheklovini o'z ichiga oladi. Uning muhim instrumentlari sifatida moliyaviy va pul-kredit choralari xizmat qiladi: budjet kamomadini kamaytirish, Markaziy bankning hisob yuritish stavkasini o'zgartirish (diskont siyosati), kredit cheklovlari, pul massasi o'simining chegaralarini belgilash. Iqtisodiy tushkunlik, katta ishsizlar armiyasi va foydalanilmagan ishlab chiqarish quvvatlari zahiralarning mavjudligi sharoitlarida deflyatsiya siyosati ishlab chiqarish hamda aholi bandligining yanada pasayishiga olib keladi.

2. Devalvatsiya. Milliy valyuta kursining pasayishi eksportni rag'batlantirishga va tovarlar importini pasaytirishga qaratilgandir. Biroq to'lov balansini muvofiqlashtirishdagi devalvatsiyaning roli uni o'tkazishning muayyan bir shart-sharoitlariga hamda ushbu jarayon paytidagi umumiy iqtisodiy va moliyaviy siyosatga bog'liq bo'ladi. Devalvatsiya faqatgina raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar eksporti salohiyatining mavjudligi hamda jahon bozorida yoqimli sharoit bo'lganidagina tovarlar eksportini rag'batlantiradi. Importni pasaytirish omili sifatidagi devalvatsiyaga kelsak, ishlab chiqarishni

baynalmilallashuvi va xalqaro ixtisoslashuvning rivojlanishi sharoitida mamlakat tovarlarni olib kirishni to'satdan qisqartira olmaydi.

Devalvatsiya importni qimmatlashtirgan holda mahalliy tovarlar ishlab chiqarilishida xarajatlar va baholarning o'sishiga hamda devalvatsiya evaziga tashqi bozorlarda erishilgan raqobat imtiyozlaridan ayirilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli devalvatsiya mamlakatga vaqtinchalik imtiyozlarni bersa-da, ko'p hollarda to'lov balansining kamomadi sabablarini bartaraf eta olmaydi. Kutilayotgan samaraga erishish uchun devalvatsiya yetarlicha miqdordagi hajmga ega bo'lishi lozim. Aks holda u faqatgina valyuta bozoridagi chayqov operatsiyalarini kuchaytirib yuboradi. Masalan, 1967-yil noyabr oyidagi funt sterlingni 14,3 foizga va dollarni 1971-yilning dekabrda 7,89 foizga devalvatsiyasi ushbu valyutalarga bo'lgan chayqov bosimini bartaraf eta olmadi. Shu bilan birgalikda devalvatsiyaning haddan tashqari katta hajmi boshqa valyutalar kurslari pasayishining zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradi va bunda o'z valyutasini devalvatsiya qilgan mamlakat rejalashtirgan raqobat imtiyozlaridan ayiriladi. Ba'zi mamlakatlar muntazam ravishda yopiq shakldagi devalvatsiya sifatida, ba'zi paytlarda qo'sh-qatlamli valyuta bozori shaklida valyuta kursining ko'p xilligini qo'llaydi. Valyutalarning erkin suzuvchi kurslar rejimini kiritilishi to'lov balanslarining muqobillashuviga olib kelmadi. Keskin tebranuvchan xarakterdagi devalvatsiyalarni tugatilishi ma'lum bir darajada chayqov kapitallarining xalqaro hisob-kitoblarga bo'lgan bosimini yumshatdi. Biroq erkin suzuvchi valyuta kurslari rejimi sharoitida devalvatsiyaning eksport va import qilinayotgan tovarlar baholari nisbatiga ta'siri deyarli yo'qqa chiqariladi. Shu sababli devalvatsiyaning samarasini ta'minlash uchun ko'pchilik mamlakatlar, ayniqsa rivojlanib borayotgan davlatlar eksport va importga tabaqalashtirilgan bojlar hamda subsidiyalarni kiritadilar.

3. Valyuta cheklovlari. Eksportyorlar valyuta tushumini muzlatish importyorlarga xorijiy valyutani sotishni litsenziyalash, valyuta operatsiyalarini vakolatli banklarda to'planuvi, kapital eksportini cheklash va uni chetdan oqib kelinishini rag'batlantirish hamda tovarlar importini cheklash orqali to'lov balansini kamomadini bartaraf etishga qaratilgandir. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshida joriy operatsiyalarning erkinlashtirilishiga qaramasdan erkin

muomalada yuradigan valyutaga ega mamlakatlarning taxminan 90 foizi kapitallarning xalqaro harakati bo'yicha cheklovlarni qo'llagan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ushbu cheklanishlarni 1990-yillarning boshiga kelib bekor qildilar.

4. Moliyaviy va pul-kredit siyosati. To'lov balansi kamomadini pasaytirish maqsadida eksportyorlarga budjet subsidiyalaridan, import bojlarini proteksionistik oshirilishidan, mamlakatga kapitallar oqib kelishi maqsadida qimmatli qog'ozlarning xorijlik egalariga to'lanadigan foizlardan olinadigan soliqni bekor qilinishidan, pul-kredit siyosatidan, ayniqsa hisobni yuritish siyosati va pul massasini targetlashdan (pul massasini har yillik o'sishining maqsadli yo'nalishlarini belgilash) foydalaniladi.

5. To'lov balansiga savdo balansi, "ko'zga ko'rinmaydigan" operatsiyalar, kapital harakati balansiga, uning asosiy moddalarini shakllanishi borasida, davlatning maxsus ta'sir choralari. Muvofiqlashtirishning muhim obyekti bo'lib savdo balansi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitlarda davlat tomonidan muvofiqlashtirish nafaqat muomala sohasini, balki eksport uchun mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish sohasini ham qamrab oladi. Tovarlarining sotilishi bosqichida eksportni rag'batlantirish mazkur tovarlar baholariga ta'sir etish orqali (eksportyorlarga soliq, kredit imtiyozlarini berish, valyuta kursining o'zgarishi va boshqa shu kabilar) amalga oshiriladi. Eksportyorlarda tovarlarni xorijga olib chiqish va xorijiy bozorlarni o'zlashtirishda uzoq muddatli qiziqishni yaratish uchun davlat ularga maqsadli eksport kreditlarini taqdim etadi, iqtisodiy hamda siyosiy tavakkalchiliklardan sug'urta qiladi, asosiy kapital amortizatsiyasining imtiyozli rejimini kiritadi va ularning ma'lum bir eksport dasturini bajarish bo'yicha majburiyatlari evaziga boshqa moliya-kredit imtiyozlarini taqdim etadi.

Eksportni rag'batlantirish uslublarining qo'llanilishi tobora komplekslashib bormoqda. Ular eksportyorlarni valyuta, kredit, moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllarini, shu jumladan, reklama, ma'lumotlar, kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Kapitalni chetga olib chiqish azaldan tovarlar eksportini rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Passiv to'lov balansida importni muvofiqlashtirish import o'rnini bosuvchi milliy tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va bu bilan importni qisqartirish orqali amalga oshiriladi.

To'lov balansining "ko'zga ko'rinmas" operatsiyalari bo'yicha to'lov va tushumlarni muvofiqlashtirish maqsadida quyidagi choralar ko'riladi:

- ushbu mamlakat turistlari tomonidan valyutani chetga olib chiqish me'yorini cheklash;

- xorijlik turistlarni jalb etish maqsadida turistik infratuzilmani tashkil etishda davlatning to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ishtiroki;

- "Transport" moddasi bo'yicha xarajatlarni kamaytirish maqsadida budjet mablag'lari hisobiga dengiz kemalari qurilishiga ko'maklashish;

- patentlar, litsenziyalar, ilmiy-texnik bilimlar va boshqa shu kabilar bilan savdodan tushumlarni ko'paytirish maqsadida ilmiy-tekshirish ishlariga davlat xarajatlarini kengaytirish;

- ishchi kuchining migratsiyasini muvofiqlashtirish. Xususan, xorijlik ishchilar pul o'tkazmalarini qisqartirish maqsadida mamlakatga chetdan kelayotganlar kirishini cheklash.

Kapitallar harakatini muvofiqlashtirish bir tomondan milliy monopoliyalarning tashqi iqtisodiy ekspansiyalarini rag'batlantirishga, boshqa tomondan esa xorijiy kapitallarning oqib kelishi va milliy kapitallarning repatriatsiya qilinishini rag'batlantirish orqali to'lov balansini muqobillashtirilishiga qaratilgan. Ushbu maqsadga davlatning xorijiy xususiy investitsiyalar uchun va tovarlarni chetga olib chiqishga yoqimli sharoitlar yaratib beruvchi kapitallar eksportyori sifatidagi faoliyati bo'ysungan. Investitsiyalar bo'yicha hukumat kafolatlari tijorat va siyosiy tavakkalchiliklarni sug'urtalashni ta'minlaydi.

To'lov balanslarini balanslashtirish usullari. Rasmiy asosda to'lov balansi har qanday balans singari muqobillashgan. Chunki asosiy va balanslovchi moddalarning yakuniy ko'rsatkichlari bir-birini so'ndiradi. Agar joriy moddalar bo'yicha to'lovlar tushumlardan ko'p bo'lsa, unda to'lov balansi saldosi muvofiqlashtirishning manbalari va uslublarini xarakterlaydigan balanslovchi moddalar hisobiga kamomadni qoplash muammosi tug'iladi. Buning uchun an'anaviy ravishda xorijiy zayomlar va kapitallarni olib kirish ishlatiladi. Bu yerda gap to'lov balansini muvaqqat balanslashtirish usublari haqida ketmoqda, chunki qarzдор mamlakatlar foizlar va dividendlar hamda zayomlar summasini to'lashga majbur. To'lov balansining

kamomadini qoplash uchun XVF zahira (shartsiz) kreditlarni taqdim etadi. Ularning hajmi katta emas va mamlakatlar o'rtasida kvotalarining (badallarining) 25 foizi chegarasida notekis taqsimlanadi. Ushbu zahira pozitsiyasidan ortiq bo'lgan kreditlar XVF barqarorlashtirish dasturlarining qat'iy talablari bilan izohlanadi.

Rivojlangan davlatlar to'lov balansi kamomadini qoplashning manbalarini qidirishda jahon kapitallari bozoridan mablag'larni bank konsortsiumlari kreditlari, obligatsiya zayomlari shaklida jalb etadilar. Bunga asosan to'lov balansi kamomadini qoplashda tijorat banklari (ayniqsa yevrobanklar) faol ishtirok etadilar. Bank kreditlarini xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining kreditlariga nisbatan imtiyozli tomoni shundaki, ularni olish oson hamda ular barqarorlashtirish dasturlari bilan izohlanmagan. Biroq bank kreditlari nisbatan qimmatroq va yirik tashqi qarzi bor davlatlar uchun ularni olish qiyinroqdir. Masalan, Amerika banklari muntazam ravishda ba'zi mamlakatlarni (asosan, rivojlanib borayotgan davlatlarni) "qora ro'yxatga" kiritib boradilar. Shu bilan birgalikda xususiy banklar va xalqaro valyuta-kredit hamda moliya tashkilotlari faoliyatlarini koordinatsiya qilinishi tendensiyalari kuchayib bormoqda.

Balans passiv saldosi qoplash uchun markaziy banklar tomonidan milliy valyutada o'zaro taqdim etiladigan, "svop" shartnomalari bo'yicha qisqa muddatli kreditlar ishlatiladi.

1970-yillarning o'rtalaridan to 1980-yillarning o'rtalarigacha rivojlangan davlatlar o'z to'lov balanslari kamomadini qoplashda neftdollarlardan, neft qazib chiqaruvchi mamlakatlarning neft eksportidan olingan valyuta tushumini qayta taqsimlash (resiklirovanie) orqali faol foydalangan.

To'lov balansi kamomadini qoplashning muvaqqat uslublariga yana mamlakatning xorijiy yordam yo'nalishi bo'yicha olingan imtiyozli kreditlari kiradi.

To'lov balansini muqobillashtirishga xorijiy kreditlarni faol ravishda jalb etilishi munosabati bilan tashqi qarz (majburiyat) global muammoga aylandi. To'lov balansini muqobillashtirishning yakuniy uslubi bo'lib rasmiy valyuta zahiralardan foydalanish hisoblanadi. To'lov balansini muqobillashtirishning yana bir yakuniy uslubi bo'lib subsidiyalar va sovg'a shaklidagi xorijiy yordam hisoblanadi. Masalan, 1947-yilda G'arbiy Yevropa davlatlari to'lov balanslari yalpi

kamomadining 75 foizi AQSHning moliyaviy yordami hisobiga qoplangan edi.

To'lov balansining aktiv saldosi davlat tomonidan mamlakatning tashqi qarzini (shu jumladan, muddatidan avval) so'ndirish, xorijiy davlatlarga kredit berish, o'zining rasmiy oltin-valyuta zahiralari kengaytirish, xorijda ikkinchi iqtisodiyotni barpo etish maqsadida kapitalni chetga olib chiqish uchun ishlatiladi.

Zamonaviy, yangi ko'rinish sifatida 1970-yillardan boshlab to'lov balansini davlatlararo muvofiqlashtirish namoyon bo'ldi. U jahon xo'jaligining globallashuvi va milliy muvofiqlashtirishning yetarlicha samaradorlikka ega bo'lmaganligi oqibatida paydo bo'ldi. Takror ishlab chiqarishning tashqi omillari rolining oshib borishi bilan to'lov balansini uzoq muddatli muvozanatsizligi alohida mamlakatlar iqtisodiyoti va jahon xo'jaligidagi disproporsiyalarni kuchaytirib yuboradi. Shu sababli yetakchi davlatlar to'lov balansini kollektiv muvofiqlashtirishning uslublarini ishlab chiqmoqdalar. To'lov balanslarini davlatlararo muvofiqlashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: eksportni davlat tomonidan kreditlash shartlarini kelishib olish, ikki taraflama hukumat kreditlari, markaziy banklarning "svop" shartnomalari bo'yicha milliy valyutalardagi qisqa muddatli o'zaro kreditlari, xalqaro moliya institutlari, birinchi navbatda XVFning kreditlari.

Yevropa Ittifoqida to'lov balansining davlatlararo muvofiqlashtirilishi quyidagi asosiy uslublarda amalga oshiriladi:

a) bojxona bojlarining bekor qilinishi, 1968-yilning 1-iyulidan bojxona ittifoqining yaratilishi va uchinchi davlatlarga nisbatan yagona tashqi tarifning kiritilishi;

b) soliq tizimini soddalashtirish;

d) tovarlar eksportini kreditlash shartlarini o'zaro kelishish.

Shunday qilib, to'lov balansini muvofiqlashtirish jarayoni ancha murakkablashdi, uning instrumentlari ko'paydi, qo'llanilishi esa iqtisodiy siyosatning boshqa shakllari bilan birgalikda muntazam tus oldi.

Nazorat savollari:

1. To'lov balansi deganda nima tushuniladi?
2. To'lov balansining tuzilish tamoyili qanday?
3. To'lov balansi qanday qismlardan iborat?
4. To'lov balansining qanday asosiy turlari mavjud?
5. Savdo balansini tushuntirib bering?
6. Xizmatlar balansini tushuntirib bering?
7. Joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansini tushuntirib bering?
8. Kapitallar va kreditlar harakati balansini tushuntirib bering?
9. To'lov balansining qanday ko'rsatkichlari mavjud?
10. To'lov balansi moddalarini tasniflashning qanday uslublari mavjud?
11. To'lov balansi saldosi o'lchashning qanday uslublari mavjud?
12. To'lov balansiga qanday omillar ta'sir etadi?
13. To'lov balansini muvofiqlashtirishning qanday uslublarini bilasiz?
14. To'lov balansining saldosi milliy valyuta kursiga qanday ta'sir etadi?

IX BOB. ISLOM BANK TIZIMI

Reja:

9.1. Islom banklarining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
Islom moliya institutlarining an'anaviy moliya institutlaridan farqli tomonlari.

9.2. Islom moliyaviy instrumentlari: mushoraka
(Mushaarakah), mudoraba (Mudharaba), murobaha
(Murabaha), ijara (Ijara), Qard ul-Hasan (Qard-ul-Khasan).

9.3. Islom bank mahsulotlari va ularning turlari.

9.4. Islom bank faoliyatida risklarni boshqarish.

Tayanch iboralar

Bank, operatsiya, faoliyat, qonun, yondoshuv, rag'batlantirish, mukofot, kredit, investitsiya, bank kredit portfeli, operatsiyalari, bank vositachilik operatsiyalari, bank risklari, bank risklarini boshqarish.

9.1. Islom banklarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. **Islom moliya institutlarining an'anaviy moliya institutlaridan farqli tomonlari**

Islom moliyasining bosh o'ziga xos xususiyati sudxo'rlik foizidan voz kechishdir, barcha g'arb moliya tizimi umumqabul qilingan foizlarga asoslangan. Bu, albatta, tijorat qarzlarini umum xayr-saxovatga berilayotganligini anglatmaydi. Kapital egasini ozgina haq olishi oldindan belgilangan summani to'lash shaklini olmasligi kerak, agar u foiz olsa ana shunday holat sodir bo'ladi. Islom e'tiqodlariga asosan odillik va haqqoniylik shundaki, boylikning manbasi, eng avvalo,, bandaning mehnati va egasining ishbilarmonlik harakati hamda qolgan meros yoki taqvodorlik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, foyda qilingan risk uchun olingan xayr-in'om hisoblanadi, bu barcha o'zini bilgan korxonani harakati ketidan keladigan natija singari.

Islom iqtisodchilari sudxo'rlik foizini taqiqlash uchun har xil asoslangan ratsional dalillar keltiradi, ya'ni foiz undirish usuli bilan o'zga insonni ekspluatatsiya qilishga imkon beriladi va bank tizimida

esa iqtisodiy inqirozlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oxir-oqibat sudxo'rlik foizidan voz kechish Islom dinida vasiyat qilingan chaqiriqdir. Musulmon kishining hayot sohalari, shu jumladan, moliyaviy faoliyati ham muqaddas Qur'oni karimda qayd etilgan hamda shariatni yig'ma huquqiy va diniy oyatlarida qayd etilgan.

Muqaddas Qur'oni karimning asosiy tushunchasi shuni targ'ib etadiki har qanday musulmon bandasi o'zining moliyaviy amaliyotida "riba" va "garar"dan qochishi kerak. Riba (so'zining boy tarjiması ortiqchalik) kapitalni xohlagan shaklda qarzga beribni yoki savdo kelishuvi bilanmi to'g'ri deb bo'lmaydigan va asossiz ko'paytirishni anglatadi. Bu ham xuddi garar singari juda og'ir gunohdir, chunki riskni bilaturib, har xil tasodiflardan qocha olmasligini his qilib kelishuvdan foydalanishdir. Ko'pgina Islom olimlari "riba" tushunchasini nafaqat yuqori sudxo'rlikni anglatadi deydi, balki boshqa xohlagan sudxo'rlik foizlarini ham bu tushunchaga qo'shishadi, o'z vaqtida "garar"ni aniqlaganda ham barcha spekulativ operatsiyalarni uni tarkibiga olib borishadi.

Musulmon bandasi hech qachon unutmasligi kerakki barcha yer yuzidagi ne'matlar Ollohning in'omidir, faqat ugina uning mulkdoridir. Insonga ishonib topshirilgan ishlab chiqarish resurslari, butun jamiyat ehtiyojini qondirish yo'lida ishlamog'i lozim. Shariat me'yorlariga asosan qaysidir bir ishga yoki faoliyatga sarflanmagan puldan xayr-ehson solig'i olinib faqirlar va kambag'allarga sarflanishi kerak. Agar insonni o'zi topgan pulini oborotga qo'yishga noqodir bo'lsa, uni boshqa korxona faoliyatiga tikib, uning daromadidan ulushini olishi zarur. Bizga ma'lumki, Muhammad payg'ambarimiz (Rasululloh sallallohu alayhi vasallam) juda omadli savdogar bo'lganlar, uning savdo operatsiyalariga juda boy beva Xadicha ayamiz o'z mablag'larini tikkanlar va oxir-oqibatda payg'ambarimizning mahramiga tushganlar. Bir yarim ming yil avval, Islom dini yaratilgan vaqtdagi moliyaviy operatsiyalar nomlari hozir ham davom etmoqda va o'sha tartib qoidalarga asoslangan. Shuning uchun ham Manamadagi, Kuala-Lumpurda va Londondagi hozirgi zamon Islom banklari barcha moliyaviy xizmat turlarini azaliy tamoyillarga amal qilib xizmat ko'rsatib keimoqda.

9.2. Islom moliyaviy instrumentlari: mushoraka (Mushaarakah), mudoraba (Mudharaba), murobaha (Murabaha), ijara (Ijara), Qard ul-Hasan (Qard-ul-Khasan).

ITB o'z faoliyatini yuritishda uchta tamoyilga amal qiladi.

Birinchi tamoyil (musharaka)—ma'lum loyihani amalga oshirish uchun bank partner bilan hamkorlikka kirishishni ko'zda tutadi (hamkor bank ulushini asta-sekin sotib olish huquqi bilan). Bunda bank ulushi va uning hamkori ulushi foydada umumiy koeffitsiyent bo'lib, kelishuvlar bilan qayd etiladi, lekin bu tomonlarni kapital qo'yilmasi ulushini anglatmaydi.

ITB tomonidan ishlatiladigan ikkinchi tamoyil (mudaraba) – bu, bank va sanoat kapitalining qo'shilishini anglatadi. Bunda, bank kapital taklif etadi, hamkor esa g'oya va loyihani tayyorlashni; foyda va ziyon ular o'rtasida oldindan kelishilgan shartnoma asosida bo'linadi.

Uchinchi tamoyil (murabaxa)-bank hamkor uchun ma'lum kommissiyaga asosan uni hamkorga sotish uchun tovar sotib oladi.

O'z faoliyati davomida islom banklari quyidagi moliyaviy instrumentlaridan foydalanadi:

- *Musharaka* – (muntazam hamkorlik) – faoliyat shartlari va muddatlariga rozi bo'lgan holda biznesning barcha qatnashchilari biznesga qo'yilgan boshlang'ich qo'yilma kapitallaridagi foyda va zararlarni proporsional bo'lib oluvchi hamkorlar sifatida harakat qiladilar.

- *Mudoraba* (ixtisoslashgan hamkorlik) – bu, ishonchli moliyalashtirish bo'lib, pul mablag'laridan foydalanishdagi eng to'g'ri va samarali bitim hisoblanadi. Bunday holatda bank omonatchilar mablag'lari bilan trast boshqaruvchisi sifatida ishlaydigan bo'lsa loyihani moliyalashtirish esa mijoz bilan harakat qiladi. Sun'iy tarzda foizli pullarni shakllantirish evaziga emas, balki tuzilgan bitim har tomonlama real holatda bo'lgani uchun samara to'g'ri aniqlanadi. AQSH va Yevropa davlatlarida bu tizimga o'xshashlar keng tarqalgan bo'lib, ular korxonalar va venchur fondlar bilan o'zaro munosabatlarda o'z o'rniga ega.

- *Murabaxa* (savdoni moliyalashtirish) – bank va uning mijozi o'rtasida tovarlarni maxsus narxlar bo'yicha sotuvi haqidagi o'zaro

kelishuvini bildiradi. Bu narxda oldindan kelishilgan bank foydasini tashkil etuvchi marja yotadi. Bank mijozining talabi bo'yicha xorijdan yoki ichki bozordan tovar xarid qiladi, keyin bitim shartlariga ko'ra uni bir vaqtda sotadi yoki muddatini uzaytirishi mumkin.

• *Ijara* (lizing) – mijoz uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bank tomonidan ijaraga beriluvchi uskunadan foydalaninishda tuziladigan shartnoma. Lizingga olish rivojlangan davlatlarda kreditlashning eng samarali shakllaridan biri sifatida keng tarqalgan. Bunda ijara muddati tugashi bo'yicha uskunani keyinchalik sotib olish varianti ko'rilgan.

• *Qard ul-Xasan* (hayriya krediti) – tashkilot yoki shaxslarga taqdim etiladigan foizsiz ssudalar. Agar shaxsning berilgan ssudaning qaytara olmasligi avvaldan aniq bo'lsa, pullar majburiyat yoki ixtiyoriy hayriya shaklida taqdim etilishi mumkin.

Islom banklari deyarli barcha an'anaviy bank operatsiyalarini olib boradi: depozit, kredit, akkreditivli, veksellarni hisobga olish, barcha turdagi hisob va to'lov operatsiyalari, qishloq xo'jaligi va sanoatga mablag'lar investitsiya qilish, savdoni kreditlash, xizmatlar sferasi, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish. Ular musulmon davlatlari iqtisodiyotida o'z o'rnini mustahkam egallashgan. So'nggi yillarda islom banklari xalqaro moliya bozorlarida mijozni jalb etish va yaxshi foyda ko'rsatkichlari bo'yicha an'anaviy banklar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmoqda.

Ma'lumki, mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mamlakat xomashyo potensialidan foydalanish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektoriga kapitallarni to'g'ridan to'g'ri qo'yilma qilishi zarur. Ushbu yo'nalishda ba'zi islom banklari ishlab chiqarish sferasiga mablag'larni investitsiya qilish bo'yicha yetarli darajada keng shug'ullanadilar, jumladan, mahalliy sanoatga. Albatta, bu ishlar oldindan olib borilgan investitsion loyiha har tomonlama tahlillari asosida amalga oshiriladi. Chunki o'tish davrlarida tadbirkorlik potensialiga ega bo'lgan kredit to'loviga layoqatsiz mijozlarning kredit mablag'larida ulushi ko'p bo'ladi. Odatiy banklar yuqori foyda kutilayotgan juda yaxshi fikrlar berilgan loyihalarni ko'rib chiqmaydi. Islom moliyalashtirish usullari o'z tajribalaridan

foydalangan holda tadbirkorlarga xususiy biznesni tashkillashtirish imkoniyatini beradi.

KPMG xalqaro konsalting firmasi 2010-yilning aprel oyida Islom bank va moliya tizimiga bag'ishlangan o'zining ilmiy qidirish yakunlarini keng matbuotda chop etishdi. Ekspertlarning ma'lumoti bo'yicha bu moliya institutlarining dunyo iqtisodiyotiga ta'siri yildan-yilga oshib bormoqda. Musulmon banklarining yanada intensiv rivojlanishi AQSH va Buyuk Britaniya davlatlarida faol kuzatilmoqda, G'arb firmalarining Sharq investorlarini jalb qilish uchun Islom standartlarini o'zlashtirishga nima majbur qilmoqda?

Yaqin Sharq kredit muassasalarining rivojlanish tarixi 30 yildan ozgina oshiq davrga to'g'ri keladi. Mana shu qisqa muddat ichida Islom moliya institutlari muhim yutuqlarga erishishdi. KPMG ma'lumotiga qaraganda hozirgi paytda ular dunyoni 75 davlatida o'z faoliyatini olib bormoqda. Ularning umumiy aktivi 300 milliard dollardan oshib ketdi. Dunyoning turli iqtisodiyotiga kiritilgan Islom investitsiyasi miqdori 400 milliard dollardan oshib ketgan. Ilmiy tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, barcha ushbu ko'rsatgichlar o'rtacha yiliga 15 foizdan o'sib bormoqda. "Yaqin yillarda bu bozorning o'ta sezilarli darajada o'sishi musulmon davlatlarining katta qismi neft boyligi bilan ta'minlansa, yana shariat qonuniga muvofiq beriladigan investitsiyaga yashirin talab borligi oqibatida sodir bo'ladi" deb KPMG ilmiy tadqiqotchilari qayd etmoqda.

Musulmon moliya tashkilotlari, asosan, Yaqin Sharq, Malayziya va Buyuk Britaniya davlatlarida to'planganiga qaramay, ularning xizmatlariga talab butun Osiyo, Yevropa va AQSH bo'yicha mavjuddir. Shuni alohida qayd etish lozimki, "RBK daily" ekspertlarining so'ralgan fikrlari xulosasiga ko'ra, Islom moliyachilarining bosh obyekti bo'lib AQSH hisoblanadi. "Biz Yaqin Sharqdan Buyuk Britaniya va Lyuksemburg orqali AQSH sari juda katta kapital oqimini kuzatmoqdamiz" – deb qayd etdi. "RBK daily"ning Yevropa iqtisodiy-ilmiy bo'lim boshlig'i Veryonika Rish-Flor.

Hozircha musulmon moliya tashkilotlarining bosh mijozlari, eng avvalo, musulmonlar hisoblanadi. Butun Jahon bo'yicha ularni soni 1.6 milliard kishini tashkil etadi. Ammo Yaqin Sharq investitsiyasiga boshqa din vakillari ham qiziqish bildirishmoqda. Vaholanki, bu

yo'lda hali ancha-muncha to'siqlar ham mavjud. Xususan, Sharq xazinasiga yo'l topishni shariat tizimi va normalari ancha-muncha qiyinlashtiradi, chunki Islom banklari pul mablag'larini unga muvofiq berishadi.

Kredit berish tartibining juda keng tarqalgan chizmalaridan biri "sukuk" deb ataladi. Uning mazmuni shundan iboratki, musulmon kredit tashkilotining g'arb kredit muassasasidan farqi, berilgan summadan foiz olmaydi, balki qarzdor kompaniyaning daromadidan ulush oladi. 2006-yilni 1- choragida shunga o'xshash kreditning hajmi 18 milliard dollarni tashkil etgan, shundan davlat tashkilotlariga bor-yo'g'i 6 milliard dollari to'g'ri kelgan. "Sukuk" tizimi analitiklarning baholashiga qaraganda, sinditsirovanlashgan moliyalashtirishga alternativ sifatida butun jahon bo'yicha keng tarqalmoqda.

Barcha holatlarga qaramay G'arb, Sharqdagi pul mablag'larini jalb qilishdan aniq manfaatlardir. Misol uchun, 2004-yilda Germaniya yerlaridan biri - Saksoniya - "sukuk" sharti bilan 120 million dollardan oshiq kredit mablag'larini jalb qilganlar. AQSH da "sukuk" asosida, Meksika bo'g'ozidagi o'zining uglevodorod zaxirasi kafolati ostida qazib olish bilan shug'ullanadigan "East Cameron gas company" kompaniyasi 165 million dollar miqdorida birinchilardan bo'lib mablag' olgan.

"RBK daily"ning ekspertlari o'tkazgan so'rovnoma baholariga qaraganda, shariat tizimi bo'yicha kredit olishni yana ham faol rivojlanishiga qator siyosiy omillar ham to'siq bo'lmoqda. "Yaqin Sharqda mavjud bo'lgan siyosiy beqarorlik Islom investitsiyasini jalb qilishni keskin o'sishiga halaqit bermoqda. Bularni hammasi musulmon moliya institutlaridan Yevropa biznesiga kreditlarni jalb etishning qiyinlashtirmoqda", deb hisoblaydi Rish-Flor. Ammo ehtimoldan holi emas, yaqin vaqtlarda jahon biznesi, xuddi Yaqin Sharq neftsiz yashay olmaganidek, Islom investitsiyasiz faoliyatini rivojlanishi mushkil masalaga aylanishi tabiiy holdir. O'z navbatida, jahonda sodir bo'layotgan yangi iqtisodiy realliklar G'arb davlatlarini ularni nafaqat arzon xomashyo bilan, balki moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlayotgan davlatlarga o'z munosabatini juda jiddiy qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqdalar.

9.3. Islom bank mahsulotlari va ularning turlari

Islom banklari foiz o'rniga omonatchiga korxonaning daromadiga ishtirok etish huquqini taklif qilishi mumkin, albatta bu yerda bitta juda qattiq va muqarrar shart ilgari suriladi, ya'ni agar omonatchi pul qo'ygan korxona foyda o'rniga ziyon ko'rsa, o'sha ko'rilgan ziyonni ham omonatchi bo'lishishi shart.

Islom banklari mijozlar uchun uchta tipdagi hisob raqamlarini ochishadi.

Birinchisi, bu joriy hisob raqami, uning shart-sharoitlari g'arbiy banklarida shunaqangi turda ochiladigan hisob raqami shart-sharoitlaridan umuman farq qilmaydi.

Ikkinchi turdagi hisob – bu, jamg'arma omonat raqami. Bu hisobning egasi foydaga ishtirok etish huquqiga ega emas, ammo bank ma'muriyati omonatchilarni jalb etish maqsadida, bankning foydalar darajasidan kelib chiqib, ularga o'z ixtiyori bilan mukofot berishi mumkin. Yig'ilib boriladigan jamg'arma omonati muddatli hisoblanmaydi, ammo uni nominal miqdori kafolatlanadi. Yig'ilib boriladigan omonatdan tushgan mablag'larni Islom banklari ham riskga ega bo'lgan operatsiyalar uchun tikishga harakat qilishadi, odatda savdo kelishuvlarini moliyalashtirishga ishlatishadi.

Va nihoyat, uchinchi – investitsion turdagi hisob. Uning egasi bank bilan uni olgan foyda va ziyonini bo'lishish huquqiga ega bo'ladi. Omonatchilar o'zining omonati bo'yicha daromad olishadi, tartibga ko'ra odatdagi banklar singari to'lanadigan foizga tenglashadi. Ammo bunda daromad kafolatlanmaydi. Bundan tashqari, sarflangan kapitalni o'zi ham kafolatlanmaydi, chunki bank ziyonni investitsion omonat mablag'i hisobidan qoplaydi. Agar bank mijozni mablag'ini mohirona boshqara olmagan holatida yo'qotish yuzaga kelgan bo'lsa, unda sud orqali qoplashni talab qilsa bo'ladi.

Shunday qilib, Islom ta'limoti bilan pul resurslarini safarbar qilish, shu jumladan, banklar uchun ham ulushbay moliyalashtirish hisoblanadi, ya'ni sarmoyadorni aksioner kapitalga ishtirok etishi hisobidan mablag'lar jalb etiladi. Kapitalni o'sishi yoki ko'payishi pul aylanishi sohasida sodir bo'lishi mumkin emas, uni asosida tovarlar va xizmatlarga real taalluqli bo'lgan kelishuvlar yotishi kerak. Pul o'a-

o'zidan yangi pulni tug'ishi mumkin emas, shuning uchun ham kapital ishlab chiqarish maqsadida ishlatilishi zarur.

Ko'pgina iqtisodchilar shuni qayd etishadiki, ulushbay moliyalashtirishda ancha-muncha afzalliklar yashirilib yotibdi. G'arb iqtisodiyotida ssuda foizining miqdori, o'z navbatida, Markaziy bankni hisob (qayta moliyalashtirish) stavkasini belgilanishiga bog'liq, ammo real sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoit amriga ham bo'ysunadi. Islom moliya tizimida omonatlar bo'yicha daromad olish yoki olmaslik, bank tomonidan omonatchini kapitali qo'yilgan kompaniyani aksiyasini foyda olish yoki olmasligiga bog'liqdir. Shunday qilib, real sektorni rivojlanish dinamikasi investitsion muhitni yoqimtoy bo'lishini rag'batlantiradi va moliyaviy resurslarni iqtisodiyotni yana ham ko'proq natija beradigan tarmoqlari foydasiga samarali qayta taqsimlanishini ta'minlaydi.

90-yillarda Xalqaro valyuta fondining (XVF) ijrochi direktori bo'lib ishlagan pokistonlik Abbos Miraxorning fikriga qaraganda, Islom modeli bo'yicha moliyalashtirishni hayotga to'liq tatbiq etish real sektorni bank kapitali manfaatiga bog'liqlik halatini tugatish imkonini beradi. "Pul aktivlari real sektorni investitsion imkoniyatlariga javob sifatida shakllanadi, shuni uchun faqatgina real sektor moliya sektorida daromad stavkasini aniqlaydi, lekin uni teskarisini emas", deb hisoblaydi janob Abbos Miraxor. Shunday qilib, banklar real iqtisodiyotni rivojlanish darajasini belgilamaydi, balki ishlab chiqarish sektori o'zi uchun qulay va ma'qul investitsion muhitni yarata boshlaydi.

Mijozlarni qiziqtirish. Islom tizimida ko'pgina istiqboli bor loyihalar odatdagi banklar tomonidan garov mulki yo'qligi uchun chetga surib qo'yiladigan loyihalar Islom banklaridan foydaga sheriklik asosida moliyalashtirishi mumkin. Ammo real holatda kichik va o'rta biznes tadbirkorlari arab davlatlarida ular yalpi ichki mahsulotni (YalM) asosiy qismini yaratishiga va banklarni mijoz bazasini juda katta qismini tashkil etishiga qaramay, kredit olishda ma'lum qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi. Bu, asosan, foydani bo'lishda murakkablik mavjudligi va loyihani baholashda mehnati ko'p mexanizmi o'rnatilganligi bilan bog'liqdir.

Islom bankiri qarz berish to'g'risida qarorni tatbiq qilish uchun taklif qilingan loyihani kelajak istiqbolini o'rganish hamda mijozni

ishchanlik sifatidan kelib chiqib hal qiladi. Juda ko'p holatlarda undan garov uchun mol-mulk talab etilmaydi. Bu mijoz tarafdin va bank ma'muriyati tomondan hiyla-nayrang ishlatish xavf-xatarini keltirib chiqarishi mumkin. Foydaga ishtirok etish operatsiyalarida mijoz hisobotlarni qalbakilashtirishlarga urinishi va loyihani real daromadini bankdan yashirishi mumkin. Murabaxa (qarzni kechiktirilgan summasini to'lash va "xizmat haqi uchun" ustama to'lash) chizmasi bo'yicha savdo operatsiyalarini moliyalashtirishda mijoz to'lovlarni vaqtida to'lamay nafs balosiga berilib ketib, mol-u dunyo orttirishi mumkin.

Shunga o'xshash risklarni kelib chiqmasligi uchun G'arb banklari amaliyotida qo'llaniladigan protseduraga o'xshagan maxsus usullar qo'llaniladi, bunaqangi mansabni suiste'mol qilishlardan Islom banklari ham holi emas. Firibgarlarga qarshi kurashishning bosh usuli – mijoz-korxonaning barcha operatsiyalarini astoydil audit qilish hisoblanadi. Islom banki rahbariyatining biron bir a'zosi bank tomonidan moliyalashtirayotgan korxonani hisobotida ko'rsatgan ziyonni tanho o'zi tan olish huquqiga ega emas. Buning uchun bank boshqaruvining barcha a'zolari kollegial qaror qabul qilishish kerak. Agar loyiha mo'ljallangan foyda darajasiga yetmasa maxsus erkin qo'mita korxona balansini chuqur o'rganadi. Agar mabodo daromad yashiringanligi aniqlansa, unda mijoz yetmaydigan summani majburiy ravishda to'laydi. Bank yana aksionerlik huquqidan foydalanib insofsiz korxona menejerini almashtirishi mumkin. Juda og'ir holatlar yuzaga kelsa, bank o'z mablag'ini chaqirib olishi mumkin va tartib buzar korxonani "qora ro'yxatga" qo'shib qo'yadi. To'lovni qaytarish muddati cho'zilib ketsa ushbu ish sudga beriladi, u mijozga zarur summani va dastlabki shartnomada qayd etilgan jarimani to'lattiradi.

Islom tizimiga o'tilishida ichki qarz hisobidan davlat xarajatlarini moliyalashtirishda juda og'ir muammolar yuzaga keldi, chunki foizli obligatsiyalarni chiqarish mumkin emas. Misol uchun, Eronda davlat qarzini moliyalashtirishda bank tizimi foizsiz faoliyat ko'rsatishga o'tgandan keyin ham kredit hisobidan amalga oshirilmoqda. Bunda markaziy bank milliy tijorat banklariga qayd etilgan foiz stavkasi asosida resurs berish hisobidan amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari esa, o'z navbatida, imtiyozli shartlar bilan davlat sektori korxonalariga qarz bermoqda.

1995-yili Eron davlati maxsus Islom obligatsiyasini sotuvga chiqardi, unda sobiq davlat korxonalarini aksiyalari rejalashtirilgan privatizatsiya jarayonida obligatsiyalarga almashinildi. Safarbar etilgan zayom mablag'lari ularni isloh qilishga va modernizatsiya qilishga yo'naltirildi, obligatsiyalarning daromadlilik kompaniyalarni foydasidan kelib chiqib aniqlandi va foyda davlat zayomini ta'minlash fondiga qo'shildi. Obligatsiya chiqarishda Malayziya tajribasidan foydalanildi, chunki xuddi shunga o'xshash qimmatli qog'ozlar bundan oldinroq ularda paydo bo'lgan edi.

jozibadorlik g'oyasi. Islom banklari uchun loyihani moliyalashtirishga ulush bilan ishtirok etish nazariyasi juda ham maqbul turdagi operatsiya bo'lishiga qaramay, haqiqatda Islom banklarining aktivlar portfelining katta qismi qisqa muddatli savdo kelishuvlarini moliyalashtirishga to'g'ri keladi. Banklar xizmat ko'rsatish ustamalari (murabaxa) hisobidan foyda oladi. Bank resurslarini qisqa muddatli aktivlarga to'planishining nomaqbulligi shundaki, u uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga yetarli darajada rag'batlantirmaydi.

Bahrayn Faisal Islamic Bank Prezidenti Sayd Yusefning fikriga qaraganda, Islom banklaridagi bu holatning asosiy sababi ikkilamchi moliya bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligini urg'u berib ko'rsatadi. Uning so'zlariga qaraganda keyingi yillarda Islom aksiya bozorining faol o'sishi, Islom investitsion fondlarining rivojlanishi va yangi moliyaviy instrumentlarni paydo bo'lishi o'zgarishlarga zamin yaratmoqda.

Hozir Islom banklari qisqa muddatli 5-6 foiz daromad beradigan instrumentlar taklif qilmoqda. "Biz "kvant sakrashi" kabi o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilmoqdamiz, loyiha moliyalashtirilishi sohasida va kapitalni daromadlilik darajasini o'n besh, yigirma va hattoki o'ttiz foizga yetkazib, o'rta va uzoq muddatli kreditlashga o'tmoqdamiz", deb hisoblaydi taniqli moliyachi Madjid al-Refay, u "First Investment Bank of Bahrain" asoschisi, hozirda Quantum Financial Advisor xalqaro Islom investitsion kompaniyasining rahbari.

Ko'pgina mutaxassislarning fikriga qaraganda, Islom banklari tajribasidan kelib chiqib, G'arb moliya tizimi o'ziga muhim dars va saboq olmog'i darkor: bank jamiyatining manfaatlar nafsoniyati real sektorni tomog'idan bug'uvchi qurolga aylanmasligi, loyihani moliyalashtirish to'g'risidagi qaror chayqovchilik singari yuqori foyda

olaman deb zavqlanish xayoliyligiga bormasdan, loyihani o'zini kelgusidagi foydaliligini inobatga olib javobgarlikni baholash bilan qaror qabul qilinishi kerak. G'arb ishbilarmon doirasining obro'li organi hisoblangan – Economist jurnali Islom moliya operatsiyalaridan biri musharak (bankni korxonani foydasi va ziyoniga ishtirok etishi) to'g'risida quyidagilarni yozgan edi: "G'arbda ba'zi bir odamlar bu g'oyani e'tiborga molik deb qaraydilar. Bunda kimda kim pul berayotgan bo'lsa, unga juda kuchli rag'bat beradi, chunki uning tikkan puli yordamida shunday bir sezilarli narsa yaratilayotganiga amin bo'ladi. Ming afsuski, G'arb banklari, 70-80-yillar davomida investitsiyalar to'g'risida qator qarorlar qabul qilgan bo'lsalar-da, bunaqangi rag'batni natijalarini his qilmaganlar. Albatta musharakda barcha puldan foydalanuvchilar o'rtasida javobgarcpilikni bo'linishi ham qayd etiladi".

9.4. Islom bank faoliyatida risklarni boshqarish

Shariatning "Tijorat" me'yorlari ilohiyat tomonidan o'ylab topilmagan. Qur'oni karim nozil bo'lishiga qadar ishbilarmonlarning axloq va odobga to'g'ri keladigan faoliyat tartiblari shariat me'yorlarida kodekslashtirilgan. To'g'ri, hattoki bugungi kunda ham Yaqin Sharqning hamma moliyaviy tarkibi ham shariat normalariga to'liq tayanib ish tutmaydi. Saudiya Arabistoni va Quvaytdagi Qirol oilasi o'zining kapitalini G'arb moliya bozoriga joylashtirganlar yoki yirik arab moliya-sanoat guruhlarini g'arbons biznes yuritish usullaridan foydalanib kelishmoqda. Islom davlatlarida g'arbons tipdagi moliyaviy muassasalar o'tgan asrning oxirlarida, asosan, Yevropa metropoliyasining yirik bank bo'limlari ko'rinishida paydo bo'lganlar. Lekin ularning faoliyati, asosan, xorijiy kompaniyalarni eksport-import operatsiyalari bilan chegaralangan xolos. Mahalliy savdo hamjamiyati milliylik va diniy tafovutlardan kelib chiqib g'arb banklari xizmatlaridan foydalanishmagan.

Iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonini amalga oshirilishi musulmon biznesmenlarining hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun banklarda joriy hisob raqamlarini ochishga majbur bo'lganlar, ammo ularning ko'plari hanuzgacha odatdagidek depozit foizlari va kredit olishdan voz kechib kelmoqda. Shuning uchun o'tgan asrning 40-

yillarini oxiridan boshlab qator Islom iqtisodchilari ssuda foizidan qochadigan "Islom kapitalizmining" moliyaviy modellari nazariyasini ishlab chiqishni boshlab yuborganlar.

Islom bank ishi faoliyatini boshlanishini aniq davri o'tgan asrni 60-yillarining boshlariga to'g'ri keladi. Birinchi Islom Jamg'arma banki Misr davlatida 1963-yili tashkil topgan, lekin uning faoliyati uzoq cho'zilmagan.

1970-yillarga kelib Islom moliyaviy institutlarini yaratish bo'yicha amaliy ishlar jonlanib ketgan. 1974-yilda Islom davlatlari tashkiloti shariat normalari asosida iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun davlatlararo Islom rivojlantirish bankini tuzish to'g'risida qaror qabul qildilar. 1975-yilda Dubai Islamic Commercial Banki tuzildi. Islom banklarini shakllanish bosqichida markaziy figuralardan biri bo'lgan, Saudiya Arabistoni Qirol oilasidan shahzoda Muhammad Fasal, hozirda Finance/DarAl Mal guruhining boshlig'i, shuningdek, shayx Salex Kamel, hozirda Aibaraca guruhining boshlig'i. 1977-yili Misr va Sudanda Faisal nomi bilan ikkita bank guruhini ochishdi. 1979-yili Bahraynda birinchi marotaba Islom banki tashkil etildi.

Islom banklarini yuzaga kelishiga psixologik asos bo'lgan, Yaqin Sharq keng aholisi o'rtasida an'anaviy Islomga ixlosmandlarning kuchayishi oqibatida "Islomning tug'ilishi" jarayoni - uning eng yuqori fazasi Eronda imom Xumayni tomonidan amalga oshirilgan revolyutsiya oqibatida sodir bo'ldi. Islom banklarini real rivojlanishiga asos bo'lgan yana bir holat, 1973-yilda sodir bo'lgan neft inqirozi hisoblanadi, buning oqibatida Yaqin Sharqda neftning narxi juda keskin oshib ketdi va natijada neftdollarlarining oqimi ufurib Islom davlatlariga kirib keldi.

Musulmon dini ixlosmandlari sonidan mijoz mablag'lari oqimining keskin ko'payishi Islom banklari passivlarini oshirib yubordi, lekin Islom kapital bozorini boshlang'ich davrdagi rivojlanish ahvoli ularni to'liq safarbar qilishning iloji yo'q edi. Islom banklarida 80-yillarning bosh maqsadi passiv operatsiyalarda tajriba to'plash, moliyalashtirish va investitsiya usullarini standartlashtirishdan iborat edi.

80-yillarning boshida Janubi-sharqiy Osiyoda Islom bank ishi faol rivojlandi. 1963-yilda Malayziyada xayriya fondi tuzildi, ular

Makkaga haj qilishga jazm etgan musulmonlarni jamg'armalarini safarbar etishdi. Buning natijasi asosida birdan bir yirik Tabung Haji nomli Islom investitsion fondi yuzaga keldi. Malayziyada Islom bank tizimini jo'shqin rivojlanishi 1983-yildan keyin ko'pchilik musulmon kishilarining hayot darajasini ko'tarish siyosati doirasida boshlandi. Bu siyosat aynan iqtisodiy siyosatdan tashqari ichki siyosiy sabablari ham bor edi, ya'ni Malayziya aholisini 75 foizi musulmonlar bo'lishiga qaramay, xususiy sektor kapitalining katta qismini etnik xitoyliklar nazorat qilishadi. Maxatira Mohammad Hukumati unchalik muvaffaqiyatli bo'lmasa-da, Yaqin Sharq Islom kapitalini mamlakatga jalb qilib, Kuala-Lumpur shahrini Janubi-sharqiy Osiyoda Islom moliya markaziga aylantirishga harakat qilmoqda.

Keyingi o'n yillikda Islom banklari uchun passiv operatsiyalar borasida innovatsion va tez rivojlanish vaqti bo'ldi. Oldingidek mijoz bazasi o'sib bormoqda, lekin hozirgi omonatchilar nafaqat diniy nuqtayi nazardan ularning sarmoyalari to'g'ri boshqarilishini, balki yana u yaxshigina daromad olib kelishini istaydilar. Islom investitsion banklari tuzilishi va aktivlarni, ko'chmas mulkka qo'yilgan aksiyalar paketini boshqarish bilan shug'ullanuvchi yangi tipdagi fondlarni tuzish masalasi ham faol ketmoqda. Islom investitsion banklari lizing operatsiyalari va kapital riskini boshqarish bozorida ham faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bundan tashqari, Yaqin Sharq banklari yirik G'arb banklari bilan raqobat qilib, mijoz talashishga to'g'ri kelmoqda, chunki ular keyingi vaqtda o'z banklarining faol ishlaydigan Islom bo'limlarini ochmoqdalar.

Xalqaro moliyaviy inqiroz kreditlash tizimidan, yana ham aniqrog'i ipoteka kredit usulidan boshlandi. Bu jahonda an'ana bo'lib qolgan kreditlash tizimini bechorahol ekanligidan darak bermaydimi? Agar kreditlashni mohiyatiga e'tibor qaratsak, uning asosiy tamoyili sudxo'rlik bilan moddiy manfaat olishdir.

Butun Jahon iqtisodiyoti sudxo'rlikka asoslangan, ya'ni mablag' tikib foiz olish. Bizning barcha banklarimiz shu tamoyilni asos qilib olganlar. Banklar kredit berishda oldindan belgilangan foiz stavkasi bilan beradilar. Kreditdan foydalanish muddati tugagandan keyin, qarzdor foyda oldimi yoki yo'qmi undan qat'i nazar bankka nafaqat kredit summasini, balki undan foydalanganligi uchun ma'lum foiz to'lashini talab etadilar.

Agar o'ylab qaralsa, bunaqangi tizim qarzdorga nisbatan juda ham adolatsizlikdir. U bu pulni biznesga tikdimi yoki o'zining shaxsiy ehtiyojiga ishlatdimi yoki yo'qmi bundan qat'i nazar u foiz to'lashga majbur. Balki, bu mablag' unga oddiy holatga, ya'ni o'zini amal-taqal qilib yashashi uchun kerak bo'lgandir. Lekin bizning banklar o'z oldiga uning sabablarini aniqlashni qo'ymaydi, u qarzdorga foyda olib keldimi yoki ziyon olib keldimi ulardan qat'i nazar ularni asosiy maqsadi foizini olish, ya'ni tikkan mablag'idan foyda olish.

Xuddi shunday holat omonatchi uchun ham, bankga qo'ygan uning puli, qayerga investitsiya qilinadi, u bu haqda o'ylab ham ko'rmaydi. U omonat shartnomasiga imzo qo'yar ekan, oldindan aniqlangan foizni omonati muddati tugagandan keyin albatta olishini biladi. Uning maqsadi – faqat moddiy manfaatdorlik, xuddi banklarniki singari.

Demak, an'anaviy bank tizimi faoliyatining bosh tamoyili – bu shaxsan moddiy manfaat olish. Bu butun bank tizimi faqat sudxo'rlik hisobidan yashayapti degan gap emas.

Bizga ma'lumki, banklar iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Bu muassasalar jismoniy va yuridik shaxslarga hayotda yashashda ko'maklashadilar hamda hojatini chiqaradilar. Ma'lum bir to'lov bilan pulni zudlik bilan jahonning xohlagan nuqtasiga o'tkazish imkoniyatiga egamiz, qimmatbaho narsalarni saqlash, cheklar va pul banknotalari bilan protseduralarni yengillatish, aksiyalarni sotish va yana qancha muhim operatsiyalarni amalga oshirishimiz mumkin. Banklar yana qancha murakkabliklardan bizni holi qiladi. Bundan tashqari, bank xodimlari o'z ishining mohir ustalari bo'lib, pullarni foydali tadbirlarga tikishni juda ham yaxshi bilishadi.

Islom banklari ham bu funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Jahonni barcha davlatlaridagi kabi Islom davlatlarida ham banklar iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Lekin Islom banklarining faoliyat tamoyili, oddiy bank faoliyatidan tubdan farq qiladi.

Islom sudxo'rlikni qat'iy ta'qiqlaydi. Kimda kim sudxo'r bo'lsa, yoki kimki uning xizmatidan foydalansa, u gunohga botadi. Shuning uchun ham Islom banklari foiz hisobidan yashamaydilar.

Bugungi kunda 150 dan oshiq Islom banklari mavjud. Bu banklarning depozit hisob raqamining miqdori 80 dan 120 milliard dollarni tashkil etadi.

Islom banklari faoliyati asosida shaxsiy moliyaviy manfaat tamoyillari yotmaydi, balki ijtimoiy-axloq va odob tamoyillari yotadi.

Hammamizga ma'lumki, barcha insonlarni hayotda yetarlilik darajasi har-xil, kimdadir pul mablag'lari zaxirasi yetarli bo'lsa, kimdadir uni yetmayotganligi butun hayoti davomida his qilib yashamoqda. Kimdir o'zining moddiy ahvolini yaxshilash uchun pulni qarzga olishga majbur. Bu holatda Islom banki yordamga keladi. Bu banklarda barcha kreditlar foizsiz, xuddi shunday omonatlar ham.

Shaxsiy ehtiyoj uchun va biznesni rivojlantirish uchun kreditlar o'rtasida juda katta tafovut mavjud. Lekin bu ikki turdagi kreditlar ham foizsizdir, ya'ni olingan kreditning summasi qaytariladi, hech qanaqa foiz bo'lmaydi va to'lanmaydi. Agar biznesni rivojlantirish bo'yicha kreditlash amalga oshirilayotgan bo'lsa, bank va qarzdor o'rtasida shartnoma imzolaniadi, ya'ni agar foyda olinadigan bo'lsa qarzdor uni bank bilan bo'lishadi. Agar biznesda ziyon olinadigan bo'lsa, u ham bo'linadi. Bu juda adolatli tamoyil, to'g'ri emasmi?

Shu o'rinda qayd etish lozimki, omonatchilar ham Islom banklarida o'zining mablag'larini foiz olmasdan saqlashadi. Omonatchi bank bilan shartnoma imzolayotganda, o'z mablag'ini bank tomonidan investitsiya qilishga rozi yoki norozi ekanligini qayd etadi. Bank foyda ulushini olganda, omonatchiga foydani o'z qismini qo'shib to'laydi. Ziyon olganda esa ziyon ham bo'linadi.

Ko'rinib turibdiki, vaziyatni xohlagan tomonga o'zgarishida ham, hech so'zsiz shaxsiy manfaat olish tamoyili qo'yilmagan. Bu yerda o'zaro qo'llab-quvvatlash va yordam berish asoslangan hamkorlik munosabati yotibdi.

Islom qonuni bo'yicha badavlat fuqarolar zakot to'lashlari zarur. Bu o'ziga xos boylik uchun soliq bo'lib, u davlat tomonidan belgilanmagan, balki parvardigori olam tomonidan belgilangan. Zakotdan tushgan mablag'lar faqir fuqarolar ehtiyojiga yoki ezgulik tadbirlariga yo'naltirilishi kerak. Shu tartibda Islom davlatining xazinasi to'ldiriladi. Xudodan qo'rquvchi Islom davlatlarining fuqarolari parvardigori olam oldida, uning marhamatiga sazovor bo'lish uchun ezgulikka intiladi, hech qanaqa tazyiqsiz, o'z ixtiyori bilan zakot to'lashadi. Islom davlatining iqtisodi shunday tuzilgan.

Hozirgi vaqtda Islom banklari butun jahonda juda katta qiziqishga sazovor bo'lmoqda. Ayniqsa, jahon inqirozi davrida ularni

faoliyat tamoyillarini o'rganish alohida muhim bo'lib qolmoqda. Islom banklari nafaqat arab davlatlarida, balki Yevropa va AQSHda ham ochilmoqda. Islom banklarining mijozi bo'lib nafaqat musulmonlar, balki boshqa din vakillari ham hisoblanmoqda. Ko'pdan ko'p Yevropa va AQSH korxonalari Islom banklarini afzal ko'rmoqda, chunki ular bilan ishlash nafaqat manfaatli, balki axloq-odob me'yorlariga ham mos tushadi.

Moskvada joriy yilni mart oyida "Islom banklari: uning o'ziga xos xususiyatlari va istiqbollari" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ikki kun davomida turli tillarda Rossiyada Islom bank ishini rivojlantirish istiqbollari jo'shqin muhokama etildi. Konferensiya natijasi bo'yicha Rossiyada bir nechta Islom banklari ochilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Endi Rossiyalik fuqarolar ham yaqin vaqtlarda bu muassasalarni xizmatlaridan foydalanadigan bo'ladi. Birinchi navbatda, albatta, ularning mijozi Rossiya musulmonlari bo'ladi, ular uchun ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish va hayot darajasini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Bizning davlatimizda ham 1-4-may kunlari Osiyo tarqqiyot bankini ijrochi direktorlarining 43-yillik hisobot yig'ilishini o'tkazilishida Islom taraqqiyot banki (ITB)ning ijrochi direktorining ishtirok etishi va hukumat rahbarlari bilan o'tkazgan munozaralari bizning davlatimizda ham Islom banklari paydo bo'lish istiqbollarga yo'l ochishi tabiiy holdir.

ITB xalqaro moliya muassasasi sifatida va taraqqiyot banki turi ko'rinishida 1973-yili 18-dekabrda ishtirokchi davlatlar tashkilotining Islom konferensiyasida moliya vazirlarining birinchi konferensiyasida tashkil topgan. Uning bosh ofisi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan.

1975-yili 20-oktabrda o'z faoliyatini boshlagan. Bank kapitali ishtirokchi davlatlarning qo'shgan badallari hisobidan tashkil topgan. Uning ta'sisчилari bo'lib 10 ta davlat, ya'ni Saudiya Arabistoni, Sudan, Quvayt, Liviya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirligi, Eron, Misr, Indoneziya va Pokiston davlatlari hisoblanadi.

ITBning yuqori organi bo'lib, boshqaruvchilar kengashi va direktorlar kengashi hisoblanadi, bank prezidenti 5 yil muddatga saylanadi.

ITB Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bosh assambleyasida kuzatuvchi statusiga ega.

Hozirgi vaqtda ITB bank guruhi tashkil topgan va unga quyidagi tashkilotlar kiradi:

- xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi;
- investitsiyalarning va eksport kreditlarining sug'urtasi bo'yicha Islom korporatsiyasi;
- islom ilmiy qidirish va o'quv markazi;
- xalqaro Islom savdo-moliya korporatsiyasi.

ITB guruhining funksiyasi a'zo davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish yo'li bilan ishtirok etishdir. Bank o'z faoliyatini shariat qonuni va tamoyillariga asoslanib amalga oshiradi. Bankning pul birligi Islom dinori hisoblanadi, u Xalqaro valyuta fondining bir SDR ga tengdir. Rasmiy til bo'lib arab tili hisoblanadi, ammo ishchi tili sifatida ingliz va fransuz tillari ishlatiladi.

Bankning shaxsiy kapitalining miqdori 15 milliard Islom dinorini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda 56 ta davlat bankning a'zolari hisoblanadi. Bank a'zoliciga kirishning asosiy talablari Islom konferensiyasi tashkilotida ishtirok etish, bank kapitaliga a'zolik badalligini to'lash va bank direktorlar kengashi tomonidan qabul qilingan qoida, protsedura va terminlarga rioya etishdan iboratdir.

ITB kam rivojlangan bankni a'zo davlatlarga birinchi navbatda infrastrukturani yaratish va kengaytirishga kredit beradi; qo'shma korxonalarining kapitalida ishtirok etadi; ishtirokchi davlatlarni tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtiradi; texnik yordam ko'rsatadi; lizing operatsiyalarini amalga oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Islom banklarining an'anaviy moliya institutlaridan farqi nimada?
2. Islom banklarining qanday operatsiyalari va xizmat turlari mavjud?
3. Islom banklarining paydo bo'lish sabablari qaysilar?
4. Islom banklarida risklarni kelib chiqish sabablarini sanab bering.
5. Bank operatsiyalarida risklarini pasaytirish yo'llari qaysilar?
6. Islom banklarni rivojlanishini boshqarish yo'llari.

X BOB. HOZIRGI ZAMON XALQARO BANK ISHI VA MOLIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

Reja:

10.1. Xalqaro bank faoliyatidagi risk turlari va ularning turkumlanishi.

10.2. Kredit, bozor va operatsion risklarning kapital yetarliligini hisoblashdagi o'zni va ahamiyati.

10.3. Likvidlik riskini boshqarish usullari.

10.4. Valyuta riski va valyuta pozitsiyasini boshqarish. Moliyaviy derivativlar va risklarni boshqarish.

10.5. Xalqaro hisob-kitoblardagi risklarni boshqarish.

Tayanch iboralar

Valyuta, xalqaro munosabatlar, xalqaro kreditlar, xalqaro to'lovlar, valyuta operatsiyalari, muddatli operatsiyalar, xalqaro hisob-kitoblar, valyuta cheklovlari, valyuta kurslari, diskont, mukofot, to'lov balansi.

10.1. Xalqaro bank faoliyatidagi risk turlari va ularning turkumlanishi

Hozirgi kunda valyuta risklarini aniqlash tahlil qilish hamda prognozlash usullarining takomillashuvi ularni boshqarish imkoniyatlarini vujudga keltirdi va ular yanada takomillashib bank risklarini boshqarish usullarini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti erkinlikni yoqtiradi, davlatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda sohalarini bosqichma-bosqich erkinlashtirishdan iboratdir, jumladan bank xizmati, ayniqsa, tijorat banklari faoliyati bosqichma-bosqich takomillashtirib borish bugungi kun vazifalaridan biridir. Ularning faoliyatining respublikamiz mavjud xo'jalik faoliyatiga tobora moslashib borishi kelajakda banklar faoliyatining o'zgacha tus olishidan dalolat beradi.

Valyuta riski bank operatsiyalarining baynalmillashuvi transmilliy korxonalar qo'shma korxonalar va bank inshootlarning o'zaro birlashuvi natijasida vujudga keladi va kurs yo'qotishlari riski deb ham ataladi. Undan tashqari, valyuta riski valyuta tebranishlari

natijasida yo'qotiladigan mablag'larning yo'qolish xavfini o'zida aks ettiradi.

Valyuta riski o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Tijoriy – qarzдор o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovni amalga oshira olmasligi bilan bog'liq risklar.

2. Konversion – aniq operatsiyalar bo'yicha olinadigan valyuta zararlar riski.

Bu riskni oldini olish bo'yicha qo'llaniladigan eng ko'p tarqalgan usul bu "xedjerlash" va "svop" operatsiyalaridir.

Xejerlash – har qanday valyuta riskiga ega bo'lgan shartnomalarni kompensatsiya qiluvchi valyuta pozitsiyasi yaratishga qaratilgan.

Valyuta svopini parallel kreditlashga o'xshatish mumkin, bunda ikki mamlakat hududida joylashgan ikki bank o'z mamlakatlari valyutasida teng hisoblarda kredit beradi.

Xalqaro operatsiyalarni amalga oshirayotgan banklar valyuta riskini boshqarish bo'yicha ularni diversifikatsiyalashtirishdan foydalana-dilar va bu maqsadda forvard, fyuchers, valyuta opsiyonlari kabi operatsiyalardan foydalanadilar.

Valyuta riskini boshqarishga 1970-yillardan boshlab, urinib ko'rilgan va o'sha davrda kurslar suzib yuruvchi ko'rinishga ega edi.

O'z navbatida valyuta riski tarkibi quyidagicha tavsiflanadi:

a) tijorat, bunda qarzдорning majburiyatlarini bajarish istagi bo'lmasligi yoki bajara bilmasligi imkoniyati yo'qligi;

b) konversion (naqd) bunda aniq operatsiyalarda yo'qotiladigan valyuta nazarda tutiladi. Bunday risklar aniq bir ish amalga oshirilayotganda hisobga olinadi. Konversion risklarni kamaytirish-ning eng mos usullari quyidagilardan iborat:

-xedjerlash, har bir riskli operatsiyada yo'qotiladigan valyuta nazarda tutiladi imtiyozli valyuta pozitsiyasini vujudga keltirish. Boshqacha aytganda, bir turdagi valyuta kursini daromad yoki xarajatlarda boshqa risklar bilan mos kelishi tushuniladi.

Valyuta svopi, u ikki turga bo'linadi hamda ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi. Birinchisi, parallel kreditlarni rasmiylashtirishni o'zida aks ettiradi, ularni undirish to'lash usullari va muddatlari bir xil bo'lib, ikki xil valyutada berilishi mumkin.

Ikkinchisi, ikkita bank o'rtasida valyutani "spot" stavkalari bo'yicha amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Parallel kreditlardan svoplarning farqi ular to'lov foizlarini o'zida qamrab olmaydi.

Aktiv va passivlar bo'yicha vujudga keladigan risklar "metching" deyiladi. Bunda valyuta tushumi va ularning miqdori bilan bank rahbariyati valyuta hajmini ko'paytirish yoki qisqartirishga ta'mir ko'rsatadi, shu orqali boshqaradi.

Boshqa transmilliy banklar yoki qo'shma banklar "netting" usulidan foydalanadi, bunda valyuta operatsiyalari miqdori qisqartiriladi va hajmi ko'paytiriladi, ya'ni bitimlar tuzilayotganda yoki valyuta operatsiyalari o'tkazilayotganda ko'p miqdorda valyuta mablag'lari ishtirok etadigan operatsiyalar amalga oshiriladi, kichik yoki kam miqdorda valyuta operatsiyalari amalga oshirilmaydi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun bankning barcha bo'linmalarining faoliyati yuqori darajada bo'lishi kerak.

Valyuta risklari shartnoma tuzilgan kun bilan to'lovning amalga oshirilish kunigacha bo'lgan davr mobaynida milliy valyuta kursining shartnoma valyutasi kursiga nisbati orqali aniqlanadi. Valyuta kurslari qanchalik beqaror bo'lsa, valyuta xavf-xatari shunchalik yuqori bo'ladi.

Shu paytgacha biz valyuta riski tushunchasini alohida olingan iqtisodiy operatsiyalar misolida ko'rib chiqdik. Agar xalqaro iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari xorijiy valyutada ifodalangan majburiyatlarga ega bo'lgan holda, xuddi shunday xorijiy valyutada talablari ham bo'lsa, ular amalga oshirayotgan operatsiyalarining umumiy hajmi bo'yicha emas, balki faqatgina ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha riskka duch keladilar.

Tashqi iqtisodiy shartnoma ishtirokchilari uchun valyuta tavakkalchiligi paydo bo'lishining quyidagi shartlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ochiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi;
- shartnoma valyutasi sifatida xorijiy valyutadan foydalanish;
- shartnomaning tuzilishi va u bo'yicha hisob-kitob orasida vaqt uzilish davrining mavjudligi.

Valyuta kurslari muvozanatsizligi qanchalik yuqori bo'lsa, valyuta tavakkalchiligi shunchalik yuqori bo'ladi. Hozirgacha biz valyuta tavakkalchiligi tushunchasini faqat bir operatsiyaga nisbatan

ko'rib chiqqan edik. Agar tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilari bo'lmish taraflar xorijiy valyutada ifodalangan majburiyat va talablarga ega bo'lib, ko'p turdagi operatsiyalarni amalga oshirsa, unda ular barcha operatsiyalar bo'yicha emas, balki faqat ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha valyuta xatariga uchraydilar.

Xalqaro iqtisodiy shartnomalar ishtirokchilari uchun yuzaga keladigan valyuta risklarining asosiy sabablari sifatida quyidagi omillarni ko'rsatishimiz mumkin:

- ochiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi;
- shartnomada valyuta sifatida xorijiy valyutadan foydalanish;
- shartnoma tuzilgan vaqt bilan uning amalga oshirilish vaqti orasida ma'lum muddatning mavjudligi.

Xalqaro savdo valyuta bozorida o'zaro ma'lum nisbatlarda bir-biriga almashinuvchi turli xil milliy valyutalardan foydalaniladi. Nominal almashtiruv kursi ikki mamlakat valyutasining nisbiy narxi yoki bir mamlakat narxining boshqa valyuta birligida ifodalanishi. "Valyuta almashtirish kursi" atamasidan, odatda, nominal valyuta kursini ifodalash uchun foydalaniladi.

Xarid qobiliyati konsepsiyasiga muvofiq, xalqaro raqobat borgan sari xalqaro savdoda qatnashuvchi tovar va xizmatlarga ichki va xorijiy narxlarni tenglashtirishga qarab boradi. Agar berilgan mamlakatdagi inflyatsiya xorijning inflyatsiya sur'atidan yuqori bo'lsa, u holda mavjud teng sharoitlarda milliy valyutani arzonlashtirib borish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Berilgan konsepsiyasiga muvofiq, valyuta kursi doim turli mamlakatlardagi narx darajalari dinamikasidagi farqni kompensatsiyalash uchun qancha zarur bo'lsa, shuncha teng miqdorda o'zgaradi. Chunki,

$$Pd = r \times Pf$$

Bu yerda: r -milliy valyuta birligidagi xorijiy valyuta narxi.

Pd - "ichki" narxlar darajasi;

Pf - xorijdagi narxlar darajasi;

Nominal almashtirish kursi dinamikasini prognozlashtirish uchun foydalaniladigan xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasi narxlarning bahosidan o'sishi mavjud bo'lmagan uzoq muddatli davrda (10 yildan boshlab) real natijalar beradi.

Muvozanat real almashtirish kursi pastga unga etilgan sof eksport grafigi va investitsiya hamda jamg'armalar o'rtasidagi farqlarni ifodalovchi vertikal inflyatsiyalar kesib yetuvchi nuqtaga mos keluvchi darajada o'rnatiladi. Bu nuqtada xorijga beriladigan kreditlar sifatidagi milliy valyuta taklifi berilgan mamlakatdan sof eksportni xarid qiluvchi xorijliklar tomonidan ko'rsatilayotgan milliy valyuta bo'lgan talab bilan tenglashadi.

Bu shuni bildiradiki, real valyuta kursi joriy operatsiyalar uchun ko'rsatiladigan kapital va unga talab operatsiyalari bo'yicha milliy valyuta taklifini tenglashtiradi. Berilgan mamlakatdagi rag'batlantiruvchi fiskal siyosat muvozanatli real almashtiruv kursining oshishiga sharoit yaratadi.

Davlat xarajatlari ko'payganda yoki soliq kamayganida milliy jamg'armalar kamayadi va (SP) egri chizig'i chapga siljiydi. Bu siljish xorijiy investitsiyalar uchun milliy valyuta taklifi pasayishini bildiradi. Valyutaning yanada past taklifi uning real almashuv kursini oshiradi. Natijada mahalliy tovarlar xorijnikiga nisbatan qimmatlashadi, bu esa eksportning qisqarishi va import oshishiga olib keladi. Pirovard joriy operatsiyalar bo'yicha defitsit paydo bo'ladi.

Agar soliqlar kamayishi investitsiyaning o'sishini keltirib chiqargan holda milliy valyuta hajmi kamaymasa, (S-I) egri chizig'i yana chapga siljiydi. Investitsiyali soliq krediti xorijliklar uchun berilgan mamlakatda investitsiyalarni qiziqarliroq va manfaatliroq qiladi.

Bu esa, o'z navbatida, muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi defitsitini keltirib chiqaradi.

Xorijiy mamlakatlardagi rag'batlantiruvchi budjet soliq siyosati mavjud teng sharoitlarda xorijda jamg'armalar darajasini qisqarishiga olib keladi. Bu jahon foiz stavkasini oshiradi va kichik ochiq iqtisodiyotdagi investitsiya darajasini pasaytiradi. Bu holatda xorijdagi investitsiyalar uchun milliy valyuta taklifi ko'payadi. (S-I) Egrisi unga siljiydi. Real almashtirish kursi muvozanatli ahamiyati pasayadi, mahalliy tovarlar nisbatan arzonlashadi va sof eksport ko'payadi.

O'zgaruvchan va o'zgarmas valyuta kurslarining samarasi. O'rnatilgan valyuta kursini qo'llab-quvvatlash uchun davriy paydo bo'layotgan to'lov balansi kamomadi qoplash uchun tegishli rezervlar

yetarli bo'lmasa, mamlakat proteksionistik savdo choralarini qo'llashi yoki valyuta nazoratini kiritishi kerak.

Almashinuv kursi va inflyatsiya. Xalqaro moliyalashtirish sohasidagi juda ko'p xarajatlar valyuta almashtirish kurslarining kelgusidagi noaniqliklari oqibatida kelib chiqadigan valyuta xavf-xatarlari bilan bog'liq bo'ladi.

Valyutalar almashtirish ko'rsatkichlari. Almashtirish kurslarining eng soddada qoidasi valyutalar miqdorini almashtirish vaqtidagi nisbatidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatda so'mning inflyatsiya jarayoni milliy valyutaning mos ravishdagi devalvatsiyasiz eksportning dollardagi qiymatining pasayishi, savdo balansining ortib ketishiga olib keladi. Bunga qarshi turish uchun doimo milliy valyutaning tegishli qadsizlanishini amalga oshirib borish kerak.


10.2. Kredit, bozor va operatsion risklarning kapital yetarliligini hisoblashdagi o'rni va ahamiyati

Banklar faoliyati davomida amalga oshiradigan operatsiyalarining riskliligining miqdorini aniqlash muhim jarayon hisoblanadi. Bu nafaqat banklarga, balki boshqa moliyaviy tashkilotlarga ham tegishli. Asosiysi, oldindan mavjud risklarni baholash bilan cheklanib qolmaslik kerak, yangi bozorlarda olib borilayotgan bank operatsiyalarining riskliligini aniqlash va baholash zarur. Ushbu vazifa marketing tadqiqotlari bilan uzviy bog'liq. Riskni baholash tizimi risklarning 3 ta tarkibiy qismini baholashi lozim, bular: risk hajmi, amalda bo'lish muddati va sodir bo'lish ehtimoli.

Tijorat banki tomonidan berilgan kredit to'g'risidagi misolga qaytamiz: risklarni aniqlash uchun dastlab kredit reytinglarini belgilash lozim. Kreditning konkret turlari bo'yicha risklilik darajalarini baholagandan keyin kreditga foiz belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, bank o'z bo'yniga olgan risk uchun kompensatsiya miqdorini belgilaydi. Bu risklarni aniqlashga *individual yondashuv* deyiladi. Kredit portfeli doirasida risklarni baholash usulini har bir sohaga o'ziga xos reyting tizimini shakllantirish orqali takomillastirish mumkin.

Risklarni baholash tizimining murakkabligi darajasi bank faoliyat yuritayotgan sohaning risklilik darajasi bilan mos bo'lishi lozim. Agar bank xarajatlarini tejash maqsadida risklarni baholash tizimini tashkil qilmagan bo'lsa, uning risklardan ko'radigan zararlari tejalgan pullardan bir necha baravar ko'payishi mumkin.

Yuqori risklilik darajasiga ega bo'lgan sohalarda samarali faoliyat yuritish uchun tijorat banki qaror qabul qilishning alohida mexanizmini ishlab chiqishi lozim. Ushbu mexanizm qaysi sohada bank o'z bo'yniga qanchalik riskni olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatib berishi va kutilayotgan daromadlar risklarni qoplay oladimi, shu kabi masalalarni hal qila olishi lozim. Ushbu mexanizm asosida riskni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Demak, yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun tijorat banklari tomonidan shunday risklarni boshqarish tizimi yaratilishi kerakki, ushbu tizim orqali bank risklarni aniqlash, baholash, boshqarish va kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lsin.



10.1-rasm. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi⁵⁵.

⁵⁵ Muallif tomonidan chizilgan.

Risklarni boshqarish tizimi konkret chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, quyidagi jadvalda kredit bo'limi darajasida risklarni boshqarish elementlari keltirilgan.

10.1-jadval

Kredit risklarini boshqarish elementlari⁵⁶

Risklarning darajalari	Riskning aniqlanishi	Risk nazorati	Monitoring
1-Daraja Kredit siyosati	Kredit tahlili	Yuridik ekspertiza	Kredit portfeli nazorati
2-Daraja Kreditning rejalashtirilishi	Kredit shartnomasini ko'rib chiqish va tasdiqlash (avtorizatsiya)	Kreditning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish	Hisobotlar nazorati
3-Daraja Kredit narxini shakllantirish	Ichki kredit reytingi	Kreditlarni kuzatib borish va ularga rezerv shakllantirish	Ichki (kredit) auditini o'tkazish

Risk mavjud ekan, kelajakdagi voqealarining rivoji to'g'risida bir nechta muqobil ssenariylar mavjud bo'ladi. Ushbu ssenariylar tahlili risklarni baholash va boshqarishda muhim instrument bo'lib hisoblanadi.

Ssenariylar tahlili risk mavjud bo'ladigan vaqt intervalini tahliliga, daromad va xarajatlarga riskning ta'siri tahlilini, ijobiy va salbiy ssenariylarning amalga oshish ehtimolining tahlilini o'z ichiga oladi.

Risklarni nazorat qilish funksiyasi bankning mutaxassislari, boshqaruvchilari, bo'lim boshliqlari va ta'sischiylari to'ymiga yuklatiladi. Umuman olganda risklarni boshqarish funksiyasini amalga oshirish bank bo'limlarining har kunlik natijalarida aks etadi. Banklarning ushbu risklarga tortilganlik darajasi ishlarning to'g'ri

⁵⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

tashkil qilinishi darajasiga, kadrlarni tanlash usuliga, bank bo'limlarining operativligiga bog'liq bo'ladi.

Risklar monitoringi deganda risklarni doimiy ravishda mustaqil baholash va boshqarish tizimi tushuniladi. Monitoring hisobotlar yuritish, ichki va tashqi audit qilish va kreditlarni tahlil qilish orqali olib boriladi. Monitoring talablari doirasida tuziladigan hisobotlar menejerlarga kerakli konkret ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar bankning joriy faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi va ularning asosida bankning bir bo'limiga yoki butun bankka tegishli bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, risklarni boshqarish amaliyoti hali to'lig'icha shakllanib bo'lmadi, bu hali davom qilayotgan jarayon hisoblanadi. Hamma banklar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan metod hali yaratilmagan va iqtisodchilar fikriga ko'ra, yaratilishi mumkin emas. Buning asosiy sababi, har bir bank o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va o'zi joylashgan mintaqa bozorlariga, mutaxassislarining bilimlari va tajribalariga, shakllantirgan reputatsiyasiga va olib boradigan operatsiyalariga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Ishonchli faoliyat yuritayotgan konkret bir bank tomonidan ishlab chiqilgan risklarni boshqarish modelini butunicha olib uni boshqa bank amaliyotiga tadbiq etish bankka salbiy ta'sir etishi mumkin. Chunki bir bank uchun boshqariladi deb baholangan risklar, ikkinchi bank tomonidan boshqarila olmasligi mumkin.

Bazel II talablari kapitalni banklar faoliyatida yuzaga keladigan risk turlarining kengaytirilgan shkalasi bo'yicha hisob-kitob qilishni taklif etadi, ya'ni Bazel qo'mitasi taklif qilingan risk turlarini uchta yirik toifaga ajratdi: kredit riski, bozor riski va operatsion riskga. Bundan tashqari, nazorat funksiyalari risklarni tijorat banklari tomonidan ichki uslub asosida nazorat qilish, ma'lumotlarning shaffofligi va bozor intizomi nuqtayi nazaridan o'zgartirildi.

Bazel qo'mitasi tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan kredit risklarini qarzidor yoki kontragent tomonidan o'z majburiyatlarini kelishilgan shartlarga muvofiq bajara olmaslik ehtimoli deb baholaydi. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyati qarzdorning moliyaviy holatiga bog'liq. Mijozning kredit qobiliyatini va kelajakda kredit bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshirish

qobiliyatini baholash uchun bank mijozning ahvoli, xususan oylik pul oqimlari (daromad va xarajatlari) to'g'risida axborotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Kredit riskini miqdoriy jihatdan aniqlash maqsadida kreditlar tasniflanadi va ularning har biri bo'yicha zaxira tashkil qilish me'yorlari belgilanadi. Xalqaro Bazel qo'mitasining kreditlarni tasniflash bo'yicha belgilagan me'yorlari asosida faoliyat yurituvchi yevrozona mamlakatlarining tijorat banklari kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini tashkil qilish uchun kreditlarni uch guruh bo'yicha tasniflaydi. Kredit riskining darajasini aniqlash maqsadida kreditlarning o'zi ham riskka tortiladi. Xalqaro Bazel andozalari bo'yicha tijorat banklari tomonidan mijozlarga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng.

Bazel qo'mitasi operatsion riskni ichki jarayonlar va tizimlarning nomuvofiqligi, xodimlarning mas'uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar hisobiga yuzaga keladigan xavf-xatar deb baholaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, axloqiy me'yorlarga, shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining qo'zg'atilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadi. Operatsion risk turlari quyidagilardan iborat:

- Ichki bo'xton va firibgarlik, ya'ni dillerlar tomonidan bank holati buyicha noto'g'ri ma'lumotlarning berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irliklar, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini soxtalashtirish va boshqalar;

- Tashqi bo'xton va firibgarlik, ya'ni hujjatlarni o'g'irlash va soxtalashtirish, kompyuter aloqalariga ruxsatsiz kirish, kredit olish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;

- Mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va hisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik;

- Moddiy aktivlarga zarar yetkazish, ya'ni qo'poruvchilik, terrorism, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar;

- Ishdagi, axborot va aloqa tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya'ni texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar;

➤ Hujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o'tkazish va jarayonlarni boshqarish, ya'ni ma'lumotlarni kiritishdagi xatoliklar, huquqiy hujjatlarning yetishmasligi, kredit ta'minotiga tegishli xatoliklar va boshqalar.

Operatsion risk bilan ishlash usullari va darajasi turli banklarda risk darajasi va turi, bank operatsiyalarining hajmi va turiga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Ammo Bazel-II talablarida kapitalga nisbatan talabni aniqlashda operatsion risklarni o'lchashning 3 ta usuli: baza ko'rsatkichlari asosida yondashuv, standartlashgan yondashuv, rivojlantirilgan yondashuvni keltiradi.

Hozirgi kunda Bazel qo'mitasi valyuta risklariga aloqasi bo'lgan talablarning majmuasini ishlab chiqmoqda va ushbu majmua turli davlatlarda risklarni boshqarishga bo'lgan yondashuvni yaqinlashtirilishiga imkon beradi. Ushbu hujjatning varianti "Kapital to'g'risidagi kelishuvning muddatli valyuta operatsiyalari bo'yicha ko'ptomonlama netting da qo'llanilishi" nomi bilan nashr etildi.

10.3. Likvidlilik riskini boshqarish usullari

Tijorat bankining faoliyati va uning samaradorligi, eng avvalo, uning likvidligiga bog'liq. Likvidligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to'lovga layoqatsizligining asosiy sababi bo'lib, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

Barqaror talabga ega bo'lgan pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qog'ozlar, moddiy aylanma vositalar va pulga tez aylantiriladigan aktivlar likvid vosita (mablag')lari deb yuritiladi.

Agar bankning naqd pullari va likvid aktivlarning yig'indisi uning qarzi va moliya majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo'lsa, bank faoliyati likvid deb sanalishi mumkin.

"Bazel-III"ga muvofiq, tijorat banklari likvidlilikini tartibga solish bo'yicha 2 ta koeffitsiyentni (liquidity coverage ratio, net stable funding ratio) joriy etish ko'zda tutilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida joriy likvidlilik koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio (LCR)) 2019-yil 1-yanvardan boshlab joriy qilinadi.

Bazel II talablariga ko'ra, birinchidan, bank likvidlilik bo'limi boshqaruvi balansdan tashqari majburiyatlarga balansdagi majburiyat-

lar kabi katta e'tibor berishi lozim, ya'ni majburiyatlar kompleks ravishda o'rganilish lozim;

Ikkinchidan, likvidlikni boshqarish strategiyasi aniq va tushunarli holda bo'lishi va bank kengashi tomonidan tasdiqlanishi, nazorat qilinishi, monitoring o'tkazishni kuchaytirishi lozim;

Uchinchidan, likvidlik strategiyasida vujudga keladigan riskning darajasi haqida boshqaruv a'zolarining voqif bo'lishi zarur;

To'rtinchidan, boshqa operatsiya risklarining (kredit, bozor va operativ risklar) likvidlik darajasiga ta'sir etishi va doimiy muqobil variantlarning tayyor bo'lishi;

Beshinchidan, har bir xorijiy valyuta turi bo'yicha tahlil olib borish, chegirmalar belgilash va ularni o'zgartirib turish.

Tijorat banklari faoliyatini Markaziy bank tomonidan nazorat qilishda ham muddati o'tgan va muddati o'tmagan brutto kreditlar bo'yicha joriy nazoratni amalga oshirish zarur. Xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy ko'rsatkich bo'lib, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i 5 foizdan oshib ketmasligi lozim. Tijorat banklari faoliyati bank nazorati natijalari bo'yicha baholanganda ana shu ko'rsatkichga amal qilish hisobga olinishi zarur. Bu esa tijorat banklarini muddati o'tgan kreditlar hajmini me'yoriy darajada saqlab turishga undaydi.

Likvid mablag'lar bo'yicha choralarni ta'minlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Likvidlik davrida oldindan belgilangan reja bo'yicha kredit va depozit mablag'larining hajmi bashorat qilinishi kerak.

2. Shu davr uchun oldindan belgilangan reja bo'yicha kredit va depozit mablag'lari kutiladigan dinamikasi hisoblanishi kerak.

3. Likvidlikni boshqarish bo'yicha boshqaruvchi rejadagi davr uchun netto-likvid pozitsiyasining qiymatini aniqlashi zarur.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarini boshqarish o'z oldiga balans likvidligiga rioya qilgan holda, bank foydaliligini ta'minlash singari ikki yagona maqsadni qo'yadi.

Bank balansi likvidligiga uning aktivlari tarkibi ta'sir qiladi.

Ya'ni jami aktivlar ichida birinchi darajali likvid aktivlarning hissasi ko'p bo'lishi bankning yuqori likvidligidan dalolat beradi. Shu sababli, bank aktivlarini ularning likvidlik darajasiga qarab 4 guruhga bo'lish mumkin:

* Doimiy tayyorgarlikda turuvchi likvid aktivlar (kassadagi naqd pul, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragidagi mablag'lar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va hokazo);

* Pul mablag'iga tez aylanuvchi bank ixtiyoridagi aktivlar (yaqin 30 kun ichida olinishi mumkin bo'lgan kreditlar va boshqa to'lovlar);

* Nolikvid aktivlar - muddati o'tgan kreditlar va umidsiz qarzlار, bank bino va inshootlari.

* Uzoq muddatli kreditlar va ko'chmas mulkka qo'yilgan qo'yilmalarni qiyin likvidli aktivlar toifasiga kiritish mumkin.

Likvid aktivlar quyidagi 3 ta o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

– bank aktivlari tez pulga aylanishi uchun ular o'z bozorlariga ega bo'lishi kerak;

– yetarli darajada barqaror narxga ega bo'lishi kerak, ya'ni bozor barcha sotilayotgan aktivlar narxlarini sezilarsiz darajada pasaytirgan holda qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

– aktivlar qaytadigan bo'lishi kerak, ya'ni sotuvchi dastlabki investitsiyalarni yo'qotishlarsiz yoki minimal risk bilan qoplay olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Bank likvidliligi aktiv operatsiyalarning risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni bank balansida yuqori riskli aktivlar hissasi qancha ko'p bo'lsa, talab qilinadigan likvidlilik shuncha past bo'ladi.

Bankning likvidli mablag'larga bo'lgan ehtiyojini bozordagi talab va taklif nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Bankda likvidli mablag'larga bo'lgan talab ikkita sabab bo'yicha vujudga keladi:

1. Mijozlarning o'z hisobvaraqlaridan mablag'larini olishlari natijasida.

2. Mijozlar tomonidan kredit olish uchun buyurtmanomalar kelib tushishi sababli vujudga keladi.

Likvid mablag'larga bo'lgan talabning vujudga kelishiga yana bir sabab, bankning boshqa kreditorlardan (boshqa banklar yoki hukumat va Markaziy bank) olgan qarzlarni qaytarish bilan bog'liqdir. Soliqlarni to'lash va aksiyadorlarga dividend to'lash ham yuqori likvidli aktivlarga bo'lgan talab o'sishiga olib keladi.

Bank likvid mablag'larga bo'lgan talabni qondirish uchun barcha salohiyatli taklif manbalarini jalb qiladi, ya'ni asosiy e'tiborni aholi va jismoniy shaxslarning mablag'larini depozitlarga jalb qilishga qaratadi.

Likvid mablag'larga bo'lgan umumiy talab uning umumiy taklifidan oshib ketsa, bank likvid mablag'lar taqchilligiga tayyor turishi va qancha miqdorda, qancha muddatga qo'shimcha likvid mablag'lar olish masalasini hal qilishi zarur, o'z navbatida, jami taklif jami talabdan oshib ketsa, bank rahbariyati likvid mablag'larining ortiqchaligiga tayyor bo'lishi va ushbu mablag'larga bo'lgan talabni qoplash uchun zarur bo'lgunga qadar qayerga, qancha muddatga mablag' yo'naltirish masalasini hal qilishi kerak bo'ladi.

Bank likvidligi muomaladan chiqarilgan depozitlar hajmini, aktivlarni qaytarish va majburiyatlarni bajarish muddatidagi farqlarni, pul bozoridagi tebranishlarni, rejalashtirilmagan xarajatlarni qoplashi kerak.

Bank likvidligini boshqarish konsepsiyasi asosida aktiv va passivlarni ularning muddati, miqdori va risklari bo'yicha boshqarish tamoyili yotadi. Bu bilan bankning o'rtacha likvidligi va foydaliligi ta'minlangan holda, uning kreditorlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish uchun to'liq imkon yaratiladi.

Ma'lumotlar bazasiga asosan bank tomonidan har kunlik likvidlilik va to'lovga layoqatlilik haqida ma'lumotlar olinishi mumkin va bank operatsiyalarini kelajakdagi istiqbollarini tahlil qilish kerak. Bu esa bank mablag'larini joylashtirish, resurslarni jalb qilish, o'z mablag'larini oshirish, bankning boshqa muassasalarga ulush qo'yishni ko'paytirish, yangi daromad topish yo'llarini ishlab chiqish va yangi operatsiyalarni rivojlantirish masalalarini bog'lab bitta yechim topishga yordam beradi.

Tijorat banklarining resurslarini optimal darajada ushlab turishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun tijorat banklari o'zlarining likvidlilik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda, ushbu normativ ko'rsatkichlarni ta'minlab turishi uchun xizmat qiladigan mablag'lardan ham unumli foydalanishni talab etadi.

Shuning uchun ham, tijorat banki uchun likvidlilikning umumiy asosi bo'lib, faoliyatining foydaliligini ta'minlash hisoblanadi. Shunday qilib, agar asosiy normativ koeffitsiyentning haqiqiy qiymati o'rnatilgan minimal normadan yuqori bo'lsa, foyda olish uchun

ishlatilmagan imkoniyat nuqtayi nazaridan bank faoliyati salbiy baholanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, balans likvidililigining tahlil daromadlilik bilan amalga oshishi kerak. Tijorat banklar tajribasi, banklar likvidililigining minimal normasida ishlashi maksimal daromad olishi mumkinligi nazariyasini yana bir bor isbotladi.

10.4. Valyuta riski va valyuta pozitsiyasini boshqarish. Moliyaviy derivativlar va risklarni boshqarish

Valyuta xavf-xatarlarini ifodalashda quyidagilardan foydalaniladi:

- valyuta sharhlari va izohlari;
- forward operatsiyalari.

Valyuta izohlari o'zida shartnoma matni tarkibiga kiruvchi qo'shimcha shartlarni aks ettiradi. Valyuta izohlari valyuta bozorlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda to'lanadigan to'lov hajmini belgilaydi. Bu valyuta xavf-xatarlaridan sug'urtalanishning eng ko'p tarqalgan usulidir.

Valyuta risklari sug'urtalanishining yana bir turi forward operatsiyalaridir. Forward operatsiyalari sug'urtalashda forward qoplanishi, ya'ni baho xavf-xatariga qarshi sug'urtalashni bildiradi. Forward qoplash operatsiyalari valyuta kursining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni sug'urtalash maqsadida o'tkaziladi. Forward valyuta operatsiyalari ikki ish kunidan kam bo'lmagan vaqtda amalga oshiriladi. Valyuta bozorlarida forward bitimlarini amalga oshirishning quyidagi standart muddatlari mavjud:

- 1 hafta;
- 1 oy;
- 3 oy;
- 9 oy;
- 12 oy;

Yuqorida aytib o'tganimizdek, valyuta xavf-xatarlarini sug'urtalashda forward valyuta shartnomalaridan foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti korxona, jamoa tashkilotlari, kooperativlar, banklar va fuqarolarga tashqi iqtisodiy faoliyatni va valyuta xo'jaligini mustaqil tarzda amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Sir emaski, bozor iqtisodiyoti risk bilan bog'liq. U bilan bankirlar ham,

tadbirkorlar ham, aholi ham to'qnashadi. Biroq, ko'pgina hollarda riskni kamaytirish, oldini olish va hattoki undan qochish mumkin.

Moliyaviy risklarni kamaytirishda banklar muhim o'rin tutadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning qayta ko'rilishi, xalqaro aloqalarning kengayishi bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini muvofiq ravishda o'zgartirishlarini taqozo etadi. Ularning xo'jalik faoliyatlariga valyuta kurslarining tebranishi sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta risklarining mavjudligi – valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalarining amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarni barpo etish orqali, bank operatsiyalari bozori baynalmilallashuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog'liq. Shu sababdan, riskka bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko'rsatish mumkin.

Xalqaro amaliyotda yuzaga keladigan har qanday risk eksport qiluvchi (sotuvchi)ning zimmasiga tushadi.

Milliy moliya bozorlarida risklarni ma'lum bir sezilarli miqdorda taxmin qilish mumkin. Hududiy va xalqaro moliya bozorlarida esa, bundan farqli o'laroq, risk darajalarini taxminlashtirish sezilarli darajada mushkul hisoblanadi.

Valyuta risklarini uch turga bo'lish mumkin:

1. Pul o'tkazishda yuzaga keladigan risk – xorijiy valyutada ifodalangan (misol uchun, xorijdagi filialning hisobotlari) firma yoki bankning moliyaviy hisobotlari natijalarini milliy valyutaga o'tkazish (misol uchun, firmaning moliyaviy hisobotlarini jamlash vaqtida).

2. Tranzaksiya (bitimlar) riski – to'lovni kelajakdagi bir sanada amalga oshirishda, milliy valyuta qiymati yoki bitim daromadlilikining noaniqligini aks ettiradi. Bunga misol qilib, import qiluvchiga kredit taqdim etilgan holda, import qiluvchi valyutasida tovarlarni eksport qilishi uchun xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy risk – kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutada ifodalangan firma aktiv va majburiyatlarining milliy qiymati o'zgarishi. Bunga misol qilib, firmaning xorijiy bo'linma va filiallarining aktivi va majburiyatlarini ko'rsatish mumkin.

Valyuta risklarini boshqarish masalalariga quyidagilar kiradi:

- valyuta xavf-xatarlari darajasini aniqlash va o'lash;
 - risklarni boshqarish strategiyalarini tanlash;
 - valyuta risklarini kamaytirish;
 - valyuta risklarini sug'urtalash va hokazo masalalar.
- Valyuta risklari darajasini ikki usulda tushunish mumkin:
- shartnoma valyutasini to'g'ri tanlash;
 - valyuta pozitsiyasini boshqarish.

Tashqi iqtisodiy shartnomalarda shartnoma valyutasini to'g'ri tiklash usuli tomonlar kelishuviga asosan qo'llaniladi. Bunda valyuta kursining o'zgarishi qaysidir bir tomon uchun qulay bo'lgan holda shartnoma shu valyutada o'rnatiladi. Eksportchi uchun bunday valyuta "kuchli", ya'ni muddat o'tishi bilan kursi oshib boradigan valyuta qulay hisoblanadi.

Almashtirish kurslari bilan bog'liq riskning eng keng tarqalgan turi iqtisodiy valyuta riski hisoblanadi. Iqtisodiy valyuta riski valyuta almashtirish kurslarining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan kompaniya qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq. Aksiyalarning bozor narxining muomalaga chiqarilgan shu aksiyalar soniga ko'paytmasi kompaniya qiymati hisoblanadi. Aksiyaning bozor qiymati talab va taklifning bir-biriga teng bo'lgandagi qiymatidir.

Tashqi savdo yoki xorijiy davlatlar bilan hech qanday bitim bilan shug'ullanmaydigan kompaniyalar ham almashtirish kurslaridagi kutilmagan tebranishlar oqibatida iqtisodiy valyuta riskiga duch kelishi mumkin.

Operatsion valyuta riski valyuta riskining juda cheklangan va o'ziga xos shakli hisoblanadi. Biroq operatsion valyuta riski xarakati belgilangan miqdordagi avtomobilni sotib olish shartnomasi majburiyatlarida cheklangan, iqtisodiy valyuta riski esa, kelgusi rejalashtirilmagan importda ham keng tarqalgan. Ayrim hollarda shaxsiy mablag' yoki sof daromadning buxgalteriya qiymatida o'zgarishlari kompaniyaning bozor qiymati bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Biroq har doim ham bunday bo'lavermaydi. Buxgalteriya qiymati boshlang'ich qiymatga asoslanadi, bozor qiymati esa, pul mablag'lari tushumining kelgusidagi taxminiga ko'ra mo'ljallanadi.

Buxgalteriya va bozor qiymati ko'p hollarda bir-biridan farq qiladi. Aktivlarning bozor qiymati ularning tezda eskirishi oqibatida tezda pasayishi, o'zgarmay qolishi mumkin. Bozor sharoiti ayrim aktiv

turlarining (masalan, ko'chmas mulk) bozor qiymatini ko'tarishi mumkin. Kompaniya qiymatini bir valyutadan boshqasiga qayta hisoblaydi yoki buxgalteriya va bozor qiymati o'rtasidagi farqni oshiradi yoki kamaytiradi. Bu almashtirish kurslari o'zgarishi bilan bog'liq iqtisodiy omillarga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy valyuta riski tabiati operatsion va valyuta qayta hisoblash riskiga nisbatan birmuncha murakkabroqdir. Almashtirish kursiga kompaniyaning munosabati juda ko'p omillarga bog'liq. Iqtisodiy valyuta riskining aniq sonli ko'rsatkichlarini olish ancha qiyin bo'lganligi sababli tahlilchilar qiyosiy ma'lumotlar bilan chegaralanadilar.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini erkinlashtirish, modernizatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida valyuta kurslariga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'z navbatida, valyuta riski tarkibi quyidagicha tavsiflanadi:

a) tijorat, bunda qarzdorning majburiyatlarini bajarish istagi bo'lmasligi yoki bajara bilmasligi imkoniyati yo'qligi;

b) konversion (naqd) bunda aniq operatsiyalarda yo'qotiladigan valyuta nazarda tutiladi. Bunday risklar aniq bir ish amalga oshirilayotganda hisobga olinadi. Konversion risklarni kamaytirishning eng mos usullari quyidagilardan iborat:

Bugungi kunda tijorat banklarining valyuta risklarini tahlil etishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– xo'jalik operatsiyalari juda tez tugatilishi va moliyaviy beqarorlikni hamda ishlab chiqarish darajasi tushib borayotgan bir vaqtidagi iqtisodiy o'tish davrining inqirozli holati;

– BERI indeksi darajasi;

– bank tizimining shakllanib, takomillashib borayotganligi;

– amaldagi holatlarga to'g'ri kelmaydigan qonunchilik manbalari o'rtasidagi bir-biriga nomuvofiqlik, ba'zi bir qonun hujjatlarining etishmasligi yoki talablarga javob bermasligi;

– inflyatsiya va giperinflyatsiya holatlarini sodir bo'lish darajasi.

Muddatli bitimlar deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda muddatli bitimlarning quyidagi keng tarqalgan turlari mavjuddir. Ularga:

1. Forvard valyuta bitimlari.

2. Fyuchers bitimlari.
3. Valyuta opsiioni.
4. Svop operatsiyalarini ko'rsatish mumkin.

Valyuta xavf-xatarlari tashqi iqtisodiy shartnomalar samaradorligini ko'rsatuvchi ahamiyatli, ammo yagona omil emasligini ko'rsatadi.

Valyuta tavakkalchiligining alohida holati sifatida valyuta mablag'larini joylashtirish paytida vujudga keladigan valyuta avuarlarining qadrsizlanish tavakkalchiligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday tavakkalchilik turi bo'yicha valyuta zararlarini banklar singari, mijozlar va davlat ham ko'rishi mumkin.

Bu holda vujudga keladigan valyuta xavf-xatarlari mazmun jihatidan har qanday savdo-kredit operatsiyasidagi valyuta tavakkalchiligi singari bo'ladi, chunki valyuta mablag'larini joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalar kredit xarakteriga ega. Bu holda valyuta tavakkalchiligini hisobga olish xususiyatlari va uni sug'urtalash uslublari (valyuta mablag'larini joylashtirishda) tavakkalchilikni valyuta tavakkalchiligining alohida turiga ajratishga asos bo'ladi.

Eksportchi (kreditor), agar shartnomaning tuzilishi va u bo'yicha to'lovning amalga oshirilishi davri ichida baho valyutasining kursi uning milliy valyutasiga nisbatan pasaysa, zarar ko'radi. Importchi (debitor) uchun esa zararlar, kursning yuqoridagiga nisbatan qarama-qarshi xarakati natijasida paydo bo'ladi.

Xorijiy valyutalarda ifodalangan avuarlarni ushlab turgan shaxslar, mablag'larning xarakat davri mobaynida avuarlar hajmini salbiy tarafga qayta baholashga majbur. Bu esa, iqtisodiy nuqtayi nazardan, amalga oshirilmagan zararlarga kiradi.

Valyuta tavakkalchiligi, shartnoma ishtirokchisiga kelib tushgan tushumning rejalangan hajmiga nisbatan o'zgargan hajmi yoki uning amalga oshirayotgan to'lovlarini rejalangan hajmiga nisbatan o'zgargan hajmi sifatida amalga oshadi.

Valyuta tavakkalchiligi xalqaro savdo va kredit munosabatlarini qiyinlashtirib yuboradi, natijada mazkur munosabatlar ishtirokchilari valyuta xavf-xatarlarini o'rganish orqali ularni bartaraf etish yo'llarini qidira boshlaydilar.

Shunday qilib, valyuta cheklavlari bir qator hollarda kredit va savdo muvofiqlashtirilishi bilan chambarchas bog'lanib ketmoqda.

10.5. Xalqaro hisob-kitoblardagi risklarni boshqarish

Pul o'tkazishda yuzaga keladigan risk – hisob-kitob amaliyotida yuzaga kelib, xorijiy valyutada ifodalangan firma yoki bankning aktiv va majburiyatlarini milliy valyutaga o'tkazishda, ayirboshlash kursining davriy ravishda o'zgarib turishi. Agar milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta qimmatlashsa, u holda firma yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari, majburiyatlari va mol-mulki ham milliy valyutaga nisbatan qiymat jihatidan oshadi. Xorijiy valyuta ayirboshlash kursining qadrsizlanishi yuqoridagi holatning aksi bo'lib chiqadi.

Tranz aksiya (bitimlar) riski to'lashga yo'naltirilgan yoki to'lovga qabul qilingan xorijiy valyutada ifodalangan hisob bilan bog'liq moliyaviy riskdir. Ayirboshlash kursi tranzaksion ko'rinishga tegishli ravishda xedjerlash (sug'urtalash) orqali barham berilmagunga qadar, firmaning daromadiga, milliy valyutaga to'lovlarni qabul qilish va to'lash o'zgarishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

10.2-jadval

Risklarning asosiy turlari – tashqi savdoda ularni qisqartirish chora-tadbirlari⁵⁷

Risk	1. Kredit riski	2. Valyuta riski	3. Hududiy risk
ta'rifi	sotib oluvchini to'lovga noqobilligi yoki uni amalga oshirishni xohlamasligi	eksport qiluvchi yoki import qiluvchi holatiga salbiy tasir ko'rsatadigan, valyuta kursining o'zgarishi	import qiluvchi mamlakatda sodir bo'lgan siyosiy va iqtisodiy voqealar tasirida, sotuvchiga to'lovni vaqtincha amalga oshirmaslik
riskni qisqartirish choralari	a) akkreditivlardan foydalanish	a) forward valyuta xedjerlashdan foydalanish	a) tasdiqlangan akkreditivlardan foydalanish
	b) naqd depozitlarni olish	b) opsiyon bozorida fyucherslardan foydalanish	b) eksport kreditlarini sug'urtalash
	d) eksport kreditlarini sug'urtalash	d) o'z valyutasida chek yozish	
		e) shartnomaviy ta'minot	

⁵⁷ Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Tijorat banklari barqaror siyosatni amalga oshirish maqsadida doimiy ravishda o'z mijozlaridan ayirboshlash kursining kutilmagan o'zgarishlaridan yuzaga keladigan zararlarning oldini olishi uchun ularni xedjerlashni tavsiya qiladi.

Banklar o'z mijozlari qatori risklarni minimallashtirish manfaatini ko'zlaydi. Foiz risklari holatida xalqaro banklar va firmalar, odatda, ayirboshlash kursini taxminlashtirishga juda ko'p vaqt va xarakat sarflaydi. Ayirboshlash kurslarini taxminlashtirish milliy (ichki) foiz stavkalarini baholashda ancha murakkab hodisa ekanligini isbotlab berdi. Bunga asosiy sabab har qanday davlatda ichki foiz stavkalariga nisbatan ayirboshlash kurslarining juda ko'p miqdordagi murakkab o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligidir.

Ayirboshlash kurslari va stavkalarini taxminlashtirishga qiziqish va o'z navbatida xorijiy valyutalar pozitsiyasini "ochiq" qoldirish (xedjerlamaslik) korporativ xazinachilikda yuqori bo'lib turibdi, bu esa ba'zida salbiy natijalarga olib keladi.

Tijorat banklaridagi valyutani ayirboshlash bo'linmalari ham, odatda, ochiq pozitsiyalarni ushlab turishga xarakat qiladi: "uzun" pozitsiyani (xorijiy valyuta zaxiralarini ko'paytirish) yoki "qisqa" pozitsiyani (xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytirish) qoldiradi. Bu holat, odatda, bank iqtisodchisi yoki bosh valyuta dileri tomonidan tayyorlangan va yuqori rahbariyat tomonidan ma'qullangan "bog'liq" valyutani taxminlashtirishga asoslangan maqsadli risklarni qabul qilishdir.

Bu esa, o'z navbatida, bank uchun katta xatar keltiradi. Shunday qilib, valyuta savdosida bank menejmenti uchun eng samarali siyosat quyidagilar hisoblanadi:

a) mijozlar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan (savdo bitimlari asosidagi) tijorat tranz aksiyalari uchun valyuta bitimlarini cheklash;

b) korporativ mijozlar tomonidan doimiy ravishda talab qilinadigan valyuta kassalari uchun overnayt amaliyotida qat'iy cheklovlar o'rnatish hamda asosiy konvertirlanadigan valyutalar uchun limitlarni belgilash;

d) bankning valyuta savdosida faol bo'lgan barcha korporativ va boshqa mijozlar uchun bankning ish vaqti va overnayt vaqtida valyutani ayirboshlashga limitlar, shuningdek, ularning faoliyati ustidan monitoring o'rnatish.

Valyuta cheklanishlari valyuta siyosatining shakllaridan biri sifatida muntazam ravishda ishlatiladi. Valyuta cheklanishlari – rezident va norezidentlarning valyuta va boshqa valyuta qimmatliklari bilan operatsiyalarini qonunchilik yoki ma'muriy jihatdan ta'qiqlash, limitlash va cheklashdir⁵⁸. Valyuta cheklanishlari, rezident va norezidentlar valyuta operatsiyalarini tekshirish orqali valyuta qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydigan valyuta nazoratining tarkibiy qismidir.

Valyuta cheklanishlari mavjudligida valyuta nazorati jarayonida listenziya va ruxsatnomalarning bor-yo'qligi, rezidentlar tomonidan milliy valyuta bozorida xorijiy valyutalarning sotilishi bilan bog'liq talablarning bajarilishi, xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslanganligi, valyuta operatsiyalari bo'yicha hisobni yuritish va hisobotning sifati tekshiriladi. Valyuta cheklanishlari mavjudligida valyuta nazorati funksiyalari, odatda, Markaziy bankka yuklatiladi, ayrim davlatlarda esa buning uchun maxsus organlar tashkil etiladi (masalan, Fransiya ikkinchi jahon urushidan so'ng).

Valyuta siyosatining turli-tumanligi sifatidagi valyuta cheklanishlari quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- 1) to'lov balansini birxillashtirish;
- 2) valyuta kursini qo'llab-quvvatlash;
- 3) joriy strategik vazifalarni bajarish uchun davlat qo'lida valyuta qimmatliklarining to'planishi.

Valyuta blokadasining mohiyati xorijiy banklarda saqlanayotgan ushbu davlat valyuta qimmatliklarini muzlatib qo'yish va kamsituvchi valyuta cheklovlarini qo'llashdan iboratdir. Ikkinchi jahon urushi davrida va urushdan so'ng Buyuk Britaniya sterling hududi davlatlarining xorijiy valyuta (asosan funt sterling) saqlanayotgan bank hisobvaraqlarini muzlatgan. Ushbu hisobvaraqlardagi mablag'lar faqat zikr etilgan valyuta guruhi a'zosi bo'lmish davlatlar orasidagi hisob-kitoblarda ishlatilishi mumkin edi.

To'lovi kelgusida amalga oshishi ko'zda tutilgan, shartnoma tuzilish paytida ma'lum bir summada qayd etilgan har qanday kredit operatsiyasi, shartnoma valyutasi ishtirokchi uchun xorijiy bo'lgan tarafning valyuta xavfiga chalinadi. Kreditor, xorijlik kontragentlariga

⁵⁸ Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. – М.: ФинС, 2001.

kreditni bergan holda, qiymatni ekvivalent miqdorda ololmaslik xavfiga uchraydi. Qarz oluvchi ham, agar to'lov paytida qarz valyutasining kursi shartnoma tuzilgan sanaga nisbatan ko'tarilsa, zarar ko'rishi mumkin.

Eksportchi va importchilar, valyuta tavakkalchiligi bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda to'qnashadilar. Eksportchi, agar u tovarlarni to'lovi kechiktirilgan holda sotgan bo'lsa va baho valyutasi sifatida importchi valyutasi yoki uchinchi davlat valyutasi olingan bo'lsa, valyuta riskiga duchor bo'ladi. Agar baho valyutasining kursi eksportchi milliy valyutasiga nisbatan pasaysa, unda eksportchi zarar ko'rishi mumkin.

Importchi uchun valyuta tavakkalchiliklari quyidagi holatlarda vujudga keladi: agar tovarlar, bahosi xorijiy valyutada qat'iy belgilanib, sotib olinayotgan bo'lsa. Bunda, agar xorijiy valyutaning kursi importchi valyutasiga nisbatan ko'tarilsa, unda importchi tomonidan sotib olingan tovarlar uchun haq to'lashda, milliy valyutada ko'proq xarajat qilinishiga to'g'ri keladi.

Xalqaro iqtisodiy shartnomalar ishtirokchilari uchun yuzaga keladigan valyuta risklarining asosiy sabablari sifatida quyidagi omillarni ko'rsatishimiz mumkin:

- ochiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi;
- shartnomada valyuta sifatida xorijiy valyutadan foydalanish;
- shartnoma tuzilgan vaqt bilan uning amalga oshirilish vaqti orasida ma'lum muddatning mavjudligi.

Valyuta risklari shartnoma tuzilgan kun bilan to'lovning amalga oshirilish kunigacha bo'lgan davr mobaynida milliy valyuta kursining shartnoma valyutasi kursiga nisbati orqali aniqlanadi. Valyuta kurslari qanchalik beqaror bo'lsa, valyuta xavf-xatari shunchalik yuqori bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan valyuta xavf-xatarlari namoyon bo'lishi shart-sharoitlari, eng avvalo, tashqi savdo va kredit shartnomalari bilan bog'liq bo'lgan konkret valyuta operatsiyalari uchun tegishli. Ular uchun xarakterli narsa shundaki, valyuta xavf-xatari tashqi iqtisodiy shartnomalar ishtirokchilari uchun real valyuta yo'qotishlari olib kelishi mumkin. Bunday valyuta risklarini birinchi turdagi valyuta risklari turiga, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, naqd valyuta yo'qotilishi xavf-xatariga kiritish mumkin.

Valyuta risklarining ikkinchi turi tashqi savdo sharnomalari bilan bevosita bog'lanmagan valyuta risklaridir. Bu valyuta xavf-xatari bank balansining xorijiy valyutada ifodalangan aktiv va passiv modellarini qayta baholagan vaqtda, shu jumladan, xorijdagi filiallarining milliy valyutadagi foydalarini qayta baholaganda yuzaga keladi.

Valyuta risklarining bu ikki turi hisoblarda turlicha aks ettiriladi. Valyuta risklarining birinchi turida rejalashtirilgan tashqi iqtisodiy operatsiyalarning natijalari amalga oshirilgan operatsiyalar natijalaridan farq qiladi. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan qaraganda bunday holat amal qilmaydi va moliyaviy hisobotlarda ham aks ettirilmaydi. Masalan, "tuzilgan shartnomalar, lekin amalga oshirilmagan" degan modda hech yerda uchramaydi. Valyuta risklarining birinchi turi faqatgina tahliliy hisoblar tizimidagina hisoblanishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Valyuta riski tushunchasiga ta'rif bering.
2. Valyuta operatsiyalari nima?
3. Valyuta pozitsiyasi nima?
4. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun qanday litsenziyalar beriladi?
5. Valyuta cheklovlarining turlari?
6. Banklar tomonidan beriladigan kafillik qanday ahamiyat kasb etadi?
7. Banklar likvidli aktivlarining turlari qanday?
8. Kredit siyosati va kredit portfelinining farqini ayting.

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Inflyatsiya	Инфляция	Inflation	Tovar muomalasiga nisbatan qog'oz pul massa-sining ortiqchaligidir.
Monetar siyosat	Монетарная политика	Monetary policy	Makroiqtisodiy sharoitlarga ta'sir ko'rsatish uchun davlat tomonidan ishlatiladigan instrument.
Depozit –	Депозит	Deposit	Lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi-saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi.
Bankning aktiv operatsiyalari	Активные операции банка	The active operations of the bank	Banklarning kelajakda daromad olish maqsadida jamlangan kredit mablag'larini kreditlarga va investitsiyalarga joylash-tirilishi va boshqa maqsadli operatsiyalaridir.
Tijorat banklari-ning kredit siyosati	Кредитная политика коммерческого банка	The credit policy of the commercial bank	Banklarning kredit risklarini kamaytirish va kredit operatsiyalarining daromadlilikini ko'paytirish maqsadida amalga oshiradigan kompleks tadbirlari majmuasidir.

Bank likvidiligi	Ликвидность банка	Bank Liquidity	Banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.
Majburiy zaxiralar siyosati	Политика обязательных резервов	The policy of mandatory reserves	Tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir. 2009-yilda bank tizimini isloh qilish jarayonida birinchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi PQ-1166-sonli qaroriga asosan pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda va tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida 2009-yilning 1-sentabridan boshlab tabaqalashtirilgan majburiy zahiralar normasi joriy etildi.
Bank krediti	Банковский кредит	Bank loan	Banklar pulni uning sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz olishdir.
Valyuta bozorlari	Валютный рынок	Currency market	Bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir. Valyuta bozor - xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari bo'yicha

			operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasidir.
Valyuta operatsiyalari	Валютные операции	Currency operations	Chet el valyutalari va valyutaviy qimmatliklarga mulk huquqini almashinishi bilan bog'liq operatsiyalari.
Kredit ekspansiyasi	Кредитная экспанция	Credit expansion	Mamlakatning ssuda kapitali bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi va buning oqibatida, kredit qo'yilmalari hajmining keskin ko'payishidir.
To'lov balansi	Платежный баланс	Payment balance	Mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to'lovlarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Aktiv to'lov balansi - to'lov balansida tushumlar summasi to'lovlar summasidan ortiq bo'ladi.
Foiz stavkasi	Процентная ставка	Interest rate	Qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to'laydigan to'lovidir.
Bank aktivlari	Банковские активы	Bank assets	Bank balansining aktiv qismida joylashgan moddalarining sifat nuqtayi nazaridan uning umumiy miqdoridagi ulushi tushuniladi.

Umumiy zaxiralar	Общие резервы	General reserves	Bunday zahiralar kredit portfeli uchun tashkil etiladi. Umumiy zaxiralar kredit portfeliga xos bo'lgan yashirin tavakkalchilikdan himoya qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular odatda ssuda bo'yicha qarz-dorlik summasiga nisbatan foizda belgilanadi.
Trast operatsiya- lari	Трастовые операции	Trust business	Bank mijoz topshirig'i bilan ma'lum mulkni, pul, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash, o'tkazish va boshqarishni o'z zimmasiga oladi.
Banklararo kredit	Межбанков- ский кредит	The interbank loan	Boshqa tijorat banklaridan olingan kredit.
Bozor riski	Рыночные риски	Market risks	Qimmatli qog'ozlar narxini o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risk majmuyi.
Umumiy usullar	Общие методы	General methods	Bank risklarning miqdorini uni daromadlariga bog'liq ravishda baholash va bashorat qilish hamda bank likvidligiga nisbatan belgilangan iqtisodiy normativlarni bajarish kiradi.
Xususiy usullar	Частные методы	Private methods	Har bir bank operatsiyasi bo'yicha risk aniqlash va baholash usullari kiradi.
To'lovga layoqatlilik	Платежеспо- собность	Solvency	Bank zarur muddatlarda kredit-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la

			summada bajara olish layoqatini bildiradi.
Likvidlilik	Ликвидность	Liquidity	Aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning asosan amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan foydalanish likvid aktivlarni sotish imkoniyati va hokazolarni anglatadi.
Joriy likvidlilik	Текущая ликвидность	Current liquidity	Likvid shakldagi balans aktivlari bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan va muddati 30 kungacha bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi.
Risk	Риск	Risk	Bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimoli.
Noaniqlik	Неопределенность	Uncertainty	Mo'ljallangan loyihalarni, faoliyatni amalga oshirish shartlari haqida hamda ular bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va olingan natijadagi mavhumlikdir.
Iqtisodiy risk	Экономический риск	Economic risk	Umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida ishlab chiqarish shakllarining oqilona uyg'unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmuyi.

Ijtimoiy-siyosiy risk	Общественно-политический риск	Socio-political risk	Umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, davlatning narxni shakllantirish siyosatiga, shuningdek, mulk va intellektuai boylik jamg'armalarining manbalarini aholining barcha guruhini umumiy tavsifdagi risklardan ijtimoiy himoyani ta'minlashga; daromadlarning adolatli taqsimlanishiga; ishsizlikni qisqartirishga; taklif yoki talabning jismoniy hajmlarini narx va boshqalar orqali tartibga solishga safarbar etish va jamlash bo'yicha masalalarni yechishga aralashuvida yuzaga keladigan risklar majmuyi tushuniladi.
Fiskal-monetar risk	Фискал-монетар риск	The spy-risk moneyer	Davlat o'tkazayotgan moliyaviy va budjet siyosati yordamida, narxlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining ta'minoti va konyunkturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuasidan iborat.

BERI indeksi	Индекс БЕРИ	Index BERI	Mamlakat iqtisodiy risklari hajmini belgilovchi ko'rsatkich.
Makro darajadagi iqtisodiy risk	Макроэконо- мический риск	Macroeco- nomic risk	Tashqi va ichki, oldindan aytib bo'ladigan va aytib bo'lmaydigan mamlakat miqyosida yuzaga keluvchi risklar majmuyi hisoblanadi.
Mezo darajadagi iqtisodiy risk	Риск на мезо уровне	Risk at the meso level	Sanoat, agrar va xizmat ko'rsatish sohasi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar majmuyi.
Mikro darajadagi iqtisodiy risk	Риск на микроэконо- мическом уровне	The risk at the macro level	Sanoat, firmaning xo'jalik faoliyati — tadbirkorlik va investitsiyalash jarayonida yuzaga keluvchi risklar.
Bank riski	Банковские риски	Banking risks	Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatida moliya bozoridagi iqtisodiy konyekturaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko'rish xavfi tushuniladi.
Kredit riski	Кредитный риск	Credit risk	Kreditlarni qaytmasligi natijasida zarar ko'rish xavfidir.
Foiz riski	Процентный риски	Interest rate risk	Foiz stavkalarini tebranishi natijasida zarar ko'rish ehtimolini bildiradi.
Likvidlik riski	Риск ликвидности	Liquidity risk	Tijorat banklarining likvidligini pasayishi bilan bog'liq risklardir.
Transforma- tsiya riski	Трансформа- ционный риск	Transformati- onal risk	Banklar tomonidan berilgan kreditlar bilan ularning manbalarining muddati o'rtasidagi nomunofiqlikning yuzaga kelishi tushuniladi.

Valyuta riski	Валютный риск	Currency risk	Valyuta kurslarining tebranishi natijasida banklarning zarar ko'rish xavfi tushuniladi.
Hisob-kitob riski	Расчетный риск	Settlement risk	Hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida valyuta kurslarining o'zgarishi foiz stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq.
Kredit siyosati	Кредитная политика	Credit policy	Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda banklarning tutadigan strategiya va taktikasidir.
Retrospektiv risk	Ретроспективный риск	Retrospective risk	Bank faoliyatining o'tgan davrdagi turli risklarga bog'liqligini va joriy va istiqboldagi risklarni baholash imkonini beruvchi risklar majmuyi.
Kreditlash strategiyasi	Стратегия кредитования	lending Strategy	Kredit siyosati borasida biron bir bankning moliya bozoridagi mazmunli, maqsadli va aniq tamoyillarga kredit munosabatlari hisoblanadi.
Kredit paketi	Пакет кредитования	Loan Package	Kreditlash jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar majmuasi tushuniladi.
Kreditga layoqatlilik	Кредитоспособность	Creditworthiness	Mijozning bank va bank kreditorlar oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qaytirishiga tayyorligi va qodirligidir.
Risk koeffitsiyenti	Коэффициент риска	Risk factor	Mumkin bo'lgan yo'qotishlarning maksimal summasini o'z mablag'lari nisbatini ifodalaydi.
Risksiz zona	Безрисковая зона	Risk-free zone	Yo'qotishlar darajasi "0" ga teng bo'lgan zonadir.

Kreditni ta'minlash bilan bog'liq risk	Риски связанные с обеспечением кредита	The risks associated with the loan provision	Riskni alohida ko'rib bo'lmaydi. Bu kreditni qaytarmaslik orqali paydo bo'lgan risk bilan birgalikda o'rganiladi. Bu risk turini kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan tushgan mablag' ajratilgan kreditni qoplash uchun yetarli emasligi bilan bog'liqdir, natijada bank o'z talabini to'liq qondira olmaydi;
Foydalilik-riski	Риск полезности	Utility risk	Bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda me'yorini cheklashidir.
Ta'minlanmagan kreditlar	Необеспеченные кредиты	Unsecured loans	Biror-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar.
Sug'urtalash	Страхование	Insurance	Bankning amalga oshirayotgan operatsiyalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ma'lum bir sug'urta badali asosida sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rilgan zararni qoplab berish shartnomasini tuzish.
Garov	Залог	Collateral	Ko'chmas va ko'char mulklarni kredit ta'minoti sifatida qo'yilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2018
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. “Adolat” 1998
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T. : “O'zbekiston”, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T. : “O'zbekiston”, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni, 2019-yil 14-dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni T. : “O'zbekiston”2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi “O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni. / Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2017. - 108 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9- yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-5296-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23- martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-3620-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 29- dekabr 2020-yil.
11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. //Xalq so'zi. 14.01.2017-y.
12. Gali, Jordi. Monetary Policy, Inflation, and the Business Cycle: An Introduction to the New Keynesian. Framework. Princeton, NJ: Princeton University Press, 2008.
13. Kenneth Spong. Banking regulation. Its Purposes, Implementation and Effects. Fifth Edition. Federal Reserve Bank of Kansas City. 2000.-281 p.
14. Shelagh Heffernan. Modern banking.– London, John Wiley & Sons, Ltd. 2005.-716 p.
15. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - T. :Iqtisod-moliya, 2010.

16. Булатов А. Мировая экономика.-М.:Юрист, 1999.-с.208
17. Е.Жуков. Банки и банковские операции.-М.:ЮНИТИ, 1997.-с.410
18. Красавина Л.Н. "Международные валютно-кредитные и финансовые отношения" Москва "ФиС" 2001г.с 564.
19. Лаврушин О.И., Банковский менеджмент. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 560 стр.
20. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Учебник / под ред. Л.Н. Красавиной - М.: Финансы и статистика, 2016 г. – С. 540
21. Мовсесян А.Г., Огнивцев С.Б. Международные валютно-кредитные отношения. Учебник – М.: Инфра, 2005 г. – С. 135
22. Н.В.Самодурова. Всемирный банк: кредитование экономики. Москва. «Финансы и статистика».2003г. 24 стр.
23. С.Р.Моисеев. Международные валютно-кредитные отношения. Учебное пособие.Москва. «Дело и Сервис».2003. 562 стр.
24. Xorijiy mamlakatlarda bank ishi. E.T. Qodirov., J.K. Majidov. O'quv qo'llanma/ T. 2016. 184 bet.
25. European Central Bank Report 2007. –Fr/M., 2008.
26. Bankers Almanac: World Ranking / RBI. 2004.
27. The World Bank Annual Report 2002.–Washington, 2002.–P. 47.
28. The IMF Annual Report 2002. – Washington, 2002. –P. 84.
29. "The Impact of Bank-specific Factors on the Commercial Banks Liquidity; Empirical Evidence from CEE Countries" by Angela Roma "Procedia Economics and Finance" 2015
30. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
31. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
32. www.economist.com
33. www.bank.ru
34. www.cbu.uz
35. www.lex.uz
36. www.ziyounet.uz
37. www.finance.uz
38. www.ereport.ru - Обзорная информация по мировой экономике

**Toymuhamedov Ibrohim Rixsibayevich,
Tojiyev Rahmatilla Rahmonovich,
Sattorova Nasiba G'anijon qizi**

XALQARO BANK ISHI VA MOLIYA

(O'quv qo'llanma)

**Toshkent – “Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi” – 2021**

Muharrir:	N. Ibragimova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
Nashr.lits. 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 08.10.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 25.06.2021.

Bichimi 60x84 1/16. “Timez Uz” garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 25,5. Nashriyot bosma tabog'i 25,0.

Tiraji 100. Buyurtma № 62.

**“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**